TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

“O‘ZBEKISTON DEMOGRAF OLIMLARI” UYUSHMASI

O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 22-oktyabr

Toshkent - 2026

“O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari: muammolar va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. –T.: TDIU 2026. – 512 b.

Ushbu to‘plam «O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari: muammolar va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallaridan iborat bo‘lib, AL-9124104481-sonli “GAT texnologiyasi asosida O‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid xarita ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida globallashuv davrida mehnat migratsiyasining rivojlanish tendensiyalari, migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, hududlarda bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish, mehnat migrantlari malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish, pul o‘tkazmalarining aholi turmush darajasiga ta’siri, shuningdek, mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari kabi masalalarga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlar aks ettirilgan materiallar bayoni keltirilgan.

To‘plamga migratsiya, demografiya va mehnat iqtisodiyoti muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan yetakchi xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot muassasalarining mutaxassislari va ilmiy xodimlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalari, shuningdek, vazirlik, idora va korxonalarning rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar, keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir: i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Tahrir hay’ati:
i.f.d., prof. B.X. Umurzakov
i.f.d., prof. A.S. Usmanov
i.f.d., prof. A.M. Qodirov
i.f.d., prof. F.I. Isayev

Taqrizchilar:
i.f.d., prof. D.N. Raximova
i.f.d., dots. S.P. Qurbonov

Tashkiliy guruh a’zolari:
M.O. Hamrokulov
M.I. Asqarova

© “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2026-yil

KIRISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan “O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari: muammolar va yechimlar” mavzusida tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi AL-9124104481-sonli “GAT texnologiyasi asosida O‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid xarita ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasini ijro etishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Prezidentimiz tomonidan izchil olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosatning zamirida aholi sonining o‘sishi, uning bandligi hamda turmush sifati va darajasini oshirish eng dolzarb masalalar qatorida turadi. Aynan shu masalalar migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq: mehnat resurslarining ichki va tashqi harakati hududlardagi bandlik holati, daromadlar darajasi va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi va shu orqali zamonaviy mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash maqsad qilib olingan. Bu maqsadlarga erishishda mehnat migratsiyasini tartibga solish, migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi iqtisodiy o‘sish, bandlik va mehnat resurslarining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Raqamli transformatsiya va texnologik o‘zgarishlar ishchi kuchiga qo‘yiladigan malaka talablarini yangilab, migrantlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishni, shuningdek, hududiy mehnat bozorlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Hududlarda sifatli ish o‘rinlari yaratish va inson kapitalining samaradorligini oshirish ichki va tashqi migratsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirishga hamda mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirishga yordam beradi.

Konferensiya ishi quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

1. Mehnat migratsiyasi globallashuv davrida;
2. Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
3. Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi munosabatlari;
4. Mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya.

Bunda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni ta’minlash doirasida bir qancha maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirish aholi bandligini ta’minlash, mehnat bozori samaradorligini oshirish va migratsiya jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish bilan bog‘liqdir. Pirovardida barcha masalalar aholi farovonligini oshirishga borib taqaladi. Shunday ekan, professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar, ilmiy xodimlar va izlanuvchilar o‘zlarining ilmiy-amaliy takliflari bilan konferensiyada ishtirok etdilar.

Mazkur konferensiyani tashkil etish va o‘tkazishga o‘z hissasini qo‘shgan barchaga tashakkurimizni izhor etamiz. Umid qilamizki, bunday konferensiyalar “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazida har yili an’ana tarzida tashkil etib boriladi.

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi direktori, i.f.d., prof. ***Xudoyqulov Sadirdin Karimovich***

MUNDARIJA

1-SHO‘BA
GLOBALLASHUV DAVRIDA MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARI

Umurzakov Baxodir Xamidovich
O‘zbekistonda migratsiya siyosatini yagona tizim asosida shakllantirish: konsepsiya va ustuvor yo‘nalishlar..... **12**

Усмонов Анвар Саидмахмудович
Ўзбекистонда миграция оқимларининг ҳудудий қайта тақсимланиши ва урбанизация жараёнларига таъсири..... **16**

Абдуллаев Равшан Вахидович
Современные тенденции в процессах трудовой миграции в Узбекистане в условиях глобализации..... **20**

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna
Globallashuv sharoitida ayollar mehnat migratsiyasining shakllanish omillari va ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri..... **23**

Шоев Алим Халмуратович
Динамика трудовой миграции в центральной азии в условиях глобализации..... **27**

Nomozov Xurshid Shavkat o‘g‘li
Global axborot makonida yosh mehnat migrantlarining ijtimoiylashuvi va milliy identikligini saqlash: zamonaviy tendensiyalar..... **31**

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li, Rustamova Muhlisa Ulug‘bek qizi
Qishloqdan shaharga migratsiya va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik..... **35**

Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Камолиддинова Феруза Мирзохид кизи
Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор социально-экономического развития Узбекистана..... **39**

Rahmatova Nargizaxon A’zamxonovna, Atoyev Navro‘zbek Rinatovich
Globallashuv sharoitida O‘zbekistondagi migratsiyaning umumiy tahlili va istiqbolli yo‘nalishlari..... **42**

Muzrapova Shahnoza Saydullayevna
Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi infratuzilmasiga xizmat qiluvchi investitsion mulk hisobini MHXS asosida takomillashtirish..... **47**

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li
Mehnat migrantlari malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish yo‘nalishlari..... **50**

Abdulazizova O‘g‘iloy Nuriddinxo‘ja qizi
Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda huquqiy islohotlarning roli: global tajriba va tendensiyalar..... **54**

Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li
Hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati..... **57**

Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzod qizi
Innovative management strategies of export-oriented enterprises as a factor of reducing external labor migration in the context of globalization..... **61**

Sobirova Muxlisa Sherali qizi
Globallashuv davrida xalqaro faktoring xizmatlarining eksportda tutgan o‘rni..... **65**

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li, Nasrullayeva Dilnoza
Remittances from labor migrants and household welfare in Uzbekistan..... **69**

Салиханов Алишер Саидханович
Трудовая миграция и денежные переводы: экономическая динамика Узбекистана..... **73**

Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
Ўзбекистонда ёшлар меҳнат миграциясининг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари ва ривожланиш тенденциялари..... **76**

Tursunova Shaxnoza Farxod qizi
*Globallashuv davrida mehnat migratsiyasi va xalqaro mobillik sharoitida O‘zbekistonning turistik jozibadorligini raqamli marketing vositalari orqali oshirish..... **80***
Maksudov Mashxurbek, Chinibekova Ruxshona Baxodir qizi
*O‘zbekistonda mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish orqali norasmiy bandlikni qisqartirishning iqtisodiy mexanizmlari..... **83***
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o‘g‘li
*Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mehnat migratsiyasining o‘rni: O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy tahlili..... **87***
Qayumova Muborak Abzal qizi
*Mehnat migratsiyasi va inson kapitalining xalqaro harakati..... **91***
Abduraxmonov Azizbek Akram o‘g‘li
*Xorijiy investitsiyalar - globallashuv davrida malakali mehnat migratsiyasini shakllantiruvchi omil sifatida..... **94***
To‘laganova Feruza Xamidulla qizi
*Migratsiya jarayonlari sharoitida hududlar iqtisodiy rivojlanishini soliq mexanizmlari vositasida rag‘batlantirish..... **98***
Azimova Mohinur Nozimovna
*O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi geografiyasi va hududiy aeroportlarning xalqaro transport aloqalari..... **102***
Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
*Mehnat migratsiyasi oqimlarining milliy mehnat bozori va ishsizlik darajasiga ta’siri..... **104***
Bahodirov Jahongir Bahodir o‘g‘li
*O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalari: iqtisodiy o‘sish manbaimi yoki tashqi zaiflik omili..... **107***
Гафурова Зебохон Дильшод кизи
*Трудовая миграция как фактор устойчивого экономического роста в условиях глобализации..... **110***
Bahromova Barchinoy Bahrom qizi
*Mehnat migratsiyasi va yoshlar bandligi: O‘zbekiston va Germaniya tajribasi..... **112***
Nabiyev Shoyatbek
*Mehnat migratsiyasi va uy xo‘jaliklarining investitsion faolligi: O‘zbekiston va Filippin tajribasi..... **115***
Nomozova Marjona Olim qizi
*Ichki migratsiyaning yirik shaharlar mehnat bozoriga ta’siri: Toshkent va Istanbul tajribasi..... **118***
O‘rolov Nurbek Oybekovich
*Mehnat migratsiyasi va raqamli ko‘nikmalar: O‘zbekiston va Estoniya tajribasi..... **121***
Маматкулова Эъзоза
*Трудовая миграция и доходы сельского населения: опыт Узбекистана и Кыргызстана..... **125***
Fayzullajon Ne’matov Shukurullo o‘g‘li, Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li Xamdamov
*O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasining aholi daromadlariga ta’siri..... **128***
Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
*Globalashuv sharoitida mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirish: inson kapitali, pul o‘tkazmalari va qaytish migratsiyasining roli..... **131***
Ibragimova Munira Mirzodayevna
*Mehnat migratsiyasi va kambag‘allikni qisqartirish: O‘zbekiston va Qirg‘iziston tajribasi..... **134***
Maxmudov Muhammadrasul Hamidullo o‘g‘li
*Mehnat migratsiyasi va inson kapitali rivoji O‘zbekiston va Janubiy Koreya tajribasi..... **138***
Mirzausmonov Nurbek
*The impact of labor migration on the development of regions of Uzbekistan..... **141***
Ergasheva Rayhon Erkinovna, Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
*Hududiy ish haqi tafovutlari va ichki mehnat migratsiyasi: O‘zbekiston tajribasi..... **144***

Abdurahmonov Sardor
The impact of global economic changes on labour migration in Uzbekistan..... **147**
Saburova Sevinch Ravshanbek qizi, Xamdamov Shohjaxon Raxmat o'g'li
Labour migration and wage differentials in Uzbekistan..... **151**
Kaxramanov Xasan Baxtiyarovich, Xamdamov Shohjaxon Raxmat o'g'li
Labor migration and the formation of human capital in Uzbekistan..... **155**
Muxammedova Malika Jasurjon qizi
Qishloqdan shaharga migratsiya va ish haqi: O'zbekiston va Xitoy tajribasi..... **158**
Ibrohimova Dildora Sa'dulla qizi
Mehnat migratsiyasi qarorini belgilovchi omillar: mikroiqtisodiy yondashuv..... **161**
Norbutayev Ibroxim
O'zbekistonda raqamli to'lovlar va naqd pul: migratsiya davridagi to'lov odatlari..... **165**
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
Tashqi mehnat migratsiyasining O'zbekiston mehnat bozori hamda ishsizlik darajasiga ta'siri tahlili..... **168**

2-SHO'BA
MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
Mehnat migratsiyasini boshqarishda soliq mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari..... **171**
Ғойипназаров С.Б., Бакиева И.А.
Ёшлар миграцияси: сабаблари, тенденциялари ва ижтимоий-иқтисодий оқибатлари..... **173**
Алимухамедов Ботир Бакиевич
Перспективы развития трудовой миграции из республики Узбекистан в Российскую Федерацию..... **178**
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, Bahriddinova Muazzam Azam qizi
Global gender GAP INDEX 2026: O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy ishtiroki va mehnat bozoridagi gender tafovutlari..... **182**
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Ахмедова Фотимахон Муродхон кизи
Использование зарубежного опыта стратегического управления человеческими ресурсами в целях повышения конкурентоспособности предприятий Узбекистана..... **186**
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Сафаева Зульфия Анваровна
Цифровая трансформация аудиторских организаций в условиях «Узбекистан - 2030»..... **189**
Нуруддинова Адиба Газиевна
Легализация неформальной занятости - как механизм обеспечения социальной защищенности..... **193**
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна
Управление миграционными процессами как фактор стимулирования инвестиций в человеческий капитал..... **198**
Rahmatova Nargiza A'zamxonovna, Ahmadjonov Ibrohimjon Ahadjon o'g'li
Demografik jarayonlar: ichki migratsiyaning urbanizatsiya va iqtisodiyotga ta'siri..... **201**
Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna
Intellektual resurslar migratsiyasi sharoitida korxonalarning innovatsion faoliyati va raqobatbardoshligini institutsional boshqarish mexanizmlari..... **204**
Абдулов Дамир Рустамович
Цифровая трансформация корпоративного управления и налогового администрирования как фактор совершенствования управления миграционными процессами в Узбекистане..... **207**

To‘xtaeva Xurshida Farxodovna
Tashqi mehnat migratsiyasini qisqartirishda turizm sohasida yangi ish o‘rinlari yaratishning ahamiyati..... ***210***
Nazarov Nazirjon Narzilloyevich
Migratsiya jarayonlarini boshqarishni hududiy barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirishning metodologik asoslari..... ***214***
Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li Xamdamov, Nomozova Ruxshona Ruziqulovna
Mehnat migratsiyasini boshqarishda davlat xizmatlarini raqamlashtirish..... ***217***
Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi
Namangan viloyati bo‘yicha demografik dividentni baholash..... ***222***
Махкамова Шахло Юлчиевна
Миграцияни бошқариш жараёнларида пенсия жамғармасининг аҳамияти..... ***225***
Eshbadalova Muattar Xoliyorovna
Investitsion loyihalarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullarini takomillashtirish..... ***228***
Berdiklichev Mardan Jaxangirovich
Ichki va tashqi migratsiya jarayonlarida telekommunikatsiya infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyati va uni moliyalashtirish masalalari..... ***231***
Karatayev Miraziz Nurmuxammadovich
Hududiy bandlikni barqarorlashtirishda kichik biznesning soliq rejimiga moliyaviy moslashuvi: migratsiya jarayonlari nuqtayi nazaridan..... ***234***
Olimxonova Dilnoza Abdurashidovna
O‘zbekiston respublikasida migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning metodologik yondashuvlari..... ***237***
Qalandarova Naima Axmadjonovna
Loyiha menejmentida inson kapitali va liderlik omillarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri..... ***241***
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li, Fazlitdinov Shamsiddin Shahobiddin o‘g‘li
O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari..... ***244***
Шермухамедов Акмал Комилжонович
Совершенствование системы управления миграционными процессами Узбекистана..... ***248***
Шермухамедов Акмал Комилжонович, Отениязова Улсанем Улугбек кизи
Совершенствование управления миграционными процессами в условиях урбанизации и уроки для Узбекистана..... ***250***
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi
O‘zbekistonda ichki mehnat migratsiyasini faollashtirish va hududlararo bandlik nomutanosibligini kamaytirish yo‘llari..... ***253***
Pardaboyev Navro‘z Toshpulot o‘g‘li
Shaharlarda demografik o‘sish sharoitida avtobuslar uchun alohida yo‘laklar tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi..... ***257***
Zokirova Diyoraxon Iqboljon qizi
Raqamli valyuta (cbdc) sharoitida migratsion pul o‘tkazmalarining tijorat banklari likvidlik barqarorligiga ta’siri..... ***260***
Babadjanova Inobat Abdusharipovna
Raqamli iqtisodiyot sharoitida loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari..... ***263***
Qudratboyev Ahrorbek Asrorbek o‘g‘li
O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari: ishga joylashtirish xarajatlarini kamaytirish va Janubiy Koreya tajribasi..... ***266***
Nomozov Shohruh O‘tkir o‘g‘li
Mehnat migratsiyasini tartibga solishda ikki tomonlama kelishuvlar: O‘zbekiston va Janubiy Koreya tajribasi..... ***269***

Zafarova Azizaxon Shuxrat qizi
Mehnat migrantlarining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish..... **272**
Ramazonova Marjona O'lmasjonovna
O'zbekistonda mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish mexanizmlari..... **275**
Mamatqulova Odina Rustam qizi
O'zbekistonda qonuniy mehnat migratsiyasini rag'batlantirish mexanizmlari..... **279**
Алиев Улугбек Маннонович
Совершенствование механизмов бюджетного финансирования социальной инфраструктуры регионов Узбекистана с учётом внутренней миграции населения..... **282**
Hamrokulov Mirabbos Ortikovich
O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirishning mehnat bozori faoliyatiga ta'siri..... **285**

3-SHO'BA
ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI MUNOSABATLARI

Qurbonov Paxlavon Rustamovich, Qo'ldosheva Gulhayo Muxtor qizi
Qashqadaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarida migratsiya jarayonlarining demografik jarayonlarga ta'siri..... **289**
Sobirov Azizbek Avazbekovich
Mehnat migratsiyasi sharoitida sanoat klasterlarining barqaror innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish..... **293**
Шакаров Зафар Гаффорович
Меҳнат бозорларини трансформациялашда меҳнат мобиллигини баҳолашнинг янги ёндашуви: мобиллик тафовути ва типологик модель..... **295**
Давранов Орзу Абдужаббарович
Ҳудудларнинг солиштирма устунликлари асосида молиявий воситаларни манзилли йўналтириш..... **299**
Алиева Сусанна Сейрановна
Влияние внутренней миграции на социально-экономическое развитие регионов Узбекистана..... **302**
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li
Mehnat migratsiyasi jarayonlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash..... **306**
Буранова Лола Вахобовна, Умаров Нурлан
Трудовая миграция из Узбекистана в условиях глобализации: экономические факторы, риски и направления совершенствования государственного регулирования..... **309**
Буранова Лола Вахобовна
Влияние трудовой миграции из узбекистана в условиях глобализации на формирование финансового потенциала на микро-, мезо- и макроуровнях..... **312**
Najmitdinov Alisher Jamolitdinovich
Внутренняя миграция и региональные дисбалансы рынка труда в Узбекистане..... **318**
Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna, Azamov Muhammadamin Murodjon o'g'li
Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik: pul o'tkazmalari va mahalliy mehnat bozori misolida..... **322**
Султанова Муниса
Инновационное развитие реального сектора экономики как фактор расширения возможностей занятости и регулирования трудовой миграции в Узбекистане..... **326**
Bahriddinova Muazzam Azam qizi
O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lish jarayonlarini integral baholash va hududiy tafovutlar..... **329**
Bahriddinova Muazzam Azam qizi
O'zbekistonda demografik o'zgarishlarning mehnat resurslari shakllanishiga ta'siri: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar..... **332**

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li, Raxmanov Javohir Zafarbek o‘g‘li
The impact of internal migration on employment and income..... ***334***
Ma’murov Baxtiyor Xolmatjanovich
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish..... ***337***
Ким Елена Радионовна
Развитие человеческого капитала Узбекистана в условиях миграционной мобильности населения..... ***340***
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li, Mamadaliyeva Muxlisaxon Dilshodbek qizi
Ichki va tashqi migratsiyaning O‘zbekiston mehnat bozoridagi o‘rni..... ***343***
Адилов Шерзот Шамильевич
Агробизнесни молиялаштириш, ички ва ташқи миграциянинг аграр субъектлар молиявий барқарорлигига таъсири ва тўловга қобилиятсизликни эрта аниқлаш механизмлари..... ***346***
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li, Abdusalomov Baxodir Abdulboqi o‘g‘li
Mehnat migratsiyasining hududlar bo‘yicha ishsizlik darajasiga ta’siri..... ***352***
Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
Хорижий мамлакатлар тажрибасида ёшлар меҳнат миграцияси ва ички меҳнат бозори ўртасидаги боғликлик..... ***355***
Эгамов Ойбек Нормухаммедович
Ички меҳнат бозори ва ташқи меҳнат миграцияси муносабатлари: ташкилий бўлмаган миграция ва қайтганлар реинтеграцияси муаммолари..... ***359***
Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi
O‘zbekistonda investitsion muhitning rivojlanishi va uning ichki hamda tashqi migratsiya jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligi..... ***363***
Xudaybergenova Roza Axmed qizi
O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi omillarini yumshatishda soliq rag‘batlari va hududiy investitsiyalarning o‘rni..... ***369***
Islomov Jamshed Davronovich
Chegara oldi savdo-sanoat zonalari orqali ichki migratsiyani tartibga solish va tashqi mehnat migratsiyasi bosimini kamaytirish imkoniyatlari..... ***371***
Jumayeva Shaxnoza Quyliyevna
O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari: muammolar va yechimlar..... ***375***
Farmonov Dilshodbek Daminovich
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishda bandlik va tashqi mehnat migratsiyasi tendensiyalari..... ***379***
Kurbonaliyev Abduxamid Shuxrat o‘g‘li
Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida ijtimoiy sohani moliyalashtirishning bandlik va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli: O‘zbekiston tajribasi..... ***382***
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li
Mehnat migratsiyasi sharoitida chakana savdo iste’molchilarining xarid xulq-atvorini neyromarketing asosida baholash..... ***386***
Bahodirov O‘rolboy Bahriddin o‘g‘li
Tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish tizimini takomillashtirishning institutsional va raqamli mexanizmlari..... ***389***
Батыров Фархад Бакытович
Роль внутренней и внешней трудовой миграции в обеспечении занятости населения: проблемы, тенденции и перспективы для Узбекистана..... ***391***
Barotov Manuchehr
Ichki migratsiya va yoshlar ishsizligi: O‘zbekiston va Turkiya tajribasi..... ***394***
Eshtilovova Dilnavoz Dilshod qizi
The impact of external labour migration on household incomes in Uzbekistan..... ***399***
Aytbayeva Jasmina Jenis qizi
O‘zbekistonda ichki mehnat migratsiyasining hududiy bandlikka ta’siri..... ***405***
Sattorova Mohinur Baxtiyor qizi
Yoshlar migratsiyasi va O‘zbekiston mehnat bozorining kelajakdagi transformatsiyasi..... ***408***
Abduvaliyeva Zilola Abduboriy qizi
Ichki migratsiyaning Toshkent shahri mehnat bozoriga ta’siri..... ***412***

Mirdjalilova Shahrizoda Baxodirovna, Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Ichki mehnat migratsiyasining uy-joy xarajatlariga ta’siri **415**

Hamrokulov Mirabbos Ortikovich
The impact of the interplay between internal and external labor migration on labor market functioning in Uzbekistan **418**

4-SHO‘BA
MEHNAT MIGRANTLARINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA REINTEGRATSIYA QILISH

Исаев Фахриддин Икромович
Меҳнат миграцияси орқали тўпланган касбий билимларни ҳудудий корхоналарга жалб этиш механизми **423**

Niyazmetov Islambek Masharipovich, Xaydarov Alisher Akram o‘g‘li
Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda xayriya faoliyatini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish **425**

Akbarov Nodir Gafurovich
Mehnat migrantlarini kasbiy reintegratsiya qilishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining raqamli ekotizimini shakllantirish **428**

Xidirova Marg‘uba, Soliyeva Durdona Akmaljon qizi
Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini reaggregatsiya qilish va ularning bandligini boshqarish muammolari **431**

Zakhidov Azizbek
Return of labour migrants to Uzbekistan: household income losses and priorities for the support system **434**

Khaydarov Alisher Akram ugli
A relative approach to identifying poverty and its importance for social support for the population **437**

Imamova Gulshan Tursunmurod qizi
Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish **440**

Temirova Shirin
Mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish orqali hududlarda investitsiyaviy faollikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish **444**

Alimov Sherzod Choriyevich
Mehnat migrantlarini ijtimoiy himoyalashda islomiy sug‘urta (takaful) mahsulotlarining o‘rni **448**

Javliyev Nuriddin Bektemir o‘g‘li
Rivojlanayotgan davlatlarda migratsiya siyosati va kambag‘allikni kamaytirish yondashuvlari **450**

Ugilshod Akhmedova
Islamic microfinance instruments for the economic reintegration of returning labour migrants in Uzbekistan: a risk-based approach **453**

Shakirova Shaxzoda Ibroximxo‘ja qizi
Mehnat migratsiyasi sharoitida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va migrantlarni sug‘urtaviy himoyalash **456**

Yaxshiboyev Rustam Erkiboy o‘g‘li
Mehnat migratsiyasi jarayonlarida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning xalqaro tajribasi **458**

Raxmatov Yashin Yarashovich
Mehnat migrantlarini kasbiy tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish **461**

Abduxakimov Muzaffar Shaxobiddinovich
Qaytgan mehnat migrantlarini iqtisodiy reintegratsiya qilish **465**

Xalilova Dilfuza Toxirjonovna
Mehnat migrantlari farzandlarining ta’limini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish **467**

Odiljonov Azizbek Tursunboy o‘g‘li **470**

Qaytgan mehnat migrantlari ko‘nikmalarini O‘zbekiston mehnat bozorida qo‘llash: reintegratsiyaning institutsional shartlari.....
Normuxamatova E’zoza Baxodirovna
*Xorijdagi mehnat migrantlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda raqamli platformalardan foydalanish: holati va takomillashtirish yo‘nalishlari..... **474***
Qironov Temur Jamshid o‘g‘li
*Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini bandlikka qayta integratsiya qilish mexanizmlari..... **476***
Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi
*Mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirishda migratsiya jamg‘armasining roli..... **479***
Usmonova Gulasal Akmal qizi
*Mehnat migrantlarini reintegratsiya qilishda yashil investitsiyalar bozori mexanizmidan foydalanish imkoniyatlari..... **483***
Оманова Камола Ботир кизи
*Искусственный интеллект и инновационные подходы в совершенствовании механизмов интеграции кадров, вернувшихся из внешней миграции, на рынок труда..... **486***
Qurbonov Samandar Pulatovich
*Mehnat mobilligining kambag‘allik darajasiga ta’siri: xalqaro tajribalar va saboqlar..... **491***
Abdurashidov Abdusamad Abdurahmonovich
*Aksizosti tovarlarni raqamli markirovkalash tizimining budjet tushumlarini oshirishdagi ahamiyati..... **497***
Xolmatov Muhriddin Mo‘min o‘g‘li
*Oliy ta’limda kadrlar qo‘nimsizligi tasnifi va rasmiy hisobotda ko‘rinmaydigan ketishlar..... **500***
Jabborov Mashrab Ismoil o‘g‘li
*Yangi O‘zbekiston sharoitida neft-gaz tarmog‘ini isloh qilishning iqtisodiy asoslari..... **504***
Остонақулова Гулчехрахон Муҳаммадёқуб қизи
*Рақамли трансформация шароитида тижорат банклари фоизсиз даромадларининг ҳозирги ҳолати..... **506***
Annaqulov Kamol Xasanovich
*Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini kompleks iqtisodiy diagnostika asosida baholash..... **508***
Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
*Kichik biznes sohasida inson kapitali va mehnat munosabatlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari..... **511***
Пулатов Дилшод Акмальевич
*Организационно-экономический механизм инвестирования в цифровые компетенции и оценка результативности профессионального развития работников коммерческих банков..... **516***
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна
*Повышение эффективности оценки кредитоспособности заемщиков на основе использования цифровых инструментов..... **520***
Холмухамедов Муҳсинжон Муродуллаевич
*Сунъий идрок инқилоби шароитида меҳнат бозорида ёшлар рақобатбардошлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари..... **523***
Сулайманов Акром Исамиддинович
*Тошкент халқаро молия маркази шаклланиши шароитида тижорат банклари томонидан узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этиш механизмларини такомиллаштириш..... **528***
Tuxliyev Baxtiyor Maxmaziyayevich
*Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishning hududiy klaster modeli..... **531***

O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIYA SIYOSATINI YAGONA TIZIM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH: KONSEPSIYA VA USTUVOR YO‘NALISHLAR

Umurzakov Baxodir Xamidovich
I.f.d.,prof. TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi
umurzakovboxodir807@gmail.com

Bugungi kunda migratsiya jarayonlarining ko‘lami va tarkibiy xususiyatlaridagi o‘zgarishlar davlat migratsiya siyosatini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Mehnat migratsiyasi, aholining ichki hududiy mobilligi, migrantlarning inson kapitali, qaytib keluvchi migrantlarni reintegratsiya qilish, migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish hamda migratsiyaning demografik va iqtisodiy oqibatlarini boshqarish o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli migratsiyani faqat xorijga mehnat qilish uchun chiqib ketish jarayoni sifatida emas, balki mehnat bozori, demografik rivojlanish, inson kapitali, bandlik va hududiy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks tizim sifatida boshqarishga asoslangan yagona konseptual yondashuvni shakllantirish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga qaratilgan migratsiya siyosati konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Bunda tashqi va ichki migratsiyani boshqarish, migrantlarning huquqiy himoyasi va kasbiy salohiyatini oshirish, qaytuvchi migrantlarni iqtisodiy faoliyatga reintegratsiya qilish, yagona migratsiya ma’lumotlar tizimini shakllantirish hamda migratsiyaning mamlakatning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholash mexanizmlarini yagona siyosiy konsepsiya doirasida birlashtirish taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati konsepsiyasini shakllantirishda migratsiya jarayonlarini alohida yo‘nalishlar bo‘yicha emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, konsepsiyaning mazmunini oltita ustuvor yo‘nalish asosida shakllantirish maqsadga muvofiq: tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish, migrantlar inson kapitalini rivojlantirish, ichki migratsiyani tartibga solish, qaytuvchi migrantlarni reintegratsiya qilish, migratsiyani raqamlashtirish hamda uning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini boshqarish. Ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi migratsiya siyosatini faqat ma’muriy boshqaruv vositasi emas, balki mehnat bozori va inson kapitalini rivojlantirish instrumenti sifatida shakllantirish imkonini beradi.

1. Tashqi mehnat migratsiyasini samarali boshqarish. Tashqi mehnat migratsiyasini boshqarishda asosiy vazifa fuqarolarning xorijiy mehnat bozorlariga qonuniy va xavfsiz kirishini ta’minlash bilan bir qatorda, migratsiyaning barcha bosqichlarini yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirishdan iborat. Bunda migrantning xorijga chiqishidan oldingi tayyorgarligi, ishga joylashishi, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishi, huquqiy himoyasi va mamlakatga qaytishi yagona tizimning tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

Mazkur yo‘nalishda xorijiy ish beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat shartnomalarini rivojlantirish, xususiy bandlik agentliklari faoliyatining shaffofligini ta’minlash, noqonuniy yollash va ekspluatatsiyaning oldini olish, migrantlarni ketishdan oldin huquqiy, iqtisodiy va axborot jihatdan tayyorlash muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, migrantlarning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi, kasbiy malakasi, migratsiya mamlakati va bandlik sohasi bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam monitoring qilish siyosiy qarorlarning aniq ma’lumotlarga asoslanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, tashqi mehnat migratsiyasi bo‘yicha konseptual yondashuv “tayyorlash - qonuniy ishga joylashtirish - huquqiy himoya - monitoring - qaytish va reintegratsiya” ketma-ketligiga asoslanishi taklif etiladi.

2. Mehnat migrantlarining inson kapitalini rivojlantirish. Migratsiya siyosatining ikkinchi muhim yo‘nalishi migrantlarning xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq. Bunda migrantlarni shunchaki ishchi kuchi sifatida xorijiy bozorga yo‘naltirishdan ko‘ra, ularning kasbiy malakasi, xorijiy til bilimi, raqamli kompetensiyasi va zamonaviy mehnat standartlariga moslashish imkoniyatlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Konsepsiyada xalqaro mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarni muntazam aniqlash, kasbiy qayta tayyorlash, xalqaro sertifikatlash, xorijiy tillarni o‘rgatish va xorijiy ish beruvchilar talablari bilan kasbiy ta’lim dasturlarini uyg‘unlashtirish mexanizmlarini nazarda tutish lozim. Ayniqsa, “kasbiy tayyorgarlik - ishga joylashish” uzviyligini ta’minlash migrantning o‘qitilishi bilan real bandlik imkoniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, xorijda orttirilgan bilim va ko‘nikmalarni O‘zbekiston iqtisodiyotiga qayta yo‘naltirish mexanizmlarini yaratish migratsiyaning inson kapitaliga ta’sirini uzoq muddatli nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi. Shu asosda mazkur yo‘nalish “aniqlash - tayyorlash - sertifikatlash - qonuniy ishga joylashtirish - kasbiy rivojlanish - tajribani qayta jalb qilish” tamoyiliga qurilishi mumkin.

3. Ichki migratsiya va hududiy mobillikni boshqarish. Ichki migratsiya aholining hududiy joylashuvi bilan bir qatorda mehnat resurslarining hududlararo taqsimlanishiga ham ta’sir qiluvchi jarayon sifatida konsepsiyada alohida o‘rin egallashi kerak. Qishloq-shahar migratsiyasi, hududlararo ko‘chish va vaqtinchalik mehnat mobilligi ishchi kuchi taklifi hamda hududlarning mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartiradi.

Shu sababli ichki migratsiya oqimlarini muntazam monitoring qilish, mehnat

resurslari ortiqcha bo‘lgan hududlar bilan ishchi kuchiga talab yuqori hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash, ixtiyoriy mehnat mobilligini rag‘batlantirish va migrantlarning uy-joy, transport, ta’lim hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Urbanizatsiya jarayonlari ham migratsiya oqimlari bilan birgalikda prognoz qilinishi lozim.

Bunda asosiy mexanizm “migratsiya oqimini aniqlash - sabablarini baholash - mehnat bozori ehtiyojini aniqlash - hududiy imkoniyatlarni muvofiqlashtirish - migrantni moslashtirish - natijani monitoring qilish” ketma-ketligida shakllantiriladi.

4. Qaytib kelayotgan migrantlarni reintegratsiya qilish. Migratsiya siyosatining samaradorligini baholashda migrantlarning xorijga chiqib ketishi bilan bir qatorda ularning qaytishidan keyingi iqtisodiy faoliyati ham hisobga olinishi lozim. Qaytuvchi migrantlar xorijda orttirgan kasbiy tajriba, malaka, moliyaviy mablag‘, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xalqaro aloqalari orqali mamlakat iqtisodiy faoliyatiga qo‘shimcha resurs olib kirishi mumkin.

Shu asosda qaytib kelgan migrantlarni hisobga olish va ularning salohiyatini baholash, xorijda olingan malakalarni tan olish, ishga joylashtirish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va jamg‘armalarni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Reintegratsiya bir martalik yordam shaklida emas, balki qaytishdan keyingi bandlik, tadbirkorlik va kasbiy rivojlanishni kuzatib boruvchi uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi taklif etiladi.

5. Migratsiyani raqamlashtirish va ilmiy asosda prognozlash. Zamonaviy migratsiya siyosatida ma’lumotlarning to‘liqligi va tezkorligi boshqaruv qarorlarining sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli ichki va tashqi migratsiya, demografiya, bandlik, ta’lim va ijtimoiy himoya bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zaro integratsiyalashgan yagona axborot tizimiga birlashtirish konsepsiyaning alohida yo‘nalishi sifatida belgilanadi.

Bunday tizim migratsiya oqimlarini yosh, jins, ta’lim, kasb, migratsiya maqsadi va yo‘nalishi bo‘yicha monitoring qilish, migratsiyaning mehnat resurslari va demografik jarayonlarga ta’sirini baholash hamda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Big Data, GIS, sun’iy intellekt va ekonometrik modellashtirish vositalaridan foydalanish esa migratsiya siyosatini ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o‘tkazish uchun metodologik asos yaratadi.

6. Migratsiyaning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini boshqarish. Migratsiya siyosatining yakuniy strategik yo‘nalishi migratsiya oqimlarining mamlakat demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini kompleks baholashdan iborat. Migratsiya aholi soni va tarkibi, mehnat resurslari, bandlik, inson kapitali, oilaviy tarkib, daromadlar va hududiy demografik muvozanatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois migratsiyaning yosh-jins tarkibiga, mehnat resurslari shakllanishiga, oilaviy-demografik jarayonlarga va hududiy demografik nisbatlarga ta’sirini muntazam baholash zarur. Shuningdek, migrantlar tomonidan yuboriladigan pul mablag‘laridan jamg‘arma, investitsiya va tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda migratsiya siyosatini

demografik, bandlik, ta’lim, uy-joy va hududiy rivojlanish siyosatlari bilan uyg‘unlashtirish konsepsiyaning kompleksligini ta’minlaydi.

1-jadval

O‘zbekiston migratsiya siyosati konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlari

№	Ustuvor yo‘nalish	Asosiy boshqaruv vazifasi
1	Tashqi mehnat migratsiyasi	Qonuniy, xavfsiz va tartibli mehnat migratsiyasini ta’minlash
2	Inson kapitalini rivojlantirish	Migrantlarning kasbiy va xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish
3	Ichki migratsiya	Aholi va mehnat resurslarining hududiy harakatini muvofiqlashtirish
4	Reintegratsiya	Qaytuvchi migrantlarning bilim, tajriba va moliyaviy salohiyatidan foydalanish
5	Raqamlashtirish	Yagona ma’lumotlar tizimi va prognozlash mexanizmini shakllantirish
6	Migratsiya oqibatlarini boshqarish	Demografik, ijtimoiy va iqtisodiy natijalarni kompleks baholash

Shu tariqa, taklif etilayotgan konsepsiya migratsiyaning “ketish - mehnat faoliyati - qaytish - reintegratsiya - iqtisodiy va demografik natija” zanjirini yagona siyosiy boshqaruv tizimiga birlashtiradi. Mazkur yondashuvda migratsiya mustaqil jarayon sifatida emas, balki mehnat bozori, inson kapitali, demografik rivojlanish va hududiy iqtisodiy siyosat bilan bog‘langan kompleks tizim sifatida qaraladi.

Tahlil natijalari O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini boshqarishni yagona konseptual yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Migratsiya jarayonlarini faqat tashqi mehnat migratsiyasi bilan chegaralash o‘rniga tashqi va ichki migratsiya, migrantlarning inson kapitali, qaytuvchi migrantlarning reintegratsiyasi, raqamli monitoring hamda migratsiyaning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida boshqarish maqsadga muvofiq. Shu asosda taklif etilayotgan konsepsiya migratsiyaning barcha bosqichlarini yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirishga qaratiladi.

Tadqiqot asosida migratsiya siyosati konsepsiyasining 6 ta ustuvor yo‘nalishi belgilandi: tashqi mehnat migratsiyasini samarali boshqarish, migrantlar inson kapitalini rivojlantirish, ichki migratsiya va hududiy mobillikni tartibga solish, qaytuvchi migrantlarni reintegratsiya qilish, migratsiyani raqamlashtirish va ilmiy asosda prognozlash hamda migratsiyaning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini boshqarish. Mazkur yo‘nalishlarning yagona tizimga birlashtirilishi migratsiya siyosatining natijadorligini oshirish va migratsiya jarayonlaridan mamlakatning mehnat bozori hamda inson kapitalini rivojlantirishda samarali foydalanish imkonini beradi.

Migratsiya siyosati konsepsiyasini yagona tizim sifatida shakllantirish va tashqi mehnat migratsiyasi, ichki migratsiya, reintegratsiya, inson kapitali va demografik jarayonlarni o‘zaro bog‘langan yo‘nalishlar sifatida belgilash.

Migrantlarni xorijga chiqishdan oldingi tayyorlash tizimini kuchaytirish, bunda kasbiy malaka, xorijiy til, mehnat huquqi, moliyaviy savodxonlik va boriladigan mamlakatdagi mehnat sharoitlari bo‘yicha tayyorgarlikni yagona dasturga birlashtirish.

Migrantlarning inson kapitalini rivojlantirish mexanizmini joriy etish, xalqaro mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha qisqa muddatli tayyorlash va xalqaro sertifikatlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Qaytuvchi migrantlar uchun reintegratsiya tizimini shakllantirish, xorijda orttirilgan kasbiy tajriba va malakalarni tan olish, ishga joylashtirish, tadbirkorlikni boshlash hamda migrantlarning jamg‘armalarini investitsiyaga yo‘naltirish mexanizmlarini rivojlantirish.

Migratsiyaning yagona raqamli monitoring tizimini yaratish, unda migrantlarning yoshi, jinsi, ta’limi, kasbi, migratsiya yo‘nalishi, bandligi va qaytish holati bo‘yicha ma’lumotlarni integratsiyalash hamda migratsiya oqimlarini prognozlash imkoniyatini yaratish.

Migratsiyaning demografik va iqtisodiy oqibatlarini muntazam baholash, xususan, migratsiyaning mehnat resurslari, yosh-jins tarkibi, hududiy demografik muvozanat, bandlik va oilaviy-demografik jarayonlarga ta’sirini baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish.

Migratsiya siyosatini mehnat bozori, ta’lim, demografik rivojlanish va hududiy siyosat bilan muvofiqlashtirish orqali migratsiya oqimlarini mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish.

Natijada taklif etilayotgan konsepsiya “tayyorlash → qonuniy migratsiya → mehnat faoliyati → huquqiy va ijtimoiy himoya → qaytish → reintegratsiya → iqtisodiy va demografik natijalarni baholash” uzluksiz boshqaruv zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qozog‘iston Respublikasining 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan migratsiya siyosati konsepsiyasi. - 2022.

2. Qirg‘iziston Respublikasining 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan migratsiya siyosati konsepsiyasi. - 2021.

3. Tojikiston Respublikasining 2040-yilgacha bo‘lgan davrda migratsiya jarayonlarini tartibga solish strategiyasi. - 2023.

4. Turkmaniston Respublikasining “Migratsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. - 2012-yil 11-aprel.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИГРАЦИЯ ОҚИМЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ҚАЙТА ТАҚСИМЛАНИШИ ВА УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИГА ТАЪСИРИ

Усмонов Анвар Саидмахмудович

и.ф.д., про., ТДИУ ҳузуридаги илмий-тадқиқот маркази

Г.В. Плеханов номидаги РИУ Тошкент филиали

Ҳозирги глобаллашув шароитида миграция ва урбанизация жараёнлари жаҳон миқёсидаги энг муҳим ижтимоий-иқтисодий ҳодисалардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Айниқса, аҳолининг ҳудудий ҳаракатчанлиги ва шаҳарлашув жараёнлари ўзаро чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар иқтисодий ривожланиш, меҳнат бозори шаклланиши ва аҳоли жойлашуви тизимига сезиларли таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи

назардан, миграция жараёнларининг трансформацияси ва унинг урбанизация жараёнларига таъсирини тадқиқ этиш долзарб илмий масалалардан бири ҳисобланади. Ўзбекистонда сўнгги йилларда аҳоли сонининг ўсиши, меҳнат ресурслари босимининг ортиши ва шаҳарлашув жараёнларининг жадаллашуви миграция оқимларининг мазмун ва йўналишларида ўзгаришларни келтириб чиқармоқда. Хусусан, 2010–2024 йиллар давомида миграция сальдоси манфий бўлиб қолган бўлса-да, унинг ҳажми -44 минг кишидан -8,6 минг кишигача қисқаргани кузатилмоқда[2]. Бу ҳолат аҳоли ҳаракатининг мутлақ камайиши эмас, балки унинг шакли ва ҳудудий йўналишларида трансформация юз бераётганлигини кўрсатади. Айниқса, ички миграцияда аҳолининг йирик шаҳарларга, хусусан Тошкент шаҳрига жамланиши урбанизация жараёнларининг кучайишига хизмат қилмоқда.

Ташқи миграция ҳам урбанизация жараёнларига билвосита таъсир кўрсатмоқда. 2024 йил маълумотларига кўра, хорижда меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон фуқаролари сони 1,3 млн нафардан ортиқни ташкил этган бўлиб, улар томонидан юборилаётган пул ўтказмалари 14,8 млрд АҚШ долларига етган. Ушбу маблағлар асосан шаҳар ҳудудларида уй-жой қурилиши, хизмат кўрсатиш соҳаси ва кичик бизнесни ривожлантиришга йўналтирилмоқда, бу эса урбанизация жараёнларини рағбатлантирувчи омил сифатида намоён бўлмоқда. Ўзбекистон Республикасида миграция жараёнлари ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солинган бўлиб, “Ташқи меҳнат миграцияси тўғрисида”ги Қонун, шунингдек, миграция соҳасига оид қатор Президент фармонлари ва қарорлари мазкур соҳанинг институционал асосини ташкил этади [1]. Шу билан бирга, аҳоли жойлашуви ва шаҳарлашув жараёнларини тартибга солиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Юқорида келтирилган ҳолатлар Ўзбекистонда миграция ва урбанизация жараёнлари ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланаётганини кўрсатади. Шу жиҳатдан, ушбу жараёнларнинг трансформация хусусиятлари, замонавий тенденциялари ва уларнинг шаҳарлашувга таъсирини илмий жиҳатдан таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда миграция жараёнларининг сўнгги йиллардаги трансформацияси урбанизация жараёнлари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ривожланмоқда. Хусусан, 2010–2024 йиллар давомида миграция сальдосининг -44 минг кишидан -8,6 минг кишигача камайиши аҳоли ҳаракатининг мутлақ қисқаришини эмас, балки унинг ички тузилишида ўзгаришлар юз бераётганлигини кўрсатади[2]. Яъни, ташқи миграция маълум даражада барқарорлашган бир пайтда, ички миграция оқимлари фаоллашиб, аҳолининг йирик шаҳарларга, айниқса Тошкент шаҳрига жамланиши кучаймоқда. Бу эса урбанизация жараёнларининг тезлашишига хизмат қилмоқда.

2025 йил 1-чорак маълумотларига кўра, жами миграцияда 63 077 нафар келган ва 65 126 нафар кетган аҳоли қайд этилган бўлиб, ички миграция умумий ҳаракатнинг асосий қисмини ташкил этган[2]. Ҳудудлар кесимида таҳлил қилинганда, Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятида мусбат миграция сальдоси кузатилиб, аҳолининг асосий қисми айнан шу ҳудудларга

жамланаётгани аниқланади. Аксинча, Қашқадарё, Самарқанд ва Сурхондарё каби ҳудудларда аҳолининг чиқиб кетиши устунлик қилмоқда. Бу ҳолат аҳолининг иқтисодий фаоллик юқори бўлган шаҳар марказларига интилаётганини ва урбанизация жараёнларининг ҳудудий номутаносиблик асосида кечаётганлигини кўрсатади. Шу билан бирга, ташқи миграция ҳам урбанизацияга билвосита таъсир кўрсатмоқда. Хориждан келаётган пул ўтказмалари (2024 йилда 14,8 млрд доллар) асосан шаҳар ҳудудларида уй-жой қурилиши, хизмат кўрсатиш соҳаси ва тадбиркорлик фаолиятига йўналтирилаётгани натижасида шаҳар иқтисодиёти ва инфратузилмаси ривожланмоқда. Демак, миграция жараёнлари Ўзбекистонда урбанизациянинг асосий ҳаракатлантирувчи омилларидан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Қуйидаги жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда миграция жараёнлари урбанизациянинг асосий драйверларидан бирига айланмоқда. Хусусан, ички миграция улушининг юқорилиги аҳолининг асосан шаҳарларга йўналтирилаётганини англатади. Бу эса шаҳарларда аҳоли зичлигининг ортиши, хизматлар бозорининг кенгайиши ва иқтисодий фаолликнинг ошишига олиб келмоқда. Айниқса, Тошкент шаҳридаги мусбат миграция сальдоси уни мамлакатнинг асосий урбанизация марказига айлантирган. Бироқ, ушбу жараён ҳудудлар ўртасидаги номутаносибликларни ҳам кучайтирмоқда. Манфий сальдога эга бўлган ҳудудларда меҳнат ресурсларининг камайиши ва иқтисодий фаолликнинг пасайиши кузатилмоқда. Шу билан бирга, ташқи миграция орқали келаётган пул маблағлари шаҳарларда иқтисодий ўсишни рағбатлантираётган бўлса-да, уларнинг асосан шаҳарларга йўналтирилиши урбанизация жараёнларининг янада тезлашишига сабаб бўлмоқда. Демак, миграция ва урбанизация жараёнлари ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланиб, мамлакатда ҳудудий ривожланишнинг асосий йўналишларини белгилаб бермоқда.

1-жадвал

Ўзбекистонда миграция ва урбанизация кўрсаткичлари ўзаро боғлиқлиги

Кўрсаткичлар	Қийматлар	Урбанизацияга таъсири
Миграция сальдоси (2024 й.)	-8 613 киши	аҳоли чиқиб кетиши камайиб, ички жамланиш кучаймоқда
Жами миграция (2025 й. 1-чорак)	63 077 келган / 65 126 кетган	ички ҳаракат устун
Ички миграция улуши	99 % га яқин	шаҳарларга аҳоли оқими ошмоқда
Тошкент шаҳри сальдоси	+4 806 киши	урбанизация маркази
Қашқадарё сальдоси	-1 808 киши	аҳоли чиқиб кетувчи ҳудуд
Ташқи меҳнат мигрантлари	1,3 млн нафар	шаҳар иқтисодиётига таъсир
Пул ўтказмалари (2024)	14,8 млрд $	уй-жой ва хизматлар соҳаси ўсиши

Манба: *Статистик маълумотлар ва ҳисоботлар асосида [2]*

Ўзбекистонда ички ва ташқи миграция жараёнларининг сўнгги йиллардаги трансформацияси урбанизация жараёнлари билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланаётгани аниқланди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, миграция

сальдосининг манфий бўлиб қолишига қарамасдан, унинг ҳажми камайиб бораётгани аҳоли ҳаракатининг ички қайта тақсимланиши кучайганлигини англатади. Хусусан, аҳолининг иқтисодий жиҳатдан ривожланган шаҳарларга, айниқса Тошкент шаҳрига жамланиши урбанизация жараёнларининг асосий омилларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Шу билан бирга, ташқи меҳнат миграцияси орқали келаётган пул ўтказмалари шаҳарларда қурилиш, хизмат кўрсатиш ва тадбиркорлик фаолиятининг ўсишига хизмат қилмоқда. Бироқ, ушбу жараёнлар ҳудудлар ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий номутаносибликларни ҳам кучайтирмоқда. Айрим ҳудудларда аҳоли чиқиб кетиши натижасида меҳнат ресурслари камайиб, иқтисодий фаоллик пасаймоқда, бошқа ҳудудларда эса аҳоли жамланиши инфратузилмага ортиқча босим юкламоқда. Демак, миграция жараёнлари бир вақтнинг ўзида урбанизацияни рағбатлантирувчи ва ҳудудий муаммоларни юзага келтирувчи омил сифатида намоён бўлиб, унинг замонавий тенденцияларини ҳисобга олган ҳолда илмий ёндашув асосида баҳолаш муҳим аҳамият касб этади.

1. Ҳудудий ривожланишни мувозанатлашга қаратилган иқтисодий рағбатлар. Аҳоли чиқиб кетаётган ҳудудларда (Қашқадарё, Сурхондарё, Қорақалпоғистон) саноат ва хизмат кўрсатиш соҳаларини кенгайтириш орқали маҳаллий иш ўринларини кўпайтириш аҳолининг мажбурий миграциясини камайтиришга хизмат қилади.

2. Урбанизация марказларида инфратузилма юкламасини камайтириш. Тошкент шаҳри ва бошқа йирик шаҳарларда транспорт, уй-жой ва ижтимоий хизматлар соҳасидаги юкламани камайтириш мақсадида янги турар-жой массивлари ва йўлдош шаҳарчаларни ривожлантириш зарур.

3. Аҳолини ихтиёрий ҳудудий қайта тақсимлашни рағбатлантириш. Аҳоли зич жойлашган ҳудудлардан (Фарғона водийси, Самарқанд) иқтисодий имкониятлари кам ўзлаштирилган ҳудудларга (Сирдарё, Навоий, Қорақалпоғистон) кўчиб боришни субсидиялар, уй-жой ва иш билан таъминлаш орқали рағбатлантириш мақсадга мувофиқ.

4. Ташқи миграциядан келаётган маблағларни урбан ривожланишга йўналтириш. Мигрантлар пул ўтказмаларини уй-жой қурилиши, шаҳар инфратузилмаси ва кичик бизнесни ривожлантиришга жалб қилиш учун молиявий инструментларни кенгайтириш зарур.

5. Миграция ва урбанизация мониторинг тизимини рақамлаштириш. Аҳоли ҳаракатини реал вақт режимида кузатиш имконини берувчи рақамли платформаларни жорий этиш орқали миграция ва урбанизация жараёнларини аниқ баҳолаш имкониятини кенгайтириш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Ташқи меҳнат миграцияси тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2020.

2. Халқаро миграция ташкилоти (ІОМ). Ўзбекистонда миграция вазиятига оид ҳисобот: 2025 йил январ–март. – Тошкент, 2025.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПРОЦЕССАХ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Абдуллаев Равшан Вахидович
Международная исламская академия Узбекистана,
доктор экономических наук, профессор.

Глобализация расширяет возможности трудоустройства за рубежом, но одновременно усиливает конкуренцию за рабочие места и требования к квалификации работников. По оценке Департамента ООН по экономическим и социальным вопросам, в 2024 году в мире насчитывалось 304 млн международных мигрантов, или 3,7% населения планеты [1]. Этот показатель охватывает все виды миграции, а не только трудовую. Для Узбекистана внешняя трудовая миграция остаётся значимым источником занятости и доходов домохозяйств. По данным, представленным на официальном сайте Президента Республики Узбекистан, в апреле 2026 года за рубежом работали около 1,2 млн граждан страны почти в 40 государствах [2]. Масштаб этого явления требует рассматривать миграцию одновременно как часть социальной политики, развития человеческого капитала и экономических связей с зарубежными рынками труда.

Первая тенденция — расширение географии трудовой миграции. Наряду с традиционными направлениями — Россией, Казахстаном, Республикой Корея и Турцией — развивается сотрудничество с европейскими и другими азиатскими странами. В 2025 году Агентство по миграции Узбекистана сообщило о заключении соглашений с 224 работодателями из 33 стран [3]. Расширение направлений позволяет работникам выбирать между рынками труда с различными условиями оплаты и снижает зависимость миграционной системы от одного государства назначения. В первом полугодии 2026 года объём переводов из Великобритании вырос на 62%, из стран Европейского союза — на 27%, из США — на 19% по сравнению с тем же периодом предыдущего года [5]. Эти изменения свидетельствуют об укреплении финансовых связей с новыми направлениями, хотя по суммам переводов нельзя определить точное число работающих там граждан. Выход на новые рынки требует знания языка, подтверждённой квалификации и соблюдения правил трудоустройства принимающей страны.

Вторая тенденция — подготовка работников под конкретный спрос работодателей. В апреле 2026 года сообщалось, что в рамках 12 совместных проектов с иностранными компаниями обучение по принципу «профессия плюс язык» проходили 8,5 тыс. граждан, а 3 тыс. выпускников уже были трудоустроены [2]. Такой подход повышает вероятность легального трудоустройства и позволяет рассматривать миграцию как способ приобретения профессионального опыта. Значение имеет не только число обученных, но и соответствие программы реальным условиям рабочего

места: требованиям к профессии, языку, документам и безопасности труда. Поэтому сотрудничество учебных центров с работодателями целесообразно дополнять проверкой условий контракта до выезда. Эффект для экономики Узбекистана будет выше, если навыки вернувшихся работников найдут применение на внутреннем рынке труда.

Третья тенденция — рост денежных переводов при заметных колебаниях их объёма по годам. За 2021–2025 годы поступления увеличились более чем вдвое, однако после резкого подъёма в 2022 году произошло снижение в 2023 году (таблица 1). Следовательно, общий восходящий тренд не означает равномерного роста из года в год. Для семей, регулярно получающих средства из-за рубежа, такая изменчивость повышает значение финансового планирования и накоплений. На государственном уровне она подчёркивает необходимость развивать рабочие места внутри страны наряду с организованными каналами миграции.

Таблица 1.

Поступления трансграничных денежных переводов в Узбекистан, 2021–2025 годы

Годы	Объём поступлений, млрд долл. США
2021	8,1
2022	17,0
2023	11,4
2024	14,8
2025	18,9

Источник: *Центральный банк РУ, обзор международной миграции и валютных операций физических лиц, март 2026 года* [4].

По данным Центрального банка, в 2025 году поступления достигли 18,9 млрд долл. США, увеличившись на 28% по сравнению с 2024 годом [4]. В январе–июне 2026 года они составили 9,3 млрд долл., что на 13% больше, чем за аналогичный период 2025 года [5]. Одновременно растёт роль цифровых каналов: доля прямых переводов на банковские карты составляла 46% за весь 2025 год и 51,7% в первом полугодии 2026 года [4; 5]. Для получателей это означает более быстрый доступ к средствам, а для финансовой системы — рост значения доступных и понятных цифровых услуг. Вместе с тем при оценке их стоимости нужно учитывать не только комиссию, но и обменный курс. Объём трансграничных переводов нельзя отождествлять с заработком трудовых мигрантов: банковская статистика отражает операции физических лиц и сама по себе не показывает число отправителей или цели каждого перевода.

Четвёртая тенденция — усиление внимания к правам и безопасности граждан за рубежом. Сохраняются риски невыплаты

заработной платы, нарушения условий договора и утраты легального статуса. По отчёту Агентства по миграции, в течение 2025 года юридическую и консультационную помощь получили 8743 заявителя; по обращениям о зарплате и компенсациях в пользу граждан было взыскано 1,9 млн долл. США [6]. На апрель 2026 года службы поддержки действовали в 37 странах; в официальном сообщении также указывалось на предоставление социальной помощи 48 тыс. граждан и юридической помощи 17 тыс. [2]. Эти данные показывают практическую потребность в проверке работодателей, доступной правовой помощи и информировании граждан до выезда. Для профилактики нарушений особенно важны понятные сведения о визовом статусе, рабочем времени, оплате и порядке обращения за защитой.

Пятая тенденция — цифровизация организации трудоустройства. В апреле 2026 года было предложено дальше развивать платформу «Работа за рубежом» и применять технологии искусственного интеллекта для упрощения процедур для граждан и работодателей [2]. Потенциал таких решений связан с доступностью проверенных вакансий и документов. Вместе с тем цифровой сервис должен сопровождаться консультацией для тех, кому трудно самостоятельно оценить условия договора.

Таким образом, современная трудовая миграция в Узбекистане характеризуется расширением стран назначения, повышением роли профессиональной и языковой подготовки, ростом цифровых переводов и развитием механизмов защиты работников. Приоритетом миграционной политики должно стать качество трудоустройства: прозрачный договор, соответствие навыков требованиям работодателя, доступ к помощи за рубежом и возможность применить полученный опыт после возвращения. Следует также сопоставлять потребности зарубежных работодателей с перспективами внутреннего рынка, чтобы международная мобильность не ослабляла подготовку кадров для самой страны. Такой подход позволит увеличить пользу от миграции для граждан, их семей и национальной экономики.

Летературы:

1. UN DESA. International Migrant Stock 2024: Key Facts and Figures. 2025. https://www.un.org/development/desa/pd/sites/

2. Президент РУ. Measures to improve the efficiency of the Migration Agency reviewed. 20.04.2026. https://www.president.uz/en/lists/view/9121

3. Агентство по миграции Республики Узбекистан. Отчёт о работе за октябрь–декабрь 2025 года. https://gov.uz/en/migration/news/view/115557

4. Центральный банк РУ. Обзор международной миграции и валютных операций физических лиц. Март 2026 года. https://cbu.uz/upload/iblock/367/

5. Центральный банк РУ. Обзор валютных операций физических лиц за первое полугодие 2026 года. https://cbu.uz/en/press_center/releases/4359624/

6. Агентство по миграции Республики Узбекистан. Итоги правовой помощи гражданам за 2025 год. https://gov.uz/en/migration/news/view/124834

GLOBALLASHUV SHAROITIDA AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIY-IQTISODIY TA'SIRI

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna
I.f.d., pro. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali
QX.Mamadaliyeva@gmail.com

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida mehnat resurslarining xalqaro harakati jahon mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 2026-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil o'rtalarida dunyoda xalqaro migrantlar soni qariyb 304 million kishini tashkil etgan bo'lib, xalqaro migratsiyaning asosiy sabablaridan biri mehnat faoliyati hisoblanadi. Shu bilan birga, migrant ishchilar xalqaro migrantlarning asosiy qismini tashkil etmoqda[1].

Mehnat migratsiyasining kengayishi ayollarning xalqaro mehnat bozoridagi ishtirokiga ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ayollarning migratsion qarorlariga bandlik darajasi, ish haqi, ta'lim va kasbiy malaka, ishsizlik, oilaviy majburiyatlar, farzandlar soni hamda mehnat bozoridagi gender tengligi kabi omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot uchun asos sifatida olingan ilmiy manbada O'zbekistonda ayollar mehnat bozoridagi ishtirokining yalpi ichki mahsulot, ayollar ishsizligi, fertilitet, oliy ma'lumot darajasi va ayollar uchun biznes-huquqiy muhit bilan o'zaro bog'liqligi 1999-2021-yillar ma'lumotlari asosida ekonometrik usullar yordamida baholangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy va institutsional omillar ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokiga turlicha ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi[2].

Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solishda xalqaro mehnat standartlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Migration for Employment (Revised) Convention, 1949" (№97) hamda "Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975" (№143) mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, munosib mehnat sharoitlari va teng munosabatni ta'minlashning asosiy xalqaro me'yorlarini belgilaydi[3].

O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasini xavfsiz, tartibli va qonuniy tashkil etishga qaratilgan huquqiy-institutsional mexanizmlar izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori xorijda fuqarolarni tashkillashtirilgan holda ishga joylashtirish va ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan[4]. 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon bilan esa mehnat migratsiyasi boshqaruvi, migrantlarni qo'llab-quvvatlash, qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, ularning bandligi, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish yo'nalishlari kuchaytirildi[5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni migratsiya jarayonlarini boshqarishning yagona vertikal tizimini shakllantirish, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirish va mas’ul davlat organlarining vazifalarini aniq belgilashga qaratilgan[6]. Shu jihatdan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanish omillarini alohida o‘rganish, ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlari va migratsiyadan kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Globallashuv sharoitida ayollar mehnat migratsiyasi nafaqat mehnat bozoridagi ishchi kuchi harakatining, balki uy xo‘jaliklari daromadlari, ayollarning iqtisodiy faolligi va oilaviy-demografik qarorlarning ham muhim omiliga aylanmoqda. O‘zbekistonda ushbu jarayonning ko‘lamini baholashda ayollarning mamlakatdan chiqib ketishi, ularning mehnat migratsiyasidagi ishtiroki va umumiy migratsiya oqimidagi salmog‘i muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda migratsiya oqimlarida ayollarning ulushi biroz ortib bormoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hisob-kitoblariga ko‘ra, 2023-yilda 568,5 ming ayol chet elda ishlagan. Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, ayollar 13,8% (2023) ni tashkil etdi, shundan 72,6% oilali, 16,9% yolg‘iz, 10,5% ajrashgan yoki beva qolgan.

Oxirgi yillarda migrantlar oqimida mamlakatlar geografiyasi erkaklar va ayollar uchun biroz farq qiladi. Shunday qilib, erkaklar orasida Turkiyada ishchilar ulushi 2,5%, ayollar orasida esa 17,6% ni tashkil etdi, bu Qozog‘istondagidan 7,4 marotaba ko‘p (2021).

Tadqiqot olib borilgan mehnat muhojirlari orasida ayrim mamlakatlarda ayollar ulushi (2021) erkaklarnikidan 8 baravar yuqori edi. Bu ushbu mamlakatlarda ayollar kasbiga bo‘lgan talab bilan bog‘liq. So‘rov natijalariga ko‘ra, 30 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan, o‘rta umumiy va o‘rta kasb-hunar ma’lumotiga ega bo‘lgan yosh va nisbatan yosh ayollar ustunlik qiladi. Biroq, ularning aksariyati mutaxassislik va kasbga ega: hamshiralar, bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari, o‘qituvchilar, sotuvchilar, buxgalterlar, hamshiralar, tikuvchilar va boshqalar.

So‘nggi yillarda qabul qiluvchi mamlakatlarda hamshiralik kasbiga talab ortib bormoqda. 2022-yilda birinchi marta O‘zbekiston tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan Shveytsariyaning “Globogate Recruiting GmbH” tashkiloti bilan hamkorlikda Germaniyadagi tibbiyot muassasalariga o‘rta darajadagi tajribali hamshiralarni jalb qilish maqsadida ishlab chiqilgan dasturga muvofiq Germaniyaga 31 o‘rta darajadagi hamshira yuborildi. Shuningdek, Isroil elchixonasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 10 000 dan ortiq o‘zbekistonlik mehnat muhojirlari - ayollar Isroilda kasal va qarilarga g‘amxo‘rlik qilganlar. Ushbu mamlakatdan chiqib ketishlar noqonuniy hisoblanadi, garchi O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Isroil davlati hukumati o‘rtasida O‘zbekistonlik ishchilarni Isroilda mehnat bozorining ayrim tarmoqlariga vaqtincha ishga joylashtirish to‘g‘risida

shartnoma imzolangan bo‘lsa-da, hozirgacha o‘zbekistonlik mehnat muhojirlarini ushbu mamlakatda qonuniylashtirish bo‘yicha hech qanday choralar ko‘rilmagan.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatdan jami 250,4 ming kishi chiqib ketgan bo‘lib, shundan 142,9 ming nafari ayollar, ya’ni jami emigrantlarning 57,1 foizini tashkil etgan. Erkaklar ulushi esa 42,9 foizni tashkil qilgan.



1-rasm. O‘zbekistondan emigratsiya qilgan ayollar sonining dinamikasi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.*

1-rasm ma’lumotlari ayollar emigratsiyasida yillar bo‘yicha sezilarli o‘zgarish mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, 2015-yilda mamlakatdan emigratsiya qilgan ayollar soni 109,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 166,6 ming kishiga yetgan. Keyingi yillarda ko‘rsatkich nisbatan pasaygan bo‘lsa-da, 2024-yilda 142,9 ming kishiga, 2025-yilda esa 146,6 ming kishiga yetgan. 2015-2025-yillar oralig‘ida ayol emigrantlar soni umumiy hisobda qariyb 33,4 foizga oshgan.

Demak, statistik ma’lumotlar ayollar migratsiyasini faqat “xorijga ishga ketish” ko‘rsatkichi orqali baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayollarning migratsion faolligi bandlik, ta’lim va kasbiy malaka, daromad darajasi, ishsizlik, oilaviy majburiyatlar va demografik omillar bilan kompleks ravishda bog‘liq holda o‘rganilishi lozim.

Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solish siyosatida ularni faqat migratsiya obyekti sifatida emas, balki malakali mehnat resursi va iqtisodiy faol subyekt sifatida ko‘rish muhim. Ayniqsa, xorijga chiqayotgan ayollarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, xorijiy tillarni o‘rgatish, xavfsiz va qonuniy ishga joylashtirish, mehnat huquqlarini himoya qilish hamda qaytib kelgan migrant ayollarni reintegratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish amaliy ahamiyatga ega.

Globallashuv sharoitida ayollar mehnat migratsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va demografik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanayotgan murakkab jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Ayollar uchun xavfsiz va qonuniy mehnat migratsiyasi kanallarini kengaytirish, xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda ayollar uchun mos ish o‘rinlari bazasini shakllantirish.

Migratsiyaga ketayotgan ayollarning kasbiy va til kompetensiyalarini oshirish - migratsiyadan oldingi tayyorgarlik dasturlarida kasbiy sertifikatlash, xorijiy tillar va mehnat huquqi bo‘yicha qisqa kurslarni kuchaytirish.

Ayollar migratsiyasini gender kesimida statistik monitoring qilish. Bunda migrant ayollarning yoshi, ma’lumoti, kasbi, bandlik turi, ish haqi, migratsiya mamlakati va migratsiya maqsadi bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Qaytib kelgan migrant ayollarni reintegratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, xususan ularning orttirilgan kasbiy ko‘nikmalarini tan olish, ishga joylashtirish va kichik biznes boshlashiga ko‘maklashish.

Ayollar ta’limi va bandligini migratsiya siyosati bilan integratsiyalash. Yuqori malakali ayollar uchun “ta’lim-malaka-bandlik-migratsiya” uzviyligini ta’minlovchi dasturlar ishlab chiqilishi mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solishda asosiy e’tibor migratsiya oqimini shunchaki kamaytirishga emas, balki xavfsiz, qonuniy, malakaga asoslangan va yuqori iqtisodiy qaytimga ega migratsiya imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2026. Geneva: International Organization for Migration, 2026.

2. Khidirov N., Mamadjonova S. The impact of women’s labor resources on economic growth in Uzbekistan. E3S Web of Conferences. 2023. Vol. 402. Article 09030. DOI: 10.1051/e3sconf/202340209030.

3. International Labour Organization. Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (No. 97). Geneva: ILO.

4. International Labour Organization. Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975 (No. 143). Geneva: ILO.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-apreldagi 252-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkil etilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

10. International Labour Organization. International labour standards and migrant workers’ rights: A Guide for policymakers and practitioners. Geneva: ILO, 2026.

11. World Bank. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC: World Bank, 2024.

12. United Nations. International Migration 2020: Highlights. Department of Economic and Social Affairs, Population Division. New York: United Nations, 2020.

13. Verick S. Female labor force participation and development. IZA World of Labor. 2014.

14. Altuzarra A., Gálvez-Gálvez C., González-Flores A. Female labour force participation and the entrepreneurial ecosystem. Economic Research-Ekonomska Istraživanja. 2019.

15. Khitarishvili T. Gender gaps in employment and its determinants in transition economies. Working Paper. Levy Economics Institute, 2016.

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.

ДИНАМИКА ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

PhD, доцент, ***Шоев Алим Халмуратович***
Гулистанский государственный университет

Глобализация существенно расширила масштабы международной мобильности рабочей силы. Развитие транспорта и информационных технологий, различия в уровне заработной платы, демографические изменения и международный спрос на рабочую силу способствуют формированию устойчивых миграционных потоков. В этих условиях трудовая миграция становится важным механизмом перераспределения трудовых ресурсов между странами и одновременно оказывает значительное влияние на доходы населения, рынок труда и социально-экономическое развитие государств.

Центральная Азия занимает особое место в системе международной трудовой миграции. Для стран региона характерны значительные различия по уровню экономического развития, доходам населения, демографическим темпам и структуре занятости. По данным Всемирного банка, в 2024 г. численность населения Узбекистана составляла около 36,4 млн человек, Таджикистана - 10,6 млн, Кыргызстана - 7,2 млн, Казахстана - 20,6 млн и Туркменистана - 7,5 млн человек [1]. Сохраняющийся прирост населения формирует дополнительное предложение рабочей силы и усиливает значение международной трудовой мобильности.

Существенным фактором выступают различия в уровнях экономического развития. В 2024 г. ВВП на душу населения составлял около 14,2 тыс. долл. США в Казахстане, 6,9 тыс. долл. в Туркменистане, 3,2 тыс. долл. в Узбекистане, 2,4 тыс. долл. в Кыргызстане и 1,3 тыс. долл. в Таджикистане [1]. Данные различия формируют экономические стимулы

для перемещения работников из стран с более низкими доходами на рынки труда с более высоким уровнем оплаты.

Основные тенденции трудовой миграции. Одним из важнейших факторов миграции в Центральной Азии является демографическая динамика. В 2024 г. годовой прирост населения составлял около 2,0% в Узбекистане, 1,9% в Таджикистане, 1,8% в Туркменистане, 1,7% в Кыргызстане и 1,3% в Казахстане [1]. При недостаточно быстром расширении формальной занятости демографический рост создает дополнительное давление на национальные рынки труда. При этом официальные показатели безработицы не полностью отражают ситуацию на рынке труда. Для стран региона характерны неформальная занятость, неполная и сезонная занятость, а также значительные различия в производительности труда. Поэтому решение о трудовой миграции может приниматься даже при относительно умеренном уровне официальной безработицы.

Исторически основным направлением трудовой миграции из Центральной Азии являлась Российская Федерация. Географическая близость, исторические связи, знание русского языка, сформированные миграционные сети и спрос на рабочую силу в строительстве, торговле, сельском хозяйстве, коммунальном хозяйстве и сфере услуг способствовали концентрации миграционных потоков на российском рынке труда.

Согласно оценкам Всемирного банка, около 85% временных мигрантов из Таджикистана и около 90% мигрантов из Кыргызстана направлялись в Российскую Федерацию, тогда как для Узбекистана данный показатель составлял около 65% [2]. Это свидетельствует о том, что миграционная модель Узбекистана уже характеризовалась большей географической диверсификацией.

Вместе с тем современный этап глобализации сопровождается постепенным расширением географии трудовой миграции. Наряду с Российской Федерацией возрастающее значение приобретают страны Европейского союза, Республика Корея, Турция, государства Персидского залива и другие азиатские рынки труда [3]. По данным IOM (Международной организация миграция), в период 2016-2019 гг. число граждан Центральной Азии, получивших разрешения на учёбу, работу или проживание в ЕС (Европейский союз), увеличилось на 14%, а число мигрантов из Узбекистана и Казахстана, переехавших в Республику Корея, увеличилось на 92% [3].

Таким образом, в регионе происходит переход от преимущественно концентрированной модели миграции к более диверсифицированной. При этом изменяется не только география, но и качественная структура миграционных потоков: возрастает значение образовательной, профессиональной и временной мобильности.

Денежные переводы как результат трудовой миграции. Одним из наиболее значимых экономических результатов трудовой миграции

являются денежные переводы мигрантов. Их роль в экономиках стран Центральной Азии существенно различается. Наиболее высокая зависимость от денежных переводов наблюдается в Таджикистане и Кыргызстане. В Таджикистане их объем в 2024 г. соответствовал 47,9% ВВП, а в Кыргызстане - 26,6%. В Узбекистане данный показатель составлял 14,4% [1]. Денежные переводы способствуют увеличению располагаемых доходов домохозяйств, финансированию потребления, образования, здравоохранения, строительства жилья и в отдельных случаях - развитию малого предпринимательства.

Одновременно высокая зависимость от переводов создает определенные макроэкономические риски. Изменение экономической ситуации в странах назначения, миграционного законодательства, валютных курсов или спроса на рабочую силу может непосредственно влиять на доходы семей и внутренний спрос стран происхождения мигрантов.

Качественная трансформация трудовой миграции. Современный международный рынок труда характеризуется повышением требований к квалификации работников. Если ранее для значительной части мигрантов было достаточно базовой профессиональной подготовки, то сегодня всё большее значение имеют профессиональная сертификация, знание иностранных языков, цифровая грамотность и наличие официально подтвержденной квалификации [4]. Для стран Центральной Азии это означает необходимость совершенствования системы подготовки потенциальных мигрантов. Конкурентоспособность работника на международном рынке труда определяется не только готовностью к перемещению, но и качеством человеческого капитала. Особое значение имеют: профессиональная подготовка и сертификация, знание иностранных языков, цифровые навыки, знание законодательства страны назначения, признание дипломов и профессиональных квалификаций, способность работать в формальном секторе экономики.

В этом отношении постепенно возрастает роль государства в регулировании международного трудоустройства. Например, в Узбекистане реализуются меры по диверсификации направлений миграции, профессиональной и языковой подготовке граждан, содействию в оформлении документов и виз, а также оказанию правовой и финансовой поддержки мигрантам [5]. Подобные меры способствуют переходу от преимущественно стихийной модели миграции к более организованной системе международного трудоустройства. Диверсификация стран назначения также позволяет снизить зависимость миграционных потоков от экономической и миграционной политики одного государства.

Основные проблемы и перспективы. Несмотря на положительный экономический эффект, трудовая миграция сопровождается рядом проблем. К ним относятся зависимость отдельных экономик от внешнего спроса на рабочую силу, высокая доля занятости мигрантов в низко производительных секторах, проблемы признания квалификаций,

неформальная занятость и ограниченный доступ к социальной защите. Кроме того, длительная миграция квалифицированных специалистов может привести к сокращению человеческого капитала в странах происхождения. Поэтому важным направлением государственной политики становится создание условий для возвращения и ре-интеграции мигрантов, накопивших профессиональный и финансовый капитал за рубежом.

Проведенный анализ позволяет выделить три основных этапа трансформации трудовой миграции в Центральной Азии:

Концентрация - преимущественное направление мигрантов на ограниченное число рынков труда, прежде всего в Российскую Федерацию.

Диверсификация - расширение географии миграции за счет стран Европы и Азии.

Качественная трансформация - повышение роли профессиональной квалификации, языковых и цифровых компетенций.

Именно третий этап имеет особое значение для долгосрочного развития региона. При условии повышения квалификации работников, накопления финансового капитала и создания возможностей для возвращения мигрантов трудовая мобильность может способствовать развитию человеческого капитала и предпринимательства.

Выводы. Трудовая миграция является устойчивым структурным элементом социально-экономического развития Центральной Азии. Основными факторами формирования миграционных потоков выступают демографический рост, различия в уровнях доходов и заработной платы, структура национальных рынков труда, международный спрос на рабочую силу и наличие устойчивых миграционных сетей. Российская Федерация сохраняет значительную роль в качестве основного направления трудовой миграции, особенно для граждан Таджикистана и Кыргызстана. Вместе с тем происходит постепенная диверсификация миграционных потоков в направлении стран Европейского союза, Республики Корея, Турции и других государств Азии.

Для повышения социально-экономической эффективности миграции целесообразно развивать профессиональную, языковую и цифровую подготовку мигрантов, совершенствовать механизмы признания квалификаций, расширять международные соглашения о трудоустройстве, усиливать социальную и правовую защиту работников, стимулировать производительное использование денежных переводов и создавать условия для возвращения и ре-интеграции квалифицированных мигрантов.

Таким образом, дальнейшая трансформация трудовой миграции в Центральной Азии будет определяться не только масштабом перемещения рабочей силы, но и способностью государств использовать миграционную мобильность как фактор накопления человеческого капитала, повышения доходов населения и устойчивого экономического развития.

Литературы:

1. World Bank. World Development Indicators. Data for Kazakhstan, Kyrgyz Republic, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank, 2024-2025.

2. Bossavie L., Garrote-Sánchez D., Makovec M. Migration Dynamics in Central Asia: Background and Context. World Bank, 2024.

3. International Organization for Migration (IOM). A Region on the Move 2023-2024: Migration Data Report. Geneva/Vienna: IOM, 2025.

4. ADBI, OECD, ILO. Labor Migration in Asia: Trends, Skills Certification, and Seasonal Work. Tokyo: Asian Development Bank Institute; OECD; International Labour Organization, 2024.

5. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Transition Report 2024-2025: Navigating Industrial Policy. Country Assessment: Uzbekistan. London: EBRD, 2024.

6. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. Geneva: IOM, 2024.

7. International Organization for Migration (IOM). Uzbekistan - Migration Situation Report: Quarterly Compilation, October–December 2024. IOM Displacement Tracking Matrix, 2025.

8. International Organization for Migration (IOM). Uzbekistan - Migration Situation Report: Quarterly Compilation, April-June 2024. IOM Displacement Tracking Matrix, 2024.

GLOBAL AXBOROT MAKONIDA YOSH MEHNAT MIGRANTLARINING IJTIMOIYLASHUVI VA MILLIY IDENTIKLIGINI SAQLASH: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Nomozov Xurshid Shavkat o‘g‘li
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Globallashuv jarayonlari va raqamli kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi mehnat migratsiyasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Bugungi yosh migrant xorijga ko‘chib ketgan shaxs sifatida emas, balki bir vaqtning o‘zida bir necha axborot, madaniy va kommunikativ makonlarda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Smartfon, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar va onlayn hamjamiyatlar migrantning yangi jamiyatga moslashuvi, kasbiy aloqalar o‘rnatishi, oilasi bilan muloqotni davom ettirishi hamda o‘z milliy-madaniy mansubligini saqlashida muhim vositaga aylanmoqda. Shu sababli yosh mehnat migrantlari ijtimoiylashuvini global axborot makonidagi kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ilmiy vazifadir.

Xalqaro migratsiya tashkilotining 2024-yilgi Jahon migratsiyasi hisobotida xalqaro migrantlar soni qariyb 281 million kishi ekani, mehnat esa xalqaro migratsiyaning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolayotgani qayd etiladi [1]. Mazkur holat migratsiya jarayonlarining global ko‘lamini ko‘rsatadi. Biroq zamonaviy migratsiyaning muhim xususiyati shundaki, insonning geografik ko‘chishi uning kommunikativ aloqalari uzilishi degani emas. Aksincha, raqamli vositalar orqali migrant vatandagi oila, do‘stlar, mahalla, til va madaniy makon bilan deyarli uzluksiz aloqada bo‘lib turadi. Bu holat “transmilliy ijtimoiylashuv” deb tavsiflash mumkin bo‘lgan yangi ijtimoiy tajribani yuzaga keltirmoqda.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi an’anaviy ravishda oila, ta’lim, mehnat jamoasi, mahalla va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshgan bo‘lsa, hozir ushbu institutlar qatoriga raqamli platformalar ham qo‘shildi. Migratsiya sharoitida platformalar ikki tomonlama funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular qabul qiluvchi jamiyatning mehnat bozori, huquqiy qoidalari, til muhiti va kundalik madaniyatiga moslashishni tezlashtiradi. Ikkinchidan, ular migrantning kelib chiqish mamlakati bilan ramziy va amaliy aloqalarini saqlab turadi. Natijada yosh migrantning ijtimoiy identikligi bir yoqlama emas, balki ko‘p qatlamli shaklda rivojlanadi: u bir vaqtning o‘zida o‘z milliy mansubligini his etishi, yashayotgan mamlakatning ijtimoiy me’yorlariga moslashishi va global raqamli madaniyatning faol iste’molchisiga aylanishi mumkin.

Milliy identiklik bu jarayonda o‘zgarmas va yopiq tushuncha emas. U til, tarixiy xotira, urf-odat, diniy va axloqiy qadriyatlar, milliy ramzlar hamda kundalik turmush amaliyotlari orqali muntazam qayta ishlab chiqiladi. Raqamli muhit esa identiklikning namoyon bo‘lish shakllarini kengaytiradi. Masalan, migrant yoshlar ona tilidagi kontentni kuzatishi, milliy bayramlarni onlayn hamjamiyatlarda nishonlashi, vatandagi voqealarni real vaqt rejimida kuzatishi, diaspora guruhlari orqali o‘zaro yordam tarmoqlarini yaratishi mumkin. Shu jihatdan raqamli texnologiyalar milliy identiklikni saqlashning yangi infratuzilmasini shakllantirmoqda.

Biroq mazkur jarayon faqat ijobiy natijalardan iborat emas. Global platformalarda tarqaladigan ommaviy madaniyat, algoritmik tavsiya tizimlari, qisqa va hissiy kontent, dezinformatsiya hamda stereotiplar yoshlarning qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. UNESCOning 2025-yilgi MondiaYouth hisobotida raqamli transformatsiya madaniyatni yaratish va tarqatish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, madaniy xilma-xillik, tarixiy xotira, axborot ishonchliligi va algoritmik tarafkashlik bilan bog‘liq yangi xavflarni ham kuchaytirayotgani ta’kidlanadi [2]. Shunday ekan, milliy identiklikni saqlash masalasi faqat “an’anani asrash” bilan cheklanmaydi; u raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo kompetensiyani ham talab etadi.

Yosh migrantning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi ko‘pincha til, huquqiy bilim, bandlik, turar joy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar orqali kechadi. Axborot yetishmasligi yoki ishonchsiz manbalarga tayanish mehnat ekspluatatsiyasi, noqonuniy vositachilik, hujjatlar bilan bog‘liq muammolar va ijtimoiy izolyatsiya xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli rasmiy va ishonchli raqamli axborot kanallarining mavjudligi migratsiya siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmon asosida Migratsiya agentligining vakolatlari va davlat siyosatini muvofiqlashtirish mexanizmlari qayta belgilangan [3]. Bu islohotlar migratsiya jarayonlarida fuqarolarga ishonchli axborot va xizmatlarni yetkazishning institutsional ahamiyatini kuchaytiradi.

Global axborot makonida yosh migrantlar bilan ishlashda uchta yo‘nalish ustuvor bo‘lishi maqsadga muvofiq. Birinchi yo‘nalish – migratsiyadan oldingi

raqamli tayyorgarlik. Bunda xorijga chiqayotgan yoshlarga mehnat shartnomasi, qonuniy bandlik, yashash qoidalari, kiberxavfsizlik, firibgarlik sxemalarini aniqlash, rasmiy manbalarni tekshirish va favqulodda murojaat kanallari bo‘yicha qisqa onlayn kurslar taklif etilishi lozim. Bunday tayyorgarlik migratsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, yoshning yangi muhitga ongli va xavfsiz moslashuviga yordam beradi.

Ikkinchi yo‘nalish – diaspora va raqamli hamjamiyatlarning ijtimoiy kapitalidan foydalanish. Diaspora guruhlari ko‘pincha yangi kelgan migrantlarga ish, uy-joy, transport, tarjima, huquqiy maslahat va kundalik hayotga doir amaliy ko‘mak beradi. Biroq bunday norasmiy tarmoqlardagi axborot har doim ham tekshirilgan bo‘lmasligi mumkin. Shu bois davlat idoralari, konsullik muassasalari, Migratsiya agentligi va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda moderatsiya qilinadigan ishonchli onlayn hamjamiyatlarni rivojlantirish zarur. Bunda milliy-madaniy kontent faqat ramziy targ‘ibot emas, balki huquqiy savodxonlik, psixologik moslashuv, til o‘rganish va kasbiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish – qaytib kelgan yosh migrantlarni reintegratsiya qilishda ularning raqamli va madaniyatlararo tajribasidan foydalanish. Migratsiya davomida egallangan til ko‘nikmalari, mehnat intizomi, yangi texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish standartlari va xalqaro kommunikatsiya tajribasi mahalliy mehnat bozorida muhim resurs bo‘lishi mumkin. Reintegratsiya siyosati faqat ish bilan ta’minlashga emas, balki migrantning ijtimoiy tajribasini mahalliy jamiyatga qayta ulashga qaratilishi lozim. Bu yondashuv “migratsiya – ketish” modelidan “migratsiya – tajriba orttirish – qayta integratsiya” modeliga o‘tishga xizmat qiladi.

Milliy identiklikni saqlash nuqtayi nazaridan ham reintegratsiya alohida ahamiyatga ega. Uzoq vaqt boshqa madaniy muhitda yashagan yosh qaytib kelgach, qadriyatlar, kommunikatsiya uslubi va ijtimoiy kutishlaridagi farqlar sababli qayta moslashuv bosqichini boshdan kechirishi mumkin. Agar bu jarayon qo‘llab-quvvatlanmasa, shaxsda “ikki makon orasida qolish” hissi kuchayishi ehtimoli mavjud. Shu bois mahalliy ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va mahalla tizimi qaytgan migrantlarni ijtimoiy loyihalar, tadbirkorlik, volontyorlik hamda mentorlik dasturlariga jalb etishi maqsadga muvofiq. Bu orqali ularning xorijda orttirgan tajribasi jamiyat manfaatiga yo‘naltiriladi, milliy mansublik esa zamonaviy va ochiq mazmunda mustahkamlanadi.

Raqamli muhitdagi identiklikni saqlashda ona tilining roli ayniqsa muhimdir. Til shaxsning tarixiy xotira, madaniy kodlar va ijtimoiy mansublik bilan aloqasini ta’minlaydi. Shu bois xorijdagi yoshlar uchun sifatli o‘zbek tilidagi ta’limiy, huquqiy va madaniy kontentni ko‘paytirish, milliy adabiyot, tarix, san’at va zamonaviy ijod namunalarini raqamli formatlarda tarqatish zarur. Bunda bir tomonlama targ‘ibotdan ko‘ra interaktiv formatlar – podkast, qisqa videodars, onlayn munozara, raqamli kutubxona, viktorina va hamkorlikdagi media loyihalar samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, yosh migrantlarning milliy identikligini saqlashni boshqa madaniyatlardan ajralish yoki yopiq diasporaviy muhitni shakllantirish bilan

tenglashtirish to‘g‘ri emas. Barqaror identiklik shaxsga o‘z ildizlarini anglagan holda boshqa jamiyat va madaniyatlar bilan konstruktiv muloqot qilish imkonini beradi. UNESCO raqamli makonda madaniyatlararo kompetensiya, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli kommunikatsiya ijtimoiy birdamlik uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi [4]. Demak, yosh migrantning milliy o‘zligini saqlashi va qabul qiluvchi jamiyatga integratsiyasi bir-biriga qarama-qarshi emas, aksincha, to‘g‘ri boshqarilganda o‘zaro to‘ldiruvchi jarayonlardir.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan kelgusida yosh mehnat migrantlarining raqamli xulq-atvori, qaysi platformalardan foydalanishi, qaysi turdagi kontent ularning milliy mansublik hissiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi, diaspora guruhlarining real ijtimoiy yordamdagi o‘rni va qaytib kelgandan keyingi reintegratsiyada raqamli aloqalarning ahamiyatini empirik usullar bilan o‘rganish zarur. So‘rovnoma, yarim tuzilmali intervyu, kontent-tahlil va raqamli etnografiya usullarini birlashtirish bu murakkab jarayonni chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa, turli yosh, jins, kasb va migratsiya tajribasiga ega guruhlarni qiyosiy tahlil qilish muhim natijalar berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, global axborot makoni yosh mehnat migrantlari uchun bir vaqtning o‘zida moslashuv vositasi, ijtimoiy kapital manbai va milliy identiklikni qayta ishlab chiqish maydoni vazifasini bajarmoqda. Raqamli kommunikatsiyalar vatandan geografik uzoqlikni ma’lum darajada kamaytiradi, ammo shu bilan birga axborot manipulyatsiyasi, madaniy birxillashuv va ishonchsiz kontent kabi yangi xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun migratsiya siyosatida iqtisodiy bandlik masalalari bilan bir qatorda raqamli savodxonlik, ishonchli axborot infratuzilmasi, madaniy-ma’rifiy kontent, diaspora hamkorligi va reintegratsiya mexanizmlariga kompleks yondashuv zarur. Ana shunday yondashuv yosh migrantning yangi jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi bilan o‘z milliy-madaniy identikligini saqlashi o‘rtasida barqaror muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. Geneva: IOM, 2024.

2. UNESCO. MondiaYouth Report 2025: Culture, Digital Transformation and Artificial Intelligence. Paris: UNESCO, 2026.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmoni.

4. UNESCO. Forging intercultural understanding in the digital sphere. Paris: UNESCO, 2026.

5. Castells M. The Power of Identity. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.

6. Jenkins R. Social Identity. 4th ed. London: Routledge, 2014.

QISHLOQDAN SHAHARGA MIGRATSIYA VA AHOLI DAROMADLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat Universiteti dotsenti
sh.xamdamov@tsue.uz
Rustamova Muhlisa Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi
muxaweu@gmail.com

Mazkur tezisda O‘zbekistonda qishloqdan shaharga ichki mehnat migratsiyasi va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiyaning asosiy iqtisodiy sabablari, shaharlarda ish haqi va bandlik imkoniyatlarining yuqoriligi, qishloq hududlaridagi daromad tafovutlari hamda ichki migratsiyaning uy xo‘jaliklari farovonligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston bo‘yicha 2025-yil ichki migratsiya va aholi jon boshiga umumiy daromadlar statistikasi qiyosiy tahlil qilinib, migratsiya oqimlari yuqori bo‘lgan hududlar bilan daromad darajasi o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatildi. Natijalar qishloqdan shaharga ko‘chish qarorida ish o‘rinlari, ish haqi, ta’lim va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Shu asosda ichki migratsiyani muvozanatli boshqarish va qishloq hududlarida daromad keltiruvchi ish o‘rinlarini kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Ichki migratsiya mamlakat mehnat resurslarining hududiy qayta taqsimlanishiga olib keladigan muhim demografik va iqtisodiy jarayondir. Qishloqdan shaharga migratsiya ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o‘rinlari va daromadlar o‘rtasidagi hududiy tafovutlar bilan chambarchas bog‘liq. Shaharlar odatda sanoat, savdo, xizmatlar, ta’lim va zamonaviy infratuzilmaning yuqori darajada jamlangan hududi bo‘lgani sababli, mehnat resurslari uchun ko‘proq va xilma-xil daromad manbalarini taklif qiladi. Shu bilan birga, qishloq hududlarida qishloq xo‘jaligiga yuqori bog‘liqlik, mavsumiy bandlik va ish haqining nisbatan pastligi aholining shaharlarga ko‘chish istagini kuchaytirishi mumkin.

Mazkur masala O‘zbekiston uchun ham dolzarb. Mamlakatda hududlar o‘rtasida iqtisodiy faollik va daromadlar darajasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lib, yirik shaharlar, xususan Toshkent, mehnat resurslarini jalb qiluvchi asosiy markazlardan biri hisoblanadi. Jahon banki tahlillarida O‘zbekistondagi ichki migratsiya oqimlarining muhim qismi qishloqdan shaharga yo‘nalishi, Toshkent esa ichki migrantlar uchun asosiy manzil ekani qayd etilgan. Bunda yuqoriroq ish haqi va bandlik imkoniyatlari migratsiyaning muhim iqtisodiy omili sifatida ko‘rsatiladi.

Tadqiqotning maqsadi bu O‘zbekistonda qishloqdan shaharga migratsiya va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni iqtisodiy-statistik jihatdan yoritish hamda migratsiya jarayonining ijobiy va salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish. Tadqiqotda statistik taqqoslash va hududlararo qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Qishloqdan shaharga migratsiyaning iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda

Harris–Todaro modeli muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs migratsiya qarorini faqat mavjud ish haqiga emas, balki shaharda ish topish ehtimoli va kutilayotgan daromadga asoslangan holda qabul qiladi. Shuning uchun shahardagi yuqori ish haqi migratsiyani rag‘batlantirishi mumkin, biroq ish topish xavfi va yashash xarajatlari ham qarorga ta’sir qiladi.

Lucasning rural-urban migratsiya haqidagi nazariy yondashuvida shaharlar inson kapitalini to‘plash, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish va yuqori unumdor ishlab chiqarishga o‘tish imkoniyatlarini yaratadigan muhit sifatida talqin qilinadi. Demak, migratsiyaning daromadga ta’siri faqat ish haqi farqi bilan cheklanmaydi. Migrant shaharda yangi kasbiy ko‘nikmalar orttirishi, xizmatlar sektoriga kirishi va uzoq muddatda daromad salohiyatini oshirishi mumkin.

Biroq migratsiya har doim ham avtomatik ravishda daromadlarning oshishiga olib kelmaydi. Shahar mehnat bozorida raqobat kuchli bo‘lsa, migrantlar norasmiy yoki past malakali ishlarda band bo‘lishi mumkin. Uy-joy, transport va oziq-ovqat xarajatlarining yuqoriligi ham qo‘shimcha daromadning real farovonlikka aylanishini cheklaydi. Shu sababli qishloqdan shaharga migratsiyani baholashda nominal daromad bilan bir qatorda yashash xarajatlari, bandlikning rasmiyligi va mehnat unumdorligini ham hisobga olish zarur.

O‘zbekiston tajribasi. O‘zbekistonda ichki migratsiya hajmi xalqaro migratsiyaga nisbatan nisbatan past bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda hududlararo ko‘chish jarayonlari faollashmoqda. IOM ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda mamlakat ichida bir hududdan boshqasiga ko‘chib o‘tganlar soni 212,5 ming kishini tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 1,4 baravar yuqori bo‘lgan. Toshkent shahri ichki migrantlar uchun asosiy yo‘nalish bo‘lib, 2022-yilda poytaxtga 97,7 ming kishi kelgan. Qishloq hududlaridan esa 72 mingdan ortiq kishi chiqib ketgan.

2025-yil bo‘yicha hududiy ma’lumotlar ham Toshkent shahrining migratsion jozibadorligini ko‘rsatadi. Ichki migratsiya hisobida Toshkent shahriga 89,6 mingga yaqin kishi ko‘chib kelgan, ichki migratsiya bo‘yicha chiqib ketganlar esa 68,8 ming atrofida bo‘lgan. Natijada poytaxtda ichki migratsiya bo‘yicha ijobiy saldo shakllangan. Aksincha, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona kabi yirik hududlarda ichki migratsiya bo‘yicha manfiy saldo kuzatiladi.

Daromadlar bo‘yicha statistika migratsiyaning iqtisodiy sababini tushuntirish uchun muhim ko‘rsatkich beradi. Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda aholi jon boshiga umumiy daromad 29 935,5 ming so‘mni tashkil etgan. Toshkent shahrida ushbu ko‘rsatkich 73 910,5 ming so‘mga yetgan. Bu mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan qariyb 2,5 baravar yuqori. Shu bilan birga, Qashqadaryoda 23 517,5 ming so‘m, Surxondaryoda 22 572,2 ming so‘m, Samarqandda 24 471,0 ming so‘m va Farg‘onada 24 582,7 ming so‘mni tashkil etgan.

Quyidagi jadval ma’lumotlari qishloqdan shaharga migratsiya bilan daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hududlar misolida ko‘rishga imkon beradi. Eng yuqori ijobiy ichki migratsiya saldosi Toshkent shahrida kuzatilgan va aynan shu hududda aholi jon boshiga umumiy daromad ham eng yuqori darajada.

Toshkent viloyatida ham migratsiya saldosi ijobiy bo‘lib, daromad mamlakat o‘rtachasiga yaqin. Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida esa ichki migratsiya saldosi manfiy. Ushbu holat mazkur hududlardan mehnat resurslarining yuqori daromad va bandlik imkoniyatlari mavjud markazlarga oqib ketishi ehtimolini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Ayrim hududlarda ichki migratsiya va aholi jon boshiga umumiy daromad, 2025-yil

Hudud	Ichki ko‘chib kelganlar, ming kishi	Ichki ko‘chib ketganlar, ming kishi	Migratsiya saldosi, ming kishi	Jon boshiga umumiy daromad, ming so‘m
Toshkent shahri	89.588	68.847	+20.741	73,910.5
Toshkent viloyati	30.901	23.813	+7.088	29,830.9
Qashqadaryo viloyati	11.971	18.347	-6.376	23,517.5
Samarqand viloyati	13.706	17.866	-4.160	24,471.0
Surxondaryo viloyati	10.832	14.358	-3.526	22,572.2
Farg‘ona viloyati	15.322	16.489	-1.167	24,582.7

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari hamda 2025-yil ichki migratsiya statistikasi asosida muallif hisob-kitobi.*

Shu bilan birga, jadvaldagi bog‘liqlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Yuqori daromad migratsiyani jalb qilishi mumkin, biroq migratsiyaning o‘zi ham ishchi kuchining hududiy taqsimlanishi, uy xo‘jaliklari daromadi va iqtisodiy faollikka ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, migratsiya qaroriga ta’lim, oilaviy aloqalar, uy-joy, transport, infratuzilma va ma’muriy omillar ham ta’sir qiladi. Shuning uchun kelgusida ushbu munosabatni panel ma’lumotlar, korrelyatsion-regression tahlil yoki hududlar bo‘yicha ekonometrik model yordamida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

Qishloqdan shaharga migratsiyaning aholi daromadlariga ta’siri ikki tomonlama namoyon bo‘ladi. Birinchi tomondan, migrant shaharda yuqoriroq ish haqi olishi, rasmiy bandlikka kirishi yoki yangi kasb egallashi natijasida shaxsiy va oilaviy daromadini oshirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, qishloq hududidan mehnatga layoqatli aholining chiqib ketishi mahalliy mehnat resurslarini kamaytirishi, ayrim qishloq xo‘jaligi va xizmatlar tarmoqlarida kadrlar yetishmovchiligini keltirib chiqarishi mumkin. Agar migrant oilasiga daromad yuborsa, qishloqda qolgan uy xo‘jaligi uchun bu salbiy ta’sirni qisman qoplaydi.

Muammolar va takliflar. Birinchi muammo bu hududlar o‘rtasidagi daromad tafovutlarining migratsiyani kuchaytirishi. Buni kamaytirish uchun qishloq hududlarida qayta ishlash sanoati, logistika, xizmat ko‘rsatish va raqamli ish o‘rinlarini rivojlantirish zarur. Ikkinchi muammo, migrantlarning shaharda uy-joy va transport xarajatlariga duch kelishi. Shu sababli yirik shaharlar atrofida

arzon uy-joy, jamoat transporti va ishga joylashish infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish muhim.

Uchinchi yo‘nalish, qishloq yoshlarining kasbiy tayyorgarligini mehnat bozori talabiga moslashtirish. Agar yoshlar shaharga ko‘chishdan oldin talab yuqori bo‘lgan kasblarga ega bo‘lsa, ularning rasmiy va yuqori daromadli ishga joylashish ehtimoli oshadi. To‘rtinchi yo‘nalish, ichki migratsiya statistikasi va daromad ma’lumotlarini birlashtirish. Hududlar bo‘yicha migrantlarning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi, kasbi, ish haqi va yashash xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona statistik tizimda kuzatish davlat siyosatining samaradorligini oshiradi.

O‘zbekistonda qishloqdan shaharga migratsiya va aholi daromadlari o‘rtasida sezilarli iqtisodiy bog‘liqlik mavjud. Yuqori daromad va bandlik imkoniyatlariga ega hududlar, ayniqsa Toshkent shahri, ichki migrantlar uchun kuchli tortish markazi bo‘lib qolmoqda. 2025-yil ma’lumotlarida Toshkent shahrida ichki migratsiyaning ijobiy saldosi va aholi jon boshiga daromadning eng yuqori ko‘rsatkichi bir vaqtda kuzatilgani ushbu munosabatning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq migratsiyani faqat shaharlar hisobiga kengaytirish emas, qishloq hududlarida ham munosib daromadli ish o‘rinlarini yaratish barqaror rivojlanish uchun muhimdir.

Shuning uchun O‘zbekistonning ichki migratsiya siyosati ikki yo‘nalishni birlashtirishi lozim: bir tomondan, fuqarolarning mehnat va yashash joyini erkin tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, ikkinchi tomondan esa qishloq hududlarining iqtisodiy jozibadorligini oshirish. Buning uchun hududiy sanoat va xizmatlar, kasbiy ta’lim, transport, raqamli bandlik va kichik biznesni rivojlantirishga yo‘naltirilgan choralar migratsiya bosimini muvozanatlashtirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Baxtiyorovich, A. B. (2026). Andijon oblastida aholi ko ‘chirilishi (migratsiya) jarayonlari (1965–1975-YILLAR). Qo ‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali, 8(2), 672-676.

2. Nafiddinova, X. R. (2026). Migratsiya jarayonlarining millatlararo munosabatlarga ta’siri. Innovation and development, 4(4), 203-208.

3. Mamatqulov, A. (2024). Migratsiyaning urbanizatsiya jarayoniga ta’siri. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 74-76.

4. Mirzoxidjon o‘g, Q. L. V. (2025). 1946-1991-yillarda O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy tasiri. Научный Фокус, 3(28), 76-80.

5. Ismailov, Ermamatova, S. (2024). Urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashning ahamiyati va usullari. Journal of Fundamental Studies, 2(2), 63-68.

6. . Mirolimov, M. (2026). Aholi ichki migratsiyasining mehnat bozoriga ta’sirini statistik o‘rganish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(3), 169–176. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss3-pp169-176

7. Shaislamova, N. K., & Sabirova, L. Sh. (2025). Internal migration trends in Uzbekistan: Causes, consequences, and policy responses. Academicia Globe: Inderscience Research, 6(9), 1–

ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Рахматуллаева Шахноза Хамидовна
ТГЭУ, доцент кафедры Экономика труда
Камолиддинова Феруза Мирзохид кизи
ТГЭУ, магистрант специальности «Бизнес-управление» группы MBA-25R

В условиях глобализации международная трудовая миграция становится значимым фактором социально-экономического развития государств. Для Узбекистана данный процесс имеет особое значение вследствие масштабов внешней трудовой мобильности, различий в уровне оплаты труда и значительного объёма денежных средств, поступающих из-за рубежа. При этом трудовая миграция и денежные переводы являются взаимосвязанными, но не тождественными процессами: первая характеризует перемещение граждан для работы за рубежом, вторые — трансграничное движение финансовых ресурсов, а их доля в доходах населения отражает значение внешних поступлений для домохозяйств.

Для объективной оценки необходимо разграничивать соответствующие статистические показатели. Численность граждан, работающих за рубежом, отражает масштаб внешней трудовой занятости, объём переводов — движение финансовых ресурсов, а их доля в доходах населения — роль таких поступлений в формировании ресурсов домохозяйств. Эти показатели не являются взаимозаменяемыми. Дополнительную сложность создаёт циркулярный характер миграции, при котором один гражданин может неоднократно выезжать и возвращаться, поэтому число пересечений границы не соответствует числу уникальных трудовых мигрантов.

В Узбекистане формируется более институционализированная система управления внешней трудовой миграцией. Агентство по миграции при Кабинете Министров осуществляет государственное регулирование организованного трудоустройства граждан за рубежом, лицензирование частных агентств занятости, а также профессиональную и языковую подготовку мигрантов [1]. Одновременно расширяется география трудоустройства: наряду с традиционными направлениями — Россией, Казахстаном, Республикой Корея и Турцией — развиваются направления в странах Европы, Азии и Ближнего Востока.

Одним из ключевых показателей экономического значения внешней трудовой миграции является динамика денежных переводов. Как показывает таблица 1, в 2017–2025 гг. их объём в целом увеличивался: с 4,9 млрд долл. США в 2017 году до 18,9 млрд долл. в 2025 году. Наиболее резкий прирост — 108% — зафиксирован в 2022 году. После снижения до 11,4 млрд долл. в 2023 году динамика вновь стала положительной: в 2024 году объём переводов достиг 14,8 млрд долл., а в 2025 году — 18,9 млрд долл. [2]

Таблица 1

Динамика денежных переводов в Узбекистане в 2017–2025 гг.

Год	Денежные переводы, млрд долл.	Изменение, %	Доля в ВВП, %
2017	4,9	+8,8	6,8
2018	5,1	+4,0	8,3
2019	6,01	+17,8	8,5
2020	6,03	+0,3	8,6
2021	8,1	+34,3	9,9
2022	16,9	+108,0	17,9
2023	11,4	–32,5	10,6
2024	14,8	+29,8	12,2
2025	18,9	+28,0	—

Источник: *Составлено автором по данным Центрального банка Республики Узбекистан [2].*

Однако сам по себе объём денежных переводов не позволяет определить ни количество трудовых мигрантов, ни степень зависимости конкретных домохозяйств от этих средств. Как представлено в таблице 2, показатели миграционной мобильности, официального трудоустройства, финансовых поступлений и доходов населения относятся к различным объектам статистического наблюдения. Например, количество выездов может быть выше числа уникальных мигрантов, поскольку один человек способен несколько раз пересекать границу в течение года.

Таблица 2

Разграничение основных показателей трудовой миграции и денежных потоков

Показатель	Что характеризует
Численность трудовых мигрантов	Масштаб внешней трудовой занятости
Число въездов и выездов	Интенсивность миграционной мобильности
Участники организованного трудоустройства	Масштаб официального канала трудовой миграции
Денежные переводы	Объём наблюдаемого трансграничного финансового потока
Переводы из отдельных стран	География происхождения финансовых поступлений
Доля переводов в доходах населения	Значение внешних поступлений для ресурсов домохозяйств

Источник: *составлено автором на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан, Национального комитета по статистике и Агентства по миграции.*

Экономическое значение денежных переводов особенно отчётливо проявляется при рассмотрении их роли в формировании доходов населения. По данным Национального комитета по статистике, за январь–июнь 2025 года доля денежных переводов, полученных из-за пределов республики, в совокупных доходах населения составляла 20,5%. При этом необходимо отличать данный показатель от более широкой категории доходов от трансфертов, которая по итогам 2025 года составила 29,6%

совокупного дохода населения [3]. Следовательно, данные показатели нельзя отождествлять: категория трансфертов включает более широкий круг поступлений.

Таблица 3

Значение денежных переводов и трансфертов в доходах населения Узбекистана

Показатель	Значение	Период
Доля денежных переводов из-за рубежа в совокупном доходе населения	20,5%	январь–июнь 2025 г.
Доля доходов от трансфертов в совокупном доходе	29,6%	январь–декабрь 2025 г.
Совокупный доход населения	1 134,3 трлн сум	январь–декабрь 2025 г.

Источник: *Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике[3].*

Как видно из таблицы 3, внешние поступления занимают существенное место в формировании ресурсов населения. Денежные переводы используются домохозяйствами для текущего потребления, приобретения и строительства жилья, оплаты образования и медицинских услуг, погашения долгов и формирования сбережений. В результате они поддерживают внутренний спрос и могут способствовать снижению социально-экономической уязвимости семей, имеющих членов, работающих за рубежом.

Одновременно денежные переводы имеют значение для валютного рынка. Согласно данным Центрального банка, в 2025 году 52% трансграничных поступлений физических лиц были осуществлены через традиционные международные системы денежных переводов, 46% — посредством P2P-переводов непосредственно на банковские карты и 2% — банковскими переводами [2]. Структура каналов поступления представлена в таблице 4.

Данные таблицы 4 свидетельствуют о цифровизации трансграничных финансовых операций: практически половина поступлений физических лиц осуществляется посредством P2P-переводов на банковские карты, объём которых в 2025 году увеличился в 1,4 раза по сравнению с 2024 годом [2]. Это снижает транзакционные барьеры и повышает прозрачность финансовых потоков.

Таблица 4

Структура каналов поступления денежных переводов в Узбекистан в 2025 году

Канал	Доля	Объём, млрд долл.
Международные системы денежных переводов	52%	9,9
P2P-переводы на банковские карты	46%	8,6
Банковские переводы	2%	0,4
Итого	**100%**	**18,9**

Источник: *Центральный банк Республики Узбекистан [2].*

Вместе с тем значительный объём денежных переводов усиливает зависимость доходов домохозяйств от внешних рынков труда. Изменение спроса на рабочую силу, миграционного законодательства и уровня заработной платы в странах назначения может привести к сокращению поступлений. Дополнительным риском остаётся концентрация миграционных потоков на отдельных направлениях, что повышает значение диверсификации рынков труда.

С учётом выявленных тенденций государственную политику целесообразно ориентировать не только на увеличение объёма трудовой миграции, но и на повышение её экономической отдачи. Приоритетными направлениями являются расширение легальных каналов трудоустройства и географии миграции, усиление профессиональной и языковой подготовки, развитие инструментов инвестирования денежных переводов в образование и предпринимательство, а также совершенствование реинтеграции возвращающихся мигрантов.

Таким образом, денежные переводы трудовых мигрантов стали значимым элементом социально-экономической системы Узбекистана. Их объём увеличился с 4,9 млрд долл. США в 2017 году до 18,9 млрд долл. в 2025 году, обеспечивая поддержку доходов населения, стимулирование внутреннего спроса и приток иностранной валюты. Вместе с тем долгосрочная эффективность трудовой миграции должна оцениваться не только по объёму переводов, но и по их способности трансформироваться в инвестиции, предпринимательскую активность и создание рабочих мест внутри страны.

Литературы:

1. Агентство по миграции при Кабинете Министров Республики Узбекистан. Основные задачи и функции Агентства по миграции. — 2026.

2. Центральный банк Республики Узбекистан. Review of International Migration and Individuals' Foreign Exchange Operations. — 2026.

3. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Совокупные доходы населения Республики Узбекистан. — 2026.

4. Международная организация по миграции. Uzbekistan Migration Data Mapping Report. — 2025.

5. Международный валютный фонд. Balance of Payments and International Investment Position Manual. Sixth Edition (BPM6). — Washington, D.C., 2009.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDAGI MIGRATSIYANING UMUMIY TAHLILI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Rahmatova Nargizaxon A’zamxonovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Atoyev Navro‘zbek Rinatovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Globallashuv sharoitida mehnat resurslarining xalqaro harakati kuchayib, mehnat migratsiyasi O‘zbekiston uchun ham muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonga aylandi. Mamlakatda mehnat resurslari sonining o‘sishi va ichki

mehnat bozorida yuqori daromadli ish o‘rinlariga bo‘lgan talabning to‘liq qondirilmasligi fuqarolarni xorijda ishlashga undamoqda. Shu bilan birga, xorijiy mehnat bozorlari yuqoriroq daromad va yangi kasbiy tajriba olish imkoniyatini yaratmoqda.

O‘zbekiston mehnat migratsiyasi asosan vaqtinchalik xususiyatga ega. 2023-yilda qariyb 2 million nafar O‘zbekiston fuqarosi xorijda ishlagan bo‘lib, ularning 67 foizini 20–40 yoshdagi shaxslar tashkil etgan. [1] Migrantlarning 72,4 foizi erkaklar, 27,6 foizi ayollar bo‘lgan. Asosiy migratsiya yo‘nalishlari Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Janubiy Koreya hisoblanadi. [2]

O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish sharoitida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, malakali ishchi kuchining chiqib ketishini oldini olish va inson kapitalini rivojlantirish kabi masalalar yuqori ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni [4] va shu kabi qonuniy hujjatlarning qabul qilinishi ham O‘zbekiston sharoitida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal etishning qay darajada muhim ekanligini namoyish etadi.


Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tezisda ma’lumotlar empirik kuzatuv, tanlab olish va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan holda tadqiq etildi. Tadqiqotda O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi, IOM, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi: Mehnat migratsiyasi mavzusi global miqyosda keng tatqi qilingan soha hisoblanadi. Masalan, William Seitz “*International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan*” tadqiqotida O‘zbekiston xalqaro mehnat migratsiyasini uy xo‘jaliklari farovonligi va mahalliy mehnat bozori bilan bog‘liq holda tadqiq qilgan. U O‘zbekistondagi zaif mahalliy mehnat bozori migratsiyaning muhim omillaridan biri ekanini, xorijga mehnat migratsiyasi esa migrantlar va ularning oilalarining iqtisodiy farovonligini yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatgan. [5]

Shuningdek, Gil S. Epstein, Ilhom Abdulloev va Ira N. Gang bilan birgalikda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikistondagi migratsiyaning inson kapitali va ta’limga ta’sirini tadqiq qilgan. Tadqiqotda yuqori xorijiy daromadlar yoshlarning qo‘shimcha ta’lim olish o‘rniga past malakali, ammo yuqori daromadli xorijiy ishlarni tanlashiga olib kelishi va natijada inson kapitalini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan. [6]

Mahalliy olimlardan Abduraxmonov.Q va Zokirova.N “Main Trends and Directions of External Migration of the Republic of Uzbekistan Main Trends and Directions of External Migration of the Republic of Uzbekistan” maqolada O‘zbekistonning tashqi va mehnat migratsiyasining asosiy omillari, dinamikasi va yo‘nalishlarini tahlil qiladi. Mualliflar Rossiya va Janubiy Koreya yo‘nalishlari misolida migratsiya jarayonlarining o‘zgarishini hamda O‘zbekiston ichidagi migratsiyaga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqqan. [7]

Mehnat migratsiyasi - aholining ishga joylashish yoki daromad olish maqsadida bir hudud yoki davlatdan boshqasiga ko‘chib o‘tish jarayonidir. Xalqaro mehnat migratsiyasi globallashuv sharoitida mehnat bozorlari o‘rtasidagi farqlar, ish haqi darajasi, bandlik imkoniyatlari va ishchi kuchiga bo‘lgan talabning turlicha shakllanishi natijasida yuzaga keladi.[8] Migratsiya natijasida ishchi kuchi talab yuqori bo‘lgan hudud va davlatlarga yo‘naltirilib, mehnat resurslarining xalqaro taqsimlanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. O‘zbekistondagi umumiy migratsiya darajasi, 2021-2025, ming kishi [9].

2021–2025 yillarda xorijga doimiy ko‘chib ketish xorijdan ko‘chib kelishdan doimo ustun bo‘lib, migratsiya saldosi har yili manfiy qolgan. Ketganlar soni 2021 yilgi eng yuqori nuqtadan taxminan ikki baravar kamayib, so‘nggi ikki yilda 10 ming kishi atrofida barqarorlashgan. Xorijdan kelganlar esa 2023 yildan keyin pasayib, 2025 yilda tahlil davridagi eng past darajaga tushgan.


Doimiy ko‘chish hajmi mehnat migratsiyasi bilan solishtirilganda juda kichik ko‘rinadi. Rasmiy ma’lumotlarga tayangan hisobotga ko‘ra, o‘zbekistonlik mehnat migrantlari soni qariyb 2,1 million kishiga yetgan, ularning 62 foizi Rossiyada, 11 foizi Qozog‘istonda, 6 foizi Turkiyada, 3 foizi Koreyada. Shunga ko‘ra, 2025 yilda xorijga doimiy ko‘chib ketganlar mehnat migrantlari sonining taxminan **0,5 foizini** tashkil qiladi, ya’ni har bir doimiy ko‘chib ketuvchiga taxminan 200 nafar mehnat migranti to‘g‘ri keladi. Xorijdan kelganlarning ulushi esa 0,1 foizdan ham past.

Demak, mamlakatning xalqaro migratsiyadagi asosiy ishtiroki doimiy ko‘chish emas, vaqtinchalik mehnat migratsiyasi bilan belgilanadi. Migratsiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiyaning o‘zida 1,3 millionga yaqin fuqaro vaqtincha ishlamoqda va bu son mavsum hamda ish beruvchilar talabiga qarab o‘zgarib turadi. Shu sababli migratsiya siyosatida asosiy e’tibor mehnat migrantlarini himoya qilish, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish va doimiy ketishning oldini olish choralariga qaratilishi lozim.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta’siri ikki tomonlama xususiyatga ega. Ijobiy jihatdan, migrantlarning mehnat faoliyati kelib chiqish mamlakatlariga pul o‘tkazmalari, xorijda orttirilgan bilim va kasbiy ko‘nikmalar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro mehnat tashkiloti migratsiya ishchi kuchiga bo‘lgan talabni

qoplash, ko‘nikmalar almashinuvi va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam berishini, kelib chiqish mamlakatlari esa pul o‘tkazmalari va qaytib kelgan migrantlarning tajribasidan foyda olishini qayd etadi.[10]

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari ham mavjud. Mehnatga layoqatli va malakali aholining ko‘p miqdorda xorijga ketishi ayrim tarmoqlarda ishchi kuchi yetishmovchiligi va “brain drain” holatini yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiyotning pul o‘tkazmalariga haddan tashqari bog‘lanishi, daromadlar bo‘yicha tafovutlarning kuchayishi va migrantlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi bilan bog‘liq muammolar migratsiyaning muhim xavflari hisoblanadi.[11]



2-rasm. 2024–2025-yillarda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmi, choraklar kesimida (milliard AQSh dollari) [12].

2025 yilda O‘zbekistonga xorijdan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmi 18,89 mlrd dollarni tashkil etib, 2024 yildagi 14,84 mlrd dollardan taxminan 28 % ga oshdi. O‘sish barcha choraklarda kuzatildi: eng yuqori o‘sish 4-chorakda (39%) va 1-chorakda (34%), eng past o‘sish 3-chorakda (19%) qayd etildi. Ikkala yilda ham eng yuqori ko‘rsatkich 3-chorakka to‘g‘ri kelgan, bu mehnat migrantlarining mavsumiy bandligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu mehnat migratsiyasi mamlakat valyuta tushumlarining barqaror va muhim manbai bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan mehnat migratsiyasining muhim omillaridan biri mahalliy mehnat bozoridagi ish o‘rinlari va daromad imkoniyatlarining cheklanganligidir.[13] Shu bilan birga, xorijda band bo‘lish natijasida migrantlarning uy xo‘jaliklari farovonligi yaxshilanishi mumkin. 2025-yilda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 28 foizga oshgan.[14] Bu mehnat migratsiyasining mamlakat iqtisodiy muhitida, ayniqsa aholi daromadlari va valyuta tushumlari shakllanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Demak, O‘zbekiston sharoitida mehnat migratsiyasini faqat ishchi kuchining chiqib ketishi sifatida emas, balki bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish va xorijiy tajribani jalb etish imkonini beruvchi iqtisodiy jarayon sifatida baholash lozim. Biroq uning ijobiy samarasini oshirish uchun migrantlarning malakasini rivojlantirish, huquqiy himoyasini kuchaytirish va xorijda orttirilgan

bilim hamda mablag‘larni mamlakat iqtisodiyotiga qayta yo‘naltirish muhim hisoblanadi.

Tahlil natijalari O‘zbekistonning xalqaro migratsiyadagi ishtiroki asosan doimiy ko‘chish bilan emas, vaqtinchalik mehnat migratsiyasi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. 2021–2025 yillarda xorijga doimiy ko‘chib ketish xorijdan kelishdan doimo ustun bo‘ldi, ammo uning hajmi mehnat migrantlari soniga nisbatan juda kichik. Mehnat migratsiyasi esa pul o‘tkazmalari orqali mamlakatning muhim valyuta manbaiga aylangan: 2025 yilda o‘tkazmalar hajmi 2024 yilga nisbatan qariyb 27 foizga oshdi. Shu bilan birga, migratsiyaning Rossiyaga haddan tashqari yo‘nalganligi, migrantlarning asosan past malakali ishlarda band bo‘lishi va iqtisodiyotning pul o‘tkazmalariga bog‘liqligi asosiy xavflar bo‘lib qolmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar beriladi:

Migratsiya geografiyasini takomillashtirish. Migratsiya oqimini bitta bozorga qaram qilmaslik uchun yangi mehnat bozorlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ikki tomonlama kelishuvlarni ko‘paytirish va oqimni Yevropa, Yaqin Sharq va Sharqiy Osiyo davlatlari tomon bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish zarur.

Yuqori malakali kadrlar eksportini yo‘lga qo‘yish. Oddiy qora mehnat o‘rniga rivojlangan mamlakatlarga muhandis, tibbiyot xodimi, IT mutaxassisi, texnik va kasb-hunar ta’limi bitiruvchilari kabi malakali ishchilarni yo‘naltirish tizimini shakllantirish lozim. Buning uchun xorijiy til va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish, malaka va diplomlarning o‘zaro tan olinishini ta’minlash talab etiladi. Bu migrantlar daromadini oshirib, pul o‘tkazmalarining sifat ko‘rsatkichini yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. World Bank. (2025). The Road Home and Abroad: Enhancing TVET for Youth and Migration in Central Asia. Washington D.C. , https://documents1.worldbank.org/curated/en/099063025094197983/pdf/P500986-7d2be0d0-1f17-427a-afed-a0f0d69097a9.pdf.

2. International Organization for Migration (IOM). *Uzbekistan - Migration Situation Report - Quarterly Compilation (October-December 2023).* 2024. P. 6-7,https://dtm.iom.int/sites/g/files/tmzbdl1461/files/reports/Compilation%20report%20%28Oct-Dec-23%29_Uzbekistan.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 313-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, https://lex.uz/uz/docs/-7520845

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-59-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, https://lex.uz/uz/docs/-6868721

5. Seitz W. *International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan*. Policy Research Working Paper No. 8910. Washington, DC: World Bank,2019.https://documents1.worldbank.org/curated/en/615721561125387061/pdf/International-Migration-and-Household-Well-Being-Evidence-from-Uzbekistan.pdf.

6. Abdulloev I., Epstein G. S., Gang I. N. *Migration and Forsaken Schooling in Kyrgyzstan, Tajikistan, and Uzbekistan*. IZA Journal of Labor and Development, 2020, Vol. 11, No. 1, https://doi.org/10.2478/izajodm-2020-0004.

7. Abdurakhmanov K., Zokirova N. *Main Trends and Directions of External Migration of the Republic of Uzbekistan*. Economics and Innovative Technologies, 2023, Vol. 11, No. 3, pp. 54–64. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i7

8. International Labour Organization (ILO). *ILO Helpdesk: Questions and Answers on Business and Labour Migration*. Geneva: ILO. URL: https://www.ilo.org/ilo-helpdesk-questions-and-answers-business-and-labour-migration

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEHNAT MIGRATSIYASI INFRATUZILMASIGA XIZMAT QILUVCHI INVESTITSION MULK HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Muzrapova Shahnoza Saydullayevna
Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti
dotsent v.b., PhD
shahnoza_muzrapova@tues.uz

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, mehnat resurslarining hududlar va mamlakatlar o‘rtasida harakatlanishi hamda aholi bandligi tarkibidagi o‘zgarishlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirmoqda. Xususan, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi vaqtinchalik turar joylar, ijara uy-joylari, yotoqxonalar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda ko‘chmas mulk obyektlaridan samarali foydalanish, ularga yo‘naltirilgan investitsiyalar natijadorligini baholash va tegishli moliyaviy axborotlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq infratuzilmani rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan ham alohida yondashuvni talab etadi. Chunki turar joy va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarining iqtisodiy mazmuni, ulardan foydalanish maqsadi, daromad olish usuli hamda mulkni boshqarish xususiyatlari ularni moliyaviy hisobotda to‘g‘ri tasniflashga bevosita ta’sir qiladi.

Shu sababli mehnat migratsiyasi infratuzilmasiga xizmat qiluvchi investitsion mulk hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida takomillashtirish, ijara daromadlari va xarajatlarini alohida tahlil qilish hamda ko‘chmas mulkning qiymatini ishonchli baholash masalalari dolzarb hisoblanadi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad globallashuv sharoitida ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq ko‘chmas mulk obyektlarining hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, qiyosiy taqqoslash va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Metodologik asos sifatida IAS 40 “Investitsion mulk”, IFRS 13 “Haqqoniy qiymatni baholash” hamda ijara munosabatlariga tegishli holatlarda IFRS 16 “Ijara” standartlarining qoidalari olinadi.

IAS 40 standartiga muvofiq, investitsion mulk - ijara daromadi olish, kapital qiymatining oshishidan foyda ko‘rish yoki ushbu ikkala maqsadda saqlanadigan yer uchastkalari va binolardan iborat. Bunda mulk egasining o‘zi foydalanadigan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida bevosita ishlatiladigan yoxud ma’muriy maqsadlarda saqlanadigan obyektlar investitsion mulk sifatida tasniflanmaydi [1].

Mazkur talablar mehnat migratsiyasi infratuzilmasidagi obyektlarni hisobga olishda alohida ahamiyatga ega. Masalan, mehnat migrantlariga uzoq yoki qisqa muddatli ijara asosida beriladigan turar joy binolari, yotoqxona sifatida ijaraga topshiriladigan obyektlar va ijaradan daromad olish maqsadida saqlanadigan boshqa ko‘chmas mulklar tegishli shartlar bajarilganda investitsion mulk sifatida tan olinishi mumkin. Biroq korxonaning o‘zi foydalanadigan bino yoki muhim xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq mehmonxona faoliyati obyekti faqat migrantlar joylashtirilgani sababli investitsion mulk deb tasniflanmaydi. Bunday holatlarda mulkdan foydalanishning iqtisodiy mazmuni va amaldagi standartlar talablari hisobga olinishi lozim.

Investitsion mulk hisobini tashkil etishda birinchi navbatda obyektlarning maqsadi, foydalanish turi, joylashuvi va daromad keltirish xususiyatlarini hisobga oluvchi analitik hisob tizimini shakllantirish zarur. An’anaviy hisobda ko‘chmas mulkning umumiy qiymati va unga tegishli xarajatlarni qayd etish bilan cheklanish boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli ma’lumot bermasligi mumkin. Shu sababli har bir obyekt bo‘yicha ijara daromadi, foydalanish xarajatlari, bandlik darajasi, bo‘sh turish muddati va investitsiyalarning rentabelligini alohida kuzatib borish maqsadga muvofiq.

Investitsion mulk hisobini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri obyektlar kesimida analitik hisobni chuqurlashtirishdir. Bunda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq talab o‘zgarishlarini hisobga olgan holda ko‘chmas mulk obyektlari quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin:

- ijara daromadi olish maqsadida saqlanayotgan turar joy binolari;
- migrantlar uchun uzoq muddatli ijaraga beriladigan obyektlar;
- qisqa muddatli ijaraga beriladigan va tegishli mezonlar asosida investitsion mulk sifatida tasniflanadigan obyektlar;
- qiymatining oshishidan iqtisodiy naf olish maqsadida saqlanayotgan yer uchastkalari va binolar.

Ushbu guruhlash taklifi xalqaro standartlarda belgilangan tasniflash mezonlarini almashtirmaydi, balki korxonaning ichki hisob siyosati va boshqaruv ehtiyojlari doirasida qo‘shimcha analitik ma’lumotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Investitsion mulkni dastlabki tan olishda IAS 40 talablariga muvofiq uning boshlang‘ich qiymati aniqlanadi. Keyingi baholashda esa korxona standartda belgilangan tartibda haqqoniy qiymat modelini yoki tannarx modelini tanlashi mumkin. Haqqoniy qiymat modeli qo‘llanilganda hisobot davri oxiridagi qiymat o‘zgarishlari, tegishli istisnolardan tashqari, foyda yoki zarar tarkibida aks ettiriladi. Tannarx modelida esa mulk tegishli standartlar talablariga muvofiq hisobga olinadi va haqqoniy qiymati haqida ma’lumotlar ochib beriladi [1].

IFRS 13 standarti haqqoniy qiymatni baholashda bozor ishtirokchilari

foydalanadigan taxminlar, baholash sanasidagi bozor sharoitlari va tegishli xavflarni hisobga olishni talab etadi [2]. Shu nuqtayi nazardan, mehnat migratsiyasi oqimlari koʻchmas mulkning qiymatini baholashda faqat bozor ishtirokchilari foydalanadigan taxminlar va mavjud dalillar orqali asoslangan hollardagina inobatga olinishi lozim. Migrantlar sonining oʻzgarishi mulk qiymatiga avtomatik ravishda muayyan miqdorda ta'sir qiladi, deb xulosa chiqarish toʻgʻri emas.

Investitsion mulk qiymatini aniqlashda taqqoslanadigan koʻchmas mulk obyektlarining bozor narxlari, amaldagi ijara shartnomalari, kutilayotgan ijara tushumlari, foydalanish xarajatlari va tegishli xavflar tahlil qilinishi mumkin. Daromad yondashuvi qoʻllanilganda esa kelgusidagi pul oqimlarini prognoz qilish va ularni tegishli stavka asosida diskontlash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda migratsiya bilan bogʻliq talab oʻzgarishlari prognozlarning asoslanganligi va ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholanishi kerak.

Mualliflik taklifi sifatida, mehnat migratsiyasi infratuzilmasiga xizmat qiluvchi investitsion mulk obyektlari boʻyicha boshqaruvga yoʻnaltirilgan analitik hisob modelini joriy etish taklif qilinadi. Ushbu modelda har bir obyektning identifikatsiya raqami, joylashuvi, foydalanish maqsadi, investitsion mulk sifatida tasniflanish asosi, boshlangʻich qiymati, keyingi baholash usuli, ijara daromadi, foydalanish xarajatlari, bandlik darajasi va rentabellik koʻrsatkichlari yagona axborot tizimida jamlanadi.

Mazkur model asosida shakllantiriladigan boshqaruv hisobotida quyidagi koʻrsatkichlardan foydalanish mumkin:

1. Ijara daromadliligi - davr davomida olingan ijara daromadining tegishli tahlil uchun tanlangan mulk qiymatiga nisbati.
2. Obyektning bandlik darajasi - foydalanilgan ijara kunlari yoki xonalar sonining mavjud ijara imkoniyatlariga nisbati.
3. Operatsion xarajatlar ulushi - obyektni saqlash va foydalanish bilan bogʻliq xarajatlarning ijara daromadlariga nisbati.
4. Investitsion rentabellik - tanlangan metodologiya boʻyicha aniqlangan iqtisodiy natijaning investitsiya summasiga nisbati.
5. Boʻsh turish koʻrsatkichi - ijara uchun mavjud boʻlgan, ammo foydalanilmagan vaqt yoki maydon ulushi.

Ushbu koʻrsatkichlar investitsion mulkdan foydalanish samaradorligini baholash, daromad keltirmayotgan obyektlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobotidagi bandlik va rentabellik koʻrsatkichlari MHXS boʻyicha moliyaviy hisobot koʻrsatkichlaridan farqlanishi mumkinligi sababli ularning hisoblash metodikasi ichki hisob siyosatida belgilanishi lozim.

Taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u investitsion mulk obyektlari boʻyicha daromadlar, xarajatlar va qiymat oʻzgarishlarini oʻzaro bogʻliq holda tahlil qilishga yordam beradi. Natijada korxona rahbariyati koʻchmas mulkdan foydalanish samaradorligi, ijara siyosati va yangi investitsiyalarni amalga oshirish boʻyicha dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishi mumkin. Globallashuv sharoitida ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bilan

bog‘liq iqtisodiy jarayonlar turar joy va ijara bozoridagi talabga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda mehnat migratsiyasi infratuzilmasiga xizmat qiluvchi ko‘chmas mulk obyektlarining hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, ularning iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri tasniflash va moliyaviy hisobotda ishonchli aks ettirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, investitsion mulkni tasniflashda IAS 40 talablariga qat’iy rioya qilish, obyektning migrantlar tomonidan foydalanilayotganiga emas, balki korxonaning mulkni saqlash maqsadi va undan foydalanish xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim. Ikkinchidan, investitsion mulk obyektlari bo‘yicha analitik hisobni chuqurlashtirish, ijara daromadlari va xarajatlarini obyektlar kesimida hisobga olish hamda ularning rentabelligini muntazam baholash maqsadga muvofiq. Uchinchidan, haqqoniy qiymatni aniqlashda IFRS 13 talablariga muvofiq bozor ma’lumotlari, kutilayotgan ijara tushumlari va tegishli xavflarni hisobga olish, migratsiya omilidan esa faqat asoslangan bozor taxminlari doirasida foydalanish zarur. To‘rtinchidan, investitsion mulk hisobini takomillashtirish uchun moliyaviy hisob ma’lumotlarini boshqaruv ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtiruvchi analitik modelni joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsion qarorlar sifatini yaxshilash va moliyaviy axborotlarning foydaliligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. IFRS Foundation. IAS 40 — Investment Property. Rasmiy manba: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-40-investment-property/

2. IFRS Foundation. IFRS 13 — Fair Value Measurement. Rasmiy manba: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-13-fair-value-measurement/

3. IFRS Foundation. IFRS 16 — Leases. Rasmiy manba: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-16-leases/

4. IAS Plus. IAS 40 — Investment Property: Overview and Summary. Rasmiy sharh: https://www.iasplus.com/en/standards/ias/ias40

5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Mualliflar: Sh.T. Ergasheva, Sh.I. Ilxamov, A. Kozimjonov, R.A. Mannapova. Toshkent, 2022. 360 bet.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Mualliflar: D.E. Norbekov, A.N. To‘rayev, Sh.Sh. Rahmonov. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. 332 bet.

7. International Valuation Standards: A Guide to the Valuation of Real Property Assets Muallif: David Parker. Wiley, 2016.

MEHNAT MIGRANTLARI MALAKASINI XALQARO MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi, PhD, dots. v.b.,

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston uchun bandlik, daromad va kasbiy rivojlanish kanallaridan biri bo‘lib qolmoqda, biroq undan olinadigan foyda migrantlarning qanday malaka va ko‘nikmalar bilan xorijga chiqishiga bevosita

bog‘liq. Migratsiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil aprel oyida 40 ga yaqin davlatda ishlayotgan fuqarolar soni 1,2 million nafar deb ko‘rsatilgan bo‘lsa [1], avgustdagi Markaziy bank sharhida bu ko‘rsatkich taxminan 1,4 million nafarni tashkil etdi [2]. Ularning 834,2 ming nafari (taxminan 60 foizi) Rossiyada, 258 ming nafari Yevropa mintaqasi mamlakatlarida, 46,4 ming nafari Janubiy Koreyada mehnat qilmoqda [2]. Tadqiqorning ham maqsadi mehnat migrantlari malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirishning hozirgi holatini baholash va yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgarmoqda: Markaziy bank an’anaviy MDH yo‘nalishi ulushi kamayib, Yevropa va Sharqiy Osiyo yo‘nalishlari o‘sayotganini qayd etadi [2]. Yangi bozorlarda ish beruvchilar til va kasb bo‘yicha aniq talablar qo‘yadi. 2026-yil aprelidagi uchrashuvda xorijdan til va kasb talablariga javob beradigan 100 mingdan ortiq malakali mutaxassisga buyurtma kelib tushgani, jumladan Germaniyaga 40 ming hamshira, Yaponiyaga 15 ming qurilish, logistika va servis sohalari mutaxassisi zarurligi ta’kidlandi [1]. Markaziy bankning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga borib Yevropada ishchi kuchi tanqisligi 7,5-10,5 million kishiga, Yaponiyada 6-7 million kishiga, Janubiy Koreyada 1,2-1,5 million kishiga yetishi mumkin [2].

Talab kasblar kesimida ham farqlanadi. Markaziy bank sog‘liqni saqlash va qariyalarni parvarish qilish sohalarini eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatadi: hisob-kitoblarga ko‘ra, Germaniyada 2030-yilga borib parvarishga muhtoj kishilar soni 5,7 million nafarga yetishi mumkin, bu sohada qariyb 500 ming xodimga qo‘shimcha ehtiyoj tug‘diradi. Buyuk Britaniyada yana taxminan 90 ming parvarishchi talab etilishi mumkin. Saudiya Arabistonida qurilish, texnik va o‘rta tibbiyot xodimlariga, BAAda esa mehmonxona-restoran biznesi, turizm, aviatsiya va logistika kadrlariga talab o‘sishi kutilmoqda [2]. Hamkorlik doirasida ishchilarni savdo va xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, transport va logistika, qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, payvandlash va metallga ishlov berish, yog‘ochsozlik, neft-gaz va tog‘-kon sanoati kabi sohalarga jalb qilish rejalashtirilgan [2].

Shu bilan birga, migrantlarning mavjud kadrlar tarkibi yangi talablarga to‘liq mos emas. Jahon bankining 2018-yilgi so‘rovi natijalariga ko‘ra, xorijda ishlayotganlarning qariyb 60 foizi eng yuqori ma’lumoti sifatida kasb-hunar ta’limiga ega, oliy ma’lumotlilar ulushi esa taxminan 4 foizni tashkil etgan. Shuningdek, migrantlarning 53 foizdan ortig‘i rus tilida so‘zlashadi [3]. Demak, oqimning asosiy qismini kasb-hunar ma’lumotli, rus tili muhitiga moslashgan kadrlar tashkil etgan; Yevropa va Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun esa yangi til, sertifikatlangan malaka va madaniy moslashuv talab etiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) migrantlar ko‘nikmalaridan to‘liq foydalanilmasligini “malaka isrofi” (brain waste) deb baholab, migratsiya, bandlik va ta’lim siyosatini talab qilinayotgan ko‘nikmalar bilan mutanosiblashtirish hamda malakalarni tan olish tizimlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [4]. Muammolar qatorida migrantlarning malaka tarkibi bo‘yicha ochiq statistika yetishmasligi ham ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi yillarda huquqiy-institutsional asos shakllantirildi. Prezidentning 2024-yil 17-oktyabrdagi PF-162-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi faoliyatini qayta boshladi [5; 6]. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-apreldagi 252-son qarori Agentlik zimmasiga xorijiy ish beruvchilar talablaridan kelib chiqib fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish hamda rivojlangan davlatlarda tan olinadigan malakani baholash va sertifikatlash tizimlarini joriy qilish vazifasini yukladi. Xorijiy ish beruvchi qo‘ygan malaka va til talablariga javob bermaydigan nomzodni tashkillashtirilgan tartibda yuborish taqiqlanishi, xalqaro tan olingan dasturlar va malaka sertifikatlarini joriy qilgan ta’lim tashkilotlarida o‘qish uchun ta’lim kreditlari ajratish tartibi belgilandi [6].

Moslashtirishni uch tarkibiy qismdan iborat jarayon sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq: (1) kasbiy-texnik malaka, xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalari hamda ularning xalqaro tan olinishi; (2) til va kommunikativ tayyorgarlik; (3) ijtimoiy-huquqiy moslashuv, ya’ni mehnat shartnomasi, yashash va mehnat sharoitlari bilan tanishtirish [6]. Nizomga ko‘ra tashkillashtirilgan yuborish tartibi “Xorijda ish” majmuasida ro‘yxatdan o‘tish, xorijiy ish beruvchilarni izlash va ularning reyestrini yuritish, nomzodlarni tanlab olish va ketishdan oldin moslashtirish, jo‘natish hamda monitoring va hisob yuritish bosqichlarini o‘z ichiga oladi [6]. Ya’ni malaka va til talablariga moslashtirish asosan ketishdan oldingi, jarayonning nisbatan kech bosqichida amalga oshiriladi.

Amaliyotda “kasb plyus til” tamoyili asosidagi qo‘shma ta’lim loyihalari ijobiy natija bermoqda: Germaniya, Koreya va Yaponiya kompaniyalari bilan texnikumlar negizida tashkil etilgan 12 ta loyihada 8,5 ming kishi o‘qimoqda, 3 ming bitiruvchi ishga joylashgan; loyihalar sonini 20 taga yetkazish va qamrovni 10 mingdan oshirish rejalashtirilgan [1]. 2026-yil may oyida Toshkentda o‘tgan birinchi xalqaro migratsiya forumi doirasida xorijga ishlash niyatidagi fuqarolarni zamonaviy kasb va tillarga o‘qitishga ixtisoslashgan “INTIL” xalqaro til va kasb markazi ochildi, o‘quv kurslari IOM, ICMPD va GIZ kabi xalqaro hamkorlar bilan birgalikda tashkil etilgani qayd etildi [7]; Toshkentda 12 ta talab yuqori kasb, 7 ta chet tili va 6 ta sertifikat imtihoni bo‘yicha 600 o‘rinli o‘quv kampusini o‘z ichiga olgan maqsadli tayyorlash markazini tashkil etish ham nazarda tutilgan [1]. Biroq 2026-yil boshidan buyon xorijda yuqori maoshli ish o‘rinlariga 124,5 ming fuqaro joylashtirilganini hisobga olsak [2], bunday ta’lim loyihalarining qamrovi hali cheklangan; malakani baholash markazlari tarmog‘ini kengaytirish zarurati ham alohida qayd etilgan [1]. O‘zbekiston tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi sohasida 23 ta davlat bilan 48 ta kelishuvga ega bo‘lib, shulardan 18 tasi 2025-2026-yillarda 14 ta davlat bilan tuzilgan, 36 ta davlatdan 325 dan ortiq yirik ish beruvchi va rekruting kompaniyalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan [2].

Tahlil asosida mehnat migrantlari malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etamiz.

Birinchidan, talabga asoslangan kadrlar tayyorlash. O‘quv dasturlarini xorijiy ish beruvchilarning buyurtmalariga, birinchi navbatda hamshiralik ishi, qurilish, logistika, payvandlash va xizmat ko‘rsatish kabi talab yuqori kasblarga

moslab shakllantirish; kasbiy, til va ish madaniyati bo‘yicha tayyorgarlikni yagona dastur doirasida uyg‘unlashtirish; dasturlarga xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi modulini majburiy tarkibiy qism sifatida kiritish [1; 6].

Ikkinchidan, malakani baholash va sertifikatlashni xalqaro tan olinishga yo‘naltirish. Milliy malaka talablarini yo‘nalish mamlakatlari talablari bilan qiyosiy tahlil qilish, xalqaro sertifikatlovchi tashkilotlarni jalb etish hamda o‘zaro tan olish masalasini hukumatlararo kelishuvlar muzokaralariga kiritish. Mavjud 48 ta kelishuvni bu jihatdan baholab, malaka va sertifikatlarni tan olish qoidalari bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq [2; 4; 6].

Uchinchidan, oldingi ta’lim va ish tajribasini tan olish mexanizmini joriy etish. Migrantlarning katta qismi kasb-hunar ma’lumotiga ega ekani [3] hamda malaka hujjati bo‘lmagan nomzod hozirgi tartibda kasbga o‘qitilishi nazarda tutilganini [6] hisobga olsak, amaliy tajribaga ega fuqarolar uchun tajribani baholash va qisqartirilgan dasturlar vaqt va xarajatni tejaydi; ILO bunday tizimga misol sifatida Chilining “Valora” dasturini keltiradi [4].

To‘rtinchidan, chet tili tayyorgarligi sifatini oshirish. Tilni kasbiy terminologiya bilan bog‘lab o‘rgatish; chet tili o‘qituvchilari reytingi va subsidiyalash tizimidan foydalanish [6]; yo‘nalish mamlakatlariga mos (nemis, yapon, koreys) tillarga ustuvorlik berish [1].

Beshinchidan, malaka axborot bazasini shakllantirish, talabni prognozlash va ichki bozor bilan muvofiqlashtirish. “Xorijda ish” majmuasida talabgorning ma’lumoti, mutaxassisligi, ish tajribasi va ko‘nikmalari qayd etiladi [6]. Shu ma’lumotlar asosida migrantlar malaka tarkibi bo‘yicha davriy statistika yuritish, ro‘yxatdan o‘tish bosqichidayoq malaka va til darajasini dastlabki baholash (shunda tayyorgarlik rejasi erta tuziladi), xorijiy talabni muntazam prognozlash zarur. Shu bilan birga kadrlar tanqisligi xavfi bo‘lgan tarmoqlarda ichki bandlik siyosati bilan uyg‘unlikni ta’minlash lozim: bu Prezidentning Agentlik faoliyati ichki mehnat bozorini sifatli kadrlar bilan ta’minlashga ham xizmat qilishi kerakligi haqidagi topshirig‘iga mos keladi [1], ILO ham kelib chiqish mamlakatlarida kadrlar tanqisligiga yo‘l qo‘ymaslik zarurligini ta’kidlaydi [4].

Oltinchidan, natijaga asoslangan moliyalashtirish va monitoring. Ta’lim kreditlari va xarajatlarni qoplashni o‘quv markazlarining bitiruvchilarni ishga joylashtirish, malakaga mos ish bilan ta’minlash va daromad ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash; “sertifikatlangan migrantlar ulushi”, “malakaga mos ishlayotganlar ulushi” kabi indikatorlarni joriy etish.

Xulosa sifatida qaytish mumkinki tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasidan olinadigan samara migrantlarning raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Talabga asoslangan tayyorgarlik, xalqaro tan olinadigan sertifikatlash, mavjud tajribani tan olish va natijaga asoslangan moliyalash O‘zbekiston migrantlarini yuqori daromadli mehnat bozorlariga chiqarishning muhim shartlaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Migratsiya agentligi samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali, 2026-yil 21-aprel. – URL: https://gov.uz/oz/news/view/155956

2. Taxminan 1,4 mln o‘zbekistonlik xorijda ishlamoqda. Mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgaryapti // Gazeta.uz, 2026-yil 17-avgust. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/08/17/migration/

3. Seitz W. International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. Poverty & Equity Global Practice Working Paper 209. – Washington, DC: World Bank, 2019. – URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/902731561151905908/pdf/International-Migration-and-Household-Well-Being-Evidence-from-Uzbekistan.pdf

4. The role of migrant skills in shaping tomorrow’s workforce // International Labour Organization (ILO News), 6 February 2025. – URL: https://www.ilo.org/resource/article/role-migrant-skills-shaping-tomorrow%E2%80%99s-workforce

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktyabrdagi PF-162-son “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7170458

6. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-apreldagi 252-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7487706

AYOLLARNING IQTISODIY IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING ROLI: GLOBAL TAJRIBA VA TENDENSIYALAR

Abdulazizova O‘g‘iloy Nuriddinxo‘ja qizi
PhD, TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti,
u.abdulazizova@tsue.uz,

Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat mehnat bozoridagi ishtirokni oshirish, balki ularning mulkka egalik qilishi, tadbirkorlik faoliyati, mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi imkoniyatlarini huquqiy jihatdan ta’minlash bilan ham bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy islohotlar ayollarning iqtisodiy faolligi uchun institutsional sharoitlarni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi [1].

Jahon iqtisodiy forumining Global Gender Gap Report 2026 hisobotida 145 ta iqtisodiyot bo‘yicha 1971–2025-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan gender tengligiga oid huquqiy islohotlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil qariyb 2 mingta huquqiy islohotni qamrab olgan bo‘lib, unda mulk, tadbirkorlik, nikoh, harakatlanish, ota-onalik, ish joyi, ish haqi, pensiya, bola parvarishi va xavfsizlik kabi yo‘nalishlar ko‘rib chiqilgan [1].

Hisobot ma’lumotlari gender tengligiga oid huquqiy islohotlar uzoq muddatli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mehnat va ish joyi bilan bog‘liq huquqiy islohotlar ayollarning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi uchun muhim institutsional asoslardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, qonunchilikda belgilangan huquqlarning mavjudligi ularning amalda to‘liq ta’minlanganligini anglatmaydi. Shuning uchun huquqiy islohotlarning natijadorligini baholashda nafaqat yangi normalarning qabul qilinishi, balki ularning ijro etilishi ham muhim ahamiyatga ega [1].

Jahon iqtisodiy forumi Global Gender Gap Report 2026 hisobotida 145 ta iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy ishtiroki bilan bog‘liq huquqiy islohotlarning uzoq muddatli dinamikasi tahlil qilingan. Tahlil 1970-yillardan boshlab amalga oshirilgan qariyb 2 mingta huquqiy islohotni qamrab oladi. Hisobotga ko‘ra, ushbu islohotlarning 96 foizi ayollarning iqtisodiy ishtiroki uchun huquqiy sharoitlarning yaxshilanishi yo‘nalishida amalga oshirilgan [1].

1-jadval.

Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlariga oid huquqiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari

Huquqiy islohot yo‘nalishi	Jami islohotlardagi ulushi, %
Mehnat va ish joyi (Workplace)	**21**
Ota-onalik (Parenthood)	**18**
Pensiya (Pension)	**14**

Manba: *World Economic Forum, Global Gender Gap Report 2026 [1].*

Jadvaldan ko‘rinadiki, 1970-yillardan buyon amalga oshirilgan islohotlar tarkibida mehnat va ish joyi bilan bog‘liq huquqiy o‘zgarishlar 21 foiz bilan eng katta ulushni egallagan. Keyingi o‘rinlarda ota-onalik bilan bog‘liq 18 foizlik va pensiya tizimiga oid 14 foizlik islohotlar turadi [1].

Huquqiy islohotlarning vaqt bo‘yicha taqsimlanishida ham sezilarli farq mavjud. WEF ma’lumotlariga ko‘ra, islohotlar faolligi 2000-yillarning boshlarida eng yuqori darajaga yetgan va ushbu davr jami islohotlarning qariyb 27 foizini tashkil etgan [1].

Biroq huquqiy normalarning takomillashtirilishi ularning amaliy ijrosi bilan bir xil natijani bermaydi. WEF 2026 hisobotida gender tengligiga oid huquqiy islohotlarning amalga oshirilish salohiyati huquqiy islohotlarning ko‘lami bilan to‘liq mos kelmaganini qayd etadi. Xususan, murakkab va bir nechta tizimlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni talab qiladigan pensiya kabi islohotlarning qonun qabul qilingandan keyingi amaliy joriy etilish davri uzoqroq bo‘lishi mumkin [1].

Shunday qilib, global tajriba ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda qonunchilikni takomillashtirish va uning amaliy ijrosini ta’minlash bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

Huquqiy islohotlarning mavjudligi ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari avtomatik ravishda kengayishini anglatmaydi. WEF 2026 hisobotida gender tengligiga oid qonunlarning amaliyotga joriy etilishi bilan bog‘liq “implementation gap” - ijro tafovuti mavjudligi qayd etilgan. Ya’ni, qonunchilikda belgilangan huquqlarni real iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirish uchun tegishli institutsional va ma’muriy mexanizmlar ham shakllangan bo‘lishi zarur.

WEF tahliliga ko‘ra, 1970-yillardan 2026-yilgacha gender tengligiga oid islohotning qabul qilinishi bilan uning amaliy kuchga kirishi o‘rtasidagi o‘rtacha kechikish 99 kunni tashkil etgan. Bu muddat davrlar bo‘yicha ham farqlangan: 1970-yillarda o‘rtacha 53 kun bo‘lgan bo‘lsa, 2010–2019-yillarda 161 kungacha oshgan, joriy o‘n yillikda esa 96 kunni tashkil etgan.

Islohotlarning alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ham ijro muddatlari bir xil emas. Masalan, bola parvarishi bilan bog‘liq islohotlar o‘rtacha 38 kunda, pensiya

sohasidagi islohotlar esa 218 kunda amaliyotga joriy etilgan. Bu farq ayrim huquqiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ma’muriy tizimlar va turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish darajasi muhimligini ko‘rsatadi.

WEF shuningdek, huquqlarning amalda ta’minlanishini baholash uchun Jahon bankining Women, Business and the Law 2026 ma’lumotlaridagi ekspert baholaridan foydalangan. Ushbu baholashda aktivlar bo‘yicha ijro ko‘rsatkichi 3,0, tadbirkorlik bo‘yicha 1,7, mehnat sohasi bo‘yicha esa 1,9 ballni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar huquqiy normalarning mavjudligi bilan ularning amaliy qo‘llanishi o‘rtasida farq borligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, global tajriba ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda qonunchilikni takomillashtirishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Huquqiy islohotlarning real natijasi ularni amalga oshiruvchi institutlar, ma’muriy mexanizmlar va amaliy ijro tizimlarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Global tajribada gender tengligiga oid huquqiy islohotlarning rivojlanish sur’atlari hududlar bo‘yicha bir xil bo‘lmagan. Global Gender Gap Report 2026 ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa, Shimoliy Amerika hamda Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida asosiy huquqiy islohotlarning katta qismi 1990–2000-yillarda amalga oshirilgan. Bu davrda ayollarning mehnat, ota-onalik, mulk va ijtimoiy himoya huquqlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilik o‘zgarishlari jadallashgan [1].

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida esa huquqiy islohotlar nisbatan keyinroq faollashgan. Hisobotda ushbu mintaqada islohotlar bosqichma-bosqich kuchayib borgani va joriy o‘n yillikda gender tengligiga oid huquqiy islohotlar faolligi eng yuqori darajaga yetgani qayd etiladi [1].

Mazkur tendensiyalar gender tengligini ta’minlash bo‘yicha huquqiy o‘zgarishlarning mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, institutsional tizimi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turli hududlarda qabul qilingan huquqiy normalarning amaliy natijasi ularni ijro etish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liq [1].

O‘zbekistonda ham ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan huquqiy islohotlar so‘nggi yillarda izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yilda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi gender tengligini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi [2]. Jahon bankining Women, Business and the Law 2026 ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollarga erkaklarga nisbatan beriladigan iqtisodiy huquqlarning 82 foizi qonunchilikda ta’minlangan, mavjud huquqlarning amaliy ijro darajasi esa 57 foizni tashkil etadi [3]. Shuningdek, 2023–2025-yillarda O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan, jumladan, davlat xaridlarida genderga yo‘naltirilgan normalarni joriy etuvchi qonunchilik o‘zgarishlari amalga oshirilgan [3]. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda huquqiy baza sezilarli darajada takomillashayotganini, ayni paytda qonunchilikda belgilangan huquqlarning amaliy ijrosini kuchaytirish masalasi dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda huquqiy islohotlar muhim institutsional omil hisoblanadi. Global tajribada 1970-yillardan buyon amalga oshirilgan qariyb 2 mingta huquqiy islohotning 96 foizi ayollarning iqtisodiy ishtiroki uchun huquqiy sharoitlarni yaxshilash yo‘nalishida amalga oshirilgani mazkur jarayonning uzoq muddatli va tizimli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [1]. Biroq qonunchilikdagi ijobiy o‘zgarishlarning iqtisodiy natijalarga aylanishi ularning amaliy ijrosi, institutsional salohiyat va nazorat mexanizmlariga bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston tajribasi ham huquqiy bazani takomillashtirish bilan bir qatorda, mavjud normalarning amaliy samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, birinchidan, ayollarning mehnat, tadbirkorlik, mulkiy huquqlar va ijtimoiy himoya sohasidagi qonuniy kafolatlarining ijrosini muntazam monitoring qilish; ikkinchidan, bola parvarishi, moslashuvchan bandlik va oilaviy majburiyatlarni mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni rivojlantirish; uchinchidan, huquqiy islohotlarning real iqtisodiy natijalarini baholash uchun gender bo‘yicha ajratilgan statistik ko‘rsatkichlar va monitoring tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Umuman, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish “qonunchilikni takomillashtirish → ijroni ta’minlash → iqtisodiy natijalarni monitoring qilish” tamoyili asosida olib borilganda yanada tizimli tus oladi.

Adabiyotlar:

1. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2026. Geneva. https://reports.weforum.org/docs/WEF_GGGR_Report_2026.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonun, 2019-yil 2-sentabr. www.lex.uz

3. World Bank. Women, Business and the Law 2026. Washington, www.worldbank

HUDUDLARNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING IQTISODIY AHAMIYATI

Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li
TDIU, i.f.f.d. (PhD), dotsent

Har yili millionlab odamlar o‘z yurtlarini tark etib, xorijga ko‘chib o‘tadilar. Xalqaro miqyosdagi migrantlar dunyoning turli burchaklaridan kelib chiqadilar: ayrimlari qo‘shni mamlakat va hududlarga joylashsalar, boshqalari butun dunyo bo‘ylab uzoq masofalarni bosib o‘tadilar. Ba’zilar uchun xorijda yashash tajribasi qisqa muddatli bo‘lsa, boshqalar uchun bu butun umr davom etadigan jarayonga aylanadi. Migrantlar orasida dunyodagi eng yuqori malakali va muvaffaqiyatli insonlar ham, turli va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab qiyinchilik hamda yetishmovchiliklardan aziyat chekayotganlar ham uchraydi. Odamlarni migratsiyaga undovchi yoki majbur qiluvchi sabablar va sharoitlar ham xilma-xildir: kimdir yaxshiroq ish imkoniyatlari, ta’lim olish, oila bilan birlashish yoki shunchaki hordiq chiqarish maqsadida yo‘lga chiqsa, boshqalar mojaro,

zo‘ravonlik yoki ta’qiblardan qochish uchun majburan ko‘chib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Butun dunyo bo‘ylab ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj va oilaviy munosabatlar xalqaro migratsiya jarayonini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, demografik vaziyat va siyosiy sharoitlar ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi aholi o‘sish sur’atlari hamda yosh tarkibidagi keskin farqlar migratsiya shakllari va tendensiyalariga ta’sir ko‘rsatib kelmoqda va kelgusida ham shunday ta’sirni davom ettirishi kutilmoqda. Yuqori daromadli ko‘plab mamlakatlar uchun migratsiya aholi soni o‘sishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan va yaqin o‘n yilliklarda u o‘sishning asosiy manbaiga aylanishi kutilmoqda. Bu jarayon tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi salbiy tafovut tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan aholi sonining qisqarishini yumshatadi yoki uning oldini oladi.

Shuningdek, o‘tmishda migratsiya tendensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan mojarolar va inqirozlar xalqaro migratsiya masalasini global siyosiy muhokamalar markazida saqlab qolishi ehtimoli yuqori. Dunyo miqyosida qochqinlar va boshpana izlovchilar — ya’ni ta’qiblar, mojarolar, zo‘ravonlik yoki inson huquqlarining buzilishi tufayli xalqaro chegaralarni kesib o‘tishga majbur bo‘lgan shaxslar – soni so‘nggi yetmish yildan ortiq vaqt ichida eng yuqori darajaga yetdi.

Odamlar turli xil va ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ko‘chib yuradilar. Biroq, o‘z yurtida barqaror tirikchilik manbaini yarata olmaslik dunyoning ko‘plab hududlarida migratsiyaning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi tushunchasi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Turli mamlakatlar va ularning hududlari o‘rtasidagi mehnat migratsiyasi nafaqat ishchi kuchi bilan ta’minlovchi omil, balki iqtisodiy o‘sish uchun turtki vazifasini ham o‘taydi. Xususan, mehnat migratsiyasi milliy va hududiy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Mehnat migrantlarining faoliyati ham jo‘natuvchi, ham qabul qiluvchi mamlakatlar uchun afzalroqdir. Kelib chiqish mamlakatlari mehnat migrantlaridan foyda ko‘radi, chunki ular ishsizlikdan ozod qilingan va milliy rivojlanish uchun pul o‘tkazmalarini oladilar. Boshqa tomondan, qabul qiluvchi mamlakatlar ishchi kuchi yetishmovchiligini qoplash uchun ishchi kuchi ta’minotini yaxshi boshqarishi mumkin. Shuning uchun, migrant ishchilar ham kelib chiqish mamlakatlari, ham qabul qiluvchi mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Migratsiya oqimi mamlakatning biznes sikliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biznes sikli iqtisodiyotning ko‘tarilish va pasayishlarining almashinib turishini anglatadi, bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi.

Insonlar harakatining umumiy manzarasidan ko‘rinib turibdiki, mehnat migratsiyasi xorijga yo‘nalgan harakatlarning eng yirik va geografik jihatdan eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Shu bois, migratsiya tendensiyalarini mehnat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish muhimdir.

Mehnat migratsiyasi millionlab insonlarni qashshoqlikdan chiqarish, munosib ish o‘rinlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish va barqaror rivojlanishga ko‘maklashish salohiyatiga ega. Biroq, migratsiyaning o‘zi yagona yechim emas. U odam savdosi va migrantlarni ekspluatatsiya qilishdan tortib, pul o‘tkazmalariga qaramlik hamda “aqllar chiqib ketishi” (intellektual salohiyatning yo‘qotilishi) kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Ekspertlar bahosiga ko‘ra, vaqtinchalik mehnat migratsiyasi ayniqsa, past malakali ishchilarning migratsiyasi yuqori malakali mehnat migrantlari oqimidan oshib ketmoqda va bu munosib mehnatni ta’minlash hamda ushbu toifadagi migrantlarning migratsiya bilan bog‘liq xarajatlarini kamaytirish borasida jiddiy global muammoni keltirib chiqarmoqda.

Ilmiy va ekspert-tahliliy adabiyotlarda mehnat migratsiyasining global va mintaqaviy miqyosdagi bir qator zamonaviy xususiyatlari va belgilari ajratib ko‘rsatilmoqda. Mehnat migratsiyasi oqimlarini shakllantirishda demografik omillar muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda muammolar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida malakali ishchilar yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lsa, demografik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy mehnat bozorlariga ma’lum darajada bosim yuzaga keladi.


Mehnat migratsiyasi, jins omilidan qat’i nazar, insonlarning boshqa turdagi harakatchanligi, masalan, ta’lim, majburiy, iqlimiy va boshqa migratsiya turlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan qonuniy (tartibli) migratsiya imkoniyatlari kamayib borayotgan bir paytda, rivojlangan mamlakatlarga yo‘nalgan migratsiya yo‘nalishlari kengaymoqda. Bu holat, o‘z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlarda noqonuniy (hujjatlarsiz) migratsiyani, shu jumladan, boshpana so‘rash mexanizmlari orqali (bunda murojaat sabablari har doim ham asosli bo‘lavermaydi) amalga oshiriladigan migratsiyani kuchaytirmoqda.

Mehnat migratsiyasi inson kapitalini qayta taqsimlash, ishchi kuchiga talab va taklifni muvozanatlash va mahalliy daromad oqimlariga ta’sir ko‘rsatish orqali mintaqaviy barqaror iqtisodiy rivojlanishni bevosita shakllantiradi.

Pul o‘tkazmalari va uy xo‘jaliklarining barqarorligi. Migrant ishchilar tomonidan uyga yuborilgan pullar kelib chiqish mintaqalarida qashshoqlikni kamaytiradi, ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi va kichik miqyosdagi mahalliy investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Biroq, agar tashqi mehnat bozorlari o‘zgarsa, pul o‘tkazmalariga yuqori darajada bog‘liqlik iqtisodiy zaiflikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ishchi kuchi yetishmasligini to‘ldirish. Manzil mintaqalari mehnat migratsiyasidan qisqarayotgan yoki qarib borayotgan ishchi kuchidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, muhim tarmoqlarda unumdorlikni saqlash va biznesning uzluksizligini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanadi.

Inson kapitali va ko‘nikmalarni uzatish. Qaytib kelganlar ko‘pincha yangi texnik ko‘nikmalar, til qobiliyatlari va tadbirkorlik tafakkurini olib kelishadi, bu esa tegishli reintegratsiya tizimlari mavjud bo‘lganda mahalliy innovatsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin.



1-rasm. Mehnat migratsiyasining mintaqaviy barqaror iqtisodiy rivojlanishga asosiy ta’sirlari

Manba: *Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Mintaqaviy tafovutlar. Mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar asosiy “surish-tortish” omili bo‘lib, ishchilarni barqaror iqtisodiy markazlarga jalb qiladi va iste’dodlarni orqada qolgan yoki qishloq jamoalaridan chiqarib yuboradi.

Mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish sharoitida mehnat migratsiyasi jarayonlari bo‘yicha izchil islohotlarni talab qiladi va keng ko‘lamli sohalarni qamrab oladi. Shuningdek, ko‘p qirrali, biroq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan maqsadli vazifalarni belgilab beradi. Bunday vazifalar qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim:

– xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

– mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham samarali huquqiy himoya tizimini shakllantirish;

– mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ishonchli vositalarini yaratish;

– mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarning reintegratsiyasini ta’minlash hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– tashqi mehnat migratsiyasi va kasbiy tayyorgarlikning tizimli shakllarini joriy etish;

– tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar va vazifalarni amalga oshirish doirasida vakolatli organlar hamda mahalliy hokimiyat rahbarlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta’minlash.

Shuni ham ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va uning hududlarida migratsiya siyosati, munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda boshqa davlatlar bilan hamkorlikka oid keng ko‘lamli masalalarni qamrab oluvchi bir qator xalqaro bitimlar, konvensiyalar va shartnomalarni ratifikatsiya qilish ustida faol ishlashni davom ettirmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimiz ushbu sohada mintaqaviy hamkorlik bo‘yicha faol siyosatni davom ettirib, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning bandlikka ko‘maklashish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimiga qo‘shildi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan davlat chora-tadbirlari va qonunchilik tashabbuslari tufayli ikki tomonlama munosabatlar darajasi, shu

bilan birga, hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Mehnat migratsiyasi mehnat eksport qiluvchi mamlakatlarni pul o‘tkazmalari orqali qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shadi, bu esa qashshoqlikni kamaytirishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi kasbiy rivojlanish va bilim almashish uchun imkoniyatlar yaratadi, bu esa qabul qiluvchi mamlakatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, mehnat migratsiyasi xalqaro miqyosda samarali boshqaruv va hamkorlikni talab qiladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib qolmoqda.

O‘rganilgan ma’lumotlar va tendentsiyalarni hisobga olgan holda, migratsiya siyosatini yanada takomillashtirish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli qayta integratsiyalashuvi uchun integratsiya mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Xalqaro tashkilotlar ko‘magida ushbu sohada amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik ishtirokchi davlatlarga migratsiya tizimlarining turli jihatlarini chuqurroq anglash hamda tashqi va ichki mehnat jarayonlarini boshqarishga qaratilgan siyosatni samaraliroq tatbiq etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari. https://www.un.org/sustainabledevelopment/

2. Andrei Jean Vasile. Sustainable Economic Development: Challenges, Policies, and Reforms. MDPI, Basel – 2020. – 582 p.

3. Shadiyeva G.M. Mintaqaviy iqtisodiyot. Samarqand.: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2023. – 442 b.

4. International Migration and Sustainable Development. United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2024). UN DESA/POP/2023/TR/NO. 7.

5. Kamilov Oybek. Labor migration: global and regional characteristics in the context of remittances. https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume04Issue11-08

INNOVATIVE MANAGEMENT STRATEGIES OF EXPORT-ORIENTED ENTERPRISES AS A FACTOR OF REDUCING EXTERNAL LABOR MIGRATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzod qizi
Tashkent State University of Economics

Globalization has turned labor into one of the most mobile factors of production. For Uzbekistan, which has the largest population in Central Asia, external labor migration has become both a source of household income and a structural challenge: the country loses part of its most active working-age population, while the regions of origin remain dependent on remittances. The Strategy “Uzbekistan – 2030”, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 of September 11, 2023, sets the task of creating decent jobs inside the country and of transforming the economy towards exports of finished products with high added value [1]. These two goals are closely connected: an export-oriented enterprise that competes in world markets can offer a domestic alternative to employment abroad only if it is managed in

an innovative way. The purpose of this paper is to substantiate innovative management strategies of export-oriented enterprises as a factor of reducing external labor migration.

Classical migration theory explains labor outflow by the gap between expected income at home and abroad [8]. The new economics of labor migration adds that households send migrants to diversify income and to compensate for the absence of credit and insurance markets at home [9]. In both approaches the key lever for reducing migration is the creation of stable, well-paid jobs in the region of origin. Studies of global value chains show that enterprises inserted into international supply chains are able to upgrade their processes, products and functions and thereby raise both productivity and wages [10]. Hence export-oriented enterprises, if they move from raw-material exports to finished products, can become the very "anchors" of employment that reduce the incentive to migrate. The missing link in the literature is the management dimension: which strategies allow such enterprises to compete abroad and, at the same time, retain labor at home. This paper addresses that gap.

The study uses comparative and statistical analysis of official data of the National Statistics Committee, the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the Ministry of Investment, Industry and Trade, and the Agency for External Labor Migration for 2024–2026, as well as the method of systematization for formulating management strategies.

The dynamics of the main indicators characterizing the link between export development and labor migration are summarized in Table 1.

Table 1

Export development and labor migration in Uzbekistan, 2024–2025

Indicator	Description	2024	2025	Change
Exports	Total exports of goods and services, USD bn [2]	27.3	33.8	+24.0 %
Textile exports	Textile industry exports, USD bn [4; 5]	2.9	2.6	–10 %
Textile employment	Persons employed in the textile industry, thousand [5]	≈600	623	+3.8 %
Exporting enterprises	Number of textile exporters, units [4]	907	1,409	+502
Remittances	Cross-border transfers to Uzbekistan, USD bn [6]	14.8	18.9	+27.2 %
Remittance share	Share of remittances in household income, % [6]	16.5	21.0	+4.5 p.p.
Migration to Russia	Citizens who left for work in Russia, H1 of the year, mln [7]	1.36	1.18*	–13.2 %

Source: *January–June 2026 compared with January–June 2025. Source: compiled by the author on the basis of [2; 4; 5; 6; 7].*

Three trends follow from the table. First, exports are growing rapidly: in 2025 the total export volume reached USD 33.8 billion, 24.0 % more than a year earlier, and the country trades with 210 states [2]. Second, the export base is becoming broader: the number of textile exporters increased to 1,409, and 502 enterprises entered foreign markets for the first time, generating USD 203 million of exports; exports of finished textile products grew by 18.5 % [4]. Employment in the textile industry reached 623 thousand people against 188 thousand in 2018, with the potential to reach 650 thousand in 2026 [5; 11]. Third, the structure of migration is changing: in the first half of 2026 the number of citizens who left for work in Russia fell by 13.2 % to 1.18 million, while the number of Uzbek citizens in Turkey, South Korea,

the European Union and the United States reached nearly 320 thousand [7]. The Central Bank notes that the decline in migration to Russia will increase the supply of labor in the domestic market [7], which means that domestic enterprises must absorb this labor.

At the same time, the dependence of households on migration remains high. Remittances in 2025 amounted to USD 18.9 billion, which is 27.2 % more than in 2024, and their share in household income rose from 16.5 % to 21 %, exceeding 30 % in some regions [6]. In the first quarter of 2026 remittances grew by a further 13 % to USD 3.8 billion, with Russia still accounting for 72.4 % of inflows [12]. Such a concentration of income on one external labor market is a source of macroeconomic vulnerability. Therefore, the reduction of external migration cannot be achieved by administrative restrictions; it requires an economic alternative, namely competitive jobs created by export-oriented enterprises.

The textile industry is the most illustrative case. In 2025 its output reached UZS 134 trillion, utilized foreign investment USD 2.1 billion and exports USD 2.5–2.6 billion; the Decree of the President No. PF-4 of January 12, 2026 sets the target of USD 4.0 billion of textile exports in 2026, including USD 700 million through e-commerce platforms [4; 5]. Yet exports fell in 2025 compared with 2024, and the industry still exports a large share of yarn rather than garments. This confirms that the limiting factor has shifted from production capacity to the quality of enterprise management: without innovative strategies the export potential is not converted into sustainable employment.

On the basis of the analysis, four innovative management strategies are proposed for export-oriented enterprises located in regions with high migration outflow.

–Strategy of value-added upgrading. Moving from yarn to finished garments multiplies employment per ton of cotton several times and raises wages, since labor-intensive sewing and finishing operations are created in the regions themselves. Management tools: product development, design and branding, international certification (ISO 9001, OEKO-TEX, BSCI, GRS), which open the markets of the EU and the United States.

–Strategy of digital supply chain management. Implementation of ERP and logistics-controlling systems, regular monitoring of on-time and in-full delivery, and participation in e-commerce platforms allow small and medium exporters to compete in reliability rather than only in price. Digital workplaces also attract young specialists who would otherwise seek employment abroad.

–Strategy of regional cluster integration. As of January 2026, Uzbekistan had 361 clusters, 423 small industrial zones and 31 special economic zones [11]. Export-oriented enterprises that integrate into cotton-textile and agro-industrial clusters gain access to raw materials, infrastructure and shared logistics, which reduces costs and stabilizes year-round employment in rural areas – the main source of migrants.

–Strategy of human capital retention and return. Enterprises can cooperate with the Agency for External Labor Migration to employ returning migrants, who bring skills and savings; introduce dual training with vocational colleges; and

offer wage and social packages comparable with the net income of a migrant after deduction of living and patent costs abroad. In 2025 the government officially employed only 86 thousand citizens abroad in six months [13]; the same institutional effort directed at domestic export enterprises would give a higher social return.

The regional dimension of these strategies deserves special attention. The largest outflow of labor migrants is recorded in the densely populated Fergana Valley (Andijan, Fergana and Namangan regions), Samarkand, Kashkadarya and Surkhandarya regions, where the share of remittances in household income is the highest. The same regions concentrate the main cotton-textile clusters and the majority of newly created exporters. For instance, Namangan region alone has been assigned a target of attracting USD 5 billion of foreign investment with a focus on industry and IT [12]. This coincidence of "migration-donor" and "export-growth" regions means that targeted support for export-oriented enterprises in these territories gives a double effect: it increases foreign currency revenues of the country and simultaneously reduces the pressure of migration. The calculation is simple: if an exporter creating one additional job pays a wage comparable to the net savings of a migrant (according to IFAD estimates, Uzbek migrants send home on average USD 200–300 per month [12]), the household loses the incentive to send a family member abroad, while the state retains the taxes and social contributions inside the country.

It should be emphasized that the proposed strategies are interdependent and should be implemented as a system rather than separately. Value-added upgrading without digital supply chain management leads to a loss of reliability in delivery, which is the main reason why Uzbek textile exporters lose contracts with European buyers. Cluster integration without a human capital strategy leaves enterprises without qualified sewing operators and technologists, whose shortage is already reported in the Fergana Valley. Conversely, digitalization and ERP implementation, which the textile industry plans to accelerate in 2026 [5], become effective only when the enterprise has a clear product strategy and a trained workforce. Thus, the management of an export-oriented enterprise in the context of globalization should be understood as the coordinated management of four assets – product, process, network and people – each of which contributes both to export competitiveness and to the retention of labor in the country.

The combination of these strategies produces a reinforcing cycle: innovative management increases export competitiveness; competitiveness provides stable orders and employment; employment reduces the incentive to migrate; the reduction of migration lowers the dependence of household income on one external market and strengthens the regional economy.

First, the growth of exports and the expansion of the number of exporting enterprises in Uzbekistan create a real domestic alternative to labor migration; however, this alternative is realized only where enterprises apply innovative management strategies that raise value added and wages. Second, the shift of migration away from Russia and the forecast increase in domestic labor supply make 2026–2030 a window of opportunity for export-oriented enterprises to

absorb labor. Third, the following measures are recommended: (1) to link state export support (preferential credit, compensation of certification and logistics costs) to the creation of jobs in regions with high migration outflow; (2) to include “jobs created for returning migrants” as a criterion in cluster and special economic zone programs; (3) to develop a system of logistics-controlling and digital management for second-tier exporters with the participation of universities; (4) to create regional centers that combine export promotion and the reintegration of labor migrants. The implementation of these measures will contribute to the goals of the Strategy “Uzbekistan – 2030” in both the economic and the social dimension.

References:

1. *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 of September 11, 2023 “On the Strategy ‘Uzbekistan – 2030’”. – URL: https://lex.uz*
2. *National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan: preliminary data for January–December 2025. – Tashkent, 2026. – URL: https://stat.uz*
3. *National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan exported the most products to the following countries in 2025. – URL: https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/66745*
4. *Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. Export indicators of the textile industry in 2025–2026. – 13.02.2026. – URL: https://gov.uz/en/adli/news/view/132093*
5. *Official website of the President of the Republic of Uzbekistan. This year’s results in textile industry reviewed and priority tasks for the future set. – 23.12.2025. – URL: https://president.uz/en/lists/view/8828*
6. *Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Remittances to Uzbekistan jump 27 % to USD 18.9 bn in 2025 // Kun.uz. – 29.01.2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/*
7. *Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Labor market review for the first half of 2026 // Kun.uz. – 02.10.2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/10/02/*
8. *Todaro M.P. A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries // American Economic Review. – 1969. – Vol. 59, No. 1. – P. 138–148.*

GLOBALLASHUV DAVRIDA XALQARO FAKTORING XIZMATLARINING EKSPORTDA TUTGAN O‘RNI

Sobirova Muxlisa Sherali qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Xalqaro savdoda hisob-kitoblarning ochiq hisob (open account) shartlariga o‘tib borishi eksportchilar oldiga likvidlikni saqlash va xaridor to‘lamasligi xavfini boshqarish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday sharoitda faktoring, ya’ni yetkazib berilgan tovar uchun pul talabini moliya agentiga topshirish evaziga moliyalash, eksportchi uchun bir vaqtning o‘zida moliyalashtirish va tavakkalchilikdan himoyalanish vositasiga aylanadi. Factors Chain International (FCI) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda jahon faktoring aylanmasi 4,039 trln yevroga yetib, 2024-yilga nisbatan 3,7 foizga oshgan va jahon yalpi ichki mahsulotining

taxminan 3,6 foizini tashkil etgan. Bir yil avval bu koʻrsatkich 3 894,6 mlrd yevro boʻlgan. Taqqoslash uchun, Jahon banki tadqiqotida 2004-yilda jahon faktoring hajmi 860 mlrd AQSh dollaridan oshgani va 1998-yilga nisbatan 88 foizga oʻsgani qayd etilgan. Demak, faktoring ikki oʻn yillik ichida chekka xizmatdan eksportni moliyalashtirishning keng tarqalgan vositasiga aylandi.

Faktoring bir nechta xizmatni oʻz ichiga olgan majmua boʻlib, unga kredit tavakkalchiligidan himoya, debitorlik qarzlari hisobini yuritish, toʻlovlarni undirish va moliyalashtirish kiradi. Xalqaro faktoringda eksportchi va importchi turli mamlakatlarda joylashgan boʻladi, shu sababli amaliyotda ikki asosiy sxema qoʻllanadi: faqat eksportchi mamlakatidagi faktor ishtirok etadigan toʻgʻridan-toʻgʻri eksport faktoringi (koʻpincha kredit sugʻurtasi bilan birga) hamda ikki faktorli tizim. Ikki faktorli tizim XX asrning 1960-yillariga kelib Yevropa bozori tomonidan transchegaraviy bitimlarning amaliy qiyinchiliklarini yengish maqsadida shakllangan; uning ustunligi shundaki, har bir faktor oʻz mamlakati bozorini yaxshi biladi.

Ikki faktorli tizim quyidagicha ishlaydi. Eksportchi oʻz mamlakatidagi eksport-faktor bilan shartnoma tuzadi; eksport-faktor importchining toʻlovga layoqatini uning mamlakatidagi import-faktor orqali baholaydi, import-faktor esa kredit limitini belgilaydi. Eksport-faktor topshirilgan hisob-fakturalar qiymatining 80 foizigacha qismini avans sifatida toʻlaydi, toʻlov muddatida undirishni import-faktor amalga oshiradi va mablagʻni eksport-faktorga oʻtkazadi, qolgan qism esa xizmat haqi chegirilib eksportchiga toʻlanadi. Faktorlar oʻrtasidagi munosabatlar FCI ning Xalqaro faktoring boʻyicha umumiy qoidalari (GRIF) bilan unifikatsiya qilingan: qoidalar tomonlar tarkibini, muloqot tilini (ingliz tili) va nizolarni FCI arbitraj qoidalari boʻyicha hal etish tartibini belgilaydi. GRIF doirasida import-faktorning javobgarlikdan ozod boʻlishi holatlari cheklab qoʻyilgani va jarayon elektron xabar almashinuvi (edifactoring) orqali amalga oshirilgani bois, bunday bitimlar yuqori darajada standartlashgan va nizolar nisbatan kam uchraydi.

Birinchidan, faktoring eksportchining aylanma mablagʻiga boʻlgan ehtiyojini qoplaydi: toʻlov muddati kechiktirilgan eksport yuklari uchun pul tushumi xaridor toʻlashini kutmasdan, hisob-faktura topshirilgan zahoti avans shaklida olinadi. Ikkinchidan, moliyalash eksportchining umumiy kredit tarixiga emas, balki uning debitorlik qarzlari qiymatiga bogʻlanadi. Shu sababli yuqori tavakkalchilikdagi yetkazib beruvchi oʻz kredit xavfini sifatli xaridorga oʻtkaza oladi. Bu, ayniqsa, kichik va oʻrta biznes eksportchilari uchun muhim, chunki ularga bank krediti olish koʻpincha qiyin.

Uchinchidan, faktoring sud tizimi nisbatan zaif mamlakatlarda ham samarali: pul talablari garovga qoʻyilmaydi, balki sotiladi va bankrot boʻlgan korxona mulkiga kirmaydi. Toʻrtinchidan, eksportchi importchiga raqobatbardosh, ya’ni muddatli toʻlov shartlarini taklif qila oladi, oʻzi esa pulni darhol oladi; undirish va xaridorni tekshirish yuki esa xaridor mamlakatidagi import-faktor zimmasiga oʻtadi. Beshinchidan, faktoring kredit sugʻurtasi bilan uygʻunlashadi: masalan, Germaniyada faktoringning taxminan 95 foizi kredit sugʻurtasi bilan qoplangan.

Statistika ham xalqaro faktoring salohiyatini ko‘rsatadi: FCI ning 2023-yil bo‘yicha hisobotida jahon faktoring hajmining 78 foizi ichki, 22 foizi xalqaro faktoringga to‘g‘ri kelgani qayd etilgan. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, faktoring rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa tez o‘smoqda, uning hajmi esa iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori va kredit axboroti byurolari yaxshi ishlaydigan mamlakatlarda kattaroq.

Ta’sir yo‘nalishi	Faktoring mexanizmi	Kutiladigan iqtisodiy natija
Aylanma kapital	Debitorlik qarzlari hisobidan avans moliyalashtirish	Likvidlikning yaxshilanishi, eksport operatsiyalarini uzluksiz moliyalashtirish
To‘lov xavfi	Import-faktor orqali xaridorning kreditga layoqatini baholash va to‘lov kafolatini ta’minlash	To‘lov tavakkalchiligining kamayishi, xavfsiz savdo operatsiyalari
Raqobatbardoshlik	Muddatli to‘lov shartlarini taklif etish va xaridorga qulay savdo sharoitlarini yaratish	Eksport shartlarining jozibadorligi ortishi, yangi xaridorlarni jalb etish
Operatsion samaradorlik	Debitorlik qarzlarini boshqarish, hisob-kitoblarni yuritish va to‘lovlarni undirish	Ma’muriy yuklamaning qisqarishi, korxonaning asosiy faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratish
Eksport geografiyasi	Xalqaro faktorlar tarmog‘idan foydalanish va ikki faktorli tizim orqali yangi bozorlarga chiqish	Yangi mamlakatlar va xaridorlarga chiqish imkoniyatining kengayishi, eksport hajmining oshishi

1-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlarining xizmatlarining eksport faoliyatiga ta’sir etish mexanizmlari

Manba: *Muallif ishlanmasi*

Xalqaro faktoringning huquqiy asosini ikki qatlam tashkil etadi. Birinchisi, UNIDROIT ning 1988-yil 28-maydagi Ottava konvensiyasi bo‘lib, uning preambulasida xalqaro faktoringning xalqaro savdo rivojlanishidagi muhim o‘rni tan olinadi va tomonlar manfaatlari muvozanatini saqlagan holda faktoringni yengillashtiruvchi yagona qoidalar zarurligi ta’kidlanadi. Konvensiya faktoring shartnomalari va pul talablarini topshirishni tartibga soladi va 1995-yil 1-mayda kuchga kirgan. Ikkinchisi, kasbiy hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda faktorlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi FCI GRIF qoidalaridir. Shartnoma erkinligi va pul talabidan voz kechishni tan olish tamoyillariga tayanuvchi bunday uyg‘un tizim eksportchi uchun huquqiy aniqlikni oshiradi.

O‘zbekiston qonunchiligida faktoring pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi sifatida Fuqarolik kodeksining 749-moddasida mustahkamlangan. 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-son Farmon bozorni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Unga ko‘ra, Markaziy bankda ro‘yxatdan o‘tgan nobank kredit tashkilotlariga 2025-yil 1-yanvardan faktoring xizmati ko‘rsatishga ruxsat berildi, xizmatlar yagona elektron platforma orqali yo‘lga qo‘yildi, mijozning debitori norezident bo‘lganda faktoringni xorijiy valyutada amalga oshirish, refaktoring, pul talabidan voz kechish haqidagi xabarnomalarni garov reyestrida ro‘yxatga olish imkoniyati

belgilandi. Eksport shartnomasi bo‘yicha valyuta tushumini oluvchi sifatida faktoring xizmatini ko‘rsatuvchi kredit tashkiloti to‘g‘risidagi ma’lumot ham tegishli axborot tizimiga kiritiladigan bo‘ldi, eksportchi uchun soliq imtiyozlari esa saqlanib qoldi. Farmon qoidalarini qonun darajasida mustahkamlashga qaratilgan loyiha 2025-yil yanvarida Qonunchilik palatasida ikkinchi o‘qishda qabul qilingan.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda kredit tashkilotlari jami 9,5 trln so‘mlik faktoring xizmati ko‘rsatgan: 8,8 trln so‘m (93 foiz) tijorat banklari, 699 mlrd so‘m (7 foiz) mikromoliya tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan; raqamli faktoring 4,4 trln so‘mni (46 foiz) tashkil etgan. Xalqaro faktoring hajmi esa 642 mlrd so‘m, ya’ni umumiy hajmning atigi 7 foizi bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich jahondagi 22 foizlik xalqaro ulushdan sezilarli past bo‘lib, eksport yo‘nalishida faktoringning katta o‘sish zaxirasi borligini bildiradi.

Birinchi, xalqaro hamkor faktorlar tarmog‘ini kengaytirish zarur. O‘zbekiston eksport bozorlariga mos mamlakatlarda import-faktorlar bilan inter-faktor kelishuvlari tuzilishi, FCI doirasidagi hamkorlik kuchaytirilishi kerak. Bunda Xitoy (2025-yilda 713 mlrd yevro bilan dunyodagi eng yirik bozor) va Yevropa (jahon hajmining taxminan uchdan ikki qismi) bozorlari ustuvor ahamiyatga ega. Ikkinchi, milliy qonunchilikni UNIDROIT konvensiyasi va GRIF tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish, pul talabidan voz kechishni chegaralar orqali tan olish va reyestrga olish tartibini aniqlashtirish lozim.

Uchinchi, kredit axboroti infratuzilmasini rivojlantirish kerak: tadqiqotlar kredit axboroti byurolarining mavjudligi faktoring bozorining kengayishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Import-faktorlar uchun xorijiy debitorlar haqida ishonchli ma’lumot esa xalqaro faktoringning asosiy sharti hisoblanadi. To‘rtinchi, mavjud elektron faktoring platformalarini FCI ning elektron xabar almashinuvi tizimiga ulash orqali kredit limitini olish va hisob-fakturalarni topshirish jarayonini tezlashtirish mumkin. Beshinchi, faktoringni eksport kredit sug‘urtasi bilan birga taklif etish import-faktorlar uchun tavakkalchilikni kamaytiradi, kichik eksportchilarni xabardor qilish va o‘qitish esa xizmatga talabni oshiradi.

Xalqaro faktoring eksportchiga tezkor moliyalashtirish, to‘lov xavfidan himoya va xorijiy xaridorga qulay shartlarni taklif etish imkonini beradigan yaxlit xizmatdir. Jahon tajribasi uning transchegaraviy savdoni qo‘llab-quvvatlashdagi samaradorligini tasdiqlaydi. O‘zbekistonda 2024–2025-yillarda yaratilgan huquqiy va texnologik asos faktoring bozorining tez o‘sishini ta’minladi, ammo xalqaro faktoringning ulushi (7 foiz) hali past. Hamkor faktorlar tarmog‘ini kengaytirish, qonunchilikni xalqaro qoidalar bilan uyg‘unlashtirish, kredit axboroti va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bu ulushni oshirib, eksport hajmi va eksportchilar sonining o‘sishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (II qism). – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-son Farmoni «Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». – URL: https://lex.uz

3. UNIDROIT Convention on International Factoring (Ottawa, 28 May 1988). – URL: https://unidroit.org/english/conventions/1988factoring/convention-factoring1988.pdf

4. FCI General Rules for International Factoring (GRIF). – Factors Chain International. – URL: https://www.fibafaktoring.gricreative.com/uploads/file/fcigrif.pdf

5. Klapper L. The Role of Factoring for Financing Small and Medium Enterprises. World Bank Policy Research Working Paper No. 3593. – Washington, DC: World Bank, 2005. – URL: https://openknowledge.worldbank.org

6. Bakker M.R., Klapper L., Udell G.F. Financing Small and Medium-Size Enterprises with Factoring: Global Growth and its Potential in Eastern Europe. World Bank Policy Research Working Paper No. 3342. – Washington, DC: World Bank, 2004. – URL: https://openknowledge.worldbank.org

7. Arbitration of International Factoring Disputes: Back to the Origins // Kluwer Arbitration Blog, 10.04.2017. – URL: https://arbitrationblog.kluwerarbitration.com/2017/04/10/arbitration-of-international-factoring-disputes-back-to-the-origins/

8. FCI figures show global factoring hits €4tn as receivables finance keeps growing // BCR Publishing, 2026. – URL: https://bcrpub.com/?p=152600

9. The evolution of factoring // ICC Academy. – URL: https://academy.iccwbo.org/trade-finance/article/the-evolution-of-factoring/

REMITTANCES FROM LABOR MIGRANTS AND HOUSEHOLD WELFARE IN UZBEKISTAN

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
sh.xamdamov@tsue.uz
Nasrullayeva Dilnoza
Tashkent State University of Economics
nasrullayevadilnoza888@gmail.com

International labor migration has become an important part of household economic strategies in Uzbekistan. For many families, a family member’s temporary employment abroad is not only a way to increase income but also a way to manage unemployment, unexpected expenses and limited opportunities in the local labor market. The money sent home by migrants, usually called remittances, therefore has a direct meaning for everyday household welfare. It can help a family pay for food, housing, education, healthcare and other basic needs. At the same time, the effect of remittances is not always simple: depending on how the money is used, remittances may strengthen a household’s financial position in the long run or mainly support current consumption.

The international literature has discussed this issue from different perspectives. Semyonov and Gorodzeisky [1] show that remittances are closely connected with the economic position of migrant households and can affect household income differently depending on migrants’ characteristics and migration patterns. Itzigsohn [2] emphasizes that remittances form part of broader household strategies in low-income communities, rather than being simply an additional source of cash. De Haas [3] also argues that remittances should be viewed within the wider relationship between migration and development: their impact depends on the economic and social conditions of the receiving households.

The gender dimension is also important. Xiong and Joshi [4] find that gender-specific migration and remittances can influence poverty reduction in different ways. This suggests that the effect of remittances cannot be fully understood by looking only at the total amount of money received. Who migrates, who stays at home, who controls the money and what the household needs are all relevant. Shair et al. [5] similarly show that the source of remittances matters: internal and external remittances can have different effects on labor participation and employment choices.

For Uzbekistan, this discussion is especially relevant because remittances can influence both household welfare and the distribution of income. Milanovic [6] shows that remittances can affect income distribution differently across social groups, while Stark, Taylor and Yitzhaki [7] demonstrate that the relationship between remittances and inequality depends on the characteristics of migrant households and the migration process. These findings suggest that the impact of remittances should be assessed not only through average household income but also through differences between households.

The economic impact of remittances has also been examined through household-level outcomes. Adams [8], reviewing empirical studies from developing countries, finds that remittances can have important effects on poverty, health, education, savings, investment and labor-market behavior. At the same time, the direction and size of these effects depend on household characteristics and the way remittances are used.

These findings are relevant to Uzbekistan because household welfare is broader than income alone. Remittances may help families meet basic needs, improve housing, finance education and healthcare, build savings and, in some cases, support productive investment. However, households that depend heavily on migration income may also face vulnerability when employment conditions abroad, exchange rates or migration policies change.

In this context, household welfare should be understood more broadly than monthly income. A household receiving remittances may become better able to pay for food and utilities, improve housing conditions, finance education, deal with health expenses and accumulate savings. These changes improve economic security even when the money does not immediately generate a business or another income-producing asset. At the same time, heavy dependence on remittances can create vulnerability if the migrant loses a job, the destination country changes migration rules, exchange rates move against the household, or migration becomes temporarily impossible.

The following table summarizes the main channels through which remittances can affect household welfare in Uzbekistan.

The table shows why the welfare effect of remittances should not be judged only by whether a household consumes or saves the money. Consumption itself can represent an important welfare improvement when families are able to meet basic needs more securely. However, from a development perspective, the strongest long-term result would be achieved when part of the transfers can also support education, savings, skills or productive investment.

Table 1.

Main channels through which labor-migrant remittances affect household welfare

Welfare channel	Possible positive effect	Main risk or limitation
Basic consumption	Higher ability to cover food, utilities and daily expenses	May increase dependence on external income
Housing	Repairs, rent or purchase of better housing conditions	Funds may be concentrated in non-productive spending
Education	More resources for tuition, books and skills	Benefits depend on household priorities and access to education
Health	Better ability to pay for treatment and medicines	Unexpected health costs can absorb a large share of transfers
Savings	Greater financial buffer against shocks	Savings may be kept outside formal financial products
Investment	Possible start-up capital for small business or productive assets	Requires financial literacy, suitable opportunities and confidence

Source: *compiled by the author based on [1–8].*

Another practical issue is how remittance-receiving households use and manage the money they receive. The literature suggests that the welfare effect is stronger when households can combine immediate consumption with savings, education and productive investment [8]. Financial literacy and access to appropriate financial services can therefore help households turn temporary migration income into greater long-term economic security.

Another important issue is the difference between households. A family with a stable migrant income may use remittances to improve housing and education, while a poorer household may need almost the entire transfer for food, utilities and healthcare. For this reason, a uniform policy for all remittance-receiving households would be less effective. Policy should instead recognize differences in household income, location, number of dependents, migration duration and access to financial services.

The rural dimension deserves particular attention. In many rural areas, migration can be a response to limited local employment opportunities. When remittances enter such households, they may support consumption and reduce immediate financial pressure, but the longer-term effect depends on whether households have realistic opportunities to invest locally. This is why remittance policy should be linked to local employment, entrepreneurship, agricultural modernization and small-business support rather than treated as a separate migration issue.

Based on the reviewed literature, several practical recommendations can be proposed. First, banks and financial institutions should offer simple savings and investment products for remittance-receiving households. Second, financial literacy programmes should explain how families can divide transfers between essential consumption, emergency savings, education and productive investment. Third, digital remittance channels should be developed together with transparent fees and consumer protection. Fourth, local employment and entrepreneurship

programmes should be connected with remittance households so that families have realistic alternatives to permanent dependence on migration income.

It is also important not to treat migration itself as a failure of the domestic economy. For many families, migration is a rational response to differences in wages and employment opportunities. The policy objective should therefore be to reduce vulnerability and increase the benefits of migration. This means protecting migrants before and during employment abroad, making remittances safer and cheaper, and creating conditions in Uzbekistan where returning migrants and their families can use accumulated savings, skills and experience productively.

Conclusion. Remittances from labor migrants play an important role in supporting household welfare. Their effects can be seen through greater purchasing power, improved access to housing, education and healthcare, increased savings and, in some cases, productive investment. The international literature also shows that these benefits are not distributed equally across all households and depend on how remittance income is used.

The main challenge is therefore not simply to increase the volume of remittances, but to make their benefits more stable and inclusive. A balanced approach should combine financial inclusion, household financial literacy, productive investment opportunities, local job creation and protection of migrant workers. Such an approach would allow remittances to remain a source of immediate household support while also contributing to longer-term economic resilience.

References:

1. Semyonov, M., & Gorodzeisky, A. (2005). Labor Migration, Remittances and Household Income: A Comparison between Filipino and Filipina Overseas Workers. International Migration Review, 39(1), 45–68. https://doi.org/10.1111/j.1747-7379.2005.tb00255.x

2. Itzigsohn, J. (1995). Migrant remittances, labor markets, and household strategies: A comparative analysis of low-income household strategies in the Caribbean Basin. Social Forces.

3. de Haas, H. (2005). International migration, remittances and development: Myths and facts. Third World Quarterly.

4. Xiong, Y., & Joshi, N. P. (2025). The impact of gender-specific migration and remittances on household poverty reduction in Lao PDR. Social Indicators Research.

5. Shair, W., Anwar, M., Hussain, S., & Kubra, N. (2024). The differential effect of internal and external remittances on labor participation and employment choices in Pakistan. SAGE Open.

6. Milanovic, B. (1987). Remittances and income distribution. Journal of Economic Studies, 14(5), 24–37. https://doi.org/10.1108/eb002657

7. Stark, O., Taylor, J. E., & Yitzhaki, S. (1986). Remittances and inequality. The Economic Journal, 96(383), 722–740. https://doi.org/10.2307/2232987

8. Adams, R. H., Jr. (2011). Evaluating the economic impact of international remittances on developing countries using household surveys: A literature review. Journal of Development Studies, 47(6), 809–828. https://doi.org/10.1080/00220388.2011.563299

ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА УЗБЕКИСТАНА

Салиханов Алишер Саидханович
доктор философии (PhD) по техническим наукам,
старший преподаватель кафедры «Таможенный контроль»
Таможенного института

Международная трудовая миграция является одним из механизмов перераспределения трудовых ресурсов между странами. Для государства происхождения мигрантов ее экономический результат проявляется, в частности, через поступление денежных средств от граждан, работающих за рубежом. Международная организация труда отмечает значительную роль международных трудовых мигрантов в глобальном рынке труда, а международные исследования рассматривают денежные переводы как один из важных каналов экономического взаимодействия между странами происхождения и назначения мигрантов [3; 4]. Для Узбекистана данный аспект имеет особое значение. Вместе с тем денежные переводы не следует рассматривать как прямой показатель численности трудовых мигрантов, поскольку их объем определяется также уровнем заработной платы, продолжительностью пребывания за рубежом, частотой переводов, семейными обстоятельствами и другими факторами. Поэтому в настоящем исследовании они используются как косвенный показатель экономического результата международной трудовой мобильности.

По данным Центрального банка Республики Узбекистан, в 2025 г. в страну поступило 18,9 млрд долл. США денежных переводов, что примерно на 28% больше показателя 2024 г. Центральный банк связывает увеличение поступлений с сохраняющимся спросом на рабочую силу в странах назначения, относительно высоким уровнем заработной платы и расширением географии трудовой миграции [1].

Таблица 1.

Динамика денежных переводов в Узбекистан в 2020–2025гг.

Год	Переводы, млрд долл.	Изменение, млрд долл.	Темп изменения, %
2020	6,0	–	–
2021	8,1	+2,1	+35,0
2022	17,0	+8,9	+109,9
2023	11,4	−5,6	−32,9
2024	14,8	+3,4	+29,8
2025	18,9	+4,1	+27,7

Источник: *Центральный банк Республики Узбекистан [1]. Расчеты выполнены по округленным значениям.*

За 2020–2025 гг. объем денежных переводов вырос с **6,0 до 18,9 млрд** долл. США, то есть на 12,9 млрд долл., или 215%. В 2025 г. показатель был в 3,15 раза выше уровня 2020 г. Среднегодовой темп роста за пять годовых

интервалов составил 25,8%. Однако рост был неравномерным. Наиболее существенное увеличение наблюдалось в 2022 г. — на 109,9%, после чего в 2023 г. объем переводов сократился на 32,9%. В 2024–2025 гг. последовало восстановление: поступления выросли соответственно на 29,8 и 27,7% по сравнению с предыдущими годами. Такая динамика показывает, что экономический эффект трудовой миграции чувствителен к внешним условиям. На объем переводов воздействуют состояние рынков труда стран назначения, уровень заработной платы, валютная конъюнктура и изменения миграционных потоков. Следовательно, увеличение переводов в долгосрочном периоде следует оценивать с учетом существенных годовых колебаний. Можно увидеть изменяется не только объем, но и механизм поступления денежных средств. В 2025 г. 9,9 млрд долл.

США (52%) поступило через традиционные международные системы денежных переводов, 8,6 млрд долл. (46%) — посредством прямых P2P-переводов на банковские карты физических лиц, еще 397 млн долл. (2%) — банковскими переводами [1]. Почти половина трансграничных денежных поступлений физическим лицам уже осуществляется посредством цифрового канала. Объем P2P-переводов за 2025г. увеличился в 1,4 раза [1]. Это свидетельствует прежде всего о цифровизации финансового сопровождения трудовой миграции: доход, полученный гражданином за рубежом, все чаще поступает непосредственно на его банковскую карту или счет.

Одновременно расширяется география трудовой миграции. Наряду с традиционными направлениями — Российской Федерацией, Казахстаном, Республикой Корея и Турцией — возрастает значение европейских стран, Великобритании, США и других государств. По данным Центрального банка, в 2025г. заметно увеличились поступления из Великобритании, стран Европейского союза, США и Республики Корея [1].

Это позволяет рассматривать современную трудовую миграцию как более диверсифицированный процесс. Влияние денежных поступлений из-за рубежа также видно по операциям населения с иностранной валютой. В 2025 г. общий оборот операций между банками и физическими лицами по покупке и продаже иностранной валюты составил 33,6 млрд долл. США, увеличившись за год на 32%.

Банки приобрели у населения иностранную валюту на 21,6 млрд долл., а продали физическим лицам — на 12,0 млрд долл. [1]. Разница составила 9,6млрд долл. США. Однако данная величина не может быть непосредственно отнесена к доходам трудовых мигрантов, поскольку валютные операции населения имеют различные источники. Поэтому ее следует рассматривать только как дополнительный показатель активности населения на валютном рынке. В совокупности рост денежных переводов и увеличение предложения иностранной валюты со стороны населения характеризуют возрастающую роль внешних денежных потоков в финансовой системе страны.

Данные за первое полугодие 2026 г. показывают сохранение высокой

динамики. В январе–июне в Узбекистан поступило 9,3 млрд долл. США, что на 13% больше аналогичного периода 2025 г. [2]. Одновременно изменились каналы перевода. Доля прямых P2P-переводов достигла 51,7%, или 4,8 млрд долл. США [2]. Если сохранить темпы первого полугодия, за год показатель может составить 9,3 × 2 = 18,6 млрд долл. США. Данная величина является исключительно расчетным сценарием и не является прогнозом Центрального банка, поскольку не учитывает возможную сезонность и изменение внешних условий во втором полугодии.

Проведенный анализ позволяет сделать следующие выводы:

1. В 2020–2025 гг. экономический масштаб денежных потоков, связанных с международной трудовой мобильностью, существенно увеличился. Объем переводов вырос с 6,0 до 18,9 млрд долл. США, или на 215%, а расчетный среднегодовой темп роста составил 25,8%.

2. Рост не был устойчиво линейным. После резкого увеличения в 2022 г. произошло сокращение в 2023 г., а в 2024–2025 гг. наблюдалось восстановление. Это подтверждает зависимость миграционных доходов от внешней экономической конъюнктуры и условий занятости в странах назначения.

3. Происходит существенная цифровизация финансовых каналов миграции. Доля P2P-переводов выросла до 46% в 2025 г. и до 51,7% в первом полугодии 2026 г. [1; 2]. Следовательно, цифровая финансовая инфраструктура становится важным элементом экономического сопровождения международной трудовой мобильности.

4. Расширение географии трудовой миграции создает предпосылки для диверсификации внешних источников доходов, но одновременно повышает значение профессиональной подготовки, признания квалификаций, легальности трудоустройства и защиты трудовых прав мигрантов [3–5].

5. Денежные переводы необходимо использовать совместно с другими показателями. Для полноценной оценки миграционных процессов необходим анализ численности и структуры мигрантов, продолжительности пребывания за рубежом, отраслей занятости, уровня заработной платы и географии трудоустройства. Ограниченность отдельных элементов национальной миграционной статистики также отмечается в исследованиях Международной организации по миграции [5; 6].

Особое значение имеет создание условий для направления части доходов мигрантов в накопления и инвестиции внутри страны. Это позволило бы рассматривать денежные переводы не только как источник текущего потребления домашних хозяйств, но и как потенциальный ресурс формирования долгосрочных накоплений. Следовательно, трудовая миграция из Узбекистана в 2020–2025 гг. сопровождалась значительным увеличением внешних денежных поступлений. Однако их рост нельзя объяснять исключительно увеличением численности мигрантов. Поэтому оценка трудовой миграции должна основываться на комплексном

сочетании миграционных, трудовых и финансово-экономических показателей.

Летературы:

1. Центральный банк Республики Узбекистан. Обзор международной миграции и валютных операций физических лиц. Март 2026 г. [Электронный ресурс]. — URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/3611322/ (дата обращения: 17.09.2026).

2. Центральный банк Республики Узбекистан. The Central Bank of Uzbekistan publishes its analytical review of individuals' foreign currency operations for the first half of 2026 [Электронный ресурс]. — 14 August 2026. — URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/4359624/ (дата обращения: 17.09.2026).

3. International Labour Organization. ILO global estimates on international migrant workers: international migrants in the labour force. 4th ed. Geneva: ILO, 2024. 87 p. DOI: 10.54394/ESKI5420.

4. OECD. International Migration Outlook 2025. Paris: OECD Publishing, 2025. 442 p. DOI: 10.1787/ae26c893-en.

5. International Organization for Migration. Uzbekistan — Migration Data Mapping Report (May 2025) [Electronic resource]. — Geneva: IOM, 2025. — URL: https://dtm.iom.int/fr/node/53886 (accessed: 17.09.2026).

6. International Organization for Migration. Uzbekistan — Migration Data Gaps Analysis (January 2024) [Electronic resource]. — IOM, 2024. — URL: https://dtm.iom.int/reports/uzbekistan-migration-data-gaps-analysis-january-2024 (accessed: 17.09.2026).

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
ТДИУ ҳузуридаги "Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари" илмий-тадқиқот маркази

Ёшлар меҳнат миграцияси иқтисодий жиҳатдан меҳнат ресурсларининг халқаро қайта тақсимланиши, меҳнат даромадларини ошириш ва инсон капиталиидан самарали фойдаланишга қаратилган жараён сифатида намоён бўлади. Миграция қарорларига маҳаллий меҳнат бозоридаги иш ўринлари, иш ҳақи, касбий имкониятлар, хорижий давлатларда ишчи кучига талаб, тил билиш даражаси ҳамда институционал шароитлар таъсир кўрсатади.

Ўзбекистон шароитида ёшлар меҳнат миграциясига, бир томондан, меҳнат ресурслари таклифининг шаклланиши, ҳудудлар бўйича иш ўринлари ва даромад имкониятларининг фарқланиши таъсир кўрсатса, иккинчи томондан, хорижий мамлакатлардаги ишчи кучига талаб, меҳнат ҳақи даражаси, касбий ривожланиш ва халқаро меҳнат бозорларига кириш имкониятлари таъсир кўрсатади.

Бунда ёшларнинг меҳнат миграциясига мойиллиги нафақат хорижда юқорироқ иш ҳақи олиш истаги, балки халқаро малакага эга бўлиш, янги технологиялар билан ишлаш ва меҳнат фаолиятида рақобатбардошликни ошириш мақсадлари билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкин. Шу сабабли миграцияни тартибга солиш механизмлари бандлик сиёсати, касбий

таълим, хусусий бандлик хизматлари ва ижтимоий ҳимоя тизими билан ўзаро мувофиқлаштирилиши лозим.

1-жадвал

Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси ва унинг иқтисодий натижаларини ифодаловчи асосий кўрсаткичлар

Кўрсаткич	Давр	Миқдори
Хорижда меҳнат қилаётган Ўзбекистон фуқаролари	2026 йил апрель	1,2 млн нафар
Ўзбекистонликлар меҳнат қилаётган давлатлар	2026 йил апрель	40 га яқин
Хориждан келиб тушган пул ўтказмалари	2024 йил	14,8 млрд АҚШ доллари
Хориждан келиб тушган пул ўтказмалари	2025 йил	18,9 млрд АҚШ доллари
Пул ўтказмалари ҳажмининг ўсиши	2025/2024	28%
Хорижий иш берувчилар билан ҳамкорлик келишувлари	2025 йил IV чорак ҳисоботи	224 та иш берувчи, 33 та давлат

Манба: *Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Миграция агентлиги маълумотлари асосида шакллантирилган.*

1-жадвал маълумотларига кўра, Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси миллий иқтисодиёт ва аҳоли даромадларини шакллантириш билан боғлиқ муҳим жараён ҳисобланади. Хусусан, 2025 йилда хориждан мамлакатга келиб тушган пул ўтказмалари 18,9 млрд АҚШ долларига етиб, ўтган йилга нисбатан 28 фоизга ошган. Бу жараён уй хўжаликлари даромадлари, истеъмол имкониятлари ва ички валюта бозори учун аҳамиятли ҳисобланади.

Ташқи меҳнат миграциясининг ҳудудий хусусиятларини таҳлил қилишда Наманган вилояти мисоли алоҳида аҳамиятга эга. Миграция агентлигининг 2026 йил 4 майдаги расмий маълумотига кўра, 2026 йил 1 январь ҳолатига вилоятдан хорижда бўлиб турган фуқаролар сони 110,3 минг нафарни, шундан меҳнат мигрантлари 95,1 минг нафарни ташкил этган. Шу билан бирга, хорижда бўлиб турган ёшлар сони 7,9 минг нафар сифатида қайд этилган [5].

2-жадвал

Наманган вилоятида ташқи меҳнат миграциясининг таркибий кўрсаткичлари, 2026 йил 1 январь ҳолатига

Кўрсаткичлар	Миқдори, минг нафар	Расмий улуши, %
Хорижда бўлиб турган жами фуқаролар	110,3	100,0
Меҳнат мигрантлари	95,1	86,1
Хорижда таълим олаётганлар	2,6	2,4
Бошқа мақсадда бўлганлар	12,6	11,5
Хориждаги ёшлар, алоҳида демографик кесим	7,9	7,2*

Манба: *Миграция агентлиги маълумотлари асосида шакллантирилган.*

**Ёшлар улуши 7,9 / 110,3 × 100 асосида ҳисобланган. Ёшлар қатори бошқа тоифалар билан қўшиб ҳисобланмайди, манбада унинг ёш чегараси аниқ берилмаган.*

Таҳлил натижалари Наманган вилоятидан хорижда бўлиб турган фуқароларнинг асосий қисми меҳнат фаолияти билан боғлиқлигини кўрсатади. Бироқ хориждаги 7,9 минг нафар ёшнинг барчаси меҳнат мигранти эканлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин эмас. Чунки мазкур ёшлар таркибида таълим олиш ёки бошқа мақсадларда хорижда бўлган фуқаролар ҳам мавжуд бўлиши мумкин.

Меҳнат миграциясининг муайян давлатларда жамланиши ташқи меҳнат бозоридаги ўзгаришларга нисбатан иқтисодий боғлиқликни кучайтириши мумкин. Шу сабабли миграция географиясини диверсификация қилиш, юқори малакали ишчи кучига талаб мавжуд бўлган мамлакатлар билан икки томонлама ҳамкорликни кенгайтириш ҳамда хорижий иш берувчиларнинг меҳнат шароитлари бўйича мажбуриятларини назорат қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Ёшлар меҳнат миграциясини тартибга солишда касбий тайёргарлик ва хорижий тилларни ўрганиш тизимининг ривожланиши муҳим омил ҳисобланади. Чунки замонавий халқаро меҳнат бозорида фақат меҳнат ресурсларининг миқдори эмас, балки уларнинг касбий компетенциялари, тил билиши ва малака даражаси ҳам ишга жойлашиш имкониятларига таъсир кўрсатади.

Наманган вилоятида 2024–2025 йиллар давомида ташқи меҳнат миграциясига тайёргарлик ва хорижда ишга жойлаштириш кўрсаткичларида ўсиш кузатилган.

3-жадвал

Наманган вилоятида ташқи меҳнат миграциясига тайёрлаш ва хорижда ишга жойлаштириш кўрсаткичлари динамикаси, 2024–2025 йиллар

Кўрсаткичлар	2024 йил	2025 йил	Ўсиш, %
Касб ва хорижий тилларга ўқитилган фуқаролар, нафар	5 242	8 661	65,2
Хорижда юқори даромадли ишларга жойлаштирилган фуқаролар, нафар	12 112	16 772	38,5
Германияга ишга юборилган фуқаролар, нафар	42	86	104,8
Пул ўтказмалари ҳажми, млн АҚШ доллари	651,6	755,6	16,0

Манба: *Миграция агентлиги маълумотлари асосида шакллантирилган.*

Изоҳ: *Ўсиш кўрсаткичлари (2025 йил / 2024 йил – 1) × 100 формуласи асосида ҳисобланган. Жадвал барча ёшдаги фуқароларга тегишли.*

Жадвал таҳлилига кўра, 2025 йилда Наманган вилоятида хорижда ишлашга тайёргарлик кўриш мақсадида касб ва хорижий тилларга ўқитилган фуқаролар сони 2024 йилга нисбатан 65,2 фоизга ошган. Шу даврда хорижда юқори даромадли ишларга жойлаштирилган фуқаролар сони 38,5 фоизга кўпайган. Германияга юборилган фуқаролар сони эса икки баравардан кўпроқ ошган.

Мазкур ўзгаришлар миграцияни уюшган ҳолда ташкил этиш ва хорижий иш берувчилар билан ҳамкорликнинг кенгайганини кўрсатади.

Шу билан бирга, касбий тайёргарлик кўрсаткичлари ва ишга жойлаштириш натижалари ўртасидаги ўсиш фарқи дастурларнинг самарадорлигини баҳолашда қўшимча тадқиқотлар зарурлигини англатади. Бунда ўқув курсларини тугатган фуқароларнинг қанча қисми кейинчалик айнан ўз мутахассислиги бўйича хорижда ишга жойлашганини алоҳида ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир.

Олиб борилган таҳлиллар Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси миллий иқтисодиёт, меҳнат ресурсларининг халқаро ҳаракатчанлиги ва аҳоли даромадларини шакллантиришда муҳим ўрин тутишини кўрсатди. Республика даражасида хорижда меҳнат қилаётган фуқаролар сонининг сезиларли эканлиги, пул ўтказмалари ҳажмининг ўсиши ҳамда халқаро ишга жойлаштириш каналларининг кенгайиши мазкур жараёнларни тизимли бошқариш заруратини кучайтирмоқда.

Шу билан бирга, ҳудудий маълумотлар асосида олиб борилган таҳлил Наманган вилоятида касбий тайёргарлик ва хорижда ишга жойлаштириш кўрсаткичлари ўсганини кўрсатди. Бироқ ушбу натижаларни республикадаги барча ёш меҳнат мигрантларига тўғридан-тўғри умумлаштириш мумкин эмас.

Олиб борилган таҳлиллар Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси аҳоли даромадлари, ёшлар бандлиги ва меҳнат ресурсларининг халқаро ҳаракатчанлиги билан узвий боғлиқлигини кўрсатди. Пул ўтказмалари ҳажмининг ўсиши, хорижий иш берувчилар билан ҳамкорликнинг кенгайиши ҳамда касбий тайёргарлик кўрсаткичларининг ижобий динамикаси миграция жараёнларини самарали бошқариш заруратини кучайтирмоқда. Шу боис ёшлар меҳнат миграциясини тартибга солишда ёш гуруҳлари бўйича статистик мониторингни такомиллаштириш, касбий тайёргарликни халқаро талабларга мослаштириш, миграция йўналишларини диверсификация қилиш, мигрантларнинг ҳуқуқий ҳимояси ва иқтисодий реинтеграциясини кучайтириш устувор аҳамият касб этади. Мазкур чора-тадбирларни комплекс амалга ошириш ёшларнинг муносиб бандлигини таъминлаш, инсон капиталини ривожлантириш ҳамда меҳнат миграциясининг миллий иқтисодиётга ижобий таъсирини оширишга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures. — Geneva: International Labour Office, 2024. — Расмий электрон нашр.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миграция агентлиги. Президент Шавкат Мирзиёев меҳнат миграцияси тизимидаги ишлар самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар юзасидан тақдимот билан танишди. — 2026 йил 20 апрель.

3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Халқаро миграция ва жисмоний шахсларнинг валюта операциялари шарҳи (2026 йил март). — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, 2026..

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миграция агентлиги. 2025 йил октябрь–декабрь ойларида қонунчилик ҳужжатлари ва топшириқлар ижроси юзасидан амалга оширилган ишлар тўғрисида брифинг. — 2025 йил 30 декабрь.

5.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миграция агентлиги. Наманган вилоятида ташқи меҳнат миграцияси соҳасида амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисида маълумот. — 2026 йил 4 май.

6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 4 апрелдаги ПФ–59-сон Фармони. Меҳнат миграцияси жараёнларини такомиллаштириш ҳамда хорижда вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошираётган шахсларни қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.04.2024.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MEHNAT MIGRATSIYASI VA XALQARO MOBILLIK SHAROITIDA O‘ZBEKISTONNING TURISTIK JOZIBADORLIGINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI OSHIRISH

Tursunova Shaxnoza Farxod qizi
Renessans ta’lim universiteti
shaxnozatursunova1993@gmail.com

Globallashuv davrida odamlar, axborot va pul mablag‘lari chegaralar orqali avvalgidan tez va erkin harakatlanmoqda. Mehnat migratsiyasi bu jarayonning eng ommaviy ko‘rinishi: millionlab kishilar ish izlab boshqa mamlakatga boradi, u yerda oila, do‘stlar va ishbilarmonlik aloqalarini shakllantiradi va vaqti-vaqti bilan vataniga qaytadi. Sotsiologiyada bu holat “yangi mobillik paradigmasi” deb ataladi: harakatlanishning o‘zi iqtisodiy va ijtimoiy hayotning asosiy shakliga aylanadi [1]. Turizm va mehnat migratsiyasi bu paradigmada bir-biridan ajralmaydi — migrant va uning yaqinlari ham sayyoh, ham yo‘nalish haqidagi axborotning tarqatuvchisi bo‘lib chiqadi. Sayyoh yo‘nalish tanlashda endi turoperator katalogiga emas, smartfondagi qidiruv natijalari, ijtimoiy tarmoqdagi video va boshqa sayohatchilarning sharhlariga tayanadi [2]. Natijada mamlakatning turistik jozibadorligi uning tarixiy merosi bilan birga raqamli muhitda qanchalik ko‘rinishi va qulay ekani bilan ham o‘lchanmoqda.

O‘zbekiston turizmi so‘nggi yillarda tez o‘smoqda. 2023-yilda mamlakatga 6,6 mln, 2024-yilda 10 mln dan ortiq, 2025-yilda 11,7 mln xorijiy fuqaro tashrif buyurgan; 2026-yilning yanvar–iyul oylarida bu ko‘rsatkich 7,75 mln kishiga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 foizga oshgan [3]. BMT Jahon turizm tashkilotining “Jahon turizm barometri” ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida O‘zbekiston 2019-yilga nisbatan 73 foizlik o‘sish bilan dunyoda eng tez o‘sayotgan yo‘nalishlar orasida oltinchi o‘rinni egallagan [4]. Asosiy raqamlar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadvalga ko‘ra, tashriflar soni uch yilda deyarli ikki barobar oshgan, lekin muhimroq o‘zgarish daromad sifatida kuzatilmoqda. 2026-yilning yetti oyida eksport tushumi tashriflardan ancha tez, 56 foizga o‘sgan va bir tashrifga to‘g‘ri keladigan tushum 402 dollardan 503 dollarga, ya’ni taxminan to‘rtdan bir qismga ko‘paygan.

1-jadval.

O‘zbekiston xalqaro turizmining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
Xorijiy tashriflar, 2023-y.	6,6 mln	[3]
Xorijiy tashriflar, 2024-y.	10 mln dan ortiq	[3]
Xorijiy tashriflar, 2025-y.	11,7 mln	[3]
Turistik xizmatlar eksporti, 2025-y.	4,7 mlrd dollar	[5]
Xorijiy tashriflar, 2026-y. yanvar–iyul	7,75 mln (+22,6 %)	[3]
Turistik xizmatlar eksporti, 2026-y. yanvar–iyul	3,9 mlrd dollar (+56 %)	[3]
Bir tashrifga to‘g‘ri keladigan eksport tushumi, 2025-y.	≈402 dollar	hisob
Bir tashrifga to‘g‘ri keladigan eksport tushumi, 2026-y. yanvar–iyul	≈503 dollar	hisob

Manba: *[3], [5] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan; oxirgi ikki qator eksport tushumini tashriflar soniga bo‘lish orqali muallif tomonidan hisoblangan.*

Demak, keyingi bosqichda vazifa sayyohlar sonini ko‘paytirishdan ko‘ra ko‘proq qoladigan va ko‘proq sarflaydigan mehmonlarni jalb qilishga ko‘chmoqda. Mamlakatda 2030-yilgacha tashriflarni 20 mln kishiga yetkazish rejasi qo‘yilgan [5]. Bu maqsadga faqat an’anaviy reklama bilan erishish qiyin, chunki raqobatchi yo‘nalishlar ham xuddi shu raqamli kanallarda kurashmoqda.

Xalqaro mobillik va mehnat migratsiyasi sayyohlar tarkibini ham o‘zgartirmoqda. Bugun mamlakatga faqat dam olish uchun emas, xizmat safari, o‘qish, davolanish, qarindoshlarni ko‘rish yoki masofadan ishlash maqsadida ham kelinmoqda. Xorijda ishlayotgan vatandoshlar va ularning oila a’zolari alohida yirik segmentni tashkil etadi: ular bayram va ta’til kunlarida vataniga qaytadi, chet ellik hamkasblari va do‘stlarini O‘zbekistonga taklif qiladi, ijtimoiy tarmoqlarda mamlakat haqida kontent tarqatadi. Tranzit yo‘lovchilar, ish va sayohatni birga olib boradigan “raqamli ko‘chmanchilar”, konferensiya va ko‘rgazmalar ishtirokchilari ham o‘z segmentlarini tashkil etadi. Har bir segment ma’lumotni o‘z tilida va o‘ziga qulay kanalda olishni kutadi, demak raqamli marketing xabarlari ham segmentlar bo‘yicha farqlanishi kerak.

Raqamli muhitda jozibadorlikning yana bir sharti ishonchdir. Potensial sayyoh qaror qabul qilishdan oldin boshqa sayohatchilarning sharhlarini o‘qiydi va ijtimoiy tarmoqlardagi tajribalarni ko‘radi [2]. Internetdagi eskirgan yoki bir-biriga zid ma’lumot, ingliz va boshqa tillardagi kontentning yetishmasligi, salbiy sharhlarga javob berilmasligi yo‘nalish haqidagi tasavvurni pasaytiradi. Mehmonxona, gid va restoranlar uchun onlayn obro‘ni boshqarish bo‘yicha qisqa o‘quv kurslari va sharhlarga javob berish standartini joriy etish bu muammoni nisbatan kam xarajat bilan hal qiladi.

Raqamli marketing turizmda uch vazifani bajaradi: yo‘nalishni potensial sayyohga ko‘rsatadi, uning qarorini qo‘llab-quvvatlaydi va sayohatdan keyin tajribasini boshqalarga yetkazadi. Axborot texnologiyalari turizm boshqaruvini tubdan o‘zgartirgani [6], mobil qurilmalar, ma’lumotlar va xizmatlarni bitta tizimga bog‘lagan “aqlli turizm” yondashuvi shakllangani [7] ilmiy adabiyotlarda

keng asoslangan. O‘zbekiston uchun bu yondashuvni quyidagi besh vosita orqali amalga oshirish taklif etiladi:

1) ma’lumotlarga asoslangan segmentatsiya: aeroport, mehmonxona va to‘lov tizimlari ma’lumotlari asosida sayyohlarni mamlakat, yosh, sayohat maqsadi va xarajat darajasi bo‘yicha guruhlash, reklama byudjetini eng yuqori daromad beradigan bozorlarga yo‘naltirish;

2) kontent marketingi: har bir asosiy bozor tilida qisqa videolar, virtual sayohatlar va sayyohlarning o‘zlari yaratgan kontentni (sharh, foto, video) tizimli to‘plash va tarqatish;

3) qidiruv va platformalardagi ko‘rinish: qidiruv tizimlarida optimallashtirish, xalqaro bron qilish platformalari va xarita xizmatlarida mehmonxona, muzey va restoranlar haqida to‘liq va yangilangan ma’lumot joylashtirish;

4) yagona mobil xizmat: elektron viza, poyezd va ichki reys chiptalari, muzey kirish chiptalari va QR-to‘lovni bitta ilovaga birlashtirib, sayohatni rejalashtirishdan to‘lovgacha bo‘lgan yo‘lni qisqartirish;

5) hududiy brending: mintaqaviy aeroportlarda yo‘lovchilar oqimi Termizda 52 foiz, Urganchda 24 foiz, Nukusda 23 foiz o‘sgan sharoitda [3], Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston uchun alohida raqamli kampaniyalar o‘tkazish.

Raqamli marketing samarasini o‘lchash uchun tashriflar sonining o‘zi yetarli emas. Quyidagi ko‘rsatkichlarni yuritish maqsadga muvofiq: bir tashrifga to‘g‘ri keladigan tushum; bitta jalb qilingan sayyohga sarflangan reklama xarajati; qidiruvdan bronga o‘tish ulushi; takroriy tashrif buyuruvchilar ulushi; onlayn sharhlarning o‘rtacha bahosi. Bu ko‘rsatkichlar har chorakda hududlar kesimida e’lon qilinsa, qaysi kanal va qaysi bozor ko‘proq natija berayotganini aniq ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va mehnat migratsiyasi kuchaygan davrda turistik jozibadorlik raqamli muhitdagi ko‘rinish, qulaylik va ishonch bilan belgilanmoqda. O‘zbekiston tashriflar soni bo‘yicha katta yutuqqa erishdi, endi esa har bir tashrifning qiymatini oshirish bosqichi boshlanmoqda. Bu bosqichda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, turizm, transport va to‘lov ma’lumotlarini birlashtirgan milliy turizm ma’lumotlar markazini tashkil etish va undan raqamli kampaniyalarni rejalashtirishda foydalanish;

ikkinchidan, asosiy bozorlar tilida doimiy kontent ishlab chiqarish uchun hududiy turizm boshqarmalari, oliy ta’lim muassasalari, blogerlar va xorijdagi vatandoshlar jamoalari ishtirokidagi kontent markazlarini tuzish;

uchinchidan, elektron viza, chipta va to‘lov xizmatlarini yagona mobil ilovada jamlash;

to‘rtinchidan, hududlarning raqamli marketing samaradorligini bir tashrifga to‘g‘ri keladigan tushum va onlayn sharhlar bahosi orqali har chorakda baholab borish.

Adabiyotlar:

1. Sheller M., Urry J. The new mobilities paradigm // Environment and Planning A. 2006. Vol. 38, No. 2. P. 207–226. https://doi.org/10.1068/a37268

2. Xiang Z., Gretzel U. Role of social media in online travel information search // Tourism Management. 2010. Vol. 31, No. 2. P. 179–188. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.02.016

3. O‘zbekistonga yetti oyda qariyb 7,8 mln xorijiy sayyoh keldi // Sputnik O‘zbekiston, 12.08.2026. https://oz.sputniknews.uz/20260812/uzbekistan-turizm-korsatkichlar-59643662.html

4. O‘zbekiston dunyoda sayyohlar oqimi eng tez o‘sayotgan mamlakatlar qatoriga kirdi // Gazeta.uz, 17.12.2025. https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/17/tourism/

5. O‘tgan yili O‘zbekistonga kelgan turistlar soni 11,5 millionga yetdi // Anhor.uz, 2026. https://anhor.uz/uzl/news/otgan-yili-ozbekistonga-kelgan-turistlar-soni/

6. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet // Tourism Management. 2008. Vol. 29, No. 4. P. 609–623. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2008.01.005

7. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. 2015. Vol. 25, No. 3. P. 179–188. https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRANTLARINI REINTEGRATSIYA QILISH ORQALI NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Maksudov Mashxurbek
Xalqaro Nordik universiteti
m.maksudov@nordicuniversity.org
Chinibekova Ruxshona Baxodir qizi
Xalqaro Nordik universiteti
chinibekovaruxshona@gmail.com

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotida uy xo‘jaliklari daromadlari, ishchi kuchi taklifi va inson kapitalining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlardan biridir**.** Jahon bankining 2026-yil oktyabr oyidagi eng so‘nggi iqtisodiy hisobotlariga ko‘ra, 2026-yilning birinchi yarmi (H1 2026) yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonga kirib kelgan sof pul o‘tkazmalari mamlakat YaIMning 9 foizini tashkil etgan**.** [1].

Ko‘rsatkich nomi	Jahon banki ma’lumoti va miqdori
Yarim yillik umumiy pul o‘tkazmalari	2026-yilning birinchi yarmida rekord darajadagi 9,2 mlrd AQSh dollari qayd etilgan (o‘tgan yilga nisbatan 13% ga ko‘p).
Sof pul o‘tkazmalarining YaIMdagi ulushi	2026-yilning 1-yarmi holatiga sof pul o‘tkazmalari YaIMning 9 foiziga teng bo‘lgan (o‘tgan yilning mos davrida 10% edi).
Oylik o‘rtacha oqim miqdori	Joriy yilda chet eldan respublikaga o‘rtacha 1,53 mlrd dollar pul o‘tkazilgan.
2026-yil uchun YaIM o‘sish prognozi	Pul o‘tkazmalari va ichki talabning yuqoriligi sababli, Jahon banki O‘zbekiston iqtisodiy o‘sish prognozini 7,9 foizgacha ko‘targan.

Mazkur koʻrsatkichlar migratsiyaning makroiqtisodiy ahamiyatini yoritadi, biroq pul oʻtkazmalari miqdori qaytgan migrantlarning rasmiy ish bilan taʼminlanganlik darajasini bevosita ifodalamaydi.

Tadqiqotning maqsadi - migrantlarni iqtisodiy va ijtimoiy reintegratsiya qilishga qaratilgan xizmatlarni rasmiy bandlikni ragʻbatlantiruvchi yagona mexanizmga birlashtirish. Tezisda hujjatli tahlil, institutsional taqqoslash va mantiqiy-konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini Jahon bankining ochiq koʻrsatkichlari, Oʻzbekiston Migratsiya agentligi axboroti hamda IOM va ILOning uslubiy hujjatlari tashkil etadi [1–5]. Mazkur ish birlamchi soʻrov yoki korxonalar mikro-maʼlumotlariga asoslanmagan; shu sababli taklif etilayotgan modelning samarasi statistik tasdiqlangan natija emas, empirik tekshirishni talab qiluvchi konseptual gipotezadir.

Xalqaro migratsiya tashkilotining (IOM) “Reintegration Handbook” qoʻllanmasida barqaror reintegratsiya iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik-ijtimoiy oʻlchamlarning birligi sifatida talqin qilinadi [3]. Iqtisodiy oʻlcham - ish va tadbirkorlik daromadlarini, ijtimoiy oʻlcham - xizmatlar hamda himoya tizimlariga kirishni, psixologik-ijtimoiy oʻlcham esa oila va mahalliy jamoaga moslashuvni qamrab oladi. Demak, qaytgan migrantni faqat bir martalik kasb kursiga yoʻnaltirish reintegratsiyaning barcha vazifalarini hal qilmaydi.

ILOning 204-sonli tavsiyasi norasmiydan rasmiy iqtisodiyotga oʻtishni qulay meʼyoriy muhit, koʻnikmalarni rivojlantirish, sifatli ish oʻrinlari, soddalashtirilgan maʼmuriy tartiblar va ijtimoiy himoya bilan uygʻunlashtirishni ilgari suradi [4].

2026-yilning dastlabki yetti oyi va uchinchi chorak boshlanishi holatiga koʻra**,** Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan xorijda murakkab vaziyatga tushib qolgan 2 888 nafar fuqaro Vatanga qaytarilgan. Ularni olib kelish bilan bogʻliq transport, tibbiy va tashkiliy xarajatlar uchun Migratsiya jamgʻarmasidan jami 9 mlrd 936 mln soʻm mablagʻ sarflangan.

2026-yilning hisobot davriga oid aniq koʻrsatkichlar tahlili quyidagicha:

Koʻrsatkichlar / Toifalar	Qaytarilgan fuqarolar soni
Murakkab moliyaviy ahvolda qolganlar	**1 306 nafar**
Bolalar (voyaga yetmaganlar)	**1 022 nafar**
Bolali xotin-qizlar	**518 nafar**
Maxsus tibbiy tashish orqali keltirilganlar	**42 nafar**
Jami sarflangan mablagʻ	**9 mlrd 936 mln soʻm**

Mazkur raqamlar mamlakatga qaytgan barcha mehnat migrantlarining umumiy soni emas, balki alohida yordam koʻrsatilgan fuqarolar guruhiga tegishli. Statistik koʻrsatkichlarni shu tarzda chegaralash notoʻgʻri umumlashtirishning oldini oladi. Amaliy jihatdan migrantlar bir xil guruh emas. Ayrimlari qurilish, logistika va xizmatlar sohasida talab yuqori boʻlgan tajribaga ega; boshqalari uchun mahalliy ish oʻrinlari yetishmaydi yoki chet elda orttirilgan koʻnikma hujjat bilan tasdiqlanmagan boʻladi. Yana bir guruh jamgʻarmasiga ega, biroq biznes-reja, roʻyxatdan oʻtish va bozor topish masalalarida maslahatga muhtoj. Shu bois

yagona subsidiya o‘rniga individual profilga mos xizmatlar paketi taklif etilishi maqsadga muvofiq.

“RIM–4” reintegratsiya mexanizmi.

Birinchi bosqich - ro‘yxatga olish va ehtiyojlarni diagnostika qilish. Qaytgan fuqaroning roziligi asosida kasbiy tajribasi, til bilimi, mavjud sertifikatlari, uy xo‘jaligi sharoiti, sog‘lig‘iga doir xizmat ehtiyoji, tadbirkorlik rejalari va hududiy ish o‘rinlariga mosligi baholanadi. Ma’lumotlar himoyasi hamda kamsitmaslik tamoyillari ta’minlanishi lozim.

Ikkinchi bosqich - individual yo‘naltirish. Bandlikka tayyor migrantga ish beruvchi bilan moslashtirish va malakasini tan olish xizmati; ko‘nikmasi talabga mos bo‘lmagan migrantga qisqa muddatli amaliy qayta tayyorlash; biznes boshlash imkoniyati mavjud fuqaro uchun esa moliyaviy savodxonlik, maslahat, bozor va rasmiy ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha ko‘mak taklif qilinadi. Alohida ijtimoiy xavfga ega migrantlarga integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi.

Uchinchi bosqich - rasmiy iqtisodiy integratsiya. Ishga joylashganlarning mehnat shartnomasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urta majburiyatlari belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi; tadbirkorlikni tanlagan fuqarolarga qonunchilikka muvofiq ro‘yxatdan o‘tish, elektron to‘lov va hisobot vositalaridan foydalanishda yordam beriladi. Imtiyozli moliyalashtirish ajratilsa, u shaffof tanlov, natijaga bog‘langan mezonlar va fiskal xarajatlar tahliliga asoslanishi kerak.


To‘rtinchi bosqich - monitoring va qayta yo‘naltirish. 3, 6 va 12 oylik davrlarda ishning barqarorligi, daromad manbai, ijtimoiy himoya qamrovi va tadbirkorlik faoliyatining davomiyligi tekshiriladi. Ishni yo‘qotish yoki faoliyat to‘xtashi kuzatilganda qayta yo‘naltirish xizmatlari faollashtiriladi. Mazkur yondashuv bir martalik yordamdan kuzatiladigan natijaga asoslangan reintegratsiya siyosatiga o‘tish imkonini yaratadi.

Modelni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan cheklovlar.

Birinchi xavf - ma’lumotlarning parchalanib ketganligi. Mehnat migratsiyasi, mahalliy vakansiyalar, ta’lim kurslari va tadbirkorlik faoliyati haqidagi reyestrlar yagona maqsadga yo‘naltirilmasa, fuqaro turli tashkilotlarga takroran murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Buni yumshatish uchun xizmatlar katalogi va yagona murojaat identifikatorini ishlab chiqish, idoralararo axborot almashuvini esa faqat aniq qonuniy asos va maqsad doirasida tashkil qilish zarur. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ustuvor shart bo‘lib qolishi lozim.

Ikkinchi xavf - malaka va ish o‘rinlari tarkibining mos kelmasligi. Chet elda orttirilgan ayrim ko‘nikmalarni mamlakat ichidagi ish beruvchilar tan olmasligi mumkin. Shu bois kasbiy kompetensiyalarni amaliy sinov asosida tasdiqlash, korxonalar ishtirokidagi qisqa modul kurslarini tashkil etish va o‘quv natijalarini real vakansiyalar bilan bog‘lash tavsiya etiladi.

Modelni dastlab ikki yoki uch hududda pilot shaklda joriy etib, o‘xshash tavsifga ega dastur ishtirokchilari va solishtirma guruhning 6–12 oylik natijalarini taqqoslash taklif qilinadi. Bu yondashuv, tegishli shartlar bajarilgan taqdirda, natijalarning oddiy o‘zgarishini dastur bilan bog‘liq ehtimoliy ta’sirdan ajratishga yordam beradi. Hozircha model bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari bo‘lmagani sababli foizli samaradorlik prognozlari keltirilmaydi.



Har bir indikator uchun boshlang‘ich holat, ma’lumot manbai va kuzatuv davri oldindan belgilanadi.

Maqsadli siyosat uchun uchta amaliy chora taklif etiladi:

Birinchidan: mahalliy ish beruvchilar ehtiyoji bilan xorijda olingan ko‘nikmalarni bog‘laydigan elektron vakansiya va kompetensiya moslashtirish xizmatini rivojlantirish.

Ikkinchidan: migrantlarning rasmiy tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda grantning o‘zini emas, ro‘yxatdan o‘tgan faoliyat, faol ish o‘rni va hisobdorlik kabi tekshiriladigan natijalarni ustuvor qilish.

Uchinchidan: migratsiya, bandlik, soliq va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida qonuniy vakolat doirasida ma’lumot almashish hamda murojaat uchun “yagona oyna” prinsipini qo‘llash.

Mehnat migrantlarining barqaror reintegratsiyasi ijtimoiy yordam, kasbiy moslashtirish va rasmiy iqtisodiy faoliyatga kirish imkoniyatlarini birlashtirishni talab etadi. Taklif etilgan “RIM–4” konsepsiyasi ehtiyojni aniqlash, individual xizmat tanlash, rasmiy bandlikka yo‘naltirish hamda davriy monitoringni yagona boshqaruv sikliga birlashtiradi. Uning asosiy ilmiy-amaliy ahamiyati reintegratsiya natijasini faqat yordam olganlar soni bilan emas, balki rasmiy ishning davomiyligi va ijtimoiy himoya qamrovi bilan baholashni taklif etishidadir. Kelgusida modelning iqtisodiy va fiskal samaradorligini hududiy mikro-ma’lumotlar orqali empirik sinovdan o‘tkazish zarur.

Adabiyotlar:

1. World Bank. (2026). Uzbekistan: World Development Indicators. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/d5f32ef28464d01f195827b7e020a3e8-0500022021/related/mpo-uzb.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligi. https://gov.uz/uz/ migration/news/view/228333

3. International Organization for Migration (IOM). (2019). Reintegration Handbook: https://publications.iom.int/es/books/reintegration-handbook-practical-guidance-design-implementation-and-monitoring-reintegration.

4. International Labour Organization (ILO). (2015). https://www .ilo. org/ resource/other/ilc/104/recommendation-no-204-concerning-transition-informal-formal-economy.

5. International Labour Organization (ILO). (2023). Intervention Model: For extending social protection to migrant workers in the informal economy. https://www.ilo.org/publications/intervention-model-extending-social-protection-migrant-workers-informal.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING O‘RNI: O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING QIYOSIY TAHLILI


Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o‘g‘li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

BRM doirasida mehnat migratsiyasi iqtisodiy o‘sish va bandlik, migrant uy xo‘jaliklarining daromadlari, kambag‘allik darajasi hamda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlik bilan bog‘liq. Xususan, BRMning 8-maqsadi munosib mehnat va iqtisodiy o‘sishni, 10-maqsad esa mamlakatlar ichida va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlikni qisqartirishni nazarda tutadi. 10.7-vazifa tartibli, xavfsiz, qonuniy va mas’uliyatli migratsiya hamda odamlar harakatchanligini ta’minlashga qaratilgan. Shu sababli mehnat migratsiyasini faqat ishchi kuchining tashqi harakati sifatida emas, balki barqaror rivojlanish natijalariga ta’sir qiluvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning BRM bo‘yicha xalqaro reytingdagi o‘rnini Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qiyoslash, mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish hamda migratsiyaning barqaror rivojlanishga ta’sir kanallarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar Sustainable Development Report 2026, Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq ma’lumotlari asosida shakllantirildi [1–4].

Sustainable Development Report 2026 ma’lumotlariga ko‘ra, 169 ta reytingga kiritilgan mamlakat orasida Qirg‘iz Respublikasi 74,6 ball bilan 50-o‘rinni, O‘zbekiston 73,0 ball bilan 65-o‘rinni, Qozog‘iston 72,0 ball bilan 67-o‘rinni, Tojikiston 67,8 ball bilan 98-o‘rinni egallagan. Turkmaniston 59,94 ball bilan 128-o‘rinda qayd etilgan [1; 2]. Ushbu ko‘rsatkichlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining BRM bo‘yicha umumiy holatini qiyoslash uchun asos bo‘lib, keyingi tahlilda migratsiya va pul o‘tkazmalari ko‘rsatkichlari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Diagrammadan ko‘rinadiki, 2026-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qirg‘iz Respublikasi SDG Index bo‘yicha eng yuqori natijani qayd etgan. O‘zbekiston 73,0 ball bilan ikkinchi o‘rinda bo‘lib, Qozog‘istondan 1,0 ball yuqori natija ko‘rsatgan. Tojikiston va Turkmaniston ko‘rsatkichlari esa nisbatan past. Biroq umumiy SDG Index mamlakatlarning migratsiyaga bog‘liqlik darajasini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli keyingi qiyoslashda reyting natijalari pul o‘tkazmalari va sof migratsiya ko‘rsatkichlari bilan birgalikda baholanadi.



1-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarining SDG Index ko‘rsatkichlari, 2026

Manba: *Sustainable Development Report 2026 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1–3].*

SDG Index ko‘rsatkichlari Sustainable Development Report 2026 nashriga tegishli. Indeks hisobot tayyorlangan vaqtda turli indikatorlar bo‘yicha mavjud bo‘lgan eng so‘nggi xalqaro ma’lumotlar asosida shakllantirilgan. Shu sababli 2026 indeksning nashr yilini anglatadi, uning barcha tarkibiy indikatorlari aynan 2026-yil ma’lumotlariga tegishli emas.

1-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarining BRM va migratsiya ko‘rsatkichlari

Mamlakat	SDG Index 2026, ball	O‘rin	Pul o‘tkazmalari / YAIM, %, 2025	Sof migratsiya, 2025
Qirg‘iz Respublikasi	74,6	50	17,60	1 815
O‘zbekiston	73,0	65	14,28	−6 987
Qozog‘iston	72,0	67	0,08	−8 834
Tojikiston	67,8	98	57,66	−21 606
Turkmaniston	59,94	128	n/m	13 268

Manba: *Sustainable Development Report 2026 va Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1; 2; 4]. Izoh: n/m – 2025-yil uchun taqqoslanadigan ma’lumot mavjud emas. Turkmaniston bo‘yicha Jahon bankining ushbu indikatoridagi eng so‘nggi qiymat 1996-yilga tegishli bo‘lgani sababli jadvalda 2025-yil qiymati keltirilmadi.*

Jadval ma’lumotlari mintaqa mamlakatlarining migratsiya bilan bog‘liq moliyaviy oqimlar bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatadi. Jahon bankining 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, xorijdan keladigan shaxsiy pul o‘tkazmalarining YAIMga nisbati Tojikistonda 57,66 foiz, Qirg‘iz Respublikasida 17,60 foiz va O‘zbekistonda 14,28 foizni tashkil etgan. Qozog‘istonda ushbu ko‘rsatkich 0,08 foiz bo‘lgan [4]. Turkmaniston bo‘yicha 2025-yil uchun taqqoslanadigan qiymat mavjud emas. Mazkur ko‘rsatkichlar pul o‘tkazmalarining mamlakatlar iqtisodiyotidagi nisbiy salmog‘i sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi.

Sof migratsiya – muayyan davrda mamlakatga ko‘chib kelganlar soni bilan mamlakatdan ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farq bo‘lib, ijobiy qiymat immigratsiyaning, manfiy qiymat esa emigratsiyaning ustunligini bildiradi. Jahon bankining 2025-yil ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda sof migratsiya −6 987 kishi, Tojikistonda −21 606 kishi va Qozog‘istonda −8 834 kishini tashkil etgan. Qirg‘iz

Respublikasi va Turkmanistonda esa mos ravishda 1 815 va 13 268 kishilik ijobiy saldo qayd etilgan [4]. Jadvaldagi pul o‘tkazmalari va sof migratsiya ko‘rsatkichlari 2025-yil kesimida qiyoslangan. Sof migratsiya mehnat migratsiyasining to‘liq hajmini anglatmaydi, shu bois uni pul o‘tkazmalari, bandlik va migratsiya geografiyasi bilan birgalikda talqin qilish zarur.

O‘zbekiston misolida migratsiyaning iqtisodiy ahamiyati transchegaraviy pul o‘tkazmalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollariga yetib, 2024-yilga nisbatan 28 foizga oshgan. Shuningdek, 2026-yilning yanvar–iyun oylarida pul o‘tkazmalari 9,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13 foizga ko‘paygan [5; 6]. Bu ko‘rsatkichlar mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq moliyaviy oqimlarning ichki talab, uy xo‘jaliklari daromadlari va valyuta bozoridagi muvozanat uchun muhimligini ko‘rsatadi.

Pul o‘tkazmalarining ijobiy ta’siri, avvalo, migrantlar oilalarining daromadlarini qo‘llab-quvvatlash, iste’mol imkoniyatlarini kengaytirish va ayrim hollarda ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda uy-joyga investitsiyalarni moliyalashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Bu kanallar BRM 1 – kambag‘allikka barham berish, BRM 3 – sog‘liq va farovonlik, BRM 4 – sifatli ta’lim, BRM 8 – munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish hamda BRM 10 – tengsizlikni qisqartirish bilan bevosita yoki bilvosita bog‘lanadi. Shu bilan birga, migratsiyaga haddan tashqari bog‘liqlik tashqi mehnat bozorlaridagi talab, valyuta kurslari va qabul qiluvchi mamlakatlardagi tartibga solish o‘zgarishlariga nisbatan zaiflikni kuchaytirishi mumkin.

O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi geografiyasini diversifikatsiya qilish jarayoni ham kuzatilmoqda. Markaziy bank 2025-yilda Rossiya, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi va Turkiya an’anaviy yo‘nalishlar bo‘lib qolayotganini, ayni paytda Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlariga yo‘nalishlar kengayayotganini qayd etadi [5]. 2026-yilning birinchi yarmida Yevropa Ittifoqi davlatlaridan pul o‘tkazmalari 27 foizga, Buyuk Britaniyadan 62 foizga va AQShdan 19 foizga oshgani ham ushbu diversifikatsiya jarayonining moliyaviy ifodasidir [6]. Migratsiya yo‘nalishlarining diversifikatsiyasi bir mamlakat yoki mehnat bozoriga qaramlikni kamaytirish nuqtayi nazaridan BRM 8 va BRM 10.7 talablariga mos keladi.

Qiyosiy tahlildan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun uchta ustuvor yo‘nalishni ajratish mumkin. Birinchidan, tashqi migratsiyani faqat vaqtinchalik bandlik vositasi sifatida emas, balki inson kapitalini oshirish mexanizmi sifatida boshqarish lozim. Bunda xorijda talab yuqori bo‘lgan kasblar, til va kasbiy sertifikatlash tizimlarini kengaytirish muhim. Ikkinchidan, migrantlar pul o‘tkazmalarining iste’moldan investitsiyaga yo‘naltiriladigan qismini oshirish uchun jamg‘arma, mikroinvestitsiya va tadbirkorlik instrumentlarini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, qaytib kelgan migrantlarning malakasi va kapitalini ichki mehnat bozoriga reintegratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Mazkur choralar migratsiyaning BRMga qo‘shadigan hissasini ko‘paytirib, uning tashqi xatarlarga bog‘liqligini kamaytirishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi farqlar migratsiya siyosatini yagona yondashuv asosida baholab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasida pul o‘tkazmalarining YAIMga nisbatan yuqori ulushi tashqi mehnat bozorlariga kuchli bog‘liqlikni bildirsa, Qozog‘istonda bu ko‘rsatkichning pastligi ichki mehnat bozori va iqtisodiyot tarkibining boshqacha ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston esa oraliq pozitsiyani egallaydi: pul o‘tkazmalari makroiqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sezilarli ahamiyatga ega, biroq iqtisodiyotning umumiy hajmi va ichki bandlik imkoniyatlari migratsiya daromadlariga mutlaq qaramlikni nisbatan cheklaydi. Shu sababli O‘zbekiston uchun asosiy masala migratsiya oqimini qisqartirishdan ko‘ra, uning sifat tarkibini yaxshilash va iqtisodiy qaytimini oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasining barqaror rivojlanishga ta’siri mamlakatlar kesimida sezilarli farqlanadi. O‘zbekiston 2026-yilgi SDG Indexda 73,0 ball bilan mintaqada Qirg‘iz Respublikasidan keyingi yuqori natijalardan birini qayd etgan. Shu bilan birga, pul o‘tkazmalarining YAIMdagi salmoqli ulushi va transchegaraviy tushumlarning yuqori sur’atlarda o‘sishi migratsiyaning mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuning uchun migratsiya siyosatining asosiy vazifasi migratsiyani mexanik ravishda qisqartirish emas, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini oshirish, migrantlar huquqlarini himoya qilish, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish va qaytgan migrantlarni samarali reintegratsiya qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Sachs J.D., Lafortune G., Fuller G., Iablonovski G. Implementing Sustainable Development: 2030 and Beyond. Sustainable Development Report 2026. Paris: SDSN; Dublin: Dublin University Press, 2026. https://dashboards.sdgindex.org/

2. Sustainable Development Solutions Network. Sustainable Development Report 2026: Country Profiles and Rankings. 2026. https://dashboards.sdgindex.org/

3. Sustainable Development Solutions Network. Sustainable Development Report 2026: Uzbekistan country profile and fact sheet. 2026. https://dashboards.sdgindex.org/profiles/uzbekistan/fact-sheet/

4. World Bank. World Development Indicators: Personal remittances, received (% of GDP) va Net migration. 2025. https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.DT.GD.ZS; https://data.worldbank.org/indicator/SM.POP.NETM

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Review of International Migration and Individuals’ Foreign Exchange Operations. 17.03.2026. https://cbu.uz/en/press_center/reviews/3611318/

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. The Central Bank of Uzbekistan publishes its analytical review of individuals’ foreign currency operations for the first half of 2026. 14.08.2026. https://cbu.uz/en/press_center/releases/4359624/

Qayumova Muborak Abzal qizi
TMC Instituti

Globallashuv hamda raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalining xalqaro mobilligi geografik ko‘chish chegarasidan chiqib, shaxsning ijtimoiy maqomi, iqtisodiy imkoniyatlari hamda dunyoqarashini belgilovchi fundamental omilga aylandi. Bugungi kunda jahon bo‘yicha xalqaro migrantlar soni 280 milliondan oshib (umumiy global aholining 3,6 foizidan ziyodi)[1], rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar mehnat bozorlarini jadal bog‘lovchi transmilliy kapital hamda bilim oqimlarini shakllantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan milliy yuksalish bosqichida va "Inson qadri" tamoyili doirasida tashqi mehnat migratsiyasiga yondashuv tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, tashqi mehnat migratsiyasi shunchaki odamlarni ish bilan ta’minlash manbai emas, balki milliy inson kapitalini oshirish, fuqarolarning zamonaviy bilim va raqobatbardosh kasbiy ko‘nikmalarni egallashi uchun strategik imkoniyatdir. Shu bois, mehnat migratsiyasini "stixiyali harakat"dan "strategik maqsadli inson kapitali transferi"ga aylantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi mamlakatlar o‘rtasida tovar, kapital, texnologiya va mehnat resurslarining harakatini jadallashtirmoqda. Ayniqsa, xalqaro mehnat migratsiyasi zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib, mehnat resurslarining hududiy qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda.

Mehnat migratsiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, migrant faqat jismoniy mehnat resursi sifatida emas, balki o‘zida bilim, malaka, kasbiy tajriba va kompetensiyalarni mujassamlashtirgan **inson kapitali** sifatida xalqaro mehnat bozoriga kirib boradi. Shu sababli xalqaro mehnat migratsiyasini inson kapitalining mamlakatlar o‘rtasidagi harakati sifatida ham baholash mumkin.

O‘zbekiston uchun mazkur masala dolzarb hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining ko‘payishi, ichki mehnat bozoridagi ish o‘rinlari va ishchi kuchi o‘rtasidagi nomutanosiblik hamda xorijiy mamlakatlarda ishchi kuchiga talabning yuqoriligi xalqaro mehnat migratsiyasini kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, tajriba va ko‘nikmalarga kiritilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va daromadlarning oshishiga xizmat qiladi. Mehnat migratsiyasi esa ushbu kapitaldan foydalanish makonini o‘zgartiradi. Ya’ni inson o‘z bilim va malakasini bir mamlakatda shakllantirib, boshqa mamlakat mehnat bozorida undan foydalanishi mumkin.

Bu jarayonni uchta asosiy shaklda ko‘rish mumkin:

- **“Brain drain”** – malakali mutaxassislarning mamlakatdan chiqib ketishi;
- **“Brain gain”** – migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatning qo‘shimcha inson kapitaliga ega bo‘lishi;

• **“Brain circulation”** – xorijda olingan bilim, tajriba va ko‘nikmalarning migrantning qaytishi yoki transmilliy aloqalar orqali kelib chiqish mamlakatiga qayta kirib kelishi.

O‘zbekistonning xalqaro mehnat migratsiyasidagi ishtiroki so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘zgardi. Pandemiya davrida migratsiya imkoniyatlarining cheklanishi sababli 2020–2021-yillarda tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari pasaygan. Keyingi yillarda esa migratsiya jarayonlarining tiklanishi kuzatildi.

Tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq ko‘rsatkich 2020-yilda 1,84 mln, 2021-yilda 1,46 mln, 2022-yilda 1,56 mln, 2023-yilda 1,67 mln va 2024-yilda 1,78 mln kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yildagi pasayishdan keyin tashqi mehnat migratsiyasi hajmining bosqichma-bosqich tiklanganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi dinamikasi

Yil	Tashqi mehnat migratsiyasi, ming kishi	O‘zgarish tendensiyasi
2020	1 838,2	Pandemiya ta’siri
2021	1 456,8	Pasayish
2022	1 562,9	Tiklanish
2023	1 669,1	O‘sish
2024	1 775,1	O‘sish
2025	—	Rasmiy yillik tashqi mehnat migratsiyasi qatori alohida metodika asosida shakllantiriladi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.* Emigratsiya statistikasi *(2026).*

Shu bilan birga, rasmiy migratsiya statistikasi bilan mehnat migratsiyasi statistikasi o‘rtasidagi metodologik farqni hisobga olish lozim. Masalan, Statistika agentligining emigratsiya qatori mamlakatdan doimiy yoki statistik ma’nodagi ko‘chib ketishni aks ettiradi va uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat migrantlari soniga tenglashtirib bo‘lmaydi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekiston bo‘yicha erkak emigrantlar soni 115,1 ming kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yildagi 107,5 ming kishiga nisbatan yuqori bo‘lgan.

Mehnat migratsiyasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini baholashda migratsion pul o‘tkazmalari muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Chunki migrantlarning xorijda olgan daromadlari mamlakatga qaytib, uy xo‘jaliklarining iste’moli, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va tadbirkorlik xarajatlarini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

2020–2025-yillarda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. 2021-yilda mamlakatga 8,1 mlrd dollar pul o‘tkazmalari kelib tushgan bo‘lib, bu 2020-yildagi taxminan 6 mlrd dollarlik ko‘rsatkichdan yuqori edi.

2022-yilda esa pul o‘tkazmalari keskin oshib, 16,9 mlrd dollarga yetdi. 2023-yilda mazkur ko‘rsatkich taxminan 11,3 mlrd dollarni tashkil etdi.

2025-yilda esa pul o‘tkazmalari yana jadal o‘sib, 18,9 mlrd dollarga yetdi. Bu 2024-yilga nisbatan 4,1 mlrd dollar yoki 28 foizga ko‘pdir. Markaziy bank ushbu o‘sishni migrantlar ishlaydigan mamlakatlarda ishchi kuchiga talabning yuqoriligi, ish haqlarining nisbatan barqarorligi, iqtisodiy faollik va valyuta kurslari bilan izohlaydi.

2-jadval.

O‘zbekistonga migratsion pul o‘tkazmalari dinamikasi

Yil	Pul o‘tkazmalari, mlrd AQSh dollari	Izoh
2020	≈6,0	Pandemiya sharoiti
2021	8,1	Tiklanish
2022	16,9	Keskin o‘sish
2023	≈11,3	Qisqarish
2024	≈14,8	Qayta o‘sish
2025	18,9	28% yillik o‘sish

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Xalqaro migratsiya va jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari sharhi.*

2025-yilda kelib tushgan 18,9 mlrd dollarlik pul o‘tkazmalari O‘zbekiston iqtisodiyotida mehnat migratsiyasining moliyaviy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur mablag‘larning iqtisodiy samarasi ularning iste’molga yoki inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilishiga bog‘liq.

Masalan, migrantlar daromadlarining farzandlar ta’limiga, kasbiy tayyorgarlikka, sog‘liqni saqlashga yoki tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirilishi uzoq muddatda inson kapitalining sifatini oshirishi mumkin.

O‘zbekiston fuqarolarining mehnat migratsiyasi an’anaviy ravishda Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlar bilan bog‘liq bo‘lgan. So‘nggi yillarda esa migratsiya geografiyasining diversifikatsiyalashuvi kuzatilmoqda. Markaziy bank 2025-yilda O‘zbekiston fuqarolarining Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlariga ham yo‘nalishi kengayganini qayd etadi.

Bu jarayon inson kapitalining xalqaro harakati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Chunki turli mehnat bozorlariga chiqish migrantlarning turli kasbiy standartlar, texnologiyalar, boshqaruv usullari va mehnat madaniyati bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, malakali mutaxassislarning uzoq muddatga xorijga ketishi O‘zbekiston iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarida inson kapitali yetishmovchiligi xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli migratsiya siyosatida faqat migrantlarni xorijda ish bilan ta’minlash emas, balki xorijda orttirilgan inson kapitalini O‘zbekiston iqtisodiyotiga qaytarish mexanizmlarini rivojlantirish ham muhim.

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi oddiy ishchi kuchining hududiy ko‘chishi bilan cheklanmay, inson kapitalining xalqaro harakatini ham ifodalaydi. O‘zbekiston misolida 2020–2025-yillardagi jarayonlar migratsiya oqimlari va pul o‘tkazmalarining tashqi iqtisodiy sharoitlarga sezgirligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, 2025-yilda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalarining 18,9 mlrd dollarga yetgani mehnat migratsiyasining mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy kanalga aylanganini ko‘rsatadi.

Biroq migratsiyaning uzoq muddatli samarasi faqat pul o‘tkazmalari hajmi bilan emas, balki migrantlarning xorijda egallagan bilim, kasbiy ko‘nikma, texnologik va boshqaruv tajribasining milliy iqtisodiyotga qay darajada qaytarilishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasining asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri “brain drain” xavfini kamaytirish bilan bir qatorda, “brain circulation” mexanizmlarini shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Natijada mehnat migratsiyasi mamlakat uchun nafaqat vaqtinchalik bandlik manbai, balki inson kapitalini xalqaro miqyosda rivojlantirish, bilim va tajriba transferini kuchaytirish hamda milliy mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirish vositasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. OECD. (2024). International migration outlook 2024. OECD Publishing. OECD – International Migration Outlook 2024

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Xalqaro migratsiya va jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari sharhi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarzi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bank – To‘lov balansi statistikasi

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2026). Emigratsiya statistikasi. Milliy statistika qo‘mitasi. Statistika agentligi ma’lumotlari

5. World Bank. (2024). Migration and development brief 40: Remittances slowed in 2023, expected to grow faster in 2024. World Bank. World Bank – Remittances

World Bank. (2024). Remittances: KNOMAD. World Bank. World Bank – Remittances and Migration

XORIJIY INVESTITSIYALAR - GLOBALLASHUV DAVRIDA MALAKALI MEHNAT MIGRATSIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Abduraxmonov Azizbek Akram o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
azizabduraxmonov65@gmail.com

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi” [4]. Ushbu fikr xorijiy investitsiyalarning nafaqat moliyaviy resurs, balki xalqaro mehnat migratsiyasining o‘ziga xos kanali ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida migratsiya jarayonlarini tartibga solish va malakali kadrlar salohiyatini oshirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan, bu esa xorijiy

investitsiya va migratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

An’anaviy tushunchada mehnat migratsiyasi, odatda, ish qidirib chet elga chiqishning bir shakli sifatida talqin qilinadi. Biroq xalqaro migratsiya nazariyasida S.Kastls, X. de Haas va M.Millerning “The Age of Migration” asarida asoslab berilganidek, zamonaviy globallashuv sharoitida kapital va malakali ishchi kuchi harakati bir-biridan ajralmas tizim sifatida namoyon bo‘ladi: xorijiy kapital qayerga yo‘naltirilsa, texnologiya va bilim tashuvchi mutaxassislar ham ko‘pincha o‘sha yo‘nalishda harakatlanadi [5]. Xalqaro mehnat bozori va migratsiya o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlar ekanini, ayniqsa investitsiyalar hisobiga yaratilgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari malakali kadrlarga bo‘lgan talabni keskin oshirib bormoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ortib borishi ikki yo‘nalishdagi migratsion oqimni - xorijdan malakali mutaxassislarning kirib kelishi va mahalliy kadrlarning tayyorgarlik uchun vaqtincha chet elga chiqishini shakllantiradi.

O‘zbekistonda xorijiy malakali mutaxassislarning mehnat faoliyati Prezidentning 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4008-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-martdagi 244-son qarori asosida tartibga solinadi, unga ko‘ra yuqori malakali mutaxassislar uchun yengillashtirilgan kvota (2 EKIH) va soddalashtirilgan ko‘p martali mehnat vizasi tizimi joriy etilgan [8]. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida O‘zbekistonga tijorat maqsadida kelgan chet el fuqarolari soni 362,8 ming kishini tashkil etib, bir yil ichida 2,7 barobarga oshgan, bu investitsiya va tadbirkorlik bilan bog‘liq xalqaro harakatchanlikning jadal kengayayotganidan dalolat beradi.

1-jadval.

O‘zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining dinamikasi, 2019-2026 yillar (tegishli yil holatiga) [7]

Sana	Korxonalar soni, birlik
2016-yil 1-yanvar	4963
2017-yil 1-yanvar	5008
2018-yil 1-yanvar	5517
2019-yil 1-yanvar	7 560
2021-yil 1-noyabr	13 283
2022-yil 1-noyabr	15 153
2023-yil 1-noyabr	13 019
2024-yil 1-noyabr	15 297
2025-yil 1-noyabr	17 595
2026-yil 1-avgust	20 973

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2016-2026-yillarda deyarli 4,2 baravar oshgan. Bunday korxonalarning

koʻpayishi, oʻz navbatida, ularni ishga tushirish, texnologik jarayonlarni yoʻlga qoʻyish va boshqarish uchun tegishli soha vakillari - muhandis, texnolog va menejerlarning mamlakatimizga kelishini ham kengaytiradi; bu bogʻliqlik quyida keltirilgan amaliy misolda yanada yaqqol namoyon boʻladi.

Bunga yorqin misol sifatida Jizzax erkin iqtisodiy zonasidagi BYD Uzbekistan Factory zavodini keltirish mumkin. 2023-yil noyabrida boshlangan qurilish davridayoq zavodda qariyb 100 nafar xitoylik hamkor va mutaxassis faoliyat yuritgan [8]. Zavod ishga tushirilgach, unda band boʻlganlar soni 1200 nafarga yetdi, shundan 200 nafari oʻtgan yili “UzAuto Motors” zavodlarida, yana 92 nafari esa joriy yilda Xitoyning Sian va Chansha shaharlarida sifat nazorati, texnologiya va uskunalarga texnik xizmat koʻrsatish yoʻnalishlarida malaka oshirmoqda. Shunday qilib, bitta xorijiy investitsiya loyihasi atrofida ikki tomonlama kadrlar harakati - xitoylik mutaxassislarning kelishi va mahalliy yoshlarning Xitoyga oʻqishga yuborilishi - yuzaga kelgan, bu esa oʻz navbatida Jizzaxda avtomobilsozlikka ixtisoslashgan muhandislik maktabining tashkil etilishiga va mintaqada yangi, yuqori texnologiyali sanoat tarmogʻining shakllanishiga zamin yaratdi [8].

Bunday bogʻliqlikning dastlabki yirik namunasi sifatida 1996-yilda Koreya texnologiyalari asosida ishga tushirilgan Asaka avtomobil zavodini keltirish mumkin: u yerda nafaqat koreyalik mutaxassislar jalb etilgan, balki qariyb 1000 nafar oʻzbekistonlik yosh ishchi Koreyaga borib, ishlab chiqarish tajribasini oʻrganib qaytgan - bu xorijiy investitsiya vositasida yuzaga kelgan ikki tomonlama bilim migratsiyasining ilk koʻrinishi edi. Shunga oʻxshash model hozirgi kunda ham davom etmoqda: BYD, Chery va JAC kabi xitoylik avtomobilsozlik kompaniyalari buyurtmasi asosida Toshkentda maxsus texnikum tashkil etilib, u yerda xitoylik mutaxassislar jalb etilgan holda mahalliy kadrlar tayyorlanmoqda, pedagoglar esa malaka oshirish uchun Xitoyga yuborilmoqda. Yana bir dolzarb misol - 2026-yil sentabr-noyabr oylarida Oʻzbekiston va Janubiy Koreya hamkorligida tashkil etilgan yarimoʻtkazgichlar sohasidagi tayyorgarlik dasturi boʻlib, unda 20 nafar oʻzbekistonlik mutaxassis IC Design va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari boʻyicha Koreya tajribasini oʻrganmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda Koreyaning toʻrtta universiteti - Yodju, Inha, Puchon va Kimyo xalqaro universiteti filiallari faoliyat yuritib, ular orqali ham muhandislar va IT mutaxassislar tayyorlanmoqda, bu esa institutsional darajadagi bilim migratsiyasi kanalini tashkil etadi.

Keltirilgan misollar xorijiy investitsiyaning taʻsiri yagona yoʻnalishli emas, balki ikki tomonlama ekanini koʻrsatadi: bir tomondan, malakali xorijiy mutaxassislar Oʻzbekistonga - yangi korxonani ishga tushirish va boshqarish uchun - kirib keladi; ikkinchi tomondan, mahalliy yoshlar investor mamlakatga tayyorgarlik uchun vaqtincha joʻnatiladi va orttirgan bilimi bilan qaytib, oʻz vatanida ishlaydi. Bu ikkinchi oqim anʻanaviy “miya oqishi” emas, balki “miya aylanishi” (brain circulation) hodisasi boʻlib, u xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilgani uchun oʻz tabiatiga koʻra boshqaruvga ancha qulay modeldir.

Xorijiy investitsiyalar jalb etilishi bilan parallel ravishda Oʻzbekistonga xorijiy fuqarolarning tashrif buyurishi ham barqaror oʻsish dinamikasiga ega

bo‘lib bormoqda, bu esa mamlakatning xalqaro ochiqligi va biznes-investitsiya muhitining yaxshilanganidan dalolat beradi.

2-jadval

O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar sonining dinamikasi, 2015-2025 yillar (ming kishi) [9]

Yil	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Soni, ming kishi	861,6	898,7	1193,5	2515,8	3218,3	765,4	956,7	2585,8	3320,3	3977,5	6404,3

2015-2025 yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni qariyb 7,4 baravar oshgan (2020-yildagi pandemiya tufayli yuzaga kelgan qisqa muddatli pasayishni istisno qilganda, tendensiya barqaror o‘sish xarakteriga ega). Bu o‘sish 2018-yildan boshlab joriy etilgan vizasiz tartib va investitsiya muhitini soddalashtirish islohotlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalqaro aloqalarning kengayishi ishbilarmonlik muhitini jonlantirish, madaniy va ilmiy almashinuvni rivojlantirish, shuningdek xorijiy mutaxassislar va investorlarning mamlakat bilan yaqindan tanishishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratmoqda - bu esa, yuqorida ko‘rsatilgan BYD va Asaka misollarida ko‘rsatilganidek, keyinchalik aniq investitsiya loyihalariga va malakali kadrlar almashinuviga aylanishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlil xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ko‘payishi O‘zbekistonda nafaqat kapital, balki texnologiya va malakali kadrlar migratsiyasi uchun ham real kanal yaratayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu kanal hozircha tizimli tarzda hisobga olinmayapti va davlat siyosatida alohida yo‘nalish sifatida shakllanmagan - mavjud migratsiya statistikasi investitsiya bilan bog‘liq mutaxassislar oqimini umumiy tijorat va mehnat migratsiyasidan ajratib ko‘rsatmaydi.

Shu sababli, birinchidan, Mehnat migratsiyasi agentligi va investitsiyalar sohasidagi vakolatli organ o‘rtasida ma‘lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yib, xorijiy investitsiya loyihalari doirasidagi kadrlar harakatini (kiruvchi xorijiy mutaxassislar va chet elga tayyorgarlikka yuboriladigan mahalliy kadrlar) alohida statistik hisobga olish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, Asaka va BYD tajribasida o‘z-o‘zidan shakllangan “investitsiya - tayyorgarlik - qaytish” modelini yirik investitsiya shartnomalarining majburiy shartiga aylantirish, ya‘ni har bir strategik loyihada mahalliy yoshlarni investor mamlakatda tayyorlash kvotasini belgilash maqsadga muvofiq. Uchinchidan, bunday dasturlarni Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining mavjud raqamli platformalari orqali muvofiqlashtirish ularning qamrovini kengaytirib, bilim migratsiyasini tasodifiy hodisadan barqaror davlat siyosati vositasiga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova Z.A. Xalqaro mehnat bozori va migratsiya: Darslik. - Toshkent, 2021.

2. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: Barkamol fayz-media, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni // Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // president.uz/oz/lists/view/2228.

5. Castles S., de Haas H., Miller M.J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. - 5th ed. - London: Palgrave Macmillan, 2014.

6. O‘zbekistonga tijorat maqsadida kelgan chet elliklar soni 2,7 barobarga oshgan // Milliy statistika qo‘mitasi, stat.uz, 2025.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17441-xorijiy-kapital-ishtirokidagi-korxonalar-soni-qancha-9?

8. “BYD Uzbekistan Factore” Jizzaxda kelajak avtomobilini yaratadi // Jizzaxnews.uz, 2023; BYD factory in Jizzakh region produces its first cars // Gazeta.uz, 27.06.2024; Prezident Jizzaxdagi BYD zavodining faoliyati bilan tanishdi // Anhor.uz, 2026.

9. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi: SIAT ochiq ma‘lumotlar bazasi, indikator kodi 2.04.11.0008 // api.siat.stat.uz.

MIGRATSIYA JARAYONLARI SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHINI SOLIQ MEXANIZMLARI VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISH

To‘laganova Feruza Xamidulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv rivojlanishi ko‘p jihatdan hududlarning iqtisodiy salohiyatidan qay darajada samarali foydalanilayotganiga bog‘liq. Hududlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish salohiyati, tadbirkorlik faolligi, investitsiyalar hajmi, bandlik, aholi daromadlari hamda mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlaridagi tafovutlar hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarning o‘z daromad manbalarini kengaytirish, ularning iqtisodiy faollikni oshirishdan moliyaviy manfaatdorligini kuchaytirish hamda nisbatan past rivojlangan hududlarga investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalaning dolzarbligi soliq mexanizmlarining faqat davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi fiskal vosita sifatidagi an’anaviy funksiyasi bilan cheklanmasdan, hududiy iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning faol instrumentiga aylanib borayotgani bilan izohlanadi. Soliqlar va budjetlararo munosabatlar tizimi orqali mahalliy hokimiyat organlarining daromad bazasini mustahkamlash, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishni rag‘batlantirish, investitsiyalar uchun nisbatan jozibador sharoit yaratish, mavjud soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy faollikni hududlar bo‘yicha yanada mutanosib joylashtirish imkoniyati mavjud.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, hududlarning moliyaviy mustaqilligi ortishi mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy natijalar uchun javobgarligini ham kuchaytiradi. Mahalliy budjet daromadlari hududda yaratilayotgan iqtisodiy qiymat, tadbirkorlik faoliyati va soliq bazasi bilan bevosita bog‘langan sharoitda mahalliy boshqaruv organlarida yangi

korxonalarni tashkil etish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilashga nisbatan iqtisodiy manfaat shakllanadi.

2025-yildan O‘zbekistonda mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish bo‘yicha muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, aylanmadan olinadigan soliq, yirik soliq to‘lovchilardan tashqari yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari tuman va shahar budjetlariga to‘liq hajmda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining esa kamida 50 foizi ushbu budjetlarga yo‘naltirilishi belgilandi. Bu o‘zgarishlar hududiy rivojlanishda fiskal markazsizlashtirish mexanizmlarining ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi.

Shu sababli hududiy iqtisodiy rivojlanishni soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish, amalga oshirilayotgan fiskal islohotlarning iqtisodiy natijalarini tahlil qilish va hududlarning soliq salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini soliq-budjet vositalari orqali rag‘batlantirish masalasi fiskal federalizm nazariyasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini rivojlantirgan olimlardan biri Wallace E. Oates hisoblanadi. Oatesning fiskal markazsizlashtirish nazariyasiga ko‘ra, hududlarning iqtisodiy, demografik va ijtimoiy sharoitlari bir-biridan farq qilgani sababli mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan ayrim davlat xizmatlarini hududiy darajada moliyalashtirish va boshqarish resurslarning samaraliroq taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Uning “decentralization theorem” yondashuvi mahalliy ehtiyojlar va davlat xizmatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni oshirish fiskal markazsizlashtirishning muhim iqtisodiy afzalligi ekanini asoslaydi [6; 7].

Fiskal nomarkazlashning yana bir muhim nazariy asosi Charles M. Tiebout tomonidan ishlab chiqilgan. Olimning “A Pure Theory of Local Expenditures” asarida mahalliy boshqaruv birliklari turli soliq va davlat xizmatlari kombinatsiyasini taklif qilishi sharoitida aholi va iqtisodiy subyektlarning hududlar o‘rtasidagi tanlovi mahalliy hukumatlar o‘rtasida o‘ziga xos raqobatni yuzaga keltirishi asoslangan. Tiebout modelining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, resurslar mobil bo‘lgan sharoitda iqtisodiy subyektlar soliq yuki va davlat xizmatlari nisbati o‘z manfaatlariga ko‘proq mos keladigan hududlarga yo‘naladi [8].

O‘zbekistonda 2026-yilda mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishidagi islohotlar davom ettirildi. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, aylanmadan olinadigan soliq, shuningdek, yirik soliq to‘lovchilardan tashqari yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari tuman va shahar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkazilishi belgilangan.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi tuman va shahar budjetlarida qoldiriladi.

Shuningdek, 2026-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumlarining yirik soliq to‘lovchilardan tashqari qismi bo‘yicha Toshkent shahriga 5 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga 20 foiz miqdorida ajratma belgilangan. Mazkur mexanizm mahalliy budjet daromadlarini hududlarda shakllanayotgan iqtisodiy faollik va soliq bazasi bilan yanada uzviy bog‘lashga xizmat qiladi.

1-jadval

Mahalliy budjetlarning daromadlari va budjetlararo transfertlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	2025-yil, fakt	2026-yil, prognoz	O‘zgarish
Mahalliy budjetlar daromadlari, trln so‘m	71,27	75,98	+4,72 yoki +6,6%
Mahalliy budjetlar xarajatlari, trln so‘m	109,21	95,63	–13,57 yoki –12,4%
Respublika budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar, trln so‘m	18,46	19,65	+1,19 yoki +6,4%
Transfertlarning mahalliy budjet xarajatlariga nisbati, %	16,9	20,5	+3,6 foiz band

Jadval ma’lumotlari 2026-yilda mahalliy budjetlarning prognoz daromadlari 75,98 trln so‘mni tashkil etib, 2025-yildagi 71,27 trln so‘mlik faktik ko‘rsatkichga nisbatan 4,72 trln so‘m yoki 6,6 foizga ortishi ko‘zda tutilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respublika budjetidan mahalliy budjetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 2025-yildagi 18,46 trln so‘mdan 2026-yilda 19,65 trln so‘mga yetishi, ya’ni 6,4 foizga oshishi belgilangan.

E’tiborli jihati shundaki, 2026-yilda mahalliy budjetlar xarajatlari 95,63 trln so‘m miqdorida prognoz qilingan bo‘lib, transfertlarning ushbu xarajatlarga nisbati hisob-kitob bo‘yicha 20,5 foizni tashkil etadi. 2025-yilda mazkur nisbat qariyb 16,9 foiz bo‘lgan. Demak, mutlaq miqdorda mahalliy daromadlar oshishi rejalashtirilayotgan bo‘lsa-da, tartibga soluvchi transfertlarning mahalliy budjetlarni moliyalashtirishdagi ahamiyati saqlanib qolmoqda.

Buni fiskal markazsizlashtirish siyosatining susayishi sifatida bir tomonlama baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki 2026-yilda mahalliy budjetlar zimmasiga ayrim qo‘shimcha xarajat majburiyatlari ham o‘tkazilgan, shu bilan birga soliq tushumlarini hududlar foydasiga taqsimlash mexanizmi kengaytirilgan. Xususan, QQS, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va foyda solig‘ining muayyan ulushlarini hududlarda qoldirish fiskal markazsizlashtirishning daromadlar bo‘yicha komponentini kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, 2026-yildagi fiskal siyosatni mahalliy budjetlarning transfertlardan mutlaq voz kechishi emas, balki mahalliy daromad manbalarini kengaytirish bilan bir vaqtda hududlar o‘rtasidagi fiskal tafovutlarni budjetlararo transfertlar orqali muvozanatlashtirishga qaratilgan model sifatida tavsiflash mumkin.

2026-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumlarining Toshkent shahri mahalliy budjetiga 5 foizi, boshqa hududlarga esa 20 foizi yo‘naltirilishi hududlarda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat bilan mahalliy budjet manfaatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, soliq bazasi yuqori va iqtisodiy faol hududlar bunday mexanizmdan ko‘proq manfaat ko‘rishi, soliq salohiyati past hududlarda esa daromadlar o‘sishi cheklangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun fiskal mustaqillik hududlararo tenglashtirish mexanizmlari bilan uyg‘un holda qo‘llanilishi zarur.

Mahalliy budjetlar faoliyatini baholashda hududning mavjud iqtisodiy salohiyatidan qay darajada foydalanayotganini hisobga olish muhim. Shu maqsadda quyidagi soliq salohiyatidan foydalanish koeffitsientini qo‘llash taklif etiladi:

$$Kss = STa / STp \times 100,$$

bu yerda:

Kss – soliq salohiyatidan foydalanish koeffitsienti;

STa – amalda undirilgan soliq tushumlari;

STp – hududning hisoblangan potensial soliq tushumlari.

Mazkur ko‘rsatkich budjetlararo transfertlarni taqsimlashda hududning faqat amaldagi daromadini emas, balki mavjud soliq bazasidan foydalanish samaradorligini ham hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari soliq mexanizmlari hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning muhim vositasi ekanini ko‘rsatadi. Mahalliy budjetlarda soliq tushumlarining muayyan qismini qoldirish hududlarning daromad bazasini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishga manfaatdorligini oshiradi.

Shu asosda budjetlararo transfertlarni hisoblashda soliq salohiyatidan foydalanish koeffitsientini joriy etish, hududlarning rivojlanish darajasiga qarab investitsion soliq chegirmalarini tabaqalashtirish, soliq imtiyozlarini investitsiya, bandlik, eksport va qo‘shilgan qiymat bo‘yicha aniq natijalar bilan bog‘lash hamda ularning samaradorligini muntazam baholash taklif etiladi.

Mazkur chora-tadbirlar fiskal markazsizlashtirishni oddiy daromad taqsimoti mexanizmidan hududlarning iqtisodiy salohiyatini safarbar etuvchi rag‘batlantiruvchi tizimga aylantirishga xizmat qiladi. Bunda mahalliy fiskal mustaqillikni oshirish hududlararo moliyaviy tenglashtirish bilan uyg‘un olib borilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Oates, W. E. (1972). Fiscal Federalism. New York: Harcourt Brace Jovanovich. 256 p.

2. Oates, W. E. (1999). An Essay on Fiscal Federalism. Journal of Economic Literature, 37(3), 1120–1149.

3. Tiebout, C. M. (1956). A Pure Theory of Local Expenditures. Journal of Political Economy, 64(5), 416–424.

3. International Monetary Fund. Making Fiscal Decentralization Work: Cross-Country Experiences. Washington, D.C.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining mahalliy budjetlar va Davlat budjeti ijrosiga oid rasmiy ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI GEOGRAFIYASI VA HUDUDIY AEROPORTLARNING XALQARO TRANSPORT ALOQALARI

Azimova Mohinur Nozimovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mohinurazimova20@gmail.com

Xorijiy mehnat bozorlaridan foydalanish imkoniyati ish o‘rnining mavjudligi bilan birga unga yetib borish sharoitlariga ham bog‘liq. Aeroportga borish, xalqaro qatnov va ish joyiga yetib olish yagona safar jarayonini tashkil etadi. Tezisning maqsadi asosiy xorijiy mehnat bozorlari va tanlangan hududiy aeroportlar faoliyatini qiyoslash orqali migratsiya siyosatida hisobga olinishi zarur transport muammolarini aniqlashdir.

O‘zbekiston sharoitida masala hududiy aeroportlarning xorijiy mehnat bozorlari bilan bog‘lanishi va yangi ishga joylashtirish yo‘nalishlariga mos xizmatlarni tashkil etishdan iborat. Bunda qatnov manzili, muntazamligi, tutash reyslar va jami safar xarajati muhim. Xalqaro yo‘nalishning mavjudligi hamda undan migrantning amalda foydalanish imkoniyati alohida baholanishi kerak. Tezisning maqsadi xorijiy mehnat bozorlari va tanlangan hududiy aeroportlar faoliyatini qiyoslash orqali transport muammolarini aniqlash hamda safarni tashkil etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

Mehnat migratsiyasi va havo transporti o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy adabiyotlarda ishchi kuchining hududlararo harakati, safar xarajatlari va transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. K. Button va H. Vega havo transportining uzoq masofali mehnat safarlari hamda migrantlarning vatani bilan aloqalarini saqlashdagi o‘rnini tahlil qilgan [1]. M. Albayrak va hammualliflar Turkiya viloyatlari bo‘yicha xalqaro migratsiya bilan aeroport yo‘lovchi oqimi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni aniqlagan [2]. M. Hirsh esa Janubi-Sharqiy Osiyoda arzon aviatashuvlar xizmatidan foydalanuvchi migrantlar uchun aeroportga kirish va xizmatlardan foydalanish sharoitlarini o‘rgangan [3]. Ushbu tadqiqotlar transport aloqalari, safar xarajati va migratsion talabni birgalikda tahlil qilishga asos beradi; ularning natijalari O‘zbekiston uchun tayyor miqdoriy baho sifatida qo‘llanmaydi.

Migratsiya agentligining 2025-yil hisobotida xorijda vaqtinchalik mehnat qilayotgan fuqarolar soni 1,4 million nafar deb ko‘rsatilgan. Ularning 52 foizi Rossiya, 17 foizi Qozog‘iston, 8 foizi Turkiya, 4 foizi Koreya va 19 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi [4]. Rossiya va Qozog‘istonning jami ulushi 69 foizni tashkil etadi. Bu taqsimot xorijda ishlayotgan fuqarolar tarkibini ifodalaydi, yillik aviasafarlar yoki aviachiptaga bo‘lgan talab ulushini emas. Hisobotda Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish ham qayd etilgan.

Tavsifiy qiyosiy tahlil migratsiya va aeroportlarning 2025-yil ko‘rsatkichlari hamda sanasi aniq qatnov e’lonlariga asoslandi. Nukus, Urganch va Termiz tashuvlar tarkibidagi farqlarni ko‘rsatish uchun tanlandi. Milliy migratsiya ulushlari alohida aeroport talabini ifodalamaydi; buning uchun migrantlarning yashash hududi va safar manzili bo‘yicha ma’lumot zarur.

1-jadval.

Tanlangan aeroportlarning 2025-yildagi tashuvlar tarkibi

Aeroport	Yo‘lovchi oqimi	Tashuvlar tarkibining xususiyati
Nukus	330 707	Yo‘lovchilarning qariyb 74 foizi ichki qatnovlarda
Urganch	862 522	Xalqaro yo‘lovchi oqimi ichki oqimdan biroz yuqori
Termiz	349 227	3 876 ta reysning aksariyati ichki yo‘nalishlarda

Манба: “Uzbekistan Airports” AJ ma’lumotlari asosida tuzildi

Jadval xalqaro tashuvlardan foydalanish muhiti aeroportlar bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatadi. Nukusda ichki yo‘lovchi oqimi ustun; Urganchda xalqaro oqim biroz yuqori. Termiz haqidagi ma’lumot esa yo‘lovchilar ulushini emas, reyslar tarkibini tavsiflaydi. Bu farqlar hududlarga bir xil qatnov rivojlantirish choralarini qo‘llash uchun yetarli asos yo‘qligini ko‘rsatadi. Ayni paytda ichki qatnovlardan foydalanish tashqi mehnat safarining Toshkent orqali bajariladigan bosqichi bo‘lishi mumkin.

Birinchi muammo xorijiy mehnat bozorlarining geografik konsentratsiyasi bilan bog‘liq. Rossiya va Qozog‘istonning katta ulushi an’anaviy yo‘nalishlarga xizmat ko‘rsatish zaruratini saqlaydi. Yangi mamlakatlarda ishga joylashtirish esa transport rejalashtirishini ham talab qiladi. Aviakompaniyaning 2024-yil 28-maydagi e’lonida Nukusdan Olmaotaga haftasiga ikki, Istanbulga bir qatnov yo‘lga qo‘yilishi bildirilgan [6]. Bu misol hududiy aeroport orqali ikki muhim mehnat bozoriga aloqani kengaytirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muammo ishga joylashtirish geografiyasi bilan safarning yakuniy manzili o‘rtasidagi muvofiqlikdir. Mamlakatga yoki uning yirik shahriga reys mavjudligi ish joyiga qulay yetib borishni to‘liq ta’minlamaydi. Bunda ichki transfer, tutash reys va kutish vaqtini ham baholash zarur. Yangi mehnat bozori uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnov ochish taklifi jo‘natiladigan ishchilar soni, safarlar mavsumiyligi va boshqa yo‘lovchi guruhlarining talabi bilan asoslanishi kerak. Aks holda migratsiya yo‘nalishini kengaytirish rejasi qatnovning iqtisodiy barqarorligi bilan muvofiqlashmasligi mumkin.

Uchinchi muammo safarning uzluksizligidir. 2025-yil 11-martdagi rasmiy xabarda Moskva aeroportlaridagi cheklovlar sababli Urganchdan Vnukovoga uchayotgan HY9615 reysi Sankt-Peterburgdagi Pulkovo aeroportiga yo‘naltirilgani qayd etilgan [7]. Mazkur hodisa asosiy mehnat bozoriga transport aloqasi tashqi operatsion cheklovlarga duch kelishini ko‘rsatadi. Ish boshlash sanasi belgilangan migrant uchun bunday o‘zgarish qo‘shimcha transfer va vaqt yo‘qotish xavfini yuzaga keltiradi. E’londa yo‘lovchilarning safar maqsadi ajratilmagani uchun ushbu reysdagi migrantlar soni yoki ularning zarari hisoblanmaydi.

Transportdan foydalanish imkoniyatini baholashda chipta narxiga aeroportgacha va aeroportdan ish joyigacha bo‘lgan xarajatlarni qo‘shish lozim. Hirsh tadqiqotidagi yer usti transporti va xizmatlardan foydalanish masalalari aynan shu jihatning ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. O‘zbekiston hududlari uchun tarifning yuqoriligi yoki transport xarajatining migrant daromadiga nisbati haqida miqdoriy xulosa chiqarish alohida kuzatuvni talab etadi. Umumiy

yo‘lovchi oqimining kattaligi safarning migrant uchun maqbulligini tasdiqlamaydi.

Amaliy yechim sifatida Migratsiya agentligining hududiy bo‘linmalari va aviatashuvchilar o‘rtasida ishga jo‘natish muddatlari hamda manzillari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumot almashuvini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi. Tashkillashtirilgan guruhlar uchun reyslarni ish boshlash sanasi bilan muvofiqlashtirish, aeroportga transfer va tutash qatnovlarni birgalikda rejalashtirish zarur. Yo‘nalish tanlashda safarning jami xarajati, davomiyligi va kechikishda muqobil yetib borish imkoniyati qiyoslanishi kerak. Yangi reys uchun yetarli talab bo‘lmasa, mavjud tugun aeroport orqali kelishilgan tutash qatnov amaliy variant bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy mehnat bozorlaridagi geografik konsentratsiya, tanlangan aeroportlarning tashuvlar tarkibidagi farqlar va qayd etilgan qatnov uzilishi migratsiya siyosatida transport sharoitlarini hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Muallif taklif etayotgan yondashuv hududdan xorijiy ish joyigacha bo‘lgan safarni yaxlit baholashdan iborat. Bunda transport choralarining natijasi migrantning manzilga belgilangan vaqtda hamda maqbul jami xarajat bilan yetib borishi orqali baholanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Button K., Vega H. The effects of air transportation on the movement of labor. GeoJournal. 2008. Vol. 71. P. 67-81. DOI: 10.1007/s10708-008-9116-1.

2. Albayrak M. B. K., Özcan İ. Ç., Can R., Dobruszkes F. The determinants of air passenger traffic at Turkish airports. Journal of Air Transport Management. 2020. Vol. 86. 101818. DOI: 10.1016/j.jairtraman.2020.101818.

3. Hirsh M. Emerging infrastructures of low-cost aviation in Southeast Asia. Mobilities. 2017. Vol. 12(2). P. 259-276. DOI: 10.1080/17450101.2017.1292781.

4. Migratsiya agentligi. Migratsiya jarayonlarini tartibga solish va hamkorlik sohasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot. B. 1. Rasmiy hisobot. gov.uz.

5. “Uzbekistan Airports” AJ. O‘zbekistonda aviatashuvlar: 2025-yil yakunlari bo‘yicha aeroportlarning asosiy ko‘rsatkichlari. Rasmiy e’lon. t.me/uzbairportsuz/8207.

6. “Uzbekistan Airways” AJ. Almaty and Istanbul: Two New International Destinations from Nukus. 28.05.2024. Rasmiy e’lon. www.uzairways.com.

7. “Uzbekistan Airways” AJ. Information about flights Uzbekistan Airways. 11.03.2025. Rasmiy e’lon. www.uzairways.com.

MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINING MILLIY MEHNAT BOZORI VA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRI

Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

XXI asrda globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, mehnat resurslarining xalqaro va ichki harakatchanligi hamda iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi migratsiya jarayonlarini jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirdi. Bugungi kunda migratsiya nafaqat demografik hodisa, balki mehnat

bozori, bandlik darajasi va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda migratsiya jarayonlari sezilarli darajada faollashdi. Aholi sonining tez o‘sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar mehnat resurslarining hududlar va mamlakatlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlaridan yirik shaharlarga ichki migratsiya va xorijiy davlatlarga tashqi mehnat migratsiyasi keng ko‘lamda rivojlanmoqda.

Rasmiy va ochiq manbalarga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan fuqarolar soni 2,3–2,4 million kishini tashkil etgan[1]. Bu ko‘rsatkich mamlakat umumiy ishchi kuchining muhim qismini tashkil etib, mehnat bozoridagi muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari hajmi 18,9 milliard AQSh dollariga yetgani iqtisodiyot uchun migratsiyaning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi[2].

Mazkur jarayonlar fonida O‘zbekistonda ishsizlik darajasi ham sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, 2020-yilda pandemiya ta’sirida ishsizlik darajasi 10 foizdan oshgan bo‘lsa, keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish va migratsiya oqimlarining faollashuvi natijasida bu ko‘rsatkich 2025-yilda 4,9 foizgacha pasaygan[3]. Bu esa migratsiyaning mehnat bozori barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda migratsiya oqimlari, ishsizlik darajasi va pul o‘tkazmalari (remittanslar) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlil uchun 2020–2025 yillar kesimidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

1-Jadval

O‘zbekistonda migratsiya, ishsizlik va remittanslar dinamikasi

Yil	Ishsizlik darajasi (%)	Migrantlar soni (mln kishi)	Remittanslar (mlrd $)
2020	10.5	1.9	6.0
2021	9.6	2.0	8.1
2022	6.8	2.2	14.5
2023	6.2	2.3	16.9
2024	5.7	2.3	17.8
2025	4.9	2.4	18.9

Manba: *Statistika agentligi (stat.uz), World Bank (worldbank.org), hamda Kun.uz va boshqa tahliliy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan [1; 2; 3].*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot davomida ishsizlik darajasi izchil pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2020 yilda 10,5 foizni tashkil etgan mazkur ko‘rsatkich 2025 yilga kelib 4,9 foizgacha kamaygan. Bu holat, avvalo, iqtisodiy tiklanish jarayonlari hamda davlat tomonidan bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasi hajmining ortishi ham ichki mehnat bozoridagi bosimni kamaytirish orqali ishsizlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [3].

Tahlil qilinayotgan davrda tashqi mehnat migratsiyasi hajmi ham barqaror o‘sishni namoyon etgan. 2020 yilda xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar soni 1,9 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2,4 mln kishiga yetgan. Bu esa mehnat resurslarining ma’lum qismi tashqi bozorlarga yo‘naltirilayotganini va natijada ichki mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining qisqarayotganini ko‘rsatadi. Mazkur holat mehnat bozoridagi raqobatni kamaytirib, ishsizlik darajasining pasayishiga xizmat qilmoqda [1].

Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining iqtisodiy ta’siri remittanslar orqali yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020 yilda 6 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan pul o‘tkazmalari hajmi 2025 yilga kelib 18,9 mlrd dollarga yetgan. Bu qariyb uch barobar o‘sishni anglatib, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Remittanslar aholi daromadlarini oshirish, ichki iste’molni rag‘batlantirish va kichik biznes rivojiga turtki berish orqali bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda [2].

Kompleks tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, migratsiya, ishsizlik va remittanslar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Xususan, migratsiya oqimlarining ortishi ishsizlik darajasining pasayishi bilan kuzatilmoqda, remittanslar hajmining o‘sishi esa iqtisodiy faollik va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu holat migratsiya jarayonlarini mehnat bozoridagi muvozanatni ta’minlovchi muhim omil sifatida baholash imkonini beradi.

Biroq, ushbu ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda ehtimoliy xavf-xatarlar ham mavjud. Jumladan, uzoq muddatli istiqbolda mehnatga layoqatli aholining katta qismi xorijda faoliyat yuritishi ichki bozorda malakali kadrlar yetishmovchiligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa ayrim sohalarda iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda migratsiya oqimlari ishsizlik darajasini pasaytirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va mehnat bozori muvozanatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu jarayonlarni samarali boshqarish strategik vazifa hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlari asosan mintaqaviy xususiyatga ega bo‘lib, ular mehnat bozori muvozanatini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, migratsiya oqimlarining asosiy qismi qo‘shni davlatlar bilan bog‘langan bo‘lib, bu holat geografik yaqinlik, iqtisodiy aloqalar va tarixiy omillar bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tashqi migratsiya, ayniqsa mehnat migratsiyasi, mamlakat ichki mehnat bozoridagi ortiqcha ishchi kuchini qisqartirish orqali bandlik darajasini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari aholi daromadlarini oshirishda va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, yuqori malakali kadrlarning chiqib ketishi, hududlar kesimida mehnat resurslari nomutanosibligi va migratsiya oqimlarining bir yo‘nalishda jamlanib qolishi kabi muammolar ham mavjud.

Adabiyotlar:

1. Labor migration from Uzbekistan increased by 4 percent // One.uz. – 2025. – URL: https://one.uz/en/news/uzbekistan/27113-labor-migration-from-uzbekistan-increased-by-4.html
2. Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 // Kun.uz. – 2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025
3. Unemployment in Uzbekistan has decreased // Frank.uz. – 2025. – URL: https://frank.uz/en/news-en/unemployment-in-uzbekistan-has-decreased/

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O‘TKAZMALARI: IQTISODIY O‘SISH MANBAIMI YOKI TASHQI ZAIFLIK OMILI?

Bahodirov Jahongir Bahodir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
jahongir.baxodirov@tsue.uz

Tashqi mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy elementiga aylangan. Mamlakatda migratsiya siyosati 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Prezident Farmoni bilan yangi bosqichga ko‘tarildi: uyushgan migratsiya xarajatlarini qoplash, muhojirlarni ijtimoiy himoya qilish va yangi mehnat bozorlariga chiqish choralari belgilandi. Biroq ommaviy muhokamada pul o‘tkazmalari ko‘pincha faqat “ijobiy rekord” sifatida talqin qilinadi. Ushbu tezisning maqsadi – bu oqimning qanchalik barqaror ekanini va iqtisodiyot uchun qanday tarkibiy xavflar yashirinishini aniqlashdir.

Nazariy jihatdan tadqiqot ikki yondashuvga tayanadi. Harris–Todaro modeliga ko‘ra, migratsiya qarori joriy emas, kutilayotgan daromadlar farqiga bog‘liq [1]. “Mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti” konsepsiyasi esa migratsiyani oilaviy daromad xatarlarini taqsimlash strategiyasi deb qaraydi [2]. Har ikkisi ham O‘zbekiston holatini tushuntirish uchun mos, ammo ular pul o‘tkazmalarining makroiqtisodiy oqibatlarini – valyuta bozori va ichki iste’molga ta’sirini – alohida tahlil qilishni talab etadi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonga 18,9 mlrd AQSH dollari miqdorida pul o‘tkazmalari kelib tushgan, bu 2024-yildagi 14,8 mlrd dollardan 27,2 foiz ko‘p [3; 4]. Markaziy bank dastlab 10–12 foizlik o‘sishni prognoz qilgan edi; haqiqiy o‘sish sur’ati prognozdan ikki baravardan ortiq yuqori bo‘ldi. 2026-yilning birinchi yarmida kirim 13 foizga oshib, 9,3 mlrd dollarga yetdi [5]. Asosiy ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

Muallif hisob-kitobiga ko‘ra, 2025-yilgi pul o‘tkazmalari Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlaridagi YaIM hajmining (taxminan 152,5 mlrd dollar) qariyb 12,4 foiziga teng [7]. Shu yili tovar importi eksportdan taxminan 13,5 mlrd dollarga oshgan [7]. Demak, pul o‘tkazmalari tashqi savdo taqchilligini amalda to‘liq qoplagan va uy xo‘jaliklarining banklarga xorijiy valyuta sotishidagi 9,7 mlrd dollarlik ijobiy saldo milliy valyuta barqarorligini ta’minlagan [4]. Bu bir vaqtning o‘zida ham kuch, ham zaiflikdir: valyuta bozori barqarorligi sezilarli darajada xorijdagi mehnat bozorlariga bog‘lanib qolmoqda.

1-jadval.

O‘zbekistonga xalqaro pul o‘tkazmalari va mehnat migratsiyasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	2026-yil I yarim yillik
Pul o‘tkazmalari kirimi, mlrd AQSH dollari	14,8	18,9	9,3
O‘sish sur’ati (oldingi davrga nisbatan)	–	27,2 %	13 %
Pul o‘tkazmalari chiqimi, mlrd AQSH dollari	–	2,7	1,3
P2P (kartadan kartaga) o‘tkazmalar ulushi	–	46 %	51,7 %
Uy xo‘jaliklari jami daromadidagi ulushi	16,5 %	21 %	ma’lumot yo‘q
Xorijdagi mehnat muhojirlari soni, mln kishi	1,35	ma’lumot yo‘q	ma’lumot yo‘q

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo‘mitasi va Migratsiya agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3–6].*

Birinchi tanqidiy kuzatuv – miqdor va hajm o‘rtasidagi nomuvofiqlik. Migratsiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, xorijdagi mehnat muhojirlari soni 2022-yil oxiridagi 2,1 mln kishidan 2024-yil oxirida 1,35 mln kishiga qisqargan, shu jumladan Rossiyadagilar 1,2 mln kishidan 698 ming kishiga tushgan [6]. 2026-yilning birinchi yarmida Rossiyada patent asosida ishlayotgan fuqarolar soni yana 9,2 foizga kamaygan [8]. Shunday sharoitda pul o‘tkazmalarining o‘sishi asosan narx va kurs omillari bilan izohlanadi: Rossiyada o‘rtacha nominal ish haqi 2026-yil I choragida 15,1 foizga oshgan, rubl esa dollarga nisbatan o‘rtacha 13,5 foizga mustahkamlangan [9]. Bunday o‘sish tashqi konyunkturaga bog‘liq va teskari yo‘nalishda ham xuddi shunday tez o‘zgarishi mumkin.

Ikkinchi kuzatuv – statistik noaniqlik. Migratsiya agentligining rasmiy hisobi fuqaroning mamlakatdan uch oydan ortiq chiqib ketganligi haqidagi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga asoslanadi [6], ayni paytda agentlik vakillari turli yillarda muhojirlar sonini 2–3 mln kishi deb baholaganlar [10]. Bunday tafovut siyosatni “ko‘r-ko‘rona” yuritish xavfini tug‘diradi: muhojirlar soni aniq bo‘lmasa, ularning ijtimoiy himoyasi, sug‘urtasi va reintegratsiyasi uchun resurslarni rejalashtirish ham taxminiy bo‘lib qoladi.

Uchinchi kuzatuv – ijobiy, ammo hali kichik o‘zgarishlar. Migratsiya geografiyasi kengaymoqda: 2026-yilning birinchi yarmida Buyuk Britaniyadan o‘tkazmalar 62 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 27 foizga, AQShdan 19 foizga oshgan [5]. To‘lov kanallari ham raqamlashmoqda – P2P o‘tkazmalar ulushi 51,7 foizga yetdi [5]. Biroq uyushgan migratsiya ko‘lami hamon cheklangan: 2023-yilda rejalashtirilgan 200 ming o‘rniga atigi 38 ming kishi uyushgan tartibda xorijga ishga yuborilgan [10], muhojirlarning taxminan 54 foizida esa mehnat shartnomasi yo‘q [11]. Bu holat muhojirning shaxsiy xavfsizligi va huquqiy

himoyasi masalasini iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda qo‘yishni taqozo etadi.

To‘rtinchi kuzatuv – daromadning ishlatilish tarkibi. Pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari jami daromadidagi ulushi 16,5 foizdan 21 foizga oshgan, ayrim hududlarda esa 30 foizdan yuqori [4]. Mavjud ma’lumotlar bu mablag‘larning qanchasi jamg‘arma va investitsiyaga, qanchasi joriy iste’molga sarflanishini ochiq ko‘rsatmaydi; bu esa tadqiqot uchun alohida bo‘shliqdir. Agar mablag‘lar asosan iste’mol va uy-joyga yo‘naltirilsa, hududlarda ishlab chiqarish salohiyati o‘smasdan turib migratsiyaga bog‘liqlik mustahkamlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pul o‘tkazmalari O‘zbekiston uchun hozirgi bosqichda muhim barqarorlashtiruvchi omil, ammo uning o‘sishi tarkiban kurs va ish haqi ta’siriga tayanadi va shu sababli ichki iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida baholanmasligi lozim. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, Migratsiya agentligi, Ichki ishlar vazirligi va Markaziy bank ma’lumotlarini yagona metodologiya asosida uyg‘unlashtirish va muhojirlar soni bo‘yicha muntazam ochiq statistika e’lon qilish;

ikkinchidan, muhojirlar va ularning oilalari uchun xorijiy valyutadagi maqsadli omonatlar, hududiy investitsiya loyihalariga yo‘naltirilgan moliyaviy instrumentlar va moliyaviy savodxonlik dasturlarini joriy etish orqali mablag‘larning bir qismini investitsiyaga yo‘naltirish;

uchinchidan, uyushgan migratsiyani rivojlangan mamlakatlar yo‘nalishida kengaytirish bilan birga, qaytgan muhojirlarning orttirgan malakasini ichki mehnat bozorida tan olish va reintegratsiya qilish tizimini yaratish;

to‘rtinchidan, pul o‘tkazmalari ulushi 30 foizdan yuqori bo‘lgan hududlarda ish o‘rinlari yaratish dasturlarini ustuvor qilib, migratsiyani majburiyat emas, tanlov darajasiga olib chiqish.

Kelgusi tadqiqotlarda uy xo‘jaliklari darajasidagi mikroma’lumotlar asosida pul o‘tkazmalarining iste’mol, jamg‘arma va inson kapitaliga ta’sirini empirik baholash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. – 1970. – Vol. 60, No. 1. – P. 126–142.

2. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 2. – P. 173–178.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xalqaro migratsiya va pul o‘tkazmalari bo‘yicha tahliliy sharh (2025-yil yakunlari). – URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/3611322/

4. Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 // Kun.uz. – 2026-yil 29-yanvar. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari bo‘yicha tahliliy sharh (2026-yil I yarim yillik). – 2026-yil 14-avgust. – URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/4359624/

6. Number of labor migrants from Uzbekistan abroad drops // Gazeta.uz. – 2025-yil 22-yanvar. – URL: https://gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant

7. Uzbekistan’s GDP Grew by 7.7 Percent in 2025 // Fergana.agency (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida). – URL: https://en.fergana.agency/news/145081/

8. Remittances to Uzbekistan rise to US$5.5 billion in Q2 // UzDaily.uz. – 2026. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/remittances-to-uzbekistan-rise-to-us55-billion-in-q2/

ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Гафурова Зебохон Дильшод кизи
Ташкентский Государственный Экономический Университет

Трудовая миграция давно перестала быть побочным эффектом бедности или неравенства между странами — сегодня это встроенный механизм глобальной экономики, через который перераспределяется рабочая сила, капитал и, как следствие, сама возможность роста. На мой взгляд, ключевая методологическая ошибка большинства национальных стратегий состоит в том, что миграция рассматривается либо как источник валютных переводов, либо как угроза рынку труда — и почти никогда как процесс, который нужно оценивать одновременно по трём критериям устойчивости: экономическому, социальному и экологическому. Именно эта фрагментарность, а не сама миграция, и порождает большинство проблем.

Экономический эффект трудовой миграции неоднороден и зависит от структуры экономики страны-донора. Денежные переводы смягчают текущий платёжный баланс и поддерживают потребление домохозяйств, но там, где они не конвертируются в инвестиции или человеческий капитал, а расходуются исключительно на текущее потребление, эффект оказывается краткосрочным: экономика становится зависимой от внешнего рынка труда, а не растёт за его счёт [1]. Узбекистан здесь — показательный пример: по официальным данным, за рубежом временно работали 1,9 млн граждан республики на начало 2024 года, а к началу 2025 года их число сократилось до 1,34 млн [2]. Я бы интерпретировала эту динамику не просто как статистику, а как индикатор смены модели: сокращение оттока совпало с ростом внутренних рабочих мест и зарплат, а значит, устойчивость обеспечивается не объёмом миграции как таковой, а способностью экономики абсорбировать трудовые ресурсы внутри страны, оставляя миграцию инструментом, а не опорой роста.

Социальная составляющая устойчивости, на мой взгляд, страдает сильнее всего, потому что именно она наименее формализована. Трудовой мигрант, работающий неофициально, фактически выпадает из систем социального страхования обеих стран одновременно: он не накапливает пенсионные права ни в стране пребывания, ни на родине, а его семья зачастую лишается доступа к гарантиям, формально привязанным к его официальной занятости. Узбекистан пытается закрыть этот разрыв точечными нормативными актами — в частности, Постановлением Президента «О мерах по внедрению системы безопасной, упорядоченной и легальной трудовой миграции» расширены механизмы поддержки

граждан за рубежом и реинтеграции вернувшихся мигрантов [3]. Однако проблема в том, что подобные меры остаются разрозненными постановлениями, а не элементами единой системы — и это подводит к следующему пункту.

Экологическое измерение почти всегда выпадает из миграционной повестки, хотя, как мне представляется, связь здесь двусторонняя и недооценённая. Концентрация мигрантов в крупных городских агломерациях увеличивает нагрузку на инфраструктуру и жилищный фонд быстрее, чем успевают адаптироваться городские системы управления; одновременно деградация земель и дефицит водных ресурсов в отдельных регионах сами становятся причиной внутренней миграции, формируя обратную связь между экологической и миграционной устойчивостью. Эта сторона вопроса сегодня практически не встроена ни в национальные миграционные стратегии, ни в градостроительное планирование — что я считаю серьёзным упущением.

Глобализация не создала эти противоречия, но резко ускорила их проявление: цифровые платформы занятости и упрощение трансграничного перемещения снизили издержки миграции настолько, что решение о переезде сегодня принимается быстрее, чем государства успевают адаптировать под него свои институты. Узбекистан сталкивается с этим разрывом напрямую: разработка единого закона «О внешней трудовой миграции» ведётся с 2017 года, но в июне 2025 года законопроект был отклонён Сенатом Олий Мажлиса и направлен на доработку — из-за нестыковок норм о социальных гарантиях и налогообложении мигрантов [2]. По моему мнению, это не техническая заминка, а системный симптом: институт продолжает регулировать миграцию постановлениями по отдельным случаям, тогда как сам процесс уже требует комплексного и опережающего, а не реактивного регулирования.

Из этого я делаю следующий практический вывод: обеспечение устойчивого экономического роста через трудовую миграцию — это не вопрос стимулирования или ограничения миграционных потоков как таковых, а вопрос синхронизации трёх политик, которые сегодня в большинстве стран региона, включая Узбекистан, проводятся раздельно — экономической, социальной и экологической. Принятие единого системного закона о трудовой миграции, объединяющего разрозненные постановления в цельную концепцию, стало бы конкретным и достижимым шагом к такой синхронизации.

Литературы:

1. World Bank. Migration and Development Brief 40: Remittances Slowed in 2023, Expected to Grow Faster in 2024. — Washington, D.C.: KNOMAD — World Bank, June 2024. — 60 p.

2. Исакулов Ш. Н. Проблемы и возможности эффективного регулирования внешней трудовой миграции в Республике Узбекистан // Народонаселение. — 2021. — Т. 24. — № 4. — С. 161–174. DOI: 10.19181/population.2021.24.4.13.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по внедрению системы безопасной, упорядоченной и легальной трудовой миграции» от 15 сентября 2020 г. № ПП-4829.

MEHNAT MIGRATSIYASI VA YOSHLAR BANDLIGI: O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA TAJRIBASI


Bahromova Barchinoy Bahrom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
bahromovabarchinoy7@gmail.com

Mehnat migratsiyasi yoshlarning bandligi, kasbiy rivojlanishi va mehnat bozoriga kirib kelish jarayoniga bevosita ta’sir qiluvchi omillardan biridir. Yoshlar uchun migratsiya bir tomondan yangi ish o‘rinlari, yuqori malaka, xorijiy til va xalqaro tajriba olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan mahalliy mehnat bozoridan vaqtincha chiqib ketish, malakaning qaytgach to‘liq tan olinmasligi va reintegratsiya muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli mehnat migratsiyasini faqat ishchi kuchining mamlakatlar o‘rtasidagi harakati sifatida emas, balki inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish muhim.

Mazkur tezisning maqsadi O‘zbekistonda yoshlar bandligi va tashqi mehnat migratsiyasining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda Germaniyaning kasbiy tayyorgarlik, rasmiy bandlik va malakali mehnat migratsiyasini boshqarish tajribasi bilan qiyoslashdan iborat. Tadqiqotda rasmiy statistika, davlat hujjatlari va xalqaro tashkilotlar materiallaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy e’tibori yoshlarning mehnat bozoriga kirishini yengillashtirish, migratsiyani qonuniy va xavfsiz tashkil etish hamda xorijda orttirilgan ko‘nikmalarni iqtisodiyotga qayta jalb etish masalalariga qaratildi.

O‘zbekistonda yoshlar bandligi va mehnat migratsiyasi. O‘zbekiston statistikasida 2025-yilda umumiy ishsizlik darajasi 4,8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, 16–30 yoshdagi yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi 11,2 foiz bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich yoshlarning umumiy mehnat bozoriga qaraganda nisbatan murakkabroq sharoitga duch kelayotganini ko‘rsatadi. Biroq yoshlar bandligi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar ham mavjud: 16–24 yoshdagi o‘qimayotgan va ishlamayotgan yoshlar ulushi 2020-yildagi 30,5 foizdan 2024-yilda 12,4 foizgacha qisqargan [1; 2].

Yoshlar bandligining bunday xususiyati mehnat migratsiyasiga bo‘lgan talabni ham shakllantiradi. Xorijiy mehnat bozorlari yoshlar uchun daromad, kasbiy tajriba va yangi ko‘nikmalar manbai bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, migratsiya samarasi migrantning ketishidan oldingi tayyorgarligi, xorijiy til bilimi, kasbiy malakasi, mehnat huquqlari haqida xabardorligi va qaytgandan keyingi bandlik imkoniyatlariga bog‘liq. 2024-yildagi PF-162-son Farmon asosida Migratsiya agentligining tashkil etilishi hamda fuqarolarni xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish, kasbiy va til tayyorgarligini kuchaytirish mexanizmlarining rivojlantirilishi ushbu yo‘nalishning institutsional ahamiyatini oshirdi [3; 4]. 1-rasmdan ko‘rinadiki, 16–30 yoshlar ishsizlik darajasi 2021-yilda 16,4 foizga yetgan bo‘lsa, keyingi yillarda pasayib, 2025-yilda 11,2 foizni tashkil etgan. Demak, yoshlar bandligi muammosini hal etishda faqat ish o‘rinlari sonini oshirish emas, balki mehnat bozoriga mos ko‘nikmalarni shakllantirish, kasbga yo‘naltirish va ish beruvchi talablarini ta’lim bilan uyg‘unlashtirish muhim.



1-rasm. O‘zbekistonda 16–30 yoshlar ishsizlik darajasi, 2019–2025-yillar

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SDG ko‘rsatkichlari ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

Germaniya mehnat bozorida demografik qarish sababli ishchi kuchiga bo‘lgan talabning bir qismi migratsiya hisobidan qoplanmoqda. Federal Mehnat Agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2014–2024-yillarda Germaniya fuqaroligiga ega mehnat yoshidagi aholi qariyb 3,9 million kishiga kamaygan, chet el fuqarolarining mehnat yoshidagi aholisi esa qariyb 3,4 million kishiga oshgan. 2024-yildan boshlab bandlik o‘sishi asosan xorijiy ishchilar hisobidan yuz bergani qayd etilgan [5].

Germaniya tajribasining muhim jihatlaridan biri — yoshlarni kasbiy tayyorlashni ish beruvchi ehtiyoji bilan bog‘laydigan dual kasbiy ta’lim tizimidir. Unda amaliy tayyorgarlik korxonada, nazariy tayyorgarlik esa kasb-hunar maktabida olib boriladi. 2024/25 o‘quv davrida Germaniyada 444 ming nafar kasbiy tayyorgarlik talabgori ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, korxonalardagi ro‘yxatdan o‘tgan o‘quv o‘rinlari 477 ming tani tashkil qilgan. Bundan tashqari, 2023-yilda joriy etilgan kasbiy ta’lim kafolati malaka olish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan.

Mehnat migratsiyasini boshqarishda ham Germaniya tajribasi muhim. 2020-yilda kuchga kirgan Skilled Immigration Act keyinchalik bir necha bor kengaytirildi. Federal Mehnat Agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil iyun holatida Germaniyada mehnat faoliyati asosida yashash yoki doimiy yashash huquqiga ega, ijtimoiy sug‘urtaga tortiladigan xodimlar soni 420 mingga yetgan; bu 2020-yildagi ko‘rsatkichdan ikki barobardan ko‘proqdir. Shuningdek, Germaniyada 2025-yilda 15–24 yoshlar uchun ishsizlik darajasi 7,1 foizni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich O‘zbekistonning 16–30 yoshlar ko‘rsatkichi bilan yosh chegaralari turlicha bo‘lgani sababli to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirilmasligi kerak, biroq ikki mamlakatda yoshlar bandligi alohida siyosiy yo‘nalish sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Ikki mamlakat tajribasi mehnat migratsiyasi va yoshlar bandligini alohida emas, o‘zaro bog‘liq siyosat sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda asosiy vazifa yoshlarning mehnat bozoriga kirishini tezlashtirish, xorijga ketishdan oldin ularni til va kasb bo‘yicha tayyorlash hamda qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan inson kapitalidan foydalanishdir. Germaniyada esa migratsiya ichki demografik cheklovlar

sharoitida ishchi kuchi taklifini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida kasbiy ta’lim va malakani tan olish tizimlari bilan uyg‘unlashgan.

1-jadval.

O‘zbekiston va Germaniyada yoshlar bandligi hamda mehnat migratsiyasini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining qiyosiy tavsifi

Mezon	O‘zbekiston	Germaniya
Asosiy muammo	Yoshlar bandligi, malaka va ish o‘rinlari mosligi, tashqi migratsiya oqimlarini samarali boshqarish.	Demografik qarish, malakali va ishchi kasblarga talab, yoshlar uchun kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish.
Migratsiya boshqaruvi	Migratsiya agentligi, tashkillashtirilgan ishga joylashtirish, til va kasbiy tayyorgarlik, xorijda huquqiy himoya.	Malakali mehnat migratsiyasi uchun huquqiy kanallar, malakani tan olish va ishga joylashish bo‘yicha maslahat xizmatlari.
Yoshlar uchun tayyorgarlik	Kasb-hunar va xorijiy til tayyorgarligi, xorijiy ish beruvchilar talabi asosida saralash.	Dual kasbiy ta’lim: korxona + kasb-hunar maktabi; kasbiy ta’lim kafolati.
Bandlikka o‘tish mexanizmi	Xorijga qonuniy ishga joylashtirish va qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilish.	Kasbiy tayyorgarlikdan ish joyiga o‘tish, rasmiy bandlik va malakali migrantlarni jalb qilish.
Asosiy saboq	Migratsiyani bandlik, ta’lim va qayta tayyorlash bilan yagona tizimda bog‘lash.	Ta’limni ish beruvchi ehtiyoji bilan bog‘lash va malakali migratsiya uchun aniq institutsional kanallar yaratish.

O‘zbekiston uchun takliflar. Birinchidan, yoshlarni xorijiy mehnat bozoriga tayyorlash dasturlarini kasbga yo‘naltirish bilan birlashtirish lozim. Til kursi bilan bir qatorda logistika, tibbiyot, muhandislik, IT, xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda amaliy ko‘nikmalar berilishi kerak. Ikkinchidan, dual ta’lim elementlarini mehnat migratsiyasi tayyorgarligiga joriy etish mumkin: yosh ishga ketishdan oldin korxonadagi qisqa muddatli amaliyot orqali real ish jarayonini o‘zlashtiradi. Uchinchidan, xorijda olingan sertifikat va ko‘nikmalarni O‘zbekistonda tan olish hamda ularni mahalliy vakansiyalar bilan bog‘laydigan raqamli platformani kuchaytirish zarur. To‘rtinchidan, migratsiya samaradorligini faqat xorijga nechta fuqaro yuborilgani bilan emas, balki ularning rasmiy bandligi, ish haqi, kasbiy malaka olishi, mehnat huquqlarining himoyalanishi va qaytgandan keyingi bandligi orqali baholash maqsadga muvofiq. Beshinchidan, Germaniyadagi kasbiy tayyorgarlik va malakali migratsiya tajribasidan foydalanishda uni to‘liq ko‘chirish emas, balki O‘zbekistonning demografik, ta’limiy va mehnat bozori sharoitlariga moslashtirish zarur.

Xulosa. Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston yoshlarining bandlik imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, biroq uning iqtisodiy samarasi yoshlarning kasbiy va til tayyorgarligi, qonuniy ishga joylashishi hamda migratsiyadan keyingi reintegratsiya bilan chambarchas bog‘liq. 2025-yilda O‘zbekistonda 16–30 yoshlar ishsizlik darajasining 11,2 foiz bo‘lishi yoshlar bandligi masalasini dolzarb saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Germaniya tajribasida esa demografik qarish sharoitida kasbiy ta’lim va xalqaro mehnat

migratsiyasi bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida rivojlangan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalish yoshlarni xorijiy mehnat bozoriga tayyorlash, dual ta’lim elementlarini kengaytirish, malakani tan olishni yaxshilash va migratsiya hamda mahalliy bandlik siyosatini yagona inson kapitali strategiyasi doirasida bog‘lashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Barqaror rivojlanish maqsadlari: Indikator 8.5.2 — jinsi va yoshi bo‘yicha ishsizlik darajasi; indikator 8.6.1 — o‘qimayotgan va ishlamayotgan yoshlar ulushi. https://nsdg.stat.uz/uz/goal/11

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ishsizlik darajasi — SIAT statistik ma’lumotlar bazasi, 2025-yil dastlabki ma’lumotlari. https://siat.stat.uz/data/1875/

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmoni — Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-7168282

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-apreldagi 252-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://www.lex.uz/uz/acts/-7487706

5. Malika, M. (2024). Migratsiyaning jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o ‘rni. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 48-51.

MEHNAT MIGRATSIYASI VA UY XO‘JALIKLARINING INVESTITSION FAOLLIGI: O‘ZBEKISTON VA FILIPPIN TAJRIBASI

Nabiyev Shoyatbek
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
n.shoyatbek08@gmail.com

Migratsiya aholining hudud yoki davlat chegaralari bo‘ylab ko‘chishi bo‘lib, uning turli ko‘rinishlari mavjud, O‘zbekistonda esa bu jarayon huquqiy jihatdan tartibga solinadi [1]. Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi daromadlarini shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylangan. Migratsiya iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan jamiyatga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi [2]. Migrantlarning oilalariga yuboradigan pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu mablag‘lar kundalik ehtiyojlarni qoplash bilan birga uy-joy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va tadbirkorlikka yo‘naltirilishi mumkin. Shuning uchun migratsiyaning iqtisodiy samarasi pul o‘tkazmalari hajmi bilan emas, balki ularning qanday ishlatilishi bilan ham belgilanadi. Tezisning asosiy muammosi shundaki, pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklari daromadini oshirsa ham, har doim ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyaga aylanavermaydi. Mablag‘larning katta qismi joriy iste’molga sarflansa, ularning kapital jamg‘arish va kelajakdagi daromadni oshirishdagi ta’siri cheklanadi. Aksincha, kichik biznes, ta’lim, uy-joy va boshqa aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar uzoq muddatli iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Qahhorov va O‘rolovaning “Mehnat migratsiyalari va uning aholi daromadlariga ta’siri” tadqiqoti ushbu tezis uchun bevosita ahamiyatga ega [3]. Unda pul o‘tkazmalarining aholi daromadlariga ta’siri bilan birga, ularning foydalanish yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqiladi. Mualliflar pul o‘tkazmalari uy-joy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va kichik biznesni boshlashga sarflanishi mumkinligini ko‘rsatadi [3]. Ayniqsa, tadqiqotda keltirilgan 70–80 foizlik iste’mol ulushi mavzumiz uchun muhim: migratsiya daromadlarining katta qismi bevosita investitsiyaga emas, joriy ehtiyojlarga yo‘naltirilishini bildiradi [3]. Pul o‘tkazmalaridan foydalanish yo‘nalishlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Shu bilan birga, iste’mol xarajatlarini to‘liq salbiy hodisa deb baholash to‘g‘ri emas. Uy-joy, oziq-ovqat, sog‘liqni saqlash va ta’limga sarflangan mablag‘lar uy xo‘jaligi farovonligi va inson kapitalini yaxshilashi mumkin. Biroq tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan asosiy masala pul o‘tkazmalarining daromad keltiruvchi aktivlar va tadbirkorlikka aylanish darajasidir.

1-jadval.

Pul o‘tkazmalaridan foydalanish yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy ahamiyati

Yo‘nalish	Ulushi	Iqtisodiy ahamiyati
Joriy iste’mol (oziq-ovqat, kundalik xarajatlar va b.)	70–80 foiz [3]	Qisqa muddatli moliyaviy bosimni kamaytiradi, farovonlikni qo‘llab-quvvatlaydi
Investitsiya, tadbirkorlik va ko‘chmas mulk	Qolgan qism [3]	Daromad keltiruvchi aktivlar yaratadi, kapital jamg‘arishni ta’minlaydi
Ta’lim va sog‘liqni saqlash	Alohida ulushi keltirilmagan [3]	Inson kapitaliga uzoq muddatli investitsiya sifatida xizmat qiladi

Manba: *[3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

O‘zbekiston sharoitida bu masala ayniqsa muhim. Mehnat migratsiyasidan keladigan mablag‘lar oilalarning qisqa muddatli moliyaviy bosimini kamaytirishi bilan birga, to‘g‘ri yo‘naltirilganda oilaviy tadbirkorlik va kichik biznes uchun boshlang‘ich kapital vazifasini bajarishi mumkin. Buning uchun migrant oilalarining moliyaviy savodxonligi, jamg‘arish imkoniyatlari va investitsion vositalarga kirishi muhim. Bundan tashqari, migratsiya “aqllarning sizib chiqishi” bilan bog‘liq xavflarni keltirib chiqarishi, ayni paytda “aqllarning qaytishi” orqali bilim va ko‘nikmalar transferi imkonini berishi mumkin [4]. Shu sababli qaytgan migrantlarning malakasidan foydalanish investitsion faollikni oshirishning qo‘shimcha omili bo‘lishi mumkin.

Filippin xalqaro mehnat migratsiyasi va migrantlar pul o‘tkazmalari yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biri sifatida O‘zbekiston uchun qiyosiy tajriba sifatida ahamiyatli [5], [6]. Har ikki mamlakatda migrantlar yuboradigan mablag‘lar uy xo‘jaliklari daromadlarini qo‘llab-quvvatlaydi va iste’mol bilan birga uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilishi mumkin. Shu sababli qiyosiy tahlilda pul o‘tkazmalarining miqdori bilan birga, ularning uy xo‘jaliklari iqtisodiy qarorlaridagi rolini ham hisobga olish lozim. Migratsiya va mehnat bozori

bo‘yicha xalqaro ma’lumotlar bunday qiyosiy tahlil uchun asos bo‘ladi [7].

O‘zbekiston uchun asosiy masala pul o‘tkazmalarining katta qismini joriy iste’moldan produktiv investitsiyaga bosqichma-bosqich yo‘naltirishdir. Filippin tajribasi esa migrantlar bilan bog‘liq moliyaviy oqimlarni uy xo‘jaliklari farovonligi va iqtisodiy faollik bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Ikki mamlakatning iqtisodiy va institutsional sharoitlari turlicha bo‘lgani uchun Filippin tajribasini O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, undan moslashtirilgan mexanizmlarni aniqlash maqsadga muvofiq.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Migrant oilalari uchun pul o‘tkazmalarini jamg‘arish va investitsiyaga yo‘naltirish bo‘yicha amaliy moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish.
2. Pul o‘tkazmalarining bir qismini oilaviy tadbirkorlik va mikro-biznesga yo‘naltirish uchun sodda va qulay moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish.
3. Ta’lim va kasbiy malakaga yo‘naltirilgan xarajatlarni inson kapitaliga investitsiya sifatida rag‘batlantirish.
4. Qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan bilim va ko‘nikmalarini mahalliy tadbirkorlik loyihalari bilan bog‘lash [4].
5. Hududlarda migrantlar va ularning oilalariga investitsion rejalashtirish bo‘yicha maslahat xizmatlarini rivojlantirish.

Mehnat migratsiyasi uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish orqali investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi, biroq pul o‘tkazmalarining mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori investitsion faollikni ta’minlamaydi. Qahhorov va O‘rolova keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, pul o‘tkazmalarining katta qismi iste’molga, bir qismi esa investitsiya, tadbirkorlik va ko‘chmas mulkka yo‘naltiriladi [3]. Demak, migratsiyaning uzoq muddatli iqtisodiy samarasi mablag‘larning iste’mol va kapital jamg‘arish o‘rtasida qanday taqsimlanishiga bog‘liq.

O‘zbekiston uchun asosiy vazifa pul o‘tkazmalari hajmini oshirish bilan cheklanmasdan, ularning produktiv investitsiyaga aylanish shartlarini kuchaytirishdir. Moliyaviy savodxonlik, kichik biznesga kirish, inson kapitaliga investitsiya va qaytgan migrantlar ko‘nikmalaridan foydalanish bu jarayonning muhim yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. *Farrux, G. A., & Gulandon, G. A. (2024). Migratsiya tushunchasi, turlari va O‘zbekistonda migratsiya huquqi hamda ularning sotsiologik talqini. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(16), 56–61.*
2. *Malika, M. (2024). Migratsiyaning jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘rni. Elita.uz – Elektron ilmiy jurnal, 2(1), 48–51.*
3. *Qahhorov, M., & O‘rolova, M. Mehnat migratsiyalari va uning aholi daromadlariga ta’siri. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 4(47), 382–386.*
4. *Shahlo, I. (2024). Migratsiya – aqllarning sizib chiqib ketishi va aqllarning qaytishi jarayoni (MI). Elita.uz – Elektron ilmiy jurnal, 2(1), 18–20.*
5. *World Bank. Migration and Development Brief. Migration and remittances data and analytical materials.*
6. *Bangko Sentral ng Pilipinas. Personal Remittances Statistics.*
7. *International Labour Organization. Labour migration and labour market resources.*

ICHKI MIGRATSIYANING YIRIK SHAHARLAR MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI:TOSHKENT VA ISTANBUL TAJRIBASI

Nomozova Marjona Olim qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
nomozova374@gmail.com

Mazkur tezisda ichki migratsiyaning yirik shaharlar mehnat bozoriga ta’siri Toshkent va Istanbul shaharlari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki migratsiyaning ishchi kuchi taklifi, bandlik tarkibi, mehnat bozoridagi raqobat, xizmatlar va qurilish sohalarining kengayishi hamda shahar infratuzilmasiga tushadigan bosim bilan bog‘liq jihatlari o‘rganiladi. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi va Turkiya Statistika instituti ma’lumotlari asosida Toshkent va Istanbuldagi migratsiya oqimlari tahlil qilinib, yirik shaharlarda migratsiyani iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirish uchun mehnat bozoriga integratsiya, kasbiy qayta tayyorlash, hududiy ish o‘rinlarini ko‘paytirish va infratuzilmani muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Toshkent va Istanbul ushbu jarayonni o‘rganish uchun muhim qiyosiy misoldir. Har ikki shahar o‘z mamlakatlarining eng yirik iqtisodiy markazlaridan bo‘lib, xizmatlar, savdo, qurilish, transport, moliya va boshqa tarmoqlarda ish o‘rinlarining katta qismini jamlaydi. 2025-yil 1-iyul holatiga Toshkent shahrining doimiy aholisi 3,145,2 ming kishini tashkil etgan [1]. Turkiyada esa 2025-yil yakunida Istanbul aholisi 15 754 053 kishiga yetgan va mamlakat aholisining 18,3 foizi shu shaharda istiqomat qilgan [2]. Toshkent va Istanbul o‘rtasidagi asosiy o‘xshashlik shundan iboratki, ikkala shahar ham iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada jamlangan markazi bo‘lib, mehnat resurslari uchun tortish kuchiga ega.

Tadqiqotning maqsadi ichki migratsiyaning yirik shaharlar mehnat bozoriga ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda Toshkent va Istanbul tajribasi asosida samarali siyosiy-iqtisodiy choralarni taklif etishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni guruhlash, dinamik qatorlarni tahlil qilish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlash usullaridan foydalanildi. Asosiy ma’lumotlar manbasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Turkiya Statistika instituti (TUIK)ning rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi [1–5]. Istanbul tajribasi yanada katta ko‘lamdagi migratsiya harakatini namoyon etadi. TUIK ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Turkiyada viloyatlararo ko‘chib o‘tganlar soni 2 475 019 kishini tashkil etgan. Istanbul 329 912 kishi bilan mamlakatda eng ko‘p ichki migrant qabul qilgan hudud bo‘lgan. Shu bilan birga, Istanbuldan boshqa viloyatlarga ko‘chib ketganlar soni 371 258 kishiga yetib, shahar mamlakatdagi eng katta ichki migratsiya chiqimiga ham ega bo‘lgan [6]. Natijada Istanbulda qayd etilgan kirish va chiqish oqimlari orasidagi farq taxminan -41,3 ming kishini tashkil etgan.

1-rasmdan ko‘rinadiki, Toshkentdan ko‘chib ketganlar soni 170185 kishi, ko‘chib kelganlar esa22 026 kishini tashkil etgan. Natijada, migratsiya saldosi +40841 kishi bo‘lgan. Istanbulda esa 2025-yilda 3290912 kishi shaharga ko‘chib

kelgan, 3710258 kishi esa ko‘chib ketgan. Shuning uchun, migartsiya saldosi -410346kishini tashkil etgan.

1-jadval

Toshkent va Istabul shaharlarida ichki migratsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Toshkent	Istanbul
Ichki migratsiya bo‘yicha davr	2024-yil, yanvar–mart	2025-yil
Ko‘chib kelganlar	22 026 kishi	329 912 kishi
Ko‘chib ketganlar	17 185 kishi	371 258 kishi
Migratsiya saldosi	+4 841 kishi	−41 346 kishi
Migratsiyaning asosiy xususiyati	Aholi oqimi ijobiy	Chiqib ketish oqimi yuqori
Mehnat bozoriga ehtimoliy ta’sir	Mehnat taklifi oshadi	Mehnat resurslari qayta taqsimlanadi

Manba: *1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statiska qo‘mitasi[1]. 2. TUIK- Intenational Migration Statistics[6].*

Toshkent mehnat bozorining tarkibi ham shaharning migrantlarni jalb qiluvchi iqtisodiy markaz sifatidagi rolini ko‘rsatadi. 2025-yilda shaharda band aholining ulushi eng katta bo‘lgan faoliyat tarmoqlari qatoriga ulgurji va chakana savdo (241,6 ming kishi), ishlab chiqarish sanoati (188,9 ming), qurilish (161,2 ming), ta’lim (139,4 ming), davlat boshqaruvi va mudofaa (118,6 ming), tashish va saqlash (103,1 ming) kirgan [5]. Ushbu tarmoqlarning ko‘pchiligi turli malaka darajasidagi ishchi kuchiga ehtiyoj sezishi sababli ichki migrantlar uchun kirish imkoniyatini yaratadi.

Mehnat bozori nuqtayi nazaridan Istanbul tajribasining yana bir muhim jihati — iqtisodiy markazning katta hajmdagi ishchi kuchini qabul qilish qobiliyatidir. TÜİKning 2025-yilgi mehnat kuchi statistikalariga ko‘ra, Turkiya bo‘yicha bandlik darajasi 49,0 foiz, ishsizlik darajasi 8,3 foizni tashkil etgan [7]. Ushbu milliy ko‘rsatkichlar Istanbulning alohida ko‘rsatkichlari emas, ammo ular ichki migrantlar keladigan mehnat bozori sharoitini umumiy makroiqtisodiy kontekstda baholash imkonini beradi.

Toshkent va Istanbul o‘rtasidagi asosiy o‘xshashlik shundan iboratki, ikkala shahar ham iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada jamlangan markazi bo‘lib, mehnat resurslari uchun tortish kuchiga ega. Migratsiya natijasida savdo, qurilish, transport, xizmatlar va boshqa sohalarda mehnat taklifi kengayadi. Bu esa korxonalar faoliyatini kengaytirish, xizmatlar hajmini oshirish va iste’mol bozorini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Farqli jihat esa migratsiya ko‘lami va shaharlarning demografik hajmidadir. Istanbul aholisi Toshkentnikidan bir necha baravar katta bo‘lib, shuning uchun uning ichki migratsiya oqimlari ham mutlaq sonlarda ancha yirik. Biroq har ikkala shahar misolida ham kirish va chiqish migratsiyasining bir vaqtning o‘zida yuqori bo‘lishi shuni anglatadiki, shahar siyosati faqat yangi keluvchilarni joylashtirishga

emas, balki aholining mehnat bozorida uzoq muddatli barqaror qolishi uchun sharoit yaratishga qaratilishi kerak.

Ichki migratsiyaning salbiy ta’siri, avvalo, mehnat bozorida malaka nomuvofiqligi yuzaga kelganda kuchayadi. Masalan, migrantlarning katta qismi past malakali ishlarga yo‘nalsa, yuqori malakali bo‘sh ish o‘rinlari to‘ldirilmay qolishi mumkin. Aksincha, kasbiy tayyorgarlik tizimi mehnat bozoridagi talab bilan uyg‘unlashtirilsa, migratsiya iqtisodiyot uchun qo‘shimcha inson kapitaliga aylanadi. Shu sababli migrantlarni “muammo” sifatida emas, balki to‘g‘ri boshqarilganda iqtisodiy resurs sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, Toshkentda mehnat bozorining real talabiga mos qisqa muddatli kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa, qurilish, logistika, savdo, raqamli xizmatlar, umumiy ovqatlanish va texnik mutaxassisliklar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan dasturlar migrantlarning rasmiy bandlikka kirishini tezlashtirishi mumkin.

Ikkinchidan, yirik shaharlarda ish o‘rinlarining hududiy konsentratsiyasini kamaytirish uchun boshqa viloyat va shaharlarda yangi ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish markazlarini rivojlantirish lozim. Bu migratsiyani taqiqlash yoki cheklashdan ko‘ra samaraliroq yondashuv bo‘lib, odamlarning ish izlab majburiy ravishda faqat poytaxtga intilishini kamaytiradi.

Uchinchidan, ichki migrantlarning rasmiy mehnat shartnomasi asosida ishlashini rag‘batlantirish, ularning mehnat huquqlarini tushuntirish va ish beruvchilar tomonidan qonuniy bandlik talablariga rioya etilishini kuchaytirish kerak. Rasmiy bandlik migrantlarning daromad barqarorligi, ijtimoiy himoyasi va davlatning mehnat bozorini aniq rejalashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

To‘rtinchidan, migratsiya siyosati transport, uy-joy va ijtimoiy infratuzilma siyosati bilan birgalikda olib borilishi kerak. Chunki migrantning shaharga kelishi faqat ish o‘rniga bo‘lgan talabni emas, balki uy-joy, transport, ta’lim, tibbiyot va boshqa xizmatlarga bo‘lgan talabni ham oshiradi.

Beshinchidan, Toshkent va Istanbul kabi yirik shaharlarda migratsiya oqimlarini muntazam monitoring qilish, migrantlarning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi, kasbi va bandlik shakli bo‘yicha ma’lumotlarni chuqurroq yig‘ish zarur. Bunday ma’lumotlar asosida mehnat bozori prognozlarini ishlab chiqish va ishchi kuchiga bo‘lgan talabni oldindan aniqlash mumki

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki migratsiya yirik shaharlar mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, migratsiya iqtisodiy faol hududlarga mehnat resurslarini yetkazib, savdo, qurilish, transport, xizmatlar va boshqa tarmoqlarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ikkinchi tomondan, ish o‘rinlari yaratish sur’ati migratsiya oqimlariga mos kelmasa, mehnat bozoridagi raqobat, norasmiy bandlik, uy-joy va infratuzilma bosimi kuchayadi.

Toshkent va Istanbul tajribasi shuni ko‘rsatadiki, migratsiyani boshqarishning samarali yo‘li uni faqat cheklash emas, balki migrantlarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtirishdir. Buning uchun kasbiy tayyorlash, rasmiy bandlikni kengaytirish, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish va yirik shaharlarda infratuzilmani rivojlantirish bir-birini to‘ldiruvchi siyosat sifatida

olib borilishi lozim. Aynan shunday yondashuv ichki migratsiyani ijtimoiy bosim manbasidan iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar kesimida doimiy aholi soni. 2025-yil 1-iyul holatiga ma’lumotlar. stat.uz.

2. Turkish Statistical Institute (TUIK). Address Based Population Registration System Results – 2025. Istanbul population data. 2026.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Ko‘chib kelganlar soni (jami), 2025-yil ma’lumotlari. siat.stat.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Ko‘chib ketganlar soni (jami), 2025-yil ma’lumotlari. siat.stat.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Toshkent shahri bo‘yicha band aholi sonini iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, 2025. siat.stat.uz.

6. Turkish Statistical Institute (TUIK). Internal Migration Statistics – 2025. 14 July 2026. veriportali.tuik.gov.tr.

7. Turkish Statistical Institute (TUIK). Labour Force Statistics – 2025. 25 March 2026. veriportali.tuik.gov.tr

MEHNAT MIGRATSIYASI VA RAQAMLI KO‘NIKMALAR: O‘ZBEKISTON VA ESTONIYA TAJRIBASI

O‘rolov Nurbek Oybekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

nurbekurolov5@tsue.uz

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat migratsiyasi faqat ishchi kuchining bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chishi bilan cheklanmaydi. Xorijiy vakansiyalarni izlash, ish beruvchi bilan masofadan muloqot qilish, elektron ariza topshirish, raqamli hujjatlardan foydalanish va kasbiy malakani onlayn tasdiqlash kabi jarayonlar ham raqamli ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli raqamli savodxonlik migrantning xorijiy mehnat bozoriga tayyorlanishi, xavfsiz ish topishi va mehnat faoliyatiga moslashishida muhim omilga aylanmoqda. Biroq internetdan foydalanishning o‘zi yuqori darajadagi raqamli ko‘nikmalarga ega ekanlikni anglatmaydi; foydalanuvchi ma’lumotni tekshirish, elektron xizmatlardan xavfsiz foydalanish va ish bilan bog‘liq raqamli vazifalarni bajara olishi ham zarur.

Mazkur tezisning maqsadi O‘zbekiston va Estoniyada raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ularning mehnat migratsiyasiga aloqador imkoniyatlarini qiyosiy ko‘rib chiqishdan iborat. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarining tavsifiy tahlili qo‘llanildi. Mavzu doirasida raqamli ko‘nikmalar migratsiyani bevosita keltirib chiqaradigan omil sifatida emas, balki migrantning axborotga kirishi, ishga murojaat qilishi va mehnat bozoriga moslashish imkoniyatlarini kuchaytirishi mumkin bo‘lgan resurs sifatida talqin qilinadi. O‘zbekiston mehnat bozoridagi ishsizlik, ta’lim tizimi va ish beruvchilar talabi o‘rtasidagi nomuvofiqliklar raqamli tayyorgarlikni bandlik siyosati bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi [5, 6, 9].

O‘zbekistondagi holat. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 10 yosh va undan katta aholining 60,4 foizi kompyuterdan

foydalangan; 2025-yilda bu koʻrsatkich 62,1 foizga yetgan [1]. Shuningdek, 2024-yilning yanvar–sentabr oylarida 10 yosh va undan katta aholining 92,7 foizi internetdan foydalangani qayd etilgan [2]. Bu raqamlar raqamli infratuzilma va internetdan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganini koʻrsatadi, biroq ular aholi mehnat migratsiyasi uchun zarur boʻlgan barcha raqamli kompetensiyalarni egallaganini bevosita oʻlchamaydi.

Oʻzbekistonda raqamli koʻnikmalarni mehnat bozoridagi natijalar bilan bogʻlashga qaratilgan tashabbuslar ham mavjud. Masalan, 2024-yilda IT-ta'lim va IT xizmatlari sohasidagi bandlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha "IT-Talent" dasturi haqida ma'lumot berilgan. Unda bitiruvchilarning ishga joylashish natijalarini kuzatish, oʻquv markazlari faoliyatini bandlik koʻrsatkichlari bilan bogʻlash hamda xalqaro IT sertifikatlari xarajatlarining bir qismini qoplash mexanizmlari yoritilgan [3]. Bunday yondashuv raqamli ta'limni shunchaki kursni tamomlash bilan emas, balki ishga joylashish va amaliy koʻnikmalar bilan baholash zarurligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, kadrlar tanqisligi va ishsizlikning bir vaqtda kuzatilishi malaka tarkibi bilan ish beruvchilar talabi oʻrtasida tafovut boʻlishi mumkinligini anglatadi; raqamli tayyorgarlikni aniq kasbiy ehtiyojlar bilan uygʻunlashtirish lozim [9].

Mehnat migratsiyasi nuqtayi nazaridan raqamli koʻnikmalar bir necha amaliy vazifani bajaradi: birinchidan, migrantga rasmiy vakansiyalarni topish va ish beruvchini tekshirishga; ikkinchidan, rezyume tayyorlash, onlayn suhbatlarda qatnashish va elektron hujjatlarni yuborishga; uchinchidan, xorijda ishlash davrida bank, davlat va aloqa xizmatlaridan foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli koʻnikmalarning pastligi soxta vakansiyalarni ajratish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va mehnat shartlarini tekshirishda qoʻshimcha risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun migrantlarni til va kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda, raqamli koʻnikmalar, balki kundalik amaliy raqamli kompetensiyalar boʻyicha ham tayyorlash maqsadga muvofiq. Migratsiya koʻlami va yoʻnalishlarini kengaytirish masalalari ham mehnat bozoridagi talab, kasbiy tayyorgarlik va ish izlovchilarning imkoniyatlari bilan bogʻliq [7]. Migrantlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi faqat ish topish bilan tugamaydi: ijtimoiy aloqalar va jamiyatga qoʻshilish masalalari ham muhim boʻlib, raqamli muloqot va axborotdan foydalanish bu jarayonni qoʻllab-quvvatlashi mumkin [8].

Estoniya tajribasi. Estoniya raqamli davlat xizmatlari va aholining raqamli koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha Yevropa Ittifoqining ilgʻor mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Yevropa Komissiyasining 2024-yilgi Digital Decade hisobotida 2023-yilda Estoniya aholisining 62,6 foizi kamida bazaviy raqamli koʻnikmalarga ega boʻlgani, AKT mutaxassislari esa band aholining 6,7 foizini tashkil etgani qayd etilgan [4]. Estoniya 2030-yilgacha raqamli koʻnikmalarni rivojlantirishni, uzluksiz ta'limni kengaytirishni va mehnat bozori ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni shakllantirishni strategik ustuvor yoʻnalish sifatida belgilagan [4].

Estoniya tajribasining Oʻzbekiston uchun ahamiyati shundaki, raqamli rivojlanish alohida IT mutaxassislarini tayyorlash bilan cheklanmasligi kerak.

Aholining keng qatlamlari elektron davlat xizmatlaridan foydalanish, ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, raqamli identifikatsiya va kiberxavfsizlik asoslarini bilishi zarur. Shu bilan birga, Estoniyada ham raqamli ko‘nikmalar yosh, ta’lim darajasi va hududlar bo‘yicha farqlanishi qayd etilgan; demak, rivojlangan raqamli tizimning o‘zi barcha guruhlar uchun teng natijani kafolatlamaydi [4]. Bu holat migrantlar orasida ham maqsadli va ehtiyojga mos ta’lim zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston va Estoniya bo‘yicha mavjud ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirishda ehtiyotkorlik zarur. O‘zbekiston uchun keltirilgan 60,4 foiz ko‘rsatkich kompyuterdan foydalanishni, Estoniya uchun 62,6 foiz esa kamida bazaviy raqamli ko‘nikmalarga egalikni anglatadi. Ularning ta’riflari va o‘lchash metodlari farq qiladi; shu sababli jadvaldagi raqamlar mamlakatlarning reytingi sifatida emas, raqamli rivojlanishni tavsiflovchi alohida indikatorlar sifatida keltiriladi.

1-jadval.

O‘zbekiston va Estoniyada raqamli ko‘nikmalar hamda mehnat migratsiyasi uchun ahamiyatli yo‘nalishlar

Taqqoslash mezoni	O‘zbekiston	Estoniya
Raqamli ko‘nikmalar/foydalanish indikatori	2024-yilda 10+ yoshdagi aholining 60,4 foizi, 2025-yilda esa 62,1 foizi kompyuterdan foydalangan [1].	2023-yilda aholining 62,6 foizi kamida bazaviy raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan [4].
Raqamli rivojlanishning yo‘nalishi	Internet va kompyuterdan foydalanish kengaymoqda; IT-ta’limni ishga joylashish bilan bog‘lash tashabbuslari mavjud [2, 3].	Raqamli davlat xizmatlari, bazaviy ko‘nikmalar va uzluksiz ta’lim strategik ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi [4].
Migrantlar uchun amaliy ahamiyati	Vakansiya qidirish, onlayn ariza, elektron hujjatlar va ish beruvchini tekshirish; malakani ish bozori talabiga moslashtirish [5, 6, 9].	Raqamli xizmatlardan foydalanish, uzluksiz o‘qitish va migrantlarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash [4, 8].
Moslashtirish uchun taklif	Migratsiyaga tayyorlash kurslariga raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik va onlayn ish qidirishni kiritish.	Ko‘nikmalarni mehnat bozori ehtiyojlari va kattalar ta’limi bilan bog‘lash tajribasini o‘rganish.

Manba: *muallif tomonidan O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi va Yevropa Komissiyasi ma’lumotlari asosida tuzildi.*

Takliflar. Birinchidan, tashqi mehnat migratsiyasiga tayyorlash kurslariga amaliy raqamli savodxonlik modulini kiritish lozim. Modulda rasmiy vakansiyalarni qidirish, rezyume va elektron ariza tayyorlash, videointervyuda qatnashish, elektron hujjatlarni saqlash hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalari o‘rgatilishi mumkin.

Ikkinchidan, raqamli ko‘nikmalarni til va kasbiy tayyorgarlik bilan birlashtirish zarur. Masalan, xorijiy mehnat bozoriga yo‘naltirilgan qisqa kurslarda kasbga oid terminologiya, ish beruvchi bilan raqamli muloqot va ish joyidagi xavfsizlik bo‘yicha materiallar birgalikda berilishi mumkin.

Uchinchidan, o‘quv dasturlarining samaradorligini faqat qatnashchilar soni yoki sertifikatlar bilan emas, balki amaliy natijalar bilan baholash kerak. Bunda kursdan keyin rasmiy vakansiyaga murojaat qilganlar, suhbatdan o‘tganlar, ishga joylashganlar va olti oy davomida ishda qolganlar ulushi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, Estoniya tajribasidan kelib chiqib, bepul onlayn ta’lim resurslari va qisqa modulli kurslarni rivojlantirish, ularni hududlarda yashovchi, kasbiy qayta tayyorlanayotgan yoki raqamli xizmatlardan foydalanishda qiynalayotgan fuqarolar uchun qulay qilish maqsadga muvofiq. Bunda xorijiy tajriba O‘zbekistonning huquqiy, til va mehnat bozori sharoitlariga moslashtirilishi lozim.

Xulosa. Raqamli ko‘nikmalar mehnat migrantlarining xorijiy vakansiyalar haqidagi axborotga kirishi, ishga murojaat qilishi, elektron xizmatlardan foydalanishi va mehnat bozoriga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. O‘zbekistonda internet va kompyuterdan foydalanish ko‘rsatkichlari o‘sib borayotgani raqamli tayyorgarlikni migratsiya siyosati bilan bog‘lash uchun asos yaratadi. Estoniya tajribasi esa raqamli ko‘nikmalarni uzluksiz ta’lim, davlat xizmatlari va mehnat bozori ehtiyojlari bilan birgalikda rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun amaliy yo‘nalish — migrantlarni xorijga ketishdan oldin raqamli ish qidirish, onlayn hujjatlashtirish va kiberxavfsizlik bo‘yicha tayyorlash hamda bunday tayyorgarlik natijalarini bandlik ko‘rsatkichlari orqali baholashdir. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda qayd etilgan ishsizlik, ta’lim va mehnat bozori nomuvofiqligi, migratsiya yo‘nalishlari, ijtimoiy moslashuv hamda kadrlar tanqisligi masalalari raqamli ko‘nikmalarni alohida kurs sifatida emas, bandlik va migratsiyaga tayyorlash tizimining bir qismi sifatida rivojlantirish zarurligini kuchaytiradi [5–9].

Adabiyotlar:

1. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026). More than 62% of the population in Uzbekistan uses a computer. 9 September 2026. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/70147-zbekistonda-a-olining-62-foizdan-orti-i-komp-yuterdan-fojdalanadi-4

2. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2024). The proportion of population aged 10 years and older using the Internet has increased. 30 October 2024. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/57845-o-zbekiston-respublikasida-internetdan-foydalanuvchi-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagi-aholi-ulushi-3

3. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024). Government support and opportunities in IT education. https://gov.uz/en/digital/news/view/26018

4. European Commission. (2024). Estonia 2024 Digital Decade Country Report. https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/factpages/estonia-2024-digital-decade-country-report

5. Iminova, N., & Mo‘ydinov, M. M. (2026). Existing Problems of Unemployment, the Education System, and the Labor Market in Uzbekistan and Their Solutions. Journal of Pedagogical and Philological Research, 1(5), 193–215.

6. Shermatov, S. (2026). Globallashuv sharoitida mehnat iqtisodiyoti va mehnat bozori: O‘zbekiston tajribasining tizimli tahlili (2020–2025). Moliya va bank ishi, 12(3), 134–140.

7. Kuldashevich, T. A., & O‘G‘Li, D. I. B. (2026). Mehnat migratsiyasining ko‘lami va yo‘nalishlarini kengaytirish. Journal of Marketing, Business and Management, 4(7), 320–326.

ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И ДОХОДЫ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И КЫРГЫЗСТАНА

Маматкулова Эъзоза
ташкентский государственный экономический университет

В условиях глобализации международное движение трудовых ресурсов стало неотъемлемой частью мировой экономики. В Центральной Азии, особенно в сельской местности, трудовая миграция остаётся одним из основных источников формирования доходов домохозяйств. По данным Всемирного банка, в 2024 году доля денежных переводов в ВВП составила 45 % в Таджикистане, 24 % в Кыргызстане и 14 % в Узбекистане [1]. Цель настоящих тезисов – на основе сравнения опыта Узбекистана и Кыргызстана оценить взаимосвязь между трудовой миграцией и доходами сельского населения и выработать практические предложения. Тема согласуется с направлениями повышения занятости и доходов населения, определёнными в Стратегии «Узбекистан – 2030» [2]. Влияние трудовой миграции на доходы населения исследовалось и в местной научной литературе [3], а роль миграции в экономической, социальной и политической жизни общества рассмотрена отдельно [4].

С экономической точки зрения миграцию объясняют модель ожидаемых доходов М. Тодаро [5] и теория «новой экономики трудовой миграции» О. Старка и Д. Блума [6]. Первый подход связывает миграцию с разницей ожидаемых доходов в местах выезда и прибытия, второй трактует её как стратегию диверсификации источников дохода домохозяйства и снижения рисков.




Рис. 1. Объём денежных переводов, млрд долл. США
Источник: *Составлено автором на основе [7], [8].*

Денежные переводы в Узбекистан, по данным Центрального банка, составили в 2023 году 11,4 млрд долл. США, а в 2024 году выросли на 29,8 % и достигли 14,8 млрд долл.; 77 % из них приходится на Россию [7]. В Кыргызстан в 2024 году поступило 2,99 млрд долл. переводов, что на

283,4 млн долл. больше, чем в 2023 году; более 93 % переводов пришло из России [8] (рис. 1).

При сопоставлении двух стран заметно важное различие: по абсолютному объёму Узбекистан примерно в 5 раз опережает Кыргызстан (14,8 и 2,99 млрд долл.), однако зависимость экономики от переводов выше в Кыргызстане (24 % и 14 % ВВП) [1] (табл. 1). Доля переводов в среднедушевом доходе кыргызстанских домохозяйств выросла с 12,22 % в 2020 году до 16,59 % в первом полугодии 2024 года [8].

Табл. 1.

Основные показатели денежных переводов в Узбекистане и Кыргызстане

Показатель	Узбекистан	Кыргызстан
Доля денежных переводов в ВВП, 2024, %	14	24
Объём денежных переводов, 2024, млрд долл. США	14,8	2,99
Доля России, 2024, %	77	более 93
Уровень бедности: без переводов → с переводами, %	16,8 → 9,6 (по стране)	более 50 → менее 10 (мигрантские домохозяйства)

Источник: *Составлено автором на основе [1], [7], [8].*

Для сельских домохозяйств миграция – инструмент диверсификации доходов. По результатам панельного исследования в сельских районах Кыргызстана международная миграция отрицательно повлияла на доходы от растениеводства и положительно – на доходы от животноводства, а влияние на неаграрные доходы было неоднозначным [9]. По оценкам Всемирного банка, без переводов бедность в Узбекистане составила бы 16,8 %, а не 9,6 %; в Кыргызстане среди мигрантских домохозяйств бедность сейчас ниже 10 %, а без переводов превысила бы 50 % [1].

Привлекательность миграции объясняется разницей в доходах: работа за рубежом позволяет мигрантам увеличить свой доход в два-три раза [1]. Вместе с тем объём переводов существенно меняется из года в год: в Узбекистане с 11,4 млрд долл. в 2023 году до 14,8 млрд долл. в 2024 году, то есть на 29,8 % [7]. Это показывает, что доходы домохозяйств чувствительны к внешним факторам.

Структура доходов в Кыргызстане наглядно показывает степень зависимости от миграции. В первом полугодии 2024 года среднедушевой доход домохозяйств составил 11 095,41 сома (KGS), из которых 41,18 % приходилось на заработную плату, а 16,59 % – на доходы от работы за рубежом (переводы). Эта доля выше долей доходов от индивидуальной трудовой деятельности и социальных трансфертов, таких как пенсии [8]. Таким образом, переводы стали вторым по величине источником дохода кыргызстанских домохозяйств.

География миграции из Узбекистана относительно разнообразна: по данным Всемирного банка, 57 % мигрантов работают в России, 15 % – в Казахстане, тогда как из Кыргызстана более 80 % уезжают в Россию [1]. В 2024 году переводы в Узбекистан, помимо России, поступали из Казахстана, США, Южной Кореи, Турции и Великобритании (табл. 2). Совокупный объём переводов из этих пяти стран составляет около 2,45 млрд долл. (≈16,5 %), а зависимость от России по-прежнему остаётся высокой [10]. Центральный банк прогнозирует, что к 2027 году переводы вырастут до 20 млрд долл., а доля стран с высокими доходами расширится [7].

Табл. 2.

Источники денежных переводов в Узбекистан в 2024 году

Страна-источник	Объём, млн долл. США	Доля, %
Россия	11 500	77
Казахстан	795	5,4
США	577	3,9
Южная Корея	534	3,6
Турция	405	2,7
Великобритания	135	0,9

Источник: *расчёты автора на основе [10] (доли рассчитаны от 14,8 млрд долл.).*

Главный риск – чрезмерная зависимость направлений миграции от одной страны, России: её доля составляет 77 % в переводах в Узбекистан и более 93 % в Кыргызстан [7], [8]. Поэтому изменения на этом рынке могут повлиять на доходы сельских домохозяйств обеих стран.

Анализ показывает, что трудовая миграция является важным фактором роста доходов домохозяйств и снижения бедности в обеих странах. Для снижения рисков целесообразно: 1) диверсифицировать направления миграции, заранее обучать мигрантов иностранному языку и профессиональным навыкам; 2) направлять переводы через официальные банковские каналы и повышать финансовую грамотность; 3) создать в сельской местности механизмы, направляющие переводы в микрокредиты, малый бизнес и агротехнологии; 4) расширять программы реинтеграции вернувшихся мигрантов.

Литературы:

1. Without remittances from migrants, poverty in Uzbekistan would be 16.8%, not 9.6% (по материалам отчёта Всемирного банка) // Gazeta.uz, 14.03.2025. – https://www.gazeta.uz/en/2025/03/14/migrants/

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 г. № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»».

3. Muhriddin Q., Mohinur O. Mehnat migratsiyalari va uning aholi daromadlariga ta'siri (на узб. яз.) // Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. – 2026. – Т. 4. – № 48. – С. 382–386.

4. Mirzarayimova M. Migratsiyaning jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'rni (на узб. яз.) // Elita.uz – Электронный научный журнал. – 2024. – Т. 2. – № 1. – С. 48–51.

5. Todaro M.P. A Model of Labor Migration and Urban Unemployment in Less Developed Countries // American Economic Review. – 1969. – Vol. 59, No. 1. – P. 138–148.

6. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 2. – P. 173–178.

7. Remittances to Uzbekistan reach nearly $15 billion in 2024 (по данным Центрального банка Узбекистана) // Gazeta.uz, 24.01.2025. – https://www.gazeta.uz/en/2025/01/24/remittances/

8. Households in Kyrgyzstan are becoming increasingly dependent on remittances // Akchabar. – https://www.akchabar.kg/en/news/v-kirgizstane-rastet-zavisimost-domokhozyajstv-ot-denezhnikh-perevodov-ttkbtpgdiqojzejn

9. Rural Migration in Kyrgyzstan: Drivers, Impact and Governance // University of Central Asia, MSRI Research Paper No. 7. – https://ucentralasia.org/media/pdcnvzpm/uca-msri-researchpaper-7eng.pdf

10. Uzbekistan Receives $14.8 Billion in Remittances in 2024 // The Times of Central Asia. – https://timesca.com/uzbekistan-receives-14-8-billion-in-remittances-in-2024/

O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI

Fayzullajon Ne’matov Shukurullo o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
fayzullo2007nematov@gmail.com
Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li Xamdamov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
sh.xamdamov@tsue.uz

Globallashuv tufayli xorijda ishlash va mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodida tabiiy bir jarayonga aylandi, bu esa yoshlari ko‘p, lekin ish o‘rni kam bo‘lgan davlatlar uchun daromad topishning eng maqbul yo‘lidir. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib dunyodagi xalqaro migrantlar soni taxminan 281 million kishiga yetgan [1]. O‘zbekiston ham mazkur jarayonning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib, fuqarolarimizning xorijda mehnat qilishi oilaviy byudjetlarning shakllanishiga, hatto ayrim hududlarda ichki iste’mol hajmiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli tashqi mehnat migratsiyasining aholi daromadlariga ta’sirini o‘rganish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan daromadlarni oshirish va kambag‘allikni qisqartirish vazifalari nuqtayi nazaridan alohida ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega [2].

Migratsiyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy adabiyotlarda bir necha yondashuv asosida talqin qilinadi. E. Li odamlarning ko‘chib ketishini chiqish joyidagi itaruvchi va yetib boriladigan joydagi tortuvchi omillarning o‘zaro nisbati bilan izohlagan bo‘lsa [3], M. Todaro qaror qabul qilishda joriy ish haqidan ko‘ra kutilayotgan daromadning hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslab bergan [4]. O. Stark va D. Blum esa migratsiyani yakka shaxsning emas, balki butun oilaning daromadlarini diversifikatsiya qilish hamda bozor cheklovlaridan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirishga qaratilgan qarori sifatida ko‘rib chiqadi [5]. Bu qarashlar O‘zbekiston sharoitida o‘rinli, zero ko‘plab oilalarda bir yoki ikki a’zo xorijga ishlashga ketadi, qolganlari esa shu hisobdan yashashni rejalashtiradi.

Ichki mehnat bozoridagi holat ham tashqi migratsiyaga bo‘lgan ehtiyojni ma’lum darajada kuchaytiradi. Markaziy bankning mehnat bozori sharhida

keltirilishicha, 2025-yilning aprel-iyun oylarida O‘zbekistonda haqiqiy ish haqi 7,3 foizga o‘sgan, bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo davlatlarida o‘rtacha 9,8 foizni tashkil etgan [6]. Ya’ni mamlakat ichidagi ish haqining o‘sish sur’ati qo‘shni davlatlardan ortda qolayotgan bir paytda, xorijdagi ish haqi ko‘pchilik uchun balandroq ko‘rinishi tabiiy.

O‘zbekistonga xorijdan pul o‘tkazmalarining hajmi so‘nggi yillarda keskin ortdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda xorijdan kelgan o‘tkazmalar 18,9 mlrd dollarga yetgan va besh yil davomida taxminan uch baravar ko‘paygan [7]. Faqat 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 8,2 mlrd dollar o‘tkazma qayd etilib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27 foiz yuqori bo‘lgan [8]. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2024-yilda pul o‘tkazmalari mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 14 foiziga teng bo‘lgan [9]. Mazkur va boshqa muhim ko‘rsatkichlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Tashqi mehnat migratsiyasi va aholi daromadlariga oid asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Qiymati	Manba
Pul o‘tkazmalari hajmi, 2025-yil	18,9 mlrd dollar	[7]
Pul o‘tkazmalari, 2025-yil yanvar-iyun	8,2 mlrd dollar (+27 %)	[8]
Rossiyaning ulushi, 2025-yil yanvar-iyun	78 %	[11]
Kartalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (P2P) o‘tkazmalar ulushi, 2025-yil	46 %	[12]
Pul o‘tkazmalarining YaIMdagi ulushi, 2024-yil	taxminan 14 %	[9]
Kambag‘allik darajasi (amaldagi)	9,6 %	[9]
Kambag‘allik darajasi pul o‘tkazmalarisiz (hisob-kitob)	16,8 %	[9]
Malakasiz migrantlar ulushi	95 % dan ortiq	[9]

Manbaa: *[7], [8], [9], [11], [12] ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.*

Daromadlarga ta’sirni kambag‘allik ko‘rsatkichida yaqqol ko‘rish mumkin. Jahon bankining baholashicha, agar xorijdan pul kelmaganida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 9,6 foizdan 16,8 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lar edi [9]. Boshqacha aytganda, migrantlar yuborayotgan mablag‘ kambag‘allik darajasini 7 foiz bandga yaqin pasaytirib turibdi. Shuningdek, bunday tushumlar oilalarda oziq-ovqat, sog‘liqni saqlash va ta’lim xarajatlarini qoplashda asosiy manbalardan biriga aylangani xalqaro tajribada ham qayd etiladi [10].

Shu bilan birga, daromadning bu manbasi o‘ziga xos zaif tomonlarga ega. Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston migrantlarining 95 foizdan ko‘prog‘i malakasiz ishchilar bo‘lib, ularning taxminan 90 foizini erkaklar tashkil etadi [9]. Malakasiz mehnat odatda past haq to‘lanadigan va huquqiy jihatdan himoyasiz sohalarda uchraydi, shu sababli migrantning kasbiy ko‘nikmalari xorijda ishlagan yillar davomida deyarli o‘smaydi, oila esa yillab bir-biridan ajralib yashashga

majbur bo‘ladi. Natijada daromad oshsa-da, uning sifati va barqarorligi muammo bo‘lib qolaveradi.

Daromad manbalarining geografiyasi ham diqqatga sazovor. 2025-yilning birinchi yarmida o‘tkazmalarning 78 foizi, ya’ni 6,4 mlrd dollari Rossiyadan kelgan [11], bu esa oilalar daromadi bitta davlatning iqtisodiy va siyosiy holatiga yuqori darajada bog‘liq ekanini anglatadi. Rubl kursining pasayishi, ish bilan ta’minlash qoidalarining qattiqlashishi yoki iqtisodiy sekinlashuv minglab xonadonlarning daromadini birdaniga kamaytirishi mumkin. Biroq so‘nggi yillarda boshqa yo‘nalishlar ham faollashmoqda. 2025-yilda Yevropa Ittifoqidan 563 mln dollar (37 foiz o‘sish), Buyuk Britaniyadan 188 mln dollar (39 foiz o‘sish), AQShdan 665 mln dollar va Janubiy Koreyadan 612 mln dollar (ikkalasida 15 foiz o‘sish) o‘tkazma kelgan, Qozog‘istondan kelgan mablag‘ 795 mln dollardan 903 mln dollarga, Turkiyadan esa 406 mln dollardan 547 mln dollarga ko‘paygan [7].

Ayniqsa Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyadan kelayotgan o‘tkazmalar eng yuqori sur’atda o‘smoqda, garchi ularning mutlaq hajmi hali Rossiyaga nisbatan ancha kichik bo‘lsa-da. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga tayanib Markaziy bank ham rivojlangan davlatlarda ish haqi yuqori ekanini ko‘rsatadi [12], shu bois migratsiya yo‘nalishlarining kengayishi kelgusida oilalar daromadini ham oshirishi, ham uni xavfsizroq qilishi mumkin.

Pul qaysi kanallar orqali kelayotgani ham daromadning samaradorligiga ta’sir qiladi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda jismoniy shaxslarga kelgan mablag‘ning 52 foizi (9,9 mlrd dollar) an’anaviy xalqaro pul o‘tkazish tizimlari orqali, 46 foizi (8,6 mlrd dollar) esa chet eldan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank kartalariga (P2P) kelgan, bank o‘tkazmalarining ulushi atigi 2 foizni tashkil etgan [12]. Raqamli xizmatlarning bunday keng qo‘llanilishi migrantlarning moliyaviy tizimga qo‘shilishi uchun qulay zamin yaratadi. Biroq rasmiy statistikada bu mablag‘larning qanchasi jamg‘armaga yoki kichik biznesga yo‘naltirilgani aks etmaydi, holbuki aynan shu yo‘l bilan bir martalik tushum doimiy daromad manbaiga aylanishi mumkin.

Xorijdan keluvchi mablag‘ning yana bir nozik jihati bor. Oila uchun xorijdagi yaqin kishining puli yetarli bo‘lsa, ichki mehnat bozorida ish qidirish yoki o‘z biznesini boshlashga bo‘lgan intilish ayrim hollarda susayishi mumkin. Bu esa mahalliy iqtisodiyotdagi ish o‘rinlari tanqisligini hal etmaydi, faqat vaqtincha yumshatadi. Shu bois migratsiya siyosati ichki bandlik va ish haqi siyosatidan alohida emas, ular bilan uyg‘un holda yuritilishi lozim.

Tahlil natijalariga tayanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Avvalo, ichki mehnat bozorida munosib ish haqi to‘lanadigan ish o‘rinlarini ko‘paytirish zarur, shunda migratsiya majburiyat emas, ongli tanlov bo‘lib qoladi. Shu bilan bir qatorda, mehnat migrantlarini jo‘nab ketishdan oldin kasbiy va til tayyorgarligidan o‘tkazish ularning xorijdagi daromadini oshiradi, yangi yo‘nalishlar bo‘yicha ikki tomonlama mehnat kelishuvlarini kengaytirish esa bitta davlatga bog‘liqlikni kamaytiradi.

Pul o‘tkazmalarini daromad keltiradigan aktivga aylantirish uchun migrantlar va ularning oilalariga mo‘ljallangan moliyaviy savodxonlik dasturlari, arzon va tezkor o‘tkazma xizmatlari hamda jamg‘arma va mikrokredit

mahsulotlarini rivojlantirish kerak. Qaytib kelgan migrantlarga esa xorijda orttirilgan tajribani tan olish va imtiyozli kreditlar hamda maslahat xizmatlari orqali o‘z ishini boshlashga ko‘maklashish ularning daromadini barqaror asosga o‘tkazadi. Takliflar samarasini baholash uchun migrant oilalardagi kambag‘allik darajasi, eng yirik qabul qiluvchi davlatning ulushi, rasmiy moliya kanallari orqali kelgan mablag‘ ulushi va qaytganlarning bandligi kabi ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatib borish foydali bo‘ladi.

Demak, tashqi mehnat migratsiyasi O‘zbekiston aholisi daromadlarining muhim manbai va kambag‘allikni kamaytiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda, biroq bu daromadning barqarorligi migrantlar malakasi, yo‘nalishlar xilma-xilligi va mablag‘lardan samarali foydalanish imkoniyatiga bevosita bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. – Geneva: IOM, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

3. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – pp. 47–57.

4. Todaro M.P. A Model of Labor Migration and Urban Unemployment in Less Developed Countries // American Economic Review. – 1969. – Vol. 59, No. 1. – pp. 138–148.

5. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 2. – pp. 173–178.

6. Remittances to Uzbekistan grow 21% in April–June, reaching $4.8 billion // Kun.uz, 2025-yil 27-avgust. https://kun.uz/en/news/2025/08/27/remittances-to-uzbekistan-grow-21-in-april-june-reaching-48-billion

7. Remittances to Uzbekistan exceed $18.9 billion, tripling in five years // Kun.uz, 2026-yil 17-mart. https://kun.uz/en/news/2026/03/17/remittances-to-uzbekistan-exceed-189-billion-tripling-in-five-years

8. Remittances to Uzbekistan grow 27% amid strong labor demand abroad // Kun.uz, 2025-yil 17-iyul. https://kun.uz/en/news/2025/07/17/remittances-to-uzbekistan-grow-27-amid-strong-labor-demand-abroad

9. Without remittances, Uzbekistan’s poverty rate could nearly double – World Bank // Kun.uz, 2025-yil 7-mart. https://m.kun.uz/en/news/2025/03/07/without-remittances-uzbekistans-poverty-rate-could-nearly-double-world-bank

GLOBALASHUV SHAROITIDA MEHNAT MIGRATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH: INSON KAPITALI, PUL O‘TKAZMALARI VA QAYTISH MIGRATSIYASINING ROLI

Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
javohirqobilov928@gmail.com

Globalashuv jarayonining chuqurlashuvi mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital, texnologiyalar va ishchi kuchining harakatini jadallashtirmoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib, mehnat resurslari mavjudligi bilan ularning hududiy taqsimoti o‘rtasidagi nomutanosiblikni yumshatuvchi

mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon miqyosida xalqaro migrantlar soni bo‘yicha BMTning 2024-yilgi ma’lumotlar bazasi 233 ta mamlakat va hududni qamrab oladi hamda 1990–2024-yillar oralig‘idagi migratsiya dinamikasini aks ettiradi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan migratsiyaning asosiy drayverlari qatoriga mamlakatlar o‘rtasidagi ish haqi va bandlik imkoniyatlari tafovuti, demografik bosim, malakaga bo‘lgan talabning o‘zgarishi, iqtisodiy xavfsizlik va yaxshi turmush sharoitlariga intilish kiradi. Shu sababli mehnat migratsiyasini faqat “ish izlab chetga chiqish” hodisasi sifatida baholash yetarli emas. U mehnat bozori, inson kapitali, oilaviy moliya, valyuta oqimlari, kasbiy malaka va tadbirkorlik faoliyatining o‘zaro bog‘langan tizimidir. O‘zbekiston uchun mazkur masalaning dolzarbligi mamlakatda aholining, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshlarning ulushi yuqoriligi, ichki mehnat bozorida yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan talab va tashqi mehnat bozorlaridagi imkoniyatlarning kengayishi bilan belgilanadi. 2025-yilda O‘zbekistonga xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 28 foizga yoki 4,1 mlrd dollarga oshgan. Mazkur ko‘rsatkich mehnat migratsiyasi mamlakat iqtisodiyotining tashqi moliyaviy aloqalarida sezilarli o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta’sirini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin: mehnat resurslarining harakati, pul o‘tkazmalari va inson kapitalining transferi. Migrantlar mehnatga talab yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naladi, oilalariga yuboradigan mablag‘lari esa uy xo‘jaliklari daromadini oshiradi. Xorijda orttirilgan bilim, kasbiy ko‘nikma va tajriba esa mamlakat iqtisodiyotiga qaytib, inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin [4]. Shu sababli migratsiya siyosatida migrantni tayyorlash, qonuniy ishga joylashtirish, himoya qilish, malakasini oshirish va qaytgach reintegratsiya qilish muhimdir. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini boshqarish tizimida muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmon asosida Migratsiya agentligi tashkil etilib, tashqi mehnat migratsiyasini yagona tizim asosida boshqarishga e’tibor kuchaytirildi [5]. Xorijga fuqarolarni xavfsiz va tashkillashtirilgan yuborish, yangi mehnat bozorlarini o‘zlashtirish hamda qaytgan migrantlarni ish bilan ta’minlash ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi [6]. Migratsiya geografiyasining kengayishi esa xorijiy davlatlarning til, kasbiy va huquqiy talablariga mos kadrlar tayyorlashni talab qilmoqda [3].

Pul o‘tkazmalari: iste’moldan investitsiyaga. Migrantlarning pul o‘tkazmalari O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim manbalaridan biridir. 2025-yilda mamlakatga kelib tushgan pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd dollarga yetgan [3]. Ushbu mablag‘lar asosan kundalik xarajatlar, ta’lim, tibbiyot, uy-joy va tadbirkorlik uchun ishlatiladi. Pul o‘tkazmalarini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va kichik biznesga yo‘naltirish ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishi mumkin. Shu bois moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali va “miya oqimi”. Mehnat migratsiyasi xorijiy tajriba va kasbiy ko‘nikmalarning mamlakatga kirib kelishiga yordam beradi [7]. Biroq malakali mutaxassislarning uzoq muddatga chet elga ketishi ayrim sohalarda kadrlar taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli xorijda

olingan malakani tan olish, xalqaro sertifikatlash va qaytgan migrantlarning tajribasidan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish zarur [8]. Qaytish migratsiyasi va reintegratsiya. Qaytgan migrantlarni faqat ish izlovchi sifatida emas, balki xorijiy tajriba, bilim, til va jamg‘armaga ega iqtisodiy subyekt sifatida ko‘rish lozim. Buning uchun migrantlarning xorijda olgan kasbiy tajribasi va ko‘nikmalarini hisobga oluvchi yagona tizim yaratish muhimdir [9]. Bu qaytgan fuqarolarni mos ish o‘rinlariga joylashtirish, qayta tayyorlash yoki tadbirkorlikka yo‘naltirish imkonini beradi. Natijada mehnat migratsiyasi nafaqat ishchi kuchining harakati, balki inson kapitali va moliyaviy resurslarning aylanish mexanizmiga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi uch bosqichning uyg‘unligiga bog‘liq: Birinchi bosqich — migratsiyaga tayyorgarlik. Bunda migrantning kasbiy malakasi, xorijiy til bilimi, huquqiy savodxonligi va xorijiy mehnat bozorining talablarini bilishi ta’minlanishi lozim. Ikkinchi bosqich — xavfsiz va qonuniy mehnat migratsiyasi. Ish beruvchi, ish haqi, mehnat sharoiti va shartnoma talablari oldindan aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. ILO adolatli yollash tizimini munosib mehnat va migrantlar huquqlarini himoya qilishning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi [10]. Uchinchi bosqich — qaytish va iqtisodiy reintegratsiya. Migrantning xorijda olgan tajribasi, malakasi va jamg‘armasi ichki iqtisodiyotga yo‘naltirilishi kerak.

Shundan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- “Migratsiya + kasb” modelini joriy etish. Xorijga ishga yuborishdan oldin fuqaroning aniq kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va xalqaro mehnat bozori talablariga mos sertifikatlash tizimini kengaytirish.
- Migrantlar uchun yagona raqamli “kasbiy profil” tizimini yaratish. Unda fuqaroning kasbi, ish tajribasi, til darajasi, sertifikatlari va xorijda orttirgan kompetensiyalari aks ettirilishi mumkin.
- Pul o‘tkazmalarini investitsiyaga yo‘naltirish mexanizmlarini rivojlantirish. Migrant oilalariga moliyaviy savodxonlik, biznes-rejalashtirish va qonuniy investitsiya vositalari bo‘yicha amaliy maslahat xizmatlarini kengaytirish.
- Qaytgan migrantlar uchun “2-karyera” dasturini shakllantirish. Xorijda orttirilgan tajribani mahalliy iqtisodiyotga integratsiya qilish uchun ularni ishlab chiqarish, qurilish, servis, logistika, IT va tadbirkorlik sohalariga yo‘naltirish.
- Migratsiya geografiyasini diversifikatsiya qilish bilan birga kasblar geografiyasini ham diversifikatsiya qilish. Turli davlatlarning ishchi kuchiga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, O‘zbekistonda oldindan zarur mutaxassisliklarni tayyorlash.
- Migratsiya siyosatini “mehnat eksporti” tushunchasidan “inson kapitali eksport-importi” modeliga bosqichma-bosqich o‘tkazish. Bunda mamlakat uchun asosiy natija faqat xorijga qancha fuqaro yuborilgani emas, balki qancha malaka, tajriba, kapital va biznes tashabbusi iqtisodiyotga qaytgani bilan baholanishi kerak.

Globalashuv sharoitida mehnat migratsiyasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, uni faqat bandlik muammosining vaqtinchalik yechimi sifatida talqin qilish ilmiy va amaliy jihatdan yetarli emas. Migratsiya bir vaqtning o‘zida

mehnat resurslarining xalqaro harakati, uy xo‘jaliklari daromadlarining shakllanishi, pul oqimlari, bilim va ko‘nikmalar transferi hamda inson kapitalining qayta taqsimlanishini anglatadi. O‘zbekiston tajribasida pul o‘tkazmalarining 2025-yilda 18,9 mlrd dollarga yetgani migratsiyaning makroiqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. Shu bilan birga, migratsiya siyosatidagi institutsional islohotlar, xususan, Migratsiya agentligining tashkil etilishi, tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish tizimini yanada tizimlashtirishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi [5]. Tadqiqotning asosiy ilmiy xulosasi shundan iboratki, mehnat migratsiyasining haqiqiy iqtisodiy samarasi migrantlar soni yoki pul o‘tkazmalari hajmi bilan emas, balki migratsiya natijasida shakllangan inson kapitali, moliyaviy kapital va kasbiy tajribaning milliy iqtisodiyotga qay darajada integratsiya qilinishi bilan belgilanadi.Shuning uchun kelgusida O‘zbekiston migratsiya siyosatining ustuvor vazifalaridan biri “xorijga ishga yuborish” mexanizmini “xorijiy mehnat bozorida raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish va uni mamlakat taraqqiyotiga qayta jalb etish” mexanizmiga aylantirishdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv migratsiyani iqtisodiy yo‘qotish manbai sifatida emas, balki bilim, kapital va tajriba aylanishi orqali rivojlanish omiliga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. United Nations. International Migrant Stock 2024. UN Department of Economic and Social Affairs, Population Division.

2. World Bank. World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. Washington, D.C.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xalqaro migratsiya va jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari sharhi, 2026-yil mart.

4. International Labour Organization. Labour Migration. Geneva, 2024.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari, 2024-yil 2-aprel.

7. International Labour Organization. Skills for migrant workers, 2024.

8. International Labour Organization. Innovative solutions for skills-based labour migration and mobility across borders, 2026.

MEHNAT MIGRATSIYASI VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH: O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON TAJRIBASI

Ibragimova Munira Mirzodayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
muniraibragimovamirzodayevna@gmail.com

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiy hayotining muhim jarayonlaridan biridir. Mahalliy mehnat bozorida ish o‘rinlari va daromad imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan hollarda fuqarolarning xorijga vaqtincha ishlash uchun ketishi uy xo‘jaliklari daromadini diversifikatsiya qilish vositasiga aylanadi. Bunda migratsiyaning eng ko‘rinadigan iqtisodiy natijalaridan biri — migrantlarning

oila a’zolariga yuboradigan pul o‘tkazmalaridir. Shu sababli migratsiyaning kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini faqat migrantlar soni bilan emas, balki ular yuborayotgan mablag‘larning uy xo‘jaliklari farovonligiga ta’siri orqali baholash maqsadga muvofiq.

Mavzuning dolzarbligi O‘zbekistonda kambag‘allik ko‘rsatkichlarining so‘nggi yillarda sezilarli pasaygani va ayni paytda pul o‘tkazmalarining katta hajmga yetgani bilan ham bog‘liq. 2021-yilda kambag‘allik darajasi 17,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 5,8 foizga tushgan. 2025-yilda O‘zbekistonga 18,9 mlrd AQSh dollari miqdorida pul o‘tkazmalari kelib tushgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 28 foiz ko‘pdir [1; 6].

Tadqiqotning maqsadi — mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari farovonligi hamda kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini O‘zbekiston va Qirg‘iziston misolida qiyosiy tahlil qilishdir. Asosiy e’tibor pul o‘tkazmalarining kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri bilan birga, ushbu ta’sirning chegaralari va barqarorligini aniqlashga qaratildi.

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi va kambag‘allik dinamikasi. O‘zbekistonda kambag‘allikning qisqarishi birgina migratsiya yoki pul o‘tkazmalari bilan izohlanmaydi. Jahon bankining 2026-yilgi baholashida 2021–2025-yillarda kambag‘allikning 17,0 foizdan 5,8 foizgacha pasayishida ish bilan bandlikning kengayishi va ish haqlarining o‘sishi asosiy omillardan bo‘lgani qayd etilgan [6]. Demak, migratsiyani kambag‘allikni kamaytiruvchi yagona omil sifatida ko‘rsatish ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biroq migrantlar daromadi uy xo‘jaliklari uchun qo‘shimcha moliyaviy tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Kambag‘allik darajasi, %	17,0	14,1	11,0	8,9	5,8

Manba: *Jahon bankining 2026-yilgi O‘zbekiston kambag‘allik va farovonlik baholashi [6].*

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillarda kambag‘allik darajasi 11,2 foiz punktga, ya’ni qariyb 65,9 foizga qisqargan. Biroq mazkur dinamikani pul o‘tkazmalari bilan bevosita tenglashtirish mumkin emas.

Seitz tomonidan O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda xalqaro migratsiya uy xo‘jaliklarining mehnat bozori va farovonlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Tadqiqotda pul o‘tkazmalari hisobga olinmaganda kambag‘allik darajasi sezilarli yuqorilashi mumkinligi ko‘rsatilgan [2]. Bu natija migratsiyaning kambag‘allikni qisqartirishdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari farovonligidagi o‘rni. O‘zbekistonda pul o‘tkazmalarining hajmi so‘nggi yillarda yuqori bo‘lib qolmoqda. Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, ushbu mablag‘larning 46 foizi P2P o‘tkazmalari orqali bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan, bu esa raqamli kanallar tez rivojlanayotganini ko‘rsatadi [1].

Pul o‘tkazmasining kambag‘allikni kamaytirishdagi samarasi uning miqdoridan tashqari qanday maqsadda ishlatilishiga ham bog‘liq. Jahon

bankining O‘zbekiston bo‘yicha uy xo‘jaliklari ma’lumotlarida pul o‘tkazmalaridan asosiy foydalanish yo‘nalishlari sifatida oziq-ovqat, uy-joyni yaxshilash yoki sotib olish, sog‘liqni saqlash, jamg‘arma, qarzlarni to‘lash va ta’lim qayd etilgan. Bu holat pul o‘tkazmalarining bir qismi bevosita iste’mol ehtiyojlarini qoplash orqali joriy kambag‘allikni yumshatishini, boshqa qismi esa kelajakdagi farovonlikka xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

O‘zbekistonda pul o‘tkazmalar idan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Ulush, %	Kuzatuvlar soni
Oziq-ovqat	50,0	4 047
Uy-joyni yaxshilash yoki sotib olish	27,1	2 197
Sog‘liqni saqlash	6,0	489
Qarzlarni to‘lash	4,1	335
Jamg‘arma	3,4	278
Ta’lim	2,8	224

Manba: *Jahon bankining “Listening to the Citizens of Uzbekistan” 2018–2025 ma’lumotlar bazasi [7]. Ulushlar yaroqli kuzatuvlardan hisoblangan va umumiy aholi uchun reprezentativ emas.*

Jadvaldagi ma’lumotlar muhim bir jihatni ko‘rsatadi: pul o‘tkazmalarining katta qismi kundalik ehtiyojlarga yo‘naltirilmoqda. Shu sababli pul o‘tkazmasi uy xo‘jaligini kambag‘allikdan vaqtincha olib chiqishi mumkin. Kakhkharov va hammualliflarining O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqoti ham pul o‘tkazmasi oluvchi uy xo‘jaliklarida xarajatlar tarkibi o‘zgarishini, biroq mablag‘larning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ularning qaysi yo‘nalishga sarflanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi [3]. Boshqa bir tadqiqotda esa migrant pul o‘tkazmalari oilaviy tadbirkorlikka faqat qo‘shimcha daromad mavjud bo‘lganda ko‘proq yo‘naltirilishi aniqlangan [5].

Qirg‘iziston tajribasi va qiyosiy tahlil. Har ikki mamlakatda tashqi mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklari daromadining muhim qismi hisoblanadi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Qirg‘iz Respublikasida pul o‘tkazmalarining YAIMga nisbati 2024-yilda 26,6 foizni tashkil etgan [7].

3-jadval.

O‘zbekiston va Qirg‘izistonda migratsiya va kambag‘allik bilan bog‘liq ayrim ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Qirg‘iziston	Izoh
Kambag‘allik darajasi, %	5,8 (2025)	25,7 (2024)	Milliy kambag‘allik chegaralari mamlakatlar bo‘yicha farq qiladi
Pul o‘tkazmalari / YAIM, %	14,4 (2024)	26,6 (2024)	Jahon banki ma’lumotlari
Pul o‘tkazmalari, mlrd AQSh dollari	18,9 (2025)	—	O‘zbekiston bo‘yicha Markaziy bank ma’lumoti
Pul o‘tkazmalarining kambag‘allikka ta’siri	Ijobiy bog‘liqlik	Ijobiy bog‘liqlik	Ilmiy tadqiqotlar asosida

Manba: *Jahon bankining 2026-yilgi O‘zbekiston kambag‘allik va farovonlik baholashi [6].*

Qirg‘iziston bo‘yicha Wang, Hagedorn va Chi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari xarajatlariga ta’siri o‘rganilgan. Natijalar pul o‘tkazmalari oshishi oziq-ovqat xarajatlari ulushining biroz kamayishi va tibbiy xarajatlar ulushining oz miqdorda o‘zgarishi bilan bog‘liqligini, biroq ta’lim va uy-joy kabi yo‘nalishlarda aniq ta’sir kuzatilmaganini ko‘rsatgan [4]. Taqqoslashdan ko‘rinadiki, Qirg‘izistonda pul o‘tkazmalarining YAIMdagi ulushi O‘zbekistondagidan yuqori bo‘lgan. Bu holat Qirg‘iziston iqtisodiyotining migratsiya daromadlariga nisbatan yuqoriroq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ikki mamlakat uchun ham muhim masala — pul o‘tkazmalarini faqat joriy iste’molni moliyalashtiruvchi manba emas, balki inson kapitali, jamg‘arma va daromad keltiruvchi faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

O‘zbekiston uchun takliflar. Birinchidan, migrant oilalarining pul o‘tkazmalaridan samarali foydalanish bo‘yicha moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, pul o‘tkazmalarini oilaviy tadbirkorlikka yo‘naltirish uchun mavjud kredit va grant dasturlarini migrant oilalari bilan bog‘lash mumkin. Bunday yondashuvda pul o‘tkazmasining o‘zi yetarli kapital sifatida emas, balki bank krediti yoki boshqa moliyaviy vositalar bilan birgalikda foydalaniladigan boshlang‘ich mablag‘ sifatida qaraladi. Bu taklif Kakhkharovning O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotida aniqlangan moliyaviy cheklovlar bilan hamohangdir [5].

Uchinchidan, migratsiyadan qaytgan fuqarolarning xorijda orttirgan ko‘nikmalarini tan olish va mahalliy vakansiyalar bilan bog‘lash mexanizmini kuchaytirish zarur.

To‘rtinchidan, hududlar bo‘yicha migratsiya, pul o‘tkazmalari, kambag‘allik va bandlik ko‘rsatkichlarini birgalikda kuzatish imkonini beruvchi ma’lumotlar tizimini rivojlantirish kerak.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mehnat migratsiyasi O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari daromadlarini qo‘llab-quvvatlovchi va kambag‘allik xavfini kamaytiruvchi muhim mexanizmlardan biridir. Biroq mamlakat miqyosida kambag‘allikning 2021–2025-yillarda 17,0 foizdan 5,8 foizgacha qisqarishini faqat migratsiya bilan izohlash mumkin emas.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston tajribasi pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari farovonligini oshirishdagi rolini tasdiqlaydi, biroq ularning uzoq muddatli samarasi mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishiga bog‘liq. Shuning uchun O‘zbekiston uchun asosiy vazifa migratsiyani ko‘paytirish emas, balki mavjud migratsiya daromadlarining barqaror farovonlikka aylanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun moliyaviy savodxonlik, jamg‘arma, kasbiy malaka, oilaviy tadbirkorlik va raqamli moliyaviy xizmatlarni yagona yondashuvda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Review of International Migration and Individuals’ Foreign Exchange Operations, March 2026. Toshkent.

2. Seitz, W. H. (2019). International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. World Bank Policy Research Working Paper No. 8910.

3. Kakhkharov, J., Ahunov, M., Parpiev, Z., & Wolfson, I. (2021). South-South Migration: Remittances of Labour Migrants and Household Expenditures in Uzbekistan. International Migration, 59(5), 38–58. https://doi.org/10.1111/imig.12792

4. Wang, D., Hagedorn, A., & Chi, G. (2021). Remittances and Household Spending Strategies: Evidence from the Life in Kyrgyzstan Study, 2011–2013. Journal of Ethnic and Migration Studies, 47(13), 3015–3036. https://doi.org/10.1080/1369183X.2019.1683442

5. Kakhkharov, J. (2019). Migrant Remittances as a Source of Financing for Entrepreneurship. International Migration, 57(5), 37–55. https://doi.org/10.1111/imig.12531

6. World Bank. (2026). Uzbekistan Poverty and Equity Assessment: Rising to Prosperity – Broadening Opportunities for All. Washington, DC.

7. World Bank. (2025). World Development Indicators: Personal remittances, received (% of GDP) — Uzbekistan and Kyrgyz Republic; World Bank. (2025). Listening to the Citizens of Uzbekistan Survey, 2018–2025.


MEHNAT MIGRATSIYASI VA INSON KAPITALI RIVOJIO‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

Maxmudov Muhammadrasul Hamidullo o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
maxmudovmuhammadrasul416@gmail.com

Bugungi kunda Janubiy Koreya dunyoning yetakchi rivojlangan O‘zbekiston esa rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi.Bundan tashqari,har ikkala davlat ijtimoiy-iqtisodiy javhalarda yetakchi o‘rinlarni egallamoqda.Shu munosabat bilan yildan yilga ikkala davlat o‘rtasida hamkorlik tobora rivojlanmoqda.Bu esa o‘z navbatida,jamiyat rivojlanishiga keng zamin yaratmoqda.Barchamizga ma’lumki,so‘nggi vaqtlarda yurtimiz 3- Renessans doirasida keskin rivojlanib,jahon reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallamoqda.Hususan, aholini ish bilan taminlash borasida Janubiy Koreya bilan diplomatik hamkorlik amalga oshirilmoqda.Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston uchun bandlik masalasidan tashqari, inson kapitali shakllanishining muhim kanaliga aylandi. 2023–2025-yillarda mamlakatga kelgan pul o‘tkazmalari 11,4 mlrd dan 18,9 mlrd AQSh dollarigacha oshdi (1-rasm). Seitz (2019) hisob-kitobiga ko‘ra, o‘tkazmalarsiz mamlakatda kambag‘allik darajasi 9,6 foizdan 16,8 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lardi [1]. Shu bilan birga migrantlar orasida oliy ma’lumotlilar ulushi migrant bo‘lmaganlarga nisbatan past (4 va 11 foiz) [1], ya’ni oqim asosan o‘rta va kasb-hunar ma’lumotli ishchilardan iborat. Docquier va Rapoport (2012) fikricha, malakali kadrlar emigratsiyasi manba mamlakatning inson kapitali zaxirasini albatta kamaytirmaydi va ijobiy tarmoq samaralarini yaratishi mumkin [2].

Bugun Koreya mehnat migrantlarini qabul qiluvchi mamlakat bo‘lsa-da, 1960–1970-yillarda o‘zi mehnat eksport qilgan: konchilar va hamshiralar Germaniyaga ommaviy yuborilgan [3]. Migratsiya yagona omil emas, biroq 1990–2023-yillarda Koreyaning inson taraqqiyoti indeksi (HDI) 0,738 dan 0,937 gacha oshib, mamlakat 20-o‘rinni egalladi [4]. O‘zbekistonning 2023-yilgi ko‘rsatkichi 0,740 (107-o‘rin) bo‘lib [4], Koreyaning 1990-yildagi darajasiga deyarli teng hisobladi. Mehnat hamkorligi 1994-yildan boshlangan, 2007-yildan hukumatlararo EPS tizimi ishlamoqda; shu davrda E-9 vizasi bo‘yicha qariyb 50 ming fuqaro ishga joylashgan

[5]. Biroq oqim barqaror emas: E-9 bo‘yicha ishga joylashganlar soni 2023-yildagi 4 878 nafardan 2024-yilda 3 080 nafarga (37 foizga) kamaydi; sabab — ishchilarning ish joyini asossiz tark etishi va ayrim korxonalarning bankrotligi [6]. Koreya kvotasi 2024-yildagi 165 mingdan 2026-yilga 80 ming nafarga tushirildi [7] (1-jadval). Raqobat miqdordan sifatga ko‘chmoqda: til bilimi bilan birga kasbiy ko‘nikma va amaliy tayyorgarlik hal qiluvchi bo‘ladi [5]. Dadabaev va Soipov (2022) tadqiqotida Koreyada so‘rovdan o‘tgan o‘zbekistonlik migrantlarning (2008–2020-yillarda borganlar) ma’lumot darajasi o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limidan oliy ma’lumotgacha bo‘lgan [8]. Kim (2014) esa EPS joriy etilgan dastlabki yillarda (2004–2005) chet ellik ishchilarni qabul qilishning moslashuv xarajatlari jiddiy bo‘lmaganini, biroq xizmat sohasida kam ma’lumotli mahalliy ishchilar bilan o‘rin almashish kuzatilganini qayd etadi [9].



1-rasm. O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari dinamikasi, mlrd AQSh dollari.
Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi*

Mehnat migratsiyasi ko‘plab oilalar uchun moddiy barqarorlik manbaiga aylangan: Seitz (2019) ma’lumotlariga ko‘ra, migrant xo‘jaliklarining qariyb 48 foizi o‘tkazmalarni har oy oladi, o‘rtacha o‘tkazma 312 AQSh dollarini tashkil etadi va mablag‘lar asosan oziq-ovqat hamda uy-joyni yaxshilashga sarflanadi [1]. Kakhkharov va boshq. (2021) o‘tkazmalar oluvchi xo‘jaliklar byudjetida oziq-ovqat va sog‘liqni saqlash ulushi sezilarli darajada kichikroq ekanini aniqlagan; bu o‘tkazmalar asosan iste’mol xarajatlariga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi [10].

1-jadval

EPS bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Yil	Qiymat
Koreyaning E-9 kvotasi, ming nafar	2024	165
	2025	130
	2026	80
E-9 bo‘yicha ishga joylashgan o‘zbekistonliklar, nafar	2023	4 878
	2024	3 080
Farg‘ona–Hyundai dasturi, nafar	2025–2026	668 nafar o‘qitilgan
		554 nafari (83%) ishga kirgan

Manba: *[5–7] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Bu holatga javoban Farg‘onada Ulsan shahar hukumati va Hyundai Heavy Industries hamkorligida tayyorgarlik dasturi yo‘lga qo‘yildi: nomzodlar koreys tili, xavfsizlik texnikasi va kemasozlik kasblariga o‘qitiladi. 2025–2026-yillarda o‘qitilgan 668 nafar fuqaroning 554 nafari (83 foizi) Hyundai’da ishga kirgan; joriy yilda EPS-TOPIK imtihoniga 8 mingdan ortiq nomzod ro‘yxatdan o‘tib, 1 454 nafari ko‘nikmalar testidan o‘tgan [5]. “Til + kasb + malaka + qonuniy bandlik” formulasi migratsiyani inson kapitaliga sarmoya sifatida ko‘rishga imkon beradi.

O‘zbekiston uchun asosiy muammo migrantlar sonining kamligi emas, ularning tayyorgarlik sifati va qaytgandan keyingi imkoniyatlaridir. Birinchidan, pul o‘tkazmalari oilalar daromadini qo‘llab-quvvatlayotgan bo‘lsa-da, bu mablag‘larning qanchasi ta’lim va kasbiy o‘sishga sarflanayotgani alohida o‘rganilishi kerak [1; 10]. Ikkinchidan, Koreya misolini ko‘chirib bo‘lmaydi: 1960-yillarda u migratsiyadan olingan mablag‘ni sanoatlashtirish bilan bog‘lagan, bugun esa O‘zbekiston bunga malakali kadrlar tayyorlash orqali erisha oladi. Uchinchidan, kvota qisqarayotgan sharoitda ko‘proq odam yuborish emas, kamroq, ammo yuqori malakali odam yuborish strategik jihatdan to‘g‘ri yo‘l, deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga asoslanib, birinchidan, Farg‘ona–Ulsan modelini boshqa hududlar va sohalarga (qurilish, qishloq xo‘jaligi, sanoat) ko‘chirish, kasb-hunar ta’limini xorijiy ish beruvchilar talabiga moslashtirish lozim. Ikkinchidan, ish joyini asossiz tark etish holatlarini kamaytirish uchun jo‘nab ketishdan oldingi mehnat huquqlari va moslashuv treninglarini kuchaytirish hamda ish joyini saqlab qolish ko‘rsatkichini dastur natijasi sifatida kuzatish kerak. Uchinchidan, xorijda orttirilgan malakani tan olish va sertifikatlash tizimini yaratib, uni “Reintegratsiya” moduli va mahalliy vakansiyalar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, pul o‘tkazmalarining bir qismini ta’lim, kasbiy qayta tayyorlash va tadbirkorlikka yo‘naltiruvchi imtiyozli jamg‘arma yoki kredit mahsulotlarini joriy etish mumkin. Beshinchidan, bitta bozorga (Rossiyaga) haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytirish uchun yuqori malaka talab qiladigan bozorlarga tayyorlangan kadrlar ulushini oshirish zarur. Samaradorlik 12 oydan keyingi bandlik ulushi, o‘rtacha ish haqi va sertifikatlanganlar ulushi kabi ko‘rsatkichlar bilan baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Koreya tajribasi migratsiyaning inson kapitaliga ta’siri tayyorgarlik, ish joyini saqlash va qaytish siyosatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Lekin migratsiyaning foydasi faqat pul bilan o‘lchanmasligi kerak. Hukumat faqat migrantlar chet eldan qancha pul yuborayotganiga e’tibor bermasdan, ularning kasbiy malakasini oshirish va olgan malakasidan O‘zbekistonda foydalanishga ko‘proq e’tibor berishi kerak. Biz hozirda asosiy bo‘lib turgan vazifalardan bir pul o‘tkazmalari o‘sishidan malakaga asoslangan migratsiyaga o‘tishdir: kasbiy tayyorgarlik, malakani tan olish va reintegratsiyani yagona tizimda birlashtirish taklif etiladi. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi muhim misol bo‘la oladi. Koreya urushdan keyingi davrda og‘ir iqtisodiy sharoitda bo‘lgan, biroq keyingi o‘n yilliklarda ta’lim, inson kapitali, texnologiya, infratuzilma va eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish siyosati orqali yuqori daromadli iqtisodiyotga aylandi. Jahon banki va OECD ma’lumotlari Koreyaning iqtisodiy rivojlanishida ta’lim va

inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar muhim omillardan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Seitz, W. (2019). International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. Policy Research Working Paper No. 8910. Washington, DC: World Bank.

2. Docquier, F., & Rapoport, H. (2012). Globalization, Brain Drain, and Development. Journal of Economic Literature. https://doi.org/10.1257/jel.50.3.681

3. Jeon, M. (2021). Why and how did ‘voluntary’ mass immigration of South Korean nurses and miners to West Germany occur in the 1960s and 1970s? Asian Journal of Political Science, 29(3), 301–315. https://doi.org/10.1080/02185377.2021.1996413

4. UNDP. (2025). Human Development Report 2025: Statistical Annex, HDI Trends Table. https://hdr.undp.org/sites/default/files/2025_HDR/HDR25_Statistical_Annex_HDI_Trends_Table.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. (2026, 16 sentyabr). Uzbekistan — Korea: how has 30 years of cooperation changed? https://gov.uz/en/migration/news/view/221085

6. Elshod, Qurbonov, and Axmedov Oloviddin. “Mehnat migratsiyasi va uning aholi daromadiga ta’siri.” Научный Импульс 4.40 (2025): 1-3.

7. Spot.uz. (2025, 30 dekabr). Korea migrants (E-9 kvotalari, 2026). https://www.spot.uz/ru/2025/12/30/korea-migrants/

THE IMPACT OF LABOR MIGRATION ON THE DEVELOPMENT OF REGIONS OF UZBEKISTAN

Mirzausmonov Nurbek
Tashkent State University of Economics
nurbekmirzausmonov@gmail.com

Labor migration is one of the most important processes shaping Uzbekistan’s economy and the development of its regions. Remittances have grown sharply in recent years: $14.8 billion in 2024 (30 percent more than in 2023) [1], $18.9 billion in 2025 (a 27.2 percent increase) [2], and $9.3 billion in the first half of 2026 (a 13 percent increase) [3]. The World Bank estimates that this equaled 14 percent of GDP in 2024 [4]. In 2025, remittances made up 21.0 percent of total household income (16.5 percent a year earlier), and more than 30 percent in some regions [2; 5]. According to a World Bank calculation based on a 2018 household survey, without remittances the poverty rate would be 16.8 percent instead of 9.6 percent [6]; this is a simulated (counterfactual) estimate, not an observed change. This thesis assesses the positive and negative effects of migration on the regions and offers recommendations.

According to the New Economics of Labor Migration (NELM), the decision to migrate is made at the household rather than the individual level, in order to diversify risks and sources of income [7]. Data from Uzbekistan are consistent with this logic: households begin to consider migration when the local labor market deteriorates, and migrants send more money when conditions at home worsen [6]. However, this is not a formal test of NELM. A study of 71 developing countries found that a 10 percent increase in per capita remittances is associated with a 3.5 percent decline in poverty [8]. This is a descriptive (desk-based) study relying on Central Bank and National Statistics Committee data, the World Bank’s 2018 “Listening to the Citizens of Uzbekistan” survey (4,010 households) and published research. Limitations: regional

migration data date from 2018, official statistics undercount migrants, remittances are not published by region, and the results are descriptive rather than causal.

Migration is unevenly distributed across regions (Table 1). By the share of households with a migrant, Khorezm (40 percent), Bukhara (32 percent), Karakalpakstan (31 percent), Andijan (26 percent) and Samarkand (25 percent) led; Namangan and Fergana had 21 percent, Kashkadarya 17 percent and Surkhandarya 13 percent; the lowest figures were in Tashkent city (2 percent), Tashkent region (4 percent), Navoi (5 percent) and Jizzakh (6 percent) [6]. Surkhandarya and Kashkadarya, often described as leading sending areas, are therefore in the middle of the range. Migration is strongest where local jobs are scarce: more than 26 percent of households in the poorest quintile have a migrant (about 14 percent in the richest quintile), and remittances make up about 11 percent of their income (about 8 percent among the richest) [6]. Regional income gaps are also large: in 2025, per capita income was 73.9 million soums in Tashkent city but only 20.7 million in Karakalpakstan; Khorezm (31.1 million) and Bukhara (35.2 million) were above the national average (29.9 million) [5]. This is consistent with a positive effect of remittances, but it does not prove it. By destination, in 2018, 77.6 percent of migrants were in Russia, 13.7 percent in Kazakhstan and 4.9 percent in Turkey [6]; according to the Central Bank, a rising share of high-income countries contributed to remittance growth [1].

Table 1.

Labor migration and household transfers by region

Region	Households with a migrant, 2018 (%)	Registered migrants, % of population, 2018	Transfers above 30% of household income, 2025
Khorezm	40	5.6	Yes
Bukhara	32	4.5	Yes
Karakalpakstan	31	2.4	Yes
Andijan	26	4.6	Yes
Samarkand	25	3.9	Yes
Namangan	21	2.8	Yes
Fergana	21	3.0	Yes
Kashkadarya	17	2.0	Yes
Surkhandarya	13	3.8	Yes
Syrdarya	9	1.9	–
Jizzakh	6	2.8	–
Navoi	5	1.7	– (13.6%, lowest)
Tashkent region	4	1.7	–
Tashkent city	2	1.8	–
Uzbekistan (average)	19	3.1	No (29.6%)

Source: *World Bank "Listening to the Citizens of Uzbekistan" survey and mahalla administrative records (2018) [6]; National Statistics Committee (2025) [5]. "Yes" means the committee lists the region as having transfers above 30 percent; transfers include pensions and benefits, so this column overstates the role of remittances; registered migrant numbers undercount actual migration.*

Migration brings clear benefits. First, it affects household income and poverty: the total income of households with a migrant rises significantly and, despite a small fall in domestic income, they are better off on net; even if all migrants returned and earned the local median wage, poverty would still rise to about 12.2 percent [6].

Second, remittances act as insurance: migrants send more when the household faces difficulties [6].

Third, the effects on entrepreneurship and human capital are possible but conditional: households invest in a family business only when remittances are supplemented by sufficient income or savings [9]; in 2017, 45.2 percent of migrants worked in construction, while only about 4 percent of migrants held a bachelor's degree [6], and whether returnees use their acquired skills is not shown in the available data.

At the same time, migration has costs. First, most remittances go to consumption: in the 2018 survey, food and buying or improving housing made up about 82 percent of their primary uses [6]. Second, dependence on one destination and external risk: most migrants (77.6 percent in 2018) work in a single country, Russia [6]; in the first half of 2020, remittances from Russia fell by about 13 percent because of the pandemic [9]. Third, effects on those left behind: after a member migrates, other adults in the household are slightly less likely to work and domestic income falls slightly [6]; more than 80 percent of migrants are men and their average age is just over 33 [6]. The claim of a labor shortage in agriculture was not confirmed by the sources reviewed: in 2018, migration was instead stronger in areas of high unemployment [6]. Fourth, in Uzbekistan remittances have no significant effect on education spending, reduce the health-spending share, and increase informal employment in Central Asia [9].

Presidential Decree PF-59 of 4 April 2024 set a subsidy of 500,000 soums per month for 12 months for each returnee hired by an employer (between 1 June 2024 and 1 January 2026); a returnee is a person who worked abroad for at least three months and returned within the past year [10].

Based on this evidence, the following recommendations are proposed. First, channel remittances into the financial system: banks should introduce products that recognize remittances as proof of creditworthiness, and financial literacy programs should be expanded. The fact that 51.7 percent of remittances in the first half of 2026 arrived directly on bank cards [3] lets banks take regular inflows into account in credit assessment; because remittances alone do not finance a business [9], loans should be supplemented with co-financing or guarantees. Second, a regional approach: the regions with the highest migration (Khorezm, Bukhara, Karakalpakstan, Andijan, Samarkand) should be prioritized, and local jobs created through cooperatives and industrial zones; the Central Bank and the National Statistics Committee should publish regional migration and remittance data. Third, extend the PF-59 subsidy to entrepreneurship: the current mechanism supports only hired employment and its period ended on 1 January 2026 [10], so a redesign is timely; returnees who start their own business, verified through the Unified National Labor System, could receive a grant or tax benefit. Fourth, integrate reintegration services digitally: by linking the Unified National Labor System [10] with retraining and credit programs, a single entry point can be created for returnees. Fifth, continue diversification with caution: the Central Bank has noted a rising share of high-income countries [1], but sending skilled workers may create a risk of "brain drain": few migrants had higher education in

2018 [6], and because new programs may change this, the skill profile of official migrants should be monitored.

Labor migration is both an opportunity and a risk for the regions of Uzbekistan. In the short term it raises household income, supports local demand and lowers poverty. In the long term, if remittances go mainly to consumption and regions remain dependent on a single market, these gains will be fragile. The evidence base on regional effects is also limited: the best regional survey dates from 2018. State policy should aim not at restricting migration but at regulating and legalizing it and at integrating remittances and returnees into regional development strategies. Future research should use a new regional household survey and remittance data by region.

References:

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Annual Report 2024. https://cbu.uz/upload/medialibrary/f27/1pe2gj41x2s1qafmi548hnvzg4aoh87x/Annual-Report-2025_.pdf

2. Kun.uz. (2026). Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025. https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025

3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). Analytical review of individuals' foreign currency operations for the first half of 2026. https://cbu.uz/en/press_center/releases/4359624/

4. World Bank. (2024). The Journey Ahead: Supporting Successful Migration in Europe and Central Asia. https://www.worldbank.org/en/region/eca/publication/journey-ahead-supporting-successful-migration-in-europe-and-central-asia

5. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026). Total household income in 2025 (via UzDaily). https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-total-household-income-exceeded-1134-trillion-soums-in-2025-national-statistics-committee/

6. Seitz, W. (2019). International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. World Bank, Poverty & Equity Global Practice Working Paper 209. https://documents1.worldbank.org/curated/en/902731561151905908/pdf/International-Migration-and-Household-Well-Being-Evidence-from-Uzbekistan.pdf

7. Stark, O., & Bloom, D. E. (1985). The new economics of labor migration. American Economic Review, 75(2), 173–178.

HUDUDIY ISH HAQI TAFOVUTLARI VA ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Ergasheva Rayhon Erkinovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
@rayhonergasheva100528
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi
sh.xamdamov@tsue.uz

Mehnat resurslarining hududlararo harakati bozor iqtisodiyotida ish kuchini samarali taqsimlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyada ichki migratsiya qarori ko‘p hollarda hududlar o‘rtasidagi daromad farqi bilan izohlanadi: Todaro va Harris–Todaro modellariga ko‘ra, shaxs joriy ish haqini

emas, balki boradigan hududda ish topish ehtimolini hisobga olgan holda kutilayotgan daromadni solishtiradi [1; 2]. Sjaastad esa migratsiyani inson kapitaliga qilinadigan investitsiya sifatida, ya’ni xarajat va foydani taqqoslash natijasi deb talqin qiladi [3].

O‘zbekiston uchun mavzu ikki sababga ko‘ra dolzarb. Birinchidan, mehnat bozoriga har yili yuz minglab yoshlar kirib kelmoqda, hududlarda esa yuqori ish haqi to‘lanadigan ish o‘rinlari cheklangan. Ikkinchidan, nominal ish haqining o‘sishiga qaramay, Toshkent shahri va boshqa hududlar o‘rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda. Mazkur tezisda hududiy ish haqi tafovutlari va ichki mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy va statistik jihatdan ko‘rib chiqilib, hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Nazariy yondashuvlar. Lyuisning ikki sektorli modelida qishloq xo‘jaligidagi ortiqcha ish kuchi zamonaviy sektorga o‘tadi [4]. Harris–Todaro modeli bu yondashuvni takomillashtirib, shahar ishsizligi mavjud bo‘lganda ham migratsiya davom etishini tushuntiradi: kutilayotgan shahar ish haqi qishloqdagi ish haqidan yuqori bo‘lsa, oqim to‘xtamaydi [2]. Shu bilan birga, Lall, Selod va Shalizi sharhiga ko‘ra, standart nazariyadagi sodda bog‘liqlik hamma holatda ham tasdiqlanmaydi: shahar ish haqi endogen bo‘lganda va migratsiya xarajatlari hisobga olinganda, ish haqi farqi va migratsiya o‘rtasidagi aloqa murakkablashadi [5]. Etzo ham hududlararo yuqoriroq ish haqining o‘zi yetarli emasligini, uni past ishsizlik bilan birga baholash lozimligini hamda ish haqi farqi sharoitida ham faqat ayrim shaxslar ko‘chib o‘tishini ta’kidlaydi [6]. Demak, ish haqi tafovuti migratsiyaning zarur, ammo yagona omili emas.

O‘zbekiston tajribasi. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil yanvar–iyun oylarida mamlakat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi 7,09 mln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 18,4 foizga oshgan. Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 12,01 mln so‘m, Navoiy viloyatida 8,72 mln so‘m bo‘lgan, Qashqadaryo viloyatida esa 4,86 mln so‘mni tashkil etgan, ya’ni Toshkent shahri bilan farq taxminan 2,5 baravarga teng [7]. Tafovut nafaqat joriy darajada, balki dinamikada ham ko‘rinadi: 2018–2025-yillarda Toshkent shahrida aholi jon boshiga nominal daromad 16,2 mln so‘mdan 73,9 mln so‘mgacha, ya’ni 4,5 baravar o‘sgan, eng yuqori va eng past daromadli hududlar o‘rtasidagi nisbat esa 2,6 baravardan 3,6 baravargacha kengaygan [8].

O‘roqovning 2017–2025-yillar uchun tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy ish haqi tafovutining ortishi asosan Toshkent shahridagi tezroq o‘sish bilan bog‘liq, boshqa hududlarning ko‘pchiligida esa nisbiy ish haqi darajalarida yaqinlashuv kuzatiladi; shu bilan birga hududiy mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik susaygan [9]. Bu holat (1-jadvalga qarang) tafovutni faqat unumdorlik farqi bilan izohlab bo‘lmasligini, banklar, axborot texnologiyalari va konsalting kabi yuqori maosh to‘lanadigan sohalarning yirik shaharlarda to‘planishi hamda aglomeratsiya samarasi ham muhimligini bildiradi [8]. Hududlar bo‘yicha o‘sish sur’atlari ham tafovutni tezda yo‘qotmaydi: 2026-yil birinchi yarmida ish haqi Jizzax (20,4 foiz) va Namangan (19,4 foiz) viloyatlarida eng tez oshgan bo‘lsa-da, Qashqadaryo (17,2 foiz) va Toshkent shahri (18,2 foiz) o‘rtasidagi farq o‘sish sur’atlari orqali deyarli qisqarmagan [7].

Ichki migratsiya oqimlari ham shu manzarani aks ettiradi. 2025-yilda 14 ta hududga boshqa hududlardan yoki chet eldan 252,8 ming kishi koʻchib kelgan, ularning 121 ming nafari, ya’ni qariyb yarmi Toshkent shahri va viloyatiga toʻgʻri kelgan [8]. 2022–2024-yillar uchun tahlil ham roʻyxatga olingan ichki koʻchishlar soni 2022-yilda 214,8 ming, 2023-yilda 218,8 ming boʻlganini, oqimlarda ayollar ulushi 60 foizga yetganini va Toshkent ustun ekanini koʻrsatadi; asosiy omillar sifatida ish haqi va ish oʻrinlari sifatidagi tafovutlar hamda roʻyxatdan oʻtish qoidalarining yengillashuvi koʻrsatilgan [10]. Muallif koʻchishlar mehnat va ish oʻrinlarining fazoviy muvofiqligi orqali unumdorlikni oshirishi, biroq shahar infratuzilmasiga yukni kuchaytirib, donor hududlarni “yupqalashtirishi”ni ham qayd etadi [10]. Past hududiy ish haqi, qishloq infratuzilmasining rivojlanmaganligi va ishsiz ish kuchining mavjudligi ham ichki va tashqi migratsiyaning tarkibiy omillari sifatida koʻrsatiladi [11].

1-jadval.

Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatida ish haqi darajasi va ichki migratsiyaning asosiy koʻrsatkichlari

Mezon	Toshkent shahri	Qashqadaryo viloyati
Oʻrtacha oylik ish haqi, 2026-yil yanvar–iyun	12,01 mln soʻm	4,86 mln soʻm
Mamlakat oʻrtachasiga (7,09 mln soʻm) nisbati	taxminan 169 %	taxminan 69 %
Ish haqining yillik oʻsishi	18,2 %	17,2 %
Asosiy xususiyat	Bank, IT va konsalting kabi yuqori maoshli sohalar va ichki koʻchish oqimi toʻplanishi	Past ish haqi, ish oʻrinlari sifatining pastligi, donor hudud sifatida ishchi kuchi chiqishi

Manba: *Muallif tomonidan [7] ma’lumotlari asosida tuzildi.*

Amaliy misol: Nurobod tumanida ta’mirlash ishlaridan kuniga taxminan 15 AQSH dollari topish mumkin boʻlsa, Samarqandda bu koʻrsatkich 25 dollargacha oshadi, biroq yoʻl xarajatlari daromadning taxminan toʻrtdan birini oladi [12]. Bu nominal ish haqi farqi real foydadan yuqori boʻlishini koʻrsatadi.

Birinchidan, yuqori ish haqli ish oʻrinlarini hududlarga olib chiqish zarur: donor hududlarda sanoat zonalari, IT-xablar va xizmat koʻrsatish klasterlarini rivojlantirish, shuningdek hududiy bank va moliya xizmatlarini kengaytirish orqali Toshkentga bogʻliqlikni kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, nominal emas, real ish haqini kuzatish lozim. Toshkentdagi uy-joy va yashash xarajatlari hisobga olingan hududiy real ish haqi indeksi [8; 12] migratsiya qarorining haqiqiy iqtisodiy samarasini baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, ish haqini oshirishga qaratilgan subsidiyalar migratsiya oqimlarini kuchaytirib yuborishi mumkinligini (Todaro paradoksi) hisobga olish kerak [5]. Shu sababli hududlarda ish oʻrinlari yaratish bilan birga, mahalliy ishsizlik va kasbiy tayyorgarlik siyosatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Toʻrtinchidan, ichki migrantlar uchun arzon ijara uy-joy, jamoat transporti va roʻyxatdan oʻtish xizmatlarini raqamlashtirish orqali shahar infratuzilmasiga

yukni boshqarish [10] hamda donor hududlarda malakali kadrlarni saqlab qolish choralarini ko‘rish lozim.

Beshinchidan, siyosat samaradorligini baholash uchun hududlar kesimida ish haqi, ishsizlik, migratsiya saldosi, real daromad va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini yagona bazada yuritish zarur. Keyingi bosqichda ushbu ma’lumotlar asosida panel regressiya yoki gravitatsion migratsiya modeli orqali ish haqi tafovutining ichki ko‘chishga ta’sirini miqdoriy baholash mumkin [6; 9].

Xulosa. Hududiy ish haqi tafovutlari O‘zbekistonda ichki mehnat migratsiyasini belgilovchi muhim iqtisodiy omillardan biridir. Toshkent shahridagi ish haqi mamlakat o‘rtachasidan sezilarli yuqori bo‘lib, Qashqadaryo kabi hududlar bilan farq taxminan 2,5 baravarni tashkil etadi, ichki ko‘chib kelganlarning qariyb yarmi esa poytaxt hududiga yo‘nalmoqda.

Shu bilan birga, nazariya ham, empirik tahlillar ham migratsiyani faqat ish haqi bilan izohlab bo‘lmasligini, ish bilan bandlik ehtimoli, yashash xarajatlari, infratuzilma va ro‘yxatdan o‘tish qoidalari ham muhimligini ko‘rsatadi. Shu sababli hududiy ish o‘rinlarini rivojlantirish, real ish haqini monitoring qilish va migratsiya siyosatini yagona raqamli tizimda birlashtirish eng maqbul yo‘nalish sifatida taklif etiladi.

Adabiyotlar:

1. Harris J. R., Todaro M. P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. 1970. Vol. 60, No. 1. P. 126–142.

2. Todaro M. P. A Model of Labor Migration and Urban Unemployment in Less Developed Countries // American Economic Review. 1969. Vol. 59, No. 1. P. 138–148.

3. Sjaastad L. A. The Costs and Returns of Human Migration // Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70, No. 5, Part 2. P. 80–93.

4. Lewis W. A. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour // The Manchester School. 1954. Vol. 22, No. 2. P. 139–191.

5. Lall S. V., Selod H., Shalizi Z. Rural-Urban Migration in Developing Countries: A Survey of Theoretical Predictions and Empirical Findings. World Bank Policy Research Working Paper No. 3915. 2006. https://documents1.worldbank.org/curated/en6. Etzo I. Internal migration: a review of the literature. MPRA Paper No. 8783. Munich Personal RePEc Archive. 2008. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/8783/

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2026-yil yanvar–iyun oylari uchun o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (Spot.uz orqali: «Средняя зарплата в Узбекистане превысила 7 млн сумов, в Ташкенте — 12 млн сумов», 26.07.2026). https://www.spot.uz/ru

THE IMPACT OF GLOBAL ECONOMIC CHANGES ON LABOUR MIGRATION IN UZBEKISTAN

Abdurahmonov Sardor
Tashkent State University of Economics
abdurahmonovs306@gmail.com

This article examines the impact of global economic changes on labour migration in Uzbekistan. Changes in global economic growth, inflation, exchange rates, labour demand, economic integration, and the geographical diversification of migration affect both the decisions of Uzbek workers to seek employment abroad and the flow of remittances to Uzbekistan. The study considers the economic role of labour migration through household income, consumption,

savings, employment, and human capital. It also highlights the risks created by economic instability in destination countries and discusses measures that can improve the benefits of migration for Uzbekistan. Particular attention is paid to labour-market diversification, skills development, legal employment channels, and the productive use of remittances. The analysis shows that global economic changes make labour migration not only an external labour-market phenomenon but also an important factor affecting domestic economic stability and household welfare.

Globalization has increased the interdependence of national economies and labour markets. The movement of goods, services, capital, technology, and people across borders means that economic changes in one country can influence employment opportunities in another. Labour migration is therefore closely connected with international economic conditions, particularly differences in wages, labour demand, inflation, exchange rates, and employment opportunities.

For Uzbekistan, labour migration has become an important socio-economic process. Uzbek citizens seek employment abroad in order to increase household income, obtain professional experience, and access labour markets with higher demand for workers. At the same time, remittances sent by migrants support household consumption and savings and therefore influence domestic economic activity [2].

The relevance of this topic is increasing because the global economy is experiencing rapid structural changes. Technological development, inflationary pressures, economic slowdowns, changing labour demand, and deeper economic integration can alter both the volume and direction of international migration. Consequently, understanding these processes is important for developing effective labour-migration policy in Uzbekistan.

The decision to migrate is influenced by economic differences between the country of origin and destination. When wages and employment opportunities are more attractive abroad, workers have stronger incentives to migrate. However, migration is not determined by wage differences alone. The economic situation of destination countries, the cost of migration, legal regulations, exchange rates, and the demand for particular skills also shape migration decisions.

Muminov emphasizes that the structure and directions of external migration are connected with changing economic and social conditions [4]. In this context, global economic changes can create both opportunities and constraints for Uzbek workers. Economic expansion in destination countries may increase demand for migrant labour, while recession can reduce employment opportunities and make migrant income less stable.

Economic integration is another important factor. Closer economic relations between countries can create additional channels for legal employment and labour mobility. Alimovna and Muzaffar Ne’matjon o‘gli discuss economic integration in terms of both development opportunities and potential threats [1]. For labour migration, this means that integration can expand access to foreign

labour markets while simultaneously increasing competition and skill requirements.

Table 1

Main channels through which global economic changes affect labour migration

Global factor	Effect on labour migration	Related indicator / outcome for Uzbekistan
Economic growth and labour demand	Higher demand for workers and better wages can attract migrants.	Remittance inflows reached $18.9 billion in 2025, supporting household income and savings.
Inflation and economic slowdown	Firms may reduce hiring and real wages may decline.	A slowdown abroad can reduce migrant employment and remittance income, increasing household income uncertainty.
Exchange-rate changes	The domestic value of foreign earnings changes.	Exchange-rate movements can change the so'm value of migrants' foreign earnings and affect consumption and savings.
Economic integration	New legal employment channels and labour-market links can develop.	Broader links with European and Asian labour markets can diversify migration routes.
Digitalization and technological change	Demand may decline for some occupations while rising for skilled jobs.	Greater demand for digital and professional skills increases the importance of vocational training and certification.

The table demonstrates that migration is shaped by a combination of factors rather than by a single economic variable. A change in labour demand can influence the number of migrants, while inflation and exchange rates affect the real value of their earnings. At the same time, technological change increases the importance of professional and digital skills.

One of the most visible economic effects of labour migration is the transfer of income from migrants to their families. Remittances can finance everyday consumption, education, housing, healthcare, and savings. Xolmurodov specifically examines the relationship between migration, remittances, domestic consumption, and savings [2]. This demonstrates that migration has effects beyond the individual migrant: it can influence the financial behaviour and economic stability of entire households.

The scale of remittances also means that Uzbekistan is exposed to economic conditions in destination countries. If employment and wages deteriorate abroad, migrants may send less money home. Conversely, stronger labour demand and favourable exchange rates can increase household income. Therefore, remittances can be both an important source of economic support and a channel through which external shocks reach the domestic economy.

Abror notes the role of migration processes in supporting population welfare under globalization [6]. However, the long-term benefit depends on how remittances are used. If a significant part of these funds is directed towards

education, productive investment, entrepreneurship, and savings, migration can contribute to longer-term economic development rather than only short-term consumption.

Labour migration can provide several positive outcomes. First, it can reduce pressure on the domestic labour market by creating additional employment opportunities abroad. Second, migrants can increase household income and accumulate financial resources. Third, migrants may acquire new professional skills, work experience, and knowledge that can later be transferred to Uzbekistan.

At the same time, migration creates risks. Long-term absence of working-age people may affect families and local communities. The loss of skilled workers can also reduce the availability of human capital in some domestic sectors. Nafiddinova emphasizes that migration affects interethnic relations and therefore should be viewed as a social process as well as an economic one [5]. Orif similarly examines the influence of migration on moral relations under globalization [7].

Another challenge is unemployment and the quality of employment. Anvarovich examines unemployment and possible ways of reducing it in Uzbekistan [3]. From the perspective of global labour migration, this highlights the importance of improving domestic employment opportunities while also preparing workers for international labour markets.

Uzbekistan's migration geography is gradually becoming more diversified. According to the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, remittance inflows reached 18.9 billion US dollars in 2025, increasing by 28 percent compared with the previous year. The Central Bank also reported that migration links are expanding beyond traditional destinations towards European and Asian countries. This suggests that changes in global labour demand are contributing to the diversification of migration routes.

This development creates an opportunity for Uzbekistan to reduce excessive dependence on individual destination markets. At the same time, workers need to be prepared for different labour-market standards and skill requirements. The following policy priorities can therefore be identified:

Develop legal employment channels with a wider range of countries to reduce exposure to economic shocks in any single destination market.

Expand vocational training, foreign-language education, digital skills, and certification programmes before workers leave the country.

Increase government-to-government agreements and cooperation with foreign employers in order to reduce informal employment and related risks.

Encourage savings, education, entrepreneurship, and investment so that remittances contribute to long-term household and national development.

Create mechanisms through which returning migrants can transfer professional experience and skills to domestic businesses and the labour market.

Global economic changes have a direct influence on the scale, direction, and economic outcomes of labour migration from Uzbekistan. Economic growth, labour demand, inflation, exchange rates, economic integration, and technological change all affect migrants' decisions and the income they can earn abroad.

For Uzbekistan, labour migration provides important economic benefits through employment opportunities, household income, remittances, and the acquisition of new skills. Nevertheless, external dependence, social risks, unstable employment, and the possible loss of human capital must also be considered. The most effective approach is therefore not to restrict migration, but to make it safer, more legal, more diversified, and more productive.

In conclusion, Uzbekistan should focus on diversifying migration destinations, strengthening workers' skills, expanding legal employment channels, and encouraging the productive use of remittances. Such measures can help transform labour migration from a short-term source of household income into a broader contributor to human capital development and sustainable economic growth.

References:

1. Alimovna, Z. S., & Muzaffar Ne'matjon o'gli, B. (2025). Yeoiining iqtisodiy integratsiyasi: rivojlanish imkoniyatlari va tahdidlar. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(06), 77–84.

2. Xolmurodov, H. (2026, March). Migratsiya va pul o'tkazmalari (Remittances) Ichki iste'mol va jamg'armaga ta'siri. In Scientific practical conference, 1(3), 263–266.

3. Anvarovich, V. A. (2026). Ishsizlik muammosi va uni kamaytirish yo'llari: o'zbekiston misolida. "Ilm-fan fidoyisi", 1(1).

4. Muminov, Z. (2026). Tashqi migratsiya fenomenining tarkibi va yo'nalishlari. internationalsciences, education and new learning technologies.

5. Nafiddinova, X. R. (2026). Migratsiya JARAYONLARINING MILLATLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI. Innovation and development, 4(4), 203–208.

6. Abror, I. (2024). GLOBALLASHUV DAVRIDA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA MIGRATSION JARAYONLARNING TA'SIRI. Elita.uz – Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 95–98.

7. Orif, T. R. (2024). GLOBALLASHUV DAVRIDA MIGRATSION JARAYONLARNING AXLOQIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI. Elita.uz – Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 41–43.

LABOUR MIGRATION AND WAGE DIFFERENTIALS IN UZBEKISTAN

Saburova Sevinch Ravshanbek qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
saburovasevinch05@gmail.com
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Labor migration has become a crucial factor shaping Uzbekistan's economy and household incomes. In 2025, the country received $18.9 billion in remittances from abroad; this represents a 27.2 percent increase compared to the $14.8 billion recorded in 2024. According to data from the National Statistics Committee, the share of remittances in total household income rose from 16.5 percent to 21 percent [1].

According to World Bank estimates, remittances accounted for approximately 14 percent of Uzbekistan's Gross Domestic Product (GDP) in 2024.

Without these funds, the poverty rate among migrant families would have risen from 9.6 percent to 16.8 percent. Fifty-seven percent of migrants from Uzbekistan reside in Russia, while 15 percent live in Kazakhstan. A 2024 World Bank report highlights the importance of migration management policies [2].

Internal and international labor migration are interconnected processes; the primary driving force behind both is the wage differential in labor markets. When individuals earn low incomes in their local areas, they consider migrating first to the capital or major industrial centers, and subsequently to foreign countries. Therefore, analyzing regional wage disparities is crucial for formulating migration policy.

Harris and Todaro [3] argue that migration decisions are determined not by actual wages, but by the expected wage differential and the probability of finding employment; their model was originally developed to explain internal rural-to-urban migration. Consequently, this approach plays a significant role in analyzing interregional wage disparities as a key factor in internal migration.

Massey and his co-authors [4] synthesize various approaches to international migration such as neoclassical theory, dual labor market theory, and network theory and demonstrate their complementary nature. Within this framework, the migration decision is interpreted not only at the individual level but also at the family level, serving as a strategy for income diversification and risk sharing. This explains the significance of these remittances for household income [4].

Summarizing these approaches, it can be stated that the decision to migrate is shaped by the interplay of regional wage differentials, the probability of finding employment, relocation costs, and family income strategies. In the case of Uzbekistan, these factors demonstrate the intrinsic link between internal and external migration; therefore, it is appropriate to examine regional wage disparities in the context of the external labor market.

A World Bank report [2] notes the prevalence of low-skilled labor migration in Central Asia including Uzbekistan and recommends strengthening mechanisms for safe and formal migration. This implies that ensuring the protection of migrants regarding wages and working conditions should also be an integral part of regional policy.

Wage levels in Uzbekistan vary significantly across regions. During the period of January September 2025, the average monthly nominal wage across the republic stood at 6,166.9 thousand soums. Regional figures are presented in Table 1 [5].

As shown in Table 1, among the 14 regions, only Tashkent city (168.3% of the national average) and the Navoi region (123.4%) have wage levels exceeding the national average. While this figure stands at 94.1% in the Tashkent region, it ranges from 69.3% to 81.0% in the remaining 11 regions. The lowest figures were recorded in the Kashkadarya (69.3%), Surkhandarya (70.5%), and Namangan (73.7%) regions. Wages in Tashkent city are 2.4 times higher than in the Kashkadarya region and 1.4 times higher than in the Navoi region. Such disparities create conditions that drive internal migration flows toward the

capital and the Navoi region, while also intensifying the inclination of workers from low-income regions to seek employment in foreign labor markets.

Table 1.

Average monthly nominal wages by region (January–September 2025)

Territory	Average monthly nominal wage, thousand soums	Relative to the national average, %	Relative to Tashkent city, %
Tashkent City	10 379,6	168,3	100,0
Navoi Region	7 612,3	123,4	73,3
Tashkent Region	5 803,6	94,1	55,9
Andijan Region	4 996,5	81,0	48,1
Bukhara Region	4 953,1	80,3	47,7
Syrdaryo Region	4 930,8	80,0	47,5
Republic of Karakalpakstan	4 902,3	79,5	47,2
Samarkand Region	4 853,3	78,7	46,8
Khorezm Region	4 833,7	78,4	46,6
Jizzakh Region	4 589,0	74,4	44,2
Fergana Region	4 574,5	74,2	44,1
Namangan Region	4 543,8	73,7	43,8
Surkhandarya Region	4 347,2	70,5	41,9
Kashkadarya Region	4 270,8	69,3	41,1
Across Republic	**6 166,9**	**100,0**	**59,4**

Source: Author's calculations based on data from the National Statistical Committee [5].

It is also worth noting that the wage gap between Tashkent city and the Kashkadarya region amounts to approximately 6.1 million soums per month. At the same time, across 11 regions stretching from Andijan to Kashkadarya wages have settled within a relatively narrow range of approximately 4.3–5.0 million soums. Consequently, in the majority of the country's regions, the population earns significantly less than in the capital and the Navoi region; this factor remains a constant driver behind decisions to migrate.

According to official data, the number of labor migrants working abroad fell from 2.1 million at the end of 2022 to 1.35 million by the end of 2024 (a decrease of approximately 36 percent); meanwhile, the number of those working in Russia dropped from 1.2 million to 698,000 a decline of nearly 42 percent. Since migrant figures are calculated based on Ministry of Internal Affairs data, estimates from various sources may differ [6]. Despite the decrease in the number of migrants, the volume of remittances continues to rise: in 2025, they totaled $18.9 billion, marking a 27.2 percent increase compared to the previous year [1]. This trend may indicate an increase in migrants' average earnings and a rise in the share of

remittances sent through official channels.

According to data from the External Labor Migration Agency, the average starting monthly wage for the 211,000 jobs created abroad in the first half of 2025 was $1,500, and 86,300 citizens were employed through official channels [7]. For comparison, the average nominal wage in Uzbekistan during the first half of 2025 was approximately $470 [8]. Thus, the wages offered abroad are nearly 3.2 times higher than the local average; this comparison contrasting starting wages abroad with the local average wage clearly illustrates the situation. A lack of publicly available regional statistics regarding the number of migrants and the volume of remittances hinders the development of evidence-based regional policies.

The proposals are as follows:

Creating high-paying jobs in the industrial, construction, and service sectors in regions with low wage levels such as Kashkadarya, Surkhandarya, and Namangan and supporting entrepreneurship through preferential loans. Implementing a system to regularly collect and publicly disclose data broken down by region on internal migration, the number of external labor migrants, and the volume of remittances; additionally, expanding quotas and bilateral agreements with Germany, Japan, South Korea, and other high-wage nations, while organizing pre-departure language and vocational training for migrants through specialized centers.

Implementing financial literacy programs to channel remittances into entrepreneurship and production, and creating opportunities for returning migrants to start businesses and undergo vocational retraining.

These proposals serve to manage the interplay between internal and external labor migration, reduce income disparities across regions, and ensure the efficient use of labor resources. In summary, regional wage differentials, high wages abroad, and the share of remittances in household income remain the primary drivers of labor migration in Uzbekistan. Migration policy must take these factors into account by incentivizing job creation in the regions and supporting safe, formal migration.

References:

1. Fergana Agency. Remittances to Uzbekistan Reach Nearly $19 Billion, Exceeding Central Bank Forecasts. 2026. https://en.fergana.agency/news/145144/

2. World Bank (2024). The Journey Ahead: Supporting Successful Migration in Europe and Central Asia. Washington, DC: World Bank. https://www.worldbank.org/en/region/eca/publication/journey-ahead-supporting-successful-migration-in-europe-and-central-asia

3. Harris, J. R., & Todaro, M. P. (1970). Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis. American Economic Review, 60(1), 126–142.

4. Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1993). Theories of International Migration: A Review and Appraisal. Population and Development Review, 19(3), 431–466.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi (2025 yil yanvar–sentyabr). https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64856-

ajsi-ududlarda-rtacha-ojlik-ish-a-i-yu-ori-4

6. Gazeta.uz. Number of labor migrants from Uzbekistan abroad decreased to 1.35 million. 22 January 2025. https://gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant

7. Fergana Agency. Uzbekistan Authorities Officially Employed 86,000 Citizens Abroad in Six Months 2025. https://en.fergana.agency/news/139620/

8. Yep.uz. Average salary in Uzbekistan reaches nearly 6 million soums: what the figures show for the first half of 2025. 25 July 2025.

LABOR MIGRATION AND THE FORMATION OF HUMAN CAPITAL IN UZBEKISTAN

Kaxramanov Xasan Baxtiyarovich
Tashkent State University of Economics
spicger0@gmail.com
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o'g'li
Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics
sh.xamdamov@tsue.uz

Labor migration strongly affects Uzbekistan's economy and household incomes. In 2025, the country received $18.9 billion in remittances from abroad, which is 27.2% more than the $14.8 billion in 2024. According to the Statistics Committee, the share of remittances in household income rose from 16.5% to 21% [1]. However, migration affects not only income but also human capital, that is, people's knowledge, skills and health. This effect can go two ways. If remittances are spent on education and health, human capital grows. If family members stay abroad for a long time, or young people choose work over study, it weakens. The aim of this study is to assess how labor migration affects the formation of human capital in Uzbekistan and to give proposals.

Theoretical approaches**.** The literature has two views on how remittances affect human capital. According to the first, remittances are mostly spent on consumption, not on human capital. According to the second, part of them becomes investment in education and health [2, p. 2]. In addition, the emigration of a father or mother may negatively affect the education of the children left behind [2, pp. 3–4]. The reason is that older children sometimes leave school and start working to support the family. A study on Tajikistan also showed that young people follow the path of unskilled labor migrants instead of focusing on study [2, p. 4]. When remittances are seen as temporary income, they are more likely to be invested [2, p. 5].

The state of human capital**.** According to the World Bank's 2020 Human Capital Index, a child born in Uzbekistan today will reach 62% of the potential they could have with full education and health. Expected years of schooling are 12.0, but when what students actually learn is taken into account, this falls to 9.1 years [3]. According to a newer World Bank brief, in 2021, 32% of 10-year-old children could not read and understand a simple text [4]. So there are problems with the quality of education, and

migration may affect this situation.

Education and skills of migrants**.** According to the Legislative Chamber, 72% of Uzbek labor migrants have no university or college degree: 43% have general secondary education and 29% have incomplete secondary education [5]. Every year about 650 thousand people finish general secondary or secondary vocational schools, only a quarter of them continue to university, and about 300 thousand new jobs are created per year [5]. For this reason many young people, especially from rural areas, look for work abroad. This is a risk for human capital, because young people do unskilled work and do not improve their knowledge. But the situation is changing: the share of people leaving through organized migration was 0.15% in the past and reached 8–9% in 2022. The state offers language courses for $10–25 (about 12 weeks), and those registered in the "Xorijda ish" system get part of the cost of a language or professional skills certificate covered [5].

Remittances and education**.** A study on Uzbekistan found that households receiving remittances spend a smaller share of their budget on food and health and a larger share on non-food consumption. The effect on education expenditures was statistically insignificant. The authors explained this by remittances being spent mainly on consumer goods [6]. According to another study, the reason may be that parents expect big obstacles for their children to enter higher education: more than half of students in higher education come from households in the top consumption quintile [2, p. 4]. The main indicators are given in Table 1.

The table below shows that remittances are very large (21% of household income), but they do not noticeably increase education expenditures. A large share of migrants have no university or college degree. These data do not prove causality, but they show that remittances have not yet become a factor that strengthens human capital. It should also be noted that the indicators in the table come from different years and sources, so they give only a general picture.

Table 1.

Key indicators of labor migration and human capital

Indicator	Value	Source
Human Capital Index (World Bank, 2020)	0.62	[3]
Expected years of schooling	12.0	[3]
Learning-adjusted years of schooling	9.1	[3]
Share of 10-year-olds who cannot read and understand a simple text (2021), %	32	[4]
Share of migrants without a university or college degree, %	72	[5]
Remittances, 2025, USD billion	18.9	[1]
Share of remittances in household income, %	16.5 to 21	[1]
Effect of remittances on education expenditures	Statistically insignificant	[6]

Source: *compiled by the author based on [1; 3–6].*

The state is paying more attention to managing migration. The Agency for Foreign Labor Migration was established in 2018, and a 2020 presidential decree provided low-interest loans to poor citizens going abroad. Uzbekistan has signed

agreements with almost 300 recruiting agencies from 28 countries, and over the past two years 70 thousand people were sent to work in developed countries [5]. More than 2 million users are registered on the "Xorijda ish" platform, and there are over 50 thousand vacancies. But not everyone fits these jobs: lack of language and of the required skills is an obstacle. To get a good job in developed countries, 12–24 weeks of language and vocational training are needed, and not everyone can manage this [5].

Returning migrants**.** Returning migrants may not be able to fully use at home the experience they gained abroad. In a 2022 UNDP survey (Namangan and Tashkent regions, not representative of the whole country), unemployment among returnees was 51.2%, compared with 0.4% abroad [7]. In the first half of 2026, 661 thousand people returned, and 557 thousand of them (84%) were engaged in income-generating activity [8]. These figures cannot be compared directly because they were obtained by different methods and for different regions. How far the skills of returnees are used needs a separate study.

Migration and poverty**.** Lower poverty creates better conditions for children's education and health. According to a World Bank study, without remittances the poverty rate (at the $3.2 per day line) would rise from 9.6% to 16.8% [9, p. 10]. So remittances help human capital indirectly, but, as seen above, they do not turn into direct investment in education.

Proposals**.** Based on the analysis, we give five proposals. First, language and vocational training before departure should be expanded. This helps move migrants from unskilled to skilled work [5]. Second, methods are needed to direct remittances to education and professional training, for example, a special education savings fund or a preferential education loan. At present remittances do not increase education expenditures [6]. Third, schools should identify children whose parents are abroad and monitor their risk of dropping out [2, pp. 3–4]. Fourth, skills that returnees gained abroad should be certified and returnees should be helped to find jobs. The subsidy for employers (500 thousand soums a month for 12 months) [10] applied to those hired before January 1, 2026 [5]; it is better to extend it and link it to skills. Fifth, access to higher education for rural youth should be widened (grants, preferential loans) [2, p. 4].

Conclusion. Labor migration affects human capital in Uzbekistan in two ways. Remittances raise family incomes, but so far they do not noticeably increase education expenditures. A large share of migrants have no university or college degree, and the skills of returnees may not be fully used. To strengthen human capital, we propose pre-departure training, directing remittances to education, monitoring children left behind and recognizing the skills of returnees.

References:

1. Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 // Kun.uz. 29.01.2026. URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025 (accessed: 06.10.2026).

2. Kakhkharov J. The Effects of Remittances in Central Asia. Policy brief. Hollings Center for International Dialogue, 2020. URL: https://hollingscenter.org/wp-content/uploads/2020/12/Kakhkharov-ENG.pdf (accessed: 06.10.2026).

3. Human Capital Index 2020: Uzbekistan. Human Capital Project. Washington, DC: World Bank, October 2020. URL: https://databankfiles.worldbank.org/public/ddpext_download/hci/HCI_2pager_UZB.pdf (accessed: 06.10.2026).

4. Human Capital Complementary Indicators: Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2025. URL: https://thedocs.worldbank.org/en/doc/1fdac37811cb70ef6b825eca207e7e93-0140012025/original/Uzbekistan.pdf (accessed: 06.10.2026).

5. How Are Patterns of Labor Migration From Uzbekistan Changing? // The Diplomat (Crossroads Asia). April 2024. URL: https://sv7.thediplomat.com/2024/04/how-are-patterns-of-labor-migration-from-uzbekistan-changing (accessed: 06.10.2026).

6. Kakhkharov J., Ahunov M., Parpiev Z., Wolfson I. South-South migration: Remittances of labour migrants and household expenditures in Uzbekistan // International Migration. 2021. Vol. 59, no. 5. P. 38–58. DOI: 10.1111/imig.12792.

7. Support and Reintegration of Labor Repatriates in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Analytical Report. Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2022. URL: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-01/Migrant%20Survey%20Report_Final_UNDP.docx_.pdf (accessed: 06.10.2026).

QISHLOQDAN SHAHARGA MIGRATSIYA VA ISH HAQI: O‘ZBEKISTON VA XITOY TAJRIBASI


Muxammedova Malika Jasurjon qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
malikamuxammedova0@gmail.com

Hozirgi kunda global miqyosda qishloqdan shaharga migratsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sish, mehnat bozori shakllanishi va ish haqi differensatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ichki migratsiya, xususan, qishloq aholisining shahar markazlariga, avvalo Toshkent shahriga ko‘chishi, ish haqi farqlari va bandlik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Xitoy tajribasi esa hukou (uy xo‘jaligi ro‘yxatga olish) tizimi orqali boshqariladigan yirik miqyosdagi qishloq-shahar migratsiyasining klassik namunasi hisoblanadi. Ushbu tezisda O‘zbekiston va Xitoy tajribalari solishtirilib, migratsiya oqimlarining ish haqiga ta’siri tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi [1,2]

Tadqiqotning maqsadi – qishloqdan shaharga migratsiya jarayonlarining ish haqi darajasiga ta’sirini O‘zbekiston va Xitoy misolida o‘rganish, statistik ma’lumotlar asosida farqlarni aniqlash va O‘zbekiston uchun foydali jihatlarni ajratib ko‘rsatishdan iborat.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respublika bo‘yicha ichki migratsiya doirasida 252,8 ming kishi ko‘chib kelgan, 261,8 ming kishi ko‘chib ketgan. Ko‘chib kelganlarning taxminan 74 foizi shahar joylarga yo‘nalgan. Toshkent shahri va Toshkent viloyati yagona ijobiy migratsiya saldosiga ega hududlar bo‘lib, Toshkent shahriga 90 mingdan ortiq kishi ko‘chib kelgan [3, 4]. Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Qoraqalpog‘iston kabi hududlarda esa aholi chiqib ketishi kuzatilmoqda.

Ish haqi farqlari migratsiyaning asosiy omillaridan biridir. 2026-yilning birinchi yarmida O‘zbekistonda o‘rtacha nominal ish haqi 7,1 mln so‘mni tashkil etgan (yillik o‘sish 18,4%, real o‘sish 10,9%). Toshkent shahrida o‘rtacha ish haqi 11,7 mln so‘m atrofida, Navoiyda 8,5 mln so‘m, eng past ko‘rsatkichlar Qashqadaryo va Surxondaryoda 4,7 mln so‘m atrofida qayd etilgan. Qishloq xo‘jaligida o‘rtacha ish haqi atigi 3,5 mln so‘mni tashkil etadi, moliya va IT sohalarida esa 17–19 mln so‘mga yetadi [5,6].



1-rasm. O‘zbekiston hududlari bo‘yicha o‘rtacha ish haqi taqsimoti

Xitoyda 2025-yilda qishloq migrant ishchilarining umumiy soni 301,15 mln kishiga yetgan (oldingi yilga nisbatan +0,5%). Ulardan 180 mln nafari o‘z yashash joyidan tashqarida ishlagan. Migrant ishchilarning o‘rtacha oylik daromadi 5075 yuan (taxminan 700 AQSh dollari) ni tashkil etgan, shu jumladan, boshqa viloyatga ketganlar 5774 yuan, mahalliy migrantlar 4376 yuan olgan [7, 8].
Hukou tizimi uzoq yillar davomida qishloq migrantlarining shahar ijtimoiy xizmatlaridan (ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy) to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilgan. Natijada, migrant ishchilar odatda past malakali, norasmiy yoki yarim rasmiy ishlarda band bo‘lib, shahar aholisidan pastroq ish haqi olganlar. Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hukou holatining ish haqiga salbiy ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli, ammo nisbatan kichik (PCC ≈ –0,05) [9].

1-jadval

Xitoy migrant ishchilari asosiy ko‘rsatkichlari (2025 y.)


Ko‘rsatkich	Qiymat
Migrant ishchilar soni	301,15 mln
Tashqi migrantlar	180,06 mln
O‘rtacha oylik daromad	5075 yuan
Tashqi migrantlar daromadi	5774 yuan
Mahalliy migrantlar daromadi	4376 yuan

Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi, 2025-yil migrant ishchilar monitoringi [7, 8].

So‘nggi islohotlar (2024–2026) doirasida 5 mln dan kam aholiga ega shaharlarda hukou cheklovlari yumshatildi va asosiy xizmatlar doimiy yashash joyiga bog‘lanmoqda [10]. Xitoyda urbanizatsiya darajasi 2025-yilda 67,9 foizga yetgan. Bu O‘zbekistondagi taxminan 51 foizlik ko‘rsatkichdan sezilarli darajada yuqori. Migrant ishchilarning asosiy bandlik sohalari: qurilish, ishlab chiqarish, transport va xizmat ko‘rsatish. Qurilishda o‘rtacha ish haqi 5880 yuan, ishlab chiqarishda 5126 yuan bo‘lgan [7].

Solishtirish va tahliliy xulosalar.Ikki mamlakat tajribasini solishtirganda quyidagi o‘xshashliklar va farqlar kuzatiladi. Birinchidan, har ikkala mamlakatda qishloq-shahar ish haqi farqi migratsiyaning asosiy turtki omili hisoblanadi. O‘zbekistonda Toshkent va qishloq hududlari o‘rtasidagi ish haqi farqi 2–2,5 baravarga yetadi; Xitoyda ham shahar va qishloq daromadlari o‘rtasidagi nisbat taxminan 2,3–2,5 ni tashkil etadi. Ikkinchidan, Xitoyda hukou tizimi migratsiyani institutsional jihatdan cheklagan bo‘lsa, O‘zbekistonda ichki migratsiya nisbatan erkinroq, ammo uy-joy, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasi bosim ostida qolmoqda.

Uchinchidan, Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, migratsiya oqimlarini to‘liq to‘xtatish emas, balki ularni boshqarish, migrantlarni shahar hayotiga integratsiya qilish va asosiy xizmatlarni doimiy yashash joyiga bog‘lash samaraliroq yo‘l hisoblanadi. O‘zbekistonda ham Toshkentga bo‘lgan bosimni kamaytirish uchun mintaqaviy markazlarni (Samarqand, Farg‘ona vodiysi, Navoiy) rivojlantirish, qishloqda ish o‘rinlari yaratish va professional ta’lim tizimini kuchaytirish zarur.



2-rasm. O‘zbekiston va Xitoy solishtirma ko‘rsatkichlari (2025 y.)

Xulosa qilib aytganda, qishloqdan shaharga migratsiya iqtisodiy o‘sishning tabiiy qismi bo‘lib, uni to‘g‘ri boshqarish orqali ish haqi farqlarini kamaytirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Xitoy tajribasidan O‘zbekiston uchun eng muhim dars – migrantlarni shahar ijtimoiy

himoya tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish va mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirishdir.

Amaliy tavsiyalar:

1. Mintaqaviy shaharlar (Samarqand, Andijon, Buxoro, Termiz) da sanoat va xizmat ko‘rsatish klasterlarini rivojlantirish orqali Toshkentga migratsiya bosimini kamaytirish;
2. Qishloq xo‘jaligida ish haqini oshirish va agroindustriya zanjirlarini yaratish;
3. Ichki migrantlar uchun uy-joy, bolalar ta’limi va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
4. Kasb-hunar ta’limini mehnat bozori talablariga moslashtirish va migrantlar uchun qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish;
5. Migratsiya statistikasini doimiy monitoring qilish va mintaqaviy rivojlanish dasturlarini migratsiya oqimlariga bog‘lash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

2. Markaziy bank. Mehnat bozori sharhi. 2026-yil II chorak.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi migratsiyasi ma’lumotlari, 2025-yil.

4. IOM DTM. Uzbekistan Migration Situation Report, 2025.

5. Kun.uz / Kapital.uz. Ish haqi va migratsiya tahlillari, 2026-yil.

6. Central Bank of Uzbekistan. Labour Market Review, 2025–2026.

7. National Bureau of Statistics of China. 2025 Migrant Workers Monitoring Survey Report.

8. Xinhua / China.org.cn. Income of China’s migrant workers, 2026.

MEHNAT MIGRATSIYASI QARORINI BELGILOVCHI OMILLAR: MIKROIQTISODIY YONDASHUV

Ibrohimova Dildora Sa’dulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat migratsiyasi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u mehnat resurslarining hududlar va mamlakatlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning yuzaga kelishi ko‘pincha ish haqi darajasidagi farqlar, ish topish imkoniyatlari, turmush darajasi, kasbiy rivojlanish sharoitlari va oilaning iqtisodiy ehtiyojlari bilan bog‘liq. Shu sababli mehnat migratsiyasini o‘rganishda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, alohida shaxs va uy xo‘jaligi darajasidagi qarorlarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Mikroiqtisodiy yondashuvga ko‘ra, shaxs migratsiya to‘g‘risida qaror qabul qilishda mavjud imkoniyatlarni o‘zaro taqqoslaydi. Bunda u mamlakatda qolish orqali olinishi mumkin bo‘lgan daromadni xorijda ishlash natijasida kutilayotgan daromad bilan solishtiradi. Biroq qaror faqat nominal ish haqi miqdoriga asoslanmaydi. Turar joy, oziq-ovqat, transport, hujjatlarni rasmiylashtirish, yo‘l

haqi, tibbiy xizmat va oiladan uzoqda yashash bilan bog‘liq xarajatlar ham hisobga olinadi. Shuningdek, ish topolmaslik, ish haqi kechiktirilishi yoki mehnat huquqlarining buzilishi kabi xavflar kutilayotgan iqtisodiy natijaga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat migratsiyasini tushuntiruvchi klassik mikroiqtisodiy yondashuvlardan biri inson kapitali nazariyasidir. G.S. Bekker insonning ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va ko‘nikmalarga kiritgan investitsiyalarini kelajakdagi daromadni oshirish vositasi sifatida izohlaydi [1]. Mazkur nuqtayi nazardan, mehnat migratsiyasi ham insonning o‘z mehnat resurslaridan yuqoriroq iqtisodiy samara olishga intilishi sifatida qaralishi mumkin. Masalan, muayyan kasb bo‘yicha malakaga ega bo‘lgan shaxs xorijiy mehnat bozorida o‘z ko‘nikmalariga talab yuqori ekanini aniqlasa, migratsiyani daromadini oshirish imkoniyati sifatida baholaydi.

Lekin migratsiyaning iqtisodiy samarasi shaxsning malakasi bilan bir qatorda, ushbu malakadan foydalanish imkoniyatiga ham bog‘liq. Xorijiy tilni bilish, kasbiy sertifikatga ega bo‘lish, mehnat shartnomasi shartlarini tushunish va ishonchli ish beruvchini tanlash migratsiya natijasini yaxshilashi mumkin. Aksincha, axborot yetishmasligi, malakaning tan olinmasligi va norasmiy ishga joylashish daromad kutilganidan past bo‘lishiga olib keladi.

Migratsiya qarorini tahlil qilishda kutilayotgan sof iqtisodiy manfaat tushunchasidan foydalanish mumkin. Uni shartli ravishda quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\mathbf{NSM = E(Y_m) - Y_0 - C_m - R_m}$$

Bu yerda NSM — migratsiyaning kutilayotgan sof manfaati; $E(Y_m)$ — xorijda ishlashdan olinishi kutilayotgan daromad; Y_0 — mamlakatda qolgan taqdirda olinishi mumkin bo‘lgan daromad; C_m — migratsiya bilan bog‘liq xarajatlar; R_m — migratsiya tavakkalchiligining kutilayotgan iqtisodiy zarari. Ushbu ifoda qaror qabul qilishning soddalashtirilgan modelidir. Agar migratsiyaning kutilayotgan sof manfaati ijobiy bo‘lsa, boshqa shartlar teng bo‘lgan vaziyatda xorijda ishlash jozibadorroq ko‘rinadi. Biroq yakuniy qaror oilaviy majburiyatlar, shaxsiy afzalliklar, ijtimoiy aloqalar va noaniqlik darajasiga ham bog‘liq.

Migratsiya qarorining yana bir muhim omili — uy xo‘jaligining iqtisodiy holatidir. Uy xo‘jaligi o‘z daromadlarini faqat bir manbaga bog‘lab qo‘ymaslik, iste’molni barqarorlashtirish va kelajakdagi moliyaviy ehtiyojlarni qoplash maqsadida oila a’zolaridan birining xorijda ishlashini ma’qul ko‘rishi mumkin. O. Stark va D. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan yangi mehnat migratsiyasi iqtisodiyoti yondashuvi migratsiya qarorini faqat individual shaxsning tanlovi sifatida emas, balki uy xo‘jaligining daromad va tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi sifatida ham o‘rganadi [2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, mahalliy kredit, sug‘urta va bandlik imkoniyatlari cheklangan sharoitda migratsiya oilaning iqtisodiy xavfsizligini oshirish vositasi bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi, ish o‘rinlarining sifati va ish haqi barqarorligi migratsiyaga moyillikni shakllantiradi. Agar shaxs o‘z hududida munosib ish topa olmasa yoki mavjud daromad kundalik ehtiyojlarni qoplash uchun yetarli bo‘lmasa, xorijda ishlash muqobil iqtisodiy

strategiyaga aylanadi. Biroq mahalliy ish o‘rinlari sonining ko‘payishi migratsiyani avtomatik ravishda kamaytiradi, deb xulosa qilish to‘g‘ri emas. Chunki ayrim fuqarolar yuqoriroq daromad, kasbiy tajriba va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari sababli ham migratsiyani tanlaydi.

Migratsiya qarorining shakllanishida axborot va ijtimoiy tarmoqlar ham alohida ahamiyatga ega. Xorijda ishlayotgan qarindoshlar, do‘stlar va tanishlardan olingan ma’lumotlar ish topish, yashash xarajatlari va mehnat sharoitlarini oldindan baholash imkonini beradi. D. Massey va boshqa tadqiqotchilar migratsiya tarmoqlari migratsiya xarajatlari va xavflarini kamaytirishi, natijada keyingi migratsiya qarorlariga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [3]. Shu bilan birga, tanishlar orqali olingan ma’lumotlar har doim ham to‘liq va ishonchli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun rasmiy vakansiyalar, mehnat shartnomalari va huquqiy maslahatlar muhim axborot manbai hisoblanadi.

1-jadval.

Mehnat migratsiyasi qarorini belgilovchi asosiy mikroiqtisodiy omillar

Omillar	Qarorga ta’sir mexanizmi	Kutiladigan natija
Ish haqi tafovuti	Xorijdagi va mahalliy daromad taqqoslanadi	Daromadi yuqoriroq bo‘lgan yo‘nalishga moyillik ortadi
Migratsiya xarajatlari	Yo‘l, hujjat, turar joy va boshqa boshlang‘ich xarajatlar hisobga olinadi	Xarajatlar oshishi migratsiya jozibadorligini kamaytiradi
Inson kapitali	Ta’lim, kasbiy malaka va til bilimi baholanadi	Malaka talab yuqori bo‘lgan bozorlarga chiqish imkonini oshiradi
Uy xo‘jaligi daromadi	Oila ehtiyojlari va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati hisobga olinadi	Migratsiya oilaviy moliyaviy barqarorlik vositasiga aylanishi mumkin
Bandlik imkoniyatlari	Mahalliy ish topish ehtimoli xorijdagi imkoniyatlar bilan taqqoslanadi	Mahalliy munosib ish o‘rinlari cheklanganda migratsiya rag‘bati kuchayishi mumkin
Axborot va ijtimoiy tarmoqlar	Ish va yashash sharoitlari haqida ma’lumot olinadi	Noaniqlik va qidiruv xarajatlari kamayishi mumkin
Tavakkalchilik	Ishsizlik, huquqiy muammolar va daromadning beqarorligi baholanadi	Xavflar oshishi migratsiyadan kutiladigan sof manfaatni kamaytiradi

Jadvalda keltirilgan omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, migratsiya qarori odatda bitta sabab bilan izohlanmaydi. Masalan, xorijdagi ish haqi yuqori bo‘lishi mumkin, ammo migratsiya xarajatlari katta yoki ishga joylashish ehtimoli past bo‘lsa, kutilayotgan sof manfaat kamayadi. Aksincha, ishonchli ish taklifi, bepul turar joy va kasbiy malakaga mos ish mavjudligi migratsiya qarorini iqtisodiy jihatdan jozibador qilishi mumkin. Demak, migratsiya qarorini baholashda daromad bilan bir qatorda xarajatlar va tavakkalchilikni ham hisobga olish zarur.

Mikroiqtisodiy yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u davlat siyosatini aholining real ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Birinchidan, mehnat migratsiyasiga tayyorlanayotgan fuqarolarga xorijdagi ish haqi, yashash xarajatlari, shartnoma shartlari va mehnat huquqlari bo‘yicha ishonchli axborot taqdim etish lozim. Ikkinchidan, kasbiy tayyorlash va xorijiy til kurslarini mehnat bozoridagi real talab bilan bog‘lash zarur. Uchinchidan, ishga joylashtirish vositachilarining faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish va fuqarolarning ortiqcha xarajatlarini kamaytirish muhim.

To‘rtinchidan, mahalliy mehnat bozorida munosib ish o‘rinlarini yaratish, kasbiy malakani oshirish va kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali fuqarolarning iqtisodiy tanlov imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Bunda asosiy maqsad migratsiyani faqat cheklash emas, balki fuqarolarning xorijda ishlash yoki mamlakatda qolish to‘g‘risidagi qarorni yetarli axborot va iqtisodiy imkoniyatlar asosida qabul qilishiga sharoit yaratishdan iborat. Beshinchidan, migratsiya siyosatini ishlab chiqishda yosh, jins, kasbiy malaka, hudud, oilaviy holat va daromad darajasi bo‘yicha farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi qarori mikroiqtisodiy nuqtayi nazardan kutilayotgan daromad, mahalliy bandlik imkoniyatlari, migratsiya xarajatlari, inson kapitali, uy xo‘jaligining moliyaviy ehtiyojlari va tavakkalchiliklarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shaxs yoki uy xo‘jaligi migratsiyani tanlashda faqat xorijdagi ish haqiga emas, balki barcha xarajatlar chegirilganidan keyin olinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy manfaatga ham e’tibor qaratadi. Shu sababli migratsiya qarorlarini chuqur o‘rganish uchun individual va

oilaviy darajadagi omillarni birgalikda tahlil qilish zarur. Mazkur yondashuv asosida mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish, migratsiya bilan bog‘liq axborot nomutanosibligini kamaytirish, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish va mahalliy bandlik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Natijada fuqarolarning migratsiya to‘g‘risidagi qarorlari yanada ongli, iqtisodiy jihatdan asoslangan va xavfsiz bo‘lishiga erishiladi.

Adabiyotlar:

1 Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press.

2 Stark, O., Bloom, D. E. (1985). The New Economics of Labor Migration. The American Economic Review, 75(2), 173–178.

3 Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., Taylor, J. E. (1993). Theories of International Migration: A Review and Appraisal. Population and Development Review, 19(3), 431–466.

4 Sjaastad, L. A. (1962). The Costs and Returns of Human Migration. Journal of Political Economy, 70(5, Part 2), 80–93.

5 Todaro, M. P. (1969). A Model of Labor Migration and Urban Unemployment in Less Developed Countries. The American Economic Review, 59(1), 138–148.

6 Borjas, G. J. (1989). Economic Theory and International Migration. International Migration Review, 23(3), 457–485.

7 International Organization for Migration (IOM). (2024). World Migration Report 2024. Geneva: IOM.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TO‘LOVLAR VA NAQD PUL: MIGRATSIYA DAVRIDAGI TO‘LOV ODATLARI

Ibroxim Norbutayev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ibrohimnorbutayev971@gmail.com

O‘zbekistonda raqamli to‘lov infratuzilmasi tezlik bilan kengaymoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil oxiriga kelib litsenziyaga ega to‘lov tashkilotlari soni 44 taga yetdi, ular qayta ishlagan tranzaksiyalar hajmi 333 trillion so‘mni tashkil etib, 2023-yildagi ko‘rsatkichdan 1,8 barobar oshdi. Tadbirkorlik sub’ektlariga 108 000 ga yaqin QR-kod berilgan [1]. Mehnat migratsiyasi keng tarqalgan O‘zbekistonda to‘lov odatlari alohida ahamiyatga ega, chunki chet eldagi yaqinlar yuborgan pul o‘tkazmalari ko‘plab oilalar uchun muhim daromad manbai bo‘lishi mumkin.

Umumiy o‘sish ko‘rsatkichlari raqamli to‘lovlardan aslida kimlar va qaysi maqsadlarda foydalanayotganini ko‘rsatmaydi. Kazakov va boshq. [2] O‘zbekiston iste’molchilarining mobil to‘lovlarni joriy etishga bo‘lgan niyatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganib, ishonch, foydalilik, ijtimoiy ta’sir, xavf, hedonik motivatsiya va munosabat muhim ekanini aniqlagan. Schomburgk va boshq. [3] 71 ta tadqiqotdagi 392 ta ta’sir hajmini umumlashtirib, naqd pulsiz to‘lovning xarajatlarga ta’siri (cashless effect) kichik, ammo statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko‘rsatgan. Bunday tadqiqotlar iste’molchilar allaqachon raqamli usulda to‘lov qilmoqda, degan farazga tayanadi. Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi uch guruh vakillari to‘lovlarni amalda qanday amalga oshirishini tasvirlash orqali shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Anonim onlayn so‘rovnoma qulay tanlov usuli yordamida 2026-yil oktyabr oyida SATashkent Union, SATashkent Community, Class of 2031 va boshqa onlayn hamjamiyat guruhlari orqali tarqatildi. So‘rovda jami 203 nafar kishi ishtirok etdi, jumladan 143 nafar talaba, 50 nafar xodim va 10 nafar tadbirkor. So‘rovnoma ingliz tilida o‘tkazildi. Unda ishtirokchilarning yosh guruhi, kasbi va taxminiy oylik shaxsiy daromadi, kundalik xaridlarda eng ko‘p foydalanadigan to‘lov usuli, raqamli to‘lovlardan foydalanish chastotasi, raqamli to‘lovda rejalashtirilmagan (impulsiv) xarid qilish chastotasi, naqd pulga nisbatan raqamli to‘lovda ko‘proq xarajat qilish haqidagi fikri, keshbek, chegirma va aksiyalarning ta’siri hamda xarajatlar tarixini tekshirish chastotasi so‘ralgan, shuningdek, raqamli to‘lovlar haqidagi uchta fikrga rozilik darajasi baholangan. Javoblar guruhlar bo‘yicha son va foiz ko‘rsatkichlari yordamida tavsifiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

Ishtirokchilarning taxminan 50 foizi kundalik to‘lovlar uchun kartalardan foydalanadi, biroq ko‘pchilik hali ham hisob-kitoblarni, jumladan, kommunal va boshqa to‘lovlarni naqd pulda amalga oshiradi.

Talabalar (n = 143): to‘lovlarda ham onlayn, ham oflayn usullardan foydalanadi.

Transport to‘lovlari alohida ajralib turadi: talabalarning 95 foizi karta orqali to‘laydi.

Xodimlar (n = 50): aksariyati to‘lovlar uchun ilovalardan foydalanadi, 50 nafar xodimdan taxminan 40 nafari (qariyb 80 foizi) esa ish haqini bank kartasiga oladi.

Tadbirkorlar (n = 10): aksariyati to‘lovlar uchun ilovalardan foydalanadi, biroq biznes faoliyatida asosan naqd pul bilan ishlaydi.

Raqamli to‘lovlardan foydalanish chastotasi guruhlar bo‘yicha farq qildi. Talabalarning 80 foizi raqamli to‘lovlardan tez-tez foydalanishini bildirdi, qolgan 20 foizi esa ba’zan (10 foiz) yoki kamdan-kam (10 foiz) foydalanadi. Xodimlarning 60 foizi raqamli to‘lovlardan juda tez-tez foydalanadi, qolgan 40 foizi ba’zan foydalanadi. Tadbirkorlarning 60 foizi raqamli to‘lovlardan tez-tez foydalanadi, qolganlari o‘rtacha darajada foydalanadi.

1-jadval.

Guruhlar bo‘yicha to‘lov usullari xususiyatlari

Guruh	n	Asosiy xususiyat
Talabalar	143	Onlayn va oflayn usullar aralashmasi; 95% transport uchun karta orqali to‘laydi
Xodimlar	50	Aksariyati to‘lovlar uchun ilovalardan foydalanadi; taxminan 40 nafari ish haqini kartaga oladi
Tadbirkorlar	10	To‘lovlar uchun ilovalardan foydalanadi, ammo biznes hisob-kitoblari asosan naqd pulda

Raqamli to‘lovlardan foydalanish chastotasi guruhlar bo‘yicha farq qildi. Talabalarning 80 foizi raqamli to‘lovlardan tez-tez foydalanishini bildirdi, qolgan 20 foizi esa ba’zan (10 foiz) yoki kamdan-kam (10 foiz) foydalanadi. Xodimlarning 60 foizi raqamli to‘lovlardan juda tez-tez foydalanadi, qolgan 40 foizi ba’zan foydalanadi. Tadbirkorlarning 60 foizi raqamli to‘lovlardan tez-tez foydalanadi, qolganlari o‘rtacha darajada foydalanadi.

Xarajatlar tarixini tekshirish chastotasi bo‘yicha ham guruhlar o‘rtasida farq kuzatildi. Talabalarning 30 foizi bank yoki to‘lov ilovasida xarajatlar tarixini tez-tez yoki har doim tekshiradi. Xodimlar orasida bu ko‘rsatkich 45 foizni tashkil etdi. Tadbirkorlar esa xarajatlar tarixini juda tez-tez tekshirishini bildirdi.

Raqamli to‘lovlarning o‘zlashtirilishi naqd puldan raqamli shaklga oddiy o‘tish emas, balki notekis jarayondir. Raqamli to‘lov eng avvalo tez-tez takrorlanadigan, kichik va standartlashtirilgan operatsiyalarda, masalan, transportda kuchli namoyon bo‘ladi. Ish haqining kartaga o‘tkazilishi ham xodimlar uchun raqamli xarajatni tabiiyroq qilishi mumkin, biroq ushbu so‘rovnoma buni sabab sifatida isbotlay olmaydi. Tadbirkorlar eng ko‘p naqd pulga yo‘naltirilgan guruh bo‘ldi. Buning sababi kichik savdolarda naqd pulning qulayligi yoki komissiya to‘lovlaridan qochish bo‘lishi mumkin, lekin faqat o‘n nafar tadbirkor ishtirok etgani uchun bu taxmin darajasida qoladi.

Ushbu topilmalar joriy etish bo‘yicha adabiyotlarni to‘ldiradi: odamlar raqamli to‘lovlarni o‘zlashtirgan joyda ham, naqd pul ayrim sohalarda saqlanib qoladi. Naqd pulsiz to‘lov ta’siri bo‘yicha adabiyotlarga esa bu natijalar faqat bilvosita aloqador, chunki so‘rovnoma xarajatlarni yoki impulsiv xaridlarni

o‘lchamagan. Faraz va Anjum [4] raqamli to‘lovlar xarajat qilishga bo‘lgan psixologik qarshilikni kamaytirishi va impulsiv xaridlarga olib kelishi mumkinligini ilgari surgan. Bizning natijalar bunday ta’sirlar qayerda ko‘proq

namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi: allaqachon muntazam ravishda raqamli to‘lov qilinadigan guruhlar va operatsiyalarda.

Natijalarni migratsiya kontekstida ham ko‘rib chiqish mumkin. Mehnat migratsiyasi keng tarqalgan sharoitda pulning bank kartasi, mobil ilova yoki naqd shaklda qabul qilinishi va sarflanishi oilaning to‘lov odatlariga ta’sir qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot migrantlar yoki ularning oilalarini alohida o‘rganmagan, shuning uchun topilmalarni bevosita migratsiya bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Shunga qaramay, ish haqining kartaga o‘tkazilishi va ilovalardan keng

foydalanilishi raqamli kanallar orqali kelgan pul o‘tkazmalarini qabul qilish va ishlatish uchun qulay zamin yaratishi mumkin. Naqd pulning saqlanib qolishi esa o‘tkazmalar kartaga tushgandan keyin ham ularning naqdlashtirilishi ehtimolini ko‘rsatadi, biroq bu taxmin so‘rovnoma ma’lumotlari bilan tasdiqlanmagan.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Tanlov talabalar ustun bo‘lgan qulay tanlov bo‘lgani uchun topilmalarni butun O‘zbekistonga umumlashtirib bo‘lmaydi. Tadbirkorlar guruhi juda kichik, ma’lumotlar ishtirokchilarning o‘zi bildirgan javoblarga asoslangan va statistik ahamiyatlilik testlari o‘tkazilmagan. Tadqiqot raqamli to‘lovlarning xarid xatti-harakatlariga ta’sirini yoki sabablarini aniqlay olmaydi.

Natijalardan amaliy tavsiyalar kelib chiqadi. Transportda raqamli to‘lov muvaffaqiyatli bo‘lgani uchun uni boshqa kichik va muntazam to‘lovlarga, masalan, kommunal va kundalik xaridlarga kengaytirish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlar o‘rtasida raqamli to‘lovni oshirish uchun QR-kodlardan foydalanishni osonlashtirish va komissiya xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan rag‘batlar foydali bo‘lishi mumkin. Biroq tadbirkorlar guruhi kichik bo‘lgani uchun bu tavsiyalar qat’iy xulosa emas, balki keyingi tadqiqotlarda tekshirilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston kuchli raqamli to‘lov infratuzilmasini yaratdi, ba’zi kundalik amaliyotlar, xususan, transport to‘lovlari va ish haqini olish allaqachon asosan raqamli bo‘lib qoldi. Biroq ishtirokchilarning qariyb yarmi kundalik to‘lovlarda kartadan foydalanadi, ko‘pchilik hali ham hisob-kitoblarni naqd pulda amalga oshiradi, tadbirkorlar esa asosan naqd pulga tayanadi. Kelgusi tadqiqotlar kattaroq va vakillik qiladigan tanlovlar hamda xarid xatti-harakatini o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar yordamida raqamli to‘lovlar

iste’molchilarning xarid qilish usulini o‘zgartiradimi, degan savolga javob berishi mumkin.Migratsiya sharoitida pul o‘tkazmalarini qabul qiluvchi va qabul qilmaydigan xonadonlarning to‘lov odatlarini solishtirish ham kelgusi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalishdir.

Adabiyotlar:

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Annual report 2024. https://cbu.uz/upload/medialibrary/f27/1pe2gj41x2s1qafmi548hnvzg4aoh87x/Annual-Report-2025_.pdf

2. Kazakov, T., Islam, M. F., AlWadi, B. M., Khan, M. U., Hossain, M. B., & Vasa, L. (2024). An analysis of consumer decision-making in digital mobile payment adoption. Decision Making: Applications in Management and Engineering, 7(1), 651–675.

3. Schomburgk, L., Belli, A., & Hoffmann, A. O. I. (2024). Less cash, more splash? A meta-analysis on the cashless effect. Journal of Retailing, 100(3), 382–403.

4. Faraz, N., & Anjum, A. (2025). Spendception: The psychological impact of digital payments on consumer purchase behavior and impulse buying. Behavioral Sciences, 15(3), 387.

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINING O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORI HAMDA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRI TAHLILI

Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Hozirgi asrda globalizatsiyaning kuchayishi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashishi va ishchi kuchi harakatchanligining oshishi migratsiyani jahon xo‘jaligining ajralmas qismiga aylantirdi. Bugun migratsiya faqat demografik jarayon sifatida emas, balki bandlik, mehnat bozori va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘riladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda migratsiya jarayonlari sezilarli jonlandi. Aholi sonining tez ortishi, yoshlarning yuqori ulushi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlari mehnat resurslarining turli hududlar va davlatlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, qishloq joylaridan yirik shaharlarga ichki ko‘chish hamda chet elga tashqi mehnat migratsiyasi keng tus olgan.

Rasmiy va ochiq manbalarga tayanilsa, 2025-yilda O‘zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasida qatnashgan fuqarolar soni 2,3–2,4 million nafarga yetgan [1]. Bu mamlakat ishchi kuchining ancha katta qismini tashkil etib, mehnat bozoridagi muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, migrantlar yuborgan pul o‘tkazmalari 18,9 milliard AQSH dollariga yetgani migratsiyaning milliy iqtisodiyot uchun naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi [2].

Shu jarayonlar fonida mamlakatda ishsizlik darajasi ham sezilarli o‘zgardi. 2020-yilda pandemiya sababli ishsizlik 10 foizdan oshgan edi. Keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish va migratsiya oqimlarining kuchayishi natijasida bu ko‘rsatkich 2025-yilda 4,9 foizgacha tushdi [3; 5].

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda migratsiya oqimlari, ishsizlik darajasi va remittanslar (pul o‘tkazmalari) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kompleks tarzda o‘rganildi. Tahlilda 2020–2025-yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

Quyidagi jadvaldan ko‘rinadiki, o‘rganilgan davrda ishsizlik darajasi barqaror kamayib borgan: 2020-yildagi 10,5 foiz 2025-yilga kelib 4,9 foizga tushgan. Buni avvalo iqtisodiy tiklanish va davlatning bandlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasining kengayishi ichki mehnat bozoridagi bosimni

yengillashtirib, ishsizlik pasayishiga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatgan [3]. Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning uchinchi choragida ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 foiz bandga pasaygan [5]. Tashqi mehnat migratsiyasi hajmi ham shu davrda izchil o‘sgan. 2020-yilda chet elda ishlayotgan fuqarolar soni 1,9 million nafar bo‘lsa, 2025-yilga kelib 2,4 million nafarga yetdi. Demak, mehnat resurslarining bir qismi tashqi bozorlarga yo‘naltirilmoqda, bu esa ichki bozorda ishchi kuchi taklifini kamaytirib, ishga bo‘lgan raqobatni pasaytiradi va ishsizlikning kamayishiga yordam beradi [1].

1-jadval

O‘zbekistonda migratsiya, ishsizlik va remittanslar dinamikasi

Yil	Ishsizlik darajasi (%)	Migrantlar soni (mln kishi)	Remittanslar (mlrd $)
2020	10,5	1,9	6,0
2021	9,6	2,0	8,1
2022	6,8	2,2	14,5
2023	6,2	2,3	16,9
2024	5,7	2,3	17,8
2025	4,9	2,4	18,9

Manba: Statistika agentligi (stat.uz), World Bank (worldbank.org), Kun.uz va boshqa tahliliy manbalar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1; 2; 3].

Shuni ham qayd etish kerakki, migrantlar sonini baholash turli idoralarda turlicha. Masalan, 2021-yil boshida vazirlik xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolarni 1,68 million nafar deb hisoblagan [9], Migratsiya agentligi 2024-yil oxirida xorijdagi mehnat migrantlari sonini 1,35 million nafar deb baholagan [6], 2025-yil birinchi yarmida esa Bandlik vazirligi xorijda band bo‘lganlarni 1,8 million kishi deb ko‘rsatgan [4]. Shu sababli jadvaldagi ma’lumotlar aniq o‘lchovdan ko‘ra umumiy tendensiyani aks ettiradi.

Migratsiyaning iqtisodiy ta’siri remittanslarda yanada yaqqol seziladi. 2020-yilda 6 mlrd AQSH dollari bo‘lgan o‘tkazmalar 2025-yilga kelib 18,9 mlrd dollarga yetgan, ya’ni qariyb uch baravar oshgan. Bu mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manbadir. Remittanslar aholi daromadini oshiradi, ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi va kichik biznes rivojiga turtki berib, bandlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [2]. Markaziy bank hisobotiga ko‘ra, 2025-yilning ikkinchi choragida migrantlar yuborgan mablag‘ 4,8 mlrd dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 21,4 foizga oshgan [7]. Jahon banki shaxsiy remittanslarni shaxsiy o‘tkazmalar va xodimlar kompensatsiyasining yig‘indisi sifatida hisoblaydi [8], shuning uchun turli manbalardagi raqamlar o‘zaro farq qilishi mumkin.

Kompleks tahlil migratsiya, ishsizlik va remittanslar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi. Migratsiya oqimlari kengaygan sari ishsizlik pasaygan, remittanslarning ko‘payishi esa iqtisodiy faollik va bandlikni

oshirishga xizmat qilgan. Shunga ko‘ra, migratsiyani mehnat bozoridagi muvozanatni ta’minlovchi muhim omil sifatida baholash mumkin.

Biroq bu ijobiy tendensiyalar bilan birga xavflar ham mavjud. Uzoq muddatda mehnatga layoqatli aholining katta qismi chet elda ishlashi ichki bozorda malakali kadrlar tanqisligiga olib kelishi mumkin. Bu esa ayrim tarmoqlarda iqtisodiy samaradorlikning pasayishi xavfini oshiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda migratsiya oqimlari ishsizlikni kamaytirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va mehnat bozori muvozanatini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bu jarayonlarni samarali boshqarish strategik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda migratsiya asosan mintaqaviy xususiyatga ega va mehnat bozori muvozanatini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Migratsiya oqimining katta qismi qo‘shni davlatlarga yo‘nalgan bo‘lib, buni geografik yaqinlik, iqtisodiy aloqalar va tarixiy omillar tushuntiradi.

Tashqi, ayniqsa mehnat migratsiyasi ichki bozordagi ortiqcha ishchi kuchini kamaytirib, bandlik darajasini muvozanatlashtirishga yordam beradi. Migrantlarning pul o‘tkazmalari esa aholi daromadini oshirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlarning chiqib ketishi, hududlar kesimida mehnat resurslarining notekis taqsimlanishi va migratsiya oqimlarining bitta yo‘nalishga to‘planib qolishi kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Labor migration from Uzbekistan increased by 4 percent // One.uz. – 2025. – URL: https://one.uz/en/news/uzbekistan/27113-labor-migration-from-uzbekistan-increased-by-4.html

2. Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 // Kun.uz. – 2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025

3. Unemployment in Uzbekistan has decreased // Frank.uz. – 2025. – URL: https://frank.uz/en/news-en/unemployment-in-uzbekistan-has-decreased/

4. Unemployment rate in Uzbekistan falls to 5.1% in H1 2025 // Kun.uz. – 2025. – URL: https://kun.uz/en/news/2025/08/19/unemployment-rate-in-uzbekistan-falls-to-51-in-h1-2025

5. Unemployment rate in Uzbekistan drops to 4.9 percent in Q3 // Kun.uz. – 2025. – URL: https://kun.uz/en/news/2025/11/12/unemployment-rate-in-uzbekistan-drops-to-49-percent-in-q3

6. Number of labor migrants from Uzbekistan in foreign countries decreased to 1.35 million // Gazeta.uz. – 2025. – URL: https://gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant

7. Remittances to Uzbekistan grow 21% in April–June, reaching $4.8 billion // Kun.uz. – 2025. – URL: https://kun.uz/en/news/2025/08/27/remittances-to-uzbekistan-grow-21-in-april-june-reaching-48-billion

8. Personal remittances, received (current US$) – Uzbekistan // World Bank Open Data. – URL: https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.CD.DT

9. Poverty Reduction Ministry announces number of Uzbek labor migrants working abroad // Kun.uz. – 2021. – URL: https://m.kun.uz/en/news/2021/01/30/poverty-reduction-ministry-announces-number-of-uzbek-labor-migrants-working-abroad

2-SHO‘BA
MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH

MEHNAT MIGRATSIYASINI BOSHQARISHDA SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Xalqaro mehnat migratsiyasi ishchi kuchining hududlararo taqsimlanishi, uy xo‘jaliklari daromadlari va mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga ta’sir etuvchi jarayondir. Migrantlarning xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishi nafaqat bandlik va pul o‘tkazmalari, balki soliq majburiyatlarining qaysi davlatda vujudga kelishi bilan bog‘liq huquqiy-iqtisodiy masalalarni ham yuzaga chiqaradi. Shu sababli migratsiya siyosatining samaradorligini faqat ishga joylashtirish ko‘rsatkichlari bilan baholash yetarli emas: daromadlarni qonuniylashtirish, soliqqa tortishdagi aniqlik va migrantning iqtisodiy huquqlarini himoya qilish ham boshqaruv tizimining tarkibiy qismi bo‘lishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarishda soliq instrumentlarining o‘rnini aniqlash hamda migrantlar va davlat uchun ma’muriy xarajatlarni kamaytiradigan tashkiliy-uslubiy takliflarni asoslashdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy yondashuv va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Tezisda keltirilgan xulosalar konseptual xususiyatga ega bo‘lib, aniq fiskal samara ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilinmaydi.

Ma’lumki, migratsiyaning soliq bilan bog‘liq eng muhim masalalaridan biri jismoniy shaxsning soliq rezidentligi maqomini aniqlashdir. Fuqaroning bir mamlakatda yashab, boshqa mamlakatda daromad olishi yoki yil davomida bir necha davlatda ishlashi daromad manbai, yashash muddati va tegishli xalqaro bitimlarni birgalikda hisobga olishni talab etadi. Bunda fuqarolik va soliq rezidentligi bir xil tushuncha emas: rezidentlik muayyan davlatning soliq qonunchiligi va qo‘llaniladigan xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi. OECDning Model soliq konvensiyasi ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olishga oid xalqaro yondashuvlarni tizimlashtiradi [1].

Soliq rezidentligidagi noaniqliklar migrant uchun bir xil daromad yuzasidan ikki davlatda deklaratsiya topshirish, soliq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni yig‘ish yoki soliq imtiyozlarini qo‘llashda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Masalan, xorijda ish haqi olgan shaxs o‘z mamlakatida ham soliq majburiyatiga ega bo‘lishi ehtimoli mavjud, biroq yakuniy tartib amaldagi milliy normalar va ikki tomonlama bitimlarga bog‘liq. Shu bois migrantlarga barcha holatlarda bir xil soliq tartibi qo‘llanadi, degan yondashuv metodologik jihatdan noto‘g‘ridir.

Ikkinchi muammo — transchegaraviy pul o‘tkazmalari bilan soliqqa tortiladigan daromadni bir-biriga tenglashtirish xavfidir. Migrantning oilasiga yuborgan pul mablag‘i o‘z-o‘zidan yangi mehnat daromadi yuzaga kelganini

anglatmaydi: o‘tkazma oldin olingan ish haqi, jamg‘arma yoki boshqa manbadan shakllangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun fiskal ma’muriyatchilikda pul o‘tkazmasining o‘zi emas, daromadning huquqiy tabiati, manbai va tegishli soliq majburiyati tekshirilishi lozim. Jahon banki migratsiya va pul o‘tkazmalari bo‘yicha materiallarida ushbu oqimlarning uy xo‘jaliklari farovonligi va rivojlanishdagi ahamiyatini yoritadi [2].

Uchinchi yo‘nalish migrantlar uchun soliq axborotining yetarli darajada tushunarli va qulay bo‘lishidir. Xorijga ishga ketishdan oldin shaxs ko‘pincha mehnat shartnomasi, tibbiy sug‘urta va yashash ruxsatiga e’tibor qaratadi, biroq ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar, ijtimoiy badallar, deklaratsiya topshirish muddati va soliq rezidentligi oqibatlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmasligi mumkin. Xalqaro mehnat tashkilotining adolatli ishga yollash tamoyillari migrantlarning huquqlarini himoya qilish va shaffof axborot berish zaruratini ta’kidlaydi [3].

To‘rtinchi masala — qaytib kelgan migrantlarning jamg‘armalarini mahalliy iqtisodiyotga jalb qilishdir. Xorijda orttirilgan kapitalni kichik biznes, xizmat ko‘rsatish, uy-joy ijarasi yoki ishlab chiqarishga yo‘naltirish jarayonida ro‘yxatdan o‘tish, faoliyat turiga mos soliq rejimini tanlash va hisob yuritish bo‘yicha maslahatlar zarur bo‘ladi. Soliq tartiblarining murakkabligi norasmiy faoliyatga rag‘bat tug‘dirishi mumkin; aksincha, tushunarli va oldindan ma’lum qoidalar rasmiy tadbirkorlikka o‘tishni osonlashtiradi. Bunda umumiy soliq imtiyozlarini taklif etishdan ko‘ra, maqsadli maslahat va raqamli xizmatlarni rivojlantirish ma’muriy jihatdan asosliroq yechim bo‘lishi mumkin.

Migratsiya boshqaruvi va soliq ma’muriyatchiligi o‘rtasidagi muvofiqlashtirish alohida ahamiyatga ega. Davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik migrantlarning shaxsiy ma’lumotlarini cheklanmagan almashish emas, balki qonuniy vakolatlar, ma’lumotlarni himoya qilish talablari va tegishli xalqaro bitimlar doirasida amalga oshirilishi kerak. OECDning soliq ma’muriyatchiligiga oid yondashuvlari raqamli xizmatlar, xavfga asoslangan nazorat va soliq to‘lovchiga ko‘maklashish vositalarini rivojlantirishga urg‘u beradi [4].

Takliflar. Birinchidan, xorijga ishga ketayotgan fuqarolar uchun soliq rezidentligi, daromad manbai, ikki tomonlama soliqqa tortish va deklaratsiya majburiyatlariga oid mamlakatlar kesimidagi qisqa elektron yo‘riqnomalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur yo‘riqnomalarda soliqqa oid ma’lumotlar mehnat migratsiyasi bo‘yicha rasmiy maslahat xizmatlari bilan integratsiyalashgan holda berilishi lozim.

Ikkinchidan, migratsiya xizmatlari bilan soliq organlari o‘rtasida yagona axborot-maslahat yo‘nalishini shakllantirish taklif etiladi. Uning vazifasi migrantga soliq to‘lash joyi yuzasidan avtomatik yakuniy qaror chiqarish emas, balki rezidentlikni aniqlash mezonlari, zarur hujjatlar va vakolatli organga murojaat qilish tartibini tushuntirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to‘g‘risidagi bitimlardan foydalanish bo‘yicha amaliy algoritm ishlab chiqish lozim. Unda xorijda to‘langan soliqni tasdiqlovchi hujjatlar, soliq rezidentligi sertifikati, tegishli muddatlar va murojaat kanallari aniq ko‘rsatilishi zarur. Bunday algoritm

soliq to‘lovchining xatolarini va ma’muriy xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, vatanga qaytgan migrantlar uchun tadbirkorlikni rasmiylashtirish bo‘yicha qisqa muddatli konsultatsiya dasturini joriy etish tavsiya qilinadi. Dastur faoliyat shaklini tanlash, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, elektron hisob-faktura yoki boshqa tegishli elektron xizmatlardan foydalanish va soliq majburiyatlarini bajarish masalalarini qamrab olishi lozim.

Beshinchidan, taklif etilayotgan mexanizmlar samaradorligini baholashda maslahat olgan migrantlar soni, rezidentlikka oid murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati, takroriy hujjat talablarining kamayishi hamda qaytgan migrantlar tomonidan rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan tadbirkorlik subyektlari kabi o‘lchanadigan indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umumiy jihatdan olib qaraganda xulosamiz shuki, mehnat migratsiyasini boshqarishning soliq komponenti davlat budjeti daromadlarini oshirish vositasi sifatida emas, avvalo transchegaraviy mehnat faoliyatining huquqiy aniqligi va iqtisodiy shaffofligini ta’minlovchi institut sifatida qaralishi lozim. Soliq rezidentligini to‘g‘ri tushuntirish, ikki tomonlama soliqqa tortish xavfini kamaytirish, pul o‘tkazmalari va soliqqa tortiladigan daromadni farqlash hamda qaytgan migrantlarni rasmiy tadbirkorlikka yo‘naltirish migratsiya siyosatining amaliy natijadorligini kuchaytirishi mumkin. Mazkur yo‘nalishlar soliq va migratsiya organlari o‘rtasidagi qonuniy hamkorlik, qulay elektron xizmatlar va natijaga yo‘naltirilgan monitoring orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. OECD. Model Tax Convention on Income and on Capital: Condensed Version 2017. – Paris: OECD Publishing, 2017.

2. World Bank. Migration and Development Brief 40: Remittances Slowed in 2023, Expected to Grow Faster in 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.

3. International Labour Organization. General Principles and Operational Guidelines for Fair Recruitment and Definition of Recruitment Fees and Related Costs. – Geneva: ILO, 2019.

4. OECD. Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2024.

ЁШЛАР МИГРАЦИЯСИ: САБАБЛАРИ, ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ОҚИБАТЛАРИ

Ғойипназаров С.Б.,
ТДИУ, Меҳнат иқтисодиёти кафедраси, DSc., проф.
Бакиева И.А.
ТДИУ, Меҳнат иқтисодиёти кафедраси, И.ф.н., проф.

Глобаллашув, меҳнат бозорларининг интернационаллашуви, аҳоли ҳаракатчанлигининг ортиши ва мамлакатлар ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий тафовутлар миграция жараёнларининг кенгайишига олиб келмоқда. Айниқса, ёшлар миграцияси демографик ва меҳнат жараёнларининг муҳим таркибий қисми сифатида намоён бўлмоқда. Халқаро меҳнат ташкилотининг *Global Employment Trends for Youth 2024*

ҳисоботига кўра, 2023 йилда дунёда 15–24 ёшдаги ёшлар ўртасида ишсизлик даражаси 13 фоизни ташкил этган. Бу кўрсаткич охирги 15 йилдаги энг паст даража бўлса-да, 64,9 млн нафар ёш ишсиз бўлган. Шунингдек, дунёдаги ёшларнинг 20,4 фоизи, яъни 256 млн нафари таълим, иш ёки касбий тайёргарлик билан қамраб олинмаганлар тоифасига кирган [2].

Мазкур ҳолат ёшлар миграциясининг меҳнат бозоридаги имкониятлар ва чекловлар билан узвий боғлиқлигини кўрсатади. Айниқса, ривожланаётган мамлакатларда муносиб ва юқори унумдор иш ўринларининг етишмаслиги ёшларни ички ва ташқи меҳнат бозорларидан иш излашга ундайди.

Ўзбекистон учун ушбу масала алоҳида долзарб аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2025 йил 1 январь ҳолатига 14–30 ёшдаги ёшлар сони 9 630 556 нафарни ташкил этган бўлиб, улар мамлакат умумий аҳолисининг 25,7 фоизини ташкил этган [3]. Мамлакат аҳолисининг қарийб тўртдан бир қисмини ташкил этувчи ёшларнинг меҳнат бозоридаги иштироки, уларнинг ҳудудий ва халқаро ҳаракатчанлиги Ўзбекистоннинг демографик ва иқтисодий ривожланиши учун стратегик аҳамиятга эга.

Ёшлар миграцияси кўп омилли жараён бўлиб, унинг шаклланишига иқтисодий, демографик, ижтимоий, таълимий ва институционал омиллар таъсир кўрсатади. Ўзбекистон шароитида миграциянинг асосий иқтисодий сабабларидан бири меҳнат даромадлари ўртасидаги фарқ ҳисобланади. Хорижий меҳнат бозорларида қурилиш, саноат, транспорт, логистика, хизмат кўрсатиш ва айрим техник касблар бўйича иш ҳақининг юқорилиги ёшларнинг ташқи миграцияга қарор қабул қилишига таъсир кўрсатади.

Бироқ миграцияни фақат иш ҳақи билан изоҳлаш етарли эмас. Замонавий ёшлар учун касбий ўсиш, хорижий тилларни ўрганиш, янги технологияларни ўзлаштириш, халқаро тажрибага эга бўлиш ва меҳнат бозорида рақобатбардошлигини ошириш ҳам муҳим омиллар ҳисобланади. ILO тадқиқотлари ҳам ёшлар учун муносиб ва барқарор иш ўринларининг мавжудлиги миграция қарорларига таъсир қилувчи муҳим омиллардан бири эканини кўрсатади. Хусусан, паст даромадли мамлакатларда ёшларнинг муносиб ва хавфсиз ишга кириш имкониятлари юқори даромадли мамлакатларга нисбатан сезиларли даражада паст [4].

Ички миграцияда эса ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий тафовутлар муҳим аҳамиятга эга. Саноат, қурилиш ва хизмат кўрсатиш соҳалари ривожланган шаҳарлар ёшлар учун кўпроқ иш ўринлари таклиф этади. Шунинг учун меҳнат ресурсларининг иқтисодий фаол ҳудудларга қайта тақсимланиши ички миграциянинг муҳим йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон ташқи меҳнат миграцияси асосан вақтинчалик характерга эга. Шунинг учун доимий эмиграция статистикаси билан меҳнат миграцияси статистикасини бир-биридан фарқлаш зарур.

Жаҳон банки маълумотларига кўра, 2023 йилда чет элда рўйхатдан

ўтган ўзбекистонлик меҳнат мигрантлари сони қарийб 2 млн нафарни ташкил этган. Бу мамлакатдаги 13,8 млн нафарлик меҳнат ресурсларининг тахминан 14 фоизига тенг бўлган [5].

Халқаро валюта жамғармасининг 2025 йилги Ўзбекистон бўйича ҳисоботида ҳам меҳнат мигрантлари сони тахминан 2 млн нафар даражасида қайд этилган. Ҳисоботда 2024 йилда мамлакатда умумий ишсизлик даражаси 5,5 фоизга тушгани, бироқ 15–24 ёшли аҳоли ўртасида ишсизлик тахминан 11 фоиз даражасида сақлангани таъкидланган [6].


Бу маълумотлар муҳим хулоса қилиш имконини беради: мамлакатда умумий ишсизлик даражаси пасайиб бораётганига қарамасдан, ёшлар меҳнат бозоридаги босим сақланиб қолмоқда. Демак, ёшлар миграциясини фақат ишсизлик билан эмас, балки муносиб иш ўринлари, иш ҳақи ва касбий ўсиш имкониятлари билан ҳам боғлиқ ҳолда ўрганиш зарур. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотларига кўра, 2025 йилда мамлакатга келиб тушган пул ўтказмалари 18,9 млрд АҚШ долларини ташкил этганлиги ҳамда 2024 йилга нисбатан 28 фоизга ёки 4,1 млрд долларга кўпайганлиги ушбу фикрга далил бўла олади [7].

Ёшлар миграциясининг энг муҳим жиҳатларидан бири унинг инсон капиталига таъсиридир. Хорижда ишлаётган ёшлар янги касбий кўникмалар, ишлаб чиқариш стандартлари, хорижий тиллар, рақамли технологиялар ва бошқарув тажрибасини ўзлаштириши мумкин. Шу билан бирга, малакали ёшларнинг узоқ муддатга хорижда қолиши мамлакатда шаклланган инсон капиталидан бошқа давлатлар иқтисодиёти фойдаланишига олиб келади. Шу нуқтаи назардан миграцияни инсон капиталининг халқаро айланмасига айлантириш Ўзбекистон учун муҳим стратегик вазифа ҳисобланади.

Ўзбекистонлик ёшларнинг оила даромадларининг ошириш мақсадида меҳнат қилиш учун хорижий мамлакатларга кетаётганлиги асосий сабаблардан бири бўлса, ёшларнинг таълим миграцияси иккинчи сабаблардан бири бўлмоқда. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, 2023 йил 1 январь ҳолатига кўра, таълим олиш мақсадида чет элга кетган ёшлар сони 150,5 минг кишига етди ва бу кўрсаткич бўйича Ўзбекистон дунёда учинчи ўринни эгаллади [8]. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев Ёшлар куни муносабати билан ўтказилган йиғилишда сўзга чиқиб, Ўзбекистон 2024 йилда дунёнинг энг яхши 500 та университетига кирган талабалар сони бўйича Марказий Осиё давлатлари орасида биринчи ўринни эгаллаганини таъкидлади [1].

Кейинги йилларда таълим миграцияси оқимларида географик силжишлар кузатилмоқда. Хусусан, ўзгарган халқаро вазият оқимнинг бир қисмини қўшни давлатлар - Тожикистон ва Қирғизистонга йўналтиришга сабаб бўлди. Сифатли таълим ва жозибадор стипендия дастурларини таклиф қилувчи Жанубий Корея ва Туркия давлатлари ҳам ўзбекистонлик ёшларга жозибадор таълим дастурлари ва стипендияларни таклиф қилиб, қабул қилувчи давлатлар орасида юқори поғонасидан жой олмоқда.

Корея Республикаси Таълим вазирлиги маълумотларига кўра, ҳозирда ушбу мамлакат олий ўқув юртларида 12 мингга яқин ўзбекистонлик талаба таҳсил олмоқда, бу эса мамлакатимизни хорижий талабалар орасида Вьетнам ва Хитойдан кейин учинчи ўринга олиб чиқди. Туркия эса, шунингдек, “Türkiye Bursları” стипендия дастури ва маданий яқинлиги билан ўзбек ёшларини ўзига жалб қилмоқда [9]. Бугунги кунда Туркия олий ўқув юртларида 2,5 мингга яқин ўзбекистонлик талаба таҳсил олмоқда. (1-расм)



1-расм. 2025 йилда ўқиш мақсадида энг кўп сафар қилинган давлатлар

Манба: *Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган [10]*

Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг маълумотига кўра, 2025 йилда 28954 нафар Ўзбекистон фуқароси ўқиш мақсадида хорижий давлатларга сафар қилган. Ёшлар бўйича алоҳида даврий статистик ахборотларнинг йўқлиги сабабли миллий ва халқаро ҳисобот материалларидаги маълумотларида катта фарқлар мавжуд.

Келтирилган статистик маълумотлар шуни кўрсатадики, миграциянинг ушбу сегменти йилдан-йилга миллий таълим тизими, меҳнат бозори ва инсон капиталини шакллантириш сиёсати учун тобора яққолроқ миқёс ва стратегик аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Бироқ ёшлар миграциясининг салбий оқибатлари ҳам мавжуд. Хусусан, малакали ёшларнинг хорижга кетиши айрим соҳаларда кадрлар тақчиллигини кучайтириши, шу билан бирга, салоҳиятли ёшларнинг хорижий мамлакатларда ўқишни тугатганидан сўнг иш топиб доимий

қолиб кетиши мумкин.

Ўзбекистонда ёшлар миграциясини бошқаришнинг асосий мақсади миграцияни маъмурий равишда чеклаш эмас, балки уни хавфсиз, қонуний, малакали ва иқтисодий жиҳатдан самарали жараёнга айлантиришдан иборат бўлиши керак.

Биринчидан, “миграциядан олдин касбий тайёргарлик” модели жорий этилиши мақсадга мувофиқ. Хорижга ишлаш учун кетаётган ёшлар касб билан бир қаторда хорижий тил, рақамли кўникма, меҳнат ҳуқуқлари ва молиявий саводхонлик бўйича ҳам тайёрланиши лозим.

Иккинчидан, ёш мигрантлар учун ягона рақамли ахборот платформасини ривожлантириш зарур. Унда хорижий вакансиялар, иш берувчилар, иш ҳақи, меҳнат шартномалари, виза талаблари, касбий сертификатлар ва меҳнат ҳуқуқлари ҳақида ишончли маълумотлар жамланиши керак.

Учинчидан, юқори малакали меҳнат миграциясига устуворлик бериш зарур. IT, муҳандислик, автоматлаштириш, тиббиёт, логистика, яшил технологиялар ва рақамли хизматлар каби соҳаларда ёшларни тайёрлаш уларнинг халқаро меҳнат бозоридаги рақобатбардошлигини оширади.

Тўртинчидан, мигрантлар пул ўтказмаларини инвестицияга йўналтириш механизмларини кучайтириш зарур. Бунда мигрант оилалари учун молиявий саводхонлик, тадбиркорлик таълими, бизнес-консалтинг ва имтиёзли молиялаштириш механизмларини ривожлантириш мақсадга мувофиқ.

Бешинчидан, қайтиб келган мигрантларнинг хорижда олган малака ва иш тажрибасини миллий иқтисодиётга интеграция қилиш тизимини шакллантириш лозим. Бунинг учун хорижий сертификатларни тан олиш, ишга жойлаштириш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш механизмлари кучайтирилиши зарур.

Олтинчидан, ички миграцияни ҳудудий ривожланиш сиёсати билан боғлаш муҳим. Қишлоқ ва чекка ҳудудларда янги иш ўринларини яратиш, касбий таълимни ривожлантириш, уй-жой ва ижтимоий инфратузилмани яхшилаш ташқи миграцияга бўлган иқтисодий босимни камайтиришга хизмат қилади.

Шундай қилиб, тадқиқот натижалари Ўзбекистонда ёшлар миграцияси оддий аҳоли ҳаракати эмас, балки демографик ривожланиш, меҳнат бозори, инсон капитали, аҳоли даромадлари ва иқтисодий ўсиш билан узвий боғлиқ комплекс ижтимоий-иқтисодий жараён эканини кўрсатди. Асосий илмий хулоса эса шундан иборатки, ёшлар миграциясининг самарадорлигини мигрантлар сони билан эмас, балки уларнинг касбий малакаси, меҳнат унумдорлиги, даромад даражаси, ҳуқуқий ҳимояси, хорижда олган билим ва кўникмаларининг миллий иқтисодиётга қайтиши ҳамда миграциядан келган молиявий ресурсларнинг инвестицияга айланиш даражаси билан баҳолаш лозим.

Адабиётлар:

1. *Ш.М.Мирзиёев. «Молодежь Узбекистана –золотое поколение, которому суждено написать новую страницу в истории страны». Выступление по случаю Дня молодежи. 30.06.2025 г. Источник: https://president.uz/ru/lists/view/8278*

2. *International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures. Geneva: ILO, 2024. DOI: 10.54394/ZUUI5430.*

3. *Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон аҳолисининг 25,7 %ини ёшлар ташкил этади. 5 март 2025 йил.*

4. *International Labour Organization. Skills for Youth Employment. Geneva: ILO.*

5. *World Bank. Migration and Labor Mobility in Central Asia. Washington, DC: World Bank, 2025.*

6. *International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation—Press Release; and Staff Report. IMF Country Report No. 25/143, June 2025. DOI: 10.5089/9798229014755.002.*

7. *Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Review of International Migration and Individuals' Foreign Exchange Operations, March 2026. Tashkent, 2026.*

8. *Браузер данных UIS. Источник: https://databrowser.uis.unesco.org/browser/EDUCATION/UIS-EducationOPRI*

9. *Международная образовательная миграция в Республике Узбекистан: политико-правовой анализ. (2025). Общество и инновации, 6(6), 252-261. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss6-pp252-261*

10. *www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ИЗ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РОССИЙСКУЮ ФЕДЕРАЦИЮ

Алимухамедов Ботир Бакиевич
Институт исследований бедности и рынка труда
Министерства занятости и сокращения бедности
Республики Узбекистан

Основными направлениями перспектив трудовой миграции из Республики Узбекистан в Россию, вопросы сотрудничества в этой области, соответствующие интересам как России, так и Узбекистана, являюьтся:

1. Трудовая миграция населения Узбекистана в Россию будет иметь тенденцию сокращения в связи с ужесточением миграционной политики в РФ, а также созданием рабочих мест и развитием предпринимательства в Узбекистане, влекущим трудоустройство потенциальных и возвращающихся трудовых мигрантов.

2. В то же время значительная часть трудоспособного населения будет выезжать на заработки за рубеж, в том числе в РФ. Население РУз растет быстро, особенно оно молодое. Но все же, несмотря на рост экономики и возможностей на их рынках труда, рабочих мест там – ограниченное количество.

При этом они обеспечивают потребности российской экономики в рабочей силе, работая (в основном в торговле, ЖКХ, строительстве и сфере услуг, преимущественно в Московской и Санкт-Петербургской агломерациях) и платя налоги. За 14 лет существования системы патентов, например, трудовые мигранты заплатили в региональные бюджеты около

710 миллиардов рублей.

3. Существует взаимная заинтересованность сторон – России и Узбекистана – в совершенствовании процедур организованного набора трудовых ресурсов в Узбекистане для осуществления трудовой деятельности в России.

Необходимо согласованное взаимодействие в этой важной сфере, направленное на динамичное социально-экономическое развитие обеих стран, создание рабочих мест и формирование рациональной занятости населения Узбекистана, обеспечение потребностей отраслей и регионов России в рабочей силе, в том числе за счет организованного привлечения трудовых мигрантов из Узбекистана.

За последние два года в целом было принято порядка 15 законов, накладывающих те или иные ограничения на пребывание мигрантов и их въезд в Россию. Незадолго до этого были проведены высылки незаконных мигрантов, а также создан реестр контролируемых лиц. Если брать ситуацию глобально, то меры, которые приведут к сокращению числа трудовых мигрантов, едва ли отвечают нашим интересам.

Второй частью проблемы является необходимость соблюдения российских законов, а также не допустить, чтобы в среде трудовых мигрантов формировались преступные тенденции.

Задача заключается в том, чтобы трудовые мигранты, прежде чем они направляются в Российскую Федерацию, прошли необходимую подготовку как с точки зрения достаточности знания русского языка, так и с точки зрения знания российских законов и правил поведения для иностранцев, в данном случае правил поведения для трудовых мигрантов.

Последние изменения в нашем законодательстве направлены на то, чтобы найти именно такой баланс. С позиции законодательной процедуры решение принято. Сейчас главное – обеспечить должную правоприменительную практику. В Узбекистане мы нашли полное понимание необходимости ввести порядок, который будет минимизировать возможности для нарушений (на сто процентов эксцессы исключить нельзя), тем более для связанных с экстремистской или, еще хуже террористической деятельностью.

Правоприменительная практика, которая будет осуществляться в Российской Федерации, будет прежде всего исходить из необходимости минимизировать этот ущерб и максимизировать вклад, который трудовые мигранты (а они весьма востребованы) могут внести в реализацию наших социально-экономических планов».

Для этого: Во-первых, имеется политическая воля президентов России и Узбекистана.Во-вторых, сформирована соответствующая законодательная база в области организации и регулирования внешней трудовой миграции. Например, в РФ с 2024 года депутаты Госдумы приняли 21 федеральный закон, направленный на регулирование миграции.

На этой основе возможно:

• внедрение современных, эффективных форм организованного набора рабочей силы для работы на предприятиях и организациях РФ;

• усиление интеграционных процессов на рынках труда в РФ и Узбекистане на межрегиональном уровне;

• расширение объемов и направлений использования денежных переводов трудовых мигрантов Узбекистана в качестве инвестиций, в том числе на создание рабочих мест, развитие частного предпринимательства и человеческого капитала трудовых мигрантов;

• уменьшение негативных последствий трудовой миграции в местах выезда и въезда;

• обеспечение социальной защиты и гарантий прав трудовых мигрантов Узбекистана в России.

4. В целях обеспечения потребностей российской экономики в рабочей силе за счет организованной трудовой миграции населения Республики Узбекистан рекомендуется:

Министерству экономического развития (Всероссийской академии внешней торговли), Министерству труда и социального развития, Министерству внутренних дел Российской Федерации:

•выработать единые критерии и подходы к регулированию внешней трудовой миграции в Россию;

•установить правила контролируемого пребывания трудовых мигрантов в РФ под сопровождение и ответственность работодателей с полной процедурой идентификации;

•предусмотреть:

• ежегодное выделение Узбекистану квот на трудоустройство, в том числе по профессиям;

• определение регионов, отраслей и конкретных мест трудоустройства в РФ, а также требований к привлекаемым работникам

• конкретные гарантии трудовым мигрантам Узбекистана по обеспечению трудовых и социальных стандартов (оплата труда, бытовое и медицинское обеспечение);

•не допускать фактов грубого обращения, применения физической силы к трудовым мигрантам из Узбекистана со стороны отдельных представителей правоохранительных органов РФ.

Министерству занятости и сокращения бедности, Министерству инвестиций, промышленности и торговли, Агентству миграции, Центральному банку Республики Узбекистан:

а) обеспечить отбор и необходимую предвыездную подготовку граждан Узбекистана, направляемых в организованном порядке на работу в РФ;

б) использовать возможности портала «Работа в России» для размещения работодателями информации о готовности принять участие в мероприятиях по оргнабору граждан Узбекистана;

в) предусмотреть трудоустройство трудовых мигрантов на предприятиях и организациях, создаваемых согласно инвестиционных проектов РФ в Узбекистане;

г) реализовать на уровне махаллей (органов самоуправления граждан) мероприятия по регулированию внешней трудовой миграции (выявление численности лиц, фактически и потенциально выезжающих за рубеж на работу, определение их потребностей и т.п.);

д) разработать предложения использованию денежных переводов трудовых мигрантов в качестве инвестиций для создания рабочих мест и вовлечения трудовых мигрантов в частное (семейное) предпринимательство.

е) ежегодно проводить по договорам с Институтом исследований бедности и рынка труда социологическое изучение факторов и направлений внешней трудовой миграции населения Узбекистана, с разработкой мер по ее регулированию;

Межведомственной комиссии по вопросам трудовой миграции и защиты прав мигрантов рассмотреть вопросы:

- организации на территории Узбекистана представительств Единого миграционного центра (ЕМЦ) России для оказания услуг гражданам по получению документов на осуществление трудовой деятельности в РФ
- увеличения сроков (с 7 до 15 дней) нахождения на территории России граждан Узбекистана без регистрации по месту жительства;
- взаимного признания результатов медицинского освидетельствования (подтверждающих отсутствие наркомании и инфекционных заболеваний, ВИЧ-СПИДа).

Реализация предлагаемых мер будет способствовать развитию организованной, безопасной внешней трудовой миграции населения Узбекистана, а также обеспечению потребностей регионов и отраслей РФ в рабочей силе.

Литературы:

1.Международная организация по миграции (IOM): "Migration Situation Report - Uzbekistan" (2025).

2.The Impact of Migration on Uzbekistan's Labor Market" (2024–2026).

3.Трудовая миграция в Республике Узбекистан/отв.ред. Е.В.Абдуллаев. Ташкент, 2008.

4.Концепция государственной миграционной политики Российской Федерации на 2026 - 2030 годы. Утверждена Указом Президента Российской Федерации от 15 октября 2025 г. № 738.

5.Трансформация международных денежных переводов в капитал и инвестиции: теоретическое обоснование. А.П.Рязанцев, Е.Ю.Хрусталев, А.Г.Алексеева. Журнал Финансовая сфера, №8 (200) 2011.


GLOBAL GENDER GAP INDEX 2026: O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING IQTISODIY ISHTIROKI VA MEHNAT BOZORIDAGI GENDER TAFOVUTLARI

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali
QX.Mamadaliyeva@gmail.com
Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
muazzambahriddinova@gmail.com

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2015-yildagi sammitida 2030-yilgacha barqaror rivojlanish uchun qabul qilingan xalqaro darajadagi ilg‘or maqsad va vazifalarning umumbashariy majmuini ifodalovchi kun tartibida gender tengligi masalasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatda cheklovlarni bartaraf etish, xotin-qizlarning iqtisodiy va ijtimoiy sohaga kirishi va unda faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Global iqtisodiy va texnologik transformatsiya sharoitida gender tengligi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ayollarning ta’lim olishi, iqtisodiy faolligi, mehnat bozoridagi ishtiroki va rahbarlik lavozimlaridagi vakilligi inson kapitalidan samarali foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Mazkur jarayonlarni xalqaro miqyosda baholashda Jahon iqtisodiy forumi (WEF) tomonidan ishlab chiqiladigan Global Gender Gap Index (GGGI) asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [1]. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda ta’limdagi gender paritetining mehnat bozoridagi iqtisodiy natijalarga qay darajada aylanayotganini xalqaro indeks va milliy statistika ma’lumotlari asosida baholashdir.

Tadqiqot ikki manbaga asoslandi: WEF ning Global Gender Gap Report 2026 hisoboti (145 ta iqtisodiyot) [1] va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2020–2024-yillarga oid mehnat bozori ma’lumotlari [2]. Tahlilda qiyosiy-tahliliy usul, indeks subkomponentlarini solishtirish hamda ko‘rsatkichlarning vaqt kesimidagi dinamikasini baholash usullari qo‘llanildi.

WEF hisobotiga ko‘ra, 2026-yilda global gender tafovutining 69,2 foizi yopilgan. Indeks iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar, ta’lim, salomatlik va yashash hamda siyosiy vakillik yo‘nalishlari asosida shakllanadi. Eng katta tafovut iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar yo‘nalishida saqlanib qolgan bo‘lib, mazkur subindeks bo‘yicha global ko‘rsatkich 61,7 foizni tashkil etgan [1]. Markaziy Osiyo guruhida 7 ta mamlakat baholangan va mintaqa bo‘yicha tafovutning o‘rtacha 70,0 foizi yopilgan.




1-rasm. O‘zbekiston, global va Markaziy Osiyo o‘rtacha Global Gender Gap Index 2026 ko‘rsatkichlari *(vertikal o‘q 0,60 dan boshlanadi).*

Manba: *WEF, Global Gender Gap Report 2026 [1] asosida tuzilgan.*

O‘zbekiston 2026-yilgi reytingda 0,682 ball bilan 110-o‘rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 6-o‘rinni egallagan [1]. Mamlakat ko‘rsatkichi global o‘rtacha darajadan (0,692) 0,010 punktga, mintaqaviy o‘rtacha darajadan (0,700) esa 0,018 punktga past (1-rasm). Bu O‘zbekistonda gender tafovutlarini qisqartirish bo‘yicha foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Ayollar bandligining tarmoq tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. 2024-yilda ayollar bandligining eng katta qismi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga (23,0 foiz), boshqa xizmatlar sohasiga (16,3 foiz) hamda ishlab chiqarish sanoatiga (11,9 foiz) to‘g‘ri kelgan.

Umumiy indeksni subindekslar kesimida tahlil qilish muhim tafovutni aniqlaydi. O‘zbekistonda Educational Attainment subindeksi 0,984 ball bilan 98-o‘rinni, Economic Participation and Opportunity subindeksi esa 0,562 ball bilan 124-o‘rinni egallagan [1]. Ikki subindeks o‘rtasidagi farq 0,422 indeks punktni tashkil etadi (2-rasm). Bundan tashqari, O‘zbekistonning iqtisodiy subindeksi (0,562) global ko‘rsatkichdan (0,617) 0,055 punktga past.




2-rasm. O‘zbekistonning Global Gender Gap Index 2026 bo‘yicha umumiy va asosiy subindekslar ko‘rsatkichlari.

Manba*: WEF, Global Gender Gap Report 2026 [1] asosida tuzilgan.*

Shuni ta’kidlash lozimki, 0,562 ko‘rsatkichi ayollarning iqtisodiy faollik darajasini emas, balki gender tafovutining yopilish darajasini ifodalovchi indeks balidir. Iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar subindeksi ayollarning mehnat bozorida ishtiroki, daromadlari, kasbiy va texnik faoliyati hamda rahbarlik imkoniyatlari kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi [1]. Shu sababli O‘zbekistonning ushbu


subindeks bo‘yicha 124-o‘rinda qayd etilishi milliy mehnat bozori ko‘rsatkichlarini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.



3-rasm. O‘zbekistonda ayollar bandligi, iqtisodiy faolligi va ishsizlik darajasi, 2020 va 2024-yillar (%).

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [2] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillarda band ayollar soni 5,485 mln nafardan 6,093 mln nafargacha, ya’ni 608 ming nafarga (taxminan 11,1 foizga) oshgan. Shu davrda jami bandlar tarkibida ayollar ulushi 41,4 foizdan 42,7 foizgacha ko‘tarilgan, ayollar ishsizlik darajasi esa 14,1 foizdan 7,4 foizgacha kamaygan [2]. Biroq ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 2020-yildagi 66,6 foizdan 2024-yilda 66,0 foizgacha pasaygan (3-rasm). Demak, band ayollar sonining ko‘payishi iqtisodiy faollik darajasining oshishi bilan birga kechmagan. Bu mehnat bozoridagi miqdoriy o‘zgarishlarni gender imkoniyatlarining sifat jihatdan kengayishi bilan bir xil deb baholash mumkin emasligini ko‘rsatadi.



4-rasm. O‘zbekistonda ayollar bandligining tarmoq tarkibi, 2024-yil (%).

Izoh:** – ming nafarda berilgan ma’lumotlar asosida 6,093 mln band ayollarga nisbatan muallif tomonidan hisoblangan.*

Manba: *Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [2] asosida tuzilgan.*

Shuningdek, ta’lim sohasida 940,2 ming, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 520,2 ming, davlat boshqaruvi va mudofaa sohasida 173,8 ming,

qurilishda esa 109,2 ming nafar ayol band bo‘lgan [2]. Muallif hisob-kitoblariga ko‘ra, bu ta’lim sohasi uchun taxminan 15,4 foizni, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar uchun 8,5 foizni tashkil etadi (4-rasm). Natijada ayollar bandligining taxminan to‘rtdan uch qismi beshta yo‘nalishda (qishloq xo‘jaligi, boshqa xizmatlar, ishlab chiqarish, ta’lim, sog‘liqni saqlash) jamlangan.

Bunday tarkib ayollar mehnat bozoridagi ishtirokining kengayayotganini ko‘rsatsa-da, uning asosan an’anaviy tarmoqlarda jamlanganini ham anglatadi. Iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar bo‘yicha 0,562 ball ayollar uchun mehnat bozoridagi imkoniyatlarni, ayniqsa zamonaviy va yuqori malaka talab qiluvchi kasblarda, kengaytirish zarurligiga ishora qiladi [1]. Shunday qilib, xalqaro indeks va milliy statistika natijalari birgalikda O‘zbekistonda ta’limdagi gender pariteti yuqori bo‘lsa-da, uning mehnat bozoridagi iqtisodiy natijalarga to‘liq aylanishi hali yakunlanmaganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ta’lim sohasida erishilgan gender pariteti mehnat bozoridagi iqtisodiy imkoniyatlarga to‘liq transformatsiya qilinmayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli gender tengligini ta’minlashning keyingi bosqichida ayollarni ta’lim bilan qamrab olishdan tashqari, ularning bilim va ko‘nikmalaridan mehnat bozorida samarali foydalanish mexanizmlarini kuchaytirish muhim. Quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. *Ta’limdan bandlikka o‘tish mexanizmini kuchaytirish.* Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini mehnat bozori talabi bilan bog‘lab, “kasbiy tayyorgarlik → amaliyot → ishga joylashish” tamoyili asosida tashkil etish, samaradorligini esa bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi orqali baholash.

2. *Ayollar bandligini zamonaviy kasblar tomon diversifikatsiya qilish.* Raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalari, muhandislik va professional xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish va ularni ish beruvchilar talabi bilan uyg‘unlashtirish.

3. *Mehnat bozoriga qaytish mexanizmini takomillashtirish.* Mehnat faoliyatida tanaffus qilgan ayollar uchun ko‘nikmalarni yangilash, qayta tayyorlash va ishga joylashtirishni yagona dastur doirasida birlashtiruvchi individual mexanizmni joriy etish.

4. *Gender mehnat bozori monitoringini kuchaytirish.* Ayollar bandligini kasb, lavozim, daromad va iqtisodiy faoliyat turi kesimida baholash hamda milliy gender statistikasini xalqaro indeks indikatorlari bilan uyg‘unlashtirish.

Umuman, O‘zbekiston sharoitida gender tengligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishi ta’limdagi paritetdan mehnat bozoridagi iqtisodiy paritetga o‘tish bilan bog‘liq. Buning uchun ayollar bandligining miqdoriy o‘sishi bilan bir qatorda ularning kasbiy imkoniyatlari, yuqori malakali faoliyatdagi ishtiroki, lavozim darajasi va mehnat bozoridagi barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarni rivojlantirish zarur.

Adabiyotlar:

1. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2026. Geneva: World Economic Forum, 2026. https://reports.weforum.org/docs/WEF_GGGR_Report_2026.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. www.stat.uz

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА

Рахматуллаева Шахноза Хамидовна
ТГЭУ, доцент
Ахмедова Фотимахон Муродхон кизи
ТГЭУ, магистрант

На первый взгляд может показаться, что главные ресурсы бизнеса — это деньги, здания и оборудование. Но на самом деле именно человек является основой любой деятельности. Интеллект, опыт и профессионализм сотрудников — это то, что двигает бизнес вперёд.

Стратегию задуманного бизнеса разрабатывает человек, производство выполняет снова же человек, продажи осуществляет тоже человек. Поэтому успех бизнеса напрямую зависит от начала до конца от человеческого ресурса. бесспорно, что Развитие компании невозможно без постоянного совершенствования персонала.

В развитых странах уже давно применяются стратегические подходы к управлению человеческими ресурсами, что помогает повышать эффективность и конкурентоспособность. В Узбекистане же данное направление пока является одним из слабых, и именно поэтому изучение зарубежного опыта имеет особую практическую ценность.

В рыночных условиях развитие компании происходит в основном при большем уклоне на совершенствование человеческого капитала. В мировой практике это доказывается тем, что Управление человеческими ресурсами — это не только кадровое делопроизводство, а элемент общей бизнес-стратегии предприятия с целью на долгосрочное развитие и существование. Эффективная HR-стратегия на самом деле связывает интересы компании и сотрудников, способствует повышению производительности труда и развивает способность адаптироваться к изменениям внешней среды, создавая крепкую конкурентоспособность.

В производственной сфере эта практика еще более актуальны и значима, так как качество и удачность продукта зависит от компетентности, мотивации и вовлечённости работников, а вместе с ним растут и уровень инноваций, и конкурентоспособность предприятия. Зарубежные компании, такие как Toyota, Siemens и General Electric, активно используют принципы стратегического управления персоналом — систему непрерывного обучения, оценку эффективности деятельности, корпоративную культуру ответственности и постоянного совершенствования (Ulrich D., 2005)

Эффективность этих подходов можно доказать исходя от результативности приведённых выше организаций, которое обеспечило им устойчивый рост и инновационное развитие. Для производственных предприятий Узбекистана, находящихся в стадии активной модернизации, применение подобного опыта представляет особую ценность. Однако его

внедрение требует адаптации с учётом таких факторов, как национальные особенности, уровень цифровизации и существующая кадровой политики.

Управление человеческими ресурсами является неотъемлемой частью деятельности и развития компании. Человеческий труд, как топливо механизма компании, должен совершенствоваться и быть на одной волне с новыми трендами, чтобы компания совершенствовалась в условиях рыночных изменений и тенденций. Следовательно, инвестиции в сотрудника равны инвестициям в стратегическое развитие бизнеса. (Марталия, 2022). Во-вторых, есть необходимость в систематизации всех этих функций в одной картине. HRM-система (HRM (Human Resource Management) – Управление человеческими ресурсами) помогает HR-менеджерам отслеживать и контролировать все процессы, автоматизировать рутинные задачи и выгружать отчёты и данные.



Рисунок 1. Структура HR отдела в развитых странах

Опять-таки отсутствие таких упрощённых систем в локальных наших организациях является проблемой. По причине такой ситуации многие процессы выполняются вручную, что увеличивает вероятность ошибок и административную нагрузку. Помимо этого, компании лишаются возможности контролировать и отслеживать процессы и оценивать производительность сотрудников. (Чеглакова А.А., 2019)

Для преодоления всех этих проблем локальным организациям необходимо не просто систематизировать процессы, но также переосмыслить само понимание управления персоналом. Оно должно рассматриваться не как административная функция, а как стратегический инструмент развития компании, направленный на формирование сильной команды, развитие компетенций сотрудников и создание условий для их профессионального и личностного роста.

В-третьих, нужно поменять стратегию найма персонала. В странах с низкой текучестью, например в Японии, политика построена по принципу: «не человек для места, а место для человека». По их практике, высококвалифицированный специалист сначала нанимается на работу, а уже потом решается вопрос, в какой области и на какой должности его использовать. Это является эффективной практикой, так как на «своём» месте сотрудник показывает более высокую продуктивность. (Организация управления HR в разных странах (США, Япония, РФ))

Если тот или иной сотрудник не справляется с возложенными задачами, то руководству выгоднее перенаправить его в другое направление, чем искать новую рабочую силу. У них действует принцип: «каждый человек умеет что-либо делать и преуспевает в чём-то». Поэтому даже если компания меняет свою сферу деятельности, она предпочитает переобучить имеющийся персонал, а не обновлять его состав.

В нашем же случае в стране принято нанимать людей на конкретную позицию. Если от данного работника недостаточно эффекта, его вскоре заменяют. По этой причине сотрудники зачастую не проявляют лояльности и привязанности к рабочему месту, так как не планируют задерживаться там надолго.

И в заключении можно отметить, что стратегическое управление человеческими ресурсами считается важным, как фактор развития компании и улучшения ее конкурентоспособности в условиях современного рынка. Это связано именно с человеческим фактором, так ка только он имеет интеллектуальную способность. В связи с этим, беря в пример упомянутые выше зарубежные методы, компаниям в Узбекистана необходимо заменить своё понимание HR как административной функции к его стратегической роли — источнику инноваций, роста и устойчивости. Внедрение современных HRM-систем, цифровизация кадровых процессов, а также развитие корпоративной культуры, основанной на уважении, ответственности и обучении, способны значительно повысить эффективность работы организаций.

Литературы:

1. *Ulrich D., B. W. (2005). The HR Value Proposition.*
2. *Марталия, Л. (2022). Важность управления человеческими ресурсами (HR) в компании.*
3. *Организация управления HR в разных странах (США, Япония, РФ).*
4. *Чеглакова А.А., Ч. Е. (2019). Значе*

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ «УЗБЕКИСТАН - 2030»

Рахматуллаева Шахноза Хамидовна
ТГЭУ, доцент кафедры Экономика труда
Сафаева Зульфия Анваровна
ТГЭУ, магистрант 2 курса MBA-25R
направление «Управление бизнесом»

Современное развитие экономики Республики Узбекистан характеризуется ускорением процессов цифровизации, совершенствованием корпоративного управления, повышением требований к прозрачности финансовой информации и последовательным внедрением международных стандартов. В данных условиях возрастает роль аудиторских организаций как института, обеспечивающего доверие к финансовой информации и способствующего снижению информационных рисков участников экономических отношений.

Правовую основу современной системы аудита в Узбекистане составляет Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» № ЗРУ-677 от 25 февраля 2021 года [1]. Важным этапом дальнейшего развития отрасли стало формирование нормативной основы для признания Международных стандартов аудита и их применения на территории Республики Узбекистан [2].

Дополнительное значение рассматриваемая проблема приобретает в контексте реализации Стратегии «Узбекистан - 2030», предусматривающей дальнейшее развитие конкурентной экономики, цифровизацию и повышение эффективности государственного и корпоративного управления [3]. Указанные процессы объективно формируют новые требования не только к качеству аудита, но и к бизнес-модели самих аудиторских организаций.

По официальным данным Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан, по итогам I квартала 2026 года в стране действовало 176 аудиторских организаций, а количество лиц, имеющих квалификационный сертификат аудитора, достигло 1 337 человек [4]. Таким образом, современный аудиторский рынок Узбекистана насчитывает около 180 аудиторских организаций, между которыми усиливается конкуренция не только по стоимости услуг, но и по качеству, технологичности, скорости выполнения заданий и способности создавать дополнительную ценность для клиента.

Одновременно происходит существенная трансформация содержания самой аудиторской деятельности. Развитие Big Data, искусственного интеллекта, облачных технологий и аналитики данных позволяет автоматизировать часть повторяющихся аудиторских процедур, анализировать значительные массивы хозяйственных операций и выявлять аномалии, которые сложно обнаружить традиционными методами. Исследования показывают, что применение Big Data Analytics

расширяет возможности анализа финансовой информации и создает предпосылки для повышения эффективности аудиторских процедур [5, с. 423–429].

Искусственный интеллект также постепенно становится инструментом профессиональной деятельности аудитора. Его применение возможно при классификации документов, обработке информации, выявлении необычных операций, анализе договоров и формировании аналитических материалов. При этом автоматизация не должна заменять профессиональное суждение аудитора. Технологические инструменты целесообразно рассматривать прежде всего, как средства поддержки принятия профессиональных решений [6, с. 115–122].

В связи с этим цифровая трансформация аудиторской организации должна рассматриваться не как приобретение отдельных программных продуктов, а как комплексное изменение ее бизнес-стратегии.

Целью исследования является разработка адаптивной модели бизнес-стратегии аудиторской организации, позволяющей интегрировать цифровые технологии в систему управления и одновременно обеспечить повышение качества услуг, производительности труда и экономической эффективности деятельности.

В рамках исследования предлагается модель цифровой бизнес-стратегии, включающая шесть взаимосвязанных направлений:

Цифровая инфраструктура. Предполагает внедрение электронного документооборота, стандартизированных электронных рабочих документов, защищенных систем хранения информации, CRM и современных средств коммуникации с клиентами.

Аналитика данных. Включает применение Data Analytics, автоматизированных тестов, визуализации информации, анализа значительных массивов хозяйственных операций и инструментов выявления аномалий.

Управление качеством и рисками. Цифровые технологии должны интегрироваться в риск-ориентированную методологию аудита и систему управления качеством. Международная практика свидетельствует о дальнейшем совершенствовании требований к аудиторским доказательствам и процедурам оценки рисков с учетом современной технологической среды [7].

Диверсификация услуг. Автоматизация части традиционных аудиторских процедур позволяет перераспределять профессиональные ресурсы на направления с более высокой добавленной стоимостью: финансовую аналитику, налоговый консалтинг, оценку системы внутреннего контроля, управление рисками, ESG и корпоративное управление.

Развитие человеческого капитала. Современный аудитор должен сочетать профессиональные знания в области бухгалтерского учета и аудита с навыками работы с цифровыми инструментами, аналитикой данных и искусственным интеллектом. Исследования цифровой

трансформации аудита подтверждают возрастающее значение технологических компетенций профессиональных аудиторов [8, с. 337–374].

Клиентоцентричная бизнес-модель. Цифровизация должна способствовать переходу от разового взаимодействия в рамках аудиторской проверки к долгосрочному профессиональному сопровождению клиента. Результатом аудиторского задания в таком случае становится не только аудиторское заключение, но и аналитическая информация, позволяющая руководству клиента принимать более обоснованные управленческие решения.

Предлагаемая модель предполагает системный характер цифровой трансформации: изменение одного из ее элементов должно сопровождаться соответствующими изменениями в других элементах бизнес-модели. Например, внедрение аналитических технологий требует не только соответствующего программного обеспечения, но и подготовки персонала, совершенствования методологии аудита, усиления контроля качества и формирования новых форм взаимодействия с клиентами. Поэтому цифровая трансформация должна рассматриваться как непрерывный управленческий процесс, направленный на одновременное повышение операционной эффективности, качества аудиторских услуг и экономической устойчивости аудиторской организации.

Принципиальной особенностью предлагаемого подхода является взаимосвязь технологической и коммерческой трансформации аудиторской организации. Сокращение трудозатрат вследствие автоматизации само по себе не обеспечивает устойчивого роста бизнеса. Высвобождаемые профессиональные ресурсы необходимо направлять на развитие услуг, обладающих более высокой добавленной стоимостью.

Для оценки реализации цифровой стратегии предлагается использовать систему KPI, включающую темп роста выручки, рентабельность, выручку на одного аудитора, долю повторных клиентов, среднюю выручку на одного клиента, долю консультационных услуг, долю автоматизированных процедур, долю заданий с использованием аналитики данных, уровень цифровой подготовки персонала и показатели внутреннего контроля качества.

Практическая применимость предложенной модели рассмотрена на условном примере локальной аудиторской организации. В модельном сценарии ее выручка увеличивается с 1,8 млрд сум в 2026 году до 2,6 млрд сум в 2028 году, то есть на 44,4 %. Одновременно предусматривается изменение структуры доходов: доля обязательного аудита сокращается с 82 до 55 %, тогда как доля консалтинговых и сопутствующих услуг возрастает с 18 до 45 %.

Такое изменение структуры выручки имеет стратегическое значение. Оно снижает зависимость организации от одного вида услуг и создает предпосылки для формирования более устойчивой бизнес-модели.

Предлагаемый подход также предполагает поэтапную реализацию

цифровой стратегии. На первом этапе целесообразно провести цифровой аудит внутренних процессов, стандартизировать электронные рабочие документы и создать базовую цифровую инфраструктуру. На втором этапе — внедрять аналитику данных и автоматизацию отдельных аудиторских процедур. На третьем этапе — использовать сформированную технологическую инфраструктуру для развития новых услуг и формирования долгосрочных отношений с клиентами.

Научная новизна исследования заключается в разработке адаптивной модели цифровой бизнес-стратегии аудиторской организации, объединяющей технологические, организационные, кадровые и коммерческие компоненты. В отличие от подхода, при котором цифровизация рассматривается преимущественно как средство автоматизации аудиторских процедур, предлагаемая модель связывает цифровую трансформацию с изменением структуры услуг, источников доходов и системы ключевых показателей эффективности.

Практическое значение предлагаемой модели заключается в возможности ее использования локальными аудиторскими организациями Республики Узбекистан при разработке среднесрочной бизнес-стратегии. Особую актуальность такой подход приобретает для небольших и средних аудиторских организаций, которые не располагают технологическими ресурсами международных аудиторских сетей и поэтому нуждаются в поэтапной модели цифровой трансформации.

Таким образом, в условиях реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» цифровизация становится одним из факторов долгосрочной конкурентоспособности аудиторских организаций. При этом ее результативность определяется не количеством используемых цифровых инструментов, а способностью интегрировать технологии в общую бизнес-стратегию, повысить качество аудита, развивать профессиональные компетенции персонала и создавать дополнительную ценность для клиента.

Литературы:

1. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-677 от 25.02.2021 «Об аудиторской деятельности».

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №171 от 11.04.2022 «Об утверждении Положения о порядке признания международных стандартов аудита для применения на территории Республики Узбекистан».

3. Стратегия «Узбекистан — 2030» на 2026–2030 годы. Официальные материалы Республики Узбекистан. — 2026.

4. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Итоги I квартала 2026 года в сфере бухгалтерского учета и аудиторской деятельности. — Ташкент, 2026.

5. Cao M., Chychyla R., Stewart T. Big Data Analytics in Financial Statement Audits // Accounting Horizons. — 2015. — Vol. 29, No. 2. — P. 423–429.

6. Kokina J., Davenport T.H. The Emergence of Artificial Intelligence: How Automation is Changing Auditing // Journal of Emerging Technologies in Accounting. — 2017. — Vol. 14, No. 1. — P. 115–122.

7. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Proposed Revisions for Audit Evidence & Risk Response: ISA 330, ISA 500 & ISA 520. — New York: IAASB, 2026.

8. Barr-Pulliam D., Brown-Liburd H.L., Munoko I. The Effects of Person-Specific, Task, and

Environmental Factors on Digital Transformation and Innovation in Auditing: A Review of the Literature // Journal of International Financial Management & Accounting. — 2022. — Vol. 33, No. 2. — P. 337–374.

ЛЕГАЛИЗАЦИЯ НЕФОРМАЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ - КАК МЕХАНИЗМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИЩЕННОСТИ

Нуруддинова Адиба Газиевна
заместитель директора Лаборатории социальной политики
при Национальном агентстве социальной защиты,
при Президенте Республики Узбекистан,
Ташкентского филиала Российского
экономического университета имени Г.В.Плеханова

В силу демографических, структурных и экономических вызовов развивающейся экономики сфера труда Республики Узбекистан отличается высоким уровнем неформальных трудовых отношений. По состоянию на 1 января 2025 года численность незанятого населения составила 5823,3 человек (29% от общей численности трудовых ресурсов), из которых значительная часть вовлечена в неформальные трудовые отношения в той или иной степени.

В ходе данного исследования проведен обзор текущего состояния самозанятости, как одной из самых масштабных форм нестандартной занятости в Узбекистане. По состоянию на 1 января 2025 года общая численность населения Узбекистана достигла 37 543,2 тыс. чел., из которых 15 097,9 тыс. чел. относится к экономически активному населению (или 40,2% от общей численности населения).

Из общей численности экономически активного населения 14 261,9 тыс. чел (или 94%), заняты в разных секторах экономики. Из них 51,7% заняты в официальном секторе (7 373,4 тыс. чел), 38,8% в неформальном секторе (5 533,6 тыс. чел) и 9,5% работают за рубежом (1 254,9 тыс. чел.). С учетом трудовых мигрантов, которые также формируют потенциал незанятого населения, общий масштаб занятых в неформальном секторе может быть оценен в размере 6 788,5 тыс. чел.

С 2020 года в Узбекистане действует институт самозанятости, позволивший создать дополнительные условия для формализации неформальных работников. Самозанятые – это физические лица, которые сами находят работу и сами её выполняют с получением дохода. Самозанятыми могут быть репетиторы, няни, сантехники, электрики, парикмахеры, курьеры, мойщики автомобилей, ремесленники, уборщики, портные, программисты и др.

Институт самозанятости был усилен в 2021 году путём льгот со стороны государства путем предоставления субсидий и возмещение части расходов по аренде нежилых помещений для молодых самозанятых лиц,

которые находятся в трудной жизненной ситуации[1], других льгот и преференций.

Реформа трудового законодательства позволила приступить к расширению обязательного социального страхования на работников нестандартных форм занятости. В декабре 2025 года был принят Закон о государственном социальном страховании, который охватил три пособия – по беременности и родам, по болезни и по безработице. В соответствии с Положением[2] пособия назначаются только для официально трудоустроенных лиц. Теперь под это условие подпадает как работа по трудовому договору с работодателем, так и гражданско-правовые договора с юридическими или физическими лицами, а также другие формы трудовой деятельности, предусмотренные в ТК. Таким образом, работники частного сектора (независимо от форм занятости) получили возможность участвовать в схемах социального страхования. С 1 января 2026 года Государственный Фонд социального страхования при Национальном Агентстве социальной защиты (НАСЗ) начал выплату пособий по беременности и родам в таком формате. Выплата пособий по болезни начнётся с 1 июля 2026 года.

Такая масштабная работа подразумевает, прежде всего, правильный учёт числа работников разных форм нестандартной занятости. В частности, было озвучено, что по состоянию на 1 июля 2025 года число самозанятых достигло 5,5 млн. чел. Но кроме самозанятых есть работники и других форм нестандартной занятости, а также работоспособные, но экономически неактивные группы населения, включая 836 тыс. безработных лиц (из которых только 1,6% признаны безработными официально).

Анализ практики самозанятости показывает, что за время существования института самозанятости накопились проблемы, требующие решений на законодательном уровне.

Во-первых, уровень уплаты социального налога лицами, зарегистрированными в качестве самозанятых, остается низким. В частности, в течение 2020-2023 гг. из 2,5 млн. самозанятых только 13 % (336 тыс. чел.) заплатили социальный налог. В настоящее время (конец 2025 года) доля уплативших налог составляет около 20% от общей численности зарегистрированных самозанятых. Это означает, что только они и будут иметь право претендовать на получение государственной пенсии по старости.

Во-вторых, существуют некоторые несоответствия в законодательных актах при определении размера социального налога, уплачиваемого самозанятыми лицами. Согласно статье 408 Налогового Кодекса Республики Узбекистан для исчисления трудового стажа самозанятые лица должны уплачивать социальный налог в размере не менее 1 БРВ в год. Однако в базовом Постановлении Президента № 4742 (п.3) социальный налог установлен в размере 50% БВР. Это создает недоразумения и проблемы в правоприменительной практике. В частности, в случае уплаты самозанятыми социального налога в размере менее 1 БРВ трудовой стаж за

соответствующий год не засчитывается. При этом не сформирована практика возврата уплаченной суммы в данной ситуации. Так, в 2023 году в Ташкенте 70,7 % самозанятых граждан уплатили налог в размере 0,5 БРВ, но трудовой стаж за данный год не был засчитан, не была возвращена и незачтенная сумма.

В-третьих, согласно действующему законодательству, с 1 ноября 2022 года введен порядок регистрации и учета трудоспособного населения. Согласно ему женщины, достигшие 55 лет, и мужчины, достигшие 60 лет, не могут регистрироваться в качестве самозанятых лиц в электронной системе налоговых органов, потому что уже достигли пенсионного возраста. Это ограничивает возможность получения трудового стажа через институт самозанятости в случаях, когда трудового стажа недостаточно для назначения пенсии по возрасту. В соответствии с законодательством, даже если у них не хватает нескольких дней до 7-летнего минимального стажа (при котором уже можно претендовать на получение государственной пенсии по старости), они не могут претендовать на пенсию, а пособие по возрасту будет назначено женщинам лишь с 60 лет, а мужчинам - с 65 лет.

Необходимо установить единый размер социального налога для самозанятых. В случаях, когда уплаченная сумма социального налога, не соответствует установленному размеру и не позволяет засчитать 1 год трудового стажа, предлагается: 1) стаж работы учитывать пропорционально (учитывать месяцы стажа с учетом суммы уплаченного налога), или 2) ввести правовые механизмы возврата уплаченной суммы налогоплательщику.

Кроме того, предлагается предоставить гражданам предпенсионного и пенсионного возраста возможность работать самозанятыми, устранив возрастные ограничения при регистрации граждан при получении данного статуса.

По данным Налогового комитета Республики Узбекистан по состоянию на 1 июля 2025 года число самозанятых в Узбекистане превысило 5,5 млн. чел. По сравнению с 2023 годом прирост числа самозанятых составил более 3 млн. человек. В структуре самозанятых преобладают мужчины – 58%.

Отраслевой портрет самозанятости. По всем сферам происходит рост численности самозанятых. В абсолютном значении больше всего самозанятых работают в сфере предоставления бытовых услуг – 2,21 млн. чел. (из них около 35% – самозанятые таксисты). Хотя в сфере IT работает меньше всего самозанятых, здесь наблюдается самый высокий прирост численности за год.

В 2020-2025 годах в Узбекистане происходило реформирование системы социальной защиты населения. Цель реформы – создание прозрачной и управляемой из единого центра системы социальной защиты, где помощь предоставляется не отдельными министерствами/ ведомствами, а через цифровую платформу на основе автоматической оценки степени нуждаемости. Компоненты реформы: а) централизация управления; б) повышение адресности помощи; в) цифровизация процесса

выплат, г) расширение социального страхования и д) обеспечение соответствия международным стандартам в сфере социальной защиты.

Налоговый режим. В течение последних лет налоговые режимы для самозанятых и для ИП отличались и не были до конца понятны для широкой аудитории. С 1 января 2026 года в налогообложении обеих категорий произошли существенные изменения, направленные на упрощение правил и сближение режимов при определенных оборотах.

До конца 2030 года для ИП и самозанятых будет создан специальный правовой режим в виде цифровой платформы, объединяющей ключевые услуги от момента регистрации до сдачи отчётности и уплаты налогов. Через платформу ИП и самозанятые смогут оформить деятельность, открыть и управлять счетами, рассчитывать и уплачивать налоги, формировать чеки, открыть электронный кошелёк и др. Документы (договоры, акты и т.п.) можно будет подписывать без ЭЦП (через биометрию и SMS). Для ИП и самозанятых, имеющих электронный кошелёк, открытие банковских счетов станет необязательным.

Для обеспечения социальной защиты неформальных работников необходимо:

1. Сектор неформальной занятости в Узбекистане сложен для проведения детального анализа из-за отсутствия комплексных баз данных. Существующие базы данных самозанятых (Минтруда и Налогового комитета) начали формироваться недавно и сталкиваются с рядом методологических и технических проблем. При этом они не гармонизированы между собой (что-то учитывают, что-то нет), а также не отражают данные по разным категориям самозанятых. База данных такси онлайн агрегаторов пока сопряжены только с Налоговыми органами. Базы данных по другим категориям платформенных занятых отсутствуют, так же, как и базы других нестандартных форм трудовых отношений (сезонные работники, дистанционные работники, надомники и др.).

Рекомендуется продолжить формирование полноценных баз данных по всем категориям нестандартных форм занятости (включая методологические, кадровые, программный и другие вопросы), которые отражены в новой редакции Трудового кодекса Республики Узбекистан (вступил в силу 30 апреля 2023 года).

2. Сектор самозанятости сталкивается с рядом регуляторных проблем, обусловленных активным реформированием налогового законодательства. Только в течение последних нескольких лет налоговый режим (ставки и порог налогообложения) для самозанятых менялся несколько раз. Такие ежегодные изменения не способствуют формированию стабильной деловой среды и снижают доверие к государству, даже несмотря на невысокие ставки налогообложения. Непрозрачность учёта, отсутствие ясных социальных гарантий и слабая правовая защищенность самозанятых из-за превышения лимита оборота или нарушения условий снижают желание самозанятых к полной легализации деятельности.

Целесообразно регуляторный и налоговый режим для самозанятых должен быть неизменным в течение 5 лет.

3. Значительная часть работников готова участвовать в страховых механизмах при условии прозрачности, доверия и приемлемой стоимости участия. Структура самозанятости показывает важность гибких форматов страхования, которые учитывали бы нерегулярность заработка, простои и сезонность отдельных видов деятельности. Самозанятые по-прежнему сталкиваются с дефицитом социальных гарантий. Так, работа в режиме самозанятости не засчитывается в трудовой стаж автоматически, если гражданин не уплачивает социальный налог в добровольном порядке. Кроме того, у самозанятых нет оплачиваемых больничных, отпусков и пособий по безработице.

Рекомендуется обеспечить адаптацию механизмов страхования к реальному профилю работ разных категорий самозанятых. Без этого переход к формализованной социальной защите будет ограниченным.

4. Процесс регистрации самозанятых и процесс социального страхования (отчислений взносов, их распределения, прав на соответствующие социальные выплаты и др.) отделены друг от друга. Это не позволяет самозанятым работникам понять преимущества перехода на механизм обязательного социального страхования.

Целесообразно объединить процесс регистрации самозанятости и подключения к социальному страхованию, а также ввести автоматический расчёт взноса и интеграцию оплаты в привычные платёжные сервисы с детальной разбивкой структуры выплат. При этом также надо создать возможность оплаты небольшими суммами ежемесячно или еженедельно.

Летературы:

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по социальной поддержке молодежи» №132 от 11 марта 2021 года.

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 796 от 17 декабря 2025 года https://lex.uz/en/actinfo/card1/-7926684, Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы назначения и выплаты платежей по государственному социальному страхованию» №206 от 3 ноября 2025 года https://www.lex.uz/ru/docs/7813698

3. Закон «О государственном социальном страховании» №1101 от 9 декабря 2025 года https://lex.uz/ru/docs/7889171

4. Налоговый комитет Республики Узбекистан https://t.me/fiskaltahlil/1219

5. Национальный комитет по статистике https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/labor-market

6. Налоговый кодекс Республики Узбекистан https://lex.uz/ru/docs/4674893

УПРАВЛЕНИЕ МИГРАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ КАК ФАКТОР СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна
Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В.Плеханова

Исследование особенностей миграции и эволюции общества на разных этапах экономических циклов (кризис, подъем, стабилизация) критически важно для понимания современных мирохозяйственных связей. Процессы глобализации, пандемии и смена технологических укладов кардинально трансформировали динамику народонаселения за счет цифровизации коммуникаций и открытого доступа к информации.

Международная миграция выступает ключевым индикатором социально-экономического и научного прогресса, способствуя росту совокупного потенциала человечества. В развитых государствах и странах СНГ (включая Узбекистан) государственная политика переориентирована на привлечение высококвалифицированных кадров как основы «экономической миграции».

В рамках данного тезиса реализуется комплексный подход к анализу человеческого капитала как общественного блага. Исследуются механизмы формирования конкурентоспособности рабочей силы, инвестиции в образование и профориентацию, а также вопросы трудовой мобильности и качества жизни населения в условиях рыночной экономики.

Узбекистан выступает ключевым донором трудовых и образовательных миграционных потоков в Центрально-Азиатском регионе, а поступающие в республику денежные переводы служат существенным фактором макроэкономической стабильности. В данной работе исследуются генезис и ключевые детерминанты миграционных процессов в современном Узбекистане. На основе критического анализа широкого круга научных источников осуществлен компаративный анализ тенденций, динамики и структурной трансформации потоков трудовой и учебной миграции в ключевых направлениях - Российскую Федерацию и Республику Корея. Особое внимание уделено как эндогенным (внутренним) факторам миграции, так и комплексному анализу правового статуса, адаптации и жизнедеятельности соотечественников за рубежом.

Социально-трудовые реформы в государствах Центральной Азии катализировали масштабные миграционные процессы, которые повлекли за собой аккультурацию молодежи, трансформацию внешнеполитических векторов и усиление социально-экономической поляризации общества. Для большинства мигрантов из региона характерны такие барьеры, как низкий уровень языковой компетенции, правовая неграмотность в сфере миграционного законодательства и слабая интеграция в принимающие сообщества. Процесс реэмиграции сопряжен с трудностями трудоустройства на родине: значительная часть возвращающихся граждан расходует накопления на текущее потребление, и лишь 5–7% инвестируют

средства в предпринимательскую деятельность. Реализацию их потенциала сдерживают инфраструктурные ограничения и экономический дисбаланс.

Данная динамика специфична для Узбекистана, где исторически преобладал оседлый образ жизни с высокой степенью привязанности к семье и дому. В республике сформировалась уникальная модель: в отличие от общемирового тренда, где внутренние перемещения превалируют над внешними, объем международной миграции из Узбекистана превышает масштабы внутренней мобильности. Учитывая волнообразный характер миграционных потоков и их глубокое влияние на социально-политическую и экономическую жизнь, возрастает необходимость совершенствования правовых механизмов управления этими процессами. В связи с этим государством разработана стратегия по формированию эффективной системы регулирования внешней трудовой миграции, защищающая права и интересы граждан.

Благодаря безвизовому въезду, историческим взаимосвязям и знанию русского языка большая часть узбекских мигрантов уезжает в Россию. Другие страны Содружества Независимых Государств, страны Персидского залива, Израиль и Республика Корея также привлекают работников из Узбекистана, но в меньшей степени.

Один из пяти мужчин трудоспособного возраста в Узбекистане – международный мигрант. Среди молодежи эта доля возрастает. Такие высокие темпы миграции с одной стороны являются следствием политики на внутреннем рынке труда Узбекистана, а с другой стороны они объясняются значительным спросом на работников из Узбекистана на международном рынке труда.

Таблица 1

Распределение трудовых мигрантов из Узбекистана по странам, (%)

Страна назначения	Доля
Россия	86,41
Казахстан	11,93
Кыргызстан	033
Таджикистан	1,06
Другие	0,28

Наибольшая часть трудовых мигрантов выезжает из Самаркандской, Бухарской, Андижанской, Ферганской и Хорезмской областей. Сельская миграция составляет около двух третей от всего потока внешних трудовых мигрантов, кроме того, важной тенденцией трудовой миграции из Узбекистана становится ее «омоложение».

Темпы создания рабочих мест в формальном и неформальном секторах занятости Узбекистана пока опережают довольно высокие темпы роста населения. Значительная часть населения не имеет возможности трудоустроиться, при этом молодежь Узбекистана оказалась в очень

уязвимом положении – около 10% в возрастной группе от 20 до 24 лет не ищут работу, так как потеряли надежду ее найти.

Наибольшее количество рабочих мест в Узбекистане находится в сфере услуг и сельского хозяйства, а остальные в промышленности. Таким образом, около 80% работников заняты в сфере услуг или в сельском хозяйстве, но часть из них – члены семьи или самозанятое население, официально определяемое как предприниматели.

В неформальном секторе экономики заняты более половины всех работников из Узбекистана (не заключается договор, или привлекаются неоплачиваемые работники из числа членов семьи или родственников). Недостаточная квалификация работников снижает участие населения в формальном рынке труда в Узбекистане. Кроме навыков, компетенций и уровня образования работников, у работодателей из Узбекистана, в особенности из формального сектора, востребованы работники с когнитивными и некогнитивными умениями. Высокая вероятность трудоустройства и более высокая зарплата у высококвалифицированных рабочих обусловлены их дефицитом, и этот дефицит продолжает сохраняться.

В условиях устойчивого расширения демографического потенциала и сохранения устойчивой трудоизбыточности на национальном рынке труда внешняя миграция выступает ключевым регулятором занятости в Узбекистане. Данный процесс эффективно нивелирует демографическое давление на локальные рынки труда, что особенно критично для трудоизбыточных и густонаселенных регионов республики, фактически выполняя функцию институциональной альтернативы безработице.

Отметим, в современных условиях миграция перестает быть единственным компенсатором внутренних ограничений и все в большей мере встраивается в более сложную модель развития, в которой возрастает значение внутренних рабочих мест, инфраструктурных инвестиций и производственного расширения. Для устойчивости отечественной экономики важно именно это изменение: чем сильнее внутренние источники занятости и накопления, тем ниже зависимость от внешней трудовой компенсации.

На основе полученных результатов исследования сформулированы следующие рекомендации по оптимизации миграционной политики:

1. Запуск национальной программы по корреляции демографических трендов с темпами создания рабочих мест.

2. Достижение 50%-го охвата населения профессиональной подготовкой к 2030 году.

3. Сокращение теневой занятости в малом бизнесе через снижение налогового бремени и упрощение регуляторики.

4. Стимулирование возвратных потоков мигрантов для интеграции накопленного ими человеческого капитала в национальную экономику.

5. Дифференциация мер поддержки занятости с приоритетом на наиболее трудоизбыточные регионы.

Реализация стратегических государственных задач требует формирования базовых условий для подготовки инновационных кадров, отвечающих вызовам времени. Необходима модернизация нормативно-правовой базы, регулирующей инновационные формы и виды занятости, а также трансформация системы образования с опорой на императивы цифровой экономики. В процессе обучения важно стимулировать обучающихся к освоению востребованных компетенций и активному вовлечению человеческого потенциала в процессы цифровизации Республики Узбекистан.

Своевременное решение вопросов международной миграции, несомненно, обеспечит Узбекистану устойчивый экономический рост и переход к инновационному развитию.

Литературы:

1.Абдурахманов К.Х. Человеческий капитал – основа развития прогрессивного общества. /https://www.kultura.uz/view_2_r_23427.html.

2. Абдураимова Н. Р. Влияние демографического роста на рынок труда в Узбекистане //Management and economics scientific research journal. – 2026. – Т. 3. – №. 1. – С. 142-150.

3. Бобоев М. Р. Некоторые аспекты устойчивого экономического развития России, Узбекистана и Таджикистана //Региональные проблемы преобразования экономики. – 2026. – №. 7. – С. 167-178.

4. Карабаева, Г. Ш. Регулирование миграционных процессов для устойчивого развития страны / Г. Ш. Карабаева // Современные инновационные технологии и проблемы устойчивого развития в условиях цифровой экономики: Сборник статей XVII международной научно-практической конференции, Минск, 14–15 июня 2023 года. – Минск: ООО "Колорград", 2023. – С. 27-32. – EDN IVBGVJ.

DEMOGRAFIK JARAYONLAR: ICHKI MIGRATSIYANING URBANIZATSIYA VA IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Rahmatova Nargiza A’zamxonovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ahmadjonov Ibrohimjon Ahadjon o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
ibrohimjonahmadjonovahadjonov@gmail.com

Bugungi globallashuv, siyosiy beqarorlik va iqtisodiy noaniqliklar tobora ko‘payib borayotgan paytda demografik muvozanatni ushlab turish ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan dolzab masalalardan biriga aylandi. Dunyoning ba’zi mamlakatlarida sodir bo‘layotgan siyosiy beqarorliklar sababli tashqi migratsiya harakati keskin oshgan bo‘lsa, demografik bosim, sivilizatsiyaning mamlakat bo‘ylab notekis rivojlangani va urbanizatsiya jarayonlari aholining hududiy harakatchanligini ya’ni ichki migratsiyani jadallashtirmoqda. Shu sababli ichki migratsiya mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ichki migratsiya mehnat resurslarining hududlar o‘rtasida qayta taqsimlanishi, bandlik darajasining o‘zgarishi, shaharlar rivojlanishi, aholi daromadlari hamda ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ichki

migratsiya jarayonlarini hududiy rivojlanish siyosati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biridir.

Hozirgi davrda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida demografik jarayonlar, xususan, ichki migratsiya alohida o‘rin tutadi. Aholining qishloq joylardan shaharlarga va sanoat markazlariga ko‘chib o‘tishi muqarrar ob’ektiv jarayon bo‘lib, u urbanizatsiya sur’atlarini tezlashtiradi hamda milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda aholining yuqori tabiiy o‘sishi, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi, yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoj, ta’lim va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining hududlar bo‘yicha turlicha taqsimlanishi ichki migratsiya jarayonlarining shakllanishiga ta’sir qilmoqda. Mehnat va iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan yuqori bo‘lgan hududlarga aholining ko‘chib o‘tishi, ayniqsa, yirik shaharlar va urbanizatsiya jarayonlari jadal kechayotgan hududlarda iqtisodiy faollikning ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, aholining ayrim hududlardan chiqib ketishi ushbu hududlarda mehnat resurslari, inson kapitali va tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ichki migratsiyaning asosiy sabablaridan biri hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlardir. Ish haqi miqdori, bandlik imkoniyatlari, ta’lim va tibbiyot xizmatlarining mavjudligi, transport infratuzilmasi, uy-joy sharoitlari hamda tadbirkorlik uchun yaratilgan imkoniyatlarning farqlanishi aholining migratsion qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Natijada migratsiya nafaqat demografik jarayon, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi [1; 2]. O‘zbekiston Respublikasida hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida aholi farovonligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi ichki migratsiya jarayonlarini ham tizimli ravishda o‘rganish va boshqarishni talab etadi.

Hududlar o‘rtasida aholi harakatchanligini oshirib, demografik bosimni ortishi va hudud infratuzilmasiga qo‘shimcha yuklamalar tushishiga quyidagilarni asosiy omillar sifatida keltirish mumkin:

Birinchi eng asosiy omillardan biri bu aholi ish o‘rinlari ko‘p, mehnatga talab yuqori va daromad olish imkoniyatlari keng bo‘lgan hududlarga intilishi. Sanoat, xizmat ko‘rsatish, qurilish, savdo va boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlari rivojlangan shaharlar migrantlar uchun nisbatan jozibador hisoblanadi. Natijada mehnat resurslarining hududlararo qayta taqsimlanishi yuz beradi.

Ikkinchi muhim omil — ilm-fan, ta’lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari. Oliy ta’lim muassasalari, kasbiy ta’lim markazlari va malaka oshirish imkoniyatlarining yirik shaharlarda ko‘proq jamlanishi yoshlarning hududiy harakatchanligini kuchaytiradi. Ta’lim olish maqsadida shaharga kelgan yoshlarning bir qismi keyinchalik shu hududda mehnat faoliyatini davom ettirishi va butunlay shu hududda qolib ketishlari mumkin.

Ichki migratsiyaning yana bir muhim omili urbanizatsiya jarayoni hisoblanadi. Shaharlar iqtisodiy faoliyat, xizmatlar, ta'lim, tibbiyot va zamonaviy infratuzilmaning asosiy markazlari sifatida shakillanishi aholining migratsion oqimlarini o'ziga jalb qiladi. Buni quyidagi misolda yaqqol kuzatishimiz mumkin. O'zbekistonda aholi zichligi hududlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi: 2026-yil 1-aprel holatiga Toshkent shahrida 1 kv. km ga o'rtacha 7352,4 kishi, Andijon viloyatida 821,4 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 10,2 kishini tashkil etgan.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategik rivojlanish siyosatida hududlarni rivojlantirish, aholining farovonligini oshirish va iqtisodiy barqaror o'sish uchun qulay va samarali shart-sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2026-yilda yangilangan strategik yondashuvda ham hududlarni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalashtirish hujjatlarining yagona maqsadlar bilan uyg'unligini ta'minlash va natijalarni monitoring qilishga alohida e'tibor berilgan. Mazkur yondashuv migratsiyani faqat demografik jarayon sifatida emas, balki hududiy iqtisodiy siyosatning tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston hududlarida ichki migratsiya mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Migratsiyaning shakllanishida bandlik va daromad olish imkoniyatlari, ta'lim, tibbiyot, infratuzilma, urbanizatsiya va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ichki migratsiyaning ijobiy jihati shundaki, u mehnat resurslarining hududlar bo'yicha qayta taqsimlanishiga, iqtisodiy faol hududlarning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini qoplashga va aholining daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, migratsiyaning ayrim hududlarda haddan tashqari jamlanishi uy-joy, transport, ta'lim, tibbiyot va kommunal infratuzilmaga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki migratsiyani samarali boshqarish uchun hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, mehnat bozorlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va inson kapitaliga investitsiyalar hajmini ko'paytirish zarur. Ayniqsa, aholisi ko'proq chiqib ketayotgan hududlarda kichik biznes, xizmat ko'rsatish, sanoatni diversifikatsiya qilish va zamonaviy qishloq xo'jaligini rivojlantirish migratsiya bosimini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, qabul qiluvchi hududlarda migratsiya oqimlarini hisobga olgan holda uy-joy, transport, maktabgacha va umumiy ta'lim, tibbiyot hamda kommunal infratuzilmani oldindan rejalashtirish lozim. Shu orqali ichki migratsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish va uning iqtisodiy rivojlanish uchun ijobiy imkoniyatlaridan foydalanishmumkin. Demak, O'zbekistonda ichki migratsiya natijasida yuzaga kelayotgan demografik bosim, urbanizatsiya va iqtisodiy muammolarni samarali migratsiya siyosati ya'ni migratsiyani cheklashga emas, balki uning sabablarini boshqarish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy- iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholining hududiy harakatchanligini barqaror rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-21- son Farmon, 2026-yil 16-fevral.

3. World Bank. World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography. Washington, DC: World Bank, 2009.

4.https://drive.google.com/file/d/1NeR7E2yRtgnGEw328OQgXHSTgizZ35.

INTELLEKTUAL RESURSLAR MIGRATSIYASI SHAROITIDA KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI INSTITUTSIONAL BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan jadallashgan tarkibiy islohotlar hamda „O‘zbekiston — 2030“ strategiyasining ustuvor maqsadlari milliy ishlab chiqarish korxonalarida yuqori texnologik mahsulotlar ulushini 32 foizgacha yuksaltirish hamda mehnat unumdorligini kamida 2 barobarga oshirishni taqzo etmoqda [1.1]. Mazkur strategik marralarga erishish korxonalarning intellektual salohiyatini tubdan yangilashni hamda tashqi xalqaro mehnat bozorlaridan oqib kelayotgan yuqori malakali, innovatsion ko‘nikmalarga ega intellektual resurslarni korporativ boshqaruv tizimiga muvaffaqiyatli moslashtirish (*Strategic Alignment*) mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy globallashuv va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish bevosita innovatsion faoliyat va ilmiy-texnikaviy salohiyatga bog‘liqdir. Biroq, yuqori malakali mutaxassislar va ixtirochilarning xalqaro migratsiyasi ("brain drain") milliy hamda korxona darajasidagi bilimlar tarmog‘ini zaiflashtirishi mumkin. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, malakali kadrlar migratsiyasi nafaqat resurs yo‘qotilishi, balki diaspora va hamkorlik tarmoqlari orqali xalqaro bilimlar va texnologiyalar transferini ta’minlovchi "brain bank" (bilimlar banki) mexanizmi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Shu bois, intellektual resurslar haratchanligi sharoitida korxonalarning innovatsion faoliyatini tartibga solish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun moslashtirilgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tizimli-funksional tahlil, tashkiliy modellashtirish, kross-funksional yondashuv va bilimlar menejmenti (*Knowledge Management*) prinsiplaridan foydalanildi. Zamonaviy strategik menejmentning „resurslarga bog‘liqlik“ (*Resource Dependency Theory*) nazariyasi hamda J. Barnining *VRIO* konseptual modeliga ko‘ra, intellektual kapital korxonaning eng noyob va qiyin nusxa ko‘chiriladigan strategik aktividir.

Shunga muvofiq, intellektual resurslar migratsiyasi sharoitida korxonaning innovatsion faolligi va raqobatbardoshlik darajasi.

Intellektual resurslar migratsiyasi va bilimlar transferi omillarini hisobga olgan holda, korxonalarning innovatsion faolligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan institutsional boshqaruv va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu jarayonida tizimli tahlil, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya hamda institutsional va ekonometrik yondashuvlardan foydalanildi. Muammo O‘zbekiston olimlarining innovatsion salohiyat va institutsional mexanizmlarga doir qarashlari hamda xalqaro tadqiqotchilarning ixtirochilar migratsiyasi va bilimlar spilloveri (tarqalishi) bo‘yicha nazariy-amaliy ishlanmalari asosida o‘rganildi.

Asosiy natijalar va tahlil:

1. Intellektual migratsiya va bilimlar transferi: Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, ixtirochilar va bilim xodimlari ko‘pincha umumiy omil undorligi (TFP) hamda o‘rganish va daromad imkoniyatlari yuqori bo‘lgan hududlarga intiladi. Emigratsiya natijasida mahalliy bilimlar tarmog‘i ma’lum darajada yo‘qotishga uchrasa-da, chet elga ko‘chgan ixtirochilar o‘z kelib chiqish mamlakatidagi hamkorlari bilan aloqalarni saqlab qoladi va texnologiyalar transferi hamda bilimlar spilloverini ta’minlaydi.

2. Tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmining tarkibi: Korxona va hududlar darajasida innovatsion faoliyatni institutsional boshqarish ikkita asosiy blokni o‘z ichiga oladi:

Tashkiliy mexanizm: Normativ-huquqiy hujjatlar va strategiyalar, oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy tadqiqot institutlari integratsiyasi, innovatsion infratuzilma (biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar, startap loyihalar, BIG DATA va texnologiyalar transferi markazlari).

Iqtisodiy mexanizm: Davlat investitsiyalari va maxsus dasturlar, venchur fondlar hamda moliyaviy institutlar, soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy hamda kichik sanoat zonalari imkoniyatlari.

3. Innovatsion marketing va raqobatbardoshlik: Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing modeliga o‘tishning 5 blokli mexanizmi muhim o‘rin tutadi: *strategik diagnostika, institutsional moslashuv, resurs ta’minoti, kompetensiyalarni rivojlantirish va natijalarni baholash*.

4. O‘zbekistondagi institutsional islohotlar: O‘zbekistonda innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha qator strategiyalar va me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi maxsus muassasalar (venchur tashkilotlar va jamg‘armalar) soni 28 taga yetkazildi, har yili Innoweek.uz xalqaro haftaligi o‘tkazib kelinmoqda. Shuningdek, intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha PQ-4965 va PQ-221-sonli qarorlar hamda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan intellektual mulk strategiyasi qabul qilinib, bojxona reyestri va blokcheyn kabi zamonaviy raqamli vositalar joriy etilmoqda. Biroq, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasining nisbatan pastligi hamda fan, ta’lim va

ishlab chiqarish integratsiyasining yetarlicha rivojlanmagani saqlanib qolayotgan institutsional muammolardan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar:

• Infratuzilma va tijoratlashtirishni kuchaytirish: Ilmiy natijalarini korxonalarda joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklikni va texnologiyalar transferi markazlarini (litsenziyalash, qo‘shma loyihalar, nou-xau) faol qo‘llab-quvvatlash zarur.

• Intellektual resurslarni saqlash va diasporadan foydalanish: Xorijga ketgan ixtirochi va mutaxassislarni g‘oyaviy hamda texnologik tarmoqlar orqali mahalliy loyihalarga jalb etish ("brain bank" imkoniyatlaridan foydalanish) hamda xalqaro bilim spilloveridan samarali foydalanish lozim.

• Institutsional va moliyaviy rag‘batlar: Korxonalarda R&D (TDTMI) xarajatlari uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, venchur moliyalashtirishni rivojlantirish hamda intellektual mulk huquqlarini raqamli texnologiyalar vositasida ishonchli muhofaza qilish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy va mintaqaviy darajada innovatsion tizimni shakllantirish hamda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda ularga xizmat qiluvchi institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samarali faoliyat yuritishi hamda ularning bosqichma-bosqish evolyutsion transformatsiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi

. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda innovatsion ekotizimni rivojlantirish, davlat boshqaruv tizimini optimallashtirish va intellektual mulk muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi

. Xususan, intellektual mulk sohasida Adliya vazirligi va tegishli idoralar vakolatlari qayta ko‘rib chiqildi, blokcheyn hamda bojxona reyestri kabi raqamli texnologiyalar joriy etildi, innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi venchur tashkilotlar hamda "Innoweek.uz" xalqaro haftaligi kabi institutsional platformalar tarmog‘i kengaytirildi

. Shunga qaramay, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni korxonalarda tijoratlashtirish ko‘rsatkichining nisbatan pastligi, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining yetarlicha rivojlanmagani hamda hududlararo innovatsion salohiyat nomutanosibligi saqlanib qolayotgan asosiy masalalardandir

Shu bilan birga, yuqori malakali mutaxassislar va ixtirochilar emigratsiyasi ("brain drain") mahalliy bilimlar tarmog‘iga muayyan bosim o‘tkazsa-da, chet elga ko‘chgan xodimlar va diaspora vakillari bilan aloqalarni saqlab qolish xalqaro bilimlar spilloveri hamda "brain bank" (bilimlar banki) va "intellektual aylanma" mexanizmlari orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, intellektual resurslar migratsiyasi sharoitida korxonalarning innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini institutsional boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va bozorga tatbiq etish mexanizmlarini kuchaytirish uchun davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish,

texnologiyalar transferi markazlari, biznes-inkubatorlar, texnoparklar, BIG DATA markazlari hamda innovatsion akseleratorlar faoliyatini rag‘batlantirish lozim

Ikkinchidan, xorijga ketgan ixtirochilar va malakali kadrlar bilan kognitiv va g‘oyaviy hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish, ularni qo‘shma ilmiy-texnik loyihalarga jalb qilish va "brain bank" imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali xalqaro texnologiyalar transferini tezlashtirish zarur

Uchinchidan, korxonalarda R&D (tadqiqot va ishlanmalar) xarajatlarini soliq imtiyozlari hamda venchur moliyalashtirish mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish, intellektual mulk huquqlarini ishonchli muhofaza qilish hamda har bir mintaqaning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirilgan moslashuvchan innovatsion strategiyalarni izchil amalga oshirish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Mukumova, N. N., Nasirov, D. F., Toshimov, U. H. (2025). Development of the Economy of Uzbekistan Based on Innovative Activities. Marketing (Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal), 3-son, 416–423-b.

2. Bobomurodov, Q. (2026). Korxonalar Raqobatbardoshligini Oshirishda Innovatsion Marketing Konsepsiyasiga O‘Tishning Tashkiliy-Iqtisodiy Mexanizmini Takomillashtirish. Green Economy and Development, TSUE, Vol. 4(4).

3. Axmedova, D. O. (2025). Ta’lim va mehnat bozori kesimida yoshlar migratsiyasi tendensiyalari. “Globallashuv va keng ko‘lamli islohotlar sharoitida jarayonlarning dinamikasi va transformatsiyasi” to‘plami, Toshkent: Voris-nashriyot, 302–309-b.

4. Buriyev, O., Zokirov, J. (2022). O‘zbekistonda intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruviga doir islohotlar. Toshkent viloyati adliya boshqarmasi axborotnomasi.

5. Agrawal, A., Kapur, D., & McHale, J. (2008). Brain Drain or Brain Bank? The Impact of Skilled Emigration on Poor-Country Innovation. NBER Working Paper No. 14592, RePEc.

6. Prato, M. (2022). The Global Race for Talent: Brain Drain, Knowledge Transfer, and Growth. Yale University Working Paper.

7. Docquier, F., & Rapoport, H. (2012). Globalization, Brain Drain and Development. Journal of Economic Literature, 50(3), 681–730.

8. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. The University of Chicago Press

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абдулов Дамир Рустамович
Ташкентский государственный юридический университет,
Ташкентский филиал Р.Э.У. им. Г.В. Плеханова
abdulovd79@gmail.com

Стратегия «Узбекистан – 2030» [1] и Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» [2] определяют цифровую трансформацию как ключевой инструмент решения социально-экономических задач, включая управление миграционными процессами. Внутренняя и внешняя трудовая миграция остаётся одним из важных факторов рынка труда Узбекистана.

Проблемы теневой занятости мигрантов, сложности налогового администрирования доходов, полученных за рубежом, недостаточная прозрачность трудовых отношений в компаниях и слабая система реинтеграции требуют современных цифровых решений [3].

Актуальность исследования основано на анализе цифровой трансформации корпоративного управления и налогового администрирования создаёт условия для совершенствования системы управления миграцией: повышает прозрачность найма, упрощает налоговый учёт, снижает административную нагрузку и способствует социальной поддержке мигрантов.

Цель статьи выявить потенциал цифровой трансформации указанных сфер как фактора совершенствования управления миграционными процессами.

Методологическую основу исследования составляют на анализе нормативно-правовых актов Республики Узбекистан [1, 2, 4], данных Государственного налогового комитета, материалов OECD и World Bank [5, 6], а также результатов исследований по цифровизации [7, 8].

Применён сравнительный анализ и синтез. Для оценки цифровой зрелости использован фреймворк DIGILOG Economy и модель Global RPM [7], позволяющие классифицировать страны по стадиям Digital, Dinalog, Anatal и Analog.

С 2020 года в Узбекистане действует система электронных счетов-фактур, а с 2026 года - AI-powered real-time risk scoring и предзаполненные налоговые декларации [4]. Эти инструменты позволяют автоматически отслеживать доходы, включая выплаты мигрантам, и снижать теневую занятость.

В корпоративном управлении внедрение ERP-систем, GRC-платформ и цифровых HR-решений повышает прозрачность трудовых договоров, учёт рабочего времени и выплаты заработной платы мигрантам [8]. Это способствует легализации трудовых отношений и снижению коррупционных рисков.

Согласно DIGILOG Economy [7], emerging markets, включая Узбекистан, находятся преимущественно на стадиях Anatal и Analog. Переход к более высоким стадиям возможен при укреплении институционального потенциала и человеческого капитала, именно эти факторы критичны для эффективного управления миграцией.

Синергия цифрового налогового администрирования и корпоративного управления проявляется в:

- автоматизации налогового учёта доходов мигрантов;
- создании единых цифровых платформ для регистрации трудовых договоров;
- упрощении процедур возврата налогов и социальной поддержки при реинтеграции.

Цифровые решения напрямую отвечают задачам совершенствованию системы управления миграционными процессами. Они позволяют перейти

от реактивного контроля к проактивному сервису, что соответствует принципу «от проверки к сервису» в налоговом администрировании [4].

Ограничениями остаются недостаточная цифровая грамотность части мигрантов и работодателей, риски кибербезопасности и фрагментарность информационных систем [7]. Без синхронизации данных между налоговыми органами, Министерством занятости и миграционными службами эффект будет ограничен. Международный опыт показывает, что страны с высоким уровнем цифровизации (Digital-стадия) успешнее решают проблемы трудовой миграции за счёт data-driven подходов и этических цифровых практик [7].

Заключение, цифровая трансформация корпоративного управления и налогового администрирования является важным фактором совершенствования системы управления внутренней и внешней трудовой миграцией в Узбекистане. Она способствует легализации занятости, повышению прозрачности трудовых отношений и эффективной реинтеграции мигрантов.

Рекомендации:

1. Интегрировать данные о трудовых мигрантах в Национальную платформу данных и системы налогового администрирования.

2. Разработать цифровые модули в корпоративных ERP-системах для учёта и поддержки мигрантов.

3. Внедрить упрощённые цифровые налоговые сервисы для граждан, работающих за рубежом, и при их возвращении.

4. Усилить программы цифровой грамотности для мигрантов и работодателей с учётом индикаторов DIGILOG Economy [7].

Реализация указанных мер будет способствовать достижению целей Стратегии «Узбекистан – 2030» в сфере управления миграционными процессами.

Литературы:

1. *Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 г. № УП-158 (в ред. от 16.02.2026 № УП-21) «О Стратегии «Узбекистан – 2030»».*

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030»».

3. Материалы по трудовой миграции и занятости (официальные данные).

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2026 г. о мерах по совершенствованию налогового администрирования.

5. OECD. Tax Administration 3.0. Paris, 2020–2024.

6.World Bank. Business Ready rankings. Eshtaev A., Karimov M., Bekimbetova G., Abdulov D., Ikromov A., Sobirov Y. Analyzing the digitalization level of countries using the DIGILOG economy framework // Digital Policy, Regulation and Governance. 2026. DOI: 10.1108/DPRG-12-2025-0449.

7. Аблаева В.Б. Цифровая трансформация корпоративного управления в Узбекистане. 2025.

8. Rustamovich, A.D., and A.O. Kalandarovich. "System of forms and methods of tax administration in Uzbekistan." International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering 9.1 (2019): 3108-3110.

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI QISQARTIRISHDA TURIZM SOHASIDA YANGI ISH O‘RINLARI YARATISHNING AHAMIYATI

To‘xtaeva Xurshida Farxodovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik mehnat resurslari eksport qiluvchi mamlakatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu davrda mamlakatga kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi 2025 yil yakunida 18,9 mlrd AQSh dollariga yetib, uy xo‘jaliklari umumiy daromadidagi ulushi 16,5 foizdan 21 foizga ko‘tarilgan, ayrim hududlarda esa 30 foizdan oshgan [16].

Pul o‘tkazmalari ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlasa-da, bunday daromad manbaiga yuqori darajada bog‘liqlik milliy mehnat bozori uchun bir qator xatarlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, o‘tkazmalarning asosiy qismi bitta mamlakatdan keladi: 2025 yilning yanvar-oktyabr oylarida ularning qariyb 78 foizi Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri kelgan. Ikkinchidan, ishga layoqatli yoshlar va malakali kadrlarning uzoq muddatga mamlakatdan tashqarida bo‘lishi ichki iqtisodiyotdagi inson kapitali zahirasini kamaytiradi. Uchinchidan, migrantlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi bevosita qabul qiluvchi davlatlarning siyosatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu bois xavfsiz va uyushgan mehnat migratsiyasini ta’minlash hamda mamlakat ichida munosib ish o‘rinlari yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1; 2].

Shu bilan bir vaqtda mamlakatda turizm eng tez o‘sayotgan xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan biriga aylandi. 2025-yilda O‘zbekistonga turizm maqsadida 11,7 mln xorijiy fuqaro tashrif buyurgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 46,8 foiz ko‘pdir. BMTning Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning dastlabki to‘qqiz oyida O‘zbekiston kiruvchi turizm o‘sishi bo‘yicha dunyoning eng tez rivojlanayotgan yetti yo‘nalishi qatoriga kirgan. 2030-yilgacha xorijiy tashrifchilar sonini yiliga 20 mln kishiga, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 3,5 foizdan 7 foizga yetkazish maqsadi belgilangan.

Turizm mehnat sig‘imi yuqori, kirish to‘siqlari nisbatan past va hududlarda tarqoq joylashgan faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli turizmda yaratilayotgan ish o‘rinlari tashqi mehnat migratsiyasiga ichki muqobil bo‘lishi mumkin. Biroq bu bog‘liqlik milliy ilmiy adabiyotlarda asosan sifat jihatidan tilga olinadi, rasmiy statistika asosidagi miqdoriy baholar esa yetarli emas.

Birinchidan, TYH ko‘rsatkichlari faqat yuridik shaxslardagi xodimlarni qamrab oladi va yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy mehmon uylarida band bo‘lganlarni hisobga olmaydi, ya’ni sohadagi haqiqiy bandlik ushbu bahodan yuqori. Ikkinchidan, xorijiy tashrifchilar tarkibida qo‘shni davlatlardan keladigan qisqa muddatli tashriflar katta ulushga ega. Uchinchidan, xorijdagi migrantlar sonini hisoblash uslubi yillar davomida takomillashtirilgan, shu bois ko‘rsatkichlar o‘zgarishini izohlashda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Tashqi mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalari dinamikasini tahlil qilsak, migratsiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar soni 2022-yil oxirida 2,1 mln kishini, 2023-yil oxirida 2 mln kishidan biroz ko‘proqni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil oxiriga kelib 1,35 mln kishigacha qisqargan [13]. Eng sezilarli pasayish Rossiya yo‘nalishida kuzatilib, u

yerdagi migrantlar soni bir yilda 1,2 mln kishidan 698 ming kishiga, ya'ni 41,8 foizga kamaygan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari va ishsizlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xorijdagi mehnat migrantlari, mln kishi	–	–	2,1	2,0	1,35	1,4
shu jumladan Rossiyada, ming kishi	–	–	–	1200	698	834,2
Pul o'tkazmalari, mlrd AQSh dollari	6,0	8,1	–	11,4	14,8	18,9
Ishsizlik darajasi, %	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5	4,9

Manba: *[13; 14; 16] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Izoh: 2026 yil avgust holatiga [14]; 2024 yildagi 14,8 mlrd dollar va uning oldingi yilga nisbatan 3,4 mlrd dollarga o'sishi asosida hisoblangan [16].*

Jadvaldan ko'rinadiki, migrantlar sonining kamayishi pul o'tkazmalarining qisqarishiga olib kelmagan. Aksincha, o'tkazmalar hajmi 2020-2025-yillarda 3,15 barobar ortgan, 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan 27,2 foizga o'sgan [16]. Markaziy bank bu o'sishni asosan tashqi omillar hamkor davlatlar valyutalarining mustahkamlanishi va yuqori ish haqli bozorlarga migratsiyaning ortishi bilan izohlaydi [16].

2-jadval.

Turizm tarmoqlari bo'yicha yuridik shaxslardagi band xodimlar soni, kishi

Tarmoq	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2023, %	2024/2019, %
Umumiy ovqatlanish xizmatlari	66 646	54 101	67 946	73 111	78 415	93 721	119,5	140,6
Tashrifchilarni joylashtirish xizmatlari	54 536	49 805	51 524	53 451	59 955	69 016	115,1	126,6
Avtomobil yo'lovchi transporti	70 919	50 206	48 166	45 906	32 703	30 645	93,7	43,2
Sport va dam olish xizmatlari	16 028	15 666	17 013	18 689	19 206	18 687	97,3	116,6
Madaniyat xizmatlari	11 042	11 545	12 492	12 315	12 604	17 845	141,6	161,6
Turistik agentliklar va bronlash xizmatlari	3 192	2 525	2 410	3 103	4 184	9 931	237,4	311,1
Temir yo'l yo'lovchi transporti	5 273	4 149	5 117	5 104	4 652	4 918	105,7	93,3
Havo yo'lovchi transporti	2 007	1 592	2 021	1 779	2 722	3 563	130,9	177,5
Transport vositalarini ijaraga berish	1 788	1 225	1 364	1 155	1 238	1 438	116,2	80,4
Jami	**231 431**	**190 814**	**208 053**	**214 613**	**215 679**	**249 764**	**115,8**	**107,9**

Manba: *O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [11] asosida muallif hisob-kitoblari.*

Migratsiya geografiyasi ham o‘zgarmoqda: MDH mamlakatlarining ulushi 29 foizga kamaygan, Yevropadagi migrantlar soni 42 foizga, Sharqiy Osiyodagi esa 26 foizga ortgan [14]. Uyushgan tartibda xorijga ishga yuborilganlar soni 2025-yilning birinchi yarmida 86,3 ming kishini tashkil etgan [15].

Shu davrda ichki mehnat bozorida ham ijobiy siljishlar kuzatildi. Ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2025 yil III choragida 4,9 foizgacha pasaydi, band aholi soni 14,81 mln kishiga yetdi. 2025-yilda daromadli mehnat bilan ta’minlangan 4,45 mln kishining 2,74 mln nafari xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelgan.

Turizm yo‘ldosh hisobi ma’lumotlariga ko‘ra, turizm tarmoqlaridagi yuridik shaxslarda band xodimlar soni 2024-yilda 249 764 kishini tashkil etdi (2-jadval). Bu 2023-yilga nisbatan 34 085 kishi yoki 15,8 foiz, pandemiyadan oldingi 2019-yilga nisbatan esa 7,9 foiz ko‘pdir [11].

Tarkibiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda bandlikning 65,2 foizi umumiy ovqatlanish (37,5 foiz) va joylashtirish (27,6 foiz) xizmatlariga to‘g‘ri kelgan. Turistik agentliklardagi xodimlar soni 2022-2024-yillarda 3,2 barobar, madaniyat xizmatlarida esa bir yilda 41,6 foizga ortgan. Aksincha, avtomobil yo‘lovchi transportidagi bandlik 2019-yilga nisbatan 56,8 foizga qisqargan. Bu hol sohada an’anaviy transport xizmatlaridan yuqori qo‘shilgan qiymatli turoperatorlik va madaniy xizmatlar tomon tarkibiy siljish sodir bo‘layotganini anglatadi.

Olingan natijalar turizm tashqi mehnat migratsiyasiga ichki muqobil yaratishda real salohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Faqat 2024-yilning o‘zida turizm tarmoqlaridagi yuridik shaxslarda band xodimlar soni 34,1 ming kishiga ortdi. Ssenariyli baholar esa o‘rta muddatda soha migrantlar sonining beshdan bir qismidan to‘rtdan bir qismigacha bo‘lgan hajmga teng ish o‘rinlarini yaratishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga natijalarni talqin qilishda bir qator omillarni hisobga olish zarur. Birinchidan, xorijiy tashrifchilar oqimining sifati mehnat sig‘imiga bevosita ta’sir etadi. 2025-yilning yanvar-iyul oylarida tashrifchilarning 82,5 foizi qo‘shni davlatlar fuqarolari bo‘lgan. Bunday tashriflarning bir qismi qisqa muddatli bo‘lib, joylashtirish va boshqa pullik xizmatlarga talabni kam yaratadi. Shu sababli ish o‘rinlari salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun tashrifchilar sonini emas, balki ularning mamlakatda bo‘lish muddati va xarajatlarini oshirish muhimroqdir.

Ikkinchidan, turizmning mavsumiyligi ish o‘rinlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [7]. Bu holat mavsumiy tashqi migratsiyaning saqlanib qolishiga olib keladi. Biroq 2025-yilda aprel oyidan boshlab har oyda 1 mln dan ortiq xorijiy tashrifchi qabul qilingani oqimning yil davomida tekislanib borayotganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar inson kapitali nazariyasi xulosalariga mos keladi [3]. Turistik agentliklar, madaniyat va havo transporti xizmatlarida bandlikning jadal o‘sishi chet tillarini biladigan, raqamli platformalar bilan ishlay oladigan va xizmat ko‘rsatish madaniyatiga ega xodimlarga talabni oshirmoqda. Xorijda, ayniqsa Yevropa va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ishlab qaytgan migrantlar aynan shunday ko‘nikmalarga ega. Yevropa yo‘nalishidagi migrantlar sonining o‘sishi [14] kelgusida bunday malakali qaytuvchilar safini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari TYH faqat yuridik shaxslarni qamrab olishi sababli sohadagi umumiy bandlikni kamroq baholaydi. Shu bois kelgusidagi tadqiqotlarda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini-o‘zi band qilganlarni ham hisobga oluvchi kengaytirilgan baholash hamda hududlar kesimidagi ekonometrik tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi

1. Qaytib kelgan migrantlar uchun turizmga yo‘naltirilgan reintegratsiya dasturini joriy etish. Xorijda orttirilgan til va xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini rasman tan olish (malakani tasdiqlash) hamda mehmonxona, oshpazlik va gidlik yo‘nalishlari bo‘yicha qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Migratsiya yuqori bo‘lgan hududlarda oilaviy turizm tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, pul o‘tkazmalari daromadning 30 foizdan ortig‘ini tashkil etadigan hududlarda oilaviy mehmon uylari va hunarmandchilik ustaxonalari uchun imtiyozli mikrokredit liniyalarini ochish taklif etiladi. Bu o‘tkazmalarni iste’moldan ishlab chiqarish investitsiyasiga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

3. Turizm yo‘ldosh hisobiga yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilganlardagi bandlik hamda tarmoqlar bo‘yicha o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichlarini kiritish zarur. Bu ish o‘rinlarining migratsiyaga muqobillik darajasini aniqroq baholash imkonini beradi.

4. Qish mavsumida ishbilarmonlik, tibbiy va ziyorat turizmini rivojlantirish orqali turizmda yil davomida barqaror bandlikni ta’minlash zarur.

5. Rasmiy bandlikni ta’minlagan va xodimlarni malaka oshirishga yuborgan turizm sub’ektlariga soliq va ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish orqali sohadagi ish haqi darajasini xorijdagi daromadga yaqinlashtirish mumkin.

Umuman olganda, turizm sohasida yangi va sifatli ish o‘rinlari yaratish tashqi mehnat migratsiyasini butunlay to‘xtatmasa-da, uni majburiy tanlovdan ixtiyoriy tanlovga aylantirish va mehnat resurslarining mamlakat ichida qolishini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 apreldagi PF-59-son «Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish va xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

3. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: Columbia University Press for NBER, 1964.

4. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. - 1970. - Vol. 60, No. 1. - P. 126–142.

5. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. — 1966. — Vol. 3, No. 1. — P. 47–57.

6. Massey D.S., Arango J., Hugo G., Kouaouci A., Pellegrino A., Taylor J.E. Theories of International Migration: A Review and Appraisal // Population and Development Review. — 1993. — Vol. 19, No. 3. — P. 431–466.

7. Sinclair M.T. Tourism and Economic Development: A Survey // The Journal of Development Studies. — 1998. — Vol. 34, No. 5. — P. 1–51.

8. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. — 1985. — Vol. 75, No. 2. — P. 173–178.

MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNI HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI BILAN UYG‘UNLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich
Alfraganus University

Migratsiya jarayonlari zamonaviy hududiy iqtisodiyotning eng dinamik va ko‘p qirrali omillaridan biridir. Aholining hududlararo va xalqaro harakati mehnat resurslari taqsimotini, uy xo‘jaliklari daromadlarini, ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabni va oxir-oqibat hududlarning rivojlanish sur’atlarini bevosita belgilaydi. O‘zbekiston uchun bu masala alohida ahamiyatga ega: Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatga xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari hajmi 14,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan [1]. Bu ko‘rsatkich tashqi mehnat migratsiyasining aholi daromadlari va ichki iste’mol uchun naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarini boshqarish va hududiy rivojlanish siyosati amaliyotda ko‘pincha alohida yo‘nalishlar sifatida olib borilmoqda. Hududiy dasturlarda migratsiya asosan bandlik muammosi doirasida qaraladi, uning demografik, moliyaviy va ijtimoiy oqibatlari strategik rejalashtirishda yetarlicha hisobga olinmaydi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta’minlash vazifalari belgilangani [2] ushbu ikki yo‘nalishni metodologik jihatdan uyg‘unlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Migratsiya nazariyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholining harakati turli darajadagi omillar ta’sirida yuzaga keladi. E.Ravenshteyn migratsiya qonuniyatlarini ilk bor tizimlashtirgan bo‘lsa [3], E.Li “itaruvchi” va “tortuvchi” omillar modelini ishlab chiqqan [4]. J.Xarris va M.Todaro modeli migratsiya qarorini hududlar o‘rtasidagi kutilayotgan daromad farqi bilan izohlaydi [5]. O.Stark va D.Blum tomonidan asoslangan “mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti” esa migratsiyani uy xo‘jaligining tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish strategiyasi sifatida ko‘rib chiqadi [6]. Ushbu nazariyalarning umumiy xulosasi shundan iboratki, migratsiya oqimlari hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning ham natijasi, ham ularni o‘zgartiruvchi omil hisoblanadi.

Ichki migratsiya jarayonlari ham hududiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholining qishloq joylardan yirik shaharlarga, avvalo Toshkent shahri va viloyat markazlariga ko‘chishi urbanizatsiya jarayonini tezlashtirmoqda. Bu bir tomondan mehnat resurslarining unumdorligi yuqori bo‘lgan tarmoqlarga o‘tishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan qabul qiluvchi shaharlarda uy-joy, transport, maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasiga yuklamani oshiradi, aholisi ketayotgan hududlarda esa inson kapitali va iqtisodiy faollikning qisqarishiga olib keladi. G.Myurdalning «kumulyativ sababiyat» konsepsiyasiga ko‘ra, bunday jarayonlar o‘z-o‘zidan muvozanatlashmaydi, balki rivojlangan va rivojlanishda orqada qolgan hududlar o‘rtasidagi tafovutni chuqurlashtirishi mumkin [7]. Shu bois migratsiya oqimlari hududiy siyosatning maqsadli boshqaruv obyekti sifatida qaralishi lozim.

Mazkur xulosa hududiy barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Agar strategiya migratsiya oqimlarini hisobga olmasa, uning demografik prognozlari, mehnat bozori balansi va ijtimoiy infratuzilmaga oid rejalari real holatdan uzoqlashadi. Masalan, mehnatga layoqatli aholining katta qismi tashqi migratsiyaga jalb etilgan hududlarda rasmiy ishsizlik darajasi past koʻrinishi mumkin, biroq bu holat mahalliy mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarni yashiradi.

Tadqiqot doirasida migratsiya omilini hududiy barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiyalashning quyidagi metodologik yondashuvi taklif etiladi.

Birinchidan, hududiy barqaror rivojlanish indikatorlari tizimiga migratsiya blokini kiritish lozim. Ushbu blok tarkibida hududlararo migratsiya saldosi, tashqi mehnat migratsiyasidagi aholi ulushi, pul oʻtkazmalarining uy xoʻjaliklari daromadlaridagi ulushi va qaytib kelgan migrantlarning bandlik darajasi kabi koʻrsatkichlar boʻlishi maqsadga muvofiq.

Migratsiya blokining koʻrsatkichlari hududiy strategiyaning boshqa bloklari bilan oʻzaro bogʻliq holda tahlil qilinishi muhim. Masalan, pul oʻtkazmalarining uy xoʻjaliklari daromadlaridagi ulushi yuqori boʻlgan hududlarda aholi daromadlari tashqi omillarga – qabul qiluvchi davlatlardagi iqtisodiy vaziyat va valyuta kurslariga kuchli bogʻliq boʻladi. Bu holat hududning ijtimoiy barqarorligi uchun qoʻshimcha tavakkalchilik omili sifatida baholanishi va integral indeksni hisoblashda inobatga olinishi lozim. Xuddi shuningdek, hududlararo migratsiya saldosining uzoq muddat davomida manfiy boʻlishi hududning investitsion jozibadorligi va ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish samaradorligi pasayib borayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, hududlar uchun “migratsion bosim koeffitsienti”ni hisoblash taklif etiladi. U mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan yoshlar soni bilan hududda yaratilayotgan yangi ish oʻrinlari soni oʻrtasidagi nisbat sifatida aniqlanadi. Koeffitsient birdan qanchalik yuqori boʻlsa, hududda tashqi migratsiyaga moyillik shunchalik kuchli boʻladi va strategiyada ish oʻrinlari yaratish, kasbiy ta’lim hamda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash choralariga ustuvorlik berilishi lozim.

Uchinchidan, hududlarni migratsiya xususiyatlariga koʻra tipologiyalash zarur. Bunda hududlar toʻrt guruhga ajratiladi: a) aholini jalb qiluvchi hududlar (yirik shaharlar va sanoat markazlari); b) tashqi mehnat migratsiyasi yuqori boʻlgan donor hududlar; c) ichki migratsiya hisobiga aholisi kamayib borayotgan hududlar; d) migratsiya muvozanati nisbatan barqaror hududlar. Har bir guruh uchun strategik vazifalar farqlanadi: birinchi guruhda shahar infratuzilmasi va uy-joy bozoriga yuklamani boshqarish, ikkinchi guruhda pul oʻtkazmalarini investitsiyaga yoʻnaltirish va migrantlarni tayyorlash, uchinchi guruhda esa mahalliy iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirish ustuvor hisoblanadi.

Toʻrtinchidan, migratsiya siyosati va hududiy strategiya oʻrtasida institutsional muvofiqlashtirish mexanizmini yaratish talab etiladi. Hokimliklar, bandlik organlari va migratsiya sohasidagi vakolatli tuzilmalar oʻrtasida yagona axborot bazasi yuritilishi, hududiy strategiyalar loyihasi esa migratsiya oqimlari

prognozi bilan birga ko‘rib chiqilishi lozim. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti ham migratsiyani rivojlanish rejalashtirishiga “integratsiyalash” (mainstreaming) zarurligini qayd etadi [8].

Beshinchidan, strategiyani ishlab chiqishda migratsiya oqimlarining stsenariyli prognozidan foydalanish maqsadga muvofiq. Prognoz kamida uch stsenariy – inertsion (mavjud tendensiyalar saqlanib qolishi), maqsadli (hududiy dasturlar to‘liq bajarilishi) va tashqi zarba (asosiy qabul qiluvchi davlatlarda mehnat bozori sharoitining keskin o‘zgarishi) stsenariylari bo‘yicha tuziladi. Har bir stsenariy uchun mehnat bozori balansi, ijtimoiy infratuzilmaga ehtiyoj va mahalliy byudjet daromadlariga ta’sir baholanadi. Bunday yondashuv tashqi migratsiya kanallaridagi kutilmagan o‘zgarishlar sharoitida hududlarning moslashuvchanligini oshiradi.

Xalqaro tajriba ham migratsiya va hududiy rivojlanishni uyg‘unlashtirish samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, ko‘plab migrant yuboruvchi mamlakatlarda migratsiya masalalari milliy va mahalliy rivojlanish rejalariga kiritilgan, pul o‘tkazmalarini mahalliy infratuzilma loyihalariga yo‘naltiruvchi hamkorlikdagi moliyalashtirish dasturlari amalga oshirilgan. Masalan, Meksikadagi “3x1” dasturi doirasida migrantlar uyushmalari tomonidan yo‘naltirilgan har bir mablag‘ga federal, shtat va munitsipal byudjetlardan teng miqdorda mablag‘ qo‘shilib, ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilgan. Bunday tajribani milliy sharoitga moslashtirgan holda hududiy strategiyalar doirasida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Hududiy strategiyalarda migratsiya omilini hisobga olish yoshlar siyosati bilan ham chambarchas bog‘liq. Mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yoshlarning kasbiy yo‘nalishini hududdagi istiqbolli tarmoqlar ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish, kasb-hunar ta’limi tizimini mahalliy ish beruvchilar bilan hamkorlikda rivojlantirish tashqi migratsiyaga majburiy ketish holatlarini kamaytiradi.

Taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy yangiligi migratsiyani hududiy barqaror rivojlanishning tashqi omili sifatida emas, balki strategiyaning ichki tarkibiy elementi – maqsad, indikator va boshqaruv obyekti sifatida qarashdan iborat. Bu hududiy rivojlanish dasturlarining realligini oshiradi va migratsiya jarayonlarini boshqarishning profilaktik xususiyatini kuchaytiradi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirishning muhim sharti – ishonchli axborot bazasi. Hozirgi vaqtda migratsiya bo‘yicha ma’lumotlar turli idoralarda – statistika, ichki ishlar, bandlik va migratsiya sohasidagi tuzilmalarda alohida yuritilmoqda, ularning metodologiyasi va davriyligi har xil. Shu bois ma’lumotlarni yagona metodologiya asosida birlashtirish, uy xo‘jaliklari tanlanma tadqiqotlariga migratsiya bo‘yicha maxsus savollarni kiritish hamda bank tizimidagi pul o‘tkazmalari statistikasini hududlar kesimida e’lon qilish maqsadga muvofiq. Bu migratsion jarayonlarni real vaqt rejimiga yaqin tarzda kuzatish va hududiy strategiyalarga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar taklif etiladi: hududiy barqaror rivojlanish strategiyalarida migratsiya bo‘yicha alohida bo‘lim nazarda tutish va unda migratsiya oqimlari prognozini aks ettirish; hududiy

indikatorlar tizimiga migratsiya blokini kiritish va “migratsion bosim koeffitsienti”ni muntazam hisoblab borish; hududlarni migratsiya xususiyatlariga ko‘ra tipologiyalash natijalaridan investitsiya va bandlik dasturlarini tabaqalashtirishda foydalanish; migratsiya sohasidagi statistik ma’lumotlarni hududlar kesimida kengaytirish va ochiq e’lon qilish [9]. Mazkur choralar migratsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish bilan birga hududlarning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Transchegaraviy pul o‘tkazmalari bo‘yicha ma’lumotlar, 2024-yil. // https://cbu.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. // https://lex.uz

3. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.

4. Назаров Н.Н. Уч даражали ҳудудий барқарор ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. – T.: IMRS, 2023. – №3 (23), июль–сентябрь. – Б. 20–25. https://imrs.uz/journals/21

5. Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.

6. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. – 1970. – Vol. 60, No. 1. – P. 126–142.

7. Назаров Н.Н. Теоретико-методологические основы государственного регулирования устойчивого развития территорий // Экономика и инновационные технологии. – 2023. – №1 (00063), январь–февраль. – С. 293–304.

8. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 2. – P. 173–178.

MEHNAT MIGRATSIYASINI BOSHQARISHDA DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH

Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li Xamdamov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
sh.xamdamov@tsue.uz
Nomozova Ruxshona Ruziqulovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ruziqulovna18@gmail.com

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligi, shaffofligi va fuqarolar uchun yaratilgan qulaylik darajasini belgilovchi muhim omilga aylandi. Ushbu jarayon mehnat migratsiyasi sohasida alohida ahamiyatga ega: migrantlar jo‘nab ketishdan oldin, xorijda bo‘lgan davrda va uyga qaytganlaridan so‘ng turli davlat idoralari bilan munosabatga kirishadilar hamda ko‘pincha har bir bosqichda muayyan hujjatlar, ma’lumotnomalar va tasdiqlovchi vositalarni taqdim etishga ehtiyoj sezadilar. Xizmatlar raqamlashtirilmagan yoki o‘zaro bog‘lanmagan hollarda fuqarolar vaqt va mablag‘ yo‘qotadilar, ayrim vaziyatlarda esa norasmiy vositachilar xizmatidan foydalanishga majbur bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida bandlikni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va davlat boshqaruvi sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[1]. Mehnat migratsiyasini boshqarishda davlat xizmatlarini raqamlashtirish masalasi bu o‘rinda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqola ushbu sohadagi ilmiy qarashlarni tahlil qilish, mavjud holat va muammolarni aniqlash hamda raqamli davlat xizmatlarini takomillashtirishga oid takliflarni asoslashni maqsad qiladi.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimlar ushbu masalaga turli nuqtai nazarlardan yondashganlar. I. B. Anvarovich va G. S. Saidmashrafovna [1] O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni o‘rganib, migrantlarni kuzatib borish, ularni ish beruvchilar bilan bog‘lash hamda ushbu jarayonlar shaffofligini oshirishda raqamli vositalarning muhim rolini ta’kidlaydilar.

B. Musayev [2] mehnat migratsiyasini raqamlashtirish va unda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish istiqbollarini ta’kidlaydi. Uning fikricha, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish migratsiya oqimlarini prognoz qilish, yuqori xavf tug‘diruvchi takliflarni aniqlash va boshqaruv qarorlari sifatini oshirish imkonini beradi.

B. Abdullayev [3] mehnat migratsiyasini boshqarishdagi integratsiya jarayoni hamda "Andijon modeli"ni ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya va institutsional yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ushbu yondashuv turli tashkilotlar xizmatlarini yagona qoidalar asosida uyg‘unlashtirish zaruratini ta’kidlaydi; bu esa davlat xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi.

K. R. Turayevich [4] O‘zbekiston mehnat bozori misolida ishsizlik va bandlik dasturlariga oid masalalarni o‘rganib, mehnat migratsiyasi hamda ichki bandlik imkoniyatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlaydi.

S. Jo‘rayeva [5] globallashuv sharoitida mehnat bozori va migratsiya masalalarini tahlil qilib, migratsiyani ishchi kuchining harakatchanligi natijasida yuzaga keladigan tabiiy jarayon sifatida tavsiflaydi.

Shu bilan birga, S. Xolmirzayeva [6] noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligini o‘rganib, ushbu xalqaro hamkorlikning muammolari va istiqbollarini yoritib beradi.

Mavjud tadqiqotlarda asosan raqamlashtirish [1; 2], institutsional muvofiqlashtirish [3], bandlik [4], globallashuv [5] va xalqaro hamkorlik [6] kabi masalalar alohida-alohida ko‘rib chiqilgan. Biroq, mehnat migratsiyasi bo‘yicha davlat xizmatlarini migrant faoliyatining jo‘nab ketishdan oldingi, xorijdagi va qaytib kelgandan keyingi bosqichlarini qamrab oluvchi yagona raqamli tizim sifatida qarash konsepsiyasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligidadir.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, xorijda 1 678 400 nafar mehnat migranti faoliyat yuritgan; bu ko‘rsatkich avvalgi yil boshidagiga nisbatan 782 400 nafarga kam bo‘lgan, chunki pandemiya tufayli 511 600 nafar shaxs xorijdagi ish faoliyatini to‘xtatgan edi [7]. Markaziy bank Migratsiya agentligining 2026-yil avgust oyidagi ma’lumotlariga tayanib,

taxminan 1,4 million fuqaro qariyb 40 ta mamlakatda mehnat qilayotganini ma’lum qildi [8].

1-jadval.

Xorijda ishlayotgan mehnat migrantlari soni.

Sana	Chet eldagi mehnat migrantlari, million kishi
1 Yanvar 2020	2.46
1 Yanvar 2021	1.68
Avgust 2026	1.4

Shu bilan birga, xorijdan O‘zbekistonga yuborilayotgan pul o‘tkazmalari hajmi jadal o‘sdi: 2024-yilda ular 2023-yilga nisbatan 3,4 milliard dollarga ko‘payib, 14,8 milliard dollarni tashkil etdi [9] va 2025-yilda 18,9 milliard dollargacha yetdi; 2026-yilning yanvar–iyun oylari davomida esa 9,3 milliard dollar kelib tushdi [10] (2-rasm). Demak, qayd etilgan migrantlar soni nisbatan barqaror qolgan yoki kamaygan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiyotdagi roli ortib bormoqda. Ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash qiyin, chunki ular turli hisoblash usullaridan foydalanadigan turli idoralar tomonidan shakllantiriladi; bu esa migrantlarni kuzatib borishning yagona tizimini joriy etish zaruratini ko‘rsatadi.

Prezidentning 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-sonli Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligining tashkil etilishi muhim institutsional qadam bo‘ldi. Agentlikning asosiy vazifalari qatoriga tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini har tomonlama tartibga solish, fuqarolarning uyushgan holda ishga joylashishini nazorat qilish, xorijga ketgan fuqarolar hisobini yuritish va chet elda ishlayotganlarga ko‘maklashish kiradi [11]. Ushbu vazifalarni bajarish ishonchli, o‘zaro bog‘langan ma’lumotlar bazasi va elektron xizmatlarning mavjud bo‘lishini talab qiladi.

Mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq davlat xizmatlarini migrantning safari davomida uch bosqichda ko‘rish qulay. Birinchi bosqich jo‘nab ketishdan oldingi holatlarni o‘rganadi va ish o‘rinlari va ish beruvchilar haqida ishonchli ma’lumot olish, ish beruvchilarni tekshirish, kasbiy va til ta’limi va sertifikatlashdan o‘tish, mehnat shartnomasini rasmiylashtirish, sug‘urta va hujjatlarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich esa chet elda bo‘lgan vaqt davomida ro‘yxatdan o‘tish, elektron xizmatlar va maslahatlarga kirish, huquqlar buzilgan taqdirda shoshilinch yordam so‘rash va rasmiy kanallar orqali pul o‘tkazmalarini yuborishni o‘z ichiga oladi. Uchinchi bosqich qaytib kelgandan keyingi bandlik xizmatlaridan foydalanish, malakalarni tan olishda yordam so‘rash va biznesni boshlash, shuningdek, ijtimoiy yordam so‘rashni o‘z ichiga oladi.

Biroq, bir qator amaliy qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, migrantlar haqidagi ma’lumotlar turli idoralarda tarqalgan va ular o‘rtasida axborot almashish mexanizmlari yetarli emas. Ikkinchidan, ko‘plab xizmatlar uchun fuqarolar hali ham ofislarga shaxsan tashrif buyurishlari yoki qog‘oz hujjatlarni topshirishlari shart. Bu muammo chekka hududlarda fuqarolarimiz uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Uchinchidan, ish beruvchilar va ish takliflarining qonuniyligini tekshirish mexanizmlari yetarli emas, bu esa fuqarolar uchun

firibgarlik xavfini oshiradi. To‘rtinchidan, raqamli savodxonlikning turli darajalari ba’zi fuqarolarning elektron xizmatlardan foydalanishiga to‘sqinlik qiladi. Beshinchidan, qaytgan migrantlarning malakasi va ish bilan ta’minlanish holati haqidagi ma’lumotlar bandlik xizmatlariga yetib bormaydi.

2-jadval.

Chet eldan O‘zbekistonga yuborilgan pul o‘tkazmalari.

Yil	Pul o‘tkazmalari, milliard AQSh dollari
2023	11.4
2024	14.8
2025	18.9
Yanvar-Iyun 2026	9.3

Manba: *Muallif tomonidan [9; 10] asosida tuzilgan.*

"Andijon modeli", ayniqsa, yagona qoidalar asosida xizmatlarni uyg‘unlashtirish masalasida alohida e’tiborga loyiqdir. Abdullayev [3] ushbu modelni migratsiyani boshqarish tizimini standartlashtirish bilan bog‘laydi. Mazkur maqolada modelning mohiyati mahalliy hokimiyat organlari, mahalla qo‘mitalari hamda bandlik va migratsiya agentliklari faoliyatini yagona tartib asosida integratsiyalashuvi sifatida talqin etiladi; muvaffaqiyat mezoni esa migrantni haqiqiy va munosib ish bilan ta’minlashdan iborat deb belgilanadi. Amaliy misol sifatida Andijon viloyatidan 255 nafar fuqaroning ishga joylashish maqsadida Belarus Respublikasiga yuborilishini keltirish mumkin. Ushbu tashabbus viloyat delegatsiyasi tomonidan olib borilgan muzokaralar natijasida erishilgan kelishuvlarga asoslangan bo‘lib, munosib mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlovchi ish o‘rinlarini yaratishni ko‘zda tutgan edi [12]. Bunday hududiy tajriba raqamli xizmatlarni joriy etishda samarali sinov maydoni vazifasini o‘tashi mumkin.

Sun’iy intellekt vositalari davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishi mumkin [2]. Masalan, nomzodning kasbi va til bilish darajasiga qarab mos ish o‘rinlarini tavsiya etish, shubhali ish takliflarini aniqlash, migratsiya oqimlarini prognoz qilish hamda so‘rovlarga javob beruvchi virtual yordamchilarni yaratish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik qarorlarning shaffofligi va inson nazoratini saqlab qolish asosiy talablar sifatida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim.

Aholiga raqamli xizmatlarni ko‘rsatishda “mahalla” hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ko‘plab fuqarolar (qishloq joylarida va keksa avlod vakillari) elektron xizmatlardan mustaqil ravishda foydalana olmaydilar. Shu sababli, “mahalla” markazlari qoshida yordamchi xodimlar va zarur jihozlar bilan ta’minlangan axborot punktlari faoliyat yuritishi zarur. Bunday punktlar migrantlar oilalariga jo‘nab ketish tartib-qoidalari, ish beruvchini tekshirish, xorijdagi yaqinlar bilan aloqa o‘rnatish va ijtimoiy yordam olish uchun murojaat qilish masalalarida bevosita amaliy yordam ko‘rsatadi. Shu tariqa, raqamli xizmatlar “mahalla”ning tashkiliy faoliyati bilan uyg‘unlashib, “Andijon modeli”da o‘z aksini topgan hududiy hamkorlik tamoyilini ta’minlaydi[3].

Ushbu masalani hal qilish uchun quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

Yagona raqamli platformani yaratish: Migratsiya agentligi, bandlik xizmatlari, mahalla qo‘mitalari, bojxona, chegara nazorati, soliq organlari va bank tizimlaridan olingan ma’lumotlarni birlashtiruvchi yagona axborot makonini tashkil etish, shuningdek, har bir migrant uchun elektron profil (kasbi, til bilish darajasi, mehnat shartnomasi va aloqa ma’lumotlari aks ettirilgan) yuritish.

"Yagona darcha" tamoyilini joriy etish: jo‘nab ketishdan oldingi barcha zarur xizmatlarni (ish beruvchini tekshirish, shartnomalar, o‘qitish, sug‘urta va hujjatlarni rasmiylashtirish) yagona elektron portal orqali taqdim etish, shu bilan birga, ushbu xizmatlardan mobil ilova va mahalla markazlari orqali foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ish beruvchilar va bo‘sh ish o‘rinlarini tekshirish tizimi: xorijiy ish beruvchilar va vositachi tashkilotlarning ishonchli ro‘yxatini yuritish hamda firibgarlik xususiyatiga ega takliflarni aniqlashda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish.

Xorijdagi migrantlar uchun masofaviy xizmatlar: elektron ro‘yxatdan o‘tish, ko‘p tilli virtual yordamchi, tezkor aloqa kanali va mablag‘larni rasmiy kanallar orqali o‘tkazishni rag‘batlantiruvchi vositalar kabi raqamli xizmatlarni joriy etish.

Qaytib kelgan migrantlar uchun raqamli reintegratsiya xizmatlari: xorijda olingan malakalarni elektron ro‘yxatga olish va ularni bandlik xizmatlariga taqdim etish, shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yordam olish uchun ariza berish imkoniyatini yaratish.

Raqamli savodxonlik va ma’lumotlar xavfsizligi: mahalla darajasida o‘qitish va maslahat berish xizmatlarini kengaytirish hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha aniq qoidalar va audit tartib-qoidalarini joriy etish.

Takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda mavjud ma’lumotlar bazalari xatlovdan o‘tkaziladi, ma’lumotlar almashinuvi standartlari belgilanadi hamda "Andijon modeli" tajribasi o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda tanlab olingan hududlarda yagona platforma sinov tariqasida joriy etiladi va dastlabki natijalar samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadi. Uchinchi bosqichda tashabbus butun mamlakat miqyosida keng joriy qilinadi, sun’iy intellekt vositalari integratsiya qilinadi hamda tizim doimiy monitoring asosida takomillashtirib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasini boshqarish bo‘yicha davlat xizmatlarini raqamlashtirish migrantning butun yo‘lini qamrab oluvchi yagona tizimni yaratishni, idoralararo ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yishni va fuqarolarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Raqamlashtirish o‘z-o‘zidan yakuniy maqsad emas. U faqat migrantlarning xavfsiz bandligi, huquqiy himoyasi va oila bilan aloqasini ta’minlashga xizmat qilganidagina haqiqiy natijalarni beradi. Ushbu yo‘nalishdagi izchil sa’y-harakatlar fuqarolar daromadlarini oshirishga va mamlakat inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Anvarovich, I. B., & Saidmashrafovna, G. S. (2023). O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishning yangi imkoniyatlari. “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2(2), 159-174.

2. Musayev, B. (2022). Mehnat migratsiyasini raqamlashtirish va unga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish istiqbollari. Yuridik fanlar axborotnomasi, 6(4), 67-82.

3. Abdullayev, B. (2026). Mehnat migratsiyasini boshqarishda unifikatsiya va "andijon modeli": ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya va institutsional yondashuv. Tamaddun nuri jurnali, 5(2-qism (80)), 103-105.

4. Turayevich, K. R. (2024). ISHSIZLIK MUAMMOSI VA BANDLIK DASTURLARI: O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI. «ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ», 1(1).

5. Jo'rayeva, S. (2025). GLOBALLASHUV JARAYONIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRATSIYA MUAMMOLARI. Synapses: Insights Across the Disciplines, 2(2), 142-146.

6. Xolmirzayeva, S. (2025). O'ZBEKISTONNING BMT BILAN NOQONUNIY MIGRATSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI HAMKORLIGI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR. Yurisprudensiya, 5(6), 89-95.

7. Xorijda ishlayotgan o'zbek migrantlarining soni qancha? Statistika e'lon qilindi. Kun.uz, 2021-yil 29-yanvar. https://www.kun.uz/news/2021/01/29/xorijda-ishlayotgan-ozbek-migrantlarining-soni-qancha-statistika-e'lon-qilindi

NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA DEMOGRAFIK DIVIDENTNI BAHOLASH

Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

O'n yillar davomida iqtisodchilar va ijtimoiy tafakkur vakillari aholi sonidagi o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasida bahs yuritib kelmoqdalar. Ushbu bahsda uchta muqobil yondashuv shakllangan: aholi o'sishi (1) iqtisodiy o'sishni cheklaydi, (2) uni rag'batlantiradi yoki (3) iqtisodiy o'sishdan mustaqil holda kechadi. Har bir yondashuv tarafdorlari o'z fikrlarini tasdiqlovchi dalillarni keltira oladilar. Biroq ushbu izohlarning barchasi asosan aholi soni va aholi o'sish sur'atlariga e'tibor qaratadi. So'nggi yillarda esa ushbu bahsda juda muhim bir masalaga yetarlicha e'tibor berilmadi: aholining yosh tuzilmasi (ya'ni aholining turli yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi). Holbuki, tug'ilish va o'lim darajalaridagi o'zgarishlar natijasida aholining yosh tuzilmasi keskin tarzda o'zgarishi mumkin.

Insonlarning iqtisodiy xulq-atvori va ehtiyojlari hayotning turli bosqichlarida farq qilgani sababli, mamlakat aholisi yosh tuzilmasidagi o'zgarishlar uning iqtisodiy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aholida bolalar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar, odatda, resurslarning katta qismini ularni parvarishlashga yo'naltiradi va bu holat iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi. Aksincha, agar mamlakat aholisining katta qismi mehnatga layoqatli yoshda bo'lsa, ushbu guruhning qo'shimcha unumdorligi tegishli siyosatlar mavjud bo'lgan taqdirda iqtisodiy o'sish uchun "demografik dividend"ni yuzaga keltirishi mumkin. Darhaqiqat, mehnatga layoqatli aholining katta ulushi sog'liqni saqlash, oila, mehnat bozori, moliya va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosatlar bilan uyg'unlashganda boylik yaratishning ijobiy (fazilatli) sikllarini shakllantirishi mumkin. Aksincha, agar mamlakat aholisining katta qismini keksalar tashkil etsa, bu holat juda yosh aholi ustun bo'lgan vaziyatga

o‘xshash oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda nisbatan kam unumdor aholi qatlamini ta’minlash uchun resurslarning katta ulushi talab etiladi, bu esa iqtisodiy o‘sishni cheklashi mumkin.O‘zbekiston Respublikasi (shu jumladan Namangan viloyati) sharoitidan kelib chiqib, demografik jarayonlar mehnat taklifiga ikki yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, bu jarayon tug‘ilishning keskin oshgan avlodi (baby-boom avlodi)ning muntazam va muqarrar ravishda qarib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, deyarli mexanik ta’sirni keltirib chiqaradi (Bloom, Canning va Sevilla, 2000). Aholida bolalar ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda odatda resurslarning katta qismi ularni parvarishlashga yo‘naltiriladi va bu holat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini sekinlashtiradi.

Aksincha, agar mamlakat aholisining katta qismi mehnatga layoqatli yoshda bo‘lsa, ushbu guruhning qo‘shimcha unumdorligi tegishli siyosatlar mavjud bo‘lgan taqdirda iqtisodiy o‘sish uchun “demografik dividend” ni yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot ishida Namangan viloyati va tumanlarida demografik jarayonlarni tahlil qilish uchun quyidagi yondashuvdan foydalanildi (1-jadval):

a) iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti (Support Ratio), mintaqaning demografik dividendini baholash:

$SR = W/P$, bu yerda:

W-mehnatga layoqatli aholi soni (odatda 16-59 yosh), P - umumiy aholi soni

b**)** Blum va Uilyamson formulasi, o‘sish sur’atlariga hissa:

$\Delta y = \Delta(W/P) = g_w - g_p$, bu yerda:

Δy - demografiya hisobidan jon boshiga daromadning yillik o‘sishi, g_w - mehnatga layoqatli aholi o‘sish sur’ati, g_p - umumiy aholi soni o‘sish sur’ati

d) demografik yuklama koeffitsientini (Dependency Ratio) baholash:

$k = (n1 + n3) / n2 \times 100$, bu yerda:

n1 - bolalar (0-15 yosh), n2 - mehnatga layoqatli aholi (16-59 yosh), n3 - keksalar (60+ yosh)

Shu nuqtai nazardan, dissertatsiya ishida demografik jarayonlarni tahlil qilish natijasida ularning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. O‘rganilgan natijalar asosida demografik ma’lumotlar Namangan viloyati va uning tumanlari kesimida tahlil qilinib, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti (SR), demografik dividend effekti (Δy) hamda demografik yuklama koeffitsienti (k) ko‘rsatkichlari asosida hududlar ikki tipologik guruhga ajratildi. I guruh - nisbatan qulay demografik muhitga ega hududlar (Mingbuloq, Pop, Chust va Yangiqo‘rg‘on tumanlari) bo‘lib, mazkur hududlarda mehnatga layoqatli aholi ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti yuqoriroq qiymatga ega (SR ≥ 0,61). Ushbu demografik tuzilma hududlarda mehnat resurslarining yetarliligini ta’minlab, iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi hamda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bois bunday hududlarda mehnat talab qiluvchi tarmoqlarni, jumladan tekstil klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, agrohablar va elektrotexnika sanoatini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

Namangan viloyati va tumanlari bo‘yicha demografik dividentni baholash

Hududlar	Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti (SR)		Demografik dividend effekti(Δy)		Demografik yuklama koeffitsienti (k)	
	2020	2025	2020	2025	2020	2025
Namangan viloyati	0,62	0,59	-1,4	-1,0	64,4	72,6
Namangan shahri	0,60	0,57	-0,7	-0,8	71,2	79,3
Mingbuloq	0,65	0,62	-0,4	-1,1	58,0	63,4
Kosonsoy	0,62	0,59	-2,0	-0,9	66,1	74,8
Namangan	0,61	0,60	-2,7	-0,8	64,4	71,2
Norin	0,61	0,59	-1,7	-0,8	65,8	73,3
Pop	0,64	0,61	-1,1	-1,1	59,4	67,1
To‘raqo‘rg‘on	0,62	0,58	-2,6	-2,0	63,9	76,7
Uychi	0,62	0,60	-1,1	-0,6	65,3	71,4
Uchqo‘rg‘on	0,62	0,60	-1,2	-1,0	63,3	70,6
Chortoq	0,62	0,60	-1,4	-0,8	63,9	71,0
Chust	0,63	0,60	-1,7	-1,2	60,4	71,3
Yangiqo‘rg‘on	0,64	0,61	-1,0	-0,9	58,5	65,8
	SR = W/P		Δy = Δ(W/P) = g_w - g_p		k = (n1 + n3)/n2×100	

Izoh: *Muallif hisob kitoblari (yil boshiga)*

II guruh - demografik yuklama nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar (Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Norin, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on va Chortoq tumanlari) bo‘lib, ularda iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti nisbatan pastroq darajada shakllangan (SR ≤ 0,60). Mazkur hududlarda mehnat resurslariga tushadigan demografik yuklama yuqoriroq bo‘lib, demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri nisbatan cheklangan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ushbu hududlarda iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mehnat resurslarini zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga yo‘naltirish, logistika va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini kengaytirish hamda ilm talab tarmoqlarni, xususan IT-texnologiyalari, energetika, elektronika va farmatsevtika sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, geoaxborot texnologiyalari (ArcGIS, QGIS) asosida hududiy rejalashtirishni takomillashtirish hamda ishlab chiqarish obyektlarini optimal joylashtirish zarur hisoblanadi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2020-2025 yillar boshida ayrim hududlarda iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari nisbatan barqaror saqlanib qolgan bo‘lsa-da, demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tumanlar kesimida turlicha namoyon bo‘lgan. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda demografik yuklama darajasi hamda mehnat resurslari dinamikasini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Strielkovski V., et al. (2024). Regional sustainable economic development, territorial asymmetry and the role of institutions: A case of Russia.

2. Sultonov M.Q. Geoaxborot kartografiyasi. – Urganch, 2014.

3. Tatarkin A. I. (2016). Regional targeting of the economic policy of the Russian Federation as an institution of regional spatial development. Economy of Region, 1(1), 9-27.

4. The role of GIS in supporting regional development and sustainability" by Clarke et al. (2018)

5. Tomlinson R. Thinking About GIS: Geographic Information System Planning for Managers. – 2003.

6. Turekulova D., & et all. (2023). Improvement of indicators of socio-economic development of regions of Kazakhstan: 2011-2020. E3S Web of Conferences (TransSiberia-2023).

МИГРАЦИЯНИ БОШҚАРИШ ЖАРАЁНЛАРИДА ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИНИНГ АҲАМИЯТИ

Махкамова Шахло Юлчиевна,
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги
Яширин иқтисодиёт улушини қисқартириш,
солиқ ва божхона маъмурчилигини такомиллаштириш,
фискал таҳлиллар институти

Глобаллашув ва халқаро меҳнат тақсимоти шароитида ташқи меҳнат миграцияси Ўзбекистон иқтисодиёти ва ижтимоий сиёсатининг ажралмас қисмига айланди. Вазирлар Маҳкамаси ва Марказий банк маълумотларига кўра, миллионлаб ватандошларимиз хорижда (Россия, Қозоғистон, Жанубий Корея, Туркия ва Европа Иттифоқи давлатларида) вақтинчалик меҳнат фаолиятини олиб бормоқда. Мигрантлар томонидан юборилаётган пул ўтказмалари мамлакат ялпи ички маҳсулотида (ЯИМ) сезиларли улушга эга бўлиб, аҳоли фаровонлигини ошириш ва камбағалликни қисқартиришга хизмат қилмоқда [1, 2, 3].

Бироқ, меҳнат миграциясининг узоқ муддатли ижтимоий оқибатлари, хусусан, мигрантларнинг кексалик давридаги ижтимоий ҳимояси ва пенсия таъминоти масаласи энг долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Хорижда норасмий ёки тегишли ижтимоий суғурта бадалларисиз ишлаётган фуқаролар Ўзбекистонга қайтганидан сўнг етарли иш стажига эга бўлмайдилар. Бу эса уларнинг давлат томонидан тайинланадиган муносиб пенсия таъминотидан маҳрум бўлишига ёки фақат энг кам миқдордаги ижтимоий нафақалар билан чекланишига олиб келади [1, 2, 3, 4].

Шу боис, миграцияни бошқариш жараёнларида Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг ролини ошириш, мигрантларни миллий пенсия тизимига интеграция қилиш, уларнинг хориждаги иш стажларини легаллаштириш ва трансчегаравий пенсия мобиллигини (портативлигини) таъминлаш механизмларини яратиш Ўзбекистон учун стратегик аҳамият касб этади [1, 2].

Халқаро ва маҳаллий илмий адабиётларда миграция ва пенсия таъминоти тизимларининг ўзаро боғлиқлиги кенг тадқиқ этилган. Тадқиқотларни шартли равишда икки гуруҳга ажратиш мумкин: халқаро тадқиқотлар ва тажриба ҳамда тадқиқотлар:

• Жаҳон банки ва Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ) экспертлари ўз маърузаларида мигрантлар учун "пенсия ҳуқуқларининг портативлиги" (pension portability) тушунчасини илгари сурадилар. Ишчи кучи донорлари ва қабул қилувчи мамлакатлар ўртасида икки томонлама ва кўп томонлама ижтимоий суғурта шартномалари бўлмаса, мигрантлар икки томонлама йўқотишларга (Double forfeiture) учраши исботланган. [1, 2]. Р. Абазов (2026) ўз тадқиқотларида Ўзбекистоннинг миграция оқимларини Россия ва МДҲ давлатларидан ташқари, Европа, Жанубий Корея ва Яқин Шарқ каби юқори даромадли бозорларга диверсификация қилаётганини таъкидлайди. Бу эса Пенсия жамғармаси зиммасига янги ҳуқуқий ва институционал келишувларни ишлаб чиқиш мажбуриятини юклайди. К. Маханов (2024) Марказий Осиё мамлакатлари пенсия тизимларини қиёсий таҳлил қилиб, мигрантларнинг ижтимоий тизим билан қамраб олиниши пастлиги узоқ муддатда давлат бюджетлари учун молиявий юкни ортишига (ижтимоий нафақахўрлар кўпайиши ҳисобига) сабаб бўлишини асослаб берган [2, 4].

Маҳаллий тадқиқотлар. Ўзбекистонлик олимлар, жумладан Д. Шолдаров ва Ж. Турсунов, давлат пенсия таъминоти тизимини модернизация қилишда иқтисодий фаол аҳолини, айниқса ўзини ўзи банд қилганлар ва хориждаги мигрантларни ихтиёрий ижтимоий суғурта бадаллари орқали тизимга жалб қилиш зарурлигини ҳимоя қиладилар [6]. Пенсия жамғармаси вакили С. Файзуллаев (2026) таъкидлаганидек, мамлакатда давлат тақсимловчи тизими билан бир қаторда жамғариб бориладиган пенсия тизимининг (комбинациялашган модел) кенгайтирилиши, хориждаги фуқаролар учун ҳам ўз маблағларини инфляциядан ҳимояланган ҳолда жамғариш имконини беради [3].

Мавжуд вазият таҳлили. Ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига кўра, хорижда вақтинчалик ишлаётган фуқаролар учун Пенсия жамғармасига ихтиёрий равишда бадал тўлаш ва ишламаган даврларини иш стажига қўшиш механизми жорий этилган. Бироқ, амалиётда тизим тўлиқ самара бермаяпти. Бунга қуйидаги тизимли муаммолар сабаб бўлмоқда:

• Маълумот ва рағбатнинг етишмаслиги: Меҳнат мигрантларининг катта қисми ихтиёрий бадал тўлаш тартиби ва унинг кексаликдаги иқтисодий аҳамияти ҳақида етарлича молиявий саводхонликка эга эмас.

• Трансчегаравий тўловлар мураккаблиги: Хориждан туриб Пенсия жамғармасига масофавий, тезкор ва кам комиссияли тўловларни амалга ошириш тизимлари тўлиқ интеграция қилинмаган.

• Икки томонлама келишувларнинг чекланганлиги: Ўзбекистон МДҲ доирасида ва айрим давлатлар (масалан, яқинда Қирғизистон билан имзоланган пропорционал тизим асосидаги шартнома) билан пенсия таъминоти соҳасида ҳамкорлик қилаётган бўлса-да, асосий меҳнат бозорлари ҳисобланган бошқа йирик давлатлар билан тўлиқ ижтимоий интеграция шартномалари ҳанузгача етарли эмас.

Пенсия тўловларини тўхтатиб туриш тартиби: Ўзбекистон

Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 13 октябрдаги 592-сонли “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” қароридаги “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида” амалдаги низомга кўра, пенсионер хорижга чиқиб 3 ой давомида қайтмаса, пенсия тўлови вақтинча тўхтатилади (бу узоқ муддатга фарзандлари олдига кетган кексалар учун ноқулайлик туғдиради, масалан, хориж олий ўқув юртида ўқиётган қизнинг бувиси у билан яшаганида).

Миграцияни бошқариш тизимида Пенсия жамғармасининг аҳамиятини кучайтириш ва меҳнат мигрантларининг ижтимоий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш таклиф этилади:

"Рақамли пенсия портативлиги" тизимини яратиш. Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг мобил иловасини ва "Labor-migration" дастурий мажмуасини ўзаро интеграция қилиш, хориждаги мигрант ўз шахсий кабинети орқали исталган вақтда онлайн тартибда ихтиёрий бадалларни тўлаши ва тўпланган стажини кузатиб бориши таъминланиши.

Икки томонлама ижтимоий суғурта шартномаларини кенгайтириш. Россия, Қозоғистон, Туркия ва Жанубий Корея давлатлари билан пенсия таъминотида пропорционаллик принципини (ҳар бир давлат ўз ҳудудидаги иш стажи учун пенсия тўлаши) назарда тутувчи битимларни жадаллаштириш. Жамғариб бориладиган тизимни мигрантлар учун жозибадор қилиш. Давлат томонидан қўшимча маблағ ажратиш (co-contribution) механизмини ташқи мигрантларга ҳам татбиқ этиш. Мигрантлар юбораётган маблағларнинг маълум бир қисмини инфляциядан ҳимояланган молиявий инструментларга йўналтириш тизимини яратиш.

"Оммавий ахборот ва тарғибот" кампаниялари. Хорижга уюшган ҳолда кетаётган фуқароларга мажбурий тартибда кексаликдаги пенсия таъминоти ва ихтиёрий ижтимоий солиқ ставкалари бўйича тренинглар ташкил этиш.

Хулоса қилиб айтганда, миграция жараёнларини фақатгина иқтисодий пул оқими сифатида эмас, балки инсон капитали ва унинг узоқ муддатли ижтимоий кафолати сифатида кўриш лозим. Миграцияни бошқаришда Пенсия жамғармасининг фаол иштироки нафақат миллий пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлайди, балки кексалик ёшига етган мигрантларнинг қашшоқлик чегарасига тушиб қолишининг олдини олувчи асосий ижтимоий қалқон вазифасини бажаради.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида"ги Қонуни. // Lex.uz давлат ҳуқуқий портали.

2. Абазов Р. (2026). Uzbekistan’s Strategic Migration Pivot: Institutionalizing Managed Mobility For Global High-Income Markets. Central Asia-Caucasus Analyst.

3. Файзуллаев С. (2026). Жамғариб бориладиган пенсия тизимини ривожлантириш ва комбинациялашган модел истиқболлари. Kun.uz материаллари.

4. Makhanov K. (2024). Central Asian pension systems: A comparative analysis of achievements, risks and development mechanisms. Scientific Bulletin.

5. World Bank Report (2025). Pension Provision for Uzbek Migrants in the Context of Pension System Reform: International Experience. World Bank Documents.

6. Шолдаров Д., Турсунов Ж. (2018). Ўзбекистонда давлат пенсия таъминоти тизимини такомиллаштириш йўллари. "Молия" илмий журнали, 1-сон, 107-б.

7. International Organization for Migration (IOM) (2025). Migration Situation Report: Uzbekistan. IOM Publications.

INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshbadalova Muattar Xoliyorovna
Toshkent shaxar oila va xotin-qizlar boshqarmasi

Bugungi kunda investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Investitsiya mablag‘larining hajmi ortib borayotgan sharoitda ularni samarali yo‘naltirish, loyihalarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish hamda kutilayotgan iqtisodiy natijalarga erishish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsion loyihaning samaradorligi faqat unga yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori bilan emas, balki kelgusida yaratiladigan pul oqimlari, xarajatlarning qoplanishi, daromadlilik darajasi va mavjud risklarning to‘g‘ri baholanishi bilan belgilanadi. Shu sababli loyihalarni boshqarishda an’anaviy xarajatlar tahlili bilan bir qatorda zamonaviy moliyaviy baholash usullaridan foydalanish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida davlat investitsiyalarini boshqarish va loyihalarni budjet jarayoni bilan uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Bu hujjatlar investitsiyalarni rejalashtirish, baholash va natijadorligini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va moliyaviy baholash usullaridan foydalanildi. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda sof joriy qiymat, ichki daromadlilik normasi, investitsiyalarning qoplanish muddati hamda rentabellik indeksini qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Sof joriy qiymat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$[NPV=\sum_{t=1}^{n}\frac{CF_t}{(1+r)^t}-I_0]$$

Bu yerda: (CF_t) — t-davrdagi sof pul oqimi; (r) — diskont stavkasi; (t) — davr; (n) — loyiha muddati; (I_0) — dastlabki investitsiya miqdori.

Agar NPV musbat bo‘lsa, loyiha tanlangan diskont stavkasi sharoitida iqtisodiy qiymat yaratishi mumkin. Biroq yakuniy qaror qabul qilishda ushbu ko‘rsatkichni loyiha risklari, moliyalashtirish shartlari va boshqa muqobil loyihalar natijalari bilan birgalikda baholash lozim.

O‘zbekistonda investitsion faollikning o‘zgarishini baholash uchun asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi muhim statistik ko‘rsatkich hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasida e’lon qilingan ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi

Yil	Investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m	Yillik o‘sish sur’ati, %	2020-yilga nisbatan o‘sish, %
2020	210 195,1	—	0,0
2021	239 552,6	14,0	14,0
2022	266 240,0	11,1	26,7
2023	356 071,4	33,7	69,4
2024	507 490,2	42,5	141,4
2025	603 558,8	18,9	187,2

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasi. O‘sish ko‘rsatkichlari muallif tomonidan hisoblangan. Rasmiy statistika manbasi*

2020–2025-yillarda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 210 195,1 mlrd so‘mdan 603 558,8 mlrd so‘mga yetib, qariyb 2,9 barobar oshgan. Eng yuqori yillik o‘sish 2024-yilda 42,5 foizni tashkil etgan. 2025-yilda esa o‘sish sur’ati 18,9 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, investitsiyalarning umumiy hajmi ortishda davom etgan. Bu holat investitsion loyihalarni tanlashda faqat mablag‘lar hajmiga emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligi, risk darajasi va kutilayotgan natijalariga ham alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda investitsion faollik oshganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi loyihalarning alohida iqtisodiy samaradorligini to‘liq ifodalamaydi. Chunki investitsiya hajmining ortishi har bir loyiha bo‘yicha daromadlilik, xarajatlarni qoplash yoki ijtimoiy-iqtisodiy natijalar ham shunga mos ravishda oshganini anglatmaydi.

Shu sababli investitsion loyihalarni baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlarni kompleks qo‘llash muhim. Jumladan, loyihaning diskontlangan pul oqimlari hisobidan yaratadigan qiymatini aniqlashga, esa loyihaning ichki daromadlilik darajasini baholashga xizmat qiladi. Investitsiyalarning qoplanish muddati mablag‘larning qaytish davrini ko‘rsatsa, rentabellik indeksi sarflangan investitsiyaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan diskontlangan tushumlarni baholash imkonini beradi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘llash investitsion qarorlarning asoslanganligini oshiradi. Masalan, qoplanish muddati qisqa bo‘lgan loyiha har doim ham eng samarali loyiha bo‘lavermaydi: uning keyingi davrlardagi pul oqimlari past yoki risk darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Shu bois loyihalarni

tanlashda pul oqimlarining vaqt qiymati, moliyalashtirish xarajatlari, inflyatsiya, talab o‘zgarishi va amalga oshirish muddatlari ham hisobga olinishi lozim.

Investitsion loyihalar samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar:

Kompleks baholash tizimini joriy etish. Investitsion loyihalarni tanlashda qoplanish muddati va rentabellik indeksidan birgalikda foydalanish, har bir ko‘rsatkichning afzalliklari va cheklovlarini hisobga olish lozim.

Risklarni oldindan baholash. Loyiha boshlanishidan oldin talab, xarajatlar, valyuta kursi, foiz stavkalari va amalga oshirish muddatlari bilan bog‘liq risklarni aniqlash hamda optimistik, bazaviy va salbiy ssenariylar bo‘yicha hisob-kitoblar o‘tkazish zarur.

Raqamli monitoring tizimini rivojlantirish. Loyihaning budjeti, muddati, bajarilgan ishlari va kutilayotgan natijalarini yagona elektron monitoring tizimida kuzatish orqali og‘ishlarni erta aniqlash mumkin.

Natijadorlik ko‘rsatkichlarini belgilash. Har bir loyiha uchun moliyaviy natijalar bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi, energiya tejamkorligi va hududiy rivojlanishga ta’sir kabi o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarni belgilash kerak.

Muqobil loyihalarni taqqoslash. Moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda loyihalarni faqat umumiy qiymati bo‘yicha emas, balki kutilayotgan daromadi, risk darajasi, amalga oshirish muddati va strategik ahamiyati bo‘yicha ham qiyoslash maqsadga muvofiq.

Loyiha yakunidan keyingi baholashni yo‘lga qo‘yish. Rejalashtirilgan va amalda erishilgan natijalarni taqqoslash orqali dastlabki prognozlarning aniqligi, xarajatlar og‘ishi va boshqaruv qarorlarining samaradorligini aniqlash mumkin.

Investitsion loyihalarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullarini takomillashtirish investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim shartidir. Rasmiy statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2020–2025-yillarda qariyb 2,9 barobar oshganini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda investitsiyalar hajmini ko‘paytirish bilan birga, ularning natijadorligini ham tizimli baholash zarur.

Taklif etilgan yondashuvlar investitsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshirish, resurslar taqsimotini yaxshilash va kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7469803

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi” statistik ma’lumotlari. https://siat.stat.uz/data/1928/?lang=uz

3. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). https://www.pmi.org/standards/pmbok

4. ISO 21502:2020. Project, programme and portfolio management — Guidance on project management. https://www.iso.org/standard/74947.html

5. Brealey, R. A., Myers, S. C., Allen, F. Principles of Corporate Finance.

6. Kerzner, H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling.

ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA TELEKOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Berdiklichev Mardan Jaxangirovich
TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

Migratsiya qarori ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, daromadlar farqi, ish o‘rinlari, uy-joy va xizmatlar bilan bir qatorda axborotga kirish imkoniyati ham muhim o‘rin tutadi. Raqamli aloqa tarmoqlarining kengayishi ish qidirish, ish beruvchi bilan bog‘lanish, hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish, pul o‘tkazmalarini amalga oshirish va oila bilan aloqa qilish xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya infratuzilmasi mahalliy hududlarda elektron savdo, masofaviy xizmat va raqamli bandlik imkoniyatlarini yaratib, ayrim holatlarda ko‘chib ketish zaruratini kamaytirishi ham mumkin. Demak, raqamli infratuzilma migratsiyani faqat oshiruvchi yoki faqat kamaytiruvchi omil emas; uning ta’siri hududdagi iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat bozori va aholining raqamli ko‘nikmalariga bog‘liq.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘langan. IOMning 2024-yil III chorak bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, ro‘yxatga olingan ko‘chib keluvchilar soni 70,2 ming kishini tashkil etgan va ularning 54,2 mingi, ya’ni 77 foizi qishloq hududlaridan shaharlarga to‘g‘ri kelgan [1]. Bu ichki migratsiyada qishloq–shahar yo‘nalishi ustun ekanini ko‘rsatadi. Tashqi mehnat migratsiyasi ham aholi daromadlari va mehnat bozori uchun muhim bo‘lib, OECD O‘zbekistonda pul o‘tkazmalari 2023-yilda YAIMning 14 foiziga teng bo‘lganini qayd etadi [2]. Shu sababli telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiyalarni migratsiya jarayonlaridan alohida ko‘rib bo‘lmaydi.

Birinchi kanal – axborot xarajatlarining kamayishidir. Migratsiya qarorida boshqa hudud yoki davlatdagi ish haqi, vakansiya, yashash sharoiti va transport xarajatlari haqidagi ma’lumot muhim. Keng polosali internet bunday ma’lumotni izlash xarajatini pasaytiradi. Ma va Mu tomonidan Xitoy qishloqlari misolida o‘tkazilgan tadqiqot keng polosali internetning kengayishi qishloq–shahar migratsiyasini 3,2–3,4 foiz punktga oshirganini ko‘rsatadi; asosiy mexanizm sifatida iqtisodiy axborotga kirish imkoniyati kuchaygani aniqlangan [3]. Li va hammualliflar ham raqamli infratuzilma axborot nomukammalligini kamaytirish, ijtimoiy tarmoqlarni kuchaytirish va likvidlik cheklovlarini yumshatish orqali qishloq–shahar migratsiyasini rag‘batlantirishini qayd etadi [4].

Ikkinchi kanal – mahalliy bandlik va daromad imkoniyatlarining o‘zgarishidir. Internet qishloq hududidagi korxonalarga bozor axboroti, elektron savdo va xizmatlar platformalariga kirish imkonini beradi. Wang va hammualliflar universal telekommunikatsiya xizmati dasturi asosida qishloq raqamli infratuzilmasining bandlik va daromadga ta’sirini empirik baholagan [5]. Bu jihatdan telekommunikatsiya infratuzilmasi ikki tomonlama natija berishi mumkin: bir tomondan, tashqi mehnat bozori haqidagi axborot migratsiyani yengillashtiradi; ikkinchi tomondan, mahalliy raqamli biznes va masofaviy

bandlik imkoniyatlari kuchaysa, hududda qolish uchun iqtisodiy asos paydo bo‘ladi.

Uchinchi kanal – migrant va uning oilasining moliyaviy xizmatlardan foydalanishidir. IOMning Markaziy Osiyoda raqamli pul o‘tkazmalari bo‘yicha tadqiqoti migrantlar va pul o‘tkazmasi oluvchilar uchun raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishga huquqiy, infratuzilmaviy va xulq-atvor to‘siqlari ta’sir qilishini ko‘rsatadi [6]. Internet sifati va mobil aloqa barqarorligi past hududda pul o‘tkazmasini raqamli qabul qilish, masofaviy bank xizmatidan foydalanish yoki moliyaviy savodxonlik dasturlariga kirish qiyinlashadi. Shunday ekan, telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiya migrant pul o‘tkazmalarining iqtisodiy ta’sirini oshiruvchi yordamchi omil sifatida ham qaralishi mumkin.

To‘rtinchi kanal – davlat va ijtimoiy xizmatlarga raqamli kirishdir. Migrantlar uchun ishga joylashish, hujjatlarni rasmiylashtirish, konsullik, sug‘urta, ta’lim va qaytib kelgandan keyingi bandlik xizmatlari ko‘pincha ma’lumotga tez kirishni talab qiladi. Raqamli infratuzilma yetarli bo‘lmasa, ushbu xizmatlar formallashgan bo‘lsa ham ulardan foydalanish xarajati yuqori bo‘lib qoladi. Shu nuqtayi nazardan migratsiya siyosatining raqamlashtirilishi telekommunikatsiya qamrovi, xizmat sifati va qurilmalar hamda internet narxining maqbulligi bilan birga olib borilishi kerak.

Telekommunikatsiya infratuzilmasining migratsiya bilan bog‘liq ijtimoiy samarasi xususiy investor daromadida to‘liq aks etmaydi. Masalan, chekka tumandagi sifatli internet ish qidiruvchi yoshning vakansiya topishi, xorijdagi migrantning oilasi bilan aloqa qilishi yoki pul o‘tkazmasini raqamli qabul qilishiga yordam beradi, biroq bunday samaraning barchasi operatorning bevosita tushumiga aylanmaydi. Shu sababli migratsiya oqimlari yuqori bo‘lgan va tijoriy qaytimi past hududlarda faqat operator mablag‘iga tayanish investitsiya yetishmovchiligini saqlab qolishi mumkin.

Mazkur holatda moliyalashtirish manbalarini uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – bozor manbalari: operatorning o‘z mablag‘i, tijorat banklari krediti, obligatsiya va uskunalar yetkazib beruvchi krediti. Ular talab zichligi yuqori va tushum prognozi aniq hududlarda samarali. Ikkinchi guruh – davlat va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari. Ularning vazifasi ijtimoiy qaytimi yuqori, lekin xususiy rentabelligi past hududlarda investitsion bo‘shliqni qisqartirishdir. Uchinchi guruh – xalqaro moliya institutlari va rivojlanish moliyasi bo‘lib, ular raqamli inklyuziya, qishloq hududlari va ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘langan loyihalarda uzoq muddatli resurs va texnik ko‘mak bera oladi. Jahon banki raqamli qamrovni kengaytirishda gap-funding, riskni yumshatish va davlat-xususiy sheriklikni xususiy sarmoyani jalb qilish vositasi sifatida ko‘rsatadi [7].

O‘zbekiston uchun telekommunikatsiya investitsiyalarini rejalashtirishda “migratsiya sezgirligi”ni qo‘shimcha mezon sifatida ko‘rish mumkin. Bunda hududning migratsiya darajasi investitsiyani bevosita ko‘paytirish uchun yagona asos bo‘lmaydi. Aksincha, u qamrov darajasi, internet sifati, bandlik imkoniyatlari va aholi daromadi bilan birga baholanadi. Masalan, qishloqdan shaharga chiqish yuqori bo‘lgan hududda telekommunikatsiya investitsiyasi mahalliy masofaviy ish, onlayn savdo, kasbiy ta’lim va bandlik xizmatlarini rivojlantirish bilan birga

olib borilsa, hududda qolish yoki qaytib kelish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, internetning yaxshilanishi tashqi mehnat bozori haqidagi axborotni ham oshirib, migratsiyani yengillashtirishi mumkin. Shuning uchun siyosiy maqsad migratsiyani sun'iy cheklash emas, balki aholining tanlovini xavfsiz, axborotli va iqtisodiy jihatdan samarali qilish bo'lishi lozim.

Raqamli moliyaviy xizmatlar ham alohida moliyalashtirish natijasi sifatida baholanishi kerak. Telekom operatorlari, banklar va to'lov tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik migrant va uning oilasi uchun pul o'tkazmalarining tezligi va shaffofligini oshiradi. Bunda telekommunikatsiya tarmog'i, raqamli identifikatsiya va mobil moliya xizmatlari bir-birini to'ldiradi. IOM raqamli pul o'tkazmalarining kengayishi migrantlar va ularning oilalarini moliyaviy inklyuziyaga jalb qilish imkonini berishini ta'kidlaydi [6].

O'zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari sharoitida telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiyalarni moliyalashtirishda quyidagi yondashuvlar maqsadga muvofiq. Birinchidan, hududiy telekommunikatsiya loyihalarini tanlashda qamrov va abonent daromadi bilan birga migratsiya oqimi, bandlik, masofaviy xizmatlardan foydalanish va raqamli moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj ko'rsatkichlarini ham hisobga olish lozim. Ikkinchidan, xususiy rentabelligi past, biroq migrant oilalari va qishloq aholisi uchun ijtimoiy samarasi yuqori hududlarda maqsadli davlat ko'magi va DXSh vositalari qo'llanishi kerak. Uchinchidan, infratuzilma investitsiyasi bandlik portallari, masofaviy kasbiy ta'lim, raqamli bank va migrantlarni axborot bilan ta'minlash xizmatlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. To'rtinchidan, investitsiya samaradorligi nafaqat yangi baza stansiyasi yoki optik liniya soni, balki xizmatdan real foydalanish, internet sifati, raqamli bandlik va moliyaviy inklyuziya natijalari orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, telekommunikatsiya infratuzilmasi migratsiya jarayonlarini boshqarishning to'g'ridan-to'g'ri vositasi emas, biroq mehnat bozori axboroti, mahalliy bandlik, pul o'tkazmalari va davlat xizmatlariga kirish orqali aholining migratsiya qaroriga ta'sir qiladigan muhim iqtisodiy infratuzilmadir. Shu sababli uning moliyalashtirish mexanizmini shakllantirishda faqat operatorning tijoriy qaytimiga emas, hudud va aholi uchun yaratiladigan kengroq ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ham e'tibor berish zarur. Bu yondashuv migratsiyani cheklashdan ko'ra, ichki va tashqi mehnat mobilligini xavfsiz, samarali va aholining daromad imkoniyatlarini kengaytiradigan shaklda qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). Uzbekistan Migration Situation Report: Quarterly Compilation, July–September 2024. Mobility Tracking Matrix, 2024. https://dtm.iom.int/reports/uzbekistan-migration-situation-report-quarterly-compilation-july-september-2024

2. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: 10.1787/20865f29-en.

3. Ma S., Mu R. Digital Roots or Digital Routes? Broadband Expansion and the Rural–Urban Migration in China. Population and Development Review, 2026, 52(2): 374–402. DOI: 10.1111/padr.70042.

4. Li J., Tang F., Yan D., Zhao C. Does Digital Infrastructure Facilitate Rural-to-Urban Migration? Evidence From China. Population, Space and Place, 2026, 32(4): e70270. DOI: 10.1002/psp.70270.

5. Wang Q., Xia X., Lan S., Li M. Rural digital infrastructure and labor market: Evidence from universal telecommunication service. Asian Economic Journal, 2023, 37(3): 293–325. DOI: 10.1111/asej.12306.

6. Harris D., Prohorova A. The Role of Digital Remittances: Consolidated Findings from Supply and Demand Research. IOM, 2021. ISBN 978-92-9268-085-5.

7. World Bank. Connectivity and Networks. Washington, DC, 2025. https://www.worldbank.org/en/brief/2025/04/10/connectivity-and-networks

8. UNDP Uzbekistan. Gender Digital Divide Assessment: Uzbekistan. Tashkent, 2023. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/gender-digital-divide-assessment-uzbekistan

HUDUDIY BANDLIKNI BARQARORLASHTIRISHDA KICHIK BIZNESNING SOLIQ REJIMIGA MOLIYAVIY MOSLASHUVI: MIGRATSIYA JARAYONLARI NUQTAYI NAZARIDAN

Karatayev Miraziz Nurmuxammadovich
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Mehnat migratsiyasi iqtisodiy mazmuniga ko'ra aholi harakatining o'zi emas, balki hududlar va mamlakatlar o'rtasidagi daromad, bandlik va iqtisodiy imkoniyatlar farqiga javobdir. J. Harris va M. Todaro migratsiya qarorini kutilayotgan daromadlar farqi bilan izohlagan klassik modelda ish o'rinlari va ish haqi tafovutini asosiy rag'batlardan biri sifatida ko'rsatadi [1]. Zamonaviy sharoitda ushbu yondashuvni tadbirkorlik imkoniyatlari bilan to'ldirish zarur: hududda barqaror daromad beradigan kichik biznes va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarining mavjudligi mehnat resurslarining ko'chish qarorlariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy muhitning bir qismidir.

O'zbekistonda kichik biznes bandlikning asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 74,9 foizni tashkil etgan. Ayrim hududlarda bu ulush 80 foizdan yuqori: Andijon viloyatida 81,9 foiz, Samarqand viloyatida 81,7 foiz, Namangan viloyatida 81,3 foiz, Xorazm viloyatida 80,3 foiz [2]. Bunday tarkibda kichik biznesning moliyaviy barqarorligi hududiy mehnat bozorining barqarorligi bilan bevosita bog'lanadi.

2026-yilda kichik biznes soliq rejimiga oid qator muhim o'zgarishlar joriy qilindi. PF–100-son Farmonda biznes o'sishi uchun iqtisodiy va ma'muriy qulayliklar yaratish, umumiy soliq rejimiga o'tishni yumshatish va kichik biznes uchun soliq mexanizmlarini soddalashtirish maqsadi belgilangan [3]. Soliq rejimi o'zgarishi korxona pul oqimiga keskin bosim qilmasa, biznes bandlikni saqlab qolishi va kengaytirishi uchun sharoit yaratiladi. Aksincha, yangi rejimga o'tish bilan bog'liq qo'shimcha aylanma mablag', hisob yuritish va maslahat xarajatlari

kichik korxonaning ish o‘rinlarini saqlash imkoniyatini qisqartirishi mumkin. Shu sabab soliq islohotlari va migratsiya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki “soliq rejimi — korxona moliyaviy barqarorligi — hududiy bandlik — migratsion qaror” zanjiri orqali iqtisodiy bog‘lanish mavjud.

Rasmiy migratsiya statistikasi ushbu masalani hududiy nuqtayi nazardan o‘rganish uchun yetarli axborot bazasini beradi. 2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar 241,8 ming kishi, ko‘chib ketganlar 250,4 ming kishi bo‘lgan. 2025-yilda tegishli ko‘rsatkichlar 252,8 ming va 261,8 ming kishini tashkil etgan. 2026-yilning birinchi yarim yilligida esa 185,6 ming kishi ko‘chib kelgan va 189,3 ming kishi ko‘chib ketgan [4; 5]. Ushbu ko‘rsatkichlar ichki va tashqi harakatlarning yig‘indi ko‘rinishini aks ettiradi; tashqi migratsiya bo‘yicha 2026-yil birinchi choragida 721 kishi ko‘chib kelgani va 2 277 kishi ko‘chib ketgani alohida qayd etilgan [6].

1-jadval.

O‘zbekistonda jami migratsiya harakatining ayrim ko‘rsatkichlari

Davr	Ko‘chib kelganlar, kishi	Ko‘chib ketganlar, kishi	Migratsiya saldosi, kishi
2024-yil	241 796	250 409	-8 613
2025-yil	252 792	261 750	-8 958
2026-yil I yarim yillik	185 570	189 343	-3 773

Jadvaldagi salbiy migratsiya saldosi mehnat migratsiyasining barcha sabablarini izohlab bermaydi, chunki ko‘chish qaroriga ta’lim, oila, uy-joy, demografik va boshqa omillar ham ta’sir qiladi. Shunga qaramay, iqtisodiy imkoniyat va ish o‘rni migratsiya qarorining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qoladi. Shu nuqtayi nazardan, hududlarda kichik biznes bandligining yuqori ulushi mahalliy mehnat bozorini ushlab turuvchi iqtisodiy “amortizator” vazifasini bajarishi mumkin. Biroq bu vazifa biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligiga bog‘liq.

Migratsiya va tadbirkorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bir yo‘nalishli emas. Bir tomondan, mahalliy tadbirkorlik yangi ish o‘rni va daromad manbai yaratib, migratsiya zaruratini yumshatishi mumkin. Ikkinchi tomondan, migratsiya tajribasi, jamg‘arma va ko‘nikmalar yangi biznes shakllanishiga turtki beradi. Xalqaro ilmiy adabiyotda ham migratsiya, tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlanish o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida talqin qilinadi [7]. O‘zbekistondagi 2026-yilgi tadqiqotlarda mehnat mobilligi va tadbirkorlik asosidagi bandlik o‘rtasidagi aloqalar alohida ko‘rsatilgan [8]. Shuning uchun migratsiyani faqat “ketish” oqimi sifatida emas, balki hududiy mehnat bozori va tadbirkorlik resurslari o‘rtasidagi harakat sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Kichik biznesning soliq rejimiga moliyaviy moslashuvi aynan shu mexanizmda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Soliq rejimi almashganda korxona bir vaqtning o‘zida yangi hisob tartibiga, o‘zgargan soliq to‘lovlariga va ayrim hollarda qo‘shimcha aylanma mablag‘ ehtiyojiga duch keladi. Agar ushbu xarajatlar qisqa davrda keskin oshsa, korxona investitsiya va ish haqi xarajatlarini qisqartirishi mumkin. Bandlik ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda bunday jarayonning ijtimoiy

oqibati kattaroq bo‘ladi. Demak, kichik biznesni soliq rejimiga moslashtirish siyosati bandlikni saqlash mezonini ham hisobga olishi kerak.

Bu yondashuv soliq imtiyozlarini migratsiyani kamaytirish vositasi sifatida mexanik ravishda qo‘llashni anglatmaydi. Muhim masala soliq rejimi o‘zgarishidan oldin va keyin korxonaning pul oqimi, ish haqi fondi, aylanma mablag‘lar yetarliligi va ish o‘rinlari sonini kuzatishdir. Shunda moliyaviy moslashuvning muvaffaqiyatsiz holati erta aniqlanadi. Masalan, yangi rejimga o‘tish natijasida soliq va muvofiqlik xarajatlarining ko‘payishi ish haqi fondini qisqartirish bilan birga kuzatilsa, bu biznesning bandlikni saqlash imkoniyati zaiflashayotganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida kichik biznes bandligining ulushi keskin farq qilgani sababli bir xil moliyaviy moslashuv choralari ham turlicha natija beradi. Andijon, Samarqand, Namangan va Xorazm kabi kichik biznes bandlikda 80 foiz atrofida ulushga ega hududlarda soliq rejimi o‘zgarishiga moslashuv choralarini ish o‘rinlarini saqlash ko‘rsatkichi bilan bog‘lash asosli. Toshkent shahri yoki Navoiy viloyati singari kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi pastroq bo‘lgan hududlarda esa tarmoq kesimidagi tahlil ko‘proq axborot beradi. Shu tarzda soliq siyosatining hududiy mehnat bozoriga ta’sirini aniqroq baholash mumkin.

Amaliy jihatdan soliq rejimiga moliyaviy moslashuvni uch guruh ko‘rsatkich orqali kuzatish taklif etiladi: birinchisi korxonaning soliq va hisob yuritish xarajatlari; ikkinchisi pul oqimi va aylanma mablag‘lar holati; uchinchisi bandlik va ish haqi fondi dinamikasi. Ushbu ko‘rsatkichlarda salbiy o‘zgarishlar bir vaqtda yuz bersa, korxonaning yangi soliq rejimiga moslashuv darajasi past deb baholanishi mumkin. Bunday baholash migratsiya oqimini bevosita prognoz qilish uchun emas, balki hududiy bandlikka bosim kuchayishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy nuqtalarni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni soliq rejimi o‘zgarishiga moliyaviy moslashtirish masalasi migratsiya siyosati bilan bandlik kanali orqali tutashadi. O‘zbekistonda bandlikning katta qismi kichik tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri kelishi sababli ushbu sektorning moliyaviy barqarorligi hududlarda daromad manbalarining saqlanishiga xizmat qiladi. Migratsiya oqimlarini kamaytirishning yagona vositasi soliq siyosati emas, biroq soliq rejimi almashinuvi ish o‘rinlarini qisqartirishga sabab bo‘lmasligi muhim. Shu bois kichik biznes uchun soliq islohotlarini baholashda fiskal natija bilan bir qatorda bandlikni saqlash, pul oqimini barqarorlashtirish va moslashuv xarajatlarini kamaytirish mezonlarining qo‘llanishi hududiy mehnat bozori barqarorligini mustahkamlovchi iqtisodiy yondashuv hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment & Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. 1970. Vol. 60, No. 1. P. 126–142.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi. SIAT, 2026-yil 20-iyul holatiga yangilangan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–100-son “Kichik biznes subyektlarining o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma’muriy shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘chib kelganlar soni (jami, choraklik). SIAT, 2026-yil 24-iyul holatiga yangilangan.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘chib ketganlar soni (jami, choraklik). SIAT, 2026-yil 24-iyul holatiga yangilangan.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining demografik ko‘rsatkichlari raqamlarda. 2026-yil 28-aprel.

7. Smallbone D., Dabic M., Kalantaridis C. Migration, entrepreneurship and economic development // Entrepreneurship & Regional Development. 2017. Vol. 29, No. 5–6. P. 567–569. DOI: 10.1080/08985626.2017.1315485.

8. Shakarov Z.G. The impact of labor mobility on the level of entrepreneurship-based employment of the population // Labor Economics and Human Capital. 2026. Vol. 5, No. 1. P. 256–264. DOI: 10.67668/LEHC/vol5iss1/288.

9. Fritsch M., Schroeter A. Why does the effect of new business formation differ across regions? // Small Business Economics. 2011. Vol. 36. P. 383–400. DOI: 10.1007/s11187-009-9256-9.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Olimxonova Dilnoza Abdurashidovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, mehnat resurslarini qayta taqsimlash, aholi daromadlari va inson kapitalidan foydalanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun tashqi mehnat migratsiyasini tizimli o‘rganish mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, fuqarolarning xavfsiz mehnatini ta’minlash, xorijiy bozorlardagi talabni aniqlash, migrantlar huquqlarini himoya qilish hamda qaytib kelganlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Ishlab chiqarishning qayta joylashuvi, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, demografik qarish va pandemiyadan keyingi tiklanish migratsiya yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda ikki milliarddan ortiq kishi (global bandlikning qariyb 58%i) norasmiy bandlikda faoliyat yuritgan; BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 259 million yoshlar ta’lim, bandlik yoki kasbiy tayyorgarlik bilan qamrab olinmagan. Bu globallashuvning natijasidir: 1990-yillardan sanoatning arzon mamlakatlarga ko‘chirilishi rivojlangan mamlakatlarda barqaror ish o‘rinlarini qisqartirdi. OECD a’zo mamlakatlarida ish o‘rinlarining qariyb 14%i avtomatlashtirish xavfi yuqori toifaga kiritilgan, biroq bu baho muayyan davrdagi mehnat vazifalariga asoslangan va kelajakdagi bandlikni to‘liq bashorat qilmaydi. Shu sababli migratsiya siyosatini takomillashtirish talab va taklifni kompleks tahlil qilish, hududiy xususiyatlarni aniqlash, migrantlarning ijtimoiy holatini o‘rganish va raqamli boshqaruvni joriy etishni taqozo etadi.

1. Xalqaro mehnat bozorida O‘zbekiston ishchi kuchiga bo‘lgan talabni tadqiq etish

O‘zbekiston fuqarolari mehnatiga talab mavjud bozorlarni (Rossiya, Qozog‘iston, Yevropa Ittifoqi va boshqalar) muntazam o‘rganish migratsiyani boshqarishning muhim shartidir. Tahlil makroiqtisodiy (YaIM, investitsiyalar, bandlik), tarmoq (sanoat, qurilish, agrosanoat, transport, xizmatlar), kasbiy-malaka (talab yuqori kasblar, til va sertifikat talablari), hududiy, korxonalar kesimidagi (yirik, o‘rta va kichik korxonalarda ish haqi va bandlik shartlari) hamda institutsional (mehnat qonunchiligi, migratsiya tartiblari, ijtimoiy sug‘urta, huquqiy maqom) yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim.

Talabni faqat vakansiyalar soni bilan baholash yetarli emas: 2023–2025-yillar bo‘yicha ish haqi, bandlik va kadrlar taqchilligi bilan birga ish o‘rinlarining barqarorligi, mehnat shartnomasi, ish haqi va yashash xarajatlari nisbati, ijtimoiy himoya va huquqiy maqom hisobga olinishi zarur. Yirik korxonalar rasmiy ishga qabul mexanizmlariga tayansa, kichik korxonalarda talablar tarmoq va hududga qarab farqlanadi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi munosabatlar va davlatlararo mehnat kelishuvlari ham institutsional omil sifatida o‘rganilishi kerak.

2. O‘zbekistonda mehnat resurslari taklifi va migratsiya salohiyatini tadqiq etish

Bu yo‘nalish quyidagilarni qamrab oladi: demografik tahlil (migrantlar soni, yosh-jins tarkibi, ma’lumot darajasi); kasbiy va malakaviy tahlil (tajriba, tillar, raqamli ko‘nikmalar, sertifikatlar; natijalar kasbiy ta’limni ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirishga asos bo‘ladi); hududiy tahlil (Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida); migratsion motivlar (daromad, tajriba, oilani qo‘llab-quvvatlash); xavf va to‘siqlar (axborot yetishmasligi, til to‘siqlari, malakaning tan olinmasligi, vositachilik muammolari, ijtimoiy himoyaning cheklanganligi).

Rekruting tashkilotlari, ish beruvchilar va ta’lim muassasalari hamkorligi, xorijga jo‘natishdan oldingi tayyorgarlik va shartnomalarni tekshirish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Istiqbolli yo‘nalish — xorijiy ish beruvchilar buyurtmasi asosida maqsadli kadrlar tayyorlash (ta’lim real mehnat bozori talablariga yaqinlashib, ishga joylashish imkoniyati oshadi), shuningdek Rossiya va Qozog‘iston bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi, Yaqin Sharq va boshqa bozorlarni o‘rganib, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish; bunda kirish, malakani tan olish va huquqiy himoya talablari baholanadi.

3. Mehnat migrantlarining ijtimoiy-madaniy integratsiyasini sotsiologik tadqiq etish

Migrantlarning qabul qiluvchi mamlakat muhitiga moslashuvi, til va huquqiy savodxonligi, mahalliy aholi bilan munosabatlari hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi so‘rovnoma, intervyu va fokus-guruhlar yordamida o‘rganilishi lozim. Integratsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun xorijga chiqishdan oldingi dasturlarga til, huquqiy maslahat va madaniyatlararo muloqot mashg‘ulotlarini kiritish, qabul qiluvchi mamlakatlarda axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

4. Migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning metodologik asoslari

Migratsiyaning ko‘p omilli xususiyati fanlararo metodologiyani talab etadi. Tizimli va institutsional yondashuv migratsiyaning mehnat bozori, demografiya, ta’lim va ijtimoiy himoya bilan bog‘liqligini, qonunchilik va davlat organlarining ta’sirini tahlil qiladi. Statistik va iqtisodiy usullar oqimlar, bandlik, ish haqi, vakansiyalar va pul o‘tkazmalarini qiyosiy va dinamik tahlil qiladi, ma’lumotlar yetarli bo‘lsa — ekonometrik usullardan ham foydalanadi. Demografik tahlil mehnatga layoqatli aholi va uning taqsimotini baholaydi. Sotsiologik usullar (so‘rovnoma, intervyu, fokus-guruh, ekspert baholash) migrantlarning ehtiyojlari, moslashuvi va muammolarini aniqlaydi. Prognozlash va ssenariyli tahlil uch ssenariy bo‘yicha olib boriladi: bazaviy (mavjud tendensiyalar davomi), optimistik (iqtisodiy faollik va talabning ortishi) va xavfli (iqtisodiy pasayish yoki migratsiya qoidalarining qat’iylashuvi); prognozlar kafolat emas, balki mumkin bo‘lgan rivojlanish yo‘nalishlaridir.

5. Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Big Data va sun’iy intellekt oqimlar dinamikasini tahlil qilish, vakansiyalar va malakalar nomuvofiqligini aniqlash hamda talabni prognozlashga yordam beradi. Taklif etiladi: migratsiya, bandlik va kasbiy ta’lim ma’lumotlarini yagona raqamli infratuzilmada birlashtirish; xorijiy vakansiyalar va tartiblar haqida tekshirilgan axborot beruvchi yagona portal yaratish; migrantlarning malaka, til va sertifikatlarini o‘z ichiga olgan raqamli profil hamda sun’iy intellektga asoslangan muvofiqlik tahlilini joriy etish; statistik panellar shakllantirish. Bunda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va axborot xavfsizligi ta’minlanishi, sun’iy intellekt qarorlari migrantlar huquqiga ta’sir qilganda esa inson nazorati, qarorlarning tushuntirilishi va shikoyat mexanizmi bo‘lishi kerak. Raqamli boshqaruv nazoratdan ko‘ra ishonchli axborot berish va ishga joylashtirishda shaffoflikni oshirishga xizmat qilishi lozim.

6. Mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalaridan investitsion maqsadlarda foydalanish

Pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklari daromadini qo‘llab-quvvatlash, iste’molni moliyalashtirish va jamg‘arma shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ularni ishlab chiqarish, kichik biznes va yangi ish o‘rinlariga yo‘naltirish imkoniyatlarini aniqlash uchun o‘tkazmalarning hududiy taqsimoti, ulardan foydalanish tarkibi (iste’mol, jamg‘arma, ta’lim, uy-joy, tadbirkorlik), investitsion qarorlarga ta’sir qiluvchi omillar, moliyaviy savodxonlik va kreditlash shartlari tahlil qilinadi.

Istiqbolli yo‘nalish — eksportga yo‘naltirilgan oziq-ovqat ishlab chiqarish: masalan, Farg‘ona vodiysining agrar salohiyatini sanoat hududlaridagi talab bilan bog‘lash va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish; bunda talab, transport xarajatlari, valyuta xatarlari va savdo cheklovlari hisobga olinadi. Ko‘plab oilalar uchun o‘tkazmalarning asosiy vazifasi kundalik ehtiyojlarni qoplash ekanini inobatga olib, investitsion mexanizmlar ixtiyoriylik, shaffoflik va iqtisodiy manfaatdorlik tamoyillariga asoslanishi zarur.

7. Migratsiya jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar

Ko‘rib chiqilgan yo‘nalishlar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

–yagona tahliliy va statistik baza — migratsiya, bandlik, ta’lim va pul o‘tkazmalari ma’lumotlarini muvofiqlashtirish, sifat nazoratini belgilash;

–xorijiy bozorlar monitoringi — mamlakat, tarmoq, hudud va kasb kesimida tahliliy hisobotlar tayyorlash;

–tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi — davlatlararo bitimlar va ish beruvchilar buyurtmalari asosida maqsadli tayyorgarlik hamda rasmiy ishga joylashtirishni kengaytirish, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish;

–xorijga chiqishdan oldingi tayyorgarlik — kasb, til, mehnat qonunchiligi va moliyaviy savodxonlik bo‘yicha dasturlar;

–huquqiy va ijtimoiy himoya — shartnomalar shaffofligi, huquqiy maslahat, ijtimoiy sug‘urta va tibbiy xizmatdan foydalanish to‘siqlarini kamaytirish;

–hududiy dasturlar va fanlararo tadqiqotlar — hududiy dasturlar ishlab chiqish, iqtisodchi, demograf, sotsiolog, huquqshunos va IT mutaxassislarining qo‘shma tadqiqotlarini yo‘lga qo‘yish;

–qaytib kelgan migrantlar salohiyati — tajriba va ko‘nikmalarini qayta tayyorlash va ishga joylashtirish orqali mahalliy iqtisodiyotga jalb qilish.

O‘zbekistonda migratsiyani samarali boshqarish xalqaro mehnat bozori talabi, demografik va ijtimoiy omillar, huquqiy muhit hamda raqamli texnologiyalarni kompleks o‘rganishni talab etadi. Xavfsiz va qonuniy mehnat migratsiyasi davlat organlari, ish beruvchilar, ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar hamkorligiga asoslanishi, samaradorlikni oshirish uchun esa bozorlar monitoringi, kasbiy tayyorgarlik, huquqiy himoya, raqamli boshqaruv va pul o‘tkazmalarining investitsion imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. New York: National Bureau of Economic Research, 1964.

2. Saxenian, A. Local and Global Networks of Immigrant Professionals in Silicon Valley. San Francisco: Public Policy Institute of California, 2002.

3. Docquier, F., Rapoport, H. Globalization, Brain Drain, and Development. Journal of Economic Literature. 2012. Vol. 50, No. 3. P. 681–730.

4. Castles, S., de Haas, H., Miller, M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. 6th ed. London: Red Globe Press, 2019.

5. International Labour Organization (ILO). ILOSTAT: Informal employment and labour market indicators. Rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi.

6. United Nations. Sustainable Development Goal 8: Decent Work and Economic Growth. Rasmiy ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar.

7. OECD. OECD Employment Outlook 2019: The Future of Work. Paris: OECD Publishing, 2019.

8. Nedelkoska, L., Quintini, G. Automation, Skills Use and Training. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, No. 202. Paris: OECD Publishing, 2018.

LOYIHA MENEJMENTIDA INSON KAPITALI VA LIDERLIK OMILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Qalandarova Naima Axmadjonovna
Namangan viloyati Turakurgon tumani
Maktabgacha maktab ta'limiga
qarashli 11 maktab

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion rivojlanishni ta'minlash, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishda loyiha menejmentining ahamiyati ortib bormoqda. Loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish nafaqat moliyaviy va moddiy resurslarga, balki inson kapitalining sifati, jamoaviy hamkorlik va rahbarlarning liderlik salohiyatiga ham bevosita bog'liq. Shu sababli loyiha menejmentida inson omilini rivojlantirish va samarali liderlik mexanizmlarini shakllantirish iqtisodiy natijadorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Inson kapitali xodimlarning bilimlari, kasbiy malakasi, tajribasi, ijodiy fikrlashi va mehnat unumdorligini ifodalovchi iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo'ladi. Loyiha boshqaruvida inson kapitalidan samarali foydalanish vazifalarni sifatli bajarish, mavjud resurslarni tejash, xatolarni kamaytirish va belgilangan maqsadlarga o'z vaqtida erishish imkonini beradi. Liderlik esa loyiha jamoasini umumiy maqsad sari yo'naltirish, xodimlarni rag'batlantirish, mas'uliyatni taqsimlash va murakkab vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish orqali inson kapitalining imkoniyatlarini amaliy natijaga aylantiradi.

O'zbekistonda loyiha menejmenti va inson kapitalini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3930-son "Korporativ boshqaruv, loyiha boshqaruvi va davlat xaridlari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroridir. Mazkur hujjat loyiha boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish masalalariga qaratilgan. Ushbu yondashuv loyiha jamoalarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini mustahkamlash hamda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish zarurati bilan chambarchas bog'liq.

Loyiha menejmentida inson kapitali va liderlik omillarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholashda loyiha boshqaruvi bo'yicha xalqaro standartlar, jumladan, Project Management Institute tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar hamda ISO 21502:2020 xalqaro standarti muhim nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar loyiha maqsadlarini belgilash, manfaatdor tomonlar bilan ishlash, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, risklarni boshqarish va natijalarni nazorat qilish masalalariga e'tibor qaratadi.

Inson kapitali va liderlikning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, avvalo, mehnat unumdorligining oshishi, loyiha xarajatlarining maqbullashuvi, bajarilish muddatlarining qisqarishi va ish sifati yaxshilanishida namoyon bo'ladi. Malakali xodimlar mavjud muammolarni tezroq aniqlaydi, resurslardan oqilona

foydalanadi va takroriy ishlar hajmini kamaytiradi. Samarali lider esa jamoa a’zolari o‘rtasida vazifalar taqsimotini muvofiqlashtirib, axborot almashinuvini yaxshilaydi hamda xodimlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Loyiha menejmentida inson kapitali va liderlik omillarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

➢ Inson kapitalini rivojlantirish tizimini takomillashtirish.Loyiha jamoasi a’zolarining kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va tajribasini muntazam baholash, aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib malaka oshirish dasturlarini tashkil etish hamda o‘qitish natijalarini iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash.

➢Loyiha rahbarlarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish. Rahbarlarning strategik fikrlash, samarali muloqot, muzokara olib borish, nizolarni hal qilish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

➢Natijadorlikka asoslangan rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish. Xodimlar faoliyatini faqat bajarilgan ishlar hajmi bilan emas, balki vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi, ish sifati, resurslardan foydalanish samaradorligi va loyihaning umumiy natijalariga qo‘shgan hissasi asosida baholash.

➢ Loyiha jamoasida bilim va tajriba almashish tizimini shakllantirish. Amalga oshirilgan loyihalar bo‘yicha tajriba, yuzaga kelgan muammolar va samarali yechimlarni tizimlashtirish hamda ushbu bilimlardan keyingi loyihalarda foydalanish orqali takroriy xatolar va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish.

➢ Inson kapitaliga investitsiyalarning iqtisodiy samarasini baholash. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirishga sarflangan xarajatlarni mehnat unumdorligi, vaqt tejalishi, ish sifatining yaxshilanishi va qayta ishlash xarajatlarining kamayishi kabi natijalar bilan taqqoslash.

➢ Liderlik samaradorligini kompleks monitoring qilish. Loyiha rahbarlari faoliyatini jamoaning belgilangan maqsadlarga erishish darajasi, muddatlarga rioya qilishi, budjet intizomi, xodimlar hamkorligi va manfaatdor tomonlar qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar asosida muntazam tahlil qilish.

Inson kapitali va liderlikka yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlashda faqat sarflangan mablag‘larni hisobga olish yetarli emas. Bunda olingan iqtisodiy natijalar, tejalgan vaqt, kamaygan xarajatlar va mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlar ham tahlil qilinishi lozim. Dastlabki iqtisodiy baholashni quyidagi formula yordamida amalga oshirish mumkin:

$$\mathbf{IS = (S - X) / X \times 100\%}$$

Bu yerda: IS — investitsiya samaradorligi, foizda; S — inson kapitalini rivojlantirish natijasida olingan yillik iqtisodiy samara; X — xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish va rivojlantirishga sarflangan xarajatlar.

Mazkur ko‘rsatkich inson kapitaliga kiritilgan mablag‘larning iqtisodiy natijasini dastlabki baholash imkonini beradi. Biroq hisob-kitoblarda bir xil natijani takroran hisobga olmaslik va iqtisodiy samaraning aynan amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog‘liqligini asoslash zarur. Bundan tashqari, uzoq

muddatli natijalarni baholashda investitsiyalarning vaqt bo‘yicha taqsimlanishi ham hisobga olinishi lozim.

Loyiha boshqaruvida inson kapitali va liderlik samaradorligini oshirish uchun boshqaruv qarorlarini aniq mezonlar asosida qabul qilish muhimdir. Jumladan, loyiha boshlanishidan oldin jamoaning kasbiy salohiyatini baholash, har bir xodimning vazifasi va javobgarligini belgilash, loyiha davomida natijalarni muntazam monitoring qilish hamda yakuniy bosqichda erishilgan iqtisodiy samarani tahlil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv inson resurslaridan foydalanishdagi samarasizlikni aniqlash va kelgusidagi loyihalarni takomillashtirish imkonini beradi.

Loyiha menejmentida inson kapitali va liderlik omillari iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar hisoblanadi. Inson kapitalining rivojlanishi xodimlarning kasbiy salohiyati va mehnat unumdorligini oshirsa, samarali liderlik ushbu imkoniyatlarni umumiy maqsadlarga yo‘naltirish, jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu sababli tashkilotlarda inson kapitalini rivojlantirish, rahbarlarning liderlik kompetensiyalarini kuchaytirish, natijadorlikka asoslangan rag‘batlantirish tizimini joriy etish va iqtisodiy natijalarni muntazam baholab borish zarur. Taklif etilgan mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish loyihalarning belgilangan muddatlarda va ajratilgan budjet doirasida bajarilishiga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda tashkilotlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3930-son “Korporativ boshqaruv, loyiha boshqaruvi va davlat xaridlari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. — https://lex.uz/uz/acts/-3895080

2. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide). — Project Management Institute. — https://www.pmi.org/standards/pmbok

3. Project Management Institute. Pulse of the Profession 2023: Power Skills, Redefining Project Success. — PMI, 2023. — https://www.pmi.org/

4. International Organization for Standardization. ISO 21502:2020. Project, Programme and Portfolio Management — Guidance on Project Management. — Geneva: ISO, 2020. — https://www.iso.org/standard/74947.html

5. Brown A. W., Adams J. D., Amjad A. A. The Relationship Between Human Capital and Time Performance in Project Management: A Path Analysis // International Journal of Project Management. — 2007. — Vol. 25, No. 1. — P. 77–89. — https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2006.07.011

6. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. — Wiley.

O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI DAVLAT TOMONIDAN BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
sh.xamdamov@tsue.uz
Fazlitdinov Shamsiddin Shahobiddin o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi
fazliddinovshamsiddin3@gmail.com

Migratsiya jarayonlari mamlakatning bandlik, demografik va iqtisodiy barqarorlik masalalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni davlat tomonidan boshqarish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgardi. 2016-yildan boshlab O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining tashkiliy shakllarini yo‘lga qo‘yish, migratsiya oqimlarini boshqariladigan va tartibga solinadigan holatga keltirish hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish asosiy maqsadlar sifatida belgilandi [1].

2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-sonli Farmon bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi tashkil etildi [2, 3]. Shu bois migratsiyani davlat tomonidan boshqarishning yangi mexanizmlarini tizimli o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylandi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini aniqlash, ularni guruhlash va takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda me’yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar va rasmiy axborot manbalari kontent-tahlil, guruhlash, qiyosiy va mantiqiy umumlashtirish usullari bilan o‘rganildi. Tadqiqot ochiq manbalarga tayanadi, birlamchi so‘rov o‘tkazilmagan.

Isakulov 2016-yildan keyingi islohotlarni, mehnat migratsiyasini normativ-huquqiy tartibga solish tendensiyalarini tahlil qilib, tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida alohida qonun loyihasining dolzarbligini, shuningdek davlat siyosati Konsepsiyasi va Strategiyasini ishlab chiqish, statistika yig‘ish va ma’lumotlar tahlili tizimini takomillashtirish zarurligini asoslagan [1]. Rahimova tashkiliy yollash, tayyorlash, moslashtirish va ishga joylashtirish jarayonlarini boshqarish hamda monitoring qilish yo‘llarini belgilovchi me’yoriy hujjatlar migrantlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish doirasini kengaytirganini ko‘rsatadi [4].

Mamatkhanov migratsiyani tartibga solish masalalari dolzarbligicha qolayotganini, migrantlarning ijtimoiy himoyasi uchun milliy qonunchilik bazasi va xalqaro shartnomalarni rivojlantirish zarurligini qayd etadi [5]. Imomova esa mehnat migratsiyasini tartibga solish davlat siyosati tizimining elementlarini, migrantlar va ularning oila a’zolarining huquqiy himoyasini yaxshilash hamda donor va qabul qiluvchi davlatlar o‘rtasidagi xalqaro kelishuvlarni takomillashtirish masalalarini yoritgan [6]. Bu ishlar 2024-yil oktyabridagi institutsional islohotdan oldingi bosqichni qamrab olgan; yangi tizimdagi mexanizmlarni birgalikda tizimlashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Manbalar tahlili O‘zbekistonda migratsiyani davlat tomonidan boshqarishning oltita o‘zaro bog‘liq mexanizmini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

1-jadval.

Migratsiyani davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari

Mexanizm	Asosiy vositalar	Manba
Institutsional	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, Migratsiya fondi, Migratsiya bo‘yicha komissiya	[2]
Huquqiy-me’yoriy	Farmon va qarorlar; xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va nazorat qilish; noqonuniy ishga joylashtirishni tekshirish	[3], [7]
Moliyaviy	Hujjatlar va ish vizasini rasmiylashtirishga yordam; sug‘urtasiz migrantlarni davolash xarajatlarini Migratsiya fondidan qoplash	[7]
Kadrlar tayyorlash	Kasbiy va chet tili ta’limi; malakani baholash va sertifikatlash; ketishdan oldingi moslashuv markazlari	[3]
Himoya va xalqaro hamkorlik	Diplomatik vakolatxonalar orqali monitoring; huquqi buzilganlarga yordam; xorijiy ish beruvchilar bilan kelishuvlar	[3]
Raqamli va axborot	Vakansiyalarni elektron platformada e’lon qilish; xorijdagi fuqarolar yagona bazasi va ish beruvchilar reyestri	[7], [3], [8]

***Izoh**: mexanizmlar guruhlanishi muallif tomonidan keltirilgan manbalar asosida tuzilgan.*

1. Institutsional mexanizm. PF-162-sonli Farmon bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o‘rniga Migratsiya agentligi tashkil etildi; yangi agentlik uning huquqiy vorisi bo‘lib, kadrlari, mablag‘lari va mulki unga o‘tkazildi [2]. Agentlik tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi organi sifatida davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va davlat xizmatlarini ko‘rsatadi [3].

2. Huquqiy-me’yoriy mexanizm. Agentlik xususiy bandlik agentliklariga litsenziya beradi va talablarga rioyani nazorat qiladi, noqonuniy xorijga ishga joylashtirish holatlarini tekshiradi, chet el fuqarolariga O‘zbekistonda vaqtincha ishlash uchun ruxsatnomalar beradi [3]. Qaror bilan xorijga tashkiliy tanlash, jo‘natish va ishga joylashtirish funksiyalari 2026-yil 1-yanvargacha bosqichma-bosqich xususiy agentliklarga o‘tkazilishi belgilangan [7]. Shu bilan birga, Isakulov sohani tartibga soluvchi alohida qonunning zarurligini asoslagan [1].

3. Moliyaviy mexanizm. Migratsiya fondi hisobidan migrantlarga ishga ketish uchun hujjatlar va ish vizasini rasmiylashtirishda moliyaviy yordam ko‘rsatiladi, tibbiy sug‘urtasi yo‘q va davolanishga muhtoj migrantlarning xarajatlari qoplanadi [7].

4. Kadrlar tayyorlash mexanizmi. Agentlik xorijiy ish beruvchilar talablariga mos kasbiy va chet tili ta’limini tashkil etadi, xalqaro tan olingan malaka baholash va sertifikatlash tizimini joriy qiladi, jo‘nab ketishdan oldingi moslashuv va o‘quv markazlarini, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida, tashkil etadi [3]. 2026-

yil aprelida qurilish mutaxassislari uchun o‘qitish va malakani baholash markazlarini kengaytirish rejalashtirildi [8].

5. Himoya va xalqaro hamkorlik. Agentlik diplomatik vakolatxonalar orqali fuqarolarning xorijdagi mehnat faoliyatini kuzatadi, huquqlari buzilganlarga huquqiy va ijtimoiy himoya ko‘rsatadi, qaytishiga ko‘maklashadi hamda xorijiy ish beruvchilar bilan tashkiliy yollash bo‘yicha kelishuvlar tuzadi [3]. Mamatkhanov va Imomova migrantlar ijtimoiy himoyasi uchun xalqaro kelishuvlar bazasini kengaytirish zarurligini ta’kidlaydi [5, 6].

6. Raqamli va axborot mexanizmi. Xorijiy ish beruvchilarning vakansiyalari Agentlikning elektron platformasida, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi [7]. Agentlik xorijda ishlayotgan fuqarolarning yagona ma’lumotlar bazasini yuritishda ishtirok etadi va xorijiy ish beruvchilar reyestrini yuritadi [3]. 2026-yil aprelida sohada raqamli yechimlarni keng joriy etish topshirildi [8].

Mexanizmlarni migratsiya sikli bosqichlari bo‘yicha ko‘rib chiqish ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi: tanlash va ma’lumot berish bosqichida axborot va huquqiy mexanizmlar, tayyorlash bosqichida kadrlar tayyorlash va moliyaviy mexanizmlar, xorijdagi faoliyat davrida himoya va xalqaro hamkorlik mexanizmlari, qaytish bosqichida esa institutsional va raqamli vositalar ishlaydi [3, 7]. Ayrim bosqich (masalan, qaytgandan keyingi reintegratsiya) rasmiy manbalarda nisbatan kam yoritilgan, bu muallifning guruhlashidan kelib chiqqan xulosadir.

Rahimova tasvirlagan tizimda tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bandlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi vazirlik tizimida faoliyat yuritgan [4]. 2024-yildan boshlab vakolatli organ Vazirlar Mahkamasi huzurida faoliyat yuritmoqda [2]; bu migratsiya siyosatini davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, biroq amaliy natijalarni baholash uchun alohida samaradorlik ko‘rsatkichlari talab qilinadi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi ham alohida e’tiborga loyiq. Xorijga tashkiliy yollash funksiyalarining xususiy agentliklarga o‘tkazilishi [7] hamda o‘quv va moslashuv markazlarining davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilishi [3] davlat zimmasidagi bevosita vazifalarni qisqartiradi, ammo litsenziyalash, nazorat va himoya mexanizmlarining ahamiyatini oshiradi. Bu holat migrantlarni aldov va noqonuniy yollashdan himoya qilish uchun Agentlikning nazorat vakolatlari amalda ishlashini talab qiladi.

Tahlil ayrim cheklovlarni ko‘rsatadi. Birinchidan, mexanizmlarning katta qismi Prezident farmoni va qarorlariga tayanadi, holbuki sohani tartibga soluvchi alohida qonun zarurligi ilmiy adabiyotda asoslangan [1]. Ikkinchidan, migrantlar ijtimoiy himoyasi xalqaro kelishuvlar bazasi kengayishiga bog‘liq [5, 6]. Uchinchidan, statistika yig‘ish va ma’lumotlar tahlili tizimini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan [1], Agentlik esa yagona bazani yuritishda faqat ishtirok etadi [3]. To‘rtinchidan, Agentlik faoliyati tashqi migratsiya bilan cheklanmay, ichki mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlashga ham xizmat qilishi belgilandi [8]; bu qaytgan migrantlarni ichki bandlik tizimi bilan bog‘lashni talab qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagilar taklif etiladi:

1) Migratsiya sohasidagi tartiblarni yanada aniq va tushunarli qilish uchun alohida qonun hamda uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish. Bu davlat organlari, xususiy agentliklar va migrantlarning vazifalarini aniq belgilashga yordam beradi.

2) Migrantlar uchun yagona raqamli axborot tizimini takomillashtirish. Unda xorijdagi ish o‘rinlari, ish beruvchilar, xususiy bandlik agentliklari, hujjatlarni rasmiylashtirish va migrantlarning huquqlari haqida ishonchli ma’lumotlar bir joyda berilishi maqsadga muvofiq.

3) Xorijdan qaytgan migrantlarning tajribasi va malakasidan samarali foydalanish. Ularning kasbiy ko‘nikmalarini ichki mehnat bozoridagi bo‘sh ish o‘rinlari bilan bog‘lash, zarur hollarda qayta tayyorlash va ishga joylashishiga ko‘maklashish kerak.

O‘zbekistonda migratsiyani davlat tomonidan boshqarish tizimi institutsional, huquqiy-me’yoriy, moliyaviy, kadrlar tayyorlash, himoya va xalqaro hamkorlik hamda raqamli mexanizmlar majmuasi sifatida shakllandi. Uning samaradorligini oshirish uchun sohani qonun darajasida tartibga solish, ma’lumotlar bazasini yagonalashtirish, xalqaro kelishuvlarni kengaytirish va qaytgan migrantlarni ichki bandlik bilan bog‘lash zarur. Keyingi tadqiqotlar uchun 2024-yildan keyingi islohotlar natijalarini statistik ma’lumotlar asosida baholash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Isakulov, S. N. (2021). Problems and opportunities for effective regulation of labor migration in the Republic of Uzbekistan. Population, 24(4), 161–174. https://doi.org/10.19181/population.2021.24.4.13

2. President of the Republic of Uzbekistan. (2024, October 17). On priority measures to reform the migration management system (Decree No. PF-162). International Labour Organization, NATLEX. https://natlex.ilo.org/dyn/natlex2/natlex2/files//118015/UZB-118015.pdf

3. Migration Agency under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2026, February 12). About the Agency. https://gov.uz/en/migration/pages/about

4. Rahimova, M. A. (2020). Legal regulation of labour migration: Practice of the Republic of Uzbekistan. Nauka. Kultura. Obshchestvo, 26(1), 47–55. https://doi.org/10.38085/2308829x-2020-1-47-55

5. Mamatkhanov, A. A. (2020). Regulating labour migration in the Republic of Uzbekistan. Vestnik of the Plekhanov Russian University of Economics, 17(4), 113–128. https://doi.org/10.21686/2413-2829-2020-4-113-128

6. Imomova, N. (2024). Specific characteristics of regulating labor migration in our society. News of the NUUz, 1(1.1.1), 96–100. https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.1.1.589

7. Interfax. (2024, October 25). Uzbek president establishes migration agency to protect rights of compatriots working abroad. https://interfax.com/newsroom/top-stories/107075.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ УЗБЕКИСТАНА

Шермухамедов Акмал Комилжонович
Ташкентский государственный экономический университет
кафедра инновационного менеджмента
PhD, старший преподаватель

Ключевым шагом на пути модернизации системы стало коренное изменение ее архитектуры. В конце 2024 года в соответствии с Указом Президента № УП-162 Агентство внешней трудовой миграции было ликвидировано. Вместо него образовано качественно новое Агентство миграции при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Этот шаг позволил поднять статус ведомства и сделать его единым уполномоченным органом, координирующим действия министерств и ведомств в сфере внешней трудовой деятельности. Одновременно с этим был переформатирован специализированный Миграционный фонд, деятельность которого сфокусировалась на адресной финансовой, правовой и социальной поддержке соотечественников, оказавшихся в сложной жизненной ситуации за пределами родины.

Шавкат Мирзиёев «Стратегия нового Узбекистана» (Узбекистан) 2021. Стратегия нового Узбекистана, народное государство, развитие национальной экономики, справедливая социальная политика, духовное развитие, безопасность и внешняя политика, Узбекистан и проблемы современности. 2026 год стал отправной точкой для внедрения концепции Smart-миграции в Узбекистане. Постановление Президента № ПП-14 от января 2026 года запустило комплексную цифровую трансформацию органов внутренних дел в сфере миграции и персонализации.

Среди основных технологических нововведений выделяются:

Интеграция e-government: С февраля 2026 года при выдаче ID-карт граждане автоматически получают бесплатный сертификат электронной цифровой подписи (ЭЦП) и регистрацию в системе электронного правительства.

Умные пункты миграции: Внедрение в пилотных регионах (Ташкент, Самарканд, Фергана и Каракалпакстан) круглосуточных автоматизированных станций самообслуживания на базе искусственного интеллекта.

Биометрический контроль: Запуск платформы верификации «E-Rozilik» с технологией Face-ID, что позволило перевести процессы регистрации граждан по месту жительства и пребывания в полностью цифровой формат, исключающий бюрократические проволочки и фальсификации.

Традиционно основным вектором для узбекистанских работников оставалась Российская Федерация. Однако текущая стратегия государства нацелена на географическую диверсификацию. Заключаются новые соглашения с государствами Европейского союза (Германия,

Великобритания), а также странами Азиатско-Тихоокеанского региона (Япония, Южная Корея). К концу 2025 – началу 2026 года сформирован устойчивый международный заказ на более чем 140 тысяч квалифицированных специалистов из Узбекистана.

Для соответствия жестким зарубежным стандартам в регионах республики (например, в Джизаке и Андижане) развернуты центры до выездной подготовки, где граждане проходят интенсивное языковое обучение и профессиональное тестирование.

Параллельно ведется борьба с теневым сектором. Законодательство 2025–2026 годы существенно усилило контроль за частными агентствами занятости. В 2026 году инициированы жесткие поправки в Уголовный кодекс (введение специализированной статьи 223-1), предусматривающие суровое наказание — вплоть до 15 лет лишения свободы — за организацию каналов нелегальной миграции и торговлю людьми.

Основной задачей совершенствования системы является не просто регулирование оттока, но и эффективная реинтеграция возвращающихся мигрантов. Президент Узбекистана активно внедряет механизмы поддержки «возвращенцев»:

-Выдача субсидий и льготных кредитов для открытия собственного бизнеса на родине.

- Реализация бесплатных медицинских осмотров для вернувшихся граждан и членов их семей.

-Выполнение региональных центров социальных услуг «Инсон», оказывающих помощь детям и семьям, чьи родители временно находятся на заработках за рубежом.

Улучшение системы управления миграционными процессами в Узбекистане эволюционировало от пассивного наблюдения к проактивному, цифровому и правовому регулированию. Создание профильного Агентства при Кабинете Министров, внедрение искусственного интеллекта в миграционные процедуры и курс на диверсификацию трудовых потоков позволяют минимизировать риски нелегальной экспатриации. Данные реформы превращают миграцию из демографического вызова в мощный инструмент экономического развития и притока квалифицированного человеческого капитала в обновляемый Узбекистан.

Литературы:

1. Шавкат Мирзиёев «Стратегия нового Узбекистана» (Узбекистан) 2021. Стратегия нового Узбекистана, народного государства, развития национальной экономики, справедливой социальной политики, духовного развития, безопасности и внешней политики, Узбекистана и универсальных проблем.

2. Повышение привлекательности дивидендной политики в компаниях Узбекистана А Шермухамедов Muhandislik va iqtisodiyot 4 (5)

3. O‘zbekiston kompaniyalarida dividend siyosati jozibadorligini oshirish sa komiljonovich yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 5 (5), 16-20

4. I ncreasing the attractiveness of dividend sa Komiljonovich econoscitech integration 6 (6), 446-450

5. D igital development of dividend policy in joint-stock companies in the republic of Uzbekistan sa Komiljonovich
6. American Journal of Business Management, Economics and Banking 3 (2), 85-90

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В УСЛОВИЯХ УРБАНИЗАЦИИ И УРОКИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

PhD, ***Шермухамедов Акмал Комилжонович***
Ташкентский государственный экономический университет
Отениязова Улсанем Улугбек кизи
Ташкентский государственный экономический университет

Урбанизация делает города главными центрами притяжения населения, а миграция, внутренняя и внешняя, становится одним из самых заметных процессов, которые меняют их социальный и экономический облик [1]. Для Узбекистана вопрос о том, как управлять миграционными потоками, приобретает особое значение в связи с задачами, которые определены Стратегией «Узбекистан 2030» [4]. Крупные города страны привлекают и жителей других регионов, и трудовых мигрантов из других государств, а значит, правильно выстроенное управление напрямую влияет на устойчивость городского развития и на качество жизни людей. Цель тезисов состоит в том, чтобы на основе работ исследователей выделить причины, которые направляют мигрантов в города, показать типичные трудности их приема и предложить направления совершенствования управления, полезные для условий нашей страны.

Причины, по которым люди выбирают конкретный город, исследователи делят на несколько групп. Главную роль играют экономические факторы. Города предлагают больше рабочих мест, более высокий уровень заработной платы и лучшие возможности для открытия собственного дела, поэтому в них едут и жители сельских районов, и приезжие из других стран [1]. Не менее важны социальные факторы. Развитая социальная инфраструктура обеспечивает доступ к образованию, здравоохранению и другим услугам, что делает город привлекательным для семей. Политическая стабильность и уровень безопасности тоже влияют на выбор, а плохая экологическая обстановка и угроза природных катастроф могут, напротив, удерживать людей от переезда [1]. Отдельно стоит сказать о культурных и исторических связях между регионами и о наличии диаспор. Земляки и родственники, которые уже живут в городе, облегчают первые шаги на новом месте, и это учитывается мигрантами при выборе [1]. К этому добавляются географическое положение, климатические условия, степень освоенности территории и развитость транспортных и информационных связей [2]. Понимание этих причин важно для практики, потому что управлять потоком можно только тогда, когда известно, чем он вызван.

Прием и интеграция мигрантов в крупных городах сопровождаются рядом трудностей. Прежде всего это нехватка жилья и перегрузка инфраструктуры. При высоком спросе на недвижимость мигранты нередко живут тесно и в плохих условиях, что создает социальное напряжение. Приток населения увеличивает нагрузку на здравоохранение, образование и социальную защиту, и этим службам требуются дополнительные ресурсы [1]. На рынке труда приезжие сталкиваются с дискриминацией, языковыми и культурными барьерами. Вследствие этого часть из них оказывается в теневом секторе, где действуют недобросовестные посредники. Как показывают российские авторы, такие схемы возникают тогда, когда официальные службы работают неэффективно, правила для иностранных работников слабы, а информации о правах и обязанностях работников и работодателей не хватает [2]. Теневая занятость снижает прозрачность использования рабочей силы и повышает риск коррупции [2]. Отсутствие языковых знаний и социальных связей ведет к изоляции и маргинализации. Нелегальная миграция, как отмечают исследователи, создает потенциальные риски для криминальной обстановки, но и сами мигранты нередко становятся жертвами преступлений или недобросовестных работодателей [1, 2].

Показателен европейский опыт. Политика мультикультурализма предполагала сохранение культурной самобытности разных общин внутри единого общества, однако на практике во многих странах она привела к появлению замкнутых районов компактного проживания мигрантов, обособленных от коренного населения [2]. Авторы считают, что причина кроется в отсутствии двусторонности. Интеграция удается только тогда, когда мигранты хотят стать частью общества, а само общество заинтересовано в том, чтобы принять их [2]. Отсюда следует, что одних программ поддержки недостаточно и работать необходимо с обеими сторонами.

Не менее важна правовая и институциональная сторона. Анализ российской системы управления показывает, что значительная часть отношений в миграционной сфере регулируется подзаконными актами, а права иностранных работников закреплены недостаточно подробно. Для их детального закрепления предлагается выделить отдельный раздел в Трудовом кодексе или принять специальный закон [3]. Другая проблема связана с разделением полномочий. Когда разработка миграционной политики отнесена к одному ведомству, а трудовая миграция к другому, управление распадается на части, и миграция начинает рассматриваться преимущественно через призму правоохранительной деятельности [3]. Исследователь считает, что эффективнее было бы сформировать единый федеральный орган, который объединит разработку политики, координацию ведомств и социальное и экономическое управление миграцией. Кроме того, предлагается принять самостоятельную Стратегию миграционной политики, чтобы устранить декларативность концепций и определить место миграционной политики среди других направлений

государственной политики [3]. Автор подчеркивает и перевес контрольных мер при недостаточном внимании к интеграции мигрантов в принимающее общество [3].

Для решения перечисленных проблем исследователи называют несколько направлений. Первое связано с созданием условий для занятости. Местные власти могут организовывать программы профессиональной подготовки и переподготовки мигрантов и поддерживать малый и средний бизнес [1]. Второе направление касается развития социальной инфраструктуры, то есть доступности жилья, здравоохранения, образования и социальной защиты, что помогает интеграции и снижает риск изоляции [1]. Третье состоит в продвижении межкультурного диалога и терпимости через мероприятия, которые знакомят жителей с культурой и традициями мигрантов и помогают преодолевать стереотипы [1]. Четвертое предполагает сотрудничество с диаспорами и сообществами мигрантов, чтобы лучше понимать их нужды и вовлекать их в принятие решений, например через консультации и общественные слушания [1]. Наконец, необходимы регулярный мониторинг и оценка эффективности принимаемых стратегий, чтобы вовремя вносить поправки, а также обмен опытом с международными партнерами [1]. Отдельным условием успеха называют выведение основной массы нелегальных мигрантов в правовое поле. Оно повышает прозрачность использования рабочей силы, снижает коррупцию в сфере миграции, создает основу для адаптации мигрантов и благоприятно сказывается на межнациональных отношениях. Не менее важны повышение качества жизни легальных мигрантов и защита их социальных прав [2].

Исследование носит качественный характер. Материалом послужили три научные статьи российских авторов, опубликованные в 2022 и 2025 годах, а также положения Стратегии «Узбекистан 2030». Публикации изучены методом анализа содержания, после чего их положения сгруппированы по четырем блокам, а именно по факторам притяжения мигрантов в города, по трудностям приема и интеграции, по правовым и институциональным недостаткам управления и по предлагаемым стратегиям. Затем проведено сопоставление выводов разных авторов и их обобщение с учетом условий Узбекистана. Такой подход позволяет выявить совпадающие и дополняющие друг друга положения, однако он не заменяет статистического анализа, который остается задачей дальнейших исследований.

Сопоставление работ показывает, что их выводы дополняют друг друга. Исследование Четверева и Мартышкина описывает город и меры на местном уровне, работа Крикливой и Слинько делает акцент на легализации мигрантов и двусторонности интеграции, а статья Гулиной раскрывает правовую и институциональную основу управления [1, 2, 3].

Российские авторы справедливо замечают, что готовые модели нельзя переносить механически, и свою систему нужно строить с учетом

особенностей страны [2]. Это в полной мере относится и к Узбекистану. Обобщение рассмотренных положений позволяет сформулировать несколько выводов. Первый касается целостности подхода. Внутренняя и внешняя миграция тесно связаны, поскольку и жители регионов, и иностранные работники попадают в одни и те же города и пользуются тем же жильем, школами и больницами. Поэтому управление ими целесообразно выстраивать согласованно, а не отдельными ведомственными решениями. Второй вывод связан с акцентом политики. Контроль и учет необходимы, но результат они дают лишь вместе с мерами по обучению, трудоустройству, языковой и социальной адаптации. Третий вывод касается роли городских властей. Именно на уровне города возникают вопросы жилья, занятости и доступа к услугам, и именно здесь удобнее всего работать с общинами и вовлекать мигрантов в обсуждение решений. Четвертый вывод связан с данными. Без надежного учета и регулярного мониторинга невозможно ни оценить нагрузку на инфраструктуру, ни понять, какие меры действительно работают.

Литературы:

1. Четверев О. В., Мартышкин С. В. Стратегии управления миграционными процессами в условиях урбанизации. Вестник науки. 2025. № 4 (85). Т. 3. Страницы с 554 по 559.

2. Крикливая О. В., Слинько А. А. Государственное управление миграционными процессами в регионе и проблемы культурной адаптации. Регион (системы, экономика, управление). 2022. № 2 (57). Страницы с 89 по 93.

3. Гулина Д. С. Социально правовые основы управления миграционными процессами в современной России. Социология. 2022. № 2. Страницы с 250 по 256.

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года «О Стратегии Узбекистан 2030».

O‘ZBEKISTONDA ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASINI FAOLLASHTIRISH VA HUDUDLARARO BANDLIK NOMUTANOSIBLIGINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Phd, ***Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
xuvaydullayevairoda@gmail.com

Globallashuv kapital, texnologiya va ishchi kuchining harakatchanligini kuchaytirib, mehnat migratsiyasini jahon mehnat bozorining ajralmas qismiga aylantirdi: dunyoda xalqaro migrantlar soni 281 million kishidan oshgan [1], 2024-yilda xalqaro pul o‘tkazmalari qariyb 900 mlrd dollarni tashkil etgan [2]. O‘zbekiston ishchi kuchining yirik yetkazib beruvchilaridan biriga aylandi: chet elda taxminan 2,5 million fuqaro mehnat qilmoqda, pul o‘tkazmalari 2023-yilda 11,4 mlrd dollarni [3], 2025-yilda 18,9 mlrd dollarni tashkil etdi [4, 5]. Shu bilan birga, mamlakat ichida hududlararo ko‘chish cheklangan, ichki va tashqi migratsiya esa tadqiqotlarda ko‘pincha alohida o‘rganiladi.

Ilmiy muammo – pul o‘tkazmalari hisobiga erishilayotgan qisqa muddatli samarani barqaror inson kapitali va hududiy rivojlanishga aylantiruvchi mexanizmlarning yetarli shakllanmaganligi. *Maqsad* – ichki va tashqi migratsiyani yagona tizim sifatida tahlil qilib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [6] vazifalariga mos boshqaruv yechimlarini asoslash. *Gipoteza*: ichki mobillikning past darajasi va ish haqi tafovuti tashqi migratsiya bosimini oshiradi, uning samarasi esa yo‘nalishlar diversifikatsiyasi va kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘liq.


Nazariy asos sifatida Ravenshteyn qonunlari [7], Liyning itaruvchi va tortuvchi omillar nazariyasi [8], Xarris–Todaro modeli [9], migratsiyaning yangi iqtisodiyoti (NELM) [10] va xalqaro migratsiya nazariyalari sintezi [11] qo‘llanildi. Xarris–Todaro modeliga ko‘ra, ko‘chish qarori kutilayotgan ish haqi farqiga bog‘liq [9]:

$$d = \pi \cdot w_u - w_r, \quad \pi = E_u / L_u \qquad (1)$$

bunda w_u – ko‘chib boriladigan joy (shahar yoki xorijiy davlat) ish haqi, w_r – joriy yashash joyidagi ish haqi, π – ish topish ehtimoli (E_u – bandlar, L_u – ishchi kuchi); $d > 0$ bo‘lganda migratsiya davom etadi. Empirik baza: Markaziy bank [4], Statistika agentligi [12] ma’lumotlari va rasmiy statistikaga asoslangan nashrlar [3, 5] (2023–2025); qiyosiy va dinamik tahlil, grafik modellashtirish, tizimli yondashuv qo‘llanildi. *Cheklov*: ichki migratsiya faqat ro‘yxatga olingan ko‘chishlar bo‘yicha o‘lchanadi, chet eldagi migrantlar soni esa baholashga asoslanadi.


Pul o‘tkazmalari 2023-yildagi 11,4 mlrd dollardan 2024-yilda 14,8 mlrd dollarga (+30 %) [13], 2025-yilda 18,9 mlrd dollarga (≈ +28 %) oshdi [4] (1-rasm, a). 2024-yilda ularning 77 foizi Rossiyadan kelgan [13], 2025-yil yanvar–oktyabrda bu ulush taxminan 78 foizni tashkil etdi [5]. Geografiya kengaymoqda: 2024-yilda Buyuk Britaniyadan o‘tkazmalar 83 %, Janubiy Koreyadan 56 %, AQShdan 35 %, Yevropa Ittifoqidan 32 % o‘sdi (1-rasm, b); 14,8 mlrd dollarning 5,9 mlrdi (+51 %) P2P kartalar orqali o‘tgan [13]. Chet eldagi migrantlar (≈2,5 mln) [3] doimiy aholining (38,2 mln) [12] taxminan 6,5 foiziga teng, 2025-yilda o‘tkazmalar esa YaIMning taxminan 13 foiziga yaqinlashgan (muallif hisobi, YaIM ≈ 145 mlrd dollar).

Ichki migratsiya hajmi kichik va fazoviy jihatdan notekis. 2024-yil I yarim yilligida hududlararo ko‘chganlar 116,6 ming kishi bo‘lib, shundan 87,0 mingi shaharlarga, 44,6 ming kishi (≈38 %) Toshkent shahriga yo‘nalgan [14]. 2025-yilda ro‘yxatga olingan 252,8 ming ko‘chishning taxminan 48 foizi Toshkent shahri va viloyatiga to‘g‘ri kelgan [15]. Jahon banki tadqiqotiga ko‘ra, urbanizatsiya darajasi 2009-yildan beri deyarli o‘zgarmagan, asosiy to‘siqlar – ro‘yxatga olish (propiska) tartibi va shaharda yashash narxining yuqoriligi; 2018-yilda Toshkentda o‘rtacha ish haqi qishloq hududlaridagidan 88 % yuqori bo‘lgan [16]. Natijalar Xarris–Todaro mantiqiga mos keladi: ichki ko‘chish qimmat va cheklangan bo‘lgan sharoitda xalqaro ish haqi tafovuti (1-formulada $d > 0$) tashqi migratsiyani samarali muqobilga aylantiradi. Bu gipotezaning dastlabki tasdig‘i bo‘lib, sababiy bog‘liqlikni aniqlash uchun hududiy panel ma’lumotlari bilan ekonometrik tahlil zarur.



1-rasm. O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari: a) hajmi, 2023–2025; b) 2024-yilda manbalar bo‘yicha o‘sish [13, 4].

NELM nuqtai nazaridan [10] migratsiya xonadonlar uchun xavfni diversifikatsiya qilish strategiyasi, pul o‘tkazmalari esa kredit va sug‘urta bozorlari kamchiliklarining o‘rnini to‘ldiruvchi manbadir. Biroq Rossiya ulushining yuqoriligi tashqi shoklar oldida zaiflikni oshiradi [17]: 2025-yilda uyushgan dasturlar orqali Rossiyaga yuborilganlar taxminan 106 ming kishi bo‘lib [18], rasmiy kanallar ko‘lami hali cheklangan.



2-rasm. Ichki va tashqi migratsiyani yaxlit boshqarishning konseptual modeli. Manba: muallif ishlanmasi.

Shu asosda ichki va tashqi migratsiyani yagona tizim sifatida koʻrishni nazarda tutuvchi konseptual model taklif etiladi (2-rasm): omillar migratsiya oqimlarini shakllantiradi, oqimlar iqtisodiy samara, xavflar va inson kapitali oʻzgarishiga olib keladi, boshqaruv vositalari esa zanjirning barcha boʻgʻinlariga ta’sir qiladi.

1-jadval

Muammo - yechim matritsasi

Muammo	Taklif etilayotgan yechim	Monitoring indikatori
Rossiyaga yuqori bogʻliqlik (≈77–78 %)	Yoʻnalishlarni diversifikatsiya qilish, ikki tomonlama bitimlar, uyushgan yuborishni kengaytirish	Rossiya ulushi; YeI, Koreya, Buyuk Britaniya ulushi
Malaka, til va sertifikatsiya yetishmasligi	Xorijiy talabga mos kasbiy va til tayyorgarligi, malakani xalqaro tan olish	Rasmiy yuborilganlar ulushi, oʻrtacha ish haqi
Oʻtkazmalarning asosan iste’molga sarflanishi	Moliyaviy savodxonlik, jamgʻarma va mikrobiznes mahsulotlari, P2P kanallarini rasmiylashtirish	Investitsiyaga yoʻnaltirilgan ulush
Past ichki mobillik, Toshkentda toʻplanish	Hududlarda ish oʻrinlari (klasterlar), arzon ijara uy-joy, roʻyxatga olishni soddalashtirish	Ichki koʻchish koeffitsienti; hududlararo ish haqi tafovuti
Huquqiy himoya va qaytganlar reintegratsiyasi	Konsullik va ijtimoiy himoya, ijtimoiy sugʻurta bitimlari, qaytganlar uchun qayta tayyorlash va tadbirkorlik dasturlari	Qaytgan migrantlar bandligi

Inson resurslarini boshqarish nuqtai nazaridan asosiy vazifa migratsiyani “ishchi kuchi eksporti”dan malakali kadrlar aylanmasiga (brain circulation) oʻtkazishdir. Ichki migratsiyada roʻyxatga olish cheklovlarini yumshatish uy-joy taklifini oshirish bilan birga amalga oshirilmasa, Toshkentdagi bosim kuchayishi mumkin. Taklif etilayotgan yechimlar 1-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot koʻrsatdiki, tashqi mehnat migratsiyasi tez oʻsib, makroiqtisodiy barqarorlikning muhim manbaiga aylangan, ammo oʻtkazmalarning bir yoʻnalishga bogʻliqligi xavfni oshirmoqda; ichki migratsiya esa past va Toshkentga yoʻnalgan. Ilmiy yangilik – ichki va tashqi migratsiyani yagona konseptual modelda birlashtirish va muammo–yechim–indikator matritsasini shakllantirish. Amaliy ahamiyati – diversifikatsiya, kasbiy tayyorgarlik, oʻtkazmalarni investitsiyalash, ichki mobillikni ragʻbatlantirish hamda qaytganlar reintegratsiyasi choralarini birgalikda amalga oshirish. Keyingi tadqiqotlar hududiy panel ma’lumotlari asosidagi ekonometrik baholashga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. – Geneva: IOM, 2024.

2. World Bank. Migration and Development Brief 40. – Washington, DC: World Bank Group, 2024.

3. Uzbek migrants contributing more to economy than gold exports // Kun.uz, 19.12.2024. – kun.uz/en/news/2024/12/19

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xalqaro migratsiya va pul o‘tkazmalari sharhi (2020–2025). – Toshkent: Markaziy bank, 2026. – cbu.uz

5. Remittances to Uzbekistan exceed $18.9 billion, tripling in five years // Kun.uz, 17.03.2026 (Markaziy bank tahliliga asosan). – kun.uz/en/news/2026/03/17

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

7. Ravenstein E.G. The laws of migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.

8. Lee E.S. A theory of migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.

SHAHARLARDA DEMOGRAFIK O‘SISH SHAROITIDA AVTOBUSLAR UCHUN ALOHIDA YO‘LAKLAR TASHKIL ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Pardaboyev Navro‘z Toshpulot o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi

Hozirgi sharoitda demografik o‘sish, urbanizatsiya va aholining hududiy harakatchanligi shahar transport tizimini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, yangi turar joy massivlarining shakllanishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish markazlarining kengayishi natijasida kundalik yo‘lovchi qatnovlarining hajmi va yo‘nalishlari o‘zgarib bormoqda. Bunday jarayonlar, ayniqsa, yirik shaharlarda transport infratuzilmasiga tushadigan yuklamaning ortishi, tirbandliklarning kuchayishi va jamoat transporti harakatining sekinlashishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi O‘zbekistonda aholi soni va shahar aholisi ulushining o‘sib borayotgani bilan ham izohlanadi. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasida 2026-yil boshida mamlakat doimiy aholisi 38,24 million kishi, shahar aholisi esa 19,47 million kishi sifatida qayd etilgan. Bu holat shahar transportini rejalashtirishda demografik o‘zgarishlar, aholi joylashuvi va kundalik qatnovlarga bo‘lgan talabni kompleks hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Transport siyosatida ham ushbu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-dekabrdagi PQ–368-son “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida Toshkent shahri transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan. Jumladan, aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini 2030-yilga kelib 60 foizga, avtobuslarning o‘rtacha harakat tezligini esa soatiga 24 kilometrga yetkazish nazarda tutilgan. Ushbu maqsadlar jamoat transportining raqobatbardoshligini oshirish va transport oqimlarini samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Demografik o‘zgarishlarni baholashda Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasidagi doimiy aholi soni hamda shahar aholisi soni ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Transport infratuzilmasining samaradorligi esa avtobuslarning o‘rtacha harakat tezligi, qatnov muntazamligi, yo‘lovchilarning safar vaqti va bir soatda tashiladigan yo‘lovchilar soni kabi indikatorlar orqali izohlandi.

Tadqiqotning asosiy yondashuvi shundan iboratki, alohida avtobus yo‘laklarini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlar faqat demografik o‘sish sur’atlariga qarab emas, balki aniq yo‘nalishlarda shakllanadigan real yo‘lovchilar oqimi, tirbandlik darajasi, avtobuslarning harakat sharoiti va infratuzilmaviy imkoniyatlar asosida qabul qilinishi lozim.

Demografik o‘sish shahar transportiga bo‘lgan talabning uzoq muddatli o‘zgarishini belgilovchi omillardan biridir. Aholi sonining ko‘payishi bilan birga shahar hududlarida ish joylari, ta’lim muassasalari, savdo markazlari va xizmat ko‘rsatish obyektlarining hududiy joylashuvi ham yo‘lovchi qatnovlarining tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli transport tizimini rivojlantirishda aholi soni bilan bir qatorda, aholining qayerda yashashi va kun davomida qaysi yo‘nalishlarda harakatlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2020–2026-yillarda O‘zbekistonning doimiy aholisi 33,9 million kishidan 38,2 million kishiga, shahar aholisi esa 17,1 million kishidan 19,5 million kishiga yetgan. Mazkur davrda jami aholi soni qariyb 12,8 foizga, shahar aholisi soni esa qariyb 13,6 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar shahar aholisi sonining o‘sishi umumiy demografik o‘sishdan biroz yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi va shahar aholisi sonining dinamikasi, yil boshiga

Yil	Doimiy aholi soni, ming kishi	Shahar aholisi, ming kishi	Shahar aholisining jami aholidagi ulushi, %
2020	33 905,2	17 144,1	50,6
2021	34 558,9	17 510,4	50,7
2022	35 271,3	17 935,7	50,8
2023	36 024,9	18 370,9	51,0
2024	36 799,8	18 771,1	51,0
2025	37 543,2	19 139,4	51,0
2026	38 236,7	19 471,7	50,9

Shahar aholisining jami aholidagi ulushi 2020-yildagi 50,6 foizdan 2023–2025-yillarda qariyb 51 foizga yetgan va 2026-yil boshida 50,9 foizni tashkil etgan. Ushbu dinamikani urbanizatsiyaning barcha jihatlarini to‘liq ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida emas, balki shahar joylarda istiqomat qiluvchi aholi soni va uning ulushidagi o‘zgarish sifatida talqin qilish lozim. Chunki urbanizatsiya jarayonlari aholi soni bilan bir qatorda shahar hududlarining kengayishi, iqtisodiy faoliyatning markazlashuvi va kundalik mehnat qatnovlari bilan ham belgilanadi.

Shahar aholisi sonining ortishi jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyojni

kuchaytirishi mumkin. Biroq ushbu talab barcha hududlarda bir xil shakllanmaydi. Aholi zich joylashgan turar joy massivlari, yirik ta'lim muassasalari, sanoat korxonalari va xizmat ko‘rsatish markazlari o‘rtasidagi qatnovlar muayyan ko‘chalarda transport oqimining keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bois alohida avtobus yo‘laklarini tashkil etishda shahar aholisining umumiy sonidan tashqari, muayyan yo‘nalishlarda shakllanadigan yo‘lovchilar oqimi va tig‘iz soatlardagi harakat intensivligi asosiy mezon sifatida olinishi zarur.

Avtobuslar uchun alohida harakat yo‘laklari jamoat transportini umumiy transport oqimidan qisman ajratish orqali uning harakat sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday yo‘laklar to‘g‘ri rejalashtirilgan taqdirda avtobuslarning tirbandliklarda turib qolishini kamaytirishi, harakat jadvaliga rioya etish darajasini oshirishi va yo‘lovchilar uchun safar vaqtini qisqartirishi mumkin. Natijada jamoat transportining qulayligi va ishonchliligi ortib, aholining shaxsiy avtomobil o‘rniga avtobusdan foydalanishga moyilligi kuchayishi ehtimoli mavjud.

Avtobuslar uchun alohida yo‘laklarni tashkil etish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari:

- Alohida avtobus yo‘laklarini joylashtirishda transport oqimlarini muntazam o‘rganish tizimini takomillashtirish zarur. Yo‘lovchilar soni yuqori, avtobuslar tezligi past va qatnov jadvalidan chetlanish ko‘p kuzatiladigan ko‘chalar ustuvor yo‘nalishlar sifatida tanlanishi maqsadga muvofiq. Bunda yo‘lovchilar oqimi ertalabki, kunduzgi va kechki vaqtlar kesimida alohida tahlil qilinishi kerak.
- Alohida yo‘laklar avtobus yo‘nalishlari, bekatlar, metro stansiyalari va yirik transport almashuv tugunlari bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Yo‘laklarning ayrim qismlarda uzilib qolishi yoki chorrahalarda umumiy oqim bilan kesishishi kutilayotgan samarani kamaytirishi mumkin. Shu sababli yo‘laklarni alohida qismlar ko‘rinishida emas, balki yaxlit transport yo‘nalishining tarkibiy elementi sifatida loyihalash zarur.
- Raqamli nazorat vositalari va intellektual transport tizimlaridan foydalanishni kengaytirish lozim. Videokuzatuv kameralari, transport oqimini avtomatik aniqlash vositalari va avtobuslarning real vaqt rejimidagi harakatini kuzatish tizimlari alohida yo‘laklardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga yordam beradi. Shuningdek, chorrahalarda avtobuslar uchun svetofor ustuvorligini joriy etish imkoniyatlarini transport xavfsizligi va umumiy oqimga ta'sirini hisobga olgan holda baholash kerak.

Avtobuslar uchun alohida harakat yo‘laklarini tashkil etish jamoat transportining tezligi va muntazamligini yaxshilash, yo‘lovchilar vaqtini tejash hamda mavjud yo‘l infratuzilmasidan samarali foydalanish imkonini berishi mumkin.. Shu asosda alohida avtobus yo‘laklarini tashkil etish shahar transport siyosatining demografik prognozlar, iqtisodiy samaradorlik va barqaror harakatlanish tamoyillariga asoslangan tarkibiy yo‘nalishiga aylanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-dekabrdagi PQ–368-son “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-7883405

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT — “Doimiy aholi soni (jami)” statistik ma’lumotlari. https://siat.stat.uz/data/2441/

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT — “Doimiy aholi soni (shahar)” statistik ma’lumotlari. https://siat.stat.uz/data/248/

4. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.

5. Ballou, R. H. Business Logistics/Supply Chain Management. Pearson Education, 2004.

RAQAMLI VALYUTA (CBDC) SHAROITIDA MIGRATSION PUL O‘TKAZMALARINING TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Zokirova Diyoraxon Iqboljon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy makroiqtisodiy rivojlanish bosqichida tashqi mehnat migratsiyasi va uning natijasida mamlakatga kirib kelayotgan transchegara pul o‘tkazmalari moliya-bank tizimi barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar doirasida ham moliya bozorini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish hamda bank tizimining barqarorligini ta’minlash alohida o‘rin egallaydi [1]. Bugungi kunda xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro pul o‘tkazmalari nafaqat aholining ijtimoiy farovonligini va xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, balki tijorat banklarining xorijiy va milliy valyutadagi qisqa va o‘rta muddatli resurs bazasini shakllantirishda ham bevosita ishtirok etadi. Biroq, tashqi va ichki iqtisodiy tebranishlar, geosiyosiy o‘zgarishlar hamda valyuta kurslarining volatilligi ta’sirida transchegara pul o‘tkazmalari oqimining beqarorlashuvi tijorat banklarining tezkor likvidligiga kutilmagan bosimlarni va risklarni yuzaga keltirmoqda. Bank tizimida vujudga keladigan bunday qisqa muddatli likvidlik tanqisligi (Liquidity Shock) banklarning kreditlash salohiyati va valyuta pozitsiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro va mahalliy moliya amaliyotida keng muhokama qilinayotgan Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC – Central Bank Digital Currency) konseptual va amaliy jihatdan transchegara hisob-kitoblar arxitekturasini tubdan isloh qilish salohiyatiga egadir. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi hamda Xalqaro Hisob-kitoblar Banki ekspertlarining tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, CBDC vositalarini xalqaro pul o‘tkazmalariga tatbiq etish tranzaksiya zanjiridagi vositachilarni kamaytirib, moliyaviy xarajatlarni sezilarli darajada pasaytiradi [2, 3]. Hozirgi an’anaviy transchegara pul o‘tkazmalari tizimlari (SWIFT, xalqaro tezkor pul o‘tkazma tizimlari) orqali kirib kelayotgan mablag‘lar tijorat banklariga tushgandan so‘ng, aksariyat hollarda zudlik bilan naqd pul shaklida

yechib olinadi yoki tranzit hisobraqamlardan chiqib ketadi. Bu esa banklar uchun naqd valyuta va likvidlik buferlarini doimiy ravishda yuqori darajada ushlab turish zaruriyatini tug‘diradi.

Tijorat banklari barqarorligini ta’minlashda transchegara pul oqimlari va ularni qayta ishlash texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Shu bois, an’anaviy o‘tkazmalar hamda raqamli valyuta (CBDC) infratuzilmasining bank likvidligiga ta’sirini qiyosiy baholash dolzarb hisoblanadi.

An’anaviy xalqaro o‘tkazmalar vakillik hisobraqamlari (Nostro/Vostro) va vositachilar (SWIFT, tezkor o‘tkazmalar) orqali murakkab zanjirda amalga oshiriladi. Tranzaksiya muddatining uzoqligi sababli banklar ortiqcha likvidlik buferlarini ushlab turishga majbur bo‘ladi. Qolaversa, migrantlar yuborgan mablag‘larning zudlik bilan naqdlashtirilishi (cash-out effect) depozit bazasini qisqartirib, valyuta hamda likvidlik risklarini (LCR) oshiradi.

Aksincha, Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) arxitekturasida transchegara o‘tkazmalari aqlli shartnomalar orqali real vaqt rejimida amalga oshirilib, vositachilar va tranzaksion xarajatlarni keskin kamaytiradi. CBDC orqali kelib tushadigan mablag‘lar bevosita tijorat banklarining raqamli depozit va hamyonlarida saqlanishi natijasida naqd pulga ehtiyoj pasayadi hamda barqaror resurs bazasi shakllanadi. Bu esa banklarga Net Stable Funding Ratio (NSFR) ko‘rsatkichini optimallashtirish va kutilmagan likvidlik tanqisligining (Liquidity Shock) oldini olish imkonini beradi.

Ushbu ikkala mexanizmning bank likvidligini boshqarish, tranzaksiya operativligi hamda xatarlarni kamaytirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar va parametrlar kesimidagi qiyosiy-analitik tavsifi va ularning tijorat banklari likvidligiga ta’siri quyidagi jadvalda batafsil yoritib berilgan.

1-jadval.

An’anaviy transchegara pul o‘tkazmalari va CBDC mexanizmining tijorat banklari likvidligiga ta’siri solishtirma tahlili

Tahlil ko‘rsatkichlari / Parametrlar	An’anaviy pul o‘tkazmalari (SWIFT, tezkor o‘tkazmalar)	Raqamli valyuta (CBDC) infratuzilmasi	Tijorat banklari likvidligiga ta’siri
Tranzaksiya muddati va tezligi	1 kundan 3 kungacha (sekin)	Real vaqt rejimida (zudlik bilan)	Banklarning kunlik likvidlikni rejalashtirish va boshqarish ancha aniqroq va tezkor bo‘ladi
Tranzaksiya xarajatlari va komissiyalar	Yuqori (o‘rtacha 5-7%)	Minimal (0.5-1% atrofida)	Pul o‘tkazuvchilar va banklar uchun tranzaksion xarajatlar tejaladi, mablag‘lar hajmi ortadi
Mablag‘larning bank tizimidagi shakli	Asosan naqd pul shaklida zudlik bilan yechib olinadi	Raqamli hamyon va raqamli depozit ko‘rinishida saqlanadi	Banklarning depozit bazasi va barqaror resurs manbalari mustahkamlanadi
Likvidlik xavfi (Liquidity Risk)	Yuqori (kutilmagan pul yechib olishlar tufayli)	Pasaytirilgan va bashorat qilinadigan	Basel III standartlari bo‘yicha LCR va NSFR ko‘rsatkichlari yaxshilanadi
Valyuta va konvertatsiya shakli	Tranzit hisobraqamlar orqali valyuta tebranishiga uchraydi	Avtomatlashtirilgan raqamli smart-kontraktlar orqali	Valyuta va ochiq pozitsiya risklari minimal darajaga tushiriladi

Jadval ma’lumotlarining empirik va nazariy-metodologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) arxitekturasini transchegara hisob-kitoblariga integratsiya qilish tijorat banklarining likvidlik barqarorligini ta’minlashda tizimli afzalliklarni namoyon etadi [4].

Birinchidan, CBDC infratuzilmasi ko‘p pog‘onali vakillik munosabatlarini (correspondent banking) optimallashtirish va tranzaksion zanjirni qisqartirish orqali operatsion xarajatlarni minimal darajaga tushiradi hamda transchegara moliya oqimlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamli shaklda bank tizimiga kirib kelishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, migrantlar tomonidan amalga oshiriladigan pul o‘tkazmalarining tijorat banklarining raqamli depozit va jamg‘arma mahsulotlariga avtomatik integratsiyalashuvi natijasida moliya tizimidagi an’anaviy “naqdlashtirish samarasi” (cash-out effect) neytrallashadi, bu esa banklarning uzoq muddatli va barqaror resurs bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, transchegara tranzaksiyalarning real vaqt rejimida (RTGS tamoyilida) va yuqori shaffoflik darajasida amalga oshirilishi tijorat banklariga qisqa muddatli likvidlik pozitsiyalarini modellashtirish hamda naqd pul oqimlarini yuqori aniqlikda prognoz qilish imkonini beradi. Natijada, banklarning Basel III xalqaro prudensial standartlari doirasidagi Likvidlikni qoplash mezonlari (LCR) va Barqaror sof moliyalashtirish mezonlari (NSFR) ko‘rsatkichlari sezilarli darajada optimallashadi [5].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, raqamli valyuta (CBDC) infratuzilmasini takomillashtirish orqali migratsion pul o‘tkazmalarini milliy bank tizimiga institutsional jalb etish tijorat banklarining likvidlik risklarini minimallashtirish va tizimli barqarorligini oshirishning strategik instrumenti hisoblanadi. Mazkur ilmiy gipoteza va tahliliy natijalarga tayanib, quyidagi amaliy-metodologik takliflar ilgari suriladi:

1. Institutsional va texnologik integratsiyani ta’minlash: Asosiy mehnat migratsiyasi geografiyasiga kiruvchi xorijiy mamlakatlar markaziy banklari bilan hamkorlikda ko‘p tomonlama raqamli valyuta platformalari (mCBDC Bridge) doirasida transchegara kliring va hisob-kitob infratuzilmasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

2. Resurs bazasini stimullashtirish va mahsulotlar diversifikatsiyasi: Tijorat banklari tomonidan CBDC formatida kelib tushadigan migratsion mablag‘larni maqsadli raqamli depozitlarga konvertatsiya qilishni rag‘batlantiruvchi, moslashuvchan va imtiyozli foiz stavkalariga ega intellektual jamg‘arma mahsulotlarini yaratish.

3. Prudensial va risk-menejment tizimini modernizatsiya qilish: Tijorat banklarida raqamli valyuta oqimlarining dinamik tebranish xususiyatlarini inobatga olgan holda, kutilmagan likvidlik tanqisligi (Liquidity Shock) va valyuta pozitsiyasi xatarlarini baholash bo‘yicha ichki stress-test modellashtirish amaliyotini takomillashtirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.

2. Bank for International Settlements (BIS). (2023). G20 TechSprint on CBDC for cross-border payments. BIS Report.

2. International Monetary Fund (IMF). (2022). Central Bank Digital Currencies and the Future of Cross-Border Payments. IMF Staff Discussion Note.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Babadjanova Inobat Abdusharipovna
Olmazor tumani 15-umumtalim maktabi
texnologiya o‘qituvchisi

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion rivojlanishni ta’minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda loyihalarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Loyihalar tashkilotlarning strategik maqsadlarini amaliy natijalarga aylantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tashkiliy o‘zgarishlarni amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, loyihalarning muvaffaqiyati faqat moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganligiga emas, balki ularni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va yakuniy natijalarni baholash mexanizmlariga ham bog‘liq.

O‘zbekistonda loyihalarni boshqarish tizimini takomillashtirishning normativ-huquqiy asoslaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi PF-5120-son “O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni hisoblanadi. Mazkur hujjatda loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish, monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan.

Loyiha samaradorligini baholashda vaqt va xarajat ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, bajarilgan ishlarning qiymati va sifatini ham hisobga olish lozim. Project Management Institute tomonidan ishlab chiqilgan qiymatni o‘zlashtirish metodologiyasi rejalashtirilgan ishlar qiymati, amalda bajarilgan ishlarning qiymati va haqiqiy xarajatlarni o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Mazkur yondashuv loyihaning joriy holatini aniqlash, xarajatlar bo‘yicha chetlanishlarni baholash va yakuniy natijalarni prognozlashda muhim metodik vosita hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Integratsiyalashgan raqamli boshqaruv tizimini joriy etish. Loyihaning maqsadlari, xarajatlari, bajarilish muddatlari va mas’ul ijrochilari haqidagi ma’lumotlarni yagona platformada birlashtirish orqali boshqaruv qarorlarini

tezkor va asoslangan holda qabul qilish mexanizmini takomillashtirish.

➢ Loyihalarni ustuvorlik darajasi bo‘yicha saralash metodikasini ishlab chiqish. Loyihalarni iqtisodiy samaradorlik, strategik ahamiyat, amalga oshirish xarajatlari, risk darajasi va kutilayotgan ijtimoiy natijalar asosida baholash orqali cheklangan resurslarni eng istiqbolli loyihalarga yo‘naltirish.

➢ Loyiha samaradorligini prognozlash mexanizmini takomillashtirish. Rejalashtirilgan va amaldagi xarajatlar, ishlar hajmi hamda bajarilish muddatlari o‘rtasidagi tafovutlarni muntazam tahlil qilish asosida loyihaning yakuniy qiymati va bajarilish muddatini oldindan baholash tizimini shakllantirish.

➢ Risklarni erta aniqlash va boshqarish mexanizmini joriy etish. Har bir loyiha bo‘yicha moliyaviy, tashkiliy, texnologik va kadrlar bilan bog‘liq risklar reyestrini shakllantirish, ularning ehtimoli va ta’sir darajasini baholash hamda profilaktik choralarni mas’ul ijrochilarga biriktirish.

➢ Natijadorlikka asoslangan loyiha boshqaruvini shakllantirish. Loyiha rahbarlari va ijrochilar faoliyatini faqat bajarilgan ishlar hajmi bilan emas, balki belgilangan muddatlarga rioya qilish, xarajatlar intizomi, natijalar sifati va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish darajasi orqali baholash.

Loyihalarni amalga oshirish jarayonida risklarni boshqarish ham alohida ahamiyatga ega. Moliyalashtirishdagi uzilishlar, xarajatlarning kutilmagan oshishi, texnologik nosozliklar va kadrlar bilan bog‘liq muammolar loyihaning yakuniy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli loyiha boshlanishida risklarni aniqlash, ularning ehtimoli va ta’sirini baholash, oldini olish choralarini ishlab chiqish hamda mas’ul shaxslarni belgilash talab etiladi. Risklar bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam yangilab borish loyiha barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari (2019–2025-yillar, mlrd so‘m)

Kesim	2021	2022	2023	2024	2025
Turar-joy binolari	29851,0	30184,2	36732,7	40287,9	66948,6
Noturar-joy binolari	50894,5	58225,1	75452,9	91172,9	137745,7
Mashina va uskunalar, jami	113863,9	115040,0	168810,7	241819,0	252263,7
Transport uskunalari	14574,5	10718,7	25608,4	36700,8	26900,8
Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari	5325,6	5199,7	10230,0	7970,3	11340,4
Boshqa mashina va uskunalar	93963,8	99164,6	126694,6	191802,0	209589,5
Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlar resurslari	838,6	783,8	364,5	1196,7	2694,7

2021–2025-yillarda O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, turar-joy binolariga yo‘naltirilgan investitsiyalar 29 851,0mlrd so‘mdan 66 948,6 mlrd so‘mga, noturar-joy binolariga investitsiyalar esa 50 894,5mlrd so‘mdan 137 745,7 mlrd so‘mga oshgan. Mashina va uskunalarga investitsiyalar hajmi 113 863,9 mlrd so‘mdan 252 263,7 mlrd so‘mga yetib, ishlab chiqarish va texnologik infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalar kengayganini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot nuqtayi nazaridan, axborot, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalariga investitsiyalarning 5 325,6 mlrd so‘mdan 11 340,4 mlrd so‘mgacha oshgani alohida ahamiyatga ega. Bu raqamli infratuzilmani rivojlantirish va loyihalarni boshqarish jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish uchun iqtisodiy imkoniyatlar kengayayotganini anglatadi.

Umuman olganda, investitsiyalar hajmining ortishi loyihalarni boshqarish tizimida strategik rejalashtirish, moliyaviy nazorat va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Raqamli monitoring vositalarini joriy etish loyihalarning muddatlari, xarajatlari va yakuniy natijalarini nazorat qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish tizimli rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, risklarni boshqarish va natijalarni kompleks baholashga asoslanadi. Loyiha faoliyatini faqat sarflangan mablag‘lar yoki bajarilgan ishlar hajmi orqali baholash uning haqiqiy iqtisodiy natijadorligini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli vaqt, xarajat, sifat va maqsadli natijalarni o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida tahlil qilish zarur.

Loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi rejalashtirish, raqamli monitoring, prognozlash va tuzatish choralarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishdan iborat. Bunday yondashuv boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, mavjud resurslardan foydalanishdagi samarasizlikni kamaytirish va qarorlar qabul qilishning asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuvning amaliy samarasi muayyan loyihalar misolida ko‘rsatkichlarni hisoblash va natijalarni taqqoslash orqali yanada chuqurroq baholanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi PF-5120-son “O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — https://lex.uz/uz/acts/-3277729.

2. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide). Eighth Edition. — Project Management Institute, 2025. — https://www.pmi.org/standards/pmbok.

3. Project Management Institute. The Standard for Earned Value Management. — Project Management Institute. — https://www.pmi.org/standards/earned-value-management.

4. International Organization for Standardization. ISO 21502:2020. Project, Programme and Portfolio Management — Guidance on Project Management. — Geneva: ISO, 2020. — https://www.iso.org/standard/74947.html.


5. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. — Wiley.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI: ISHGA JOYLASHTIRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

Qudratboyev Ahrorbek Asrorbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Menejment fakulteti
Jahon iqtisodiyoti va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-kurs talabasi
qudratboyevahrorbek@gmail.com

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi bandlikning muhim tarkibiy qismi va oilalar uchun daromadning asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, migratsiyadan olinadigan foyda nafaqat xorijdagi daromadga, balki ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarga ham bog‘liqdir. Ushbu maqolaning maqsadi — Janubiy Koreyaning "Ishga joylashishga ruxsat berish tizimi" (EPS) tajribasiga tayangan holda, tashqi mehnat migratsiyasida ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini belgilash va ushbu modelni O‘zbekiston sharoitiga qanday moslashtirish mumkinligini aniqlashdan iborat.

Xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq yuqori xarajatlar migrantlar zimmasidagi moliyaviy yukni oshiradi va mehnat migratsiyasidan olinadigan sof iqtisodiy foydani kamaytiradi. Bu xarajatlar tarkibiga viza, tibbiy ko‘rik, til bilish darajasini aniqlash testlari, transport va vositachilik to‘lovlari kirishi mumkin; xarajatlar oldindan aniq bo‘lmagan hollarda ishchilar qarzdorlikka botish va ishonchsiz vositachilarga bog‘lanib qolish xavfiga duch keladilar. Ichki migratsiyada ham shunga o‘xshash muammo yuzaga keladi: qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib o‘tgan shaxslar, agar ish va uy-joy bo‘yicha ishonchli ma’lumotga ega bo‘lmasalar, ko‘pincha norasmiy bandlik sohasida qolib ketadilar. Shu sababli, ham ichki, ham tashqi migratsiyani boshqarishning umumiy tamoyili — bu ma’lumot va xarajatlarning shaffofligidir.



1-rasm. Ishchining o‘rtacha yollash xarajati. Manba: Muallif tomonidan [2] asosida tayyorlangan.

Janubiy Koreya EPS tizimini 2004-yilda joriy etgan. Ushbu tizim doirasida xorijlik ishchilarni yollash jarayoni ishchi kuchini yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik, standart mehnat shartnomalari hamda

rasmiy tanlov mexanizmlari orqali tashkil etiladi [1]. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, ishchilar tomonidan qilingan o'rtacha xarajatlar 2002-yildagi eski tizim davrida 3 509 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilga kelib bu ko'rsatkich 927 dollargacha, ya'ni taxminan 74 foizga kamaygan [2]. Muhim jihati shundaki, ushbu raqamlar o'tgan davrga tegishli bo'lib, hozirgi xarajatlarni aks ettirmaydi; shu bois, ularni O'zbekiston uchun tayyor yechim sifatida qabul qilib bo'lmaydi.O'zbekiston uchun taklif. O'zbekiston Janubiy Koreyaning EPS dasturida allaqachon ishtirok etayotgani sababli, ushbu tizimning o'zini yangi g'oya sifatida taklif qilish noto'g'ri bo'ladi. Aniq taklif shundan iboratki, hukumatlararo rasmiy bandlik modelini boshqa mehnat migratsiyasi yo'nalishlariga ham kengaytirish va barcha tegishli xarajatlar ustidan shaffof nazoratni ta'minlash lozim. Shu maqsadda to'rtta chora-tadbir ko'zda tutilgan:

1. Xarajatlarni ochiq e'lon qilish. Viza, tibbiy ko'rik, til bilish darajasini aniqlash testlari, transport va boshqa to'lovlar alohida-alohida ko'rsatilishi shart. Bu Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) "Adolatli yollash bo'yicha umumiy tamoyillar va amaliy ko'rsatmalar"ida [3] belgilangan talablarga mos keladi.


2. Standart mehnat shartnomalari. Ish haqi, ish vaqti, yashash sharoiti, sug'urta va ish beruvchining majburiyatlariga oid tafsilotlar migrantga jo'nab ketishdan oldin tushuntirilishi kerak.

3. Xarajatlarni o'lchash. Migrantning xorijga ketishdan oldin qilgan umumiy xarajatlarini uning xorijda topadigan oylik daromadiga nisbatan hisoblash mumkin. Bu XMT va Jahon banki tomonidan qo'llaniladigan SDG 10.7.1 ko'rsatkichiga mos keladi va vaqt o'tishi bilan xarajatlar dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

4. Vositachilar ustidan nazorat. Litsenziyaga ega agentliklar, tekshiruvdan o'tgan ish beruvchilar va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari yagona axborot tizimiga birlashtirilishi lozim. Ushbu tizim ichki migrantlar uchun ham bo'sh ish o'rinlari haqida ishonchli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin; bu bizning taklifimiz — hali sinovdan o'tkazilmagan yondashuv.

Taqqoslash asosi. Ushbu ishda O'zbekistonning amaldagi tizimi Koreya modeli bilan to'rtta mezon asosida taqqoslanadi: yollash xarajatlari, shartnoma shaffofligi, huquqiy himoya va nazorat mexanizmlari. Koreya modelida tanlov, shartnoma tuzish va ishga yuborish jarayonlari davlat idoralari o'rtasidagi rasmiy kelishuvlarga asoslanadi, bu esa ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi vositachilar sonini qisqartiradi [1]. O'zbekiston uchun asosiy masala — ushbu yondashuvning qaysi jihatlarini saqlab qolish mumkinligi va qayerda mahalliy sharoitlarga moslashtirish talab etilishidir.

Bosqichlar. Taklifni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda mavjud davlatlararo dasturlarning xarajatlar tuzilmasiga oid ma'lumotlar yig'ilib, standartlashtirilgan shaklda e'lon qilinadi hamda SDG 10.7.1 ko'rsatkichi asosida bazaviy daraja belgilanadi. Ikkinchi bosqichda standart shartnoma va litsenziyaga ega agentliklar ro'yxati bir yoki ikkita yangi hududda sinov tariqasida qo'llaniladi. Uchinchi bosqichda natijalar baholanadi va muvaffaqiyatli mexanizmlar boshqa hududlarga hamda zarurat tug'ilganda ichki migratsiya bo'yicha axborot tizimiga tatbiq etiladi.



2-rasm. Taklifni amalga oshirish bosqichlari. Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

Kutilayotgan ta’sir. Iqtisodiy nuqtai nazardan, ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarning kamayishi hisobiga migrant oilalarining sof daromadi oshadi. Ijtimoiy jihatdan esa migrantlar uchun qarzdorlik va noqonuniy vositachilarga qaramlik xavfi kamayadi. Institutsional jihatdan davlat idoralari xarajatlar va shikoyatlar bo‘yicha ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladi, bu esa dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta’sirning aniq ko‘lami sinov natijalariga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot savoli. Janubiy Koreyaning davlatlararo bandlik modeli o‘zbekistonlik migrantlar uchun ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishda qanday salohiyatga ega va uni boshqa migratsiya yo‘nalishlariga moslashtirish uchun qanday o‘zgartirishlar talab etiladi? Ushbu savolga javob berish uchun Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hujjatlari, xalqaro mezonlar va O‘zbekistonning amaldagi huquqiy bazasi qiyosiy tahlil qilinadi.

Ichki migratsiya jihati. Konferensiya mavzusi ham ichki, ham tashqi migratsiyani qamrab olganligi sababli, ushbu ikki jarayon o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash muhimdir. Ichki migratsiya ko‘pincha tashqi migratsiyaning dastlabki bosqichi vazifasini o‘taydi: shaxslar avval yirik shaharga ko‘chib o‘tadi va keyinchalik xorijiy mamlakatga yo‘l oladi. Agar ichki migrantlar mehnat bozori, ish haqi va yashash sharoitlari haqida ishonchli ma’lumotga ega bo‘lmasa, ular norasmiy ish beruvchilarga qaram bo‘lib qoladilar va keyinchalik xorijga migratsiya qilishda ham o‘sha vositachilarga tayanadilar. Shu sababli, axborot shaffofligini oshirish va rasmiy kanallarni mustahkamlash masalalariga har ikkala migratsiya oqimi kontekstida e’tibor qaratish lozim.

Adolatli yollash tamoyili. XMT tomonidan ishlab chiqilgan adolatli yollash tamoyillari yollash bilan bog‘liq xarajatlar va to‘lovlar shaffof bo‘lishi va ish qidiruvchiga ortiqcha yuk bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlaydi [3]. Koreya tajribasi ushbu tamoyilning amaliy namunasi bo‘lib xizmat qiladi: rasmiy tanlov jarayonlari va standart shartnomalar xarajatlar oldindan ma’lum bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zbekiston uchun asosiy vazifa ushbu tamoyilni mavjud qonunchilik cheklovlari bilan moslashtirishdir, xususan, qaysi tomon qaysi xarajatlarni qoplashini aniq belgilash orqali.

Tadqiqotning yangiligi. Ushbu maqola shunchaki Koreya tizimini tavsiflashdan tashqariga chiqadi; uning asosiy maqsadi O‘zbekistonning amaldagi protseduralarini yollash xarajatlari, shartnomalar shaffofligi, huquqiy himoya va nazorat mexanizmlari bo‘yicha Koreya modeli bilan taqqoslashdir. Bunda tadqiqot muammoni shunchaki bayon qilishdan amaliy yechimlarni taklif qilishga o‘tadi.

Cheklovlar. Birinchidan, O‘zbekiston xususiy bandlik agentliklarining chet elda ishlash uchun ish qidiruvchilardan to‘lov olishiga huquqiy cheklovlar qo‘ysada, Janubiy Koreyaga uyushgan yollash uchun xizmat haqi rasman tartibga solinadi. Natijada, xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha har qanday taklif amaldagi qonunchilik va protseduralarga nisbatan sinchkovlik bilan baholanishi kerak. Ikkinchidan, Koreya tajribasi bitta qabul qiluvchi mamlakat va ma’lum bir tanlov tizimiga asoslangan; boshqa mamlakatlarda shunga o‘xshash natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Shuning uchun biz ta’sirning aniq ko‘lami haqida raqamli jihatdan oldindan va’da bermaymiz.

Xulosa. Janubiy Koreyaning EPS tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hukumatlararo hamkorlik, standartlashtirilgan shartnomalar va xarajatlarning shaffofligi migrantlar uchun ish bilan bog‘liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. O‘zbekiston uchun asosiy vazifalar mavjud hukumatlararo dasturlarni takomillashtirish, yangi mamlakatlar bilan shaffof mexanizmlarni o‘rnatish va migrantlarning xarajatlarini muntazam ravishda o‘lchash tizimini joriy etishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. ILO. The Republic of Korea’s Employment Permit System (EPS): Background and Rapid Assessment. – URL: https://www.ilo.org/publications/republic-korea%E2%80%99s-employment-permit-system-eps-background-and-rapid

2. ILO. Regional Guidelines on Return and Reintegration of Migrant Workers Participating in EPS. – 2016. – URL: https://www.ilo.org/publications/regional-guidelines-return-and-reintegration-migrant-workers-participating

3. ILO. General Principles and Operational Guidelines for Fair Recruitment. – URL: https://www.ilo.org/publications/general-principles-and-operational-guidelines-fair-recruitment-and

MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISHDA IKKI TOMONLAMA KELISHUVLAR: O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

Nomozov Shohruh O‘tkir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shohruhnamozov392@gmail.com

Xalqaro mehnat migratsiyasi mehnat resurslarini mamlakatlar o‘rtasida qayta taqsimlash, aholi daromadlarini oshirish va ishchi kuchiga bo‘lgan talabni qondirishning muhim iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Biroq migratsiyaning ijobiy natijalari ishga yollash jarayonining shaffofligi, mehnat shartnomalarining tushunarliligi, ish joyidagi xavfsizlik va migrantlar huquqlarining himoya qilinishiga bevosita bog‘liq. Shu sababli davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama

kelishuvlar mehnat migratsiyasini tartibli va qonuniy boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi.

Koreya Respublikasi mehnat migratsiyasini boshqarishda Employment Permit System (EPS) — xorijiy ishchilarni ishga ruxsat berish tizimidan foydalanadi. Mazkur tizim 2004-yilda joriy etilgan bo‘lib, mahalliy ishchi kuchini topishda qiyinchilikka duch kelayotgan kichik va o‘rta korxonalarga xorijiy fuqarolarni qonuniy ishga yollash imkonini beradi. EPSning asosiy vazifalari xorijiy ishchilarni ishga jalb etishni tartibga solish, mahalliy mehnat bozori manfaatlarini himoya qilish, ishga yollash jarayonining shaffofligini oshirish hamda migrantlarning huquq va manfaatlarini ta’minlashdan iborat [1].

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlik ham mehnat migratsiyasini tartibga solish, kasbiy tayyorgarlik va bandlik siyosati tajribasini almashish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. 2023-yil iyul oyida ikki davlat o‘rtasida mehnat va bandlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan memorandum imzolangan. Unda kasbiy tayyorgarlik, bandlik siyosati tajribasi va statistik ma’lumotlar almashinuvi hamkorlikning muhim yo‘nalishlari sifatida belgilangan [2]. Bu esa mehnat migratsiyasini faqat fuqarolarni xorijga ishga yuborish jarayoni sifatida emas, balki kasbiy tayyorgarlik, mehnat huquqlarini himoya qilish va migrantlarning keyingi bandligini ta’minlashni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti EPS tizimini hukumatlararo kelishuvlarga asoslangan vaqtinchalik mehnat migratsiyasi mexanizmi sifatida o‘rganadi. Mazkur yondashuv rasmiy ishga yollash tartiblarini takomillashtirish, vositachilar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish va migrantlar huquqlarini himoya qilish uchun institutsional asos yaratadi [3; 4]. Shu bilan birga, tizimning samaradorligi faqat qonunchilik va rasmiy kelishuvlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Til to‘siqlari, ish sharoitlariga moslashish, mehnat nizolarini hal qilish va migrantlarning qaytgandan keyingi bandligini ta’minlash kabi masalalar ham doimiy e’tibor talab qiladi.

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi mehnat migratsiyasi hamkorligini yanada takomillashtirish uchun birinchi navbatda axborot shaffofligini oshirish zarur. Mehnat migrantlari ishga yollash shartlari, til imtihonlari, saralash bosqichlari, mehnat shartnomalari, sug‘urta va murojaat qilish tartibi haqida ishonchli rasmiy manbalardan ma’lumot olishi lozim. Buning uchun ma’lumotlarni yagona raqamli platformada jamlash hamda o‘zbek tilida muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq. Bu chora norasmiy vositachilarga qaramlikni kamaytirish va fuqarolarning asoslangan qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, migrantlarni kasbiy va til jihatidan tayyorlash tizimini Koreya mehnat bozorining talablariga muvofiqlashtirish lozim. Koreys tilini o‘rgatish bilan bir qatorda mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish intizomi, mehnat shartnomasi shartlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va mehnat huquqlariga oid bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

O‘zbekiston-Koreya mehnat migratsiyasi hamkorligining asosiy mexanizmlari

Yo‘nalish	Amaldagi yondashuv	Takomillashtirish imkoniyati
Ishga yollash	EPS doirasida rasmiy va tartibga solingan tanlov hamda ishga joylashtirish	Tanlov bosqichlari, muddatlari va natijalarini o‘zbek tilida ochiq e’lon qilish
Til va kasbiy tayyorgarlik	Til imtihoni va ishga tayyorlash muhim o‘rin tutadi	Koreys tili bilan birga mehnat xavfsizligi, huquqiy savodxonlik va kasbiy amaliyotni kuchaytirish
Mehnat huquqlarini himoya qilish	Davlatlararo hamkorlik va ish beruvchi bilan rasmiy mehnat munosabatlari	Murojaat kanallari, tarjimonlik va huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish
Qaytish va reintegratsiya	Migrantning qaytishi migratsiya siklining yakuniy bosqichi hisoblanadi	Xorijda olingan malakani tan olish, ishga joylashtirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash

Manba: *Koreya Respublikasi Bandlik va mehnat vazirligi hamda XMT materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi [1-4].*

Bunday kompleks tayyorgarlik migrantlarning ish joyiga moslashishini yengillashtirishi hamda mehnat faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan, migrantlarning mehnat huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ikki tomonlama aloqa mexanizmlarini mustahkamlash zarur. O‘zbekistonning Koreya Respublikasidagi vakolatxonalari, tegishli davlat idoralari va ish beruvchilar o‘rtasida migrantlarning murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish, tarjimonlik va huquqiy maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. E-9 vizasi bilan ishlashga ketayotgan fuqarolar uchun uch tomonlama shartnoma shartlarini takomillashtirish yuzasidan 2026-yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlar ham amaliy muammolarni o‘rganish va qayta aloqa mexanizmlarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi [5].

To‘rtinchidan, xorijdan qaytgan migrantlarning tajribasi va jamg‘armalaridan samarali foydalanishga qaratilgan reintegratsiya dasturlarini rivojlantirish lozim. Bunda xorijda olingan kasbiy malakalarni baholash va tan olish, qaytgan fuqarolarni mahalliy korxonalarga ishga joylashtirish, tadbirkorlik bo‘yicha maslahat berish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish xizmatlarini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv migrantlarning orttirgan inson kapitalini mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish, ichki mehnat

bozorida malakali kadrlardan foydalanish va takroriy mehnat migratsiyasi ehtiyojini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda EPS tajribasidan foydalanish ishga yollash jarayonining shaffofligini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish va migrantlarning mehnat huquqlarini himoya qilish uchun muhim imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston uchun ustuvor vazifalar rasmiy axborot tizimlarini rivojlantirish, til va kasbiy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish, murojaatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini kuchaytirish hamda qaytgan migrantlarni iqtisodiy hayotga qayta integratsiya qilishdan iborat. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi ikki tomonlama hamkorlik samaradorligini oshirish va mehnat migratsiyasining uzoq muddatli iqtisodiy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Ministry of Employment and Labor of the Republic of Korea. Employment Permit System (EPS). Rasmiy veb-sayt: https://www.moel.go.kr/english/policy/international.do*
2. *Ministry of Employment and Labor of the Republic of Korea. Korea-Uzbekistan, Strengthening Cooperation in Employment and Labor, Including EPS and Vocational Training. 25 July 2023. https://www.moel.go.kr/news/enews/report/enewsView.do?news_seq=15306*
3. *International Labour Organization. The Republic of Korea’s Employment Permit System (EPS): Background and Rapid Assessment. International Migration Papers No. 119, 2015. https://www.ilo.org/publications/republic-korea%E2%80%99s-employment-permit-system-eps-background-and-rapid*
4. *International Labour Organization. Promoting Fair and Ethical Recruitment in a Digital World: Lessons and Policy Options. https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40ed_protect/%40protrav/%40migrant/documents/publication/wcms_791270.pdf*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. Changes have been made to the tripartite contract under the E-9 visa. 3 September 2026. https://gov.uz/en/migration/news/view/215162*

MEHNAT MIGRANTLARINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH

Zafarova Azizaxon Shuxrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
zafarovaaziza8@gmail.com

Globallashuv va xalqaro mehnat bozorlarining rivojlanishi natijasida mehnat migratsiyasi zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Mehnat migratsiyasi aholi bandligi va daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratish bilan birga, migrantlar va ularning oilalari oldiga daromadlarni boshqarish, jamg‘arish, kreditlardan foydalanish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish hamda mablag‘larni uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirish kabi moliyaviy vazifalarni qo‘yadi. O‘zbekiston uchun ushbu masala alohida dolzarb ahamiyatga ega, chunki xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar tomonidan

mamlakatga yuborilayotgan pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklari daromadlarining hamda mamlakat iqtisodiyotidagi muhim moliyaviy oqimlarning manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil mart oyida e’lon qilingan sharhiga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga xorijdan kelib tushgan pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 28 foizga yoki 4,1 mlrd dollarga oshgan [1]. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonga kelib tushgan shaxsiy pul o‘tkazmalari yalpi ichki mahsulotning 14,28 foiziga teng bo‘lgan [2]. Ushbu ko‘rsatkichlar mehnat migratsiyasining nafaqat alohida oilalarning moliyaviy holatiga, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Mazkur jarayonda moliyaviy savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlik shaxsning daromad va xarajatlarini rejalashtirish, jamg‘arma shakllantirish, kredit va boshqa moliyaviy majburiyatlarni baholash, moliyaviy xizmatlardan ongli foydalanish hamda moliyaviy xavflarni boshqarishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va xatti-harakatlar majmuasidir. Mehnat migrantlari uchun ushbu ko‘nikmalar ayniqsa muhim, chunki ular xorijiy valyutada daromad olish, pul mablag‘larini boshqa davlatga yuborish, valyuta kurslari o‘zgarishini hisobga olish, raqamli to‘lovlardan foydalanish va mamlakatga qaytgach jamg‘armalarini tadbirkorlik yoki boshqa iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish kabi qarorlarni qabul qiladilar.

Migrantlarning moliyaviy savodxonligini migratsiya jarayonining barcha bosqichlari bilan bog‘liq holda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Xorijga chiqishdan oldin shaxs kutilayotgan daromad va xarajatlarini rejalashtirishi, mavjud kredit majburiyatlarini hisobga olishi hamda favqulodda vaziyatlar uchun jamg‘arma shakllantirishi lozim. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida pul o‘tkazmalari, valyuta konvertatsiyasi, bank xizmatlari, raqamli to‘lovlar va moliyaviy xavfsizlik masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (IFAD) hamkorligida 2025-yilda tashkil etilgan xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha manfaatdor tomonlar uchrashuvida migrantlar va ularning oilalari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Ushbu manbada moliyaviy hisobvaraqqa ega bo‘lgan katta yoshli aholi ulushi 2017-yildagi 37 foizdan 2024-yilda 60 foizgacha oshgani qayd etilgan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot bankining 2025-yilgi baholashiga ko‘ra, raqamli to‘lovlardan foydalanish ko‘rsatkichi 2021-yildagi 39 foizdan 2025-yilda 72 foizgacha oshgan [3]. Bu holat moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganini va ulardan to‘g‘ri hamda xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga kelib tushgan pul o‘tkazmalarining 52 foizi yoki 9,9 mlrd dollari an’anaviy xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari orqali, 46 foizi yoki 8,6 mlrd dollari bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri P2P o‘tkazmalari orqali amalga oshirilgan. Bank o‘tkazmalarining ulushi esa 2 foizni yoki 397 mln dollarni tashkil etgan. P2P kanali

orqali kelib tushgan mablag‘lar hajmi 2024-yilga nisbatan 1,4 barobar oshgan [1]. Ushbu ma’lumotlar pul o‘tkazmalarining raqamli kanallari muhimlashib borayotganini ko‘rsatadi.



1- rasm. 2025-yilda O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalarining asosiy kanallari bo‘yicha tarkibi.

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil yakunlari bo‘yicha pul o‘tkazmalari haqidagi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [1].*

Migrantlarning moliyaviy savodxonligini oshirish va pul o‘tkazmalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchidan, xorijga mehnat qilish uchun ketayotgan fuqarolar uchun moliyaviy rejalashtirish, shaxsiy byudjetni shakllantirish, jamg‘arma yaratish va kredit majburiyatlarini boshqarish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Ikkinchidan, migrantlar va ularning oilalariga pul o‘tkazmalarini boshqarish, bank xizmatlarini tanlash, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish va raqamli moliyaviy xavfsizlik bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish lozim.

Uchinchidan, qaytgan migrantlarning jamg‘armalarini samarali iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirish uchun tadbirkorlik, biznes-rejalashtirish, investitsiya imkoniyatlari va moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha amaliy ta’lim dasturlarini rivojlantirish kerak. To‘rtinchidan, mavjud Finlit.uz platformasi imkoniyatlaridan foydalanib, migrantlar va ularning oilalariga mo‘ljallangan maxsus ta’lim modulini ishlab chiqish taklif etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan ushbu platformadan foydalanish tegishli bilimlarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini berishi mumkin [4].

Taklif etilayotgan modul uchta asosiy bosqichni qamrab olishi lozim: migratsiyaga tayyorgarlik davrida daromad va xarajatlarni rejalashtirish; xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida pul o‘tkazmalari, valyuta operatsiyalari va raqamli xavfsizlikni boshqarish; qaytishdan keyingi davrda esa jamg‘armalarni tadbirkorlik, ta’lim va boshqa uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarga yo‘naltirish. Bunda migrantlarning oila a’zolarini ham moliyaviy

ta’lim jarayoniga jalb etish pul mablag‘laridan oqilona foydalanish va oilaviy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, mehnat migrantlarining moliyaviy savodxonligini oshirishni migratsiya siyosatining qo‘shimcha yo‘nalishi sifatida emas, balki migrantlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy xavflarini kamaytirish va reintegratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida ko‘rib chiqish lozim. Shu nuqtayi nazardan, **“mehnat migratsiyasi — moliyaviy savodxonlik — moliyaviy inklyuziya — reintegratsiya”** o‘zaro bog‘liq tizimini shakllantirish taklif etiladi. Ushbu yondashuv pul o‘tkazmalaridan samarali foydalanish, migrantlar oilalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va qaytgan fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Review of International Migration and Individuals’ Foreign Exchange Operations. 17 March 2026.

2. World Bank. Personal Remittances, Received (% of GDP) — Uzbekistan. World Development Indicators, 2025. URL: https://data.worldbank.org/indicator

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va International Fund for Agricultural Development (IFAD). The Role of International Remittances in Advancing Financial Inclusion and Socio-Economic Resilience. 21 November 2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Results of the Study Conducted by the Asian Development Bank on Financial Inclusion and the Level of Financial Literacy of the Population. 30 June 2025. Moliyaviy savodxonlik platformasi: https://finlit.uz/

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRANTLARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Ramazonova Marjona O‘lmasjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
marjonasuccessor@gmail.com

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi aholining bandligini ta’minlash, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylandi. Biroq migrantning boshqa davlat hududida mehnat qilishi uning huquqiy maqomi, mehnat shartnomasining bajarilishi, ish haqi, mehnat va yashash sharoitlari, hujjatlarning qonuniyligi hamda nizolarni hal etish imkoniyatlari bilan bog‘liq qo‘shimcha xavflarni yuzaga keltiradi. Shu sababli mehnat migratsiyasini faqat ishga joylashtirish jarayoni sifatida emas, balki fuqaroni migratsiyadan oldingi tayyorgarlikdan boshlab xorijda ishlash va mamlakatga qaytishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda himoya qiladigan uzluksiz huquqiy mexanizm sifatida ko‘rish zarur [1; 2].

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi institutsional tizim so‘nggi yillarda sezilarli darajada yangilanmoqda. 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmon bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tashkil etilib, tashqi mehnat migratsiyasini boshqarishning yagona vertikal tizimini shakllantirish,

fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda Migratsiya jamg‘armasini tashkil etish nazarda tutilgan [6]. Bu o‘zgarishlar migrantlarni himoya qilishni faqat maslahat berish darajasidan chiqarib, davlat boshqaruvi, monitoring, moliyaviy kafolat va xalqaro hamkorlikni o‘z ichiga olgan kompleks tizimga aylantirish uchun huquqiy asos yaratdi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston fuqarolarining xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida huquqiy himoyasini ta’minlaydigan amaldagi mexanizmlarni tizimlashtirish, ularning amaliy ahamiyatini baholash va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy ishlarda milliy mexanizmlar [1], xalqaro tajriba va huquqiy tartibga solish [2], O‘zbekiston va Turkiya tajribasi [3], xalqaro-huquqiy asoslar [4] hamda O‘zbekiston ishchi kuchining xorijga chiqishi [5] yoritilgan.

Birinchi mexanizm — migratsiyadan oldingi huquqiy va axborot tayyorgarligidir. Fuqaro xorijga chiqishdan avval ish beruvchi, mehnat shartnomasi, ish haqi, ish vaqti, yashash sharoitlari, viza va ruxsatnoma talablari, murojaat qilish tartiblari hamda favqulodda vaziyatlarda yordam olish kanallari haqida ishonchli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Amaldagi tizimda Migratsiya agentligi xorijga ketayotgan fuqarolarni tayyorlash, chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish, shuningdek, malakani baholash va sertifikatlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish vakolatiga ega [6].

Ikkinchi mexanizm — ishga joylashtirish vositachilarini huquqiy nazorat qilishdir. Xorijga ishga yuborishda litsenziyaga ega xususiy bandlik agentliklaridan foydalanish migrantni noqonuniy vositachilar, yolg‘on vakansiyalar va shartnoma shartlarining buzilishidan himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Migratsiya agentligi xususiy bandlik agentliklarining xorijda ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha faoliyatini litsenziyalaydi va ularning litsenziya talablari hamda shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi [6]. 2025-yilda qabul qilingan o‘zgartirishlar esa bunday agentliklarning mas’uliyatini kuchaytirib, ayrim huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va moliyaviy kafolat mexanizmlarini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirdi [9].

Uchinchi mexanizm — xorijda migrantlarning mehnat faoliyatini monitoring qilish va murojaatlarini ko‘rib chiqishdir. Migratsiya agentligining xorijdagi vakolatxonalari va vakillari, shuningdek, O‘zbekistonning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari orqali migrantlarning mehnat faoliyati monitoring qilinishi huquq buzilishlarini erta aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tazyiq, majburiy mehnat, tahqirlash, ish haqini bermaslik, og‘ir moliyaviy holat yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardan ayrilish kabi vaziyatlarda huquqiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimning muhim qismidir [6].

To‘rtinchi mexanizm — moliyaviy kafolat va qaytarish yordamidir. Migratsiya jamg‘armasi va xususiy bandlik agentliklari faoliyatiga bog‘langan moliyaviy kafolatlar migrantning huquqi buzilgan taqdirda zararni qoplash yoki fuqaroni O‘zbekistonga qaytarish imkoniyatini kuchaytiradi. 2025-yildagi yangi tartiblarda xususiy bandlik agentligining depozitga joylashtirilgan mablag‘lari fuqarolarga

yetkazilgan zararni qoplash manbalaridan biri sifatida belgilangan [9]. Bu mexanizm vositachilar faoliyatida mas’uliyatni kuchaytirish bilan birga, migrant uchun real himoya kafolatini yaratadi.

Beshinchi mexanizm — xalqaro hamkorlik va ikki tomonlama kelishuvlardir. Mehnat migratsiyasi ikki yoki undan ortiq davlat hududini qamrab olgani sababli faqat milliy qonunchilik bilan migrantning barcha huquqlarini samarali himoya qilish qiyin. Shu bois ish beruvchi davlatning vakolatli organlari bilan kelishuvlar tuzish, migrantlarning mehnat huquqlarini tan olish, nizolarni hal qilish, ijtimoiy himoya va qaytarish masalalarini muvofiqlashtirish muhimdir. Xalqaro mehnat standartlari ham migrant ishchilarning boshqa xodimlar kabi munosib mehnat, tenglik va asosiy mehnat huquqlaridan foydalanishini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [8].

1-jadval.

O‘zbekistonda mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish mexanizmlari

Himoya mexanizmi	Asosiy vosita	Takomillashtirish yo‘nalishi
Migratsiyadan oldingi tayyorgarlik	Huquqiy axborot, til va kasbiy tayyorgarlik	Standartlashtirilgan majburiy huquqiy brifing va raqamli qo‘llanmalar
Ishga joylashtirishni nazorat qilish	Litsenziyalash va vositachilar monitoring	Noqonuniy rekrutingni tez aniqlash va jazo choralarini kuchaytirish
Xorijdagi monitoring	Vakolatxonalar, diplomatik va konsullik kanallari	24/7 murojaat va ish beruvchilar bo‘yicha xavf reytingi
Moliyaviy himoya	Depozit, Migratsiya jamg‘armasi, qaytarish yordami	Zararni qoplash va qaytarish tartibini soddalashtirish
Xalqaro-huquqiy himoya	Davlatlararo kelishuvlar va xalqaro standartlar	Ikki tomonlama bitimlarda aniq ijro va shikoyat mexanizmlari

Amaldagi tizimning huquqiy asoslari kengayib borayotgan bo‘lsa-da, himoyaning amaliy samaradorligi bir nechta omillarga bog‘liq. Birinchidan, migrantlar ko‘pincha huquqiy ma’lumotni ishga ketishdan oldin emas, muammo yuzaga kelganidan keyin izlaydi. Ikkinchidan, noqonuniy vositachilar va soxta vakansiyalar xavfi saqlanib qolmoqda. Uchinchidan, xorijda yuzaga kelgan mehnat nizolarida til, huquqiy savodxonlik va ish beruvchining yurisdiksiyasi bilan bog‘liq to‘siqlar mavjud. To‘rtinchidan, migrantning qaytib kelganidan keyingi iqtisodiy va kasbiy reintegratsiyasi huquqiy himoyaning uzviy davomi sifatida yetarlicha tizimlashtirilishi lozim.

Shu munosabat bilan, birinchidan, xorijga ketayotgan har bir fuqaro uchun yagona raqamli “migrant huquqiy pasporti”ni joriy etish maqsadga muvofiq. Unda mehnat shartnomasi, ish beruvchi, vakansiya, sug‘urta, elchixona va Migratsiya agentligi bilan bog‘lanish ma’lumotlari, shikoyat qilish algoritmi va zarur hujjatlar saqlanishi mumkin. Ikkinchidan, xususiy bandlik agentliklari va xorijiy ish beruvchilar bo‘yicha ochiq reyting tizimini shakllantirish migrantning ongli

tanlovini kuchaytiradi. Uchinchidan, har bir asosiy migratsiya yo‘nalishi bo‘yicha tezkor huquqiy yordam ko‘rsatadigan “bir darcha” aloqa markazini rivojlantirish zarur.

To‘rtinchidan, davlatlararo kelishuvlarda faqat ishga joylashtirish emas, balki ish haqi bo‘yicha nizolar, mehnat jarohati, noqonuniy ishdan bo‘shatish, hujjatlarni olib qo‘yish, majburiy mehnat va migrantning mamlakatga qaytarilishi bo‘yicha aniq tartiblar belgilanishi kerak. Beshinchidan, migrant qaytganidan keyin uning xorijda orttirgan kasbiy ko‘nikmalarini tan olish, qayta ishga joylashtirish, tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlik bo‘yicha xizmatlarni bir tizimga birlashtirish reintegratsiya samaradorligini oshiradi. 2025-yilgi tashkillashtirilgan ishga joylashtirish tizimini takomillashtirishga doir hukumat qarori ham migratsiyani boshqarishning institutsional va tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish yo‘nalishini davom ettirmoqda [7].

O‘zbekistonda mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish mexanizmlari migratsiyadan oldingi tayyorgarlik, qonuniy ishga joylashtirish, xorijda monitoring, huquqiy va ijtimoiy yordam, moliyaviy kafolat, qaytarish hamda xalqaro hamkorlik kabi o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlardan tashkil topmoqda. Migratsiya agentligining tashkil etilishi va uning vakolatlarining kengayishi ushbu tizimni markazlashtirish va mas’uliyatni aniq belgilash imkonini berdi [6]. Shu bilan birga, huquqiy himoyaning real samarasi migrantning muammo yuzaga kelganda tezkor yordam olishi, zararining qoplanishi va nizoning samarali hal etilishi bilan o‘lchanishi kerak. Shuning uchun raqamli huquqiy xizmatlar, ochiq reyestr va reytinglar, tezkor shikoyat mexanizmlari, davlatlararo kelishuvlarning ijrosini monitoring qilish hamda qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilishni yagona tizimga birlashtirish ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Rustamovna, M. S. (2025). Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlar. “Ilm Fan Iftixori”, 1(1).

2. Baxromovich, A. A. (2025). Migratsiya jarayonlarining huquqiy tartibga solinishi: xalqaro amaliyot va O‘zbekiston tajribasi. Integration of Education and Science: Global Challenges and Solutions, 1(2), 127–130.

3. Ergashev, S. K. (2024). Mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish (O‘zbekiston va Turkiya misolida). Elita.uz – Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 149–151.

4. Suropov, A. (2026). Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. Yurisprudensiya, 6(2), 64–75.

5. Shahobiddinov, B. (2024). O‘zbekistondan ishchi kuchining xorijiy davlatlarga chiqishi va malakali mutaxassislarning migratsiyasi. Научный Импульс, 3(28), 352–356.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2024). “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, PF-162-son, 17.10.2024.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2025). “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 252-son, 22.04.2025.

8. International Labour Organization. (2026). International labour standards and migrant workers’ rights: A Guide for policymakers and practitioners. Geneva: ILO.

O‘ZBEKISTONDA QONUNIY MEHNAT MIGRATSIYASINI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

Mamatqulova Odina Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
omamatqulova12@gmail.com

Har yili O‘zbekiston mehnat bozoriga 600 mingdan 700 minggacha yosh kiradi. Yiliga 500 minggacha ish o‘rni yaratilsa ham, taxminan 200 ming kishining bandligini tashqi mehnat migratsiyasi hisobiga ta’minlashga to‘g‘ri keladi [1]. Migratsiya noqonuniy yoki nazoratsiz bo‘lsa, odamlar huquqiy himoyasiz qoladi va ko‘pincha past haq to‘lanadigan ishlarda ishlaydi. Qonuniy, ya’ni tashkil etilgan migratsiyada esa ishchi rasmiy shartnoma bilan ketadi va himoyalangan bo‘ladi. Ilgari fuqarolarning atigi 0,15 foizi rasmiy yo‘l bilan ketgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 8 dan 9 foizgacha oshgan [2]. Tadqiqot maqsadi: O‘zbekistonda qonuniy mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish mexanizmlarini ko‘rib chiqish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va takliflar berish.

Qonuniy migratsiyaning afzalliklari. Qonuniy yo‘l migrant uchun yaxshiroq imkoniyat beradi. Rossiya, Qozog‘iston va Turkiyada ko‘pchilik past haq to‘lanadigan qo‘l mehnatida ishlaydi, kamsitish va xavfsizlik muammosiga duch keladi. Rasmiy kanallar va dasturlar orqali ketganlarning imkoniyati esa yaxshiroq. Rivojlangan mamlakatlarda tibbiyot, muhandislik, mehmonxona xizmati kabi ishlar bor, ularda ish kuni 8 soat bilan belgilangan va haq ancha yuqori [2]. Mehnat migratsiyasi to‘g‘ri tashkil etilgan joyda bandlik va oilalar daromadi o‘sadi, malakali ishchi kuchi ko‘payadi [1].

*Institutsional mexanizmlar***.** Migratsiyani boshqarish uchun maxsus davlat organi tashkil etilgan. 2018-yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ochilgan [2]. Agentlik xorijdagi bo‘sh ish o‘rinlarini aniqlaydi, ish beruvchilarni tekshiradi va ularning reyestrini yuritadi, nomzodlarni tanlab tayyorlaydi, xususiy bandlik agentliklariga litsenziya beradi, ishchilarning mehnat va yashash sharoitini tekshiradi hamda huquqiy yordam ko‘rsatadi [3]. Agentlik “Xorijda ish” elektron platformasini yuritadi. Odamlar shu platforma orqali Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Latviya, Litva va Rossiya kabi mamlakatlardagi ishlarga ariza beradi. Hozir platformada 2 mlndan ortiq foydalanuvchi va 50 mingdan ortiq bo‘sh ish o‘rni bor [2]. Davlat xorijiy ish beruvchilar bilan ham ishlamoqda: 28 mamlakatdagi qariyb 300 ta kadrlar agentligi bilan kelishuv imzolangan, so‘nggi ikki yilda 70 ming kishi rivojlangan mamlakatlarga ishga yuborilgan [2]. Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, Yaponiya va BAA bilan mehnat migratsiyasi bo‘yicha xalqaro kelishuvlar ham tuzilgan [1].

*Tashkil etilgan yuborish tartibi***.** 2025-yil 22-aprelda Vazirlar Mahkamasi 252-son qaror qabul qildi. U fuqarolarni xorijga tashkil etilgan holda yuborish tartibini belgilaydi [4]. Yuboruvchi tashkilot (Migratsiya agentligi yoki litsenziyali xususiy agentlik) xorijiy hamkor bilan kelishuv tuzadi. Agentlik ish beruvchilar reyestrini o‘z saytida e’lon qiladi. Nomzodlar “Xorijda ish” bazasidan tanlanadi, xizmat shartnomasi esa platformada real vaqtda ro‘yxatga olinadi. Xorijiy ish

beruvchining malaka talabiga javob bermaydiganlar ketishdan oldin kasb ta’limidan o‘tadi [4]. Shu qarorga ko‘ra, tashkil etilgan holda ketayotgan fuqarolarga Agentlikning Migratsiya jamg‘armasidan subsidiya va kompensatsiya beriladi. Til yoki kasb imtihoni va sertifikat uchun bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 3 baravarigacha, ish vizasi uchun 5 baravarigacha, yo‘l chiptasi uchun 2 baravarigacha to‘lanadi. Kam ta’minlangan oilalar uchun sug‘urta to‘lovi yiliga 300 ming so‘mgacha qoplanadi [4]. Asosiy mexanizmlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Qonuniy mehnat migratsiyasini rag‘batlantirish mexanizmlari

Mexanizm	Mazmuni	Manba
Agentlik va “Xorijda ish” platformasi	Agentlik 2018-yilda tashkil etilgan. Platformada 2 mlndan ortiq foydalanuvchi va 50 mingdan ortiq bo‘sh ish o‘rni bor	[2]
Tashkil etilgan yuborish tartibi	Yuboruvchi tashkilot xorijiy hamkor bilan kelishuv tuzadi, ish beruvchilar reyestri e’lon qilinadi, shartnoma platformada ro‘yxatga olinadi	[4]
Subsidiya va kompensatsiya	Imtihon uchun 3 BHM gacha, ish vizasi uchun 5 BHM gacha, yo‘l chiptasi uchun 2 BHM gacha	[4]
Sug‘urta	Kam ta’minlangan oilalar uchun yiliga 300 ming so‘mgacha	[4]
Til va kasb ta’limi	Til kurslari 10 dan 25 dollargacha, o‘rtacha 12 hafta	[2]
Qaytganlar uchun subsidiya	Ish beruvchiga 12 oy davomida oyiga 500 ming so‘m	[6]

Manba: *muallif tomonidan [2; 4; 6] asosida tuzildi.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, davlat migrantga yordamni bir necha bosqichda beradi: ishni topishda, o‘qishda, xarajatlarda va qaytganda. Shu bilan qonuniy yo‘l migrant uchun arzonroq va xavfsizroq bo‘lishi kerak.

*Ta’lim va tayyorgarlik***.** Yaxshi ish olish uchun til va kasb kerak. Davlat arzon kurslar tashkil qilgan: til kurslari 10 dan 25 dollargacha turadi va o‘rtacha 12 hafta davom etadi [2]. Rivojlangan mamlakatlarda ishlash uchun esa 12 dan 24 haftagacha til va kasb tayyorgarligi kerak [2]. 2026-yil aprelda Prezident bu yo‘nalishda yangi vazifa qo‘ydi: yuqori daromadli bozorlarga chiqish, bunday loyihalar sonini 20 taga yetkazish va talab yuqori kasblar hamda chet tillarini o‘rgatishni 50 foizga oshirib, 10 mingdan ortiq kishini qamrab olish [5]. Prezident Migratsiya agentligi faoliyati faqat tashqi migratsiya bilan cheklanmasligini, ichki mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlashga ham yordam berishi kerakligini aytgan [5].

*Qaytganlarni qo‘llab-quvvatlash***.** Qonuniy migratsiya faqat ketishni emas, qaytishni ham o‘z ichiga oladi. 2024-yil 4-aprelda qabul qilingan PF-59 Farmoni qaytgan migrantlarni ishga olgan ish beruvchilarga 12 oy davomida oyiga 500 ming so‘m subsidiya berishni belgilagan [6]. Bu mexanizm 2024-yil iyunidan 2026-yil yanvarigacha ishga olinganlarga tegishli bo‘lgan [2]. Farmon tashkil etilgan holda ketayotganlarga til yoki kasb sertifikati, viza va yo‘l chiptasi

xarajatining bir qismini qoplashni saqlab qolgan. Kamsitish yoki majburiy mehnatga duch kelganlar esa huquqiy xizmatdan foydalanishi mumkin [2].

Moliyaviy yordam va himoya. 2020-yilgi Prezident farmoni xorijga ketayotgan kam ta'minlangan fuqarolarga past foizli kredit berishni nazarda tutgan [2]. O'sha yili o'tkazilgan yig'ilishda xorijda ishlovchilarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 100 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratilgani aytilgan, yo'l xarajatlari, patent va sug'urta uchun 10 mln so'mgacha past foizli kredit berish topshirilgan [1]. Xorijda himoya uchun diplomatik vakolatxonalarda mehnat migratsiyasi bo'yicha qo'shimcha attashe lavozimi joriy etilishi e'lon qilingan: Buyuk Britaniya, BAA, Vengriya, Germaniya, Latviya, Polsha va Yaponiyada [2]. Migratsiya bo'yicha savollar uchun Agentlikning 1282 ishonch telefoni ishlaydi [7].

*Mexanizmlar guruhlari***.** Yuqoridagi mexanizmlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi axborot mexanizmi: "Xorijda ish" platformasi ishlarni va ish beruvchilarni bir joyga to'playdi. Ikkinchisi moliyaviy mexanizm: subsidiya, kredit va sug'urta migrantning xarajatini kamaytiradi. Uchinchisi ta'lim mexanizmi: til va kasb kurslari migrantni yaxshiroq ishga tayyorlaydi. To'rtinchisi huquqiy mexanizm: shartnoma, ish beruvchilar reyestri, attashe va ishonch telefoni migrantni himoya qiladi. Bu guruhlar birga ishlasagina yaxshi natija beradi.

Muammolar. Mexanizmlar ko'p, lekin muammolar ham bor. Birinchidan, hamma ham taklif qilingan ishlarga mos kelmaydi: til bilmaslik va kerakli kasbning yo'qligi to'siq bo'ladi. 12 dan 24 haftagacha tayyorgarlikka hamma ham pul va vaqt topa olmaydi [2]. Ikkinchidan, ko'pchilik hali ham Rossiyaga ketadi. Migratsiya agentligi ma'lumotiga ko'ra, xorijda ishlayotgan taxminan 1,4 mln kishidan 834 ming nafari Rossiyada, 258 ming nafari Yevropada [8]. Uchinchidan, 2020-yilda ish stajini hisobga olish tizimida xorijda ishlayotganlardan atigi 4,5 ming kishi ro'yxatdan o'tgan edi [1]. Demak, migrantlarning ko'pi pensiya tizimidan tashqarida qolishi mumkin. To'rtinchidan, rasmiy yo'l bilan ketganlar ulushi hali kam: 2022-yilda u 8 dan 9 foizgacha bo'lgan [2]. Demak, ketganlarning aksariyati hali rasmiy kanaldan tashqarida bo'lgan. Diplomat maqolasiga ko'ra, migrantlarning 70 dan 87 foizigacha qismi Rossiyaga ketadi [2].

Takliflar. Tahlil asosida beshta taklif beramiz. Birinchidan, subsidiya va kreditlar haqidagi ma'lumotni mahallalarga yetkazish va ariza berishni "Xorijda ish" orqali yanada soddalashtirish kerak. Chunki ko'pchilik rasmiy yo'l haqida bilmasligi yoki uni murakkab deb hisoblashi mumkin. Ikkinchidan, til va kasb tayyorgarligini mahallalarda arzon yoki bepul qilish lozim, ayniqsa kam ta'minlangan oilalar uchun [2]. Uchinchidan, qaytganlar uchun subsidiyani uzaytirish va uni olgan malakaga bog'lash maqsadga muvofiq [6]. To'rtinchidan, yuqori daromadli mamlakatlar bilan kelishuvlarni ko'paytirib, Rossiyaga bog'liqlikni kamaytirish zarur [5; 8]. Bu migrantlarning daromadini ham, himoyasini ham oshiradi. Beshinchidan, xorijda ishlayotganlarni ish staji va pensiya tizimiga oson ro'yxatdan o'tkazish usulini joriy etish kerak [1].

O'zbekistonda qonuniy mehnat migratsiyasini rag'batlantirish uchun muhim mexanizmlar yaratilgan: maxsus agentlik, "Xorijda ish" platformasi, tashkil etilgan yuborish tartibi, subsidiyalar, til va kasb kurslari. Biroq tayyorgarlikka kirish hamma uchun oson emas, ko'pchilik hali ham Rossiyaga ketadi, ko'plab migrantlar

esa ish staji tizimidan tashqarida. Qonuniy migratsiyani kengaytirish uchun ma'lumotni yetkazish, tayyorgarlikni arzonlashtirish, yo'nalishlarni ko'paytirish va migrantlarni ijtimoiy himoyaga kiritish taklif etiladi.

Adabiyotlar:

1. Обсуждены вопросы поддержки граждан, трудящихся за рубежом // Yuz.uz. 17.08.2020. URL: https://yuz.uz/ru/news/xorijda-mehnat-qilayotgan-fuqarolarni-qollab-quvvatlash-masalalari-muhokama-qilindi (murojaat sanasi: 06.10.2026).

2. How Are Patterns of Labor Migration From Uzbekistan Changing? // The Diplomat (Crossroads Asia). April 2024. URL: https://sv7.thediplomat.com/2024/04/how-are-patterns-of-labor-migration-from-uzbekistan-changing (murojaat sanasi: 06.10.2026).

3. Чем занимается Агентство? // Advice.uz. URL: https://www.advice.uz/ru/document/3276 (murojaat sanasi: 06.10.2026).

4. Правительство Узбекистана утвердило создание Центра подготовки граждан к работе за рубежом // Anhor.uz. 23.04.2025. URL: https://anhor.uz/news/center-for-work/ (murojaat sanasi: 06.10.2026).

5. Сведения о мерах по упорядоченной внешней трудовой миграции // President.uz. 20.04.2026. URL: https://president.uz/ru/lists/view/9121 (murojaat sanasi: 06.10.2026).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6868873 (murojaat sanasi: 06.10.2026).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ БЮДЖЕТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА С УЧЁТОМ ВНУТРЕННЕЙ МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ

Алиев Улугбек Маннонович,
Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова

Внутренняя миграция населения является одним из факторов, влияющих на социально-экономическое развитие территорий и формирование потребности в государственных услугах. Перемещение населения из сельской местности в города, между регионами и внутри крупных городских агломераций изменяет нагрузку на существующую социальную инфраструктуру, формирует новые потребности в строительстве образовательных и медицинских учреждений, развитии инженерных сетей и расширении доступности общественных услуг.

Для Узбекистана данная проблема имеет особое значение в связи с урбанизацией, изменением территориального размещения трудовых ресурсов и необходимостью обеспечения сбалансированного развития регионов. При этом бюджетные ресурсы ограничены, а планирование расходов должно учитывать не только фактическую численность населения, но и её динамику, пространственную концентрацию и прогнозируемые изменения [3; 4].

Одной из ключевых проблем бюджетного финансирования социальной инфраструктуры является возможное несоответствие между территориальным распределением бюджетных ресурсов и фактическим размещением населения. Если бюджетные ассигнования рассчитываются

преимущественно на основе сложившейся численности населения и исторически сформированной сети учреждений, миграционные изменения могут своевременно не отражаться в планировании расходов [2; 3].

В территориях, принимающих значительные миграционные потоки, увеличивается нагрузка на школы, дошкольные образовательные организации, учреждения здравоохранения, транспортную и коммунальную инфраструктуру. В результате возникает необходимость расширения мощности существующих объектов либо строительства новых. Одновременно в территориях оттока населения может снижаться загрузка отдельных учреждений, что требует пересмотра подходов к их содержанию и рациональному использованию бюджетных средств.

Таким образом, внутренняя миграция формирует неоднородные бюджетные потребности регионов. Однако механическое увеличение финансирования территорий с растущим населением не всегда обеспечивает эффективное распределение ресурсов. Необходимо учитывать возрастную структуру мигрантов, интенсивность миграционных потоков, обеспеченность социальной инфраструктурой, стоимость предоставления услуг и возможности соответствующей территории по привлечению дополнительных ресурсов.

В этой связи представляется целесообразным совершенствование действующих механизмов бюджетного финансирования по следующим направлениям.

Во-первых, интеграция миграционных и демографических прогнозов в бюджетное планирование. При формировании региональных бюджетов необходимо учитывать не только текущую численность населения, но и ожидаемые изменения её территориального распределения. Для этого целесообразно использовать данные демографической статистики, сведения о зарегистрированных перемещениях населения и прогнозы социально-экономического развития территорий. Это позволит заблаговременно выявлять потребность в расширении социальной инфраструктуры и планировать соответствующие капитальные и текущие расходы.

Во-вторых, совершенствование методики распределения межбюджетных трансфертов. При определении потребности регионов в финансовой поддержке следует учитывать численность обслуживаемого населения, темпы его прироста, обеспеченность социальными объектами и нормативную стоимость предоставления государственных услуг. Такой подход позволит повысить обоснованность распределения бюджетных ресурсов и уменьшить риск возникновения территориальных диспропорций в доступности социальных услуг [1; 5].

В-третьих, внедрение дифференцированного подхода к финансированию социальной инфраструктуры. Для территорий с устойчивым притоком населения приоритетное значение имеет развитие инфраструктурных мощностей, включая строительство новых объектов и расширение существующих. В регионах, характеризующихся оттоком

населения, целесообразно сосредоточиться на повышении эффективности использования действующих объектов, оптимизации их загрузки и обеспечении доступности услуг для территориально рассредоточенного населения.

В-четвёртых, развитие среднесрочного бюджетного планирования. Создание и расширение социальной инфраструктуры требуют значительных капитальных вложений, а их эксплуатация формирует долгосрочные обязательства по финансированию заработной платы, коммунальных услуг, оборудования и текущего ремонта. Поэтому решения о строительстве новых объектов должны приниматься с учётом прогнозируемой миграционной динамики, будущих эксплуатационных расходов и устойчивости региональных бюджетов.

В-пятых, повышение прозрачности и результативности бюджетных расходов. Целесообразно формировать систему показателей, позволяющих оценивать взаимосвязь между объёмом финансирования и доступностью социальных услуг. К таким показателям могут относиться обеспеченность местами в образовательных учреждениях, нагрузка на медицинские организации, средняя удалённость объектов социальной инфраструктуры, стоимость обслуживания одного получателя услуг и степень использования существующих мощностей.

Для практической реализации предложенных направлений представляется целесообразным разработать интегральную модель оценки бюджетной потребности регионов. В её основе могут находиться четыре группы показателей: демографические и миграционные характеристики; уровень обеспеченности социальной инфраструктурой; нормативная стоимость предоставления услуг; прогнозируемые расходы на развитие и содержание объектов.

Применение такой модели позволит перейти от преимущественно инерционного распределения бюджетных ресурсов к более гибкому подходу, ориентированному на фактические и прогнозируемые потребности населения. При этом конкретные параметры модели должны определяться на основе доступных статистических данных и результатов расчётов по регионам.

Следует подчеркнуть, что увеличение потребности в бюджетных расходах вследствие миграции не всегда означает возникновение условных обязательств государства. В большинстве случаев речь идёт о необходимости корректировки плановых расходов и инвестиционных приоритетов. Вместе с тем недостаточный учёт миграционной динамики может приводить к возникновению дополнительных финансовых потребностей и рисков для устойчивости региональных бюджетов.

В качестве заключения отметим, что внутренняя миграция населения выступает значимым фактором изменения потребности в социальной инфраструктуре и государственных услугах, что требует совершенствования механизмов бюджетного финансирования регионов Узбекистана. Использование исключительно текущих показателей

численности населения и сложившейся сети социальных учреждений не позволяет в полной мере учитывать пространственные изменения спроса на общественные услуги.

В целях повышения эффективности бюджетной политики предлагается интегрировать миграционные прогнозы в процесс формирования региональных бюджетов, совершенствовать методику распределения межбюджетных трансфертов, применять дифференцированные подходы к финансированию территорий с притоком и оттоком населения, а также расширять практику среднесрочного планирования капитальных и эксплуатационных расходов.

Реализация данных мер позволит повысить обоснованность бюджетных решений, улучшить доступность социальных услуг и обеспечить более рациональное использование государственных финансов. В перспективе разработка методики оценки дополнительной бюджетной потребности, обусловленной внутренней миграцией, может стать основой для формирования более адаптивной системы управления региональными финансами и устойчивого территориального развития Узбекистана.

Литература:

1. Бюджетный кодекс Республики Узбекистан. Законодательство Республики Узбекистан.

2. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Материалы по вопросам государственного бюджета и межбюджетных отношений.

3. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. Демографические показатели и статистические данные о миграции населения.

4. World Bank. World Development Report 2019: Reshaping Economic Geography. Washington, DC: World Bank, 2019.

5. OECD. Making Decentralisation Work: A Handbook for Policy-Makers. Paris: OECD Publishing, 2021.

O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI FAOLIYATIGA TA’SIRI

Hamrokulov Mirabbos Ortikovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Mehnat resurslarining global harakatchanligi sharoitida tashqi mehnat migratsiyasi sof demografik yoki ijtimoiy hodisa bo‘lmay, makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi moliyalashtirish va moliyaviy vositachilik jarayonlariga bevosita ta’sir etuvchi iqtisodiy omilga aylandi[1]. O‘zbekiston uchun bu tendensiya alohida ahamiyatga ega: Markaziy bank hisob-kitoblariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari 2024-yilga nisbatan 28 foizga o‘sib, 18,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi [1]. Bunday sharoitda migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimi — migratsiya oqimlarini rasmiylashtirish, ishchilarni xorijga chiqishdan oldin tayyorlash, qabul qiluvchi davlatlar bilan


hamkorlik va raqamli xizmatlarni o‘z ichiga oluvchi institutsional majmua mehnat bozori muvozanatiga ta’sir etuvchi muhim siyosat vositasi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning ilmiy farazi esa quyidagicha: boshqaruv tizimining takomillashuvi mehnat bozori faoliyatiga uch kanal orqali ta’sir ko‘rsatadi: (a) mehnat taklifining sifat tarkibi, (b) migratsiya bilan bog‘liq tranzaksion xarajatlar va axborot assimmetriyasi, (v) daromadlarning rasmiy moliyaviy kanallarga yo‘nalishi. Tadqiqot maqsadi ushbu kanallarni 2020–2025-yillardagi rasmiy statistika asosida empirik baholash va siyosat tavsiyalarini asoslash.

Migratsiya qarorining iqtisodiy mantig‘i Xarris va Todaro modelida kutilayotgan daromadlar farqi orqali izohlanadi: individ ish haqi darajasi va bandlik ehtimolini birgalikda hisobga olib, harakatlanish foydasini baholaydi [2]. Demak, boshqaruv tizimi bandlik ehtimoli (ish bilan ta’minlash mexanizmlari) va sof daromad (xarajatlar, vositachilik to‘lovlari) o‘zgaruvchilariga ta’sir qilish orqali migratsiya oqimlarining hajmi va tarkibini shakllantiradi. Borxas immigratsiyaning mehnat bozoriga ta’siri mehnat taklifining elastikligi, ko‘nikmalar tarkibi va tanlov (selection) effektlariga bog‘liqligini ko‘rsatgan [3]; bu xulosa jo‘natuvchi mamlakat uchun ham o‘rinli, chunki xorijga ketayotganlarning malaka tarkibi ichki mehnat bozorining tuzilmasini o‘zgartiradi. Xalqaro mehnat tashkiloti baholariga ko‘ra, 2019-yilda dunyoda taxminan 169 mln migrant ishchi bo‘lgan va ular global ishchi kuchining qariyb 4,9 foizini tashkil etgan [4]; bu mehnat migratsiyasini milliy mehnat bozorlarining tashqi segmenti sifatida tahlil qilish zarurligini bildiradi.

Metodologik jihatdan tadqiqot Markaziy bankning rasmiy statistik sharhlari, hukumat qarorlari va ochiq ma’lumotlarga tayanadi; qiyosiy-dinamik, tarkibiy va tarmoqlararo taqqoslash usullaridan foydalanildi. Muhim cheklov shundaki, agregat pul o‘tkazmalari ko‘rsatkichi boshqaruv samaradorligining to‘liq o‘lchovi emas: unga tashqi omillar — qabul qiluvchi iqtisodiyotlardagi ish haqi, valyuta kurslari va mehnat talabi — ham kuchli ta’sir qiladi.

1-rasmda 2020–2025-yillarda O‘zbekistonga kelgan pul o‘tkazmalari dinamikasi keltirilgan. O‘tkazmalar hajmi olti yil ichida 6,0 mlrd dollardan 18,9 mlrd dollarga, ya’ni qariyb 3,2 baravar oshgan; o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati taxminan 25,8 foizni tashkil etadi [1]. Dinamikaning muhim xususiyati — yuqori tebranuvchanlik: 2022-yilda 110 foizlik sakrashdan (17,0 mlrd dollar) so‘ng 2023-yilda 33 foizlik pasayish (11,4 mlrd dollar) kuzatilgan, 2024–2025-yillarda esa o‘sish tiklangan (mos ravishda +31% va +28%) [1].



1-rasm. O‘zbekistonga kelgan xalqaro pul o‘tkazmalari.

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’ulomtlari asosida tuzildi.*

Ushbu tahlil orqali ikki xulosaga kelish mumkin: birinchidan, Markaziy bank 2025-yildagi o‘sishni asosan tashqi omillar — ishchilarni jalb qiluvchi mamlakatlarda mehnat talabi va ish haqining barqarorligi, milliy valyutalar (xususan, rubl) mustahkamlanishi hamda xorijdagi migrantlar sonining o‘sishi — bilan izohlaydi [1]. Shu bois o‘sishning ichki boshqaruv islohotlariga bevosita nisbatini aniqlash “atributsiya muammosi”ni yuzaga keltiradi va alohida ekonometrik baholashni (hududiy panel, “farqlar farqi” usuli) talab qiladi. Ikkinchidan, 2023-yildagi keskin pasayish qabul qiluvchi bozorlardagi bir martalik shoklarga moslashuv imkoniyati cheklanganini ko‘rsatadi, bu esa diversifikatsiya zaruratini asoslaydi.

1-jadvalda pul o‘tkazmalarining kanallar bo‘yicha tarkibi keltirilgan. Jami o‘tkazmalar 27,6 foizga oshgan holda, bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri P2P o‘tkazmalar 46,2 foizga o‘sib, ulushi 39,8 foizdan 45,6 foizgacha ko‘tarilgan; an’anaviy xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari ulushi 55,0 foizdan 52,3 foizgacha kamaygan, bank o‘tkazmalari esa deyarli ikki baravar (48,7 foizga) qisqargan [1].

1-jadval.

Pul o‘tkazmalarining kanallar bo‘yicha tarkibi, 2024–2025

Kanal	2024, mln $	2025, mln $	O‘sish, %	Ulush 2024, %	Ulush 2025, %
An’anaviy xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari	8 161	9 903	+21,3	55,0	52,3
P2P (bank kartalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri)	5 916	8 648	+46,2	39,8	45,6
Bank o‘tkazmalari	774	397	−48,7	5,2	2,1
Jami	**14 851**	**18 948**	**+27,6**	**100,0**	**100,0**

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Jadval ma’lumotlari boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan uchta ahamiyatli jihatga ega. Birinchi, o‘tkazmalarning rag‘batlantirilgan raqamli kanallarga siljishi daromadlarning rasmiy moliyaviy tizimda hisobga olinishini kengaytiradi; Markaziy bank bu jarayonni raqamli xizmatlarning keng tarqalishi, tezlik va nisbatan past xarajatlar bilan izohlaydi (P2P o‘tkazmalarda yashirin xarajatlar kurs farqi ko‘rinishida 2–4 foizgacha bo‘lishi mumkin) [1]. Ikkinchi, xorijiy valyutani bank sotib olishining sotishdan 9,7 mlrd dollarga oshishi ichki valyuta bozori muvozanatiga xizmat qilgan [1]. Uchinchi, geografik diversifikatsiya belgilari kuzatiladi: 2025-yilda Buyuk Britaniyadan o‘tkazmalar 39 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 37 foizga, AQSH va Janubiy Koreyadan 15 foizga oshgan [1]. Yuqori ish haqi darajasiga ega bozorlar sari yo‘nalish, Xarris–Todaro mantig‘iga ko‘ra, migrantning kutilayotgan daromadini va o‘tkazmalarning mehnat bozoriga qayta ta’sirini oshiradi [2].

Institutsional jihatdan 2025-yil 18-noyabrdagi yig‘ilishda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ma’qullandi: xorijga ketuvchilarni tayyorlash markazlarini kengaytirish, Yevropa davlatlari bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi kelishuvlarni ko‘paytirish, migratsiya attashelari va xorijiy vakolatxonalar sonini oshirish, hududlarda ko‘chma viza xizmat

shoxobchalarini ochish, xizmatlarni raqamlashtirish va sutkasiga 24 soat ishlovchi operatsion markaz tashkil etish [5]. Shu bilan birga, mamlakatning bir qator Yevropa davlatlari bilan mehnat migratsiyasi bo‘yicha kelishuvlari hali mavjud emasligi [5] institutsional bo‘shliq saqlanayotganini bildiradi. Oqimlarning konsentratsiyasi ham dolzarb: 2025-yil yanvar–oktabr oylarida 15,8 mlrd dollarlik o‘tkazmalarning qariyb 78 foizi (12,3 mlrd dollar) Rossiyadan kelgan [6]. Bunday bog‘liqlik mehnat bozori uchun bir bozor shokiga zaif bo‘lish xavfini saqlab qoladi.

Mehnat bozoriga ta’sir mexanizmlarini jamlab aytish mumkin. Birinchidan, tizimli tayyorgarlik va rasmiy ishga joylashtirish migrantlarning insoniy kapitali va ish haqi mukofotini oshirib, kutilayotgan daromadni barqarorlashtiradi, shuningdek norasmiy va majburiy mehnat xavfini kamaytiradi [2], [4]. Ikkinchidan, o‘tkazmalar uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushini 16,5 foizdan 21 foizgacha, ba’zi hududlarda 30 foizdan yuqori darajagacha oshirib, ichki talab va iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi [7]; ammo nazariy jihatdan bu holat qabul qiluvchi xo‘jaliklarda rezervatsion ish haqini oshirib, ichki mehnat taklifi faolligini pasaytirish xavfini ham tug‘diradi. Uchinchidan, malakali kadrlar chiqib ketishi (selection effekti) ayrim tarmoqlarda mehnat tanqisligini kuchaytirishi mumkin [3]. Demak, boshqaruv tizimining maqsadi oqimni oddiy rag‘batlantirish emas, balki ketish, qaytish va qayta integratsiya zanjirini yagona siyosat sifatida muvofiqlashtirishdir.

O‘zbekistonda migratsiyani boshqarish tizimining raqamlashtirish, kanallar diversifikatsiyasi va geografik kengayish yo‘nalishidagi takomili mehnat bozori faoliyatiga ijobiy ta’sir potensialiga ega ekanini tasdiqlaydi, biroq o‘sishning tashqi omillarga yuqori bog‘liqligi sababli bu ta’sirni agregat ko‘rsatkichlar orqali isbotlab bo‘lmaydi. Quyidagilar tavsiya etiladi: (1) natijaviy ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish — ishga joylashtirish ulushi, migratsiya xarajatlari, ish haqi mukofoti, qaytish va qayta integratsiya darajasi; (2) tayyorlash markazlari dasturlarini xorijiy bozorlar talabi bilan bog‘lab, o‘zaro kelishuvlar orqali Rossiya va Qozog‘istondan tashqari bozorlar ulushini oshirish; (3) qaytgan migrantlar uchun malaka tan olish va bandlik dasturlarini ishlab chiqish; (4) o‘tkazmalarni mahsuldor sarmoyaga yo‘naltiruvchi raqamli moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish; (5) islohotlar ta’sirini hududiy panel ma’lumotlari asosida ekonometrik baholashni institutsionallashtirish.

Adabiyotlar:

Markaziy bank (O‘zbekiston Respublikasi). Review of International Migration and Foreign Exchange Operations of Individuals. Toshkent, 2026-yil, mart. https://cbu.uz/upload/iblock/367/m44ddiv5ibi0qck9n5kadrpxofebimzi/2.-sharh-migratsiya-ENG.pdf

Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. 1970. Vol. 60, No. 1. pp. 126–142.

Borjas G.J. The Economics of Immigration // Journal of Economic Literature. 1994. Vol. 32, No. 4. pp. 1667–1717.

International Labour Organization. ILO Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. 3rd ed. Geneva: ILO, 2021.

QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA’SIRI

(DSc), dotsent, ***Qurbonov Paxlavon Rustamovich***
Qarshi davlat universiteti
Qo‘ldosheva Gulhayo Muxtor qizi
Qarshi davlat universiteti

Migratsiya aholi soni va tarkibini o‘zgartiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning ta’siri ayniqsa qishloq hududlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. E.Ravenshteyn tomonidan ilgari surilgan migratsiya qonuniyatlari, E.Lining “itaruvchi va tortuvchi omillar” nazariyasi hamda V.Zelinskiyning harakatchanlik o‘tishi gipotezasi qishloqdan shaharga yo‘nalgan migratsiya demografik o‘tish bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [1-3]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq aholisining yuqori tabiiy o‘sishi, mehnat resurslarining ortiqchaligi va ish o‘rinlarining yetishmasligi aholining shaharlar va xorijga ketishini kuchaytiradi.

Qashqadaryo viloyati respublikaning aholisi eng ko‘p va demografik jihatdan faol mintaqalaridan biridir: 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatda 3 717,0 ming kishi istiqomat qilib, ularning 57,4 foizi (2 133,2 ming kishi) qishloq joylarda yashaydi [4]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [7]. Shu sababli viloyat qishloq manzilgohlarida migratsiya jarayonlarining demografik oqibatlarini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasining 2018, 2021, 2024 va 2025-yillar yakunlari bo‘yicha demografik press-relizlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi [4-6]. Migratsiya saldosi, migratsiya aylanmasi va migratsiya samaradorligi koeffitsiyenti (saldoning aylanmaga nisbati) yillik o‘rtacha aholiga nisbatan promilleda hisoblandi. Qishloq va shahar joylar bo‘yicha migratsiya ma’lumotlari alohida e’lon qilinmaganligi sababli, qishloq aholisining migratsion qoldig‘i demografik balans usulida (aholi sonining o‘zgarishi minus tabiiy o‘sish) aniqlandi. Tumanlar kesimidagi farqlar qiyosiy-geografik va korrelyatsion tahlil yordamida baholandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, rasmiy statistika faqat doimiy yashash joyini o‘zgartirib ro‘yxatdan o‘tgan migrantlarni qamrab oladi. Vaqtinchalik ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bu ko‘rsatkichlarda aks etmaydi, shuning uchun olingan natijalar migratsiyaning “rasmiy” qismini tavsiflaydi.

Viloyatda 2018–2025-yillarda migratsiya saldosi barcha yillarda manfiy bo‘lgan (1-jadval). Eng yuqori migratsion yo‘qotish 2021-yilda kuzatilib (–9,1 ming kishi yoki –2,71‰), keyingi yillarda u –6,4…–6,7 ming kishi darajasida barqarorlashgan. Kelganlar soni deyarli o‘zgarmagani (11,0–12,0 ming kishi)

holda ketganlar sonining tebranishi saldo dinamikasini belgilagan.

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatining asosiy demografik va migratsiya koʻrsatkichlari

Koʻrsatkich	2018	2021	2024	2025
Doimiy aholi (yil oxiri), ming kishi	3 213,3	3 408,3	3 639,3	3 717,0
Qishloq aholisi ulushi, %	56,9	–	57,3	57,4
Tugʻilganlar, ming kishi	82,1	97,0	100,9	99,6
Vafot etganlar, ming kishi	13,0	15,0	15,5	15,6
Tabiiy oʻsish, ming kishi	69,1	82,0	85,4	84,0
Kelganlar, ming kishi	11,0	11,6	11,1	12,0
Ketganlar, ming kishi	15,1	20,7	17,8	18,4
Migratsiya saldosi, ming kishi	–4,1	–9,1	–6,7	–6,4
Migratsiya saldosi, ‰	–1,29	–2,71	–1,8*	–1,74
Migratsion yoʻqotishning tabiiy oʻsishga nisbati, %	5,9	11,2	7,9	7,6

***Manba**: [4–6] asosida muallif tomonidan tuzilgan. * 2024-yil uchun yil boshidagi aholi soni oʻrniga yil oxiridagi qiymat olingan (taxminiy).*

Muhim jihat shundaki, migratsion yoʻqotish tabiiy oʻsishning atigi 6–11 foizini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, viloyatda yuqori tabiiy oʻsish (2025-yilda 84,0 ming kishi) migratsiyaning demografik ta’sirini toʻliq qoplaydi va aholi soni yiliga oʻrtacha 2,1–2,2 foizga oʻsib bormoqda. 2019–2026-yillarda qishloq aholisi 303,4 ming kishiga (16,6%), shahar aholisi esa 200,2 ming kishiga (14,5%) koʻpaygan, natijada qishloq aholisining ulushi 56,9 foizdan 57,4 foizga oshgan. Bu holat viloyatda urbanizatsiya jarayonining sekin kechayotganini va qishloq manzilgohlari hamon asosiy demografik salohiyat jamlangan hudud ekanligini koʻrsatadi.

2-jadval.

Qishloq va shahar joylarning demografik koʻrsatkichlari (2025-yil)


Koʻrsatkich (2025-yil)	Qishloq joylar	Shahar joylar
Aholi ulushi (yil oxiri), %	57,4	42,6
Tugʻilganlar, ming kishi (ulushi, %)	60,2 (60,4)	39,6 (39,2)
Tugʻilish koeffitsiyenti, ‰*	≈28,5	≈25,2
Vafot etganlar, ming kishi	8,4	7,2
Oʻlim koeffitsiyenti, ‰*	≈4,0	≈4,6
Tabiiy oʻsish, ming kishi	51,8	32,4
Aholi sonining yillik oʻsishi, ming kishi*	≈47,9	≈29,8
Qoldiq (migratsiya va maqom oʻzgarishi), ming kishi*	≈ –3,9	≈ –2,6
Nikohlar, ming / ajralishlar, ming	17,0 / 1,6	11,9 / 1,7

***Manba:** [4] asosida muallif hisob-kitobi. * Yil boshidagi qishloq va shahar aholisi soni foiz ulushlaridan hisoblangan, shu sababli qiymatlar taxminiy.*

Qishloq va shahar joylarning demografik farqlari. 2025-yilda viloyatda tugʻilganlarning 60,4 foizi qishloq joylarga toʻgʻri kelgan, bu qishloq aholisi ulushidan (57,4%) yuqori (2-jadval).

Qishloq joylarda tug‘ilish koeffitsiyenti taxminan 28,5‰ ni, shaharlarda esa 25,2‰ ni tashkil etadi, o‘lim koeffitsiyenti esa qishloqda pastroq (4,0‰ ga nisbatan 4,6‰). Demografik balans hisob-kitobi qishloq joylarning yillik migratsion va maqom qoldig‘i taxminan –3,9 ming kishi ekanini ko‘rsatadi, bu qishloq tabiiy o‘sishining 7–8 foiziga teng.Qishloq joylarda nikohlar soni (17,0 ming) shaharlarga nisbatan 1,4 baravar ko‘p, ajralishlar esa deyarli teng (1,6 va 1,7 ming). Ajralishlarning nikohlarga nisbati qishloqda 9,4 foiz, shaharda 14,3 foizni tashkil etadi. Bu qishloq oilalarining barqarorroq ekanini va an’anaviy demografik xulq-atvor saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yosh erkaklarning vaqtinchalik mehnat migratsiyasi nikoh yoshining kechikishi va oilaviy tuzilishga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli bor. Bu masala alohida dala tadqiqotlarini talab etadi.

Migratsiyaning hududiy farqlari. 2025-yilda viloyatdagi 6 388 kishilik migratsion yo‘qotishning 6 189 kishisi (96,9%) tumanlarga, atigi 199 kishisi Qarshi va Shahrisabz shaharlariga to‘g‘ri kelgan. Migratsiya saldosining nisbiy ko‘rsatkichiga ko‘ra tumanlar aniq farqlanadi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlarida migratsiya saldosi, ‰ (2025-yil)

Manba: *[4] asosida muallif hisob-kitobi.*

Eng katta nisbiy yo‘qotish Yakkabog‘ (–3,54‰), Dehqonobod (–3,40‰), Shahrisabz (–3,30‰) va G‘uzor (–3,19‰) tumanlarida qayd etilgan. Bu tumanlar tog‘ va tog‘oldi hududlarida joylashgan bo‘lib, yer va suv resurslarining cheklanganligi, qishloq manzilgohlarining tarqoqligi hamda ish o‘rinlarining yetishmasligi bilan tavsiflanadi. G‘uzor va Dehqonobod tumanlarida migratsiya samaradorligi koeffitsiyenti –62…–71 foizni tashkil etadi, ya’ni bu yerda migratsiya deyarli bir tomonlama, “chiqib ketish” xususiyatiga ega.

Qarshi tumanida esa ijobiy saldo (+2,98‰, +842 kishi) kuzatiladi, Qarshi shahrida esa saldo nolga yaqin (–0,05‰), lekin migratsiya aylanmasi eng yuqori

(21,6‰). Bu Qarshi shahri atrofidagi qishloq manzilgohlari aholini jalb etayotganini, ya’ni viloyat markazi atrofida suburbanizatsiya jarayoni shakllanayotganini ko‘rsatadi. Arzonroq yer, shaharga yaqinlik va transport qulayligi aholini shaharning o‘ziga emas, uning atrofidagi qishloqlarga yo‘naltirmoqda. Yangi tashkil etilgan Ko‘kdala tumanidagi kichik ijobiy saldo (+0,64‰) va juda past aylanma (2,25‰) esa hududiy-ma’muriy o‘zgarishlar natijasida hisob ma’lumotlari hali barqarorlashmaganini bildirishi mumkin.

Tumanlar kesimida 2024-yildagi tug‘ilish koeffitsiyenti bilan migratsiya saldosi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti juda past ($r \approx -0,03$, $n = 13$). Demak, doimiy migratsiyaning hozirgi ko‘lami tumanlarning tug‘ilish darajasidagi farqlarni izohlamaydi. Qashqadaryo qishloqlarida tug‘ilishning yuqoriligi asosan oilaviy an’analar va yosh tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, migratsiya demografik jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki aholining hududiy qayta taqsimlanishi va yosh-jins tarkibi orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, Qashqadaryo viloyatida doimiy manbali migratsiya saldosi barqaror manfiy bo‘lib, yo‘qotishning deyarli barchasi (97%) qishloq aholisi ustun bo‘lgan tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan, qishloq joylardagi yuqori tabiiy o‘sish migratsion yo‘qotishni ko‘p marta qoplaydi, shu sababli qishloq aholisining soni ham, ulushi ham o‘sib bormoqda. Uchinchidan, tog‘ va tog‘oldi tumanlari (Yakkabog‘, Dehqonobod, Shahrisabz, G‘uzor) migratsiya bo‘yicha “donor” hududlar, Qarshi tumani esa suburbanizatsiya hisobiga “qabul qiluvchi” hudud sifatida shakllanmoqda.

Olingan natijalar asosida quyidagilar tavsiya etiladi: migratsiya donor bo‘lgan tog‘ va tog‘oldi tumanlarida qishloq tayanch markazlarida ish o‘rinlari yaratishni ustuvor qilish; Qarshi shahri atrofidagi qishloqlarning o‘sishini hududiy rejalashtirish hujjatlarida hisobga olish va muhandislik infratuzilmasini oldindan rivojlantirish; statistika amaliyotiga qishloq va shahar kesimidagi migratsiya ko‘rsatkichlarini va vaqtinchalik mehnat migratsiyasi hisobini kiritish.

Adabiyotlar

1. Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.

2. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.

3. Zelinsky W. The Hypothesis of the Mobility Transition // Geographical Review. – 1971. – Vol. 61, No. 2. – P. 219–249.

4. Qashqadaryo viloyatining demografik holati (2025-yil yanvar–dekabr): press-reliz. – Qarshi: Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi, 2026. – URL: https://qashstat.uz/uploads/press25/DM-PR-UZ-12-2025.pdf

5. Qashqadaryo viloyatining demografik holati (2024-yil yanvar–dekabr): press-reliz. – Qarshi, 2025. – URL: https://www.qashstat.uz/uploads/press24/DM-PR-UZ-12-2024.pdf

6. Qashqadaryo viloyatining demografik holati (2021-yil yanvar–dekabr): press-reliz. – Qarshi, 2022. – URL: https://qashstat.uz/uploads/press21/DM-PR-UZ-12-2021.pdf

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. – URL: https://lex.uz

MEHNAT MIGRATSIYASI SHAROITIDA SANOAT KLASTERLARINING BARQAROR INNOVATSION RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sobirov Azizbek Avazbekovich
TDIU, "Marketing" kafedrasi PhD., dotsenti

Sanoat klasteri bir hududda joylashgan, bitta qiymat zanjiri bo'ylab bog'langan korxonalar, yetkazib beruvchilar, ta'lim va ilmiy muassasalarning hamkorlikdagi tizimidir. Klasterning raqobat ustunligi xarajatlarni kamaytirish bilan birga bilim va innovatsiyalarning korxonalar o'rtasida tez tarqalishida namoyon bo'ladi [1]. Bu ustunlikning asosiy sharti malakali ishchi kuchidir. O'zbekistonda esa mehnat bozori tashqi migratsiya bilan chambarchas bog'liq: 2026-yilda taxminan 1,4 mln fuqaro xorijda mehnat qilmoqda va ularning 28,9 foizini yoshlar tashkil etadi. Natijada klasterlar bir vaqtning o'zida ikki xil jarayonga duch keladi: bir tomondan, faol yoshdagi ishchilar xorijga ketadi, ikkinchi tomondan, xorijda tajriba orttirgan ishchilarning bir qismi qaytib keladi.

Oxirgi yillarda bu muvozanat o'zgarmoqda. 2026-yilning birinchi yarmida Rossiyaga ishlash uchun ketganlar soni 1,18 mln kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 foizga kamaydi, Markaziy bank bu holat ichki mehnat bozorida ishchi kuchi taklifini oshirishini qayd etgan . Sanoat ham tez o'smoqda: 2025-yilda sanoat mahsulotlari hajmi 1 101,1 trln so'mni tashkil etib, real ifodada 6,8 foizga oshgan, ishlab chiqaruvchi sanoatning ulushi 86 foizga yetgan va 7,7 foizga o'sgan [2]. Klaster tizimi eng keng rivojlangan to'qimachilik tarmog'ida 2025-yilda 134 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2,5 mlrd dollarlik eksport amalga oshirilgan, tarmoqda 623 ming kishi band bo'lgan [3].

1-jadval.

Sanoat va to'qimachilik klasterlari rivojiga oid ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
Sanoat mahsulotlari hajmi, 2025-y.	1 101,1 trln so'm (+6,8 %)	[2]
Ishlab chiqaruvchi sanoat ulushi va o'sishi, 2025-y.	86 % (+7,7 %)	[2]
To'qimachilik mahsulotlari, 2025-y. / 2026-y. reja	134 / 147 trln so'm	[3]
To'qimachilik eksporti, 2025-y. / 2026-y. reja	2,5 / 3,3 mlrd dollar	[3]
Tarmoqda bandlar, 2025-y. / 2026-y. reja	623 / 650 ming kishi	[3]
Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot, 2025-y. / 2026-y. reja	≈215 / ≈226 mln so'm	hisob
Bir xodimga to'g'ri keladigan eksport, 2025-y. / 2026-y. reja	≈4,0 / ≈5,1 ming dollar	hisob

Manba: *[2], [3] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan; oxirgi ikki qator mahsulot va eksport hajmini bandlar soniga bo'lish orqali muallif tomonidan hisoblangan.*

Jadvaldan ko'rinadiki, 2026-yilgi rejada band bo'lganlar soni 4,3 foizga oshishi ko'zda tutilgan, eksport esa 32 foizga o'sishi kerak. Demak, bir xodimga to'g'ri keladigan eksport 4,0 ming dollardan 5,1 ming dollarga ko'tarilishi lozim. Bunga ishchilar sonini ko'paytirish bilan emas, mehnat unumdorligini va mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshirish orqali erishish mumkin. Natijada klaster uchun innovatsiya va malakali kadr bir-biriga bog'liq vazifaga aylanadi.

Migratsiya ilmiy adabiyotlarda inson kapitaliga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Malakali kadrlarning ketishi yo‘qotish bo‘lsa-da, migratsiya imkoniyati odamlarni ta’limga ko‘proq sarmoya kiritishga undaydi [4]. Xorijda orttirilgan ko‘nikmalar qaytgandan keyin vatanda yuqoriroq unumdorlik bilan qo‘llanilishi mumkin [5]. Klaster uchun muhim savol shu tajribani qanday qilib ishlab chiqarishga olib kirishdir. Mintaqaviy innovatsiya tizimlari nazariyasiga ko‘ra, mahalliy amaliy bilim va global bilim birlashgan joyda innovatsiya tezroq yuzaga keladi [6]. Xorijda zamonaviy uskunada ishlagan, boshqa ish madaniyatini ko‘rgan qaytgan migrant aynan shunday global bilim tashuvchisidir.

Shu nazariy asoslarga tayanib, sanoat klasterlarining barqaror innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi to‘rt mexanizmni takomillashtirish taklif etiladi:

1) kadrlar mexanizmi: klaster qoshidagi o‘quv markazlarida qaytgan migrantlarning xorijda olgan malakasini amaliy sinov orqali tasdiqlash, qisqa modulli qayta tayyorlash va ishga qabul qilish; qaytgan migrantni ishga olgan ish beruvchiga beriladigan subsidiyadan [7] klasterlar faol foydalanishini ta’minlash;

2) innovatsiya mexanizmi: oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan tuzilgan buyurtma asosidagi ilmiy-tadqiqot loyihalari, raqamli boshqaruv tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish;

3) moliyaviy mexanizm: imtiyozli kreditlarni yangi texnologiya, energiya tejovchi uskuna va xodimlarni o‘qitishga yo‘naltirilgan loyihalarga bog‘lash, innovatsion natija bo‘yicha qo‘shimcha rag‘batlantirish;

4) ekologik barqarorlik mexanizmi: suv va energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va xalqaro ekologik standartlarni joriy etish orqali eksport bozorlarida ishonchni oshirish.

Mexanizmlar samarasini baholash uchun klaster darajasida quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi tavsiya etiladi: bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot va eksport hajmi; tayyor mahsulotning umumiy hajmdagi ulushi; ishga qabul qilingan qaytgan migrantlar soni va ularning bir yildan keyin ishda qolish ulushi; ilmiy-tadqiqot va o‘qitish xarajatlarining tushumdagi ulushi; mahsulot birligiga sarflangan suv va energiya hajmi. Ko‘rsatkichlar har yili hududlar kesimida hisoblansa, qaysi klaster mehnat migratsiyasi sharoitiga yaxshiroq moslashayotganini va qayerda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash kerakligini aniqlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi sanoat klasterlari uchun nafaqat ishchi kuchi yetishmasligi xavfi, balki xorijiy tajribaga ega kadrlarni jalb qilish imkoniyatidir. Migratsiya oqimining qisqarishi va qaytayotganlar sonining ortishi klasterlarga bu imkoniyatdan foydalanish uchun qulay vaqt yaratmoqda. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, har bir yirik klaster qoshida qaytgan migrantlar malakasini tan olish va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘quv markazlarini tashkil etish;

ikkinchidan, klasterlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida buyurtma asosidagi ilmiy-tadqiqot va kadr tayyorlash shartnomalarini kengaytirish;

uchinchidan, imtiyozli kreditlarni klasterning innovatsion va ekologik ko‘rsatkichlariga bog‘lab ajratish;

to‘rtinchidan, klasterlarning barqaror innovatsion rivojlanishini yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimi asosida har yili baholab borish.

Adabiyotlar:

1. Porter M.E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. 1998. Vol. 76, No. 6. P. 77–90. https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition

2. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar–dekabr). Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. https://stat.uz/img/news/talil-2025-jil-yanvar-dekabr-lotin-_p29731.pdf

3. Imtiyozli kredit, standart va laboratoriya. O‘zbekistonda to‘qimachilik qanday rivojlantiriladi? // Spot.uz, 24.12.2025. https://www.spot.uz/oz/2025/12/24/textile

4. Docquier F., Rapoport H. Globalization, brain drain, and development // Journal of Economic Literature. 2012. Vol. 50, No. 3. P. 681–730. https://doi.org/10.1257/jel.50.3.681

5. Dustmann C., Fadlon I., Weiss Y. Return migration, human capital accumulation and the brain drain // Journal of Development Economics. 2011. Vol. 95, No. 1. P. 58–67. https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2010.04.006

6. Asheim B.T., Isaksen A. Regional innovation systems: the integration of local ‘sticky’ and global ‘ubiquitous’ knowledge // Journal of Technology Transfer. 2002. Vol. 27, No. 1. P. 77–86. https://doi.org/10.1023/A:1013100704794

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6868721

МЕҲНАТ БОЗОРЛАРИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШДА МЕҲНАТ МОБИЛЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ЯНГИ ЁНДАШУВИ: МОБИЛЛИК ТАФОВУТИ ВА ТИПОЛОГИК МОДЕЛЬ

*PhD, доцент, **Шакаров Зафар Гаффорович***
Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт Университетининг Тошкент шаҳридаги филиали

Глобаллашув шароитида меҳнат бозорининг ривожланиши иш ўринлари сонидан кўра ишчи кучининг ҳудудлар, тармоқлар ва бандлик шакллари ўртасида қанчалик самарали қайта тақсимланишига боғлиқ бўлиб бормоқда. Халқаро меҳнат ташкилоти баҳосига кўра, 2026 йилда жаҳонда ишсизлик 4,9% атрофида сақланса-да, ишлашни истаган, лекин муносиб иш ўрнига эга бўлмаган аҳоли 408 млн кишига етади [1]. Бу меҳнат миграциясини номутаносибликни юмшатувчи асосий механизмлардан бирига айлантирмоқда.

Ўзбекистонда меҳнат мобиллиги бир вақтда икки йўналишда кечмоқда. Ички мигрантлар сони 2023 йилдаги 215 839 кишидан 2025 йилда 251 633 кишига ошди, хорижда эса 1,2-1,4 млн киши ишламоқда, бу иқтисодий фаол аҳолининг 7,6-8,9% ига ва ишсизлар сонининг 1,6-1,9

бараварига тенг [4; 5]. Пул ўтказмалари 2024 йилдаги 14,8 млрд доллардан 2025 йилда 18,9 млрд долларга етди, уларнинг 77-78% и битта мамлакатдан келмоқда [5]. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 февралдаги ПҚ-49-сон қарорида барқарор иш ўринлари яратиш ва ички меҳнат бозорини ривожлантириш устувор вазифа сифатида белгиланган [2; 3].

Илмий муаммо шундаки, мавжуд статистика миграция ҳажмини қайд этади, лекин бу ҳаракат меҳнатга талаб қаерда эканига мос келаётганини кўрсатмайди. Беверидж эгри чизиғи ва номувофиқлик индекслари номувофиқлик даражасини ўлчайди, аммо унинг йўналишини ва рўёбга чиқмаган қисмини аниқламайди [6; 7], ички ва ташқи миграция эса кўпинча алоҳида таҳлил қилинади. Шу сабабли тадқиқотнинг мақсади ички меҳнат бозорида рўёбга чиқмаган мобилликни ўлчаш ва унинг ташқи миграция билан боғлиқлигини баҳолаш методологиясини ишлаб чиқишдан иборат. Иккита гипотеза текширилди. Биринчи гипотезага кўра, ички меҳнат бозорида рўёбга чиқмаган мобиллик ташқи миграция орқали қопланмоқда. Иккинчи гипотезага кўра, ички ҳаракатга асосий тўсиқ иш ҳақи рағбатида эмас, кўчиш харажатларида.

Эмпирик база Миллий статистика қўмитасининг 14 ҳудуд бўйича 2020-2025 йиллар маълумотлари, 2025 йил 1 январь ҳолатидаги бўш иш ўринлари статистикаси ва 2025 йил август-октябрь ойларида 454 нафар ташқи меҳнат мигранти ўртасида ўтказилган сўровдан иборат. Тадқиқот «мақсад-механизм-натижа» мантиғига таянади, унда меҳнат бозори трансформацияси мақсад, мобиллик эса механизм ҳисобланади. Таҳлил тўрт босқичда амалга оширилди.

Биринчи босқичда мобиллик уч алоҳида индекс билан ўлчанди. Мобиллик салоҳияти индекси (IMS) ҳаракат учун шароитни, амалга ошган мобиллик индекси (IAOM) ҳақиқий ўтишларни, мобиллик натижадорлиги индекси (IMN) эса ишга жойлашиш, 6 ва 12 ойлик ишда сақланиш, иш ҳақи ўсиши ва расмийлашувни акс эттиради. Вазнлар тенг, энтропия ва бош компоненталар усулида аниқланиб, синф чегаралари Женкс усулида белгиланди [8].

Иккинчи босқичда Жекман-Ропер индексининг ҳудудлар бўйича декомпозицияси орқали мобиллик баланси индекси ҳисобланди [6]

$$IHMB_r = (U_r - U \cdot V_r/V) / L_r \times 100, \quad (1)$$

бу ерда U_r ва V_r – ҳудуддаги ишсизлар ва бўш иш ўринлари сони, U ва V – республика жами, L_r – иқтисодий фаол аҳоли. Мусбат қиймат ҳудуддан соф чиқиш, манфий қиймат эса ҳудудга соф жалб талаб этилишини кўрсатади.

Учинчи босқичда муаллифлик кўрсаткичи бўлган мобиллик тафовути ҳисобланди. У талаб этиладиган соф мобилликни 2020-2025 йилларда амалда рўй берган ва табиий ўсишдан тозаланган ишчи кучи ҳаракати билан солиштиради

$$HMT_r = - IHMB_r - NA_r, \quad (2)$$

бу ерда NA_r – иқтисодий фаол аҳолининг табиий ўсишдан тозаланган соф ўзгариши. Манфий НМТ ортиқча меҳнат таклифи ҳудудда ушланиб

қолганини, мусбат НМТ эса зарур жалб рўёбга чиқмаганини ёки чиқиш зарурийдан ошганини англатади. Ўлчов ноаниқлиги 5 000 марталик Монте-Карло симуляцияси билан 90% ораликда баҳоланди.

Тўртинчи босқичда кўчишга иқтисодий рағбат Харрис-Тодаро кутилган иш ҳақи асосидаги рағбат мувофиқлиги коэффициенти (РМК) билан ўлчанди [9], сўнгра ІНМВ ишораси, НМТ синфи ва РМК белгисига таянувчи аниқ қоида асосида ҳудудлар тоифаларга ажратилди. Натижалар барқарорлиги 3 000 марталик симуляция ва мустақил Уорд кластер таҳлили билан текширилди.

Биринчидан, ички меҳнат бозоридаги номувофиқлик ўртача даражада (Жекман-Ропер индекси 0,300), лекин бир марказга қаратилган. Номувофиқлик туфайли ишга қабул қилишларнинг 5-6% и йўқотилмоқда [7]. Саккиз юборувчи ҳудуддан талаб юқори ҳудудларга тахминан 250,4 минг кишилик соф оқим талаб этилади, унинг 89% и Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятига тўғри келади.

Иккинчидан, юборувчи ҳудудларда кутилаётган иш ҳақи қабул қилувчи ҳудудларга нисбатан 7-21% паст, яъни ички кўчишга рағбат мавжуд. Демак, иккинчи гипотеза тасдиқланди, асосий тўсиқ иш ҳақида эмас, уй-жой, транспорт ва мослашув харажатларида.

Учинчидан, еттита ҳудудда НМТ статистик аҳамиятли манфий, яъни ортиқча таклиф ҳудудда ушланиб қолмоқда, энг катта қийматлар Қорақалпоғистон Республикаси (-6,08%), Хоразм (-4,09%) ва Қашқадарёда (-3,72%). Шу билан бирга Тошкент вилояти (+6,76%) ва Тошкент шаҳрида (+3,25%) зарур жалб рўёбга чиқмаган. Ички оқим тўлиқ амалга ошмаётган бир пайтда хориждаги мигрантлар сони ишсизлар сонидан 1,6-1,9 баравар кўплиги биринчи гипотезага мос келади, яъни ташқи миграция ички бозорда рўёбга чиқмаган мобилликнинг бир қисмини қопламоқда. НМТ ички ва ташқи миграцияни ажратмагани сабабли бу боғлиқлик сабабий эмас, ташхис маъносида талқин қилинади. Ҳудудлар беш тоифага ажратилди (1-жадвал).

Тоифалар ўлчов хатоларига барқарор (тоифа сақланиш эҳтимоли 0,93-1,00) ва мустақил кластер таҳлили билан мос келади (ARI 0,69 ва 0,72). НМТ мавжуд кўрсаткичларни такрорламайди, унинг IMS, ІНМВ, норасмийлик ва кутилган иш ҳақи билан боғлиқлиги паст ($|\rho| \le 0{,}27$).

Тўртинчидан, ташқи миграцияга таянишнинг ўз хавфи бор. Уй хўжаликлари даромадида ўтказмалар улуши 21% бўлганда, ўтказмаларнинг 10% га қисқариши ўртача даромадни тахминан 2,1% га, улуш 30% дан юқори ҳудудларда эса 3% дан ортиқ камайтиради. Барқарор ҳолат оқим моделига кўра, ички номувофиқликнинг 25-60% и бартараф этилса, ишсизлик 2030 йилгача 0,08-0,16 фоиз бандига камаяди, дастур иштирокчиларининг иш ҳақи эса ўртача 25,7% га ошади.

Тадқиқотнинг илмий ҳиссаси учта натижадан иборат. Биринчидан, мобилликни салоҳият, амалдаги ҳаракат ва натижа бўйича алоҳида ўлчаш интеграл баҳолашдаги тавтологиянинг олдини олади. Иккинчидан, мобиллик тафовути номувофиқликнинг йўналишини ва рўёбга чиқмаган

қисмини кўрсатувчи янги кўрсаткич бўлиб, ички ва ташқи миграцияни ягона баҳолаш тизимида кўриш имконини беради. Учинчидан, типологик модель миграция сиёсатини ҳудуд тоифасига боғлайди.

1-жадвал

Ҳудудий меҳнат бозорларининг типологияси ва миграция сиёсати йўналишлари

Тоифа	Ҳудудлар	Миграция сиёсатининг устувор йўналиши
Т-1 Самарали тортиш маркази	Навоий	Иш берувчи билан ҳамкорликда мақсадли жалб
Т-2 Тўсиқли тортиш марказлари	Тошкент ш., Тошкент в.	Уй-жой ва транспорт тўсиқларини камайтириш
Т-3 Жозибасиз вакансиялар	Бухоро, Сирдарё	Иш ҳақи ва иш ўрни сифатини ошириш
Т-4 Ортиқча таклифи ушланиб қолган	Қорақалпоғистон Р., Андижон, Жиззах, Қашқадарё, Самарқанд, Фарғона, Хоразм	Ички кўчиш пакети ва касб ваучери орқали ташқи миграцияга муқобил яратиш
Т-5 Ортиқча чиқиш ҳудудлари	Наманган, Сурхондарё	Маҳаллий бандлик, қайтган мигрантларни реинтеграция қилиш

Манба: *Муаллиф ҳисоб-китоблари.*

Амалий таклифлар қуйидагича. Мобиллик тафовутини Вазирлар Маҳкамасининг 1011-сон қарорига мувофиқ тузиладиган меҳнат ресурслари балансида ҳар йили ҳисоблаб бориш лозим [10]. Т-4 тоифадаги ҳудудлардан Т-1 ва Т-2 тоифадаги ҳудудларга ички кўчишни табақалаштирилган пакет билан қўллаб-қувватлаб, тўловни ишга жойлашиш, 6 ва 12 ойлик ишда сақланишга боғланган 40/30/30 траншларда амалга ошириш ташқи миграцияга муқобил расмий канал яратади. Ҳисобларга кўра, манзилли ёндашув ва иш берувчининг 30% ли иштирокида дастур самарадорлиги 1,01 дан 1,74 гача ошади. Қайтган мигрантларни рақамли мослаштириш тизими орқали Т-1 ва Т-2 тоифадаги ҳудудлар вакансияларига йўналтириш эса уларнинг реинтеграциясини тезлаштиради.

Адабиётлар

1. ILO. Employment and Social Trends 2026. – Geneva: International Labour Office, 2026. – URL: https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/employment-and-social-trends-2026.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «"Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 февралдаги «2026 йилда ҳудудларни янгича ёндашувлар асосида ривожлантириш орқали аҳоли даромадини ошириш, барқарор иш ўринларини яратиш ҳамда камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-49-сон қарори. – URL: https://lex.uz/docs/8038302.

4. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Меҳнат бозори ва демография кўрсаткичлари. – URL: https://siat.stat.uz.

5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Расмий веб-сайт (трансчегаравий пул ўтказмалари статистикаси). – URL: https://cbu.uz.

6. Jackman R., Roper S. Structural Unemployment // Oxford Bulletin of Economics and Statistics. – 1987. – Vol. 49. – No. 1. – P. 9-36.

7. Şahin A., Song J., Topa G., Violante G.L. Mismatch Unemployment // American Economic Review. – 2014. – Vol. 104. – No. 11. – P. 3529-3564.

ҲУДУДЛАРНИНГ СОЛИШТИРМА УСТУНЛИКЛАРИ АСОСИДА МОЛИЯВИЙ ВОСИТАЛАРНИ МАНЗИЛЛИ ЙЎНАЛТИРИШ

PhD. Доцент, ***Давранов Орзу Абдужаббарович***
ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Ҳудудий иқтисодиётни ривожлантиришда молиявий воситалардан фойдаланиш самарадорлиги уларнинг ҳудуд имкониятлари билан қай даражада уйғунлашишига боғлиқ. Ҳар бир ҳудуд табиий ресурс, меҳнат бозори, инфратузилма, бозорга чиқиш имконияти ва тадбиркорлик муҳити жиҳатидан ўзига хос хусусиятларга эга. Шу сабабли молиявий воситаларни барча ҳудудларга бир хил мезон асосида йўналтириш кутилган натижани бермаслиги мумкин.

Ҳудудларнинг солиштирма устунликларини аниқлаш ва улар асосида молиявий воситаларни йўналтириш ҳудудий сиёсатнинг манзиллилигини оширади. Саноат салоҳияти юқори бўлган ҳудудда инфратузилма инвестициялари ва кредит линиялари муҳим бўлса, қишлоқ хўжалигига ихтисослашган ҳудудда қайта ишлаш, лизинг ва агросаноат занжирини қўллаб-қувватлаш устувор бўлади. Хизматлар ва туризм имконияти юқори ҳудудларда эса кичик бизнес кредитлари, давлат-хусусий шериклик ва маҳаллий инфратузилма лойиҳалари кўпроқ самара беради.

Ҳудудлар кесимида ЯҲМ, аҳоли жон бошига ЯҲМ, асосий капиталга инвестициялар, аҳоли даромадлари, кичик бизнес улуши ва маҳаллий бюджет кўрсаткичлари ўзаро таққосланади. Бундай таққослаш ҳар бир ҳудуднинг иқтисодий профилини очиб беради ва молиявий воситаларни саноат, хизматлар, қишлоқ хўжалиги, туризм ёки маҳаллий тадбиркорлик имкониятларига мос йўналтиришга хизмат қилади.

Солиштирма устунлик деганда ҳудуднинг бошқа ҳудудларга нисбатан муайян иқтисодий фаолият турларида юқори натижа бериш имконияти тушунилади. Бу устунлик табиий ресурслар, географик жойлашув, ишлаб чиқариш анъаналари, меҳнат кўникмалари, транспорт-логистика имкониятлари, агломерация таъсири ёки маҳаллий бозор талабидан келиб чиқиши мумкин. Ушбу омилларни ҳисобга олиш молиявий воситаларни иқтисодий натижа берадиган йўналишларга қаратишга ёрдам беради.

Молиявий воситаларни солиштирма устунликлар асосида йўналтириш уч босқичда амалга оширилади. Биринчи босқичда ҳудуднинг иқтисодий профили аниқланади. Бунда саноат, қишлоқ хўжалиги, хизматлар, туризм, транспорт-логистика, кичик бизнес ёки маҳалла ихтисослашуви каби

йўналишлар баҳоланади. Иккинчи босқичда ушбу профилга мос молиявий воситалар танланади. Учинчи босқичда танланган воситаларнинг ЯҲМ, аҳоли даромади, бандлик, тадбиркорлик ва маҳаллий бюджет даромадларига таъсири кузатилади.

1-жадвал.

Солиштирма устунликлар асосида молиявий воситаларни йўналтириш мантиғи

Ҳудудий асос	Мос молиявий восита	Кутиладиган ҳудудий натижа
Саноат салоҳияти юқори ҳудуд	Инфратузилма инвестициялари, кредит линиялари	ЯҲМ ўсиши, янги иш ўринлари
Қишлоқ хўжалигига ихтисослашган ҳудуд	Субсидия, лизинг, қайта ишлаш лойиҳалари	Қўшилган қиймат ва аҳоли даромади ўсиши
Хизматлар ва туризм имконияти юқори ҳудуд	Кичик бизнес кредитлари, ДХШ, маҳаллий инфратузилма	Хизматлар ҳажми ва бандлик ўсиши
Инфратузилмаси заиф ҳудуд	Бюджет трансфертлари, мақсадли дастурлар	Ҳудудлараро тафовутнинг қисқариши
Маҳалла ихтисослашуви шаклланган ҳудуд	Маҳалла бюджети, ташаббусли бюджет, микрокредит	Маҳаллий тадбиркорлик ва даромад ўсиши

Manba: *Muallif ishlanmasi*

1-жадвалда ҳудуднинг иқтисодий хусусиятига мос молиявий воситаларни танлаш мантиғи кўрсатилган. Жадвалнинг аҳамияти шундаки, унда ресурслар умумий харажат сифатида эмас, балки ҳудудий иқтисодий натижага олиб борувчи амалий дастак сифатида берилган. Бу ҳолат молиявий воситаларни ҳар бир ҳудуднинг аниқ эҳтиёжи ва имкониятига боғлаб қўллаш зарурлигини асослайди.

Манзилли молиялаштириш механизми ҳудудлараро иқтисодий тафовутларни камайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Ривожланган ҳудудларга хусусий инвестициялар ва юқори технологияли лойиҳаларни жалб қилиш нисбатан осон кечади. Инфратузилмаси заиф, иш ўринлари чекланган ва аҳоли даромади паст ҳудудларда эса бюджет трансфертлари, мақсадли инвестициялар, кичик бизнес кредитлари ва маҳалла даражасидаги қўллаб-қувватлаш чоралари кўпроқ аҳамиятга эга бўлади.

Ҳудудларнинг солиштирма устунликлари асосида молиявий воситаларни танлашда бир нечта мезонларга таяниш мумкин. Биринчидан, ҳудуднинг иқтисодий таркиби таҳлил қилинади. Иккинчидан, аҳоли бандлиги ва даромадларининг шаклланиш манбалари ўрганилади. Учинчидан, инфратузилма билан таъминланганлик даражаси баҳоланади. Тўртинчидан, маҳаллий бюджет даромадлари ва трансфертларга боғлиқлик ҳолати кўриб чиқилади. Бешинчидан, кичик бизнес ва хизматлар соҳасининг маҳаллий иқтисодиётдаги ўрни аниқланади.

Таклиф этилаётган механизмнинг илмий аҳамияти шундаки, молиявий воситаларни тақсимлашда ҳудудларнинг фақат жорий бюджет эҳтиёжи

эмас, балки уларнинг иқтисодий натижа бериш имконияти ҳам инобатга олинади. Бу ёндашув ресурсларни самарали йўналтириш, маҳаллий даромад базасини кенгайтириш, кичик бизнесни фаоллаштириш ва аҳоли даромадларини ошириш учун қулай шароит яратади.

Амалиётда мазкур механизм ҳудудларни уч йўналишда қўллаб-қувватлашни назарда тутади. Биринчи йўналиш — иқтисодий фаоллиги юқори ҳудудларда инвестиция ва инновация лойиҳаларини кенгайтириш. Иккинчи йўналиш — ўртача салоҳиятга эга ҳудудларда инфратузилма ва тадбиркорлик муҳитини яхшилаш. Учинчи йўналиш — қўллаб-қувватлашга эҳтиёжи юқори ҳудудларда бюджет, кредит ва маҳалла даражасидаги дастакларни кучайтириш. Бундай ёндашув ҳудудий сиёсатни бир хил эмас, балки ҳолатга мослашган тарзда ташкил этиш имконини беради.

Ҳудудларнинг солиштирма устунликлари асосида молиявий воситаларни манзилли йўналтириш маҳаллий иқтисодий фаолликни кучайтириш ва ҳудудлараро тафовутларни камайтириш учун муҳим аҳамиятга эга. Бу ёндашувда молиявий воситалар ҳудуднинг иқтисодий профили, инфратузилма ҳолати, тадбиркорлик имконияти ва аҳоли даромадлари билан боғлиқ ҳолда танланади.

Таклиф этилаётган механизм ҳудудларда инвестиция фаоллигини ошириш, маҳаллий бизнесни қўллаб-қувватлаш, янги иш ўринларини яратиш ва аҳоли даромадларини кўпайтиришга хизмат қилади. Молиявий воситаларни ҳудуднинг солиштирма устунлигига мос равишда қўллаш ҳудудий ривожланишнинг натижавийлигини оширади ва ресурслардан фойдаланишда манзиллиликни таъминлайди.

Адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qarori. 2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Lex.uz.

2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori. 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni. 2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. SIAT ochiq ma’lumotlar portali: yalpi hududiy mahsulot, aholi daromadlari, investitsiyalar va kichik biznes ko‘rsatkichlari. siat.stat.uz.

6. North, D.C. (1990) Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Oates, W.E. (1972) Fiscal Federalism. New York: Harcourt Brace Jovanovich.

8. Porter, M.E. (1998) ‘Clusters and the new economics of competition’, Harvard Business Review, 76(6), pp. 77–90.

ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕЙ МИГРАЦИИ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

к.э.н., доцент, ***Алиева Сусанна Сейрановна***
Самаркандский институт экономики и сервиса

Внутренняя миграция населения представляет собой один из ключевых, но при этом недостаточно изученных факторов территориального социально-экономического развития Узбекистана. В отличие от внешней трудовой миграции, которая на протяжении последних двух десятилетий находится в центре внимания исследователей и органов государственного управления, перемещение населения внутри страны долгое время оставалось на периферии научного анализа. Между тем именно внутристрановая мобильность формирует структуру расселения, определяет нагрузку на рынки труда и жилья крупных городов и одновременно отражает глубину диспропорций в уровне жизни между регионами республики.

Актуальность темы обусловлена тем, что, по оценке специалистов Всемирного банка, Узбекистан имеет один из самых низких показателей внутренней миграции в мире, что способствует сохранению устойчивых экономических диспропорций между регионами [3]. Основными барьерами внутренней мобильности выступают институт прописки (постоянной регистрации), ограничивающий свободу выбора места жительства, а также высокая стоимость жилья в городах, прежде всего в Ташкенте [3]. Либерализация правил регистрации, проведенная в 2017 году, несколько упростила переезд граждан в столицу и областные центры, однако не устранила структурные ограничения мобильности [5].

Цель настоящего исследования состоит в анализе масштабов и направленности внутренних миграционных потоков в Узбекистане и оценке их связи с уровнем социально-экономического развития регионов.

По данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, обобщенным в докладе Международной организации по миграции (МОМ), в первом квартале 2024 года постоянное место жительства внутри страны сменили 55 614 человек, что примерно на 9% больше, чем за аналогичный период 2023 года (50 537 человек) [4]. При этом отток из городских населенных пунктов в первом квартале 2024 года превышал отток из сельской местности: 32,5 тыс. человек против 25,7 тыс. человек, что свидетельствует о значительной роли межгородской миграции наряду с классическим перемещением «село-город» [4].

Региональная структура миграционных потоков крайне неоднородна. По данным доклада МОМ за январь-март 2025 года, город Ташкент остается главным центром притяжения внутренних мигрантов: за квартал в столицу прибыло свыше 22 тыс. человек, тогда как выбыло свыше 17 тыс. человек, то есть миграционное сальдо города существенно положительно и многократно превышает показатели любого другого региона [1].

Противоположная картина наблюдается в Сурхандарьинской, Самаркандской и Кашкадарьинской областях, где отток населения превышает приток, что означает устойчивый чистый отток населения из этих территорий. Навоийская и Ферганская области характеризуются относительно сбалансированной миграцией, с показателями притока и оттока на уровне около 4 тыс. человек в каждом направлении, а Наманганская область демонстрирует наименьшую миграционную активность в стране, около 700 прибывших и 1 100 выбывших за квартал [1].

Следует отметить и сопутствующий эффект, который в исследованиях Всемирного банка обозначается как «скрытая урбанизация»: рост населения происходит преимущественно за счет разрастания пригородных территорий крупных городов, а не за счет повышения плотности застройки внутри городской черты, что типично и для ряда развивающихся стран Латинской Америки [6]. Это порождает диспропорции в обеспеченности пригородов инженерной и социальной инфраструктурой и снижает эффективность использования городских земель.

Одновременно с этим сохраняется существенная дифференциация регионов по уровню денежных доходов населения. По данным Национального комитета по статистики за 2024 год, среднедушевые доходы жителей Ташкента составили 60,6 млн сум, что в 2,5 раза превышает среднереспубликанский уровень; далее следуют Навоийская (38,1 млн сум), Бухарская (27,5 млн сум) и Ташкентская (25,1 млн сум) области. Наименьшие показатели зафиксированы в Наманганской области (16,85 млн сум), Республике Каракалпакстан (16,86 млн сум) и Сурхандарьинской области (17,88 млн сум). Разрыв в доходах между тремя наиболее обеспеченными и тремя наименее обеспеченными регионами за год увеличился с 2,3 до 2,4 раза, тогда как в 2020 году он составлял 2,15 раза [2]. Таким образом, региональное неравенство доходов не сокращается, а усиливается. Сопоставление указанных показателей приведено в таблице 1.

Анализ таблицы 1 показывает отчетливую связь между уровнем доходов региона и его миграционной привлекательностью. Ташкент, обладающий наивысшим доходом на душу населения, одновременно является безусловным лидером по притоку мигрантов; регионы с наименьшими доходами (Наманганская область, Каракалпакстан, Сурхандарьинская область) либо теряют население, либо демонстрируют наименьшую миграционную активность. Такая связь согласуется с классической моделью «притяжения-выталкивания» (push-pull), однако ее практическое значение состоит в том, что миграция в нынешних условиях не выравнивает, а закрепляет и усиливает межрегиональные диспропорции: наиболее мобильная и трудоспособная часть населения бедных регионов перемещается в уже наиболее обеспеченный центр, что ослабляет экономический потенциал территорий-доноров.

Таблица 1

Доходы населения и миграционное сальдо по регионам Узбекистана

Регион	Среднедушевые доходы населения, 2024 г., млн сум [9]	Приток мигрантов, I кв. 2025 г., чел. [8]	Отток мигрантов, I кв. 2025 г., чел.	Миграционное сальдо и тип региона
г. Ташкент	60,6	22 340	17 534	+4 806; положительное - главный центр притяжения мигрантов
Навоийская область	38,1	3 963	3 817	+146; близкое к нулю - сбалансированный регион
Бухарская область	27,5	2 458	3 784	-1 326; отрицательное - отток превышает приток
Ташкентская область	25,1	7 735	6 286	+1 449; положительное
Ферганская область	н/д*	3 542	3 962	-420; слабо отрицательное - близко к балансу
Республика Каракалпакстан	16,9	3 052	4 109	-1 057; отрицательное
Наманганская область	16,9	708	1 176	-468; наименьшая миграционная активность в стране; отрицательное
Сурхандарьинская область	17,9	3 073	4 002	-929; отрицательное - отток превышает приток
Самаркандская область	н/д*	3 373	4 593	-1 220; отрицательное - отток превышает приток
Кашкадарьинская область	н/д*	3 069	4 877	-1 808; отрицательное - наибольший отток среди перечисленных регионов

** Данные для Ферганской, Самаркандской и Кашкадарьинской областей в открытых источниках не найдены в виде цифры (в отличие от других регионов таблицы). Известны только официальные реальные темпы прироста доходов за 2024 год: Самаркандская область +5,3%, Кашкадарьинская область +3,2%, Ферганская область +1,1% (к уровню 2023 г., с очисткой от инфляции).*

Азиатский банк развития в своей оценке урбанизационного потенциала Узбекистана указывает, что Ташкент концентрирует ключевые административные, образовательные и промышленные функции страны, что естественным образом превращает его в главный магнит для внутренней миграции и усиливает демографическую нагрузку на

городскую инфраструктуру, которая не всегда успевает за темпами роста населения. В этой связи Азиатский банк развития рекомендует развивать региональные точки роста и повышать инвестиционную привлекательность областных центров как альтернативу дальнейшей концентрации населения в столице [7].

По результатам проведенного анализа можно сформулировать следующие выводы.

Во-первых, внутренняя миграция в Узбекистане носит выраженно центростремительный характер: основным реципиентом мигрантов остается город Ташкент, тогда как ряд областей (Сурхандарьинская, Самаркандская, Кашкадарьинская) устойчиво теряет население.

Во-вторых, миграционные потоки тесно связаны с межрегиональной дифференциацией доходов населения и, по имеющимся данным, скорее усиливают, чем сглаживают эту дифференциацию.

В-третьих, институциональные барьеры (регистрационные требования, стоимость городского жилья) остаются значимым ограничением мобильности, и их дальнейшая либерализация, по оценкам Всемирного банка, поддерживается значительной частью населения [3].

В-четвертых, для смягчения диспропорций регионального развития представляется целесообразным сместить акцент экономической политики с точечного стимулирования столичной агломерации на комплексное развитие региональных центров, включая Навоийскую, Ферганскую и Бухарскую области, обладающих опорной промышленной базой и относительно сбалансированными миграционными показателями.

Литературы

1. International Organization for Migration. Uzbekistan Migration Situation Report (January-March 2025). Tashkent: IOM, 2025. URL: https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/documents/2025-06/uzbekistan-migration-situation-report-jan-march-2025.pdf (дата обращения: 14.09.2026).

2. Реальные доходы населения Узбекистана в 2024 году выросли, но усилилось расслоение между регионами // Gazeta.uz. 05.02.2025. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2025/02/05/income/ (дата обращения: 14.09.2026).

3. Seitz W. Free Movement and Affordable Housing: Public Preferences for Reform in Uzbekistan. Policy Research Working Paper No. 9107. Washington, D.C.: World Bank, 2020. URL: https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/954af80d-37d1-582f-9525-95707827ba4f/download (дата обращения: 14.09.2026).

4. International Organization for Migration. Uzbekistan Migration Situation Report (January-March 2024). Tashkent: IOM, 2024. URL: https://dtm.iom.int/sites/g/files/tmzbdl1461/files/reports/Uzbekistan%20%E2%80%94%20Migration%20Situation%20Report%20(January-March%202024).pdf (дата обращения: 14.09.2026).

5. Урбанизация без правил: как меняется жизнь в городах региона ЦА // Ekonomist Media. URL: https://ekonomist.kz/editor/urbanizaciya-v-centralnoj-azii/ (дата обращения: 14.09.2026).

6. Как растут города Узбекистана и правильно ли они растут // Gazeta.uz. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2022/07/10/urbanization/ (дата обращения: 14.09.2026).


7. Asian Development Bank. Harnessing Uzbekistan's Potential of Urbanization: National Urban Assessment. Manila: ADB, 2023. URL: https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/735126/uzbekistan-national-urban-assessment.pdf (дата обращения: 14.09.2026).

MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH

PhD v.b.,dotsent, ***Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li***
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki maxsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini 1,4 baravarga oshirish, mamlakatda investitsiya muxitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki maxsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan [1]. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan taxlillar respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mavjudligini ko'rsatdi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – bu iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi sabab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida katta miqdordagi debitor qarzdorlikning mavjudligidir.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlik miqdori, trln. so'm

Manba: *Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlikning miqdori 2021-2025-yillarda katta miqdorda bo'lib, 2020-2025-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Fikrimizcha, respublikamizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor qarzdorlikning miqdori mamlakat iqtisodiyotining pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasining past ekanligi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligi, ularning joriy aktivlari ҳajmida pul mablag‘larining ulushini past ekanligi kabi jiddiy omillar bilan izoҳlanadi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajsi, foizda

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz iqtisodiyotini pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi 2021-2025 yillarda nisbatan past bo‘lgan. Buning ustiga, ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

Mamlakat iqtisodiyotini pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi past bo‘lgan sharoitda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi debitor qarzdorlik muammosini ҳal qilishning iloji yo‘q.

Mamlakat iqtisodiyotini pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasining past ekanligining yana bir muҳim sababi – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligidir.

1-jadval

“O‘zkimyosanoat” AJ jami majburiyatlari va tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha majburiyatlari, mlrd. so‘m

Ko‘rsatkichlar	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Majburiyatlar – jami	114,8	38,5	37,4	522,2	39,7
shu jumladan:					
Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha majburiyatlar	81,5	0	0	0	0

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020-2023-yillarda “O‘zkimyosanoat” AJ majburiyatlarining tarkibida tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha majburiyatlar bo‘lmagan.

Respublikamizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

– iqtisodiyotda to‘lovsizlik muammosining mavjudligi sabab xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida katta miqdordagi debitor qarzdorlikning mavjudligi;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi va tannarxning tushum ҳajmidagi salmog‘ining nisbatan yuqori ekanligi;

– respublikamizda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanmaganligi tufayli ҳolat xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qimmatli qog‘ozlar bozoridan resurslar jalb qilish va o‘zlarining likvidliligini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish orqali ta’minlash imkoniyatini cheklanganligi.

Respublikamizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyatini noan’anaviy manbalar ҳisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– kradfanding va kraudsorsingdan foydalanishning me’yoriy-ҳuquqiy asoslarini yaratish lozim;

– forfeytingdan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun trattalar muomalasini joriy qilish lozim;

– faktoringdan foydalanish ko‘lamini kengaytirish uchun, birinchidan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning joriy likvidlilik darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, to‘lovi kechiktirib sotilgan tovarlar kreditga sotilgan deb tan olinishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida, birinchidan, korxonalarning uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash kerak; jalb qilinayotgan xalqaro kreditlarning umumiy ҳajmida qat’iy belgilangan stavkada jalb qiligan kreditlarning salmog‘ini oshirish zarur; uchinchidan, korxonalarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning me’yoriy darajasini ta’minlash orqali ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. - 80 b.

3. Veselovskiy M.Ya. Kraudfanding v Rossii: sostoyanie i vozmojnosti stimulirovaniya innovatsionnыx startapov // Innovatsionnoe razvitie ekonomiki. – 2016. – № 2(32).

4. Rogova A.V. Kraudsorsing kak instrument sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya regiona//Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya. – Moskva,2013. - № 5. – S. 27-32.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. https://stat.uz/uz/

6. “O‘zkimyosanoat” AJ. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot//https://uzkimyosanoat.uz

ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ ИЗ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, РИСКИ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

Доцент, ***Буранова Лола Вахобовна***
Ташкентский государственный экономический университет
l.buranova@tsue.uz
Умаров Нурлан
Ташкентский государственный экономический университет

Глобализация усиливает взаимосвязь национальных рынков труда: различия в оплате труда, спросе на профессии, демографической структуре и качестве занятости стимулируют перемещение работников между странами. Для Узбекистана внешняя трудовая миграция одновременно выступает способом повышения доходов населения и механизмом включения граждан в международный рынок труда. Вместе с тем она создаёт риски — от уязвимости работников перед недобросовестными посредниками и нестабильностью условий труда до утечки квалифицированных кадров и зависимости семейных бюджетов от внешних экономических шоков.

Исследованию социально-экономических последствий международной трудовой миграции и её влияния на формирование финансовых ресурсов посвящены научные труды О. Старка, Д. Блума, Дж. Э. Тейлора, Д. Ратхи, Р. Адамса, Дж. Пейджа, П. Джулиано и М. Руис-Арранс [1]. В их работах раскрываются механизмы воздействия трудовой миграции и международных денежных переводов на доходы домашних хозяйств, финансовые накопления, инвестиционную активность и экономический рост. М. Клеменс и Д. Маккензи обращают внимание на методологические сложности количественной оценки макроэкономических эффектов денежных переводов. Применительно к Узбекистану особый интерес представляют исследования Дж. Каххарова, М. Ахунова, З. Парпиева, И. Вольфсон и У. Сейтца, в которых анализируется влияние миграционных процессов на расходы, доходы и благосостояние домохозяйств [3]. Вместе с тем дальнейшего исследования требует комплексная оценка воздействия внешней трудовой миграции на формирование и использование финансового потенциала одновременно на микро-, мезо- и макроуровнях.

Масштаб экономического значения миграции подтверждается денежными переводами. По данным Центрального банка Республики Узбекистан, поступления трансграничных денежных переводов составили 11,4 млрд долларов США в 2023 году, 14,8 млрд долларов в 2024 году и 18,9 млрд долларов в 2025 году. В 2024 году показатель вырос примерно на 30% относительно 2023 года, а в 2025 году — на 28% относительно 2024 года [1]. Динамика отражает растущее значение заработков граждан за рубежом для доходов домохозяйств и поступления иностранной валюты. Однако

объём переводов сам по себе не показывает качество занятости, расходы на трудоустройство, уровень социальной защиты и возможности применения приобретённых навыков после возвращения.




Рисунок 1. Динамика денежных переводов в Узбекистан, 2023–2025 гг.

Миграцию стимулируют различия в заработной плате, ограниченность подходящих рабочих мест внутри страны и спрос на работников в принимающих государствах. На решение также влияют семейные и миграционные сети, языковая подготовка, квалификация, признание документов об образовании и доступность легального трудоустройства. Положительные эффекты миграции включают рост доходов семей, финансирование образования, жилья и медицинских услуг, поддержку внутреннего спроса и поступление иностранной валюты. Работа за рубежом также может дать профессиональный опыт и новые навыки. Однако положительный эффект не определяется переводами, которые преимущественно расходуются на текущее потребление, их вклад в производительность и создание рабочих мест может быть ограничен.

Всемирный банк отмечает, что трудовая миграция положительно влияет на рост благосостояния домохозяйств, и отрицательно влияет на ослабления эффекта после возвращения мигрантов и снижения участия отдельных членов семьи в национальном рынке труда [7]. Основными ключевыми рисками отрицательно влияющие на трудовую миграцию можно выдвинуть — непрозрачное трудоустройство, долги за посреднические услуги, ограниченный доступ к правовой помощи и страхованию, нарушение условий договора и непризнание квалификаций. Концентрация потоков в нескольких странах усиливает уязвимость мигрантов перед экономическими спадами и изменением правил въезда. Поэтому для населения важными факторами являются финансовая грамотность, предпринимательство и инвестиции.

Счётная палата Узбекистана в феврале 2026 года указала на проблемы достоверности данных, организации трудоустройства, контроля отдельных программ и средне- и долгосрочного прогнозирования миграции [8]. Поэтому эффективность политики следует оценивать не только по числу выехавших, но и по фактическому трудоустройству, соблюдению прав, оплате и устойчивости занятости. При этом важными

направлениями совершенствования государственного регулирования выделяются следующие:

Во-первых, нужно расширять организованное трудоустройство, проверять вакансии и обеспечивать прозрачные договоры. До выезда гражданин должен знать условия оплаты, рабочего времени, жилья, страхования и удержаний, а также порядок обращения за помощью. Требуются контроль посредников и доступные механизмы рассмотрения жалоб.

Во-вторых, обучение следует строить под подтверждённый спрос работодателей и сочетать профессиональные навыки, иностранный язык, цифровую и финансовую грамотность, основы трудового права. Результат нужно измерять фактическим трудоустройством по специальности, а не числом выданных сертификатов.

В-третьих, следует диверсифицировать направления миграции без создания новой чрезмерной зависимости. Этому помогут межгосударственные соглашения, признание квалификаций, информационные центры и правовая поддержка в странах назначения.

В-четвёртых, важно содействовать продуктивному использованию переводов через доступные банковские продукты, консультации по малому бизнесу, обучение семейному бюджету и добровольные накопления. Поддержка предпринимательства должна предоставляться прозрачно и оцениваться по результатам.

В-пятых, необходима реинтеграция вернувшихся граждан: признание зарубежных навыков, помощь в трудоустройстве, переподготовка и консультации по предпринимательству. Оценка политики должна учитывать трудоустройство, заработную плату, нарушения прав, стоимость посреднических услуг и использование переводов для накопления и инвестиций.

Выводы. Трудовая миграция из Узбекистана в условиях глобализации представляет собой сложный социально-экономический процесс, который нельзя оценивать исключительно как отток рабочей силы или как источник денежных переводов. Она повышает доходы многих домохозяйств и расширяет доступ граждан к международному рынку труда, но одновременно формирует риски правовой незащищённости, внешней зависимости и недостаточного использования накопленного человеческого капитала. Рост переводов до 18,9 млрд долларов США в 2025 году подчёркивает экономическую значимость данного явления [7], но не отменяет необходимости оценивать качество занятости и долгосрочные последствия. Результативная миграционная политика должна сочетать безопасное и организованное трудоустройство за рубежом с созданием производительных рабочих мест внутри страны. Приоритетами должны стать подготовка кадров под реальный спрос, защита трудовых прав, достоверная статистика, диверсификация направлений миграции и поддержка реинтеграции вернувшихся граждан. Такой подход позволит рассматривать трудовую миграцию не только как реакцию на различия

между рынками труда, но и как управляемый фактор развития человеческого капитала и повышения благосостояния населения.

Литературы

1. *Stark O., Bloom D. E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. — 1985. — Vol. 75, No. 2. — P. 173–178*

2. *Taylor J. E. The New Economics of Labour Migration and the Role of Remittances in the Migration Process // International Migration. — 1999. — Vol. 37, No. 1. — P. 63–88.*

3. *Kakhkharov J., Ahunov M., Parpiev Z., Wolfson I. South-South Migration: Remittances of Labour Migrants and Household Expenditures in Uzbekistan // International Migration. — 2021. — Vol. 59, No. 5. — P. 38–58.*

4. *Seitz W. H. International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. — Washington, DC: World Bank, 2019. — Policy Research Working Paper No. 8910.*

5. *Буранова Л.В. Методологический подход "дебют четырёх коней" в оценке финансового потенциала. 2025-yil. muhandislik & iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal// www.muhandislik-iqtisodiyot.uz*

6. *Центральный банк Республики Узбекистан. Review of International Migration and Individuals' Foreign Exchange Operations, March 2026. URL: https://cbu.uz*

7. *Всемирный банк. Документ по вопросам миграции и развития в Центральной Азии, 2025. https://documents1.worldbank.org*

8. *Счётная палата Республики Узбекистан. The Chamber of Accounts Conducted an Audit in the Field of External Labor Migration. 01.02.2026. https://ach.gov.uz*

9. *Международная организация труда. Uzbekistan unveils major actions to curb informal economy and strengthen social protection. 30.04.2025. URL: https://www.ilo.org*

ВЛИЯНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ИЗ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА НА МИКРО-, МЕЗО- И МАКРОУРОВНЯХ

Доцент, ***Буранова Лола Вахобовна***
Ташкентский государственный экономический университет
l.buranova@tsue.uz

В условиях глобализации трудовая миграция обеспечивает трансграничное движение трудовых ресурсов, денежных доходов, накоплений, профессиональных компетенций и предпринимательского капитала. При этом её воздействие на финансовый потенциал имеет двойственный характер: с одной стороны, формируются дополнительные финансовые ресурсы, с другой — возникают риски сокращения национального трудового потенциала, усиления зависимости от внешних доходов и ослабления внутренней производственной базы.

С точки зрения методологии оценки финансового потенциала наиболее обоснованно выделять три взаимосвязанных уровня:

Микроуровень — финансовый потенциал домохозяйств, индивидуальных предпринимателей и предприятий.

Мезоуровень — финансовый потенциал областей, районов, городов и отдельных отраслей экономики.

Макроуровень — совокупный финансовый потенциал Республики Узбекистан, включая бюджетно-налоговый, банковский, инвестиционный и валютно-финансовый компоненты [1].

Воздействие трудовой миграции на микроуровне. По данным Организации Объединенных Наций, в 2024 году число международных мигрантов во всем мире достигло 304 миллионов человек, что составляет около 3,7% от мирового населения. По оценкам Всемирного банка, общий объем международных денежных переводов в 2024 году составил почти 900 миллиардов долларов США, из которых 680 миллиардов долларов США были направлены в страны с низким и средним уровнем дохода. Эти цифры подчеркивают, что денежные переводы все чаще становятся стабильным источником внешнего финансирования для многих экономик и в периоды экономических потрясений помогают поддерживать доходы домохозяйств и способствуют стабильности внутреннего валютного рынка [4].

На микроуровне трудовая миграция воздействует прежде всего на формирование финансовых ресурсов домашних хозяйств и развитие предпринимательской активности.




Рисунок-1. Объем международных денежных переводов, поступающих в Узбекистан в 2020–2025 годах, млрд долларов США.

В 2025 году приток денежных переводов в Узбекистан увеличился на 28 процентов (4,1 млрд долларов США) по сравнению с 2024 годом, достигнув 18,9 млрд долларов США. Эти средства способствовали поддержанию баланса на внутреннем валютном рынке.

Методология количественной оценки финансового потенциала с влиянием трудовой миграции населения на микроуровне предлагаем следующий показатель:

$$FP_{micro} = Y_D + S + I_p - B$$

где: Y_D – располагаемый доход домохозяйства за период;
S – ранее накопленные доступные финансовые сбережения;
I_p – дополнительно мобилизуемые инвестиционные ресурсы;
B – подлежащие погашению краткосрочные финансовые обязательства.

Таблица 1.

Воздействие трудовой миграции на финансовый потенциал на микроуровне

Положительное воздействие	Возможные отрицательные последствия
Рост денежных доходов семей мигрантов	Зависимость семей от зарубежных доходов
Формирование сбережений и депозитов	Снижение устойчивости доходов при внешних кризисах
Погашение кредитных обязательств	Расходы на организацию миграции и долговая нагрузка
Финансирование малого семейного бизнеса	Недостаточное вложение средств в производственную деятельность
Повышение расходов на образование и здравоохранение	Длительное отсутствие трудоспособных членов семьи
Приобретение жилья и производственных активов	Преобладание текущего потребления над инвестициями

Это предлагаемая аналитическая модель при расчёте которой необходимо исключить двойной счёт: например, сбережения, уже образованные за счёт текущего дохода, не должны одновременно учитываться в обеих составляющих.




Рисунок – 2. Механизм воздействия финансового потенциала на микроуровне

Воздействие трудовой миграции на мезоуровне. На мезоуровне миграция воздействует на финансовый потенциал регионов через изменение доходов населения, спроса, предпринимательской активности, банковских ресурсов и налоговой базы. Это особенно важно для регионов Узбекистана, где различаются уровень занятости, производственная специализация и возможности получения внутренних трудовых доходов.

Таблица 2.

Воздействие трудовой миграции на финансовый потенциал на мезоуровне

Компонент регионального финансового потенциала	Воздействие трудовой миграции
Бюджетно-налоговый	Рост потребления может увеличивать налоговые поступления через деятельность бизнеса
Банковско-финансовый	Увеличение денежных переводов, депозитов и использования финансовых услуг
Инвестиционный	Финансирование строительства, торговли, услуг и малого предпринимательства
Предпринимательский	Создание семейных предприятий и новых рабочих мест
Финансовый потенциал населения	Рост доходов, сбережений и платёжеспособности домохозяйств
Трудовой и производственный	Возможный дефицит работников, особенно квалифицированных специалистов

Здесь важно учитывать территориальную специфику. Например, для Сурхандарьинской, Кашкадарьинской, Самаркандской или Ферганской областей можно исследовать различия в интенсивности миграции, объёмах переводов, инвестиционной активности и бюджетно-налоговой отдаче. Однако наличие более значительной миграции само по себе не доказывает, что регион имеет более высокий финансовый потенциал.

Воздействие трудовой миграции на макроуровне. На макроэкономическом уровне трудовая миграция влияет на финансовый потенциал Узбекистана через пять основных каналов: денежные доходы населения, бюджетно-налоговую систему, банковский сектор, инвестиции и валютно-финансовую устойчивость.

Всемирный банк отмечает, что рост заработной платы и денежных переводов способствовал увеличению частного потребления в Узбекистане, а внешние поступления оказывали влияние на валютный рынок [5].

Денежные переводы увеличивают располагаемые ресурсы резидентов, но не являются автоматически доходами государственного бюджета, экспортной выручкой или приростом ВВП. Они могут способствовать росту этих показателей косвенно, через потребление, инвестиции, кредитование и расширение экономической деятельности.




Рисунок – 3. Механизм воздействия финансового потенциала на мезоуровне

Методология оценки влияния миграции на финансовый потенциал региона предлагается использовать следующую структуру оценки финансового потенциала:

$$FP_r = BTP_r + BFP_r + EFP_r + HFP_r$$

Где: BTP_r – бюджетно-налоговый потенциал региона;
BFP_r – финансовый потенциал банков и финансовых организаций;
EFP_r – финансовый потенциал предприятий;
EFP_r – финансовый потенциал домашних хозяйств.

Трудовая миграция воздействует на каждый из этих компонентов, но с различной силой и временными лагами [2].

Таблица 3.

Воздействие трудовой миграции на финансовый потенциал на макроуровне

Канал воздействия	Положительные эффекты	Риски
Бюджетно-налоговый	Расширение налоговой базы за счёт роста потребления и предпринимательства	Сокращение внутренней базы налогооблагаемых трудовых доходов
Банковский	Увеличение депозитов и банковских операций	Волатильность трансграничных поступлений
Инвестиционный	Дополнительные источники финансирования частных инвестиций	Преобладание непроизводительных расходов
Валютно-финансовый	Рост предложения иностранной валюты, поддержание внешней ликвидности	Зависимость от валютных курсов и экономики принимающих стран
Производственный	Возвращение работников с навыками и капиталом	Отток квалифицированных кадров и дефицит рабочей силы

Для совершенствования методологии оценки финансового потенциала трудовую миграцию можно рассматривать как фактор, воздействующий на формирование и реализацию финансового потенциала, а не как дополнительный элемент, который непосредственно суммируется с уже рассчитанными финансовыми ресурсами. Это позволит избежать двойного счёта и установить экономически обоснованные взаимосвязи.

$$\boldsymbol{lnFP_t = \alpha + \beta_1 \ln REM_t + \beta_2 \ln INV_t + \beta_3 \ln DEP_t + \beta_4 MIGRATE_t + \beta_5 INF_t}$$

FP_t – интегральный индекс финансового потенциала Республики Узбекистан;
$\ln REM_t$ – реальные денежные переводы;
$\ln INV_t$ – инвестиции в основной капитал;
$\ln DEP_t$ – депозиты в банковской системе;
$MIGRATE_t$ – интенсивность внешней трудовой миграции;
INF_t – уровень инфляции.

Если финансовый потенциал уже рассчитан в виде интегрального индекса, именно его можно использовать как результативный показатель [1].

При этом имеется существенное методологическое ограничение: если инвестиции и депозиты уже входят в состав интегрального индекса финансового потенциала, включение их в регрессию может приводить к механической корреляции. Поэтому предпочтительно дополнительно оценить модель с миграционными факторами и контрольными переменными, не участвующими непосредственно в расчёте индекса.

Для временного ряда Узбекистана за 2010–2025 годы также необходимо учитывать небольшое число наблюдений, проверять стационарность, структурные сдвиги и возможную эндогенность миграции.

Вывод. В условиях глобализации внешняя трудовая миграция выступает одним из факторов формирования и воспроизводства финансового потенциала Республики Узбекистан, оказывая многоуровневое воздействие на финансовые отношения. На микроуровне её влияние проявляется в увеличении располагаемых доходов, финансовых накоплений и инвестиционных возможностей домашних хозяйств; на мезоуровне — в расширении региональной финансовой базы посредством активизации потребительского спроса, банковского посредничества, предпринимательской и инвестиционной деятельности; на макроуровне — в увеличении трансграничных финансовых поступлений, поддержании валютной ликвидности и косвенном укреплении бюджетно-налогового и инвестиционного потенциала страны. Вместе с тем результативность указанных процессов определяется не столько масштабами трудовой миграции и объёмами поступающих денежных переводов, сколько степенью их трансформации в устойчивые источники финансового накопления, производственного инвестирования и расширенного

воспроизводства национального капитала. В этой связи совершенствование методологии оценки финансового потенциала предполагает учёт миграционно обусловленных финансовых потоков, оценку эффективности их использования и анализ возникающих рисков внешнеэкономической зависимости.

Литература

1.Худокулов С.К., Буранова Л.В. Ҳудуларнинг молиявий салоҳиятига таъсир этувчи омилларнинг таснифи ва аҳамиятлилиги.//Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар // 5(00055), http://iqtisodiyot.tsue.uz.

2.Fayzieva, M., Abdurakhmanova, G., Eshov, M., Khudoykulov, S., Kurbonov, S., Goyipnazarov, S., & Irmatova, A. (2023, December). The Role of Digital Development in the Reinforcement of the Government Social Protection System of Uzbekistan. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 42-50). https://dl.acm.org.

3.Буранова Л.В. Методологический подход "дебют четырёх коней" в оценке финансового потенциала. 2025-yil. muhandislik & iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal// www.muhandislik-iqtisodiyot.uz

4.Буранова Л.В. Финансовый потенциал и определение методологии его оценки. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya kredit tizimini rivojlanishdagi muammolar va ularning ilmiy yechimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to 'plami.-T.: DTPI, 2024-yil. 602 bet.

5.Буранова Л.В. Доходы населения при оценки финансового потенциала. Nashrlar, 15-17

6.https://cbu.uz - официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан.

7.https://www.worldbank.org - офиальный сайт Всемирного банка

ВНУТРЕННЯЯ МИГРАЦИЯ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ДИСБАЛАНСЫ РЫНКА ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD., associate professor, ***Najmitdinov Alisher Jamolitdinovich***
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
najmitdinov@gmail.com

За период 2020–2025 гг. в Республике Узбекистан продолжаются процессы структурной трансформации экономики, урбанизации и углубления межрегиональных социально-экономических различий, что усиливает роль внутренней миграции населения как фактора территориального перераспределения трудовых ресурсов [1; 7]. Внутренняя миграция - перемещение населения между регионами страны с изменением постоянного места жительства; её необходимо отличать от внешней трудовой миграции, эмиграции и иммиграции [7], поэтому в работе рассматривается исключительно внутренняя миграция.

Научная проблема состоит в том, что внутренняя миграция перераспределяет трудовые ресурсы между регионами Узбекистана, тогда

как региональные различия в занятости, оплате труда и структуре спроса на рабочую силу формируют неодинаковые условия для миграционных потоков. Концентрация трудоспособного населения в столичном регионе при неполноте региональной статистики занятости и заработной платы затрудняет оценку последствий такого перераспределения для регионов-доноров и региона-реципиента.

Цель исследования: выявить характер и региональные особенности внутренней миграции населения Узбекистана во взаимосвязи с состоянием региональных рынков труда за 2020–2025 гг. и разработать рекомендации по совершенствованию управления миграционными процессами.

Задачи исследования:

1) охарактеризовать динамику и структуру внутренней миграции;

2) выявить региональные различия направленности и интенсивности миграционных потоков;

3) сопоставить динамику трудовых ресурсов регионов с сальдо внутренней миграции;

4) определить группы регионов по характеру миграционно-трудовых процессов;

5) сформулировать рекомендации по сбалансированному распределению трудовых ресурсов. Объект исследования - процессы внутренней миграции населения Узбекистана; предмет - её взаимосвязь с региональными различиями рынка труда.

Характеристика и динамика внутренней миграции. По данным Нацкомстата РУз, за январь–июнь 2025 г. в пределах республики сменили место жительства 127 086 человек - 99,5% всех прибывших (127 759) и 95,8% всех выбывших (132 637); на внешнюю миграцию пришлось лишь 673 прибывших и 5 551 выбывших [7]. Численность постоянного населения на 1 января 2024 г. составила 36 799,8 тыс. человек [1], к 1 октября 2025 г. - 38 069,1 тыс. человек [2]; трудовые ресурсы страны выросли с 19 158,2 тыс. до 20 085,2 тыс. человек за 2020–2024 гг., т.е. на 4,8% (Тр (%) = (текущий/базовый период × 100) – 100) [7].

Региональные различия миграционных потоков. Анализ данных о внутренней миграции по 14 регионам за январь–июнь 2025 г. [7] выявляет территориальную асимметрию (табл. 1). Положительное сальдо - лишь в г. Ташкенте (+10 519), Ташкентской (+3 464) и Навоийской (+205) областях; в остальных 11 регионах - отрицательное, наиболее выражено в Кашкадарьинской (–3 346), Самаркандской (–2 298), Бухарской (–2 197) и Сурхандарьинской (–1 827) областях. Регионы делятся на группы с миграционным притяжением (три указанных региона) и с устойчивым оттоком (Каракалпакстан и остальные девять областей).

Динамика трудовых ресурсов регионов. Сопоставление динамики трудовых ресурсов за 2020–2024 гг. с сальдо миграции (табл. 1) показывает: наибольший темп прироста - в г. Ташкенте (+18,2%, или 318,0 тыс. человек), более чем втрое выше среднереспубликанского (4,8%), совпадает с положительным сальдо. В Ташкентской обл. темп прироста (3,5%) близок к

среднему, несмотря на положительное сальдо, - прямой пропорциональности притока и роста ресурсов не подтверждается. В Навоийской обл. при незначительном внутреннем сальдо (+205) темп прироста один из наиболее высоких (7,6%), тогда как суммарное сальдо отрицательно из-за оттока 868 человек за рубеж (873 против 5) [7] - это подтверждает необходимость раздельного анализа внутренней и внешней миграции.

Взаимосвязь миграции и рынка труда. Уровень безработицы в республике составил 8,9% по итогам 2022 г. [3] и 6,8% в 2023 г. [4]; средняя зарплата в экономике за III квартал 2023 г. - 4,4 млн сумов (+18% г/г) [5]. Сопоставимые данные по всем 14 регионам не выявлены, кроме отдельных публикаций (Андижанская обл., 2022 г.: занятость - 70,5%, безработица - 8,9% [6]), поэтому корреляционный анализ не проводился; совпадение сальдо миграции и роста трудовых ресурсов в г. Ташкенте - эмпирическая закономерность, а не доказанная причинно-следственная связь. Различия рынков труда могут быть одним из факторов мобильности населения наряду с инфраструктурой и расселенческими связями [7].

Экономические последствия. Концентрация притока в столице при оттоке из большинства регионов создаёт разнонаправленные эффекты: нагрузку на рынок труда и инфраструктуру региона-реципиента и риск сокращения предложения рабочей силы, в том числе квалифицированной, в регионах-донорах, несмотря на рост трудовых ресурсов за счёт естественного прироста [7]. Это формирует несоответствие между размещением трудовых ресурсов и рабочих мест - приоритетное направление политики занятости [7].

Научно-практические рекомендации:

1. В регионах устойчивого оттока (Кашкадарьинская, Самаркандская, Бухарская, Сурхандарьинская обл. и др.) - развитие центров занятости с функцией территориального мэтчинга спроса и предложения труда по востребованным местным профессиям.

2. Переподготовка населения регионов-доноров с учётом отраслевого профиля региона (например, промышленного - для Навоийской обл.), снижающая необходимость выезда, включая выезд за рубеж.

3. Стимулирование рабочих мест в регионах оттока с использованием Государственного фонда содействия занятости (Указ Президента РУз от 24.01.2018 № ПФ-5308) [7].

4. Развитие транспортной инфраструктуры между Ташкентской агломерацией и соседними регионами для маятниковой мобильности как альтернативы безвозвратной миграции, а также электронной системы мониторинга миграции на базе реестра населения с детализацией по регионам, полу, возрасту и квалификации [7].

Таблица 1

Динамика трудовых ресурсов и сальдо внутренней миграции по регионам Узбекистана

Регион	Труд. ресурсы 2020 г., тыс. чел.	Труд. ресурсы 2024 г., тыс. чел.	Темп роста 2020–2024, %	Сальдо внутр. миграции, чел. (I пол. 2025 г.)
Республика Узбекистан	19158,2	20085,2	104,8	0
Республика Каракалпакстан	1074,7	1098,6	102,2	–108
Андижанская обл.	1754,8	1807,4	103,0	–894
Бухарская обл.	1067,1	1085,3	101,7	–2197
Джизакская обл.	773,8	802,0	103,6	–760
Кашкадарьинская обл.	1809,8	1888,5	104,3	–3346
Навоийская обл.	555,2	597,4	107,6	+205
Наманганская обл.	1580,4	1632,4	103,3	–1055
Самаркандская обл.	2125,2	2190,9	103,1	–2298
Сурхандарьинская обл.	1452,2	1515,8	104,4	–1827
Сырдарьинская обл.	485,0	503,2	103,8	–286
Ташкентская обл.	1615,4	1671,6	103,5	+3464
Ферганская обл.	2069,3	2143,3	103,6	–636
Хорезмская обл.	1044,8	1080,3	103,4	–781
г. Ташкент	1750,5	2068,5	118,2	+10519

Составлено автором по данным: [7] (первичный источник - Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике, сб. «Аҳоли миграцияси ва меҳнат ресурслари», разные годы); [1].

Выводы:

1. Внутренняя миграция составила подавляющую часть перемещений населения Узбекистана за январь–июнь 2025 г. (99,5% прибывших, 95,8% выбывших); положительное сальдо зафиксировано лишь в трёх из 14 регионов (г. Ташкент, Ташкентская и Навоийская области), тогда как в остальных 11 - сальдо отрицательное, наиболее выражено в Кашкадарьинской, Самаркандской и Бухарской областях [7].

2. Наибольший темп прироста трудовых ресурсов (2020–2024 гг.) отмечен в г. Ташкенте (18,2%) при положительном сальдо миграции; в Навоийской области высокий темп прироста (7,6%) сочетается с положительным внутренним, но отрицательным суммарным сальдо, что подтверждает необходимость раздельного анализа внутренней и внешней миграции.

3. Ввиду отсутствия сопоставимых региональных данных о безработице, занятости и зарплате количественная оценка связи миграции и рынка труда не проводилась; выявленные закономерности носят характер эмпирических наблюдений.

4. Управление внутренней миграцией требует стимулирования занятости в регионах-донорах и развития статистического наблюдения, обеспечивающего сопоставимость региональных показателей рынка труда.

Литературы:

1. Нацкомстат РУз. Численность постоянного населения на начало 2024 г. в разрезе регионов. 11.01.2024. stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/49355-hududlar-kesimida-2024-yil-boshiga-doimiy-aholi-soni-2 (22.09.2026).

2. Нацкомстат РУз. Демографические показатели РУз в цифрах. 23.10.2025. stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/64697-zbekiston-respublikasining-demografik-k-rsatkichlari-ra-amlarda-3 (22.09.2026).

3. Минзанятости и сокращения бедности РУз. Уровень безработицы по итогам 2022 г. - 8,9%. aktualno.uz/ru/a/8364-v-uzbekistane-v-2022-godu-uroven-bezraboticy-snizilsya-s-96-do-89-procenta (22.09.2026).

4. Минзанятости и трудовых отношений РУз. Уровень безработицы по итогам 2023 г. - 6,8%. 04.03.2024. uz.kursiv.media/2024-03-04/v-uzbekistane-snizilsya-uroven-bezraboticzy (22.09.2026).

5. Центральный банк РУз. О тенденциях на рынке труда Узбекистана. 23.01.2024. gazeta.uz/ru/2024/01/23/employment (22.09.2026).

6. Нацкомстат РУз. Показатели труда Андижанской обл. в цифрах. 17.11.2022. stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/30643-andijon-wqviloyatining-mehnat-ko-rsatkichlari-raqamlarda-2 (22.09.2026).

7. Mirolimov M.M. Aholi ichki migratsiyasining mehnat bozoriga ta'sirini statistik o'rganish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (TDIU). 2025. Vol. 3. S. 427–433. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7731 (22.09.2026).

ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: PUL O'TKAZMALARI VA MAHALLIY MEHNAT BOZORI MISOLIDA

Dotsent, ***Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Azamov Muhammadamin Murodjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyoti va aholi bandligining ajralmas qismiga aylandi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatga transchegaraviy pul o'tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollariga yetib, 2024-yilga nisbatan 27,2 foizga oshdi [1]. Axborotda qayd etilishicha, 2016-yilga nisbatan xorijda ishlayotgan fuqarolar soni kamaygan bo'lsa-da, ular yuborgan mablag' 3,8 mlrd dollardan 2025-yilning o'n oyida 15,8 mlrd dollarga yetgan [2]. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, pul o'tkazmalarisiz mamlakatda kambag'allik darajasi 9,6 foizdan 16,8 foizgacha oshishi mumkin [3]. Shu bilan birga, ichki migratsiya ko'pincha tashqi migratsiyadan alohida o'rganiladi, holbuki bu ikki oqim bir-biriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi vazifalarni bajarish [4] mehnat resurslarining harakatini yaxlit tizim sifatida baholashni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi ichki va tashqi mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish hamda ularni boshqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda Markaziy bank, Statistika agentligi va xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiy nazariyada migratsiya ish haqi va bandlik imkoniyatlaridagi farqlar bilan izohlanadi: ishchi kuchi daromadi yuqoriroq va ish topish ehtimoli kattaroq hudud yoki mamlakatga harakat qiladi. Bu yondashuv ichki va tashqi migratsiyani bir xil mantiqning ikki ko‘rinishi sifatida talqin qilishga imkon beradi. Migrant uchun tanlov, ya’ni o‘z hududida ish topish, boshqa hududga ko‘chish yoki xorijga chiqish, daromad, xarajat va xavfni taqqoslash natijasida shakllanadi.

Tashqi migratsiya geografiyasi kengayib bormoqda. Markaziy bankning 2025-yil IV chorak sharhiga ko‘ra, shu chorakda mehnat muhojirlari yuborgan mablag‘lar 5 mlrd dollarni tashkil etib, 39,8 foizga o‘sdi, Rossiya va Osiyodan kelgan o‘tkazmalar esa mos ravishda 43 va 39 foizga oshdi. Janubiy Koreyadagi O‘zbekiston rezidentlari soni 98,9 ming nafarga, Turkiyada o‘zbekistonliklarga berilgan yashash ruxsatnomalari soni 64,1 mingtaga yetdi [5]. Shuningdek, 2025-yilda turizm va qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida chet elga chiqqanlar soni 22,2 foizga (1,4 million nafarga) oshgan, Turkiyada doimiy bo‘lmagan migrantlar oqimi esa 18,8 foizga o‘sgan, bu aholining tashqi mobilligi umuman kuchayganini ko‘rsatadi [5]. Axborotda fuqarolar asosan yuqori maoshli ish o‘rinlarida ishlash uchun xorijga ketayotgani ta’kidlangan [2]. So‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlariga oqim 4 barobar ko‘paygan, xorijiy ish beruvchilarning 140 ming nafar mutaxassisga buyurtmasi mavjud [2]. Shu bilan birga, 2025-yildagi o‘sishga rubl kursining mustahkamlanishi ham ta’sir qilgan [1]. Dinamika 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonga kelib tushgan pul o‘tkazmalari [1, 2, 5]

Davr	Hajmi, mlrd dollar	O‘sish sur’ati
2016-yil	3,8	—
2025-yil	18,9	+27,2%
2025-yil IV chorak	5,0	+39,8%

Ichki migratsiya. Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi 38,07 million kishiga yetgan, aholining 51 foizi shaharlarda yashaydi. 2025-yil yanvar–sentabr oylarida 211,3 ming kishi ko‘chib kelgan, shundan 210,1 mingi mamlakat ichida ko‘chganlar, xorijiy davlatlarga ko‘chib ketganlar esa 7585 nafar bo‘lgan [6]. Bu ko‘rsatkichlar asosan doimiy yashash joyini o‘zgartirishni qamrab oladi, vaqtincha xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar esa ularga kirmaydi. Shu sababli ikki oqimni solishtirishda ma’lumot manbalarining farqini hisobga olish zarur.

Ma’lumotlar tahlili. Keltirilgan ko‘rsatkichlarni solishtirish bir necha xulosaga olib keladi. Birinchidan, 2016-yildan 2025-yilning o‘n oyigacha pul o‘tkazmalari 4 barobardan ko‘proq oshgan, xorijda ishlovchilar soni esa kamaygan [2]. Bu o‘sish migrantlar sonidan ko‘ra ularning daromadi, ish sharoiti va mablag‘

yuborish imkoniyatlari bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchidan, 2025-yil yanvar–sentabrda mamlakat ichida ko‘chganlar xorijga doimiy ko‘chib ketganlardan taxminan 28 barobar ko‘p bo‘lgan [6], ya’ni doimiy ko‘chish asosan ichki xarakterga ega. Uchinchidan, shu davrda tabiiy o‘sish 532,4 ming nafarni tashkil etgan, doimiy aholi soni esa yil davomida 1,9 foizga ortgan [6]. Aholining bunday o‘sishi mehnat resurslari taklifi kelgusida ham yuqori bo‘lishini anglatadi. Mahalliy mehnat bozori yetarli yangi ish o‘rinlari yaratmasa, ichki va tashqi migratsiya bosimi saqlanib qolishi mumkin.

Ichki va tashqi migratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ikki oqim o‘rtasidagi munosabat kamida uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, pul o‘tkazmalari migrant oilalarining daromadini oshirib, hududlarda iste’mol, uy-joy qurilishi va kichik biznesni rag‘batlantiradi; Jahon banki hisob-kitoblari ularning uy xo‘jaliklari farovonligidagi rolini ko‘rsatadi, 2024-yilda pul o‘tkazmalari 30 foizga oshgan [3]. Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilda aholining valyuta sotishi va xarid qilishi o‘rtasidagi ijobiy tafovut 9,7 mlrd dollarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 1,4 barobar oshgan, regulyator esa xorijdan pul oqimini aholi daromadlarini oshiruvchi asosiy tashqi omil deb baholagan [1]. Pul o‘tkazmalarining o‘zini o‘zi band qilish va kichik tadbirkorlik o‘sishidagi ulushini alohida o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb masaladir. Ikkinchidan, ishchi kuchining xorijga chiqishi mahalliy mehnat bozorida taklifni kamaytirib, ish haqiga bosim yaratishi mumkin. Uchinchidan, ichki migratsiya ko‘pincha tashqi migratsiyaning oraliq bosqichi bo‘lishi mumkin: qishloqdan shaharga ko‘chgan kishi ish tajribasi va aloqalar orttirib, keyinchalik xorijga chiqadi.

Hududiy jihat. Hududlar mehnat bozorida ish haqi va bo‘sh ish o‘rinlari dinamikasi bir xil emas. Shunday sharoitda mahalliy ish haqi bilan xorijdagi daromad o‘rtasidagi farq o‘zgarsa, migratsiya qarorlari ham o‘zgarishi mumkin. Shu sababli hududlar kesimida ish haqi, bandlik va pul o‘tkazmalari ko‘rsatkichlarini birgalikda kuzatish ichki va tashqi oqimlar qaysi sharoitda bir-birini to‘ldirishini, qaysi sharoitda bir-birining o‘rnini bosishini aniqlashga imkon beradi.

Asosiy muammolar. Birinchidan, iqtisodiyotning pul o‘tkazmalariga qaramligi yuqori: ularning o‘sishi valyuta kursi kabi tashqi omillarga sezgir [1]. Ikkinchidan, xorijiy bozorda talab bor, biroq til va kasbiy malaka talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ishlar hali ko‘p, mehnat migratsiyasi xizmatlari esa tarqoqligi sababli odamlarni ovoragarchilikka solmoqda [2]. Uchinchidan, Jahon banki mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va malakali migrantlarning qaytishini rag‘batlantirishni tavsiya qilgan [3]. To‘rtinchidan, migrant oilalarining ijtimoiy himoyasi va qaytganlarning mahalliy mehnat bozoriga reintegratsiyasi alohida e’tiborni talab qiladi.

Takliflar. Hozirda Toshkent shahrining Uchtepa tumanida “Xorijga ishga tayyorlash markazi”, Termiz shahrida “Yagona migratsiya xizmatlari” markazi tashkil etilishi, xorijda migratsiya bo‘yicha attashe va agentlik vakolatxonalarini ko‘paytirish rejalashtirilgan [2]. Bu infratuzilma hududiy bandlik tizimi bilan bog‘lansa, ichki va tashqi bozor haqidagi ma’lumot fuqarolarga bir joydan yetib

borishi mumkin. Tahlil asosida quyidagilar taklif etiladi: birinchi, hududlar kesimida ichki va tashqi migratsiya ko‘rsatkichlarini bitta tahliliy bazada jamlab, mehnat bozori xaritasini yuritish; ikkinchi, pul o‘tkazmalarini iste’moldan tashqari kichik biznes va ishlab chiqarishga yo‘naltiruvchi mikromoliyalash va maslahat dasturlarini kengaytirish; uchinchi, hududlarda kasbiy va til tayyorgarligini ichki va tashqi bozor talabiga moslashtirish; to‘rtinchi, qaytgan migrantlar uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralarini kengaytirish.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan hududiy bandlik markazlari, tuman va mahalla darajasidagi mutasaddilar mehnat bozori xaritasini yuritishda foydalanishi mumkin. Ichki va tashqi oqimlarni bitta bazada jamlash, birinchidan, xorijga ketuvchi fuqarolarni til va kasbiy jihatdan oldindan tayyorlashga, ikkinchidan, xorijiy ish beruvchilarning 140 ming nafar mutaxassisga buyurtmasini [2] hududlardagi tayyorgarlik hajmi bilan solishtirishga imkon beradi. Uchinchidan, pul o‘tkazmalari yuqori bo‘lgan hududlarda mikromoliyalash dasturlarini maqsadli yo‘naltirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, valyuta kursi kabi tashqi omillarga bog‘liqlik [1] ichki bandlik imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqot cheklovlari. Ochiq statistika ichki migratsiyani asosan doimiy ko‘chish bo‘yicha beradi [6], tahlilda foydalanilgan manbalarda esa pul o‘tkazmalarining hududlar kesimidagi ma’lumotlari keltirilmagan. Shu sababli hududiy darajadagi xulosalar dastlabki xarakterga ega va keyingi tadqiqotlarda aniqlashtirilishi lozim.

Xulosa. Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bir-biridan ajralgan jarayonlar emas, balki hududiy mehnat bozorining o‘zaro bog‘liq qismlaridir. Pul o‘tkazmalarining yuqori o‘sishi iqtisodiyot uchun imkoniyat bo‘lishi bilan birga, tashqi omillarga bog‘liqlik xavfini ham oshiradi. Shu sababli migratsiya siyosatini hududiy bandlik, kasbiy tayyorgarlik va tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati bilan uyg‘un yuritish maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlarda hududiy statistik ma’lumotlar asosida ikki oqim o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholash foydali bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Markaziy bank matbuot anjumani: 2025-yilda pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd dollarga yetdi // Spot.uz, 28.01.2026. https://www.spot.uz/oz/2026/01/28/remittances/

2. Mehnat migratsiyasi sohasidagi vazifalar va rejalar taqdimot qilindi // gov.uz, 19.11.2025. https://gov.uz/oz/news/view/103181

3. Jahon banki hisoboti: pul o‘tkazmalarisiz kambag‘allik oshishi mumkin // Spot.uz, 11.03.2025. https://www.spot.uz/oz/2025/03/11/transfers/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.

5. Markaziy bank. Mehnat bozori sharhi, 2025-yil IV chorak // Spot.uz, 19.03.2026. https://www.spot.uz/oz/2026/03/19/remittances/

6. Statistika agentligi: O‘zbekistonning demografik holati (2025-yil yanvar–sentabr) // Anhor.uz. https://anhor.uz/uzl/news/bugungi-kunda-ozbekistonning-demografik

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ КАК ФАКТОР РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЗАНЯТОСТИ И РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Султанова Муниса
Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

В условиях глобализации международная трудовая миграция становится важным фактором перераспределения трудовых ресурсов, формирования доходов населения и развития экономических связей между странами. Для Узбекистана данная проблема имеет особое значение в контексте структурной трансформации экономики, модернизации производства и расширения возможностей продуктивной занятости.

Вместе с тем наличие инновационного потенциала предприятия не означает автоматического повышения занятости или сокращения трудовой миграции. Технологическая модернизация может создавать новые рабочие места, повышать требования к квалификации работников, но одновременно приводить к сокращению потребности в отдельных профессиях. Поэтому значение инновационного развития определяется не только технологическими результатами, но и способностью экономики обеспечивать адаптацию трудовых ресурсов к происходящим изменениям.

Теоретические основы исследования взаимосвязи инноваций и экономического развития представлены в трудах Й. Шумпетера, рассматривавшего инновации как фактор экономических преобразований и появления новых комбинаций производственных ресурсов [1]. В современных условиях данная концепция приобретает дополнительное значение в связи с цифровизацией производства, автоматизацией технологических процессов и изменением структуры профессиональных компетенций [2].

В контексте трудовой миграции инновационное развитие целесообразно рассматривать через его воздействие на экономические условия занятости. Решение человека о трудоустройстве внутри страны или за рубежом зависит от совокупности факторов, включая уровень заработной платы, доступность рабочих мест, профессиональные перспективы, условия труда и социальные гарантии. Следовательно, повышение привлекательности внутреннего рынка труда предполагает не только увеличение количества рабочих мест, но и улучшение их качественных характеристик.

В рамках исследования инновационность предприятия рассматривается как совокупность ресурсных, институциональных и организационно-экономических возможностей осуществления инновационной деятельности. При этом необходимо разграничивать инновационный потенциал, инновационность и инновативность. Инновационный потенциал характеризует исходные ресурсы и

предпосылки развития; инновационность отражает возможности предприятия осуществлять инновационную деятельность; инновативность выражает результативность преобразования соответствующих возможностей в экономические результаты [3].

Такое разграничение позволяет более последовательно оценивать влияние инновационного развития на рынок труда. Например, увеличение расходов предприятия на приобретение оборудования или проведение исследований ещё не свидетельствует о создании дополнительных рабочих мест, повышении заработной платы либо улучшении условий труда. Для определения социально-экономического эффекта необходимо учитывать результаты внедрения инноваций и их влияние на производительность труда, объёмы производства и структуру занятости.

Воздействие инновационного развития на использование трудового потенциала можно представить посредством нескольких взаимосвязанных механизмов.

Первый механизм — повышение производительности труда и экономической эффективности производства. Внедрение современных технологий, совершенствование организации производства и использование новых методов управления позволяют предприятиям увеличивать выпуск продукции при более рациональном использовании ресурсов [5]. При наличии соответствующих экономических стимулов полученные результаты могут способствовать росту заработной платы, расширению производства и повышению привлекательности рабочих мест. Это формирует предпосылки для увеличения возможностей трудоустройства внутри страны, хотя само по себе повышение производительности не гарантирует роста общей занятости.

Второй механизм — изменение структуры спроса на рабочую силу. Развитие инновационного производства повышает потребность в квалифицированных специалистах, способных работать с современным оборудованием, цифровыми технологиями и новыми производственными системами [4]. Одновременно часть традиционных трудовых операций может автоматизироваться. В результате возникает необходимость согласования инновационной политики с системой профессионального образования, повышения квалификации и переподготовки кадров. Недостаточная адаптация работников к технологическим изменениям способна усиливать профессиональные диспропорции на рынке труда и ограничивать возможности трудоустройства отдельных групп населения.

Третий механизм — расширение возможностей профессиональной и экономической реинтеграции трудовых мигрантов [5]. Граждане, возвращающиеся после работы за рубежом, могут обладать профессиональными навыками, производственным опытом, знаниями современных технологий и предпринимательскими компетенциями. Использование данного потенциала требует формирования условий для его включения в национальную экономику. Инновационные предприятия могут выступать площадками применения приобретённых компетенций, а

взаимодействие работодателей, образовательных учреждений и органов занятости — обеспечивать профессиональную адаптацию возвращающихся работников.

При этом успешная реинтеграция не должна ограничиваться предоставлением любой доступной работы. Важное значение имеет соответствие профессиональной квалификации работника требованиям работодателя, возможность дальнейшего обучения и наличие перспектив профессионального роста. В противном случае приобретённые за рубежом навыки могут использоваться не полностью.

Четвёртый механизм — территориальное развитие инновационной деятельности [6]. Концентрация современных производств, инвестиций и высокооплачиваемых рабочих мест в отдельных экономических центрах может усиливать внутреннюю миграцию населения. В то же время поддержка инновационных проектов в регионах с ограниченными возможностями занятости способна расширять местную производственную базу и создавать дополнительные профессиональные перспективы. Реализация такого подхода предполагает развитие инфраструктуры, доступность финансирования, подготовку квалифицированных кадров и формирование устойчивых связей между предприятиями, научными организациями и образовательными учреждениями.

Таким образом, инновационное развитие оказывает неоднозначное влияние на миграционные процессы. С одной стороны, повышение производительности труда и расширение возможностей профессиональной реализации внутри страны могут уменьшать экономические стимулы к поиску работы за рубежом. С другой стороны, технологическая модернизация способна увеличивать спрос на квалифицированные кадры, стимулировать их перемещение между регионами и странами. Следовательно, оценивать влияние инноваций необходимо с учётом отраслевых особенностей, квалификации работников и состояния региональных рынков труда.

Инновационное развитие реального сектора экономики является одним из возможных инструментов повышения эффективности использования трудового потенциала и расширения возможностей продуктивной занятости в Узбекистане. Его значение определяется способностью предприятий преобразовывать имеющиеся ресурсы и инновационные возможности в рост производительности труда, повышение качества рабочих мест и развитие профессиональных компетенций работников.

Вместе с тем инновационность не следует рассматривать как самостоятельную гарантию сокращения трудовой миграции. Результаты технологической модернизации зависят от отраслевой структуры экономики, характера внедряемых технологий, доступности профессионального обучения и распределения экономических выгод между предприятиями и работниками.

В этой связи повышение эффективности использования трудового потенциала требует комплексного подхода, объединяющего стимулирование инновационной деятельности, развитие человеческого капитала, совершенствование системы профессиональной подготовки, поддержку

инновационных проектов в регионах и создание механизмов реинтеграции трудовых мигрантов.

Согласование инновационной политики с мерами регулирования рынка труда позволит сформировать дополнительные предпосылки для повышения конкурентоспособности национальной экономики, более полного использования профессионального потенциала населения и расширения возможностей трудовой реализации внутри страны.

Литературы

1. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

2. OECD/Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th ed. Paris: OECD Publishing, 2018.

3. М.С. Султанова. Разграничение категорий «инновационность» и «инновативность» в системе инновационного развития предприятий// Journal of Economy and entrepreneurship, Vol. 20, Nom. 5, 1074-1078

4. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: International Labour Office, 2024.

5. OECD. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023: Enabling Transitions in Times of Disruption. Paris: OECD Publishing, 2023.

6. Султанова М. Формирование территориально-ориентированного механизма финансирования инновационной деятельности на основе целевых налоговых отчислений предприятий// Ilg'or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar, 3(3), 706-714.

O'ZBEKISTONDA AHOLINING TAKROR BARPO BO'LISH JARAYONLARINI INTEGRAL BAHOLASH VA HUDUDIY TAFOVUTLAR

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
muazzambahriddinova@gmail.com

Aholining takror barpo bo'lishi mamlakatning demografik barqarorligi, inson kapitali, mehnat resurslari va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi fundamental jarayonlardan biridir. O'zbekiston sharoitida mazkur masalaning dolzarbligi, avvalo, aholining yuqori sur'atlarda o'sishi va demografik jarayonlarning tarkibiy jihatdan o'zgarib borayotgani bilan izohlanadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda 926,4 ming nafar tirik tug'ilish qayd etilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2014-yildagi 718,0 ming nafarga nisbatan qariyb 29 foizga yuqoridir [1].

Tug'ilish jarayonining dinamikasi aholining takror barpo bo'lish xususiyatlaridagi o'zgarishlarni yanada yaqqol namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy tug'ilish koeffitsiyenti 2014-yilda 23,3‰ ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 24,6‰, 2021-yilda 25,9‰, 2022-yilda 26,2‰, 2023-yilda 26,4‰ va 2024-yilda 24,9‰ ni tashkil etgan [1]. Demak, 2021-2023-yillarda tug'ilish intensivligi oshgan bo'lsa, 2024-yilda nisbatan pasayish kuzatilgan. Bu

holat tug‘ilish jarayonining faqat bir yillik holatini emas, balki uzoq muddatli dinamikasini kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Aholining takror barpo bo‘lish jarayonini baholashda yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti alohida ahamiyatga ega. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkich 2014-yildagi 2,46 nafardan 2020-yilda 2,90 nafarga, 2021-yilda 3,17 nafarga, 2022-yilda 3,31 nafarga, 2023-yilda 3,445 nafarga va 2024-yilda 3,35 nafarga yetgan [1]. Shunday qilib, 2014-2024-yillar oralig‘ida TFR 0,89 punktga, ya’ni qariyb 36 foizga oshgan. Ushbu o‘zgarish mamlakatda aholining takror barpo bo‘lish intensivligi yuqori darajada shakllanayotganini ko‘rsatish bilan birga, uning hududlar bo‘yicha bir xil kechmasligini ham alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Biroq aholining takror barpo bo‘lishi faqat tug‘ilish jarayoni bilan belgilanmaydi. O‘lim darajasi, kutilayotgan umr davomiyligi, go‘daklar o‘limi, aholining yosh tarkibi va migratsiya jarayonlari ham demografik rivojlanishning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda 174,4 ming nafar vafot etish holati qayd etilgan, bu davrda umumiy o‘lim koeffitsiyenti 4,7‰ ni tashkil qilgan [41. 2021-yilda vafot etganlar soni 174,5 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 172,1 ming, 2023-yilda 172,8 ming va 2024-yilda 174,4 ming nafarga teng bo‘lgan [1].

Shuningdek, demografik jarayonlarning murakkabligi aholining hududiy joylashuvi va yosh tarkibidagi farqlar bilan ham bog‘liq. 2024-yil boshida O‘zbekistonning doimiy aholisi 36,8 mln kishini tashkil etgan bo‘lib, shundan 18,8 mln nafari shahar, 18,0 mln nafari qishloq joylarda istiqomat qilgan [1]. Hududlar bo‘yicha aholi soni, tug‘ilish intensivligi, tabiiy o‘sish va migratsiya jarayonlaridagi farqlar aholining takror barpo bo‘lishining hududiy modeli bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Mazkur holat O‘zbekiston hududlarida demografik jarayonlarni kompleks baholash masalasini dolzarb etadi. Chunki alohida ko‘rsatkichlardan foydalanish hududning umumiy demografik holatini to‘liq ifodalash imkonini bermaydi. Masalan, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan hududda aholining yosh tarkibi qulay bo‘lishi mumkin, biroq migratsiyaning manfiy saldosi yoki o‘lim darajasining yuqoriligi uning umumiy demografik salohiyatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini bir nechta o‘zaro bog‘liq indikatorlar asosida integral baholash metodologik jihatdan muhim hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda kompleks va integral indekslardan foydalanish ko‘p o‘lchovli ijtimoiy-demografik jarayonlarni yagona ko‘rsatkich orqali umumlashtirish imkonini beradi. Xususan, demografik rivojlanishni baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda umumiy va maxsus demografik koeffitsiyentlar hamda aholi strukturasi ko‘rsatkichlarini guruhlash va ular asosida integral indeks shakllantirish yondashuvi qo‘llanilgan [2]. Bunday yondashuv hududlar o‘rtasidagi demografik tafovutlarni aniqlash va demografik rivojlanish darajasini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda O‘zbekiston hududlarida aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini tug‘ilish, yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti, tabiiy

o‘sish, o‘lim, kutilayotgan umr davomiyligi, go‘daklar o‘limi, aholining yosh tarkibi va migratsiya kabi indikatorlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash taklif etiladi. Tadqiqotning asosiy farqli jihati demografik jarayonlarning alohida ko‘rsatkichlarini tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ularni yagona integral ko‘rsatkichga birlashtirish va 2014-2024-yillar dinamikasida hududiy tafovutlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasiga muvofiq, O‘zbekiston hududlarida aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini kompleks baholash uchun tanlangan indikatorlar bo‘yicha individual indekslar hisoblanadi. Indikatorlarning yo‘nalishiga qarab ularni 0-1 oralig‘ida normallashtirish hududlararo taqqoslash imkonini beradi.

Integral indeksni hisoblashda avvalo har bir indikatorning standartlashtirilgan qiymati aniqlanadi. Shundan so‘ng uchta guruh bo‘yicha integral indekslar shakllantirilib, yakuniy ITRB geometrik o‘rtacha asosida hisoblanadi. Mazkur yondashuv kompleks indikatorlarni yagona baholash mezoniga birlashtirish imkonini beradi.

$ITRB = (I_1 \times I_2 \times I_3)^{1/3}$

Bunda I_1 - takror barpo bo‘lish intensivligi indeksi, I_2 - demografik salomatlik indeksi, I_3 - demografik salohiyat indeksini ifodalaydi.

1-jadval

Aholining takror barpo bo‘lish integral indeksini shakllantiruvchi indikatorlar

Guruh	Indikator	Belgilanishi	Yo‘nalishi
I. Takror barpo bo‘lish intensivligi	Tug‘ilish koeffitsienti	X_1	↑
	Yig‘indi tug‘ilish koeffitsienti	X_2	↑
	Tabiiy o‘sish koeffitsienti	X_3	↑
II. Demografik salomatlik	O‘lim koeffitsienti	X_4	↓
	Kutilayotgan umr davomiyligi	X_5	↑
	Go‘daklar o‘limi	X_6	↓
III. Demografik salohiyat	Mehnat yoshidagi aholi ulushi	X_7	↑
	Sof migratsiya saldosi	X_8	↑
	Yoshlar ulushi	X_9	↑

Integral indeks qiymatlari asosida hududlarni shartli ravishda past, o‘rta va yuqori darajadagi guruhlarga ajratish mumkin. Bunda indeksning yuqori qiymati tug‘ilish va tabiiy o‘sishning nisbatan yuqoriligi, demografik salomatlik ko‘rsatkichlarining qulayligi hamda demografik salohiyatning yuqoriligini anglatadi. Aksincha, past indeks qiymati aholining takror barpo bo‘lish jarayonida muayyan demografik nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar hududlar o‘rtasidagi demografik tafovutlarni aniqlash, aholining takror barpo bo‘lish jarayon lariga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish hamda demografik siyosat choralarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib takomillashtirish uchun metodik asos yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini faqat tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari orqali emas, balki demografik salomatlik, yosh tarkibi va migratsiya kabi omillarni birgalikda hisobga olgan holda baholash zarurligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan “Aholining takror barpo bo‘lish integral indeksi (ITRB)” hududlar o‘rtasidagi demografik tafovutlarni kompleks aniqlash imkonini beradi.

Integral baholash natijalaridan hududlarni demografik rivojlanish darajasi bo‘yicha guruhlash, aholining takror barpo bo‘lishidagi nomutanosibliklarni aniqlash hamda hududiy demografik siyosat choralarini differensiallashtirishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, indikatorlar tizimini muntazam yangilab borish va hududiy statistik ma’lumotlar bazasini takomillashtirish integral baholashning amaliy samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.

2. Shokamanov Yu.K., Iskakov U.M., Mananov B.B. Integral demografik rivojlanishni baholash metodikasi. Ekonomika regiona, 2025, 21(2).

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARNING MEHNAT RESURSLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
muazzambahriddinova@gmail.com

O‘zbekistonda demografik jarayonlarning o‘zgarishi aholining soni va yosh tarkibiga, shu bilan birga, mehnat resurslarining shakllanishi va mehnat bozoridagi jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tug‘ilish darajasi, tabiiy o‘sish, aholining yosh tarkibi va migratsiya jarayonlari mamlakatning mavjud hamda istiqboldagi mehnat salohiyatini belgilovchi asosiy demografik omillar hisoblanadi [1]. Demografik jarayonlar aholining miqdoriy va tarkibiy o‘zgarishlarini shakllantirishi bilan birga, iqtisodiy faol aholi tarkibining kelgusidagi dinamikasiga ham ta’sir etadi.

O‘zbekiston aholisining yosh tarkibida yosh avlod ulushining yuqoriligi mehnat resurslarini kengaytirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Biroq mazkur demografik salohiyatdan samarali foydalanish yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash va mehnat bozorining talablariga mos malakali kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq [2]. Tashqi va ichki migratsiya jarayonlari mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishiga ta’sir etib, ishchi kuchi taklifi va bandlik tarkibida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda [3]. Shu sababli demografik o‘zgarishlarni mehnat resurslari shakllanishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

O‘zbekistonda demografik o‘zgarishlarning mehnat resurslari shakllanishiga ta’sirini baholashda, avvalo, tug‘ilish, tabiiy o‘sish, yosh tarkibi va migratsiya ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish lozim. Aholi takror barpo bo‘lishining asosiy komponentlari bo‘lgan tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari aholining tabiiy o‘sishini belgilaydi, migratsiya esa mavjud mehnat salohiyatining hududiy va iqtisodiy jihatdan qayta taqsimlanishiga olib keladi [1].

Aholining yosh tarkibi mehnat resurslarining kelajakdagi hajmini belgilovchi muhim demografik omildir. Yoshlar ulushining yuqoriligi mehnat bozoriga yangi ishchi kuchining muntazam kirib kelishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu demografik salohiyatni iqtisodiy imkoniyatga aylantirish uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish talab etiladi. Tadqiqot manbasida O‘zbekiston aholisi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lganlar ulushi yuqori ekani qayd etilib, bu holat bir tomondan demografik dividend imkoniyatini yaratishi, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy faol aholiga tushadigan yuklamani oshirishi ta’kidlangan [2].

Migratsiya jarayonlari ham mehnat resurslari shakllanishining muhim tarkibiy qismidir. Tashqi mehnat migratsiyasi ishchi kuchining mamlakatlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga, ichki migratsiya esa mehnat resurslarining hududlar va shahar-qishloq kesimida siljishiga olib keladi. Shu sababli migratsiya oqimlarining kuchayishi mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi bilan bir qatorda aholining hududiy joylashuvi va urbanizatsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi [3]. Bundan tashqari, demografik jarayonlarga ta’lim darajasi, iqtisodiy rivojlanish, ayollarning iqtisodiy faolligi va oilalarning reproduktiv xatti-harakati kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ta’lim darajasining oshishi reproduktiv qarorlar va nikoh yoshining o‘zgarishiga ta’sir qilishi, iqtisodiy sharoit esa oilalarning farzandlar soni va migratsiya bo‘yicha qarorlarida muhim omil bo‘lishi mumkin [4].

O‘zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishini faqat aholining mutlaq soni bilan baholash yetarli emas. Demografik o‘sish sur’atlari, aholining yosh tarkibi, tabiiy o‘sish va migratsiya jarayonlarining birgalikdagi ta’sirini hisobga olish zarur. Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligi mamlakatning kelgusidagi mehnat salohiyati va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim shartlardan biridir.

O‘zbekistonda demografik jarayonlar mehnat resurslarining shakllanishi va rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Aholining yosh tarkibida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning salmog‘i yuqoriligi mamlakat uchun muhim mehnat salohiyatini shakllantiradi. Biroq ushbu salohiyatdan samarali foydalanish bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashni talab etadi.

Tug‘ilish va tabiiy o‘sishning yuqori darajasi kelgusida mehnat resurslari sonining ortishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ayrim hududlarda ishchi kuchi taklifi va mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Demografik jarayonlarga ta’lim, iqtisodiy faollik, urbanizatsiya va

oilalarning reproduktiv xatti-harakati kabi omillarning ta'siri ham kompleks ravishda baholanishi lozim.

Takliflar:

demografik prognozlar asosida mehnat resurslariga bo'lgan istiqboldagi ehtiyojni muntazam baholash;

yoshlar sonining o'sishiga mutanosib ravishda yangi ish o'rinlarini yaratish va kasbiy tayyorgarlik tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish;

migratsiya oqimlarini mehnat resurslari balansi bilan uzviy bog'liq holda monitoring qilish;

hududlar kesimida demografik va mehnat ko'rsatkichlarining yagona raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

demografik o'zgarishlardan kelib chiqib, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan uzoq muddatli strategik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. *Caldwell J.C. Demographic Transition Theory. – Dordrecht/London/New York: Springer, 2006. – 411 p.*
2. *Malthus T.R. An Essay on the Principle of Population. – London: J. Johnson, 1798. – 126 p.*
3. *Canning D. The Causes and Consequences of the Demographic Transition. PGDA Working Paper No. 79. – Harvard School of Public Health, 2011. – P. 1–21.*
4. *World Commission on Environment and Development (WCED). Our Common Future (The Brundtland Report). – Oxford: Oxford University Press, 1987.*
5. *United Nations Department of Economic and Social Affairs. World Population Prospects 2022. – New York: United Nations, 2022.*
6. *OECD. Population and Demography. – 2024.*
7. *O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi– 2024.*
8. *World Bank. Birth Rate in Uzbekistan. – 2024.*
9. *World Bank. Demographic Dividend in Central Asian Countries. – 2024.*
10. *World Health Organization. Life Expectancy in Uzbekistan. – 2024.*
11. *International Organization for Migration. Migration Processes in Uzbekistan. – 2024.*

THE IMPACT OF INTERNAL MIGRATION ON EMPLOYMENT AND INCOME

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li
Associate professor of Tashkent State University of Economics
sh.xamdamov@tsue.uz
Javohir Raxmanov Zafarbek o'g'li
Tashkent State University of Economics Student
mrr.javohir@gmail.com

Internal migration allows people to look for work beyond the place where they were born or currently live. In Uzbekistan, differences in regional wages make this an important economic choice. Moving can open access to better employment, but the outcome depends on the job obtained and the cost of settling elsewhere. This article examines these conditions and considers how movement within the country relates to labour migration abroad.

The analysis compares regional wage statistics for January–December 2025 and reviews World Bank research. It considers possible incentives to move, without estimating migrants' actual earnings. The wage release is preliminary and excludes small enterprises, microfirms and agricultural enterprises. Figures show gross wages before tax, rather than take-home pay [1].

Table 1 compares the national average with selected regional figures. The final column expresses each wage as a percentage of the national average. It helps show the size of regional differences without treating the average salary as a promise to a person moving there.

Tashkent city's average wage was about 2.1 times the figure for Khorezm. Navoi also exceeded the national average, showing that higher average wages occur outside the capital. These differences suggest an incentive to seek work elsewhere. However, regional averages reflect different industries and workers' qualifications. They do not show how much the same person would earn before and after moving.

Table 1.

Selected regional wage levels in Uzbekistan, 2025

Territory	Monthly wage (thousand UZS)	National average = 100
Uzbekistan	6,376.7	100.0
Tashkent city	10,753.8	168.6
Navoi region	7,871.6	123.4
Tashkent region	5,967.7	93.6
Khorezm region	5,052.4	79.2
Samarkand region	4,737.6	74.3

Source: *National Statistics Committee [1]. Index calculated by the author. Figures refer to nominal accrued wages in January–December 2025; preliminary data.*

Housing can substantially reduce the financial benefit of migration. A worker who lives with relatives at home may have to pay rent after moving, alongside transport and relocation expenses. Seitz's 2020 study identified expensive urban housing and restrictive residence registration as barriers to internal mobility in Uzbekistan [2]. These findings describe conditions before subsequent reforms. The World Bank's 2024 account reports the removal of restrictive internal mobility controls [3]. Housing costs must still be considered when comparing employment options.

Employment opportunities also depend on where suitable jobs are located. The World Bank's 2026 Poverty and Equity Assessment reports that half of Uzbekistan's high-skilled jobs are concentrated in Tashkent city and Tashkent region [4]. For a qualified worker, moving closer to such employers can improve the chance of finding a suitable position. Employers can also benefit when migration brings applicants with skills that are scarce locally. These gains depend on a match between vacancies and workers' abilities.

Finding any job is different from finding secure employment. A newcomer may accept temporary work while searching for a position related to their training. Irregular hours or delayed wages can make household income difficult

to plan. The same World Bank assessment identifies the quality and formality of employment as continuing concerns [4]. Migration should therefore be assessed through earnings and working conditions, as well as whether a person becomes employed.

The effect on household income extends beyond the migrant's salary. Money sent to relatives can help cover daily expenses or education. Yet living separately can increase the family's combined spending. Relatives may also need to replace childcare or other unpaid work previously done by the person who moved. A useful measure of the benefit is the change in household income after these additional costs, rather than the wage difference alone.

Regions of origin face a trade-off. Departures can ease competition for limited jobs, while the loss of skilled workers can make recruitment harder for local businesses. Transfers from migrants may support spending in their home communities. Whether these effects improve regional development depends on who leaves, whether they return and how their earnings are used. Receiving cities also need enough housing and transport capacity to accommodate people moving towards employment.

Internal and external labour migration share an important starting point: the search for better work. Seitz's 2019 study of Uzbekistan found that job loss and unemployment were associated with considering migration abroad. Actual international migration was associated with improved employment outcomes and household welfare [5]. Those findings concern overseas migration. They help explain why domestic job opportunities matter, but they cannot be used to calculate the income effect of moving between Uzbek regions.

Better employment within Uzbekistan could offer an alternative to overseas work for some households. For others, domestic migration could provide experience or savings before a later move abroad. Returning migrants may also seek work in a different Uzbek region if suitable vacancies are unavailable at home. These are possible connections between the two forms of mobility. The regional wage comparison does not establish which pattern is most common or whether internal migration reduces departures abroad.

The analysis points to practical priorities. Affordable rental housing and reliable public transport can make employment centres more accessible. The 2026 World Bank assessment also recommends improving connectivity and expanding affordable rentals in urban areas [4]. Local authorities should coordinate housing and transport plans with the location of jobs. Otherwise, lower rent far from a workplace may be offset by expensive or lengthy travel.

Employment services should give applicants clear information about vacancies, required skills and pay before they relocate. Training should be linked to employers' actual needs. Services for people seeking domestic work and those returning from abroad should coordinate referrals, so that experience gained overseas can be considered for local vacancies. Recognising relevant skills can help returning workers obtain suitable employment instead of repeatedly entering temporary jobs.

Improving regional employment is equally necessary. Navoi's wage level shows that the capital is not the only possible destination for better-paid work. Investment in regional businesses and reliable infrastructure can expand the range of locations where people find opportunities. Such development would allow households to choose between moving and remaining near their families. Support should address barriers faced by local employers, rather than assume that migration alone will resolve regional inequality.

More precise evaluation requires information on individual workers and their households. The World Bank's Listening to the Citizens of Uzbekistan survey follows around 1,500 households monthly and collects information on migration, employment and income [6]. Future research could compare earnings and living costs before and after an internal move, alongside changes among similar workers who remain. Education, previous experience and household responsibilities would need to be considered. This would provide stronger evidence than regional averages alone.

Internal migration can improve employment and income when workers obtain suitable jobs and can afford the costs of moving. Uzbekistan's regional wage differences indicate potential gains, but they do not prove that every migrant benefits. Housing access, reliable job information and employment quality determine how much of a higher wage reaches the household. Policies connecting domestic employment with opportunities for returning migrants can also strengthen the relationship between internal and external labour migration.

References:

1. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Average Monthly Nominal Accrued Wages in the Republic of Uzbekistan for January–December 2025 (Preliminary Data). 26 January 2026.

2. Seitz W. Free Movement and Affordable Housing: Public Preferences for Reform in Uzbekistan. Policy Research Working Paper No. 9107. Washington, DC: World Bank, 2020.

3. World Bank. Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation. 16 July 2024.

4. World Bank. Uzbekistan Poverty and Equity Assessment: Rising to Prosperity—Broadening Opportunities for All. Washington, DC: World Bank, 2026.

5. Seitz W. International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. Poverty & Equity Global Practice Working Paper No. 209. Washington, DC: World Bank, 2019.

6. World Bank. Study—Listening to the Citizens of Uzbekistan. 11 March 2025.

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD, dots., ***Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich***
TDIU huzuridagi ITM sektor mudiri,
Oriental universiteti dotsenti,.

Globallashuv sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini o‘zlashtirish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini

yaratishning muhim manbai hisoblanadi. Ichki jamg‘armalar darajasi investitsiya ehtiyojlarini to‘liq qoplay olmaydigan rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun xorijiy kapital nafaqat moliyaviy resurs, balki global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Biroq xorijiy investorlar uchun raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda investitsiyalarni jalb qilishning an’anaviy, asosan soliq va bojxona imtiyozlariga tayanadigan usullari yetarli samara bermayapti. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional va huquqiy asoslari so‘nggi yillarda sezilarli darajada yangilandi. 2019-yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun investorlar huquqlarining kafolatlarini mustahkamladi, valyuta siyosatining liberallashtirilishi esa foyda va kapitalni repatriatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Erkin iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) instituti, ikki tomonlama investitsiya bitimlari hamda Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni doirasidagi islohotlar xorijiy kapital uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi deganda davlatning investorlarni aniqlash, ularga axborot berish, rag‘batlantirish, loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish va investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan institutsional, huquqiy, moliyaviy va tashkiliy vositalar majmui tushuniladi. Mazkur mexanizmni to‘rt bo‘g‘in orqali tavsiflash mumkin: huquqiy kafolatlar va nizolarni hal qilish tizimi; fiskal va nofiskal rag‘batlar; investitsiyalarni ilgari surish va investorga xizmat ko‘rsatish tizimi; infratuzilma va makroiqtisodiy barqarorlik. Mexanizmning samaradorligi alohida bo‘g‘inlarning emas, balki ularning o‘zaro muvofiqligi bilan belgilanadi.

TXI oqimini belgilovchi omillarni empirik baholash va siyosat chora-tadbirlarini asoslash uchun quyidagi ko‘rinishdagi ekonometrik modeldan foydalanish mumkin:

$$\ln FDI_t = \beta_0 + \beta_1 \ln GDP_t + \beta_2 OPEN_t + \beta_3 INST_t + \beta_4 INFL_t + \beta_5 \ln INFR_t + \varepsilon_t$$

bu yerda FDI - TXI kirib kelishi hajmi, GDP - ichki bozor hajmini ifodalovchi yalpi ichki mahsulot (YaIM), OPEN - iqtisodiyotning savdo ochiqligi, INST - institutsional sifat ko‘rsatkichi, INFL - inflyatsiya darajasi, INFR - infratuzilma rivojlanganligi. Vaqtli qatorlar asosida baholashda o‘zgaruvchilarning statsionarligi kengaytirilgan Diki-Fuller (ADF) va Fillips-Perron testlari orqali tekshirilishi, integratsiya tartibi turlicha bo‘lgan holatda ARDL modeli va chegaraviy test qo‘llanilishi, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya va geteroskedastiklik mavjudligi esa mos ravishda Breusch-Godfrey va Breusch-Pagan testlari bilan baholanishi lozim. Bunday tahlil qaysi omillar investorlar qaroriga ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini aniqlash va resurslarni eng samarali yo‘nalishlarga jamlash imkonini beradi.

Amaliyotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini cheklovchi bir qator omillar saqlanib qolmoqda. Jumladan, soliq va bojxona imtiyozlarining

koʻpligi va ularning iqtisodiy samaradorligi muntazam baholanmasligi; davlat ishtirokidagi korxonalarning ayrim tarmoqlardagi ustun mavqei sababli raqobat muhitining toʻliq shakllanmaganligi; shartnomalar ijrosi va nizolarni hal qilish tartib-taomillariga boʻlgan ishonch darajasi; mamlakatning dengizga chiqish imkoniyati yoʻqligi bilan bogʻliq logistika xarajatlarining yuqoriligi; mahalliy yetkazib beruvchilarning xorijiy kompaniyalar talablariga mos sifat va hajmda mahsulot yetkazib bera olmasligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, TXI statistikasining xalqaro metodologiyaga toʻliq mos holda va batafsil e'lon qilinmasligi investorlar hamda tadqiqotchilar uchun tahliliy imkoniyatlarni cheklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha quyidagi yoʻnalishlar taklif etiladi.

Birinchidan, imtiyozlar siyosatini maqsadli va natijaga yoʻnaltirilgan tizimga oʻtkazish. Har bir imtiyozni joriy etishdan oldin va amal qilish davrida xarajat-foyda tahlili asosida baholash, imtiyozlarni umumiy tarzda emas, balki aniq natijalar - eksport hajmi, mahalliylashtirish darajasi, yaratilgan ish oʻrinlari va texnologiya transferi bilan bogʻliq holda berish byudjet yoʻqotishlarini kamaytirib, investitsiyalar sifatini oshiradi.

Ikkinchidan, investitsiyalarni ilgari surishning maqsadli yondashuviga oʻtish. Mamlakatning qiyosiy ustunliklari asosida ustuvor tarmoqlar va ularda faoliyat yurituvchi potentsial investorlarni aniqlash, ular uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish hamda xorijiy vakolatxonalar va diaspora vakillari imkoniyatlaridan foydalanish keng qamrovli, ammo tarqoq targʻibot tadbirlariga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Uchinchidan, investorga xizmat koʻrsatishning toʻliq tsiklini yaratish. "Yagona darcha" tamoyili asosida loyihaning gʻoya bosqichidan ishga tushirilishigacha va undan keyingi davrda investorni kuzatib boruvchi menejerlar tizimini joriy etish, mavjud investorlarning muammolarini tezkor hal qilish qayta investitsiyalar ulushini oshiradi. Xalqaro tajribada mavjud investorlarning qayta investitsiyalari TXI oqimining barqaror manbai sifatida qaraladi.

Toʻrtinchidan, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash. Investitsiya nizolarini koʻrib chiqishga ixtisoslashgan sud tarkiblari va xalqaro arbitraj institutlarining salohiyatini oshirish, qonunchilik oʻzgarishlarining investorlar bilan oldindan muhokama qilinishini ta'minlash huquqiy muhitning barqarorligiga boʻlgan ishonchni kuchaytiradi.

Beshinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyot bilan bogʻliqligini kuchaytirish. Mahalliy korxonalarni xorijiy kompaniyalarning yetkazib berish zanjirlariga kiritishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, ularning sertifikatlash va sifat standartlariga moslashuvini qoʻllab-quvvatlash xorijiy kapitalning texnologik va bilim ta'sirini kuchaytiradi.

Oltinchidan, davlat aktivlarini xususiylashtirish va DXSh loyihalarini kengaytirish. Davlat korxonalaridagi ulushlarni ochiq va shaffof tartibda strategik xorijiy investorlarga sotish, energetika, transport-logistika va kommunal infratuzilma sohalarida DXSh mexanizmlarini qoʻllash xorijiy kapital uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Yettinchidan, “yashil” va barqaror investitsiyalarni jalb qilish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va ekologik toza ishlab chiqarish loyihalari uchun shaffof tanlov tartiblarini joriy etish, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) talablariga mos hisobot tizimini shakllantirish xalqaro institutsional investorlarning qiziqishini oshiradi.

Sakkizinchidan, axborot shaffofligini ta’minlash. TXI statistikasini XVF to‘lov balansi bo‘yicha qo‘llanmasi va OECD ning TXI bo‘yicha benchmark ta’rifi talablariga mos ravishda mamlakatlar, tarmoqlar va hududlar kesimida muntazam e’lon qilish investorlarning qaror qabul qilishini yengillashtiradi va siyosat samaradorligini baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish imtiyozlar sonini ko‘paytirishdan ko‘ra institutsional muhit sifatini oshirish, investorga xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish va xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyot bilan chuqur integratsiyalashga asoslanishi lozim. Taklif etilayotgan yo‘nalishlarning amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda ularning tarmoq tuzilmasini yaxshilash, eksportga yo‘naltirilgan va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИОННОЙ МОБИЛЬНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

PhD, ***Ким Елена Радионовна***
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Сегодня в условиях структурной модернизации экономики и цифровизации производства миграционные процессы в значительной степени определяют социально-экономическое развитие Узбекистана, воздействуя не только на численность и территориальное размещение населения, но и на накопление, распределение и реализацию человеческого капитала. В связи с этим при формировании политики в сфере образования и занятости возникает необходимость в постоянном учете растущей мобильности населения, так как миграция, с одной стороны, создает возможности для профессионального роста и обмена знаниями, а с другой стороны, способствует усилению территориальных различий в обеспеченности кадрами.

Человеческий капитал, представляя собой совокупность знаний, навыков, здоровья и других качеств личности, неотделим от носителя, в связи с чем перемещение человека сопровождается пространственным перемещением и накопленных им компетенций. При этом миграционная мобильность выступает как фактическое и потенциальное перемещение населения между территориями внутри страны и за ее пределами, связанное с изменением возможностей обучения, занятости и

профессионального развития, что позволяет рассматривать миграцию наряду с движением рабочей силы также как изменения качественной структуры человеческого капитала.

Одним из аспектов миграционной мобильности является перераспределение человеческого капитала между регионами. Различия в уровне экономической активности, доступности рабочих мест, заработной плате, образовательной инфраструктуре и качестве социальных услуг формируют неодинаковую привлекательность территорий, вследствие чего крупные городские центры получают дополнительные возможности для концентрации подготовленных специалистов, в то время как отдельные отдаленные территории сталкиваются с риском сокращения трудового и интеллектуального потенциала. Однако в случае, если компетенции мигрантов находят применение в более производительных видах деятельности, перемещение населения способствует повышению эффективности распределения работников.

Влияние мобильности на человеческий капитал может проявляться через образовательный канал. Переезд к месту обучения расширяет доступ молодёжи к более разнообразной академической среде. Однако возникает риск закрепления выпускников преимущественно в наиболее экономически развитых территориях. Если механизмы возвращения специалистов и их привлечения в регионы развиты недостаточно, территориальный разрыв в обеспеченности квалифицированными кадрами может сохраняться и усиливаться. Поэтому важно рассматривать образовательную мобильность в единстве с системой регионального трудоустройства и карьерных возможностей.

Помимо образовательного канала, влияние мобильности проявляется через накопление практических компетенций. Профессиональная мобильность позволяет работникам осваивать новые технологии, цифровые инструменты и управленческие практики. По возвращении в регион происхождения такие знания могут распространяться через предпринимательство, наставничество и трудовую деятельность. Однако положительный эффект не возникает автоматически и зависит от соответствия полученного опыта структуре местного спроса на труд, доступности финансирования, условий ведения бизнеса и возможностей подтверждения квалификации. При отсутствии таких условий приобретённые компетенции остаются невостребованными.

В одном из исследований Всемирного банка по Узбекистану подчёркивается значимость развития профессионального образования и формирования навыков, востребованных на рынке труда. Рассматриваемый подход учитывает качество человеческого капитала, включающий как количество обученных работников, так и соответствие их компетенций реальным требованиям работодателей. То есть образовательные программы должны учитывать одновременно потребности внутренней экономики и изменяющиеся условия международного рынка труда. [3]

Следует выделить также канал влияния, связанный с изменением возможностей инвестирования в человеческий капитал на уровне домохозяйств. Дополнительные доходы и денежные переводы могут направляться на образование детей, медицинские услуги, повышение квалификации и освоение цифровых навыков. При этом необходимо учитывать, что улучшение текущего потребления ещё не означает устойчивого роста человеческого капитала. Как отмечается в другом исследовании Всемирного банка «значительная часть переводимых средств используется для удовлетворения повседневных потребностей, а долгосрочные эффекты зависят от характера расходов и последующей занятости членов семьи» [3] Поэтому при оценке миграционных результатов следует разграничивать краткосрочное повышение благосостояния и долгосрочное накопление производительных способностей населения.

Важную роль играет также обратная и циркулярная мобильность, при которой перемещение сопровождается последующим возвращением либо повторными поездками. Возвращающиеся граждане могут выступать носителями новых производственных навыков, деловых связей и практик ведения предпринимательства. Международная организация по миграции в материалах мониторинга миграционной ситуации в Узбекистане рассматривает перемещения населения во взаимосвязи с урбанизацией и изменением социально-экономических условий [4]. Для национальной экономики значение приобретает не сам факт возвращения, а наличие институциональных механизмов, позволяющих превратить приобретенный опыт в повышение производительности и создание рабочих мест.

С учетом изложенного целесообразно выделить направления государственной и региональной политики:

1) Совершенствование мониторинга территориального перемещения населения посредством дополнения количественных сведений данными об образовании, профессиональной подготовке и причинах переезда. Это позволит точнее оценивать не только миграционный баланс, но и изменение квалификационной структуры кадров в регионах.

2) Усиление координации между образовательными организациями, работодателями и региональными органами управления при прогнозировании потребностей в специалистах.

3) Создание и развитие гибких программ переобучения, признание приобретенных компетенций и сопровождение занятости граждан, возвращающихся после обучения или работы за пределами региона и страны.

Предлагаемые направления согласуются с приоритетами принятой Стратегии «Узбекистан — 2030» и обновленной на 2026-2030 годы, предусматривающие создание условий для реализации человеческого потенциала, повышение качества образования и обеспечение устойчивого

экономического роста [1,2]. Именно поэтому миграционная политика и политика развития человеческого капитала должны рассматриваться как взаимодополняющие элементы долгосрочного социально-экономического развития.

Таким образом, проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что миграционная мобильности определяется условиями преобразования индивидуальных компетенций в общественный и экономический эффект. А приоритетными задачами становятся повышение качества профессионального образования, снижение территориального неравенства возможностей, поддержка возвращающихся граждан и формирование механизмов передачи знаний. Реализация этих мер позволит рассматривать мобильность населения не только как демографическое явление, но и как ресурс устойчивого развития человеческого капитала страны.

Литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года» от 16 февраля 2026 г. URL: https://lex.uz/ru/docs/8050774

2. Указ Президента Республики Узбекистан. № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан — 2030» от 11 сентября 2023 г. URL: https://lex.uz/ru/docs/6600404.

3. World Bank. The Road Home and Abroad: Enhancing TVET for Youth and Migration in Uzbekistan. Analytical report, 2025. URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099063025094197983/pdf/P500986-7d2be0d0-1f17-427a-afed-a0f0d69097a9.pdf

4. International Organization for Migration. Uzbekistan — Migration Situation Report: Quarterly Compilation (April–June 2024). URL: https://dtm.iom.int/reports/uzbekistan-migration-situation-report-quarterly-compilation-april-june-2024

ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYANING O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDAGI O‘RNI

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat igtisodiyot universiteti huzuridagi "O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"ilmiy tadqiqot markazi
sh.xamdamov@tsue.uz
Mamadaliyeva Muxlisaxon Dilshodbek qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
mukhlisa2008m@gmail.com

Migratsiya jarayonlari mamlakatning bandlik, demografik va iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, O‘zbekiston mehnat bozorida muhim o‘rin egallaydi. Aholining bir hududdan boshqa hududga ko‘chishi ichki migratsiyani, mamlakat chegarasidan tashqariga chiqib mehnat faoliyatini amalga oshirishi esa tashqi migratsiyani shakllantiradi. Ushbu jarayonlar mehnat

resurslarining hududiy va xalqaro qayta taqsimlanishiga, bandlik darajasiga hamda aholi daromadlariga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda aholining o‘sishi va mehnat resurslarining ko‘payishi natijasida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mavjud ishchi kuchidan samarali foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ichki migratsiya ishchi kuchining hududlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga xizmat qilsa, tashqi migratsiya fuqarolarning xalqaro mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi.

Mirolimov aholi ichki migratsiyasining mehnat bozoriga ta’sirini statistik jihatdan o‘rganib, aholi migratsiyasi va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [1]. Muminov esa tashqi migratsiya fenomenining tarkibi va asosiy yo‘nalishlarini o‘rganib, uning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini yoritgan [2].

Tadqiqotning maqsadi bu ichki va tashqi migratsiyaning O‘zbekiston mehnat bozoridagi o‘rnini aniqlash, ularning bandlik va ishchi kuchining taqsimlanishiga ta’sirini tahlil qilish hamda migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ichki migratsiyaning bozorga ta’siri.Ichki migratsiya, avvalo, ishchi kuchining ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan hududlarga harakatlanishi bilan bog‘liq. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish, ish haqi, bandlik imkoniyatlari va yashash sharoitlaridagi farqlar ichki migratsiyaning asosiy sabablaridan hisoblanadi [1].

Ichki migratsiyaning ijobiy tomoni shundaki, ishchi kuchi talab yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naladi. Bu korxonalarning mehnat resurslariga bo‘lgan talabini qondirish va aholining ish topish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Biroq ichki migratsiyaning salbiy tomonlari ham mavjud. Aholining yirik shaharlarga ko‘p miqdorda ko‘chib kelishi uy-joy, transport, ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy infratuzilmaga qo‘shimcha bosim keltirib chiqarishi mumkin. Aholining ayrim hududlardan doimiy chiqib ketishi esa o‘sha hududlarda mehnat resurslarining kamayishiga olib kelishi mumkin [3].

Tashqi migratsiyaning bozorga ta’siri.Tashqi mehnat migratsiyasi O‘zbekiston mehnat bozoriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, fuqarolarning xorijda mehnat qilishi ichki mehnat bozoridagi bandlik bosimini kamaytirishi va migrantlar oilalarining daromadini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, migrantlar xorijda yangi kasbiy tajriba, til va mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar [2].

Ikkinchi tomondan, mehnatga layoqatli aholining uzoq muddat xorijda bo‘lishi ayrim hudud va tarmoqlarda ishchi kuchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, malakali mutaxassislarning xorijga ketishi mamlakat ichida inson kapitalidan samarali foydalanish masalasini yuzaga keltiradi.

Tashqi migratsiyaning yana bir muhim iqtisodiy jihati migrantlarning mamlakatga yuboradigan pul mablag‘laridir. Ushbu mablag‘lar oilalarning kundalik xarajatlari, ta’lim, uy-joy va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga xizmat qilishi mumkin.

1-jadval.

Ichki va tashqi migratsiyaning O‘zbekiston mehnat bozoriga ta’siri

Yo‘nalish	Ichki migratsiya	Tashqi migratsiya
Harakat yo‘nalishi	Mamlakat hududlari o‘rtasida	Xorijiy davlatlar tomon
Asosiy sabab	Ish, daromad va yaxshi yashash sharoiti	Yuqori daromad va yangi imkoniyatlar
Mehnat bozoriga ta’siri	Ishchi kuchining hududiy qayta taqsimlanishi	Ichki mehnat bozoridagi bosimning kamayishi
Ijobiy ta’siri	Ishchi kuchi talab yuqori hududlarga yo‘naladi	Daromad va kasbiy tajriba oshishi mumkin
Salbiy ta’siri	Yirik shaharlarda infratuzilmaga bosim	Malakali ishchi kuchining chiqib ketishi
Asosiy vazifa	Hududlarda ish o‘rinlarini yaratish	Xavfsiz migratsiya va qaytgan migrantlarni band qilish

Manba: *muallif tomonidan [1]va[4] manbalar asosida tuzilgan.*

Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun fuqarolarni xorijiy mehnat bozorlariga tayyorlash, ularning huquqlarini himoya qilish hamda qaytgan migrantlarni ichki mehnat bozoriga qayta jalb qilish muhimdir [4].

Takliflar.

Birinchidan, migratsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda yangi va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish lozim.

Ikkinchidan, ichki migrantlar uchun hududlardagi vakansiyalar, ish haqi va talab qilinadigan kasbiy ko‘nikmalar haqidagi ma’lumotlarni yagona raqamli platformada birlashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tashqi mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni xorijiy tillar, kasbiy ko‘nikmalar va xalqaro mehnat standartlari bo‘yicha tayyorlash tizimini kengaytirish zarur.

To‘rtinchidan, qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan malaka va tajribasini baholash hamda ularni O‘zbekistondagi mos vakansiyalar bilan bog‘lash mexanizmini kuchaytirish kerak.

Beshinchidan, migrantlarning xorijda orttirgan moliyaviy resurslarini tadbirkorlik va investitsiyaga yo‘naltirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.

Oltinchidan, ichki va tashqi migratsiya bo‘yicha statistik ma’lumotlarni hudud, yosh, kasb, migratsiya yo‘nalishi va bandlik turi bo‘yicha muntazam tahlil qilib borish kerak.

Xulosa qilib aytganda ichki va tashqi migratsiya O‘zbekiston mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim jarayonlardan biridir. Ichki migratsiya ishchi kuchining mamlakat hududlari o‘rtasida qayta taqsimlanishiga xizmat qilsa, tashqi migratsiya fuqarolarning xalqaro mehnat bozorida ishtirok etishi va qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini yaratadi.

Migratsiyaning mehnat bozoriga ta’siri bir tomonlama emas. U bandlik imkoniyatlarini kengaytirishi, aholi daromadlarini oshirishi va inson kapitalining

rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim hududlarda ishchi kuchining kamayishi, yirik shaharlarga ortiqcha aholi oqimi va malakali kadrlarning xorijga ketishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli O‘zbekistonda asosiy e’tibor migratsiyani cheklashga emas, balki uni samarali boshqarishga qaratilishi lozim. Hududlarda ish o‘rinlarini ko‘paytirish, migrantlarni kasbiy tayyorlash, xavfsiz tashqi mehnat migratsiyasini ta’minlash va qaytgan migrantlarning tajribasidan mamlakat iqtisodiyotida foydalanish bu boradagi asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Mirolimov, M. (2025). Aholi ichki migratsiyasining mehnat bozoriga ta’sirini statistik o‘rganish.* Green Economy and Development*, 3(10), 667604.*
2. *Muminov, Z. (2026). Tashqi migratsiya fenomenining tarkibi va yo‘nalishlari.* International Sciences, Education and New Learning Technologies*.*
3. *O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). Demografik vaziyat: 2025-yil yanvar–mart oylarida aholi migratsiyasi.*
4. *Fazlitdinov, Sh. Sh., & Xamdamov, Sh. R. (2026). O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmoni. Migratsiya boshqaruvi tizimini isloh qilish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida.*
6. *Isakulov, S. N. (2021). Problems and opportunities for effective regulation of labor migration in the Republic of Uzbekistan.* Population*, 24(4), 161–174.*
7. *Rahimova, M. A. (2020). Legal regulation of labour migration: Practice of the Republic of Uzbekistan.* Nauka. Kultura. Obshchestvo*, 26(1), 47–55.*

АГРОБИЗНЕСНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ, ИЧКИ ВА ТАШҚИ МИГРАЦИЯНИНГ АГРАР СУБЪЕКТЛАР МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИГА ТАЪСИРИ ВА ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИКНИ ЭРТА АНИҚЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Адилов Шерзот Шамильевич
Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш марказининг катта илмий ходими
ТДИУ тадқиқотчиси

Аграр тармоқ Ўзбекистон иқтисодиётида аҳоли бандлиги, даромадлари ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади. Шу сабабли агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлиги ва самарали молиялаштирилишини таъминлаш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Кредитлаш ва давлат молиявий қўллаб-қувватлаши билан бир қаторда, молиявий қийинчиликларни эрта баҳолаш, тўловга қобилиятсизлик хавфини аниқлаш ва ўз вақтида молиявий соғломлаштириш чораларини кўриш муҳимдир.

Тадқиқотнинг мақсади агробизнесни молиялаштириш ҳолатини баҳолаш ҳамда тўловга қобилиятсизликни эрта аниқлаш ва молиявий соғломлаштириш механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Шу билан бирга, ички ва ташқи меҳнат миграцияси агробизнес субъектларининг меҳнат ресурслари, харажатлари ва молиявий барқарорлигига таъсир қилувчи муҳим омил ҳисобланади. Ташқи миграция меҳнат ресурслари танқислигини кучайтириши мумкин бўлса, мигрантлар пул ўтказмалари уй хўжаликлари даромадлари ва агробизнес инвестицияларининг қўшимча манбаси бўлиб хизмат қилиши мумкин. Шу сабабли миграция омилини агробизнес субъектларининг тўловга қобилиятсизлик хавфини баҳолашда ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикасида агробизнесни молиялаштиришнинг замонавий ҳолатини уй хўжаликлари, агробизнес субъектлари ва ҳудудий тизим даражаларида комплекс баҳолаш, молиялаштиришнинг молиявий барқарорлик, иқтисодий самарадорлик, Ўзбекистон Республикасида агробизнесни молиялаштиришнинг замонавий ҳолатини уй хўжаликлари, агробизнес субъектлари ва ҳудудий тизим даражаларида комплекс баҳолаш, ички ва ташқи меҳнат миграциясининг меҳнат ресурслари, уй хўжаликлари даромадлари, пул ўтказмалари, бандлик ва агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлигига таъсирини аниқлаш, молиялаштиришнинг молиявий барқарорлик, иқтисодий самарадорлик, қишлоқ аҳолиси даромадлари ва камбағаллик даражасига таъсирини аниқлаш, шунингдек, агробизнес субъектларининг молиявий ҳолатини эрта баҳолаш, тўловга қобилиятсизлик хавфини эрта аниқлаш ва молиявий соғломлаштириш механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Мазкур мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланди:

1.Агробизнесни молиялаштиришнинг назарий-услубий асослари ва иқтисодий мазмунини тадқиқ этиш.

2.Уй хўжаликлари, аграр субъектлар ва ҳудудий тизим даражаларида молиялаштиришнинг даромадлар, молиявий барқарорлик, бандлик ва камбағалликка таъсирини таҳлил қилиш.

3. Ички ва ташқи меҳнат миграциясининг қишлоқ ҳудудларида меҳнат ресурслари, уй хўжаликлари даромадлари, пул ўтказмалари, бандлик ва агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлигига таъсирини баҳолаш.

4.Агробизнес субъектларининг молиявий ҳолатини эрта баҳолаш мезонларини шакллантириш ва тўловга қобилиятсизлик хавфини эрта аниқлаш омилларини тадқиқ этиш.

5.Молиявий ҳолатни эрта баҳолаш натижалари асосида тўловга қобилиятсизликнинг олдини олиш ва молиявий соғломлаштириш чораларини такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

6.Агробизнесни молиялаштириш самарадорлигини ошириш, молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш ва қишлоқ ҳудудларининг

барқарор ривожланишини таъминлаш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқиш.

Тадқиқотда агробизнесни молиялаштириш, агробизнес субъектларининг молиявий ҳолати ва қишлоқ аҳолиси даромадлари ўзаро узвий боғлиқ ҳолда таҳлил қилинади. 2015–2025 йилларда молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларининг кенгайиши аграр субъектларнинг молиявий имкониятларини мустаҳкамлаш, ишлаб чиқариш ва бандликни ошириш ҳамда қишлоқ аҳолиси даромадларининг ўсишига ижобий таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, молиялаштириш имкониятларининг кенгайиши қишлоқ ҳудудларида иқтисодий фаолликни рағбатлантириш ва агробизнеснинг барқарор ривожланиши учун қулай шароит яратади.

1-жадвал

Агробизнес субъектларининг молиявий ҳолати ва қишлоқ аҳолиси даромадлари

Таҳлил даражаси	Таҳлил объекти	Асосий кўрсаткичлар
I даража	Уй хўжалиги	Даромадлар ва уларнинг таркиби; даромадларнинг мавсумийлиги; активлар ва қарз юки; молиявий хизматлардан фойдаланиш имконияти; ички ва ташқи миграцияда иштирок этиш; миграциядан олинадиган даромадлар; хориждан пул ўтказмалари; пул ўтказмаларининг истеъмол, жамғарма ва инвестицияга йўналтирилиши.
II даража	Аграр субъект (фермер хўжалиги, деҳқон хўжалиги, аграр корхона, қайта ишлаш корхонаси)	Молиявий барқарорлик; тўловга қобилиятлилик; харажатлар ва капитал таркиби; кредит ресурсларидан фойдаланиш; молиявий ҳолатни эрта баҳолаш; тўловга қобилиятсизлик хавфи; молиявий соғломлаштириш
III даража	Ҳудудий тизим	Бандлик ва меҳнат бозори; инфратузилма ва қайта ишлаш тармоқлари; ишлаб чиқариш ва қўшилган қиймат; ҳудуддаги камбағаллик даражаси; ички миграция оқимлари; ташқи меҳнат миграцияси даражаси; меҳнат ресурсларининг ҳудудий тақсимоти; миграция натижасида меҳнат ресурслари танқислиги.

Мазкур жараёнларда ички ва ташқи меҳнат миграцияси ҳам муҳим омил ҳисобланади. Ички миграция меҳнат ресурсларининг ҳудудлар бўйича қайта тақсимланиши орқали аграр корхоналарнинг меҳнат билан таъминланганлиги, харажатлари ва ишлаб чиқариш ҳажмига таъсир қилиши мумкин. Ташқи миграция эса, бир томондан, қишлоқ ҳудудларида меҳнат ресурслари қисқаришига, иккинчи томондан, мигрантлар пул ўтказмалари орқали уй хўжаликларининг молиявий имкониятлари кенгайишига таъсир қилади. Ушбу маблағларнинг қишлоқ хўжалиги ва тадбиркорликка йўналтирилиши агробизнесни молиялаштиришнинг қўшимча манбаси бўлиши мумкин.

Агробизнес субъектларида қарз юки, пул оқимлари ва харажатларнинг ўзгариши тўловга қобилиятсизлик хавфига таъсир қилади. Шунинг учун молиявий ҳолатни эрта баҳолаш, хавфни аниқлаш ва ўз вақтида молиявий соғломлаштириш чораларини кўриш муҳимдир.

Натижалар мазкур механизмларни такомиллаштириш аҳоли даромадлари ва бандликни ошириш ҳамда камбағалликни қисқартиришга хизмат қилишини кўрсатди.

Аграр субъектларнинг тўловга қобилиятлилигини тиклаш ва миграция омилларини ҳисобга олиш модели

Аграр субъектларнинг молиявий барқарорлигини тиклаш ва тўловга қобилиятсизлик хавфини камайтириш мақсадида қуйидаги босқичма-босқич молиявий соғломлаштириш модели таклиф этилади.

2-жадвал

Аграр субъектларнинг тўловга қобилиятсизлик хавфини камайтириш

Босқич	Босқич номи	Асосий мазмуни
1	Молиявий ҳолатни эрта баҳолаш	Активлар, мажбуриятлар, ликвидлик ва тўловга қобилиятсизлик хавфини баҳолаш
2	Меҳнат ва миграция хавфини баҳолаш	Ишчи кучи танқислиги, ички ва ташқи миграция таъсири, меҳнат харажатлари ва миграциядан келадиган пул ўтказмаларини баҳолаш
3	Инқирозга қарши (антикризис) стратегияси	Молиялаштириш манбалари ва тикланиш чораларини белгилаш
4	Ликвидликни тиклаш	Қарзларни реструктуризация қилиш ва айланма маблағларни оптималлаштириш
5	Барқарорликни мустаҳкамлаш	Капитални ошириш, инвестиция жалб қилиш ва ишлаб чиқаришни модернизациялаш
6	Мониторинг ва баҳолаш	Асосий молиявий кўрсаткичларни мунтазам мониторинг қилиш

Манба: *Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган*.

Таклиф этилаётган модель молиявий ҳолатни эрта баҳолашдан бошланиб, ликвидликни тиклаш, молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш ва доимий мониторинг босқичларини қамраб олади. Мазкур ёндашув тўловга қобилиятсизлик хавфини ўз вақтида аниқлаш, молиявий соғломлаштириш чораларини белгилаш ва агробизнес субъектларининг барқарор фаолиятини таъминлашга хизмат қилади.

Молиявий соғломлаштиришнинг ижтимоий-иқтисодий самараси

Аграр субъектларни молиявий соғломлаштириш уларнинг тўловга қобилиятлилигини тиклаш билан бирга, ишлаб чиқаришни сақлаш, бандлик ва аҳоли даромадларини оширишга хизмат қилади.

Бунда меҳнат миграцияси омилларини ҳисобга олиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Молиявий соғломлаштириш натижасида ишлаб чиқаришнинг тикланиши қишлоқ ҳудудларида мавжуд иш ўринларини сақлаб қолиш ва меҳнат ресурсларининг мажбурий ташқи ёки ички миграцияга чиқиш эҳтиёжини камайтиришга хизмат қилиши мумкин. Аксинча, агробизнес субъектларининг молиявий беқарорлиги ва иш

ўринларининг қисқариши миграция жараёнларини кучайтирувчи омиллардан бири бўлиши эҳтимолдан холи эмас.

Бунда молиявий ҳолатни эрта баҳолаш ва тўловга қобилиятсизлик хавфини ўз вақтида аниқлаш соғломлаштириш чораларининг самарадорлигини оширади.

Шундай қилиб, молиявий соғломлаштириш аграр субъектларнинг тўлов қобилияти ва молиявий барқарорлигини тиклаш билан бир қаторда, иш ўринларини сақлаш, ишлаб чиқариш ҳажмини барқарорлаштириш ва қишлоқ аҳолиси даромадларини оширишга хизмат қилади.

3-жадвал

Аграр субъектларнинг молиявий соғломлаштириш

Кўрсаткич	Соғломлаштиришдан олдин	Соғломлаштиришдан кейин
Тўловга қобилиятлилик	Паст	Тикланади
Бандлик ва иш ҳақи	Беқарор	Барқарорлашади
Меҳнат ресурслари билан таъминланганлик	Беқарор (танқис)	Барқарорлашади
Миграция босими	Юқори бўлиши мумкин	Пасайиши мумкин
Мигрантлар пул ўтказмаларидан фойдаланиш	Асосан истеъмолга йўналиши мумкин	Инвестиция ва тадбиркорликка йўналтириш имконияти ошади
Ишлаб чиқариш	Пасаяди	Ўсади
Аҳоли даромадлари	Пасайиш тенденцияси	Ўсиш тенденцияси
Инвестиция фаоллиги	Паст	Ошади
Тўловга қобилиятсизлик хавфи	Юқори	Камаяди

Манба: *Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган*.

Шу нуқтаи назардан, эрта молиявий баҳолаш, хавфларни аниқлаш ва ўз вақтида молиявий соғломлаштириш чораларини қўллаш аграр субъектларнинг инқирозга тушишининг олдини олиш ҳамда қишлоқ ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий барқарорлигини таъминлашнинг муҳим механизми ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлигини баҳолашда миграция жараёнларини ҳам ҳисобга олиш зарурлигини кўрсатади. Хусусан, ички миграция меҳнат ресурсларининг ҳудудий қайта тақсимланиши орқали аграр субъектларнинг ишчи кучи билан таъминланганлигига таъсир қилса, ташқи меҳнат миграцияси меҳнат ресурслари таклифини қисқартириши билан бирга, пул ўтказмалари орқали уй хўжаликларининг молиявий имкониятларини кенгайтиради. Шу сабабли миграциянинг агробизнесга таъсири бир томонлама эмас, балки меҳнат ресурслари ва молиявий ресурслар каналлари орқали бир вақтнинг ўзида намоён бўлади.

Шу нуқтаи назардан, агробизнес субъектларининг тўловга қобилиятсизлик хавфини эрта аниқлаш тизимида нафақат ликвидлик, қарз

юки, рентабеллик ва пул оқимлари, балки меҳнат ресурслари билан таъминланганлик, меҳнат харажатлари, ҳудудий миграция оқимлари ва пул ўтказмаларининг агробизнесга йўналтирилиш даражасини ҳам ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот натижалари молиявий соғломлаштиришни фақат қарзларни реструктуризация қилиш билан чекламасдан, молиявий бошқарувни такомиллаштириш, харажатларни оптималлаштириш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва рақамли технологияларни жорий этишни назарда тутувчи комплекс ёндашув зарурлигини кўрсатди.

Аграр тармоқнинг табиий ва иқтисодий хавфларга боғлиқлиги молиявий соғломлаштиришни давлат қўллаб-қувватлаши билан уйғунлаштиришни, шунингдек, молиявий ҳолатни эрта баҳолаш ва тўловга қобилиятсизлик хавфини мунтазам мониторинг қилишни талаб этади.

Умуман, мазкур ёндашув аграр субъектларнинг молиявий барқарорлиги, бандлик ва аҳоли даромадларини ошириш ҳамда камбағалликни қисқартиришга хизмат қилади.

Тадқиқот натижалари аграр субъектларнинг молиявий барқарорлиги тўловга қобилиятлилик, бандлик ва аҳоли даромадларини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга эканини кўрсатади. Молиявий ҳолатни эрта баҳолаш, тўловга қобилиятсизлик хавфини аниқлаш ва ўз вақтида молиявий соғломлаштириш чораларини кўриш корхоналарнинг барқарорлигини таъминлаш имконини беради.

Таклиф этилган олти босқичли модель қарзларни реструктуризация қилиш, ликвидликни тиклаш, инвестиция жалб этиш ва молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш орқали агробизнес субъектларининг тўловга қобилиятлилигини тиклашга қаратилган.

Тадқиқот натижалари ички ва ташқи меҳнат миграцияси агробизнеснинг молиявий барқарорлигига икки хил канал орқали таъсир қилишини кўрсатади.

Биринчидан, меҳнат ресурсларининг ҳудудий ва ташқи миграцияси аграр субъектларда ишчи кучи танқислиги ва меҳнат харажатларининг ошишига олиб келиши мумкин.

Иккинчидан, ташқи меҳнат миграциясидан шаклланадиган пул ўтказмалари уй хўжаликларининг даромадлари ва жамғармаларини ошириб, агробизнесни молиялаштиришнинг қўшимча манбасига айланиши мумкин. Шу сабабли агробизнес субъектларининг тўловга қобилиятсизлик хавфини эрта аниқлаш тизимида миграция ва пул ўтказмалари билан боғлиқ кўрсаткичларни инобатга олиш мақсадга мувофиқ.

Ушбу механизмларни давлат молиявий қўллаб-қувватлаши билан уйғунлаштириш қишлоқ ҳудудларида бандлик ва аҳоли даромадларини ошириш ҳамда камбағалликни қисқартиришга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелдаги ЎРҚ-763-сон «Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида»ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-535-I-сон «Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида»ги Қонуни.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПФ-5975-сон «Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартириш соҳасида давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.

4. Мирзиёев Ш.М. 2026 йилда камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш соҳасидаги устувор вазифаларга бағишланган видеоселектор йиғилиши. 2026 йил 23 январь. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.

5. Мирзиёев Ш.М. Инфляцияни янада пасайтириш ва макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш чора-тадбирларига бағишланган видеоселектор йиғилиши. 2025 йил 12 ноябрь. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.

MEHNAT MIGRATSIYASINING HUDUDLAR BO‘YICHA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRI

Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi
sh.xamdamov@tsue.uz
Abdusalomov Baxodir Abdulboqi o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
abdusalomovbahodir758@gmail.com

Mehnat migratsiyasi, ya’ni odamlarning xorijga ishlash uchun ketishi, O‘zbekiston mehnat bozoriga katta ta’sir qiladi. Migratsiya agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-iyun holatiga 1,9 mln fuqaro uzoq muddatga xorijda bo‘lgan. Ulardan 1,3 mln nafari ish uchun ketgan. Bu mehnatga layoqatli aholining 6,3 foizini tashkil qiladi [1]. Hududlar o‘rtasida farq katta: Toshkent shahrida xorijga ketganlar ulushi 3,1 foiz, Surxondaryo viloyatida esa 22,8 foiz [1]. Shuning uchun migratsiyaning ishsizlikka ta’sirini faqat butun mamlakat bo‘yicha ko‘rish yetarli emas. Odamlar ketganda mahalliy mehnat bozoridagi bosim kamayishi mumkin. Ular ommaviy qaytib kelganda esa bu bosim oshishi mumkin. Ishning maqsadi – mehnat migratsiyasi hududlarda ishsizlik darajasiga qanday ta’sir qilishini aniqlash va takliflar berish. Buning uchun rasmiy statistika, xalqaro hisobotlar va ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlar solishtirildi.

Olimlar migratsiyani mehnat bozoridagi nomutanosiblikni kamaytiruvchi yo‘l deb hisoblaydi. Jahon banki tadqiqotiga ko‘ra, mahalliy mehnat bozori zaif bo‘lsa, odamlar ko‘proq xorijga ketadi. Bu ayniqsa ishsiz a’zosi bor oilalarda va ishsizlik yuqori hududlarda kuzatiladi [2, 32-b.]. Demak, avval ishsizlik bo‘ladi, keyin odamlar ketadi, aksincha emas. Shu bilan birga migratsiya oilalarga yordam beradi. Pul o‘tkazmalari bo‘lmasa, qashshoqlik darajasi (kuniga 3,2 dollar chegarasida) 9,6 foizdan 16,8 foizgacha oshar edi [2, 10-b.]. UNDP hisob-kitobiga ko‘ra, 1,5 mln migrant bir vaqtda qaytsa, ishsizlik 9,6 foizdan taxminan 19 foizgacha oshishi mumkin [3]. Pandemiyada bu xavf qisman ro‘y berdi: taxminan yarim million migrant qaytganda ishsizlik 2019-yildagi 9,1 foizdan 2020-yilda 13,2 foizgacha oshgan [3]. Surxondaryo bo‘yicha tadqiqot ham ikki xil ta’sirni

ko‘rsatgan. Odamlar ketsa, mahalliy bozordagi bosim vaqtincha kamayadi. Lekin qishloq xo‘jaligi va oddiy xizmatlarda ishchi yetishmaydi [4].

Butun mamlakat bo‘yicha migrantlar soni va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik oddiy emas. Xorijda ishlayotganlar soni 2024-yil boshida 2 mln dan ortiq edi. 2025-yil boshiga kelib 1,35 mln bo‘ldi, ya’ni 34 foizga kamaydi [5]. 2026-yil avgustda bu son taxminan 1,4 mln bo‘lgan [6]. Shu vaqtda ishsizlik doimiy pasaydi: 2022-yil 1-yanvarda 9,5 foiz [3], 2025-yilda 4,9 foiz (bir yil oldin 5,5 foiz) [7], 2026-yil birinchi yarmida 4,5 foiz [8]. Shu yarim yilda 506 ming kishi doimiy ishga joylashtirildi, 546 ming norasmiy band odamning faoliyati rasmiylashtirildi [8]. Demak, ishsizlik ishchilar ketgani uchun emas, balki bandlik siyosati va norasmiy ishlarni rasmiylashtirish tufayli kamaygan bo‘lishi mumkin. Qaytayotgan migrantlar masalasi hali ham muhim: 2026-yil birinchi yarmida 661 ming kishi qaytgan, ulardan 557 ming nafari (84 foiz) daromadli ish bilan band bo‘lgan [9]. Lekin UNDPning 2022-yilgi so‘rovida (Namangan va Toshkent viloyatlari, butun respublikani ifodalamaydi) qaytganlar orasida ishsizlik 51,2 foiz chiqqan. Ishlayotganlarning qariyb 93 foizi yozma shartnomasiz ishlagan [3].

Hududiy farqlar. 2020-yil birinchi choragida pandemiya sababli ko‘p migrant qaytdi. O‘shanda ishsizlik eng yuqori Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida (9,8 foiz), eng past Toshkent shahrida (7,8 foiz) bo‘lgan. Respublika bo‘yicha o‘rtacha 9,4 foiz edi [10]. Eng ko‘p odam Samarqand viloyatiga qaytgan (28,2 ming kishi), Toshkentga esa 6,7 ming kishi qaytgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Ayrim hududlarda migrantlarning qaytishi va ishsizlik darajasi, 2020-yil I chorak

Hudud	2020-yil yanvar–mart oylarida qaytganlar, kishi	Shundan Rossiyadan, %	Ishsizlik darajasi, %
Samarqand viloyati	28 168	72,2	9,8
Surxondaryo viloyati	16 401	86,7	9,8
Farg‘ona viloyati	20 922	72,6	9,7
Qashqadaryo viloyati	16 061	85,4	9,7
Jizzax viloyati	3 659	64,5	9,7
Sirdaryo viloyati	2 851	65,6	9,7
Toshkent shahri	6 683	36,4	7,8
Respublika bo‘yicha	**192 683**	**69,4**	**9,4**

Manba: *mualliflar tomonidan [3, 2.2-jadval; 10] asosida tuzildi; Rossiyadan qaytganlar ulushi mualliflar hisob-kitobi.*

Jadvaldan ikkita xulosa chiqadi. Birinchidan, ishsizligi eng yuqori hududlarga ko‘p migrant qaytgan. Poytaxtda esa ishsizlik past va qaytganlar kam. Ikkinchidan, chekka hududlarda qaytganlarning ko‘pchiligi Rossiyadan kelgan: Surxondaryoda 87, Qashqadaryoda 85, Toshkentda 36 foiz. Demak, bu hududlar bitta mamlakat mehnat bozoriga bog‘liq. Ikki yildan keyin ham holat shunday qoldi. IPMI 2022-yil indeksiga ko‘ra, eng past ishsizlik Toshkentda (6,5 foiz) bo‘lgan. Samarqand, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda esa kamida 9,3 foiz edi [11].

Shuni aytish kerak: bu ma’lumotlar ikki holat bir vaqtda uchrashini ko‘rsatadi, biri ikkinchisiga sabab ekanini isbotlamaydi. Yuqori ishsizlik odamlarni ketishga majbur qiladi [2, 32-b.], qaytish esa bu bosimni yanada oshiradi.

Ichki va tashqi migratsiya bir-biri bilan bog‘liq. Ishsizlik yuqori hudud aholisida ikki yo‘l bor: boshqa hududga, ko‘pincha poytaxtga ko‘chish yoki xorijga ketish. Toshkentda ishsizlik nisbatan past va xorijga ketganlar ulushi kam (3,1 foiz [1]). Bu poytaxtda ish topish imkoniyati yaxshiroq ekanini ko‘rsatadi. Lekin viloyatlar o‘rtasidagi ichki ko‘chish bo‘yicha taqqoslasa bo‘ladigan ma’lumot topilmadi. Shuning uchun ichki va tashqi migratsiya bir-birini qanchalik almashtirishini hisoblab bo‘lmadi. Bu ishning cheklovi va keyingi tadqiqotlar uchun mavzu.

Takliflar. Tahlil asosida oltita taklif beramiz. Birinchidan, hududlar bo‘yicha taqqoslasa bo‘ladigan statistika kerak. Ishsizlik, ketgan va qaytgan migrantlar hamda ichki ko‘chish ma’lumotlari bir davr uchun va bir xil usulda, viloyat va tumanlar bo‘yicha e’lon qilinishi lozim. Ikkinchidan, bandlik dasturlarini xorijga ketganlar ulushi yuqori hududlarga, avvalo Surxondaryoga yo‘naltirish kerak, chunki u yerda har beshinchi mehnatga layoqatli odam xorijda [1]. Uchinchidan, qaytgan migrantlarni ishga olgan ish beruvchilarga subsidiya berilgan (12 oy davomida oyiga 500 ming so‘m) [12]. U 2026-yil 1-yanvargacha ishga olinganlar uchun amal qilgan [13]. Uni xodim kamida 12 oy ishlashi sharti bilan va hududlarga qarab farqlab uzaytirgan ma’qul. To‘rtinchidan, qaytganlarning ish sifatini oshirish kerak. So‘rovda ularning qariyb 93 foizi yozma shartnomasiz ishlagan [3], shuning uchun ishga joylashtirishni rasmiy mehnat shartnomasi bilan bog‘lash zarur. Beshinchidan, xorijda orttirilgan ko‘nikmalarni sertifikatlash va qisqa muddatli qayta o‘qitishni kengaytirish lozim [3]. Oltinchidan, migratsiya yo‘nalishlarini ko‘paytirish kerak. Xorijda ishlayotgan taxminan 1,4 mln kishidan 834 ming nafari (qariyb 60 foiz) Rossiyada, 258 ming nafari Yevropada [6]. Yo‘nalishlar ko‘p bo‘lsa, hududlar bitta bozorga kam bog‘liq bo‘ladi.

Mehnat migratsiyasining hududiy ishsizlikka ta’siri ikki xil. Odamlar ketganda mehnat bozoridagi bosim kamayadi va oilalar daromadi oshadi. Ular ommaviy qaytganda esa ishsizlik oshadi. Bu ayniqsa migrantlar ulushi yuqori va bitta mamlakatga bog‘liq chekka hududlarda seziladi. Milliy ishsizlik 4,5 foizgacha tushgani [8] hududlar o‘rtasidagi migratsiya farqini yo‘qotmaydi [1]. Shu sababli hududiy monitoring, qaytganlar uchun maqsadli bandlik dasturlari, subsidiyani uzaytirish va yo‘nalishlarni ko‘paytirish taklif qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Куда чаще всего уезжают трудовые мигранты из Узбекистана? // NUZ.uz. 18.08.2026. URL: https://nuz.uz/2026/08/18/kuda-chashhe-vsego-uezzhayut-trudovye-migranty-iz-uzbekistana/ (murojaat sanasi: 05.10.2026).

2. Seitz W. International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. Policy Research Working Paper № 8910. Washington, DC: World Bank, 2019.

URL:https://documents1.worldbank.org/curated/en/615721561125387061/pdf/International-Migration-and-Household-Well-Being-Evidence-from-Uzbekistan.pdf (murojaat sanasi: 05.10.2026).

3. Support and Reintegration of Labor Repatriates in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Analytical Report. Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2022. URL:

https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-01/Migrant%20Survey%20Report_Final_UNDP.docx_.pdf (murojaat sanasi: 05.10.2026).

4. Narmuminov J. Statistical model of labor migration flows and impact on regional employment in Surkhandarya region // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2026. Vol. 6, № 1. P. 301–307. DOI: 10.5281/zenodo.18248047.

5. Число трудовых мигрантов из Узбекистана за рубежом снизилось более чем на треть // Росмигрант. 2025. URL: https://rosmigrant.ru/press-center/news/novosti/chislo-trudovykh-migrantov-iz-uzbekistana-za-rubezhom-snizilos-bolee-chem-na-tret/ (murojaat sanasi: 05.10.2026).

6. Около 1,4 млн граждан Узбекистана работают за рубежом. География трудовой миграции меняется // Gazeta.uz. 17.08.2026. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2026/08/17/migration/ (murojaat sanasi: 05.10.2026).

7. Уровень бедности и безработицы в Узбекистане планируется снизить ниже 4,5% в 2026 году // Gazeta.uz. 20.11.2025. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2025/11/20/poverty/ (murojaat sanasi: 05.10.2026).

8. Уровень бедности в Узбекистане в первом полугодии снизился до 4,5% // Podrobno.uz. 2026. URL: https://podrobno.uz/cat/economic/uroven-bednosti-v-uzbekistane-v-pervom-polugodii-snizilsya-do-4-5 (murojaat sanasi: 05.10.2026).

9. В Узбекистане 557 тысяч вернувшихся мигрантов получили доходную занятость — министр // Gazeta.uz. 30.09.2026. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2026/09/30/migrants-uzb/ (murojaat sanasi: 05.10.2026).

ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ЁШЛАР МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИ ВА ИЧКИ МЕҲНАТ БОЗОРИ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИКЛИК

Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
ТДИУ ҳузуридаги "Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари" илмий-тадқиқот маркази
muxabbat.asqarova@bk.ru

Жаҳон иқтисодиётида меҳнат ресурсларининг халқаро ҳаракати демографик ўзгаришлар, иш ўринларининг ҳудудий тақсимоти ва касбий кўникмаларга талаб ўртасидаги номутаносибликлар билан узвий боғлиқ. Айниқса, меҳнат бозорига биринчи марта кириб келаётган ёшлар учун ишсизлик, етарли меҳнат тажрибасининг мавжуд эмаслиги ва муносиб иш ўринларининг чекланганлиги миграцияга мойилликни кучайтириши мумкин. Халқаро меҳнат ташкилоти маълумотларига кўра, 2023 йилда дунё бўйича 15–24 ёшдаги 64,9 млн нафар ёш ишсиз бўлиб, ёшлар ишсизлиги 13 фоизни ташкил этган [1]. Бироқ мазкур глобал кўрсаткич алоҳида мамлакатлардаги миграциянинг бевосита сабабини исботламайди.

Ёшлар меҳнат миграциясини миллий бандлик сиёсатига нисбатан мустақил жараён сифатида баҳолаш етарли эмас. Миграция иқтисодиётдаги ишчи кучи таклифи босимини қисман юмшатиши, аҳоли даромадларини ошириши ва халқаро касбий тажрибани кенгайтириши мумкин. Шу билан бирга, малакали кадрлар чиқиб кетиши, ишга ёллаш харажатлари, меҳнат ҳуқуқларининг ҳимояланмаслиги ва ватанга қайтишдан кейинги ишсизлик унинг ижобий натижаларини чеклайди.

Мазкур тезисда Миср, Филиппин ва Марказий Осиё тажрибаси қиёсий таҳлил қилиниб, Ўзбекистон учун татбиқ этилиши мумкин бўлган ёндашувлар асосланади.

Миср тажрибаси: меҳнат бозори номутаносиблиги. Мисрда ёшлар меҳнат миграциясининг иқтисодий шарт-шароитлари демографик босим, таълим тизими натижалари ва меҳнат бозори талабларининг ўзаро мувофиқ эмаслиги билан тавсифланади. M. Said ва K. O'Neillнинг 2010 йилги тадқиқотида 2006 йилги сўровга асосан эркак респондентларнинг 75 фоизи биринчи иш ўрнини топиш учун беш йилгача вақт сарфлагани келтирилган [2]. Бу тарихий кўрсаткич бугунги Миср бандлик даражасини ифодаламайди, лекин ёшларнинг таълимдан меҳнат фаолиятига ўтиш жараёнидаги тўсиқларни тушунтиришга хизмат қилади.

Муаммонинг марказида фақат ишчи кучи миқдори эмас, балки касбий тайёргарлик ва мавжуд иш ўринлари ўртасидаги сифат номутаносиблиги туради. Шу боис миграция иш изловчилар сонини вақтинча камайтирса-да, ишлаб чиқариш таркибини модернизация қилиш, таълим сифатини ошириш ва юқори унумдор бандликни ривожлантириш заруратини бартараф этмайди. Миср тажрибасининг Ўзбекистон учун муҳим жиҳати ташқи миграция дастурларини ҳудудий иш ўринлари прогнози ва мақсадли касбий тайёргарлик билан боғлашдан иборат.

Миср мисолида миграцияга туртки берадиган ички омиллар устувор бўлса, Филиппин тажрибаси миграцияни ташкил этиш сифатига эътибор қаратади. Мамлакатнинг Overseas Workers Welfare Administration (OWWA) тизимида жўнашдан олдинги йўриқнома, меҳнат шартлари ва қабул қилувчи мамлакат шароити ҳақида ахборот, ижтимоий ёрдам ва реинтеграция хизматлари назарда тутилган [3]. Бундай ёндашув мигрантнинг ишга жойлашиш натижасини фақат вакансия топиш билан чекламайди.

1-жадвал

Миср ва Филиппин тажрибаларининг қиёсий хусусиятлари

Мезон	Миср	Филиппин
Муаммо манбаи	Демографик босим ва малака номутаносиблиги	Мигрантнинг хорижга тайёрлиги ва ҳимояси
Сиёсатнинг асосий вазифаси	Ички иш ўринлари ва касбий таълимни мувофиқлаштириш	Жўнашдан олдинги тайёргарлик ва реинтеграция
Меҳнат бозорига таъсири	Ишчи кучи таклифи босимини қисман юмшатиш	Касбий малака, даромад ва тажриба шаклланиши
Ўзбекистонга сабоқ	Миграцияни ички бандлик сиёсатидан ажратмаслик	Миграциянинг барча босқичини мониторинг қилиш

Манба: *Илмий адабиётлар қиёсий таҳлили асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.*

Касбий ва тил тайёргарлиги, меҳнат шартномасининг тушунарли тилда берилиши, ҳуқуқий маслаҳат ва мурожаат каналлари ёш

мигрантларнинг янги муҳитга мослашиш имкониятларини кенгайтиради. Айниқса, хорижда орттирилган малакани қайтгандан кейин маҳаллий иш берувчилар тан олмаса, миграциянинг инсон капиталига таъсири заифлашади. Демак, Филиппин тажрибасидан олинадиган асосий сабоқ — тайёргарлик, хориждаги ҳимоя ва қайтишдан кейинги қайта бандликни бир дастурга бирлаштириш.

Қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, ушбу икки тажриба бир-бирини тўлдиради: Миср мисоли «нима учун миграция юзага келади?» саволига, Филиппин эса «миграцияни қандай бошқариш керак?» саволига жавоб беради. Шу асосда халқаро меҳнат ҳаракатчанлигини миллий бандлик сиёсатининг таркибий қисмига айлантириш мақсадга мувофиқ.

Марказий Осиёда меҳнат миграцияси узоқ муддат Россия бозори билан боғлиқ бўлиб келган. 2022 йилдан кейинги сиёсий-иқтисодий ўзгаришлар янги йўналишлар — Европа Иттифоқи, Буюк Британия ва бошқа меҳнат бозорларига қизиқишни кучайтирди. N. Kholmatova ва N. Abdulloeva таҳлилига кўра, Европа Иттифоқида Марказий Осиё фуқаролари учун меҳнат фаолиятига оид амалдаги яшаш рухсатномалари 2021–2024 йилларда қарийб уч баравар ошиб, 79 мингтага яқинлашган. 2024 йилда Буюк Британиянинг 35,6 мингта мавсумий иш визасининг 78 фоиздан ортиғи Марказий Осиёнинг тўрт давлати фуқароларига берилган [4]. Булар барча ёшдаги шахсларга оид кўрсаткичлардир.

Миграция йўналишларининг кенгайиши ҳуқуқий каналлардан фойдаланиш имконини оширса-да, янги бозорлар тил сертификати, виза, сафар, шартномани расмийлаштириш ва воситачилик хизматлари билан боғлиқ қўшимча талабларни юзага келтиради. Натижада юқори номинал иш ҳақи ҳар доим ҳам юқори соф даромадга айланмайди. Айниқса, дастлабки харажатларни қарз ҳисобига қоплаган мигрантнинг иш берувчига иқтисодий қарамлиги кучайиши мумкин.

Халқаро меҳнат ташкилотининг адолатли ишга ёллаш тамойилларида ишга ёллаш учун тўловлар ва тегишли харажатлар ишчи ёки иш изловчининг зиммасига юкланмаслиги белгиланган [5]. Бу тамойилни амалга оширишда ишга ёллаш учун ундирилган тўловларни мигрантнинг оддий шахсий яшаш харажатларидан аниқ ажратиш зарур. Шаффоф шартномалар, лицензияланган агентликларни баҳолаш ва шикоятларни ҳал этиш механизмлари миграциянинг иқтисодий хавфини пасайтиришга хизмат қилади.

Миграция самарадорлигини фақат хорижга чиққанлар сони ёки пул ўтказмалари ҳажми билан баҳолаш методологик жиҳатдан чекланган. Тўлиқроқ баҳолашда мигрантнинг солиқлардан кейинги даромади, сафар ва яшаш харажатлари, ишга ёллаш тўловлари, мамлакат ичида олиши мумкин бўлган муқобил даромади, касбий малакаси ўсиши ва қайтгандан кейинги бандлиги ҳисобга олиниши лозим. Бунда харажатларнинг камайиши ва меҳнат шартномаларининг бажарилиши миграциянинг ҳақиқий иқтисодий натижасини оширади.

Шундай қилиб, минтақавий тенденциялар Ўзбекистон учун бир вақтнинг ўзида икки вазифани қўяди: янги халқаро меҳнат бозорларига қонуний кириш

имкониятини кенгайтириш ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқий ва молиявий ҳимоясини таъминлаш. Бу йўналишлар бири иккинчисининг ўрнини босмаслиги, аксинча ягона институционал тизимда амалга оширилиши керак.

Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграциясини ички меҳнат бозори билан узвий боғлаш учун, аввало, ҳудудлар бўйича ёшлар бандлиги, ишсизлиги, NEET ҳолати, касбий малака ва иш берувчилар талаби биргаликда мониторинг қилиниши лозим. Бу ишчи кучи таклифи юқори бўлган ҳудудларни аниқлаш ва миграцияга тайёргарлик дастурларини иқтисодиётнинг ҳақиқий эҳтиёжлари асосида шакллантириш имконини беради.

Иккинчидан, Миср тажрибаси асосида касбий таълимни фақат хорижий иш берувчи талабига эмас, балки ички иқтисодиётнинг истиқболли тармоқларига ҳам мослаштириш зарур. Филиппин тажрибаси асосида эса мигрантларнинг тайёргарлиги, меҳнат шартномалари, ҳуқуқий ҳимояси ва қайтишдан кейинги бандлигини узлуксиз кузатиш тизими таклиф этилади. Марказий Осиё амалиётига таянган ҳолда янги йўналишлардаги рекрутинг харажатлари ва агентликлар фаолиятини очиқ баҳолаш ҳам алоҳида аҳамият касб этади.

2-жадвал

Ўзбекистон учун таклиф этиладиган амалий механизмлар

Йўналиш	Татбиқ этиладиган механизм	Баҳолаш мезони
Ҳудудий таҳлил	Ёшлар меҳнат таклифи ва вакансиялар мониторинги	Ёшлар бандлиги, NEET ва вакансиялар
Касбий тайёргарлик	Ички ва ташқи иш берувчилар билан мақсадли ўқитиш	Ўқишдан кейинги расмий бандлик улуши
Адолатли рекрутинг	Шартномалар ва тўловлар шаффофлиги	Ишга ёллаш харажатлари ва шикоятлар
Ҳуқуқий ҳимоя	Ахборот, консуллик кўмаги ва низоларни ҳал этиш	Ҳал этилган мурожаатлар улуши
Реинтеграция	Хорижий малакани тан олиш, қайта бандлик	Қайтгандан кейин 6–12 ойлик бандлик

Манба: *Илмий адабиётлар қиёсий таҳлили асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.*

Таклиф этилаётган механизмларнинг амалий устунлиги уларнинг ўзаро боғлиқлигидадир. Ҳудудий таҳлил касбий тайёргарлик учун ахборот базасини шакллантиради; тайёргарлик ва адолатли рекрутинг расмий ишга жойлашиш сифатини оширади; ҳуқуқий ҳимоя иқтисодий хавфларни пасайтиради; реинтеграция эса хорижда орттирилган билим ва маблағнинг мамлакат иқтисодиётига қайтиш имкониятини кенгайтиради. Бу концепция эмпирик баҳолаш ва пилот ҳудудларда синовдан ўтказишни талаб этади.

Қиёсий таҳлил ёшлар меҳнат миграцияси ички меҳнат бозоридаги демографик ва касбий номутаносибликлар ҳамда ташқи ишчи кучига талабнинг ўзаро таъсирида шаклланишини кўрсатди. Миср тажрибаси миграциянинг таркибий ишсизликни мустақил ҳал этмаслигини, Филиппин тажрибаси миграциянинг тўлиқ циклини институционал бошқариш зарурлигини, Марказий Осиё тенденциялари эса янги йўналишлар билан бирга харажат ва ҳуқуқий хавфлар ортишини намоён

этади. Шу боис Ўзбекистонда ёшлар меҳнат миграциясини ҳудудий бандлик, мақсадли тайёргарлик, адолатли рекрутинг ва қайта интеграцияни бирлаштирган тизим сифатида такомиллаштириш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures. Geneva: ILO, 2024. https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-employment-trends-youth-2024

2. Said M., O'Neill K. The "Youth Bulge" in Egypt: Is Labor Migration the Solution? Middle East Institute, 20.04.2010. https://mei.edu/publication/youth-bulge-egypt-labor-migration-solution/

3. Overseas Workers Welfare Administration. Pre-Departure Orientation Seminar; Programs and Services. https://owwa.gov.ph/

4. Kholmatova N., Abdulloeva N. Central Asian Migrants Look Beyond Russia, Yet New Destinations Carry Challenges Too. Migration Policy Institute, 07.05.2026 (updated 12.05.2026). https://www.migrationpolicy.org/journal/feature/central-asian-migrants-look-beyond-russia-yet-new-destinations-carry-challenges-too

5. International Labour Organization. General Principles and Operational Guidelines for Fair Recruitment and Definition of Recruitment Fees and Related Costs. Geneva: ILO, 2019. ISBN 978-92-2-133333-3. https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration/publications/WCMS_536755/lang--en/index.htm

ИЧКИ МЕҲНАТ БОЗОРИ ВА ТАШҚИ МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИ МУНОСАБАТЛАРИ: ТАШКИЛИЙ БЎЛМАГАН МИГРАЦИЯ ВА ҚАЙТГАНЛАР РЕИНТЕГРАЦИЯСИ МУАММОЛАРИ

Эгамов Ойбек Нормухаммедович

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти етакчи илмий ходими, Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ходимларининг малакасини ошириш маркази мустақил изланувчиси

Ўзбекистонда ички меҳнат бозори ва ташқи меҳнат миграцияси ўзаро боғлиқ ижтимоий-иқтисодий тизимни ташкил этади. Мамлакатда меҳнат ресурсларининг ўсиши, ҳудудлар ўртасидаги бандлик ва даромадлар тафовути, шунингдек, хорижий меҳнат бозорларидаги талаб аҳолининг миграция қарорларига бевосита таъсир кўрсатади. 2026 йил 1 январь ҳолатида иқтисодиётда банд 14 933,9 минг кишининг 8 576,4 мингтаси (57,4%) расмий, 4 916,6 мингтаси (32,9%) норасмий секторда ишлайди, 1 440,9 мингтаси (9,6%) эса хорижда меҳнат қилмоқда [1].

Жумладан:

- 2025 йил давомида расмий каналлар орқали 18,9 млрд АҚШ доллари келган, бу 2020 йилдагидан тахминан уч баробар кўп;
- Жаҳон банки ҳисобига кўра, ўтказмалар ЯИМнинг 14,3% ини ташкил этади[1].

«Ўзбекистон-2030» стратегиясидаги даромадларни ошириш ва камбағалликни қисқартириш вазифалари ички ва ташқи меҳнат бозорларини алоҳида эмас, ягона тизим сифатида бошқаришни талаб қилади.

Тадқиқот мақсади – ички ва ташқи меҳнат миграцияси ўртасидаги боғлиқликни расмий статистика, Марказий банк ва халқаро ташкилотлар маълумотлари асосида баҳолаш ҳамда бошқарув бўйича таклифларни асослаш. Статистик, қиёсий ва ҳисоб-китоб усулларидан фойдаланилди.

Илмий қарашларда ички ва ташқи миграция ўзаро боғлиқ жараён деб қаралади. Тодаро ҳамда Харрис–Тодаро моделларига кўра, одамлар кутилаётган даромад юқори бўлган жойга боради[2]; Старк ва Блум миграцияни оила даромадини бир манбага боғлаб қўймаслик, яъни хатарни тақсимлаш йўли деб изоҳлайди[3]; Масси ҳаммуаллифлари[4] ва де Хаас[5] эса қарорга ижтимоий алоқалар, институтлар ва шахснинг имкониятлари таъсир қилишини кўрсатади. Демак, ташқи миграцияни ички бандлик, иш ҳақи ва ҳудудлар ўртасидаги тенгсизликдан ажратиб ўрганиб бўлмайди.



1-расм. Бандлик таркиби (а), хорижда ишловчилар сони (б) ва миграция босими (в).

Мазкур йўналишда мавжуд асосий муаммолар нималардан иборатлигини кўриб чиқсак, биринчи муаммо хорижга кетганларнинг аксарияти ташкилий бўлмаган миграциянинг устунлигида бўлиб қолмоқда. 2024 йил 17 октябрдаги ПФ-162-сон Фармон билан Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Миграция агентлиги ва Миграция жамғармаси ташкил этилди. Бироқ 2025 йилда давлат ва хусусий агентликлар орқали атиги 205,5 минг киши ишга жойлаштирилди, хорижда ишловчилар сони эса 1 440,9 минг эди. Бу икки сон ўлчов бирлиги жиҳатидан бир хил эмас *(биринчиси - йиллик оқим, иккинчиси - умумий сон)*, шунинг учун улардан олинган нисбат тахминий баҳо беради: ташкилий бўлмаган миграция улуши 2024 йилда 88,1% бўлган бўлса, 2025 йилда 85,7% га тушган (*1-жадвал*). Демак,

хорижда ишловчиларнинг тахминан ҳар еттитасидан олтитаси давлат кафолатидан ҳамда кетишдан олдинги касбий ва тил тайёргарлигидан четда қолмоқда. Оқибатда 2025 йилда қийин аҳволга тушган 3,7 минг фуқарони қайтаришга тўғри келган.

1-жадвал.

Ташкилий бўлмаган меҳнат миграцияси улуши

Йил	Хорижда ишловчилар, минг киши	Ташкилий ишга жойлаштирилган, минг киши	Ташкилий бўлмаган миграция улуши, %
2024	1 353,6	161,8	88,1
2025	1 440,9	205,5	85,7

Статистик маълумотларга асосан хорижда ишловчилар сони 2015 йилда 1 001,3 минг, 2019 йилда 2 460,7 минг (энг юқори), 2023 йилда 2 047,9 минг, 2024 йилда 1 353,6 минг (-33,9%), 2025 йилда 1 440,9 минг бўлган *(1-расм, б)*. 2018 йилдаги (+78,8%) ва 2024 йилдаги (-33,9%) кескин ўзгаришлар миграциянинг ҳақиқий ўзгаришидан кўра ҳисобга олиш усули ўзгарганини ҳам кўрсатиши мумкин. Яна бир белги: 2025 йилда расмий ўтказмалар (18,9 млрд доллар) хорижда ишловчилар сонига бўлинса, бир кишига йилига ≈13,1 минг, ойига ≈1,1 минг доллар тўғри келади. 2022 йилги сўровда эса қайтган мигрантлар хорижда ўртача ойига 634 доллар олганини айтган. Бундай фарқ статистикада ҳисобга олинмаган мигрантлар борлигига ёки ўтказмалар таркибида иш ҳақи бўлмаган тушумлар мавжудлигига ишора қилиши мумкин. Шунинг учун ягона ҳисобга олиш усули керак.

Иккинчи муаммо-қайтиб келаётганлар сони ички бозор яратаётган иш ўринларидан кўп. 2025 йилда меҳнат миграциясидан 1,027 млн киши қайтган; бу иш излаётган деб ҳисобга олинган 744,9 минг кишидан 1,38 марта кўп (*1-расм, в*). Қайтганларнинг 729,5 мингтаси (71%) давлат кўмагида иш топган. Шу нисбатни ўлчаш учун «миграция босими коэффициенти»ни таклиф қиламиз: К (мб) = йил давомида қайтганлар сони ÷ ишга муҳтожлар сони. 2025 йилда К (мб)=1,38. К (мб) бирдан катта бўлса, ички бозор қўшимча иш ўринлари яратмагунча ишсизлик ва норасмий бандлик ортиши мумкин. Қайтганларнинг аҳволи ҳам осон эмас: 2022 йилда Наманган ва Тошкент ҳудудларида ўтказилган сўров (у бутун мамлакатни ифодаламайди) қайтганларнинг фақат 41% иш топганини, 93,2% расмий шартномасиз ишлаганини, ёлланма ходимларнинг ойлик даромади 634 доллардан 273 долларга тушганини ва давлат ёрдамини 27,7% олганини кўрсатган. 2026 йилда қайтганлар сони 661 мингга етди; уларнинг 557 минги (84%) даромадли машғулотга жалб этилган, аммо бундан фақат 105 минги доимий иш, 259 минги тадбиркорлик ҳисобига тўғри келади[6].

Учинчи муаммо - ички бозорнинг қайтганларни қабул қилиш имконияти чекланган. Норасмий бандлик 4,9 млн кишини қамраб олган, бундай ишда шартнома ва ижтимоий ҳимоя кафолатлари бўлмаслиги

мумкин. Шу сабабли 2026 йилда 1 млн иш ўрнини легаллаштириш вазифаси қўйилган.

Тўртинчи муаммо - ташқи бозорнинг таркиби ўзгармоқда. Хорижда ишловчи тахминан 1,4 млн кишининг 834,2 мингтаси (60%) Россияда; ҳисобот даврида МДҲ давлатларидаги кўрсаткич 29% га камайган, Европа ҳудудида 42%, Шарқий Осиёда 26% ўсган. 2026 йил биринчи ярмида Россияга меҳнат мақсадидаги киришлар 13,2% камайди[7]. Бу ўзгариш қайтиб келувчилар оқимини кучайтириши ҳамда янги бозорлар учун касбий ва тил тайёргарлигини талаб қилиши мумкин.

Бешинчи йўналиш - таълим миграцияси, чунки ўқиш малакали меҳнат миграциясига йўл очиши мумкин. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, хорижда ўқийдиганлар сони бўйича Ўзбекистон Хитой ва Ҳиндистондан кейин учинчи ўринда (2022 йилда 150 мингдан ортиқ). Ўқиш учун чиққанлар 2024 йилдаги 35,9 мингдан 2025 йилда 28,9 минггача (-19,3%) камайган, Корея (+69,1%) ва Хитой (+64,1%) йўналишлари эса ўсган. Бунга ички таълим сиғимининг кенгайиши сабаб бўлган, деб тахмин қилиш мумкин. Ўзбекистоннинг ЮНЕСКО Олий таълимга оид малакаларни тан олиш бўйича Глобал конвенциясига қўшилиши *(ратификация ҳужжати 2025 йил 3 декабрда топширилган, 2026 йил 3 мартдан кучга кирган*) хорижда ўқиган битирувчилар малакасини тан олишни осонлаштириб, уларнинг ички бозорга қайтишига йўл очади.

Хулоса: ички бозор - «сиғим», ташқи миграция эса унга «босим» ёки «клапан» вазифасини бажаради. Ташқи бозор қисқарганда ёки одамлар қайтганда ички бозор уларни қабул қила олмаса, бу босим ишсизлик ва норасмий бандликка айланади. Ислоҳотларни такомиллаштириш учун қуйидагилар таклиф этилади:

1) ташкилий ва ташкилий бўлмаган мигрантлар, қайтганлар ва иш излаётганларни сон ва оқимни аралаштирмай, ягона усулда ҳисобга олувчи электрон тизим юритиш ҳамда К (мб) коэффициентини ҳудудлар бўйича мунтазам ҳисоблаш;

2) қайтганларни ишга жойлаштириш натижасини иш топганлар сони билан эмас, 6 ва 12 ойдан кейинги бандлик ва даромад барқарорлиги (доимий ва мавсумий ишни ажратиб) билан баҳолаш;

3) К (мб) юқори ҳудудларда кадрларга бўлган ҳудудий эҳтиёж харитаси асосида касбий ўқитиш ваучерлари, микромолия ва тадбиркорликка кўмакни йўналтириш;

4) хорижда орттирилган малакаларни сертификатлаш ва тан олишни соддалаштириш, мигрантларни кетишдан олдин касбий ва тил тайёргарлигига жалб этиш;

5) ўтказмаларни банк каналлари ва инвестицияларга йўналтирувчи молиявий маҳсулотларни кенгайтириш.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Миграция агентлиги маълумотлари асосида тайёрланган ахборот-таҳлилий шарҳ (2026 йил 1 январь ҳолати). - Тошкент, 2026.

2. Remittances to Uzbekistan exceed $18.9 billion, tripling in five years // Kun.uz, 17.03.2026. https://kun.uz/en/news/2026/03/17/remittances-to-uzbekistan-exceed-189-billion-tripling-in-five-years

3. World Bank. Personal remittances, received (% of GDP)-Uzbekistan. https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.DT.GD.ZS?locations=UZ

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисидаги Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

5. Todaro M.P. A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries // American Economic Review, 1969. Vol. 59(1). P. 138–148; Harris J.R., Todaro M.P. Migration, unemployment and development: a two-sector analysis // American Economic Review, 1970. Vol. 60(1). P. 126–142.

6. Stark O., Bloom D.E. The new economics of labor migration // American Economic Review, 1985. Vol. 75(2). P. 173–178.

7. Massey D.S. et al. Theories of international migration: a review and appraisal // Population and Development Review, 1993. Vol. 19(3). P. 431–466.

8. de Haas H. A theory of migration: the aspirations-capabilities framework // Comparative Migration Studies, 2021. Vol. 9. Art. 8.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 17 октябрдаги ПФ-162-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/7170461

10. UNDP. Support and Reintegration of Labor Repatriates in Uzbekistan: Migrant Survey Report. - Tashkent, 2023.

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNING RIVOJLANISHI VA UNING ICHKI HAMDA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy–tadqiqot markazi
hamdamova_nilufar@mail.ru

Migratsiya jarayonlari mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim jarayonlardan biridir. Aholining bir hududdan boshqa hududga yoki xorijiy mamlakatlarga ko‘chib o‘tishida iqtisodiy omillar, jumladan, ish o‘rinlarining mavjudligi, ish haqi darajasi, tadbirkorlik imkoniyatlari va mehnat bozoridagi talab muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston sharoitida migratsiya masalasining dolzarbligi mamlakat aholisining tez sur’atlarda o‘sib borayotgani va mehnat bozoriga yangi ishchi kuchining kirib kelishi bilan bog‘liq. Shu sababli hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy faollikni kengaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur jarayonlarda investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar hisobidan yangi ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko‘rsatish obyektlari va infratuzilma loyihalari tashkil etilishi natijasida mehnatga bo‘lgan talab oshishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan investitsion muhitni faqat kapitalni jalb qilish sharoitlari sifatida emas, balki hududiy bandlik va migratsiyaning iqtisodiy omillariga ta’sir qiluvchi mexanizm sifatida ham o‘rganish muhimdir. Bunday sharoitda yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududlarda iqtisodiy faollikni

kengaytirish va aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar mazkur jarayonda muhim o‘rin tutadi. Chunki investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va xizmatlar sohasini kengaytirish orqali mehnatga bo‘lgan talabni oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasida 2020–2025-yillar uchun asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar va ishsizlik darajasi dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yil	Asosiy kapitalga investitsiyalar, trln so‘m	Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, trln so‘m	Ishsizlik darajasi, %
2020	210,20	89,76	10,5
2021	239,55	101,37	9,6
2022	266,24	113,86	8,9
2023	356,07	201,69	6,8
2024	507,49	351,85	5,5
2025	603,56	433,88	4,8

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT ma’lumotlar bazasi.*

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 210,2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 603,6 trln so‘mga yetgan. Ya’ni, olti yil davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi qariyb 2,9 baravar oshgan. Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida ham sezilarli o‘sish kuzatilgan. 2020-yildagi 89,76 trln so‘mdan 2025-yilda 433,88 trln so‘mgacha oshgan. Bu ko‘rsatkich qariyb 4,8 baravar ko‘payganini anglatadi. Shu davrda ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2025-yilda 4,8 foizgacha pasaygan.

Mazkur ko‘rsatkichlar investitsiya faolligi va mehnat bozori ko‘rsatkichlarida bir vaqtning o‘zida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ikki jarayon o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatini faqat investitsiyalar bilan izohlash mumkin emas. Ishsizlik darajasiga iqtisodiy o‘sish, demografik jarayonlar, davlat bandlik siyosati, xizmatlar sohasi va boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi.


Investitsiyalarning bandlikka ta’siri, avvalo, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va xizmat ko‘rsatish obyektlarining tashkil etilishi orqali namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, investitsiya loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan logistika, savdo, transport, moliyaviy xizmatlar va boshqa yordamchi faoliyat turlarida ham qo‘shimcha ish o‘rinlari shakllanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalar hududiy mehnat bozoridagi talabni oshirish orqali aholining ish izlab boshqa hududlarga yoki xorijga ketishiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy omillardan birini o‘zgartirishi mumkin. Biroq mazkur ta’sirning yo‘nalishi investitsiyalarning hududiy joylashuviga ham bog‘liq.

Agar investitsiyalar asosan iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan Toshkent shahri va boshqa yirik markazlarda jamlansa, ular yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga boshqa hududlardan ushbu markazlarga ichki migratsiyani ham rag‘batlantirishi mumkin. Shuning uchun investitsiya siyosatining asosiy masalalaridan biri investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda ularning hududiy taqsimotini optimallashtirish hisoblanadi.

“2025-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 433,9 trln so‘mni tashkil etgan. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha xabarida ushbu ko‘rsatkich 33,5 mlrd AQSh dollariga teng ekani qayd etilgan.2025-yilda xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati 33,2 foiz, elektr va gaz bilan ta’minlash 17,1 foiz, tog‘-kon sanoati 11,9 foiz, qishloq xo‘jaligi 9,2 foiz, qurilish 6,1 foiz, tashish va saqlash 5,3 foiz ulushga ega bo‘lgan. Bu tarkib investitsiyalarning real sektor va infratuzilma bilan bog‘liq yo‘nalishlarda ham katta hajmda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.”[1]

Ichki migratsiyaning iqtisodiy omillaridan biri hududlar o‘rtasidagi bandlik va daromad imkoniyatlarining farqlanishidir.

Hududda investitsiya loyihalarining ko‘payishi yangi ish o‘rinlari, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, investitsiyalarning ayrim hududlarda yuqori konsentratsiyalashuvi mehnat resurslarining iqtisodiy imkoniyatlari yuqori hududlarga ko‘chishiga ham ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun hududiy investitsiya siyosatida quyidagi ko‘rsatkichlarni birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq:



Bunday yondashuv investitsiya siyosatini hududlarning real mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy sabablaridan biri mahalliy mehnat bozorida mavjud ish o‘rinlarining soni va sifatidir. Mahalliy hududlarda raqobatbardosh ish haqi, barqaror ish o‘rinlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining mavjudligi fuqarolarning iqtisodiy qarorlariga ta’sir qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan investitsiyalarning samarasi faqat yaratilgan

ish o‘rinlari soni bilan emas, balki ularning ish haqi darajasi, barqarorligi, mehnat sharoitlari, malaka talab qilishi,kasbiy rivojlanish imkoniyatlari orqali ham baholanishi lozim.

Bu jihatdan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, logistika, zamonaviy xizmatlar va qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar alohida ahamiyatga ega.

2-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar va ishsizlik darajasi dinamikasi, 2020–2025-yillar

№	Hudud	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m	Ishsizlik darajasi, %	O‘rtacha oylik ish haqi, so‘m
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26 154,6	5,0	4 226 500
2	Andijon viloyati	33 418,5	4,8	4 281 028
3	Buxoro viloyati	44 856,3	4,7	4 115 696
4	Jizzax viloyati	25 718,0	4,9	3 951 059
5	Qashqadaryo viloyati	40 140,6	4,9	3 635 987
6	Navoiy viloyati	43 798,8	4,2	6 413 477
7	Namangan viloyati	62 727,2	5,0	3 778 986
8	Samarqand viloyati	36 045,1	4,7	3 823 946
9	Surxondaryo viloyati	22 289,6	4,9	3 630 611
10	Sirdaryo viloyati	17 464,9	5,0	4 240 387
11	Toshkent viloyati	74 285,8	4,8	4 558 562
12	Farg‘ona viloyati	36 606,4	4,9	3 814 588
13	Xorazm viloyati	22 765,5	4,7	3 995 520
14	Toshkent shahri	116 388,4	4,0	8 708 342

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT ma’lumotlar bazasi.*

Investitsiyalarning mehnat bozori va migratsiya jarayonlariga ta’sirini baholashda hududlar kesimidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki investitsiya faolligi, ish o‘rinlari, ishsizlik darajasi va aholi daromadlari hududlar bo‘yicha bir xil shakllanmaydi. Mazkur tafovutlar aholining mehnat faoliyati bilan bog‘liq hududiy harakatchanligiga, jumladan, ichki migratsiya yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston hududlarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, ishsizlik darajasi va o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish muhimdir. Ushbu ko‘rsatkichlarning hududlar bo‘yicha nisbati investitsiya faolligi bilan mehnat bozorining asosiy parametrlarini birgalikda baholash imkonini beradi.

2-jadval ma’lumotlari hududlar o‘rtasida investitsiya faolligi va mehnat bozori ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, 2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta hajmi Toshkent shahrida 116,4 trln so‘mni tashkil etgan. Keyingi yuqori ko‘rsatkich Toshkent viloyatida 74,3 trln so‘m, Namangan viloyatida 62,7 trln so‘mni tashkil

etgan. Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatida investitsiyalar hajmi 17,5 trln so‘m, Surxondaryo viloyatida 22,3 trln so‘m va Xorazm viloyatida 22,8 trln so‘m darajasida shakllangan. Mehnat bozori ko‘rsatkichlari ham hududlar bo‘yicha farqlanadi. Masalan, Toshkent shahrida o‘rtacha oylik ish haqi 8,71 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida ushbu ko‘rsatkich 6,41 mln so‘mga teng bo‘lgan. Ayrim hududlarda esa o‘rtacha ish haqi 3,6–4,3 mln so‘m atrofida shakllangan. Bu holat hududlar o‘rtasida mehnat daromadlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ishsizlik darajasi bo‘yicha ham hududlar o‘rtasida farq mavjud bo‘lib, 2025-yilda ko‘rsatkich 4,0 foizdan 5,0 foizgacha bo‘lgan. Eng past ishsizlik darajasi Toshkent shahrida 4,0 foizni, eng yuqori ko‘rsatkichlar esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida 5,0 foizni tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hududlarda investitsiya faolligi, mehnat daromadlari va ishsizlik darajasi o‘rtasida ma’lum tafovutlar mavjud. Bunday iqtisodiy tafovutlar aholining mehnat faoliyati bilan bog‘liq hududiy harakatlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, ish haqi va bandlik imkoniyatlari nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar mehnat resurslari uchun iqtisodiy jihatdan jozibador markazlarga aylanishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, ushbu jadval ma’lumotlari investitsiyalar va migratsiya o‘rtasida bevosita sabab-oqibat munosabati mavjudligini anglatmaydi. Migratsiya jarayonlariga ish haqi, uy-joy sharoitlari, infratuzilma, ta’lim, oilaviy holat va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiyalarning migratsiyaga ta’sirini yanada chuqurroq baholash uchun hududlar bo‘yicha migratsiya saldosi va boshqa demografik ko‘rsatkichlarni ham tahlil qilish talab etiladi.

“Mazkur jarayonlarni xalqaro statistik ma’lumotlar asosida ham baholash mumkin. Jahon bankining World Development Indicators ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti 2020–2025-yillarda sezilarli darajada kengaygan. Xususan, mamlakat yalpi ichki mahsuloti 2020-yildagi 70,1 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 147,0 mlrd AQSh dollarigacha oshgan[2].” Shu davrda iqtisodiy o‘sish sur’ati “2020-yildagi 1,6 foizdan 2025-yilda 7,7 foizgacha yetgan. 2025-yilda World Bank tomonidan O‘zbekiston uchun ishsizlik darajasi 4,6 foiz, xorijiy investitsiyalar sof oqimi esa yalpi ichki mahsulotning 3,0 foizi miqdorida baholangan[3].” Umuman olganda, World Bank ma’lumotlari O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish, investitsiya faolligi va mehnat bozori ko‘rsatkichlarida muayyan o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Migratsiyaga ish haqi darajasi, bandlik imkoniyatlari, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, demografik omillar va xorijiy mehnat bozorlaridagi talab kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirishning migratsiya jarayonlariga ta’sirini baholashda investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda yaratilayotgan ish o‘rinlari, ish haqi, hududiy bandlik va migratsiya ko‘rsatkichlarini kompleks ravishda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda investitsion siyosatni migratsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etish mumkin. Birinchidan, investitsiyalarni hududlar bo‘yicha yanada muvozanatli taqsimlash zarur. Mehnat

resurslari yuqori va iqtisodiy faollik nisbatan past hududlarda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qo‘shimcha rag‘batlar yaratish mumkin. Ikkinchidan, investitsiya loyihalarini baholashda yaratiladigan ish o‘rinlarining soni bilan bir qatorda ularning sifatini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, investitsiya loyihalari va kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zaro bog‘lash lozim. Investorlarning kelajakdagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini oldindan aniqlash va mahalliy ta’lim tizimini shu ehtiyojga moslashtirish mehnat bozoridagi nomutanosiblikni kamaytirishi mumkin. To‘rtinchidan, migratsiya yuqori bo‘lgan hududlarda investitsiya loyihalarini tanlashda mehnat resurslari, ishsizlik, aholi daromadlari va migratsiya saldosi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirib qaytgan fuqarolarning tajribasi, jamg‘armalari va kasbiy ko‘nikmalarini mahalliy tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltirish mexanizmlarini rivojlantirish mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasida 2020–2025-yillarda investitsiya faolligining sezilarli darajada oshgani rasmiy statistik ma’lumotlarda o‘z aksini topgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yildagi 210,2 trln so‘mdan 2025-yilda 603,6 trln so‘mgacha, asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar esa 89,8 trln so‘mdan 433,9 trln so‘mgacha oshgan. Shu davrda ishsizlik darajasi 10,5 foizdan 4,8 foizgacha pasaygan[4].” Mazkur ko‘rsatkichlar investitsiya faolligi va mehnat bozori holatida ijobiy o‘zgarishlar bir davrda yuz berganini ko‘rsatadi. Biroq ishsizlikning pasayishini faqat investitsiyalar o‘sishi bilan bog‘lash ilmiy jihatdan yetarli emas. Shu sababli O‘zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirish siyosatini hududiy bandlik, inson kapitali va migratsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor investitsiyalar hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda ularning hududiy taqsimoti, yaratilayotgan ish o‘rinlarining sifati va mahalliy mehnat bozorining ehtiyojlariga mosligiga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.*
2. *World Bank. World Development Indicators: Uzbekistan [Electronic resource]. Washington, D.C.: The World Bank. Available at: World Bank Data Uzbekistan*
3. *World Bank. World Development Indicators, Uzbekistan DataBank [Electronic resource]. Washington, D.C. World Development Indicators DataBank*
4. *United Nations Development Programme. Analysis of the Current Investment Conditions. Uzbekistan, 2014.*
5. *Akishova S.D. The current state of increasing the financial potential of Uzbekistan by attracting foreign investments // Scientific Electronic Journal “Labor Economics and Human Capital”. 2024. Vol. 3, No. 4. P. 87- 93.*
6. *Rasulov M.R., Ergashev T.I. Investitsiyalarni boshqarish. Toshkent: 2020.*
7. *Imomqulov T. The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan // Green Economy and Development. 2023. Vol. 1, No. 9.*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik). SIAT ma’lumotlar bazasi. 2026.*

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI OMILLARINI YUMSHATISHDA SOLIQ RAG‘BATLARI VA HUDUDIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI

Xudaybergenova Roza Axmed qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining iqtisodiy sabablarini hududlardagi bandlik va investitsiya sharoitidan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi. Mahalliy bozorda munosib ish topish qiyinlashganda boshqa hudud yoki xorijda ishlash oilaning daromad manbalarini kengaytirish yo‘liga aylanadi. Soliq siyosati bu qarorga hududiy loyihalar daromadliligi, korxonalarning ishchi kuchiga talabi va mehnatga haq to‘lash imkoniyatlari orqali bilvosita ta’sir qilishi mumkin. Masalaning mohiyati aholi harakatlanishini cheklashda emas, yashash hududida ham maqbul iqtisodiy tanlov yaratishdadir.

Migratsiya oilalar farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Jahon bankining 2023-yilgi Jahon taraqqiyoti hisobotida pul o‘tkazmalari va bilim almashinuvi migratsiyaning kelib chiqish mamlakati uchun foydalari qatorida ko‘rsatiladi [1]. Shu sababli ushbu ishda migratsiya omillarini yumshatish mahalliy ish va daromad imkoniyatlari yetishmasligidan kelib chiqadigan iqtisodiy bosimni pasaytirish ma’nosida qo‘llanadi. Ichki migratsiya mehnat resurslarini unumdorligi yuqoriroq faoliyatga yo‘naltirishi mumkin; uning har qanday qisqarishini ijobiy natija deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati sharhiga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatga kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari 14,9 mlrd AQSH dollariga yetgan va 30 foizga oshgan [2]. Ushbu ma’lumot tashqi pul tushumlarining uy xo‘jaliklari uchun ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq pul o‘tkazmalari miqdorini mehnat migrantlari soni yoki investitsiyaga tayyor jamg‘armalar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Mablag‘lar iste’mol, ta’lim, tibbiyot va qarzlarni qoplashga ham sarflanadi. Demak, mahalliy bandlik siyosati oilalarning mavjud daromad manbalarini cheklamasdan, ularning iqtisodiy tanlovlarini kengaytirishi lozim.

Aholi jon boshiga hisoblangan investitsiyalar hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini solishtirishga yordam beradi. 1-jadvalda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha 2024-yil ma’lumotlari jamlangan. Ko‘rsatkich jami investitsiyani emas, asosiy kapitalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyani ifodalaydi.

Jadvalda eng yuqori qiymat Buxoro viloyatida, eng past qiymat Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatiladi. Ular o‘rtasidagi nisbat qariyb 11 barobar. Biroq investitsiya hajmidagi farq bandlik natijalarining aynan shunday nisbatini anglatmaydi. Kapital sig‘imi yuqori loyiha katta mablag‘ o‘zlashtirib, nisbatan kam ish o‘rni yaratishi mumkin. Mahalliy yetkazib beruvchilarga buyurtma beradigan korxonada esa bandlik samarasi loyiha doirasidan tashqariga ham tarqaladi. Shuning uchun investitsiya miqdori bilan birga ish o‘rinlari sifati, ish haqi va mahalliy korxonalar bilan aloqalarni o‘rganish zarur.

1-jadval

2024-yildagi aholi jon boshiga asosiy kapitalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar

Hudud	ming so‘m
O‘zbekiston Respublikasi	**4 186,0**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 044,7
Andijon viloyati	3 815,3
Buxoro viloyati	11 468,0
Jizzax viloyati	7 503,1
Qashqadaryo viloyati	2 100,6
Navoiy viloyati	9 828,9
Namangan viloyati	5 825,3
Samarqand viloyati	1 938,5
Surxondaryo viloyati	1 878,2
Sirdaryo viloyati	6 480,2
Toshkent viloyati	5 761,5
Farg‘ona viloyati	2 283,6
Xorazm viloyati	1 257,5
Toshkent shahri	6 417,3

Manba: *Milliy statistika qo‘mitasi*

Soliq yengilligi investor ixtiyorida qoladigan mablag‘ni oshirib, ayrim loyihalarning moliyaviy maqbulligini yaxshilashi mumkin. Ammo elektr ta’minoti uzilishi, transport xarajatining yuqoriligi yoki malakali xodimlar tanqisligini faqat imtiyoz bilan qoplash qiyin. A. Klemm tadqiqotida ham soliq rag‘batlarining natijasi tanlangan vosita va uni qo‘llash sharoitiga bog‘liqligi ko‘rsatiladi [4]. Hududiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda soliq mexanizmlari infratuzilma va kadrlar tayyorlash bilan birga rejalashtirilishi lozim.

Imtiyoz dastlab qo‘shimcha investitsiyani yuzaga keltirishi, investitsiya esa mahalliy aholi ko‘nikmalariga mos va barqaror haq to‘lanadigan ish yaratishi kerak. Shundagina yangi imkoniyat migratsiya qarorida ahamiyat kasb etishi mumkin. Xorijdagi ish haqi, oilaviy aloqalar va ijtimoiy xizmatlar ham qarorga ta’sir qiladi. Binobarin, investitsiya ko‘payishi migratsiya albatta kamayishini bildirmaydi.

Hududiy soliq rag‘batlarini bandlik ehtiyoji yuqori va iqtisodiy jihatdan hayotiy loyihalar mavjud tumanlarda sinovdan o‘tkazish taklif etiladi. Hududlarni tanlashda ish izlovchilar soni, rasmiy bandlik, kasbiy tarkib va infratuzilma tayyorligi hisobga olinishi kerak. Viloyatning o‘rtacha ko‘rsatkichi ayrim tumanlardagi muammoni yashirishi mumkin. Yengillikning muddati, hajmi va undan foydalanish mezonlari oldindan belgilanadi. Bu taklifni amalga oshirish tegishli huquqiy asos va budjet xarajatlarini baholashni talab qiladi.

Rag‘bat shartlarini sof qo‘shimcha rasmiy bandlik, ish o‘rinlarining saqlanishi va hujjatlashtirilgan kapital qo‘yilmalar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Mavjud korxonani boshqa hududga ko‘chirish yoki xodimlarni o‘zaro bog‘liq korxonalar o‘rtasida qayta rasmiylashtirish yangi bandlik sifatida hisoblanmasligi kerak. Dastur mahalliy kichik biznesni kamsitmasligi, yangi va amaldagi korxonalar uchun ochiq mezonlarga tayanishi lozim. Shuningdek, kam

daromadli korxona foydaga bog‘langan imtiyozdan darhol foydalana olmasligi sababli qo‘llab-quvvatlash vositasi uning haqiqiy moliyaviy chekloviga mos tanlanadi.

Kichik biznes uchun soliq majburiyatlarini bajarish xarajati ham ahamiyatli. Hisobot topshirish va qoidalarni tushunishga ketadigan vaqtni qisqartirish maqsadida oldindan to‘ldiriladigan ma’lumotlar, sodda raqamli yo‘riqnomalar va maslahat xizmatlarini kengaytirish mumkin. Bu xizmatlar qaytgan migrantlarning tadbirkorlik boshlashiga ham ko‘maklashadi. Biroq biznes yuritish barcha uchun maqbul yo‘l emas: yollanma ish va kasbiy o‘qitish imkoniyatlari ham saqlanishi zarur.

Hududiy investitsiyalarning migratsiya omillariga ta’siri yaratilgan ishning sifati va aholi uchun amaliy jozibadorligiga bog‘liq. Shu bois soliq rag‘batlarini jalb etilgan mablag‘ning o‘zi bilan emas, qo‘shimcha bandlik, ish o‘rinlarining saqlanishi va fiskal xarajatlar bilan birgalikda baholash lozim. Infratuzilma va kasbiy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirilgan rag‘batlar mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin. Yakuniy mezon fuqarolarning yashash hududida munosib mehnat va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishidir.

Adabiyotlar:

1. World Bank. World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. – Washington, DC: World Bank, 2023. Elektron manba

2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Monetary Policy Report. IV quarter 2024. – P. 28. Elektron manba

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi.

4. Klemm A. Causes, Benefits, and Risks of Business Tax Incentives. – IMF Working Paper WP/09/21. – 2009. DOI: 10.5089/9781451871685.001.

CHEGARA OLDI SAVDO-SANOAT ZONALARI ORQALI ICHKI MIGRATSIYANI TARTIBGA SOLISH VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI BOSIMINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI

Islomov Jamshed Davronovich
TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u faqat demografik o‘sish yoki aholi harakatchanligi bilan izohlanmaydi. Amaliy hayotda migratsiya ko‘pincha hududlar o‘rtasidagi ish o‘rinlari, daromad manbalari, infratuzilma sifati va tadbirkorlik imkoniyatlari notekis taqsimlangan sharoitda kuchayadi. Aholi mehnat qilish, daromad topish va oilasi uchun barqaror turmush sharoiti yaratish maqsadida yirik shaharlarga, iqtisodiy faol markazlarga yoki xorijiy mamlakatlarga yo‘naladi. Shu sababli migratsiya masalasini faqat nazorat qilish yoki oqimlarni hisobga olish orqali emas, balki hududlarning o‘zida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali ham hal etish zarur.

Mazkur jihatdan chegara oldi hududlari alohida e’tiborga loyiq. Bunday hududlar bir tomondan ichki iqtisodiy markazlardan nisbatan uzoqroq joylashgani sababli aholi migratsiyasiga moyil bo‘lishi mumkin, ikkinchi tomondan esa qo‘shni davlatlar bozori, tranzit yo‘laklari, savdo aloqalari va mehnat resurslari hisobiga rivojlanish imkoniyatiga ega. Demak, chegara oldi hududining muammosi uning chekkada joylashganida emas, balki ushbu joylashuvdan qanday foydalanilishidadir. Agar chegara yaqinligi savdo, sanoat, xizmatlar va bandlik bilan bog‘lansa, u migratsion bosimni kamaytiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Chegara oldi savdo-sanoat zonalarining migratsiya jarayonlariga ta’siri bevosita va bilvosita yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Bevosita ta’sir, avvalo, zonalarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish sexlari, omborlar, transport-logistika xizmatlari, bojxona brokerligi, qadoqlash, sertifikatlash, texnik xizmat ko‘rsatish va savdo infratuzilmasi mahalliy aholi uchun turli malaka darajasidagi ish o‘rinlarini yuzaga keltiradi. Bu, ayniqsa, mehnat bozoriga endi kirib kelayotgan yoshlar, doimiy daromadga ega bo‘lmagan xotin-qizlar va norasmiy bandlikda ishlayotgan aholi qatlamlari uchun muhimdir.

Bilvosita ta’sir esa zona atrofida kichik biznes va xizmat ko‘rsatish faoliyatining jonlanishi orqali yuzaga chiqadi. Rezident korxonalar transport, ovqatlanish, ta’mirlash, qadoqlash, qo‘riqlash, buxgalteriya, axborot texnologiyalari va boshqa xizmatlarga ehtiyoj sezadi. Agar bu ehtiyojlar mahalliy tadbirkorlar orqali qondirilsa, zona faqat o‘z hududida emas, balki atrof aholi punktlarida ham daromad manbalarini kengaytiradi. Natijada aholining boshqa hududlarga ko‘chib borish ehtiyoji biroz yumshaydi, chunki ish va tadbirkorlik imkoniyati yashash joyiga yaqinlashadi.

Tashqi mehnat migratsiyasini kamaytirish nuqtayi nazaridan ham bu masala muhim. Mehnat migratsiyasiga chiqish ko‘p hollarda tanlov emas, balki mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi oqibatida yuzaga keladi. Agar chegara oldi savdo-sanoat zonalari mahalliy aholiga barqaror ish haqi, kasb o‘rganish, kichik biznesni rivojlantirish va qo‘shni bozor bilan qonuniy savdo aloqalariga kirish imkonini bersa, tashqi migratsiya bosimi ma’lum darajada pasayadi. Bu yerda gap migratsiyani to‘liq to‘xtatish haqida emas, balki uni majburiy xarakterdan chiqarib, aholiga tanlov imkoniyatini kengaytirish haqida bormoqda.

2025-2026-yillarda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishga oid huquqiy asoslarning yangilanishi ushbu masalani amaliy jihatdan yanada dolzarb qildi. 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmonda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish, yangi zonalarni infratuzilma mavjud yoki iqtisodiy jihatdan asoslangan hududlarda tashkil etish, biznes reja va master reja asosida yondashish zarurligi belgilandi. Bu yondashuv chegara oldi hududlarida zona tashkil etish masalasini shunchaki yer ajratish yoki imtiyoz berishdan ko‘ra kengroq ko‘rishga undaydi.

2026-yilda mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirishga qaratilgan hujjatda esa mahalliy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirish, qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni rag‘batlantirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab

chiqarishni qo‘llab-quvvatlash masalalari ilgari surildi. Migratsiya nuqtayi nazaridan bu juda muhim, chunki ish o‘rni faqat yirik korxona ichida emas, balki uning atrofida shakllanadigan mahalliy yetkazib beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar orqali ham yaratiladi.

Shu sababli chegara oldi savdo-sanoat zonalarini migratsiya jarayonlari bilan bog‘lab o‘rganishda asosiy e’tibor ikkita masalaga qaratilishi lozim. Birinchisi - zona hududida yaratilgan ish o‘rinlarining mahalliy aholi bandligiga qanchalik xizmat qilayotgani. Ikkinchisi - zona atrofida kichik biznes, xizmatlar va mahalliy kooperatsiya orqali qo‘shimcha daromad manbalari paydo bo‘layotgani. Agar ushbu ikki jihat e’tibordan chetda qolsa, zona iqtisodiy ko‘rsatkichlarda faol ko‘rinsa-da, migratsion muammolarni yumshatishda kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Chegara oldi savdo-sanoat zonalarining migratsiyaga ta’sirini baholash uchun faqat investitsiya hajmi yoki eksport miqdori yetarli emas. Bunday ko‘rsatkichlar zona iqtisodiy faolligini ko‘rsatadi, lekin mahalliy aholining hayotiga qanday ta’sir qilganini to‘liq ochmaydi. Shu bois baholashda ish o‘rinlarining soni bilan birga ularning sifati, mahalliy aholi ulushi, ish haqining hududdagi o‘rtacha daromadlarga nisbati, yoshlar va xotin-qizlar bandligi, kasbga tayyorlash dasturlari, mahalliy tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar ham hisobga olinishi kerak.

Mazkur yondashuv 2025-2026-yillar kesimidagi qisqa davr uchun ham qo‘llanishi mumkin. Chunki bu davrda uzoq muddatli migratsion natijani to‘liq o‘lchash qiyin bo‘lsa-da, dastlabki o‘zgarishlarni aniqlash imkoni bor. Masalan, zonada ishga qabul qilinganlarning qanchasi mahalliy aholi ekani, necha nafar yosh kasbga o‘qitilgani, qancha kichik biznes subyekti rezident korxonalar bilan hamkorlik qilgani, xizmat ko‘rsatish sohasi nechta yangi ish o‘rni yaratgani kabi ko‘rsatkichlar qisqa davr ichida ham kuzatilishi mumkin.

Bunda yana bir jihat muhim: chegara oldi zonasi mahalliy ishchi kuchini tayyorlash tizimi bilan bog‘lanmasa, ish o‘rinlari yaratilgan taqdirda ham mahalliy aholi undan yetarli foyda ko‘rmasligi mumkin. Korxonalar tayyor malakali ishchilarni boshqa hududlardan jalb qilishi, mahalliy aholi esa past malakali va vaqtinchalik ishlar bilan cheklanib qolishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun kasb-hunar ta’limi, qisqa muddatli o‘quv kurslari, korxona buyurtmasi asosida mutaxassis tayyorlash va ish joyida o‘qitish mexanizmlari zonaning majburiy tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak.

Chegara oldi savdo-sanoat zonalari migratsion bosimni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, bu imkoniyat avtomatik tarzda yuzaga chiqmaydi. Birinchi muammo - zonalarning mahalliy iqtisodiyotdan uzilib qolishidir. Agar rezidentlar xomashyoni boshqa hududdan olib kelsa, ishchi kuchini tashqaridan jalb qilsa va tayyor mahsulotni mahalliy tadbirkorlar ishtirokisiz eksport qilsa, bunday zona hududdagi migratsion muammolarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ikkinchi muammo - yaratilayotgan ish o‘rinlarining sifati. Past ish haqi, mavsumiy bandlik, ijtimoiy kafolatlarning zaifligi yoki kasbiy o‘sish imkoniyatining yo‘qligi aholining migratsiyaga bo‘lgan intilishini kamaytirmaydi. Aksincha, odamlar barqaror va yuqoriroq daromad izlab yana boshqa hududlarga

yoki xorijga chiqishga majbur bo‘lishi mumkin. Shu bois zonalar faoliyatini baholashda “nechta ish o‘rni yaratildi?” degan savol bilan birga, “bu ish o‘rinlari kimlar uchun, qanday sharoitda va qanday daromad bilan yaratildi?” degan savol ham qo‘yilishi kerak.

Uchinchi muammo - ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish va logistika obyektlari yaratilgani holda, transport qatnovi, turar joy, bolalar bog‘chasi, tibbiy xizmat, xavfsiz mehnat sharoiti va ayollar uchun mos ish grafigi e’tiborga olinmasa, mahalliy aholini bandlikka jalb qilish qiyinlashadi. Migratsiya masalasi faqat ish joyi bilan hal bo‘lmaydi; inson o‘z yashash joyida ishlashi, oilaviy majburiyatlarini bajarishi va barqaror turmush sharoitiga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur muammolarni yumshatish uchun chegara oldi savdo-sanoat zonalarida mahalliy bandlikka yo‘naltirilgan maxsus yondashuv zarur. Avvalo, har bir zona bo‘yicha mahalliy mehnat resurslari xaritasi tuzilishi, mavjud kasblar, yoshlar ulushi, ishsizlar tarkibi va kasbga tayyorlash ehtiyoji aniqlanishi kerak. Keyin rezident korxonalar ehtiyojiga mos qisqa muddatli o‘quv dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim. Bundan tashqari, mahalliy tadbirkorlarni zona atrofidagi xizmatlar va yetkazib berish tizimiga kiritish uchun alohida kooperatsiya dasturlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, chegara oldi zonalari orqali norasmiy transchegaraviy savdo faoliyatini qonuniy va shaffof iqtisodiy faoliyatga aylantirish imkoniyati mavjud. Ko‘plab chegara hududlarida aholi qo‘shni davlatlar bilan tarixiy savdo, xizmat ko‘rsatish va mehnat aloqalariga ega. Ushbu aloqalarni cheklash emas, balki rasmiy savdo maydonlari, logistika xizmatlari, sertifikatlash, elektron to‘lov va kichik eksport platformalari orqali tartibga solish mahalliy daromadlarni oshirishi mumkin. Bu esa tashqi migratsiyaga majburiy chiqish ehtiyojini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chegara oldi savdo-sanoat zonalari ichki va tashqi migratsiya jarayonlariga bevosita ta’sir qiluvchi oddiy ma’muriy vosita emas, balki hududda iqtisodiy imkoniyat yaratish orqali migratsion bosimni yumshatishi mumkin bo‘lgan rivojlanish mexanizmidir. Bunday zonalar mahalliy aholi uchun ish o‘rni, tadbirkorlar uchun bozor, yoshlar uchun kasb o‘rganish, xotin-qizlar uchun daromad manbai va hudud uchun yangi xizmatlar ekotizimini yaratgan taqdirdagina migratsiya muammolarini hal qilishga hissa qo‘sha oladi.

Shu jihatdan, O‘zbekistonda chegara oldi savdo-sanoat zonalarini rivojlantirishda ularning faqat investitsiya va eksport ko‘rsatkichlariga emas, balki mahalliy bandlik, kichik biznes, kasbga tayyorlash, xizmatlar sohasi va aholi daromadlariga ta’siriga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ana shundagina chegara oldi hududlari migratsiya manbai sifatida emas, balki aholi uchun yashash, ishlash va tadbirkorlik qilish imkoniyati kengaygan iqtisodiy faollik hududi sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni. “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yildagi “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hujjati.

3. Alansary, O.S. and Al-Ansari, T. (2023). Defining “free zones”: A systematic review of literature. Heliyon, 9(4), e15344.

4. Liu, H. and Yao, C. (2025). From infrastructure space to network power: Chinese cross-border collaborative Special Economic Zones in Southeast Asia. Asia Europe Journal, 23, 263-284.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

PhD, ***Jumayeva Shaxnoza Quyliyevna***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Globallashuv, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar va mehnat resurslarining notekis taqsimlanishi sharoitida migratsiya jarayonlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida aholi sonining o‘sishi, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining ko‘pligi, hududlar kesimida ish o‘rinlari va daromadlar darajasining farqlanishi ichki hamda tashqi migratsiya jarayonlarining faollashuviga zamin yaratmoqda.

Migratsiya bir tomondan aholi bandligini ta’minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini bersa, ikkinchi tomondan yirik shaharlarda infratuzilmaga tushadigan yuklamaning ortishi, ayrim hududlarda malakali mutaxassislar yetishmovchiligi va inson kapitalining mamlakatdan chiqib ketishi kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli migratsiya jarayonlarini faqat aholi ko‘chishi sifatida emas, balki demografik, iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish muhimdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistondagi ichki va tashqi migratsiya jarayonlarining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish, ularning mehnat bozori va hududiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash hamda mavjud muammolarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni asoslashdan iborat.

Migratsiya jarayonlarining nazariy asoslari E. G. Ravenshteyn, A. Lyuis, M. Todaro va G. Borjas kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. E. G. Ravenshteyn migratsiyaning asosiy qonuniyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, M. Todaro qishloqdan shaharga migratsiyani kutilayotgan daromad va bandlik imkoniyatlari bilan izohlagan. G. Borjas esa migratsiya qarorlarining iqtisodiy omillar, mehnat bozori va inson kapitali bilan bog‘liqligini tadqiq etgan [1; 2; 3].

Xalqaro migratsiya tashkilotining O‘zbekiston bo‘yicha hisobotlarida ichki va tashqi migratsiya oqimlari, migratsiya ma’lumotlarini shakllantirishdagi mavjud imkoniyatlar hamda migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy omillari yoritilgan. Ushbu materiallarda ichki migratsiya, tashqi mehnat migratsiyasi, qaytish migratsiyasi va migratsiya oqimlarini statistik hisobga olish masalalariga e’tibor qaratiladi [4; 5].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari esa mamlakatdagi ko‘chib kelish va ko‘chib ketish jarayonlarini hududlar hamda yillar kesimida tahlil qilish imkonini beradi [6].

Mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlar migratsiyaning iqtisodiy sabablarini tushuntirish bilan birga, uning natijalari migratsiya turi, migrantlarning malakasi, huquqiy maqomi va qabul qiluvchi hududning imkoniyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston sharoitida ichki va tashqi migratsiyani o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining migratsiyaga oid ma’lumotlari, Xalqaro migratsiya tashkilotining O‘zbekiston bo‘yicha hisobotlari hamda migratsiyaning iqtisodiy nazariyalariga oid ilmiy manbalar tashkil etadi [4; 5; 6]. Mazkur manbalar asosida ichki va tashqi migratsiyaning asosiy yo‘nalishlari, iqtisodiy omillari va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilindi.

O‘zbekistonda tashqi migratsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Aholi daromadlari, hududlarda munosib ish o‘rinlarining mavjudligi, kasbiy imkoniyatlar va xorijiy mehnat bozorlaridagi talab fuqarolarning migratsiya qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa davlatlarda mehnat faoliyatini olib boradi. Shu bilan birga, migratsiya yo‘nalishlarining kengayishi xorijiy mamlakatlarning til, kasbiy malaka, mehnat sharoitlari va huquqiy maqomga doir talablariga moslashish zaruratini kuchaytirmoqda [4; 5].

Tashqi mehnat migratsiyasi migrantlarning oilaviy daromadlarini oshirish, iste’mol xarajatlarini moliyalashtirish, jamg‘armalarni shakllantirish va ayrim oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Biroq uning uzoq muddatli samarasi faqat pul o‘tkazmalarining hajmi bilan belgilanmaydi. Ushbu mablag‘larning ta’lim, kasbiy rivojlanish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va tadbirkorlikka yo‘naltirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Aksincha, migrantlarning kasbiy tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa, ular past maoshli ishlarda band bo‘lishi, mehnat huquqlari buzilishi yoki noqonuniy vositachilar faoliyati tufayli moliyaviy va huquqiy xavflarga duch kelishi mumkin.

Shu sababli tashqi migratsiyani tashkil etishda fuqarolarni xorijga chiqishdan oldin kasbiy va til tayyorgarligidan o‘tkazish, mehnat shartnomalarining qonuniyligini tekshirish hamda xorijdagi konsullik va huquqiy maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Migratsiya geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish migrantlarning munosib ish topish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Bunda migratsiya yo‘nalishlarini tanlashda mamlakatlarning real mehnat talabi, mehnat sharoitlari va migrantlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari hisobga olinishi lozim [4; 5].

Ichki migratsiya esa, asosan, aholi yashash joyining o‘zgarishi, ish va ta’lim imkoniyatlariga intilish, daromadlar tafovuti hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish ehtiyoji bilan bog‘liq. Qishloq joylardan shaharlar tomon ko‘chish jarayonlari mehnat resurslarining iqtisodiy faol hududlarga yo‘nalishiga yordam beradi.

Biroq migratsiya oqimlarining ayrim yirik shaharlarda to‘planishi uy-joy, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, tibbiyot, transport va kommunal infratuzilmaga qo‘shimcha talabni yuzaga keltiradi. Xalqaro migratsiya tashkilotining O‘zbekiston bo‘yicha tahlillarida ham ichki migratsiya oqimlari, urbanizatsiya va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar migratsiya jarayonlarini o‘rganishning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan [4; 5].

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar farqi ichki migratsiyaning bir yo‘nalishda to‘planishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yirik shaharlarda ish o‘rinlari va ta’lim imkoniyatlarining ko‘pligi aholining ushbu hududlarga ko‘chib o‘tishini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, ayrim chekka hududlarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi, mehnat resurslarining qisqarishi va mahalliy iqtisodiy faollikning sustlashishi kuzatilishi ehtimoli mavjud. Mazkur holat hududlararo rivojlanish tafovutlarini kuchaytirishi mumkin.

Ichki migratsiyani muvozanatlashtirish uchun hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, transport aloqalarini yaxshilash hamda ta’lim va tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish zarur. Samarqand, Namangan, Andijon va Buxoro kabi iqtisodiy markazlarning salohiyatidan samarali foydalanish, ikkilamchi shaharlarni rivojlantirish va hududiy iqtisodiy aglomeratsiyalarni shakllantirish Toshkent shahri va uning atrofidagi infratuzilmaga tushadigan bosimni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Bunda hududiy rivojlanish dasturlari mahalliy mehnat resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mavjud infratuzilmaning xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

Migratsiyaning yana bir muhim jihati inson kapitalining harakatlanishi bilan bog‘liq. Yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketishi mamlakatda ayrim sohalar, jumladan, tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari va ilmiy tadqiqotlarda kadrlar yetishmovchiligini kuchaytirishi mumkin. Biroq xorijda ta’lim olish va ishlash har doim ham inson kapitalining qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotilishini anglatmaydi. Agar xorijda orttirilgan bilim, tajriba, kasbiy aloqalar va investitsiyalar mamlakat rivojiga qayta yo‘naltirilsa, migratsiya “aqllar oqimi”dan “aqllar almashinuvi”ga aylanishi mumkin.

Buning uchun yuqori malakali mutaxassislar uchun munosib mehnat sharoitlari, raqobatbardosh ish haqi, ilmiy grantlar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim. Xorijdan qaytgan migrantlarning malaka va tajribasini tan olish, ularni mehnat bozoriga moslashtirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy maslahat xizmatlarini rivojlantirish reintegratsiya samaradorligini oshirishi mumkin. Qaytgan migrantlarning jamg‘armalarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltirish uchun moliyaviy maslahat, biznes rejalashtirish va qonuniy

moliyalashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir [4; 5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki va tashqi migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish alohida choralar bilan cheklanmasdan, mehnat bozori, hududiy rivojlanish, ta’lim, ijtimoiy himoya va inson kapitali siyosatining o‘zaro muvofiqligini talab etadi. Migratsiya bo‘yicha statistik ma’lumotlarning to‘liqligi va taqqoslanuvchanligini oshirish ham muhimdir. Rasmiy statistikada doimiy yashash joyi bo‘yicha qayd etilgan ko‘chishlar, vaqtinchalik mehnat migratsiyasi va xorijdagi migrantlar soni turli tushunchalarni anglatishi mumkin. Shu sababli migratsiya ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda ularning ta’rifi, hisobga olish davri va ma’lumotlarni shakllantirish metodologiyasini hisobga olish lozim [5; 6].

O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari demografik o‘sish, hududlararo iqtisodiy tafovutlar, bandlik imkoniyatlari va inson kapitalining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Tashqi mehnat migratsiyasi aholi daromadlarini oshirish va oilalarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin, biroq kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi, huquqiy himoya bilan bog‘liq muammolar va malakali kadrlarning chiqib ketishi uning ijobiy natijalarini cheklashi ehtimoli mavjud. Ichki migratsiya esa mehnat resurslarini iqtisodiy faol hududlarga yo‘naltiradi, shu bilan birga, yirik shaharlarda infratuzilmaga bosimni oshirishi va ayrim hududlarda mutaxassislar yetishmovchiligini kuchaytirishi mumkin.

Shu bois migratsiya siyosatining samaradorligi migratsiya oqimlarining hajmigina emas, balki ularning sifati, migrantlarning huquqiy himoyasi, kasbiy salohiyati va migratsiya natijalaridan uzoq muddatli foydalanish imkoniyatlari bilan baholanishi lozim. Tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini rivojlantirish, qaytgan migrantlarning reintegratsiyasini qo‘llab-quvvatlash, hududlarda munosib ish o‘rinlari yaratish va inson kapitalini saqlashga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar O‘zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi va normativ-huquqiy hujjatlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Maksakova L.P. Mijrandi i mejdunarodnyy rynok truda. – T.: Iqtisodiyot, 2020.

4. Umurzakov B.X. O‘zbekistonda mehnat bozori va bandlikni ta’minlash masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2021.

5. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. 12th Edition. Pearson, 2015.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistik agentlik rasmiy ma’lumotlari (stat.uz).

7. Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) hisobotlari va tahliliy materiallari (2022–2025).

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA BANDLIK VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI TENDENSIYALARI

Farmonov Dilshodbek Daminovich
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning bandlikka ta’sirini o‘rganishda ish o‘rinlari soni bilan birga ishchi kuchining malakasi va o‘zgarayotgan kasbiy talablarga moslashuvini ham hisobga olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarorida yashil iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish vazifasi belgilangan. Bu yashil iqtisodiyotga o‘tishda inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi [1]. Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori bilan tasdiqlangan Harakatlar rejasining 35-bandida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatish hamda ishchi kuchining migratsiyadan oldingi tayyorgarligini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu vazifalar mavzu doirasida yashil iqtisodiyot, bandlik va tashqi mehnat migratsiyasini ishchi kuchining kasbiy tayyorgarligi orqali o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi [2].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham yashil iqtisodiyotning bandlik imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan. Jumladan, T. M. Bobojonov yashil texnologiyalar asosida ish o‘rinlarini yaratish yo‘nalishlarini tahlil qilib, yashil bandlik imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yoritadi [3]. M. Sh. Nazarova va R. A. Berdiqulov esa yashil ish o‘rinlarini yaratishni ta’lim va malaka oshirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqqanlar [4]. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, yashil bandlik istiqbollarini baholashdan oldin mamlakatdagi mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik dinamikasini o‘rganish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston mehnat bozorining 2010-2025 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi jadval tahlilida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilingan 2019-yildan keyingi davrga alohida e’tibor qaratildi. 2019-2025 yillarda mehnat resurslari soni 18949 ming kishidan 20602,6 ming kishiga yetib, 8,7 foizga oshgan. Shu davrda bandlar soni 13541,1 ming kishidan 14933,9 ming kishiga ko‘payib, o‘sish 10,3 foizni tashkil etgan. Bandlik darajasi esa 68,1 foizdan 70,5 foizga, ya’ni 2,4 foiz punktga oshgan. Mehnat resurslarining kengayishi bandlik imkoniyatlarini muntazam oshirib borish zaruratini ko‘rsatsa, bandlik darajasining ko‘tarilishi aholini mehnat faoliyatiga jalb etishdagi ijobiy o‘zgarishni ifodalaydi.

Tahlil qilinayotgan davrda ushbu o‘zgarishlar bir tekis kechmagan. 2020-yilda bandlik darajasi 66 foizgacha pasayib, ishsizlar soni 1561 ming kishiga yetgan. Keyingi yillarda ko‘rsatkichlar yaxshilanib, 2025-yilda ishsizlar soni 744,9 ming kishini tashkil etgan, bu 2020-yilga nisbatan 52,3 foiz kamdir. Shunga qaramay, ishsiz aholining mavjudligi yangi bandlik yo‘nalishlarini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlikni ish beruvchilar talablariga moslashtirish masalasining

dolzarbligini saqlab qolmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari, 2010-2025 yillar

Yillar	Mehnat resurslari soni (ming kishi)	Iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)	Iqtisodiy nofaol aholi soni (ming kishi)	Bandlar soni (ming kishi)	Ishsizlar soni (ming kishi)	Bandlik darajasi (foizda)	Aholining iqtisodiy faollik darajasi (foizda)
2010	16726	12286,6	4439,4	11628,4	658,2	66,9	70,7
2011	17286,4	12541,5	4744,9	11919,1	622,4	66,2	69,7
2012	17564,3	12850,1	4714,2	12223,8	626,3	66,6	70
2013	17814,1	13163	4651,1	12523,3	639,7	67,1	70,5
2014	18048	13505,4	4542,6	12818,4	687	67,7	71,3
2015	18276,1	13767,7	4508,4	13058,3	709,4	68,2	71,9
2016	18488,9	14022,4	4466,5	13298,4	724	68,7	72,5
2017	18666,3	14357,3	4309	13520,3	837	69,2	73,5
2018	18829,6	14641,7	4187,9	13273,1	1368,6	67,4	74,3
2019	18949	14876,4	4072,6	13541,1	1335,3	68,1	75
2020	19158,2	14797,4	4360,8	13236,4	1561	66	73,8
2021	19334,9	14980,7	4354,2	13538,9	1441,8	67	74,1
2022	19517,5	15038,9	4478,6	13706,2	1332,7	67,2	73,7
2023	19739,6	15038,3	4701,3	14014,2	1024,1	67,9	72,9
2024	20085,2	15097,9	4987,3	14261,9	836	68,3	72,3
2025	20602,6	15678,8	4923,8	14933,9	744,9	70,5	74


Manba: *O‘zbekiston milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot yo‘nalishlarida kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash bandlik siyosatida ko‘rib chiqilishi lozim. Biroq jadvaldagi umumiy ko‘rsatkichlar yashil ish o‘rinlarini alohida ajratmagani sababli, kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlarni yashil islohotlarning bevosita natijasi deb baholash uchun yetarli emas.

Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni to‘liqroq baholash uchun tashqi mehnat migratsiyasi dinamikasini ham ko‘rib chiqish zarur. Bu yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida bandlik ko‘rsatkichlari bilan xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar sonidagi o‘zgarishlarni birgalikda kuzatish imkonini beradi. O‘zbekiston tashqi mehnat migrantlari sonining 2016-2025 yillardagi dinamikasi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmda tashqi mehnat migrantlari sonining o‘zgarishi bir necha bosqichda kechgani ko‘rinadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilingan 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich 2500 ming kishini tashkil etgan. Keyinchalik u 2020-yilda 1800 ming kishiga, 2021-yilda esa 1500 ming kishiga tushgan. Grafikdagi

yaxlitlangan ma’lumotlar bo‘yicha hisoblaganda, 2019-2021 yillardagi kamayish 40 foizni tashkil etadi. 2022-2023 yillarda migrantlar soni qayta ko‘payib, mos ravishda 1900 ming va 2000 ming kishiga yetgan. Biroq 2024 va 2025-yillar uchun ko‘rsatkich manbada bir xil yaxlitlangan qiymatda, ya’ni 1400 ming kishi miqdorida berilgan.



1-rasm. O‘zbekiston mehnat migrantlari sonining 2016-2025 yillardagi dinamikasi, ming kishi

Manba: *XVJ hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan*

Bu 2023-yildagi darajadan taxminan 30 foiz pastdir. Demak, kuzatilayotgan davrda migratsiya dinamikasi pasayish va qayta ko‘tarilish bosqichlarini o‘z ichiga olgan [5].

Jadval va grafikni birgalikda ko‘rib chiqish 2019-2025 yillarda bandlik darajasining oshishi bilan tashqi mehnat migrantlari sonining kamayishi kuzatilganini ko‘rsatadi. Ammo bu parallel o‘zgarishlar yashil islohotlarning migratsiyaga sababiy ta’sirini isbotlamaydi. Shuningdek, migrantlar sonining kamayishidan ularning barchasi mamlakatga qaytib, mahalliy ish o‘rinlariga joylashgani haqidagi xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Bunday baholash uchun qaytgan migrantlarning bandligi va yashil ish o‘rinlari to‘g‘risidagi alohida ma’lumotlar talab etiladi. Yashil iqtisodiyotning bandlik va migratsiya bilan bog‘liqligini ishchi kuchining yangi kasblarga moslashuvi orqali ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha iqlim va rivojlanish hisobotida yashil o‘tish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, kasbiy tayyorgarlikni ish beruvchilar talablariga moslashtirish hamda bandlik xizmatlarining korxonalar bilan hamkorligini kuchaytirish tavsiya etilgan. Hisobotda ayrim mavjud kasblardan quyosh panellarini o‘rnatish kabi faoliyatlarga qo‘shimcha tayyorgarlik orqali o‘tish imkoniyatlari ham ko‘rsatilgan [6].

Shundan kelib chiqib, migratsiyadan qaytgan fuqarolarning kasbiy tajribasini baholash va ularni ish beruvchilar talabiga muvofiq yashil kasblarga qayta tayyorlash taklif etiladi. Bunda quyosh energetikasi uskunalarini o‘rnatish va ta’mirlash, binolarning energiya samaradorligini oshirish hamda suv tejovchi texnologiyalarga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlariga e’tibor qaratish mumkin. O‘quv

dasturlarini korxonalardagi amaliyot va keyingi ishga joylashtirish bilan bog‘lash ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Yashil investitsiyalarni kasbiy tayyorgarlik va qaytgan migrantlar bandligini qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish mamlakat ichida munosib mehnat imkoniyatlarini kengaytirishi hamda ish topish zarurati bilan bog‘liq tashqi migratsiya bosimini yumshatishi mumkin. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o‘tishning ijtimoiy samarasi yaratilgan ish o‘rinlarining sifati, barqarorligi va ulardan aholining foydalanish imkoniyati bilan baholanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. Bobojonov T. M. Yashil iqtisodiyotning ahamiyati va bandlik imkoniyatlari // Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali. – 2025. – 4-jild, 1-son.

4. Nazarova M. Sh., Berdiqulov R. A. “Yashil” iqtisodiyot va uning O‘zbekistonda bandlikka ta’siri // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025.

5. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation – Press Release; and Staff Report. *IMF Country Report № 26/152. – 2026.*

6. World Bank Group. Uzbekistan Country Climate and Development Report. – *Washington, DC, 2023.*

ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI SHAROITIDA IJTIMOIY SOHANI MOLIYALASHTIRISHNING BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ROLI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Kurbonaliyev Abduxamid Shuxrat o‘g‘li
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

Mehnat migratsiyasi mehnat bozoridagi hududiy nomutanosibliklar, ish haqi farqlari va bandlik imkoniyatlarining notekis taqsimlanishiga javoban shakllanadigan iqtisodiy jarayondir. Ichki migratsiya ishchi kuchining mamlakat ichida nisbatan yuqori iqtisodiy faollikka ega hududlarga qayta taqsimlanishiga xizmat qilsa, tashqi mehnat migratsiyasi bandlik bosimini yumshatish va uy xo‘jaliklariga valyuta tushumlarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, migratsiya uzoq muddatli kambag‘allikni qisqartirish vositasiga aylanishi uchun migrant daromadlari, davlatning ijtimoiy himoya xarajatlari va faol bandlik dasturlari o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak bo‘ladi.

O‘zbekistonda 2021–2025-yillarda kambag‘allik va ishsizlik ko‘rsatkichlarida sezilarli pasayish kuzatildi. Mazkur davrda xalqaro pul o‘tkazmalari hajmining ham yuqori darajada saqlanib qolishi migratsiya, uy xo‘jaliklari daromadlari va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq

tahlil qilishni talab etadi. Tadqiqotning maqsadi migratsiya bilan bog‘liq xususiy moliyaviy oqimlar va davlat ijtimoiy moliyalashtirish mexanizmlarining bandlik hamda kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘zaro to‘ldiruvchi rolini aniqlashdan iborat.


1-jadval.

O‘zbekistonda bandlik, kambag‘allik va migratsiyaning moliyaviy kanali bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar, 2021–2025-yillar

Yil	Kambag‘allik darajasi, %	Ishsizlik darajasi, %	Bandlik darajasi, %	Xalqaro pul o‘tkazmalari, mlrd AQSh doll.
2021	17.0	9.6	67.0	8.1
2022	14.1	8.9	67.2	17.0
2023	11.0	6.8	67.9	11.4
2024	8.9	5.5	68.3	14.8
2025	5.8	4.8	70.5	18.9

Tahlil davri 2021–2025-yillarni qamrab oldi. Dinamik qatorlar, mutlaq va nisbiy o‘zgarishlar, tarkibiy tahlil hamda institutsional yondashuv qo‘llanildi. Xalqaro pul o‘tkazmalari tashqi mehnat migratsiyasining to‘liq miqdoriy o‘lchovi emasligi hisobga olindi, ularning tarkibida mehnat migrantlari daromadlaridan tashqari boshqa jismoniy shaxslar transferlari ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli ushbu ko‘rsatkich migratsiyaning moliyaviy kanali uchun proksi sifatida qo‘llanildi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha pasaygan. Bu 11,2 foiz punktlik yoki boshlang‘ich darajaga nisbatan qariyb 65,9 foizlik qisqarishni anglatadi. Shu davrda ishsizlik 9,6 foizdan 4,8 foizgacha kamaygan, bandlik darajasi esa 67,0 foizdan 70,5 foizgacha oshgan. Ushbu parallel dinamika mehnat bozori ko‘rsatkichlari va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi, biroq mazkur qisqa vaqt qatori alohida siyosat choralarining sababiy ta’sirini identifikatsiya qilish uchun yetarli bo‘lmaydi.




1-rasm. O‘zbekistonda kambag‘allik va ishsizlik darajasi dinamikasi, 2021–2025-yillar

Tashqi migratsiyaning moliyaviy kanali sifatida qaralayotgan xalqaro pul o‘tkazmalari 2021-yildagi 8,1 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 18,9 mlrd dollarga yetgan. 2022-yilda 17,0 mlrd dollargacha keskin o‘sish, 2023-yilda esa 11,4 mlrd dollargacha pasayish kuzatilgan; 2024–2025-yillarda oqim yana 14,8 va 18,9 mlrd dollargacha oshgan. Markaziy bank 2022-yildagi keskin o‘sishni faqat mehnat migrantlari daromadlari bilan emas, balki norasmiy oqimlarning rasmiy kanallarga o‘tishi va boshqa transchegaraviy operatsiyalar bilan ham izohlaydi. Shuning uchun pul o‘tkazmalarining barcha hajmini migrant mehnat daromadi sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan moliyalashtirish migratsiya bilan bog‘liq daromadlarning beqarorligini yumshatuvchi ikkinchi muhim kanal hisoblanadi. 2025-yilning birinchi yarim yilligida Davlat budjeti xarajatlari 173,3 trln so‘mni tashkil etib, shundan 86,2 trln so‘m ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilgan. Shu davrda kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini oshirish tadbirlariga 21,1 trln so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgani, uning 12,5 trln so‘mi ijtimoiy himoyaga, 8,6 trln so‘mi esa aholini tadbirkorlikka jalb qilish va zarur infratuzilmani rivojlantirishga sarflangani qayd etilgan. Mazkur tarkib passiv ijtimoiy yordam bilan bir qatorda daromad yaratishga qaratilgan faol moliyalashtirish instrumentlarining ham ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi.

Ichki mehnat migratsiyasi nuqtayi nazaridan faol bandlik siyosati ishchi kuchining hududlararo harakatini iqtisodiy samaraga aylantirishi mumkin. Bunda kasbga tayyorlash, ish qidirish xarajatlarini kamaytirish, vaqtinchalik turar joy va transport infratuzilmasi, mehnat bozori axborot tizimlari hamda rasmiy bandlikka kirishni qo‘llab-quvvatlash muhim. Tashqi migratsiyada esa migrantni jo‘natishdan oldingi kasbiy tayyorgarlik, huquqiy va moliyaviy savodxonlik, xavfsiz pul o‘tkazmalari, qaytgan migrantlarning malakasi va jamg‘armalarini mahalliy iqtisodiyotga reintegratsiya qilish ustuvor bo‘lishi lozim.



2-rasm. Migratsiya va ijtimoiy moliyalashtirishning bandlik hamda kambag‘allikka ta’sir kanallari

Tahlil natijalari migratsiya va ijtimoiy moliyalashtirish siyosatini alohida yo‘nalishlar sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida shakllantirish

zarurligini ko‘rsatadi. Migrant pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklarining joriy iste’moli va moliyaviy barqarorligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin, ammo ularning uzoq muddatli kambag‘allikni qisqartirishdagi samarasi mablag‘larning inson kapitali va daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirilishiga bog‘liq. Davlat moliyalashtirishining vazifasi xususiy transferlarni almashtirish emas, balki ularning rivojlantiruvchi ta’sirini kuchaytiruvchi institutlarni yaratishdan iborat.

Shu asosda uch yo‘nalish taklif etiladi. Birinchidan, qaytgan migrantlar uchun kasbiy ko‘nikmalarni tan olish, qayta tayyorlash va ishga joylashtirish xizmatlarini yagona reintegratsiya mexanizmiga birlashtirish lozim. Ikkinchidan, migrant jamg‘armalarini mikrobiznes va o‘zini o‘zi band qilish loyihalariga yo‘naltirishda grant yoki subsidiyani xususiy mablag‘ bilan birgalikda moliyalashtirish tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, hududlarda bandlik, kambag‘allik, ichki mehnat harakati va qaytgan migrantlar bo‘yicha ma’lumotlarni integratsiyalash orqali ijtimoiy xarajatlarning natijadorligini baholovchi monitoring tizimini joriy etish zarur.

2021–2025-yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik va ishsizlik darajasining pasayishi, bandlikning oshishi hamda xalqaro pul o‘tkazmalarining katta hajmi mehnat migratsiyasi, uy xo‘jaliklari daromadlari va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirgan. Biroq pul o‘tkazmalarining o‘sishi o‘z-o‘zidan barqaror bandlik yoki kambag‘allikning uzoq muddatli qisqarishini kafolatlamaydi. Natijadorlik migrant daromadlarini inson kapitali va tadbirkorlikka yo‘naltirish, qaytgan migrantlarni iqtisodiy reintegratsiya qilish hamda ijtimoiy budjet mablag‘larini faol bandlik instrumentlari bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq. Shu sababli ijtimoiy sohani moliyalashtirishda “ijtimoiy yordam – kasbiy rivojlanish – bandlik – daromad yaratish – reintegratsiya” zanjiriga asoslangan natijaviy yondashuvni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Keyingi empirik tadqiqotlarda hududlar kesimidagi panel ma’lumotlardan foydalanib, migratsiya intensivligi, pul o‘tkazmalari, bandlik dasturlariga xarajatlar va kambag‘allik o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni ekonometrik baholash kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Kambag‘allik darajasi”, kod 2.03.01.0042, 2021–2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Ishsizlik darajasi”, kod 2.02.01.2200, 2021–2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Bandlik darajasi”, kod 2.02.01.1900, 2021–2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Review of International Migration and Individuals’ Foreign Exchange Operations. 2026.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Annual Report 2023. Cross-border money transfers bo‘limi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining 2025-yil 1-yarim yillik ijrosi to‘g‘risida ma’lumot.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi uchun ajratilgan mablag‘lar va ularning sarflanishi yuzasidan axborot, 2025.

8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yil Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosi bo‘yicha ochiq ma’lumotlar.

MEHNAT MIGRATSIYASI SHAROITIDA CHAKANA SAVDO ISTE'MOLCHILARINING XARID XULQ-ATVORINI NEYROMARKETING ASOSIDA BAHOLASH

Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ko'plab oilalarning daromadi va iste'mol tarkibini belgilaydigan omilga aylangan. Oila a'zolaridan biri xorijda ishlaganda, uyda qolganlar oladigan pul o'tkazmasi asosan oziq-ovqat, kiyim-kechak, maishiy texnika va uy-joyni ta'mirlashga sarflanadi. Bunday oilalarda xarid qarorini ko'pincha pulni ishlab topgan odam emas, uyda qolgan ayollar va keksa oila a'zolari qabul qiladi. Xalqaro tadqiqotlarda pul o'tkazmasi oladigan uy xo'jaliklari xarajatlarni oddiy oilalardan farqli taqsimlashi aniqlangan [1]. Chakana savdo korxonalari uchun bu iste'molchilarning nimani va nima uchun tanlashini bilish muhim, lekin an'anaviy so'rovnomalar bunga to'liq javob bermaydi: xaridor o'z qarorini ko'pincha ongli ravishda tushuntira olmaydi.

Masalaning ko'lamini quyidagi raqamlar ko'rsatadi. 2026-yilda taxminan 1,4 mln O'zbekiston fuqarosi xorijda mehnat qilmoqda [2]. 2025-yilda xorijdan kelgan pul o'tkazmalari 18,9 mlrd dollarga yetdi va uy xo'jaliklari daromadidagi ulushi 16,5 foizdan 21 foizga ko'tarildi . 2025-yilning birinchi yarmida o'tkazmalarning 44 foizi to'g'ridan-to'g'ri bank kartalariga P2P usulida kelgan, oylik hajm yanvardagi 1,06 mlrd dollardan iyundagi 1,78 mlrd dollargacha oshgan [3]. Shu yili chakana savdo aylanmasi 482,4 trln so'mni tashkil etib, real ifodada 11,2 foizga o'sgan, uning 9,1 foizi esa tashkil etilmagan savdoga to'g'ri kelgan [4].

1-jadval.

Mehnat migratsiyasi va chakana iste'mol bozoriga oid ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
Xorijda ishlayotgan fuqarolar (2026-y.)	≈1,4 mln kishi	[2]
Pul o'tkazmalari hajmi, 2025-y.	18,9 mlrd dollar	
O'tkazmalarning uy xo'jaliklari daromadidagi ulushi	16,5 % → 21 %	
Kartaga P2P o'tkazmalar ulushi, 2025-y. I yarim yillik	44 %	[3]
Oylik o'tkazmalar, 2025-y. yanvar va iyun	1,06 → 1,78 mlrd dollar	[3]
Chakana savdo aylanmasi, 2025-y.	482,4 trln so'm (real o'sish 11,2 %)	[4]
Tashkil etilmagan savdo ulushi, 2025-y.	9,1 %	[4]

Manba: *[2], [3], [4] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadvaldagi raqamlardan uchta xulosa kelib chiqadi. Birinchisi, o‘tkazmalar oila daromadining beshdan bir qismiga aylangan va chakana savdo o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy manbalardan biri. Ikkinchisi, pul oqimi oylar bo‘yicha notekis: yoz oylarida o‘tkazmalar keskin oshadi va do‘konlarda talab ham shunga mos o‘zgaradi. Uchinchisi, pulning salmoqli qismi kartaga tushayotgani xaridni naqd puldan karta va onlayn to‘lovga o‘tkazmoqda. Natijada xaridor xatti-harakatini raqamli izlar orqali kuzatish imkoni paydo bo‘lmoqda.

Neyromarketing iste’molchining reklama, qadoq, narx yoki do‘kon muhitiga ongsiz javobini fiziologik va neyrofiziologik usullar bilan o‘lchaydigan yo‘nalishdir [5]. Uning asosiy afzalligi shundaki, u xaridor nimani aytishini emas, nimaga e’tibor qaratishini va qanday his qilishini ko‘rsatadi. Miya faolligi ko‘rsatkichlari xarid qarorini bashorat qilishi [6], brendga munosabat miyaning qadriyat va xotira tizimlari bilan bog‘liqligi [7] eksperimental tarzda isbotlangan. Do‘kon ichidagi tadqiqotlarda ko‘z harakatini kuzatish tokchadagi mahsulotga qaratilgan e’tibor xaridga qanchalik ta’sir qilishini aniqlashda samarali ekani ko‘rsatilgan [8].

Mehnat migrantlari oilalari xarid xulq-atvorini baholash uchun quyidagi yondashuv taklif etiladi. Tadqiqot uch guruhda o‘tkaziladi: pul o‘tkazmasi oladigan oilalar a’zolari, xorijdan qaytgan migrantlar va nazorat guruhi sifatida migratsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan oilalar. Ishtirokchilarga do‘kon tokchasi, narx yorlig‘i, aksiya e’loni va qadoq namunalari ko‘rsatiladi, bunda 2-jadvaldagi usullar qo‘llaniladi.

2-jadval.

Neyromarketing usullari va baholash ko‘rsatkichlari

Usul	Nimani o‘lchaydi	O‘lchov ko‘rsatkichi
Ko‘z harakatini kuzatish (eye-tracking)	Tokcha, narx yorlig‘i va qadoqqa e’tibor	Birinchi nigohgacha vaqt; nigoh davomiyligi
Elektroensefalografiya (EEG)	Emotsional munosabat, intilish yoki qochish	Frontal asimmetriya indeksi
Teri galvanik reaksiyasi (GSR)	Hissiy qo‘zg‘alish darajasi	Reaksiya cho‘qqilari soni va kuchi
Yuz ifodalarini tahlil qilish	Ijobiy yoki salbiy emotsiya	Emotsiya valentligi
Yashirin assotsiatsiya testi	Brend va narxga ongsiz munosabat	Javob berish vaqti farqi

Manba: *[5], [6], [7], [8] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

2-jadvalda keltirilgan usullar bir-birini to‘ldiradi: ko‘z harakati xaridor nimani ko‘rganini, EEG va GSR u qanday his qilganini, yashirin assotsiatsiya testi esa brend yoki narxga ongsiz munosabatini ko‘rsatadi. Har bir ko‘rsatkich 0 dan 1 gacha me’yorlashtirilib, yakuniy xarid tanlovi bilan birga integral “neyro-xarid indeksi”ga birlashtiriladi. Guruhlar o‘rtasidagi farq, masalan, o‘tkazma oluvchi oilalarning aksiya va chegirma belgilariga tezroq e’tibor qaratishi yoki import brendlarga yuqoriroq emotsional javob berishi, savdo tarmoqlariga aniq qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladi. Tadqiqot qimmat laboratoriya talab qilmaydi: veb-kamera orqali ko‘z harakatini kuzatish va portativ EEG qurilmalari bilan uni oliy ta’lim muassasasi qoshidagi kichik laboratoriyada ham o‘tkazish mumkin. Barcha

ishtirokchilardan yozma rozilik olinadi, ularning shaxsiy ma’lumotlari qonunchilik talablariga muvofiq himoya qilinadi.

Olingan natijalar chakana savdo amaliyotida bir necha yo‘nalishda qo‘llanadi: o‘tkazmalar oshadigan oylarda assortiment va aksiyalarni rejalashtirish; uyda qolgan xaridorlar e’tiborini tortadigan tokcha joylashuvi va narx yorlig‘ini tanlash; karta orqali to‘lovni rag‘batlantiruvchi sodiqlik dasturlarini ishlab chiqish; qaytgan migrantlar xorijda o‘rgangan xarid odatlariga mos zamonaviy savdo formatlarini taklif qilish.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi chakana iste’mol bozorida o‘ziga xos xaridorlar guruhini shakllantirmoqda. Ularning xulq-atvori daromadning notekisligi, xarid qarorini oilaning boshqa a’zosi qabul qilishi va to‘lovlarning kartaga o‘tishi bilan ajralib turadi. Neyromarketing usullari bu guruh xaridorining ongsiz reaksiyalarini o‘lchash orqali so‘rovnomalar bera olmaydigan ma’lumotni beradi. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, chakana savdo tarmoqlarida xaridorlarni pul o‘tkazmasi bilan bog‘liqligi bo‘yicha segmentlash va o‘tkazmalar mavsumiyligini savdo rejalashtirishga kiritish;

ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalari qoshida savdo korxonalari buyurtmasi asosida ishlaydigan neyromarketing laboratoriyalarini tashkil etish;

uchinchidan, ko‘z harakati, EEG va GSR ko‘rsatkichlarini birlashtirgan neyro-xarid indeksini tokcha joylashuvi va aksiyalar samaradorligini baholashda qo‘llash;

to‘rtinchidan, neyromarketing tadqiqotlari uchun ishtirokchi roziligi va ma’lumotlarni himoya qilishning yagona etika standartini ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. Adams R.H., Cuecuecha A. Remittances, household expenditure and investment in Guatemala // World Development. 2010. Vol. 38, No. 11. P. 1626–1641. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2010.03.003

2. Taxminan 1,4 mln o‘zbekistonlik xorijda ishlamoqda. Mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgaryapti // Gazeta.uz, 17.08.2026. https://www.gazeta.uz/oz/2026/08/17/migration/

3. Remittances to Uzbekistan reach $8.2 billion in first half of 2025 // Gazeta.uz, 17.07.2025. https://www.gazeta.uz/en/2025/07/17/transfers/

4. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar–dekabr). Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. https://stat.uz/img/news/talil-2025-jil-yanvar-dekabr-lotin-_p29731.pdf

5. Lee N., Broderick A.J., Chamberlain L. What is ‘neuromarketing’? A discussion and agenda for future research // International Journal of Psychophysiology. 2007. Vol. 63, No. 2. P. 199–204. https://doi.org/10.1016/j.ijpsycho.2006.03.007

6. Knutson B., Rick S., Wimmer G.E., Prelec D., Loewenstein G. Neural predictors of purchases // Neuron. 2007. Vol. 53, No. 1. P. 147–156. https://doi.org/10.1016/j.neuron.2006.11.010

7. Plassmann H., Ramsøy T.Z., Milosavljevic M. Branding the brain: A critical review and outlook // Journal of Consumer Psychology. 2012. Vol. 22, No. 1. P. 18–36. https://doi.org/10.1016/j.jcps.2011.11.010

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI MEXANIZMLARI

Bahodirov O‘rolboy Bahriddin o‘g‘li
TMCI instituti Koordinator o‘rinbosari
Mustaqil izlanuvchi

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi bandlik, daromadlar va inson kapitalining xalqaro harakati bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga aylandi. IOMning “World Migration Report 2024” hisobotida dunyoda 2020-yil holatiga 281 million xalqaro migrant bo‘lgani ko‘rsatiladi [1]. Mazkur ko‘rsatkich migratsiyani faqat odamlarning ko‘chishi emas, balki mehnat bozorlari, davlat xizmatlari, xususiy vositachilik va ijtimoiy himoya o‘rtasidagi tizimli munosabat sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston uchun migratsiya siyosatining ustuvor vazifasi fuqarolarning chet elda qonuniy va xavfsiz ishlash imkoniyatini kengaytirish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va migratsiya jarayonidan olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy samara barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini boshqarishning institutsional va raqamli mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy modelni ishlab chiqishdir. Metodologik asos sifatida tizimli va qiyosiy tahlil, jarayonlarni xaritalash, manfaatdor tomonlarni aniqlash hamda samaradorlik indikatorlarini loyihalash usullaridan foydalanildi. Xalqaro mehnat tashkilotining adolatli yollash bo‘yicha tamoyillari migrantlar huquqlari, vositachilik xarajatlarining oshkoraligi va xizmat sifatini baholash mezoni sifatida olindi [2]. Mazkur maqolada keltirilgan indeks va indikatorlar mualliflik taklifi bo‘lib, real statistik ma’lumotlar asosida hisoblangan empirik natija sifatida talqin etilmaydi.

Boshqaruvdagi asosiy muammolar. Mehnat migratsiyasini tartibga solish ko‘pincha fuqaroni xorijdagi ish o‘rniga yo‘naltirish bilan cheklanib qolish xavfiga ega. Aslida samarali tizim bo‘sh ish o‘rnini aniqlash, kasb va til ko‘nikmalarini baholash, mehnat shartnomasini tekshirish, ketishdan oldingi maslahat, xorijdagi himoya va qaytishdan keyingi bandlik kabi ketma-ket bosqichlarni qamrab olishi zarur. Ushbu bosqichlar bo‘yicha ma’lumotlar alohida tizimlarda saqlansa, takroriy hujjat yig‘ish, murojaatlarning kechikishi va xizmat natijalarini kuzatish qiyinlashadi. Bundan tashqari, ishga joylashish faktining o‘zi mehnat sharoiti, ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishi yoki ish joyining barqarorligini namoyish etmaydi. Shuning uchun tashkilotlar faoliyati joylashtirilganlar soni bilangina emas, ishga joylashish sifati bilan ham baholanishi lozim.

Taklif etilayotgan institutsional model. “Yagona migratsiya xizmatlari sikli” modeli besh funksional blokdan tashkil topadi: (1) talabni aniqlash — xorijiy ish beruvchilarning tekshirilgan vakansiyalarini jamlash; (2) tayyorlash — kasbiy, til va huquqiy kompetensiyalarni baholash; (3) shaffof yollash — shartnoma shartlarini oddiy tilda tushuntirish va vositachilik xarajatlarini oshkor qilish; (4) himoya va monitoring — murojaatlarni qabul qilish, yo‘naltirish va natijasini

kuzatish; (5) qaytish va qayta bandlik — olingan tajribani ichki mehnat bozoriga moslashtirish. Har bir blok uchun mas'ul tashkilot, xizmat muddati, raqamli iz va baholash mezoni belgilanadi. ILO ko'rsatmalariga muvofiq, yollash bilan bog'liq xarajatlarni ishchi zimmasiga noqonuniy yuklashning oldini olish muhim mezon hisoblanadi [2].

Raqamli mexanizm va ko'rsatkichlar. Taklif qilinayotgan raqamli platformada fuqaro roziligi asosida yaratiladigan yagona profil, tekshirilgan vakansiyalar reyestri, shartnoma tekshiruvi, elektron murojaat holati va qayta bandlik moduli birlashtiriladi. Ma'lumotlar minimallashtirish, rollarga ko'ra foydalanish huquqi va ma'lumotni o'chirish tartibi bilan himoyalanishi kerak. Natijadorlikni baholash uchun quyidagi indikatorlar taklif etiladi: shaffof shartnoma ulushi (tekshiruvdan o'tgan shartnomalar / jami joylashtirishlar × 100); murojaatlarni hal etish ulushi (muddatida yakunlangan murojaatlar / jami murojaatlar × 100); barqaror bandlik ulushi (6 oy ishlaganlar / kuzatuvdagi ishga joylashganlar × 100); qayta bandlik ulushi (qaytgach 6 oy ichida band bo'lganlar / kuzatuvdagi qaytganlar × 100). Formulalardagi kuzatuv davri loyihaviy taklif bo'lib, amaliy sinov natijasida aniqlashtirilishi mumkin.

Baholash va joriy etish mexanizmi. KPIlar bir xil vaznda qo'shilsa, turli maqsadli ko'rsatkichlar o'rtasidagi siyosiy ustuvorlik aks etmasligi mumkin. Shu sababli integral boshqaruv indeksi IMBI = 0,30S + 0,25H + 0,25B + 0,20R shaklida taklif etiladi; bunda S — shartnoma shaffofligi, H — huquqiy murojaatni hal etish, B — barqaror bandlik, R — qayta bandlik ko'rsatkichlarining 0–100 oralig'idagi qiymatlari. Vaznlar empirik baholanmagan, dastlabki ekspert muhokamasi uchun normativ ssenariydir. Modelni tekshirishda pilot hududlar tanlanib, joriy etishdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlar solishtirilishi, xizmatlardan foydalangan va foydalanmagan o'xshash guruhlar bo'yicha farqlar tahlil qilinishi mumkin. Natijalarni hudud, jins va yosh bo'yicha ajratib baholash xizmatlardan teng foydalanishni ko'rsatadi.

Tashqi mehnat migratsiyasini boshqarishning samaradorligi yuborilgan migrantlar sonidan ko'ra butun migratsiya sikli davomida yaratilgan huquqiy va iqtisodiy natijalar bilan o'lchanishi kerak. Birinchidan, davlat va xususiy xizmatlar o'rtasida tekshiriladigan xizmat standartlari va ma'lumot almashish protokollari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, tekshirilgan vakansiya, shartnoma, murojaat va qayta bandlik ma'lumotlarini fuqaroga qulay yagona raqamli muhitga birlashtirish zarur. Uchinchidan, natijadorlikni o'lchash tizimiga shartnoma shaffofligi, murojaatni hal etish va olti oylik bandlik indikatorlarini kiritish taklif qilinadi. Bunday yondashuv boshqaruvni faoliyat hajmidan xizmat sifatiga yo'naltirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. Chapter 2: Migration and migrants: A global overview. Geneva, 2024. https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2024-chapter-2

2. International Labour Organization (ILO). General Principles and Operational Guidelines for Fair Recruitment and Definition of Recruitment Fees and Related Costs. Geneva, 2019.

https://www.ilo.org/publications/general-principles-and-operational-guidelines-fair-recruitment-and

3. International Organization for Migration (IOM). Reintegration Handbook: An Integrated Approach to Reintegration. Geneva, 2019. https://publications.iom.int/books/reintegration-handbook-module-1-integrated-approach-reintegration

РОЛЬ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Батыров Фархад Бакытович
Ташкентский государственный
Экономический университет

Обеспечение продуктивной занятости населения является одним из важнейших условий устойчивого экономического роста, сокращения бедности и повышения благосостояния общества. В условиях структурных изменений экономики, демографического роста и неравномерного размещения производственных мощностей трудовая миграция выступает одним из механизмов согласования предложения рабочей силы со спросом на труд.

Внутренняя трудовая миграция обеспечивает перемещение населения между регионами страны в поисках работы, более высокой заработной платы и профессиональных возможностей. Внешняя трудовая миграция позволяет гражданам трудоустраиваться в других государствах, получать доходы, приобретать профессиональный опыт и направлять денежные переводы своим семьям. Оба процесса способны смягчать последствия недостатка рабочих мест в отдельных территориях, однако их долгосрочные результаты зависят от институциональных условий, уровня квалификации работников и возможностей использования приобретенного человеческого капитала.

По информации Администрации Президента Узбекистана от 18 ноября 2025 года, денежные переводы граждан, находящихся за рубежом, выросли с 3,8 млрд долларов США в 2016 году до 15,8 млрд долларов за первые десять месяцев 2025 года. В ходе совещания также отмечалось наличие заказов на 140 тысяч специалистов для зарубежных рынков труда, при этом особое внимание уделялось языковой и профессиональной подготовке кандидатов [1].

В апреле 2026 года Президент Узбекистана рассмотрел дополнительные меры по совершенствованию организованной внешней трудовой миграции. Согласно официальному сообщению, граждане страны работали почти в 40 государствах, а число работающих за рубежом оценивалось примерно в 1,2 млн человек. Среди приоритетов были обозначены расширение географии трудоустройства, подготовка

квалифицированных специалистов и комплексная защита граждан за рубежом [2].

В последние годы государственная политика уделяет повышенное внимание организованному трудоустройству, развитию сотрудничества с иностранными работодателями и расширению перечня стран назначения.

В 2026 году политика продолжила развиваться в направлении диверсификации внешних рынков труда. По данным Агентства миграции при Кабинете Министров, опубликованным 5 октября 2026 года, в январе–сентябре были определены 262,2 тыс. вакансий за рубежом со средней заработной платой от 1 500 долларов США. За тот же период трудоустроены за рубежом 171,2 тыс. граждан. Эти показатели характеризуют работу государственных механизмов содействия трудоустройству и не должны трактоваться как полная оценка всего объема внешней миграции страны [6].

Одним из наиболее заметных экономических результатов внешней трудовой миграции являются денежные переводы, направляемые мигрантами своим семьям. Согласно обзору Центрального банка Республики Узбекистан от 17 марта 2026 года, в 2025 году поступления денежных переводов в страну составили 18,9 млрд долларов США, увеличившись на 28%, или на 4,1 млрд долларов, относительно 2024 года. В структуре переводов 9,9 млрд долларов поступили через традиционные международные системы денежных переводов, а 8,6 млрд долларов были зачислены на банковские карты через P2P-переводы [7].

Денежные переводы выполняют несколько важных функций.

Во-первых, они увеличивают располагаемые доходы домохозяйств и помогают покрывать расходы на питание, жилье, образование и здравоохранение.

Во-вторых, они поддерживают внутренний потребительский спрос. Дополнительные расходы семей на товары и услуги создают спрос для торговли, транспорта, строительства и местного производства.

В-третьих, накопленные средства могут использоваться для открытия предприятий, приобретения оборудования, развития сельского хозяйства и финансирования профессионального обучения.

Денежные накопления мигрантов могут стать одним из источников первоначального капитала для бизнеса. Наиболее доступными направлениями являются торговля, общественное питание, ремонтные услуги, сельское хозяйство, транспорт, туризм и небольшие производственные проекты [4]. Также миграция может влиять следующим образом (Таблица-1):

Несмотря на положительные экономические эффекты, внутренняя и внешняя миграция сопровождаются рядом рисков:

• *Неформальная занятость и правовая незащищенность*. Работа без официального трудового договора может лишать граждан гарантий выплаты заработной платы, безопасных условий труда, медицинского страхования и правовой защиты;

Таблица-1

Влияние миграции на рынок труда

Вид влияния	Механизм	Эффект
Заполнение вакансий	Приток работников в дефицитные отрасли	Снижение простоев, рост производства
Демографическое восполнение	Компенсация естественной убыли населения	Поддержание численности рабочей [3]
Экономическая активность	Рост потребления, налогов, предпринимательства	Ускорение регионального развития [5]
Инновационный потенциал	Привлечение квалифицированных специалистов	Рост производительности и технологий
Социальная стабильность	Снижение напряжённости на рынке труда	Улучшение качества жизни

• *Отток квалифицированных кадров*. Продолжительный отъезд квалифицированных работников может создавать дефицит специалистов в отдельных отраслях и территориях;

• *Зависимость домохозяйств от денежных переводов*. Высокая зависимость доходов семей от внешней занятости делает их уязвимыми к экономическим кризисам, изменениям миграционного законодательства, колебаниям валютных курсов и сокращению спроса на труд в странах назначения;

• *Социальные издержки миграции*. Длительное отсутствие одного или обоих родителей может увеличивать нагрузку на членов семьи, влиять на распределение обязанностей по уходу и создавать дополнительные психологические и социальные трудности;

• *Неэффективное использование навыков после возвращения*. Возвращающиеся мигранты могут сталкиваться с трудностями при поиске работы, соответствующей приобретенной квалификации. В результате навыки и опыт, полученные за рубежом, используются не полностью.

Для развитие внутренней трудовой мобильности необходимо совершенствовать региональные системы мониторинга спроса на труд, обеспечивать оперативный обмен информацией о вакансиях и расширять доступ к профессиональной переподготовке. Целесообразно развивать цифровые сервисы, объединяющие сведения о рабочих местах, квалификациях соискателей, доступных программах обучения и условиях переезда. При этом следует предусматривать поддержку расходов на транспорт и временное проживание для граждан, которые переезжают к новому месту работы.

Для повышение эффективности внешнего трудоустройства следует расширять организованный набор работников по прямым соглашениям с иностранными работодателями и уполномоченными организациями.

Вакансии должны сопровождаться полной информацией о заработной плате, рабочем времени, жилье, страховании, налогах и расходах работника.

Таким образом, внутренняя и внешняя трудовая миграция являются значимыми механизмами обеспечения занятости населения Узбекистана. Внутренняя мобильность способствует перераспределению работников между регионами и отраслями, тогда как внешняя миграция расширяет доступ к международным рынкам труда, обеспечивает дополнительные доходы домохозяйств и создает возможности для приобретения профессиональных навыков. Эффективная миграционная политика должна объединять возможности внутренней и внешней трудовой мобильности с созданием производительных рабочих мест в регионах Узбекистана. Такой подход позволит повысить эффективность использования трудовых ресурсов, расширить экономические возможности населения и обеспечить более устойчивое региональное развитие.

Литературы:

1. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. «Представлены задачи и планы в сфере трудовой миграции». https://www.president.uz/ru/lists/view/8687

2. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. «Обсуждены вопросы повышения эффективности работы Агентства миграции. https://president.uz/ru/lists/view/9121

3. Алонцева Д. В. (2025). «Влияние миграционных потоков на российский рынок труда». Экономика, предпринимательство и право. – 2025. – Т. 15, № 11. – С. 7793-7810. – DOI 10.18334/epp.15.11.124188

4. Фархад Батыров. (2025). Создаются благоприятные условия для индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц. «Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot» Jurnali, 3(8), 10–17. https://doi.org/10.5281/zenodo.16927343

5. Красинец Е.С. (2025) Внешняя трудовая миграция в современном российском обществе: динамика и последствия. Народонаселение, №3, Т. 28, С. 61-73. DOI 10.24412/1561-7785-2025-3-61-73

6. Брифинг о работе, проведённой Агентством по миграции при Кабинете Министров в июле–сентябре 2026 года в рамках исполнения законодательных актов и поручений. https://gov.uz/ru/migration/news/view/228333

7. Центральный банк Республики Узбекистан (2026). Обзор Центробанка о международной миграции и операций физических лиц с иностранной валютой, март 2026 г. https://cbu.uz/en/press_center/releases/3611322

ICHKI MIGRATSIYA VA YOSHLAR ISHSIZLIGI: O‘ZBEKISTON VA TURKIYA TAJRIBASI

Barotov Manuchehr

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

manuchehrbarotov90@gmail.com

Ichki migratsiya mehnat resurslarining hududlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga xizmat qiluvchi muhim demografik-iqtisodiy jarayonlardan biridir. Ayniqsa, yoshlarning ta’lim olish, ish topish, daromadini oshirish va zamonaviy xizmatlardan foydalanish maqsadida iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan

hududlarga koʻchishi mehnat bozorining hududiy tarkibiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli ichki migratsiya va yoshlar ishsizligini alohida emas, balki yagona mehnat bozori muammosi sifatida oʻrganish muhimdir. Oʻzbekiston Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilda hududlararo koʻchib kelganlar soni 252,8 ming kishini, koʻchib ketganlar soni esa 261,8 ming kishini tashkil etgan. Bu koʻrsatkichlar ichki migratsiya oqimlarining sezilarli ekanini va hududlar boʻyicha mehnat resurslari qayta taqsimlanayotganini koʻrsatadi [1; 2].

Yoshlar masalasi ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega. 2025-yil boshida Oʻzbekistonda 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9,63 mln kishini yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan [3]. Demak, yoshlarning mehnat bozoriga kirishi, hududiy harakatchanligi va ish bilan taʼminlanishi iqtisodiy oʻsish hamda inson kapitalidan foydalanish samaradorligiga taʼsir qiluvchi omillardan biridir. Jahon bankining 2025-yil uchun ILO modellashtirilgan bahosiga koʻra, Oʻzbekistonda 15–24 yoshdagi yoshlar ishsizligi 11,38 foizni tashkil etgan [4]. Mazkur tezisda ichki migratsiya va yoshlar ishsizligi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik Oʻzbekiston va Turkiya tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilinadi hamda Oʻzbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Oʻzbekiston tajribasi. Oʻzbekistonda ichki migratsiya asosan mehnat bozori imkoniyatlari, taʼlim va daromadlar oʻrtasidagi hududiy tafovutlar bilan bogʻliq. Milliy statistika qoʻmitasining hududlararo migratsiya statistikasi boʻyicha maʼlumotlarida 2025-yilda 252,8 ming kishi boshqa hududdan muayyan hududga koʻchib kelgani, 261,8 ming kishi esa oʻz hududidan tashqariga koʻchib ketgani qayd etilgan [1; 2]. Statistik metodologiyaga koʻra, mazkur koʻrsatkichlar yashash joyi boʻyicha roʻyxatdan oʻtish asosida shakllantiriladi. Shuning uchun ular norasmiy yoki vaqtinchalik koʻchishlarning barcha shakllarini toʻliq qamrab olmasligi mumkin. Shunga qaramay, rasmiy roʻyxatga olingan migratsiya oqimlari hududlararo mehnat resurslari harakatining muhim qismini aks ettiradi.

Yoshlar uchun ichki migratsiya bir tomondan bandlik imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan yangi mehnat bozoriga moslashish xarajatlarini yuzaga keltiradi. Koʻchib kelgan yoshning kasbiy malakasi, ish tajribasi va taʼlim darajasi qabul qiluvchi hududdagi vakansiyalar talabiga mos kelmasa, migratsiyaning oʻzi avtomatik ravishda bandlikni taʼminlamaydi. Bundan tashqari, uy-joy, transport, ijara, axborot va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish xarajatlari yosh migrantning real daromadini kamaytirishi mumkin. Shu bois ichki migratsiya siyosati faqat aholini koʻchirish yoki roʻyxatga olish bilan emas, balki “koʻchish — malaka — vakansiya — bandlik” zanjiri bilan bogʻlanishi kerak.

Oʻzbekistonda yoshlar mehnat bozorining hajmi katta boʻlib, 20–24 yoshdagi band aholi soni 2025-yilda 1,5814 mln kishiga yetgan. Ushbu koʻrsatkich 2024-yildagi 1,5438 mln kishiga nisbatan oshgan [5]. Shu bilan birga, yoshlar sonining katta boʻlishi mehnat bozoriga har yili yangi ishchi kuchining kirib kelishini anglatadi. Demak, yoshlar bandligini taʼminlashda yangi ish oʻrinlari yaratish bilan birga, mavjud vakansiyalar va mehnat resurslarini hududiy jihatdan moslashtirish ham zarur.

Turkiya tajribasi. Turkiyada ichki migratsiya uzoq yillar davomida yirik shaharlar va iqtisodiy markazlar atrofida mehnat resurslarining toʻplanishi bilan

birga kechgan. TurkStat ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat ichida viloyatlararo ko‘chib o‘tganlar soni 2 475 019 kishini tashkil etgan va bu jami aholining 2,87 foiziga teng bo‘lgan. Eng ko‘p ichki migrantlarni Istanbul, Ankara va Izmir qabul qilgan [6]. Bu holat mehnat va ta’lim imkoniyatlarining hududiy konsentratsiyasi ichki migratsiya oqimlariga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Turkiyada yoshlar mehnat bozoridagi muammo ham ichki migratsiya bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. TurkStatning 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 15–24 yoshdagi yoshlar ishsizligi 16,3 foizni tashkil etgan; erkaklarda bu ko‘rsatkich 13,1 foiz, ayollarda 22,3 foiz bo‘lgan. Shu davrda yoshlarning bandlik darajasi 39,5 foizni tashkil etgan [7]. 2025-yil yakunida esa 15–24 yoshdagi yoshlar ishsizligi 15,3 foizga tushgan [8]. Ushbu raqamlar yoshlar mehnat bozorida alohida siyosiy va iqtisodiy choralar talab qiluvchi guruh ekanini ko‘rsatadi.

Turkiya tajribasining muhim jihati — ish beruvchi xarajatlarini kamaytirish orqali rasmiy bandlikni rag‘batlantirishdir. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, Turkiyada qo‘shimcha bandlik subsidiyasi orqali yangi rasmiy xodimlar uchun mehnat soliqlari va ijtimoiy sug‘urta badallarini kamaytirish mexanizmlari mavjud bo‘lib, ayrim dasturlarda qo‘llab-quvvatlash muddati 12 oygacha yetadi. Yoshlar va ayollarni ishga qabul qilishni rag‘batlantiruvchi alohida mexanizmlarda esa ish beruvchining ijtimoiy sug‘urta badallari bo‘yicha xarajatlari 6 oydan 54 oygacha bo‘lgan muddatlarda qoplanishi mumkin [9]. 2026-yilda Turkiyaning Ijtimoiy xavfsizlik instituti ham yoshlar, ayollar va kasbiy malaka hujjatiga ega shaxslarni ishga qabul qilish uchun sug‘urta badali imtiyozlari davom etayotganini qayd etgan [10].

1-jadval.

O‘zbekiston va Turkiyada ichki migratsiya va yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlashning qiyosiy tavsifi

Mezon	O‘zbekiston	Turkiya
Ichki migratsiya ko‘lami (2025)	252,8 ming ko‘chib kelgan; 261,8 ming ko‘chib ketgan	2,475 mln viloyatlararo migrant
Yoshlar ishsizligi	11,38% (15–24 yosh, 2025, ILO modeli)	15,3% (15–24 yosh, 2025, milliy statistika)
Yoshlar salmog‘i	14–30 yosh: 9,63 mln, 25,7% (2025 boshida)	15–24 yosh mehnat bozori alohida monitoring qilinadi
Asosiy muammo	Hududiy vakansiya va malaka nomuvofiqligi; ko‘chish xarajatlari	Yirik shaharlarda ish va ta’lim imkoniyatlarining konsentratsiyasi
Qo‘llab-quvvatlash vositalari	Bandlik xizmatlari, kasbga o‘qitish, tadbirkorlik va hududiy dasturlar	Ish beruvchi subsidiyalari, sug‘urta badali imtiyozlari, kasbiy tayyorlash
O‘zbekiston uchun dars	Migratsiyani vakansiya, malaka va raqamli bandlik xizmatlari bilan bog‘lash	Moliyaviy rag‘batni kasbiy tayyorlash va rasmiy bandlik bilan birlashtirish

Manba: *muallif tomonidan O‘zbekiston va Turkiya milliy statistikasi hamda xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari asosida tuzildi.*

Bundan tashqari, ILO va Turkiya Ijtimoiy xavfsizlik instituti hamkorligidagi KİGEP dasturi rasmiy bandlikka o‘tishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Dastur ish beruvchilarga rag‘batlar berish bilan birga, ishchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va rasmiy mehnat bozoriga kirishini kuchaytirishga xizmat qiladi [11]. Shu jihatdan Turkiya tajribasi ichki migratsiyadan kelgan yoshlar uchun ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tamoyilni ko‘rsatadi: migratsiya jarayoni bandlik xizmatlari, kasbiy tayyorlash va ish beruvchilar rag‘batlari bilan bog‘langan taqdirda, mehnat bozoriga moslashish imkoniyati kengayadi.

Qiyosiy tahlil. O‘zbekiston va Turkiya tajribasi ichki migratsiya oqimlarining iqtisodiy markazlarga yo‘nalishi umumiy hodisa ekanini ko‘rsatadi, biroq migratsiyaning ko‘lami va institutsional javob mexanizmlari farq qiladi. O‘zbekistonda hududlararo migratsiya rasmiy hisobda yuz minglab kishilarni qamrab olsa, Turkiyada viloyatlararo harakat millionlab kishilarni tashkil etadi [1; 6]. Bu farq davlat bandlik siyosatining ko‘lami va hududiy rejalashtirishga bo‘lgan talabni ham o‘zgartiradi.

Ikkinchi muhim jihat — yoshlar ishsizligini faqat ish o‘rinlari soni bilan izohlash yetarli emas. Yosh migrantning yangi hududga ko‘chishi bilan uning mehnat bozoridagi axborotga kirishi, transport va uy-joy xarajatlari, kasbiy malakasi hamda ish beruvchi talablari o‘rtasidagi moslik masalalari paydo bo‘ladi. Shu sababli yoshlar migratsiyasini qo‘llab-quvvatlash siyosati “ko‘chishni rag‘batlantirish” emas, balki “maqsadli va samarali mehnat mobilligi” tamoyiliga asoslanishi maqsadga muvofiq.

Takliflar. Birinchidan, O‘zbekistonda ichki migratsiya qilayotgan yoshlar uchun yagona raqamli “vakansiya–malaka–hudud” platformasini rivojlantirish lozim. Platformada yoshning ta’lim darajasi, kasbiy ko‘nikmalari, ish tajribasi va istalgan hududi asosida mos vakansiyalar ko‘rsatilishi, ish beruvchilar esa bo‘sh ish o‘rinlari va talab qilinadigan ko‘nikmalarni real vaqtga yaqin rejimda joylashtirishi mumkin.

Ikkinchidan, boshqa hududga ko‘chib ishlashni boshlayotgan yoshlar uchun qisqa muddatli moslashuv grantlari yoki transport va ijara xarajatlarining bir qismini qoplash mexanizmlarini sinov tariqasida joriy etish mumkin. Bunday yordam doimiy ijtimoiy to‘lov emas, balki ishga joylashish va rasmiy bandlikni boshlash bilan bog‘langan vaqtinchalik instrument sifatida shakllantirilishi kerak.

Uchinchidan, ish beruvchilarga beriladigan rag‘batlarni yosh migrantlarni rasmiy ishga qabul qilish bilan bog‘lash mumkin. Turkiyadagi qo‘shimcha bandlik va sug‘urta badali imtiyozlari tajribasi bu mexanizmning amaliy shakllaridan biridir [9; 10]. O‘zbekiston sharoitida bunday rag‘batning davomiyligi xodimning 6 va 12 oydan keyingi rasmiy bandligi bilan bog‘lanishi davlat mablag‘larining barqaror ish o‘rinlariga yo‘naltirilishini kuchaytirishi mumkin.

To‘rtinchidan, ichki migratsiya qilgan yoshlarni kasbiy qayta tayyorlash dasturlariga ustuvor guruh sifatida kiritish lozim. Ayniqsa, sanoat, logistika, axborot texnologiyalari, xizmat ko‘rsatish va zamonaviy kasblar bo‘yicha qisqa muddatli kurslar hududlardagi real vakansiyalar bilan bog‘lanishi kerak. Bunda Turkiyadagi KİGEP va unga yaqin rasmiy bandlik dasturlarining “moliyaviy rag‘bat

+ ko‘nikma + rasmiy bandlik” yondashuvi tajriba sifatida foydalanilishi mumkin [11].

Beshinchidan, ichki migratsiya va yoshlar ishsizligi bo‘yicha siyosat samaradorligini baholash uchun alohida indikatorlar joriy etish zarur. Jumladan, boshqa hududga ko‘chib ishga joylashgan yoshlar soni, 6 va 12 oydan keyingi bandlik darajasi, rasmiy mehnat shartnomasi ulushi, o‘rtacha ish haqi, kasbiy tayyorlashdan keyingi ishga joylashish darajasi va qayta ko‘chish holatlari muntazam monitoring qilinishi mumkin. Kelgusida ushbu ko‘rsatkichlar asosida hududlar kesimida panel ma’lumotlar yoki difference-in-differences usuli yordamida dasturlar samaradorligini baholash mumkin.

Xulosa. Ichki migratsiya va yoshlar ishsizligi O‘zbekiston uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan demografik va mehnat bozori masalalaridir. 2025-yilda O‘zbekistonda hududlararo ko‘chib kelganlar 252,8 ming, ko‘chib ketganlar 261,8 ming kishini tashkil etgani, 14–30 yoshdagi yoshlar soni esa 9,63 mln kishiga yetgani mehnat resurslarining hududiy harakatchanligi va yoshlar bandligi masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi [1; 2; 3]. Turkiyada esa 2025-yilda 2,475 mln kishi viloyatlararo ko‘chgan va yoshlar ishsizligi 15,3 foizni tashkil etgan [6; 8].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ichki migratsiyani faqat demografik jarayon sifatida emas, balki mehnat resurslarini hududiy taqsimlash mexanizmi sifatida ko‘rish zarur. O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalishlar — yosh migrantlarni vakansiyalar bilan tezkor bog‘lash, kasbiy ko‘nikmalarini hududiy talabga moslashtirish, ish beruvchilarga vaqtinchalik va natijaga bog‘langan rag‘batlar berish hamda migratsiya va bandlik ma’lumotlarini yagona raqamli tizimga integratsiya qilishdir. Turkiya tajribasi moliyaviy rag‘batlarni rasmiy bandlik va kasbiy tayyorlash bilan birlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonda yoshlarning ichki mehnat mobilligidan samaraliroq foydalanish va yoshlar ishsizligi bilan bog‘liq nomuvofiqliklarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘chib kelganlar soni — SIAT, 2025-yil ma’lumotlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘chib ketganlar — SIAT, 2025-yil ma’lumotlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda yoshlar soni, 4-avgust 2025.

4. World Bank, World Development Indicators. Youth unemployment rate for Uzbekistan, 15–24 age group, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 20–24 yoshdagi band aholi soni — SIAT, 2025.

6. TurkStat. Internal Migration Statistics — 2025. Data Portal, 14 July 2026.

7. TurkStat. Youth in Statistics 2024. Youth unemployment and employment indicators, 2024.

THE IMPACT OF EXTERNAL LABOUR MIGRATION ON HOUSEHOLD INCOMES IN UZBEKISTAN

Eshtilovova Dilnavoz Dilshod qizi
Tashkent State University of Economics
dilhummuh3@gmail.com

External labour migration has become an important household income strategy in Uzbekistan. This article examines how migration affects household monetary resources through remittances, employment opportunities and changes in expenditure and investment behaviour. The study combines official statistics from the National Statistics Committee and the Central Bank of Uzbekistan with evidence from peer-reviewed studies indexed in Google Scholar.

The descriptive evidence shows that cross-border remittances increased from USD 11.4 billion in 2023 to USD 14.8 billion in 2024 and USD 18.9 billion in 2025, while the share of transfers in the structure of population income rose from 27.1% in 2023 to 28.6% in 2024 and 29.6% in 2025. At the same time, real total household income continued to grow. Micro-level research finds that migration and remittances improve monetary welfare and reduce poverty risks, but remittance-receiving households also tend to allocate a relatively larger share of expenditure to non-food consumption, while investment in family businesses requires additional income or savings. The article concludes that migration generates substantial short- and medium-term income gains, but the long-term development effect depends on whether remittances are transformed into human capital, productive assets and sustainable domestic employment.

The importance of this channel has increased with the expansion and diversification of migration. Central Bank data show that cross-border remittances to Uzbekistan reached USD 14.8 billion in 2024, 30% more than in 2023, and USD 18.9 billion in 2025, another 28% increase. The Central Bank also reports that strong wage growth and remittances contributed to an 8.1% increase in real household income in 2024 [1; 2]. Thus, external migration is no longer only a labour-market phenomenon; it is also an important component of household financial resilience.

The central research question is: to what extent does external labour migration affect household income in Uzbekistan, and through which channels does this effect operate? The article focuses on four channels: (1) direct remittance income; (2) poverty and welfare effects; (3) changes in household expenditure patterns; and (4) the possibility of transforming remittances into productive investment. The analysis is descriptive and literature-based rather than a new causal econometric estimation. This distinction is important because aggregate remittance growth cannot, by itself, prove that every household receiving remittances experiences the same income gain.

International research generally treats remittances as a private transfer that can relax household liquidity constraints. Adams (2011) emphasizes that household surveys are especially useful for evaluating how remittances change consumption and investment decisions [3]. For Uzbekistan, Seitz (2019) uses panel evidence from the Listening to the Citizens of Uzbekistan study and finds that actual migration is associated with improvements in labour-market outcomes and household welfare. His

counterfactual estimates indicate that, in the absence of remittance income, the poverty rate at the then-used USD 3.2-per-day PPP threshold would have been expected to rise from 9.6% to 16.8% [4]. This provides strong evidence that remittances are an important buffer for vulnerable households.

Kakhkharov, Ahunov, Parpiev and Wolfson (2021) directly examine Uzbekistan using instrumental-variable methods to address self-selection. Their results show that remittance-receiving households spend a smaller share of their budgets on food and health and a larger share on non-food consumption; the estimated effect on education expenditure is insignificant [5]. This finding suggests that the income effect of migration is not limited to basic subsistence. Once households receive external income, their expenditure structure may shift toward goods and services with higher income elasticity.

Another study by Kakhkharov and Ahunov (2022), based on nationally representative survey data and propensity-score matching, finds that remittance-recipient households spend a smaller share of their budgets on wedding ceremonies and a larger share on other non-food items [6]. The result is relevant for the income question because it shows that remittances may change the composition of welfare, not simply the total amount of money available.

Finally, Kakhkharov (2019) studies remittances as a source of entrepreneurship finance in Uzbekistan. The evidence suggests that households receiving remittances invest in family business mainly when the inflow is supplemented by sufficient income or savings; financial constraints therefore remain important, especially in rural areas [7]. This is a key qualification: higher household income from migration does not automatically become productive investment.

The empirical part of this article uses secondary data from the National Statistics Committee of Uzbekistan and the Central Bank of Uzbekistan. The principal indicators are: total population income, real total income, per-capita income, the share of transfers in total income, and cross-border remittance inflows. The latest annual statistical series cover 2010–2025, with 2025 reported as preliminary data in the relevant statistical database [8; 9].

To complement the aggregate statistics, the article uses peer-reviewed academic research on Uzbek households. These studies apply different identification strategies, including panel analysis, instrumental variables and propensity-score matching. Because the present article does not have access to the underlying microdata, it does not claim to reproduce their causal coefficients. Instead, their findings are used to interpret the mechanisms behind the observed aggregate trends.

The official income series show a substantial increase in the nominal total income of Uzbekistan's population. Total income rose from UZS 441.2 trillion in 2020 to UZS 1,134.3 trillion in 2025. Over the same period, real total income increased from UZS 390.7 trillion to UZS 1,042.4 trillion in the statistical series. Per-capita total income rose from UZS 12.89 million in 2020 to UZS 29.94 million in 2025 [8; 10]. These changes reflect multiple factors, including wages, self-employment, property income, transfers and domestic economic growth; therefore, they should not be attributed to migration alone.

Table 1.

Dynamics of population income and the role of transfers in Uzbekistan, 2020–2025.

Year	Total income, UZS trln	Real total income, UZS trln	Per-capita income, UZS mln	Transfers share, %
2020	441.2	390.7	12.89	23.1
2021	550.7	496.9	15.77	24.7
2022	667.4	598.9	18.72	28.3
2023	779.1	708.5	21.40	27.1
2024	954.3	870.4	25.67	28.6
2025*	1,134.3	1,042.4	29.94	29.6

Source: *National Statistics Committee of Uzbekistan, SIAT official statistical database. *2025 data are preliminary [8; 9].*

The transfer share increased from 23.1% in 2020 to 29.6% in 2025, an increase of 6.5 percentage points. The pattern is consistent with the growing importance of transfers in household income. The National Statistics Committee reported that transfers accounted for 27.8% of total population income in January–June 2024, while labour income accounted for 60.6% [11]. The Central Bank's 2024 annual report similarly notes that transfers represented about 26% of household income and that international remittances constituted the bulk of transfers [2]. Differences between the annual and first-half figures are consistent with changes in the composition of income during the year and with differences in statistical aggregation.

Remittance inflows provide the most direct observable link between external labour migration and household financial resources. The Central Bank reports USD 11.4 billion in remittances in 2023, USD 14.8 billion in 2024, and USD 18.9 billion in 2025. The 2024 increase was USD 3.4 billion, while the 2025 increase was USD 4.1 billion [1; 2; 12].

Table 2.

Cross-border remittance inflows to Uzbekistan.

Year	Remittance inflow, USD bln	Year-on-year change	Main observation
2022	—	—	Exceptional increase; Jan–Sep inflow reached USD 12.6 bln
2023	11.4	-32.9%	Returned toward medium-term trend after 2022 spike
2024	14.8	+30.0%	Strong recovery and higher-income migration destinations
2025	18.9	+28.0%	Further growth; geography of migration continued to diversify
2026 H1	9.3	+13.0% y/y	Inflows remained strong in January–June 2026

Source: *Central Bank of Uzbekistan. The 2022 figure is not directly comparable with the full-year figures because the cited CBU source reports January–September 2022; 2026 H1 is a half-year observation [1; 12; 13].*

The income mechanism can be summarized as follows. A migrant exchanges domestic labour income for a higher foreign wage; part of the wage is transferred to the household; the household then allocates the transfer between current consumption, savings, housing, education, health and productive investment. The income effect is therefore strongest when remittances are regular and when receiving households have relatively limited domestic earning opportunities.

The 2025 payment structure also illustrates the increasing financial accessibility of remittances. According to the Central Bank, 52% of funds received by individuals in 2025—USD 9.9 billion—were transferred through traditional international money transfer systems, 2% through bank transfers, and 46%—USD 8.6 billion—through direct P2P transfers to bank cards [1]. The growing role of P2P channels can reduce transaction frictions and may make household income support faster and more predictable.

The strongest micro-level evidence comes from Seitz (2019). Using panel data, the study finds that migration is associated with recovery in both subjective and monetary measures of household welfare. Most importantly for income distribution, the counterfactual without remittances implies a rise in poverty from 9.6% to 16.8% under the study's USD 3.2/day PPP poverty line [4]. The difference of 7.2 percentage points can be interpreted as an estimate of the protective role of remittance income under the study's specific assumptions and period; it should not be mechanically applied to today's poverty rate.

This result is consistent with the broader income statistics. As transfers became a larger component of population income, real total income also increased. However, the relationship is not one-to-one. Household income depends on domestic wages, self-employment, property income, social transfers, prices and demographic factors in addition to migration.

Table 3.

Counterfactual poverty estimates from the Uzbekistan household-well-being study.

Indicator	Value	Interpretation
Poverty rate without remittances (Seitz counterfactual)	16.8%	Estimated poverty rate if remittance income were absent
Observed/estimated poverty rate with remittances in study	9.6%	Difference indicates strong poverty-buffering role
Difference	7.2 percentage points	Approximate protective effect in the study's counterfactual
Alternative local-employment counterfactual	12.2%	Assumes all current migrants find formal work at local median wage

Source: *Seitz (2019), World Bank, International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan [4].*

Income growth affects welfare through spending decisions. Kakhkharov et al. (2021) find that remittance-receiving Uzbek households devote a significantly smaller share of their budgets to food and health and a larger share to non-food

consumption. The estimated effect on education expenditure is insignificant [5]. This pattern is compatible with an income effect: as households move away from subsistence constraints, the marginal share spent on food can fall while demand for non-food goods and services rises.

Kakhkharov and Ahunov (2022) provide a related result using nationally representative data from 1,500 households. Remittance-receiving households spend a smaller budget share on wedding ceremonies and a greater share on other large non-food items [6]. This is important because it challenges the simple assumption that remittances necessarily finance conspicuous consumption. Instead, recipient households may reallocate resources toward broader forms of consumption.

Table 4.

Main channels through which external labour migration affects household income and welfare.

Channel	Evidence for Uzbekistan	Income implication	Policy concern
Remittance income	USD 14.8 bln in 2024; USD 18.9 bln in 2025	Raises household cash resources and resilience	Dependence on external labour markets
Poverty protection	Counterfactual poverty 9.6% → 16.8% without remittances	Strong protective effect for vulnerable households	Exposure to migration shocks
Consumption	Lower food/health budget share; higher non-food share among recipients	Higher effective living standard and consumption diversification	Risk of short-term consumption dominance
Entrepreneurship	Business investment occurs mainly with additional income/savings	Can create productive assets and jobs	Liquidity constraints, especially rural
Financial access	46% of 2025 inflows via P2P bank-card transfers	Faster and potentially lower-friction household support	Need for financial literacy and safe formal channels

Source: *author's synthesis based on Central Bank statistics and peer-reviewed studies [1; 4–7].*

At the same time, remittances do not automatically become productive capital. Kakhkharov (2019) finds that households receiving remittances invest in family businesses mainly when the inflow is complemented by sufficient income or savings [7]. This suggests that liquidity constraints remain a binding limitation.

A household may therefore experience a clear income improvement while still being unable to finance a larger enterprise.

The evidence supports a positive short- and medium-term relationship between external labour migration and household income in Uzbekistan. The most visible mechanism is the inflow of foreign earnings.

The fact that transfers accounted for 29.6% of population income in the 2025 statistical series indicates that transfer income has become a structurally important part of household resources [9]. At the same time, the Central Bank's evidence that remittances contributed to real household income growth in 2024 provides a direct macro-level link between migration-related inflows and income dynamics [2].

Nevertheless, three limitations should be emphasized. First, aggregate remittances are not identical to migrant household income: some transfers may be received by households with several migrants, while others may be saved or used for debt repayment. Second, migration can generate opportunity costs when household members leave domestic employment or education. Abdulloev, Epstein and Gang (2020) find evidence of a 'forsaken schooling' phenomenon in Uzbekistan and neighbouring migrant-sending countries, where young people may forgo additional schooling because of opportunities for relatively high-paying low-skilled jobs abroad [14]. Third, the sustainability of household income can be vulnerable to changes in destination-country wages, exchange rates, migration policy and labour demand.

References:

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). Review of International Migration and Individuals' Foreign Exchange Operations, March 2026. Tashkent. https://cbu.uz/en/press_center/releases/3611322/

2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Annual Report 2024. Tashkent. https://cbu.uz/

3. Adams, R. H. (2011). Evaluating the economic impact of international remittances on developing countries using household surveys: A literature review. Journal of Development Studies, 47(6), 809–828. https://doi.org/10.1080/00220388.2011.563299

4. Seitz, W. H. (2019). International Migration and Household Well-Being: Evidence from Uzbekistan. World Bank, Poverty & Equity Global Practice Working Paper 209. https://documents1.worldbank.org/curated/en/902731561151905908/pdf/International-Migration-and-Household-Well-Being-Evidence-from-Uzbekistan.pdf

5. Kakhkharov, J., Ahunov, M., Parpiev, Z., & Wolfson, I. (2021). South-South Migration: Remittances of Labour Migrants and Household Expenditures in Uzbekistan. International Migration, 59(5), 38–58. https://doi.org/10.1111/imig.12792

6. Kakhkharov, J., & Ahunov, M. (2022). Do migrant remittances affect household spending? Focus on wedding expenditures. Empirical Economics, 63(2), 979–1028. https://doi.org/10.1007/s00181-021-02163-8

7. Kakhkharov, J. (2019). Migrant Remittances as a Source of Financing for Entrepreneurship. International Migration, 57(5), 37–55. https://doi.org/10.1111/imig.12531

8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026). Total income of the population — SIAT official statistical database. https://siat.stat.uz/data/321/?lang=en

O‘ZBEKISTONDA ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASINING HUDUDIY BANDLIKKA TA’SIRI

Aytbayeva Jasmina Jenis qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
aytbayevajasmina5218@gmail.com

Ish qidirib boshqa viloyatga ko‘chish bugun oddiy holga aylandi. Odamlar Qashqadaryodan Toshkentga, Surxondaryodan Samarqandga yoki Buxorodan poytaxt atrofidagi qurilishlarga borib ishlaydi. Bu jarayon hududlar bandligiga bevosita ta’sir qiladi: bir joyda ishchi kuchi yetishmay qoladi, boshqa joyda esa ish topolmaydiganlar ko‘payadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish uchun hududlarda munosib ish o‘rinlari yaratish va viloyatlar o‘rtasidagi farqni kamaytirish kerak [1]. Shu sababli ichki migratsiya hududiy bandlikka qanday ta’sir qilayotganini o‘rganish muhim.

Bu mavzuga oid tadqiqotlar bor. Ahunov va hammualliflar uy xo‘jaliklari so‘rovi asosida oilaning moliyaviy qiyinchiliklari, ayniqsa oziq-ovqatdan tashqari va sog‘liqqa ketadigan xarajatlar odamni ko‘chishga undashini ko‘rsatgan [2]. Boshqa bir tadqiqotda migratsiya qishloqdagi ishsizlikni kamaytirishi, lekin shu bilan birga yosh va malakali kadrlarning ketishiga ham sabab bo‘lishi aytilgan [3]. Lekin bu ishlarda ko‘proq tashqi migratsiya yoritiladi. Viloyatlar o‘rtasidagi ko‘chish bandlikka qanday ta’sir qilishi esa kamroq o‘rganilgan.

Odamlar nega ko‘chadi? Odatda ikki narsa sabab bo‘ladi: joyida daromad va ish yetishmasligi (“itarish” omili) hamda boshqa joyda yaxshiroq ish va sharoit borligi (“tortish” omili). Hududlar o‘rtasidagi farq qancha katta bo‘lsa, odamlar shuncha ko‘proq daromadi yuqori joyga intiladi. Ammo bunda ba’zi hududlar yutadi, ba’zilari yo‘qotadi. Shu sababli masalani umumiy raqamlar bilan emas, har bir hudud misolida ko‘rish kerak.

Tahlilda Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil yanvar–iyun oylari uchun rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi [4; 5]. Rasmiy statistika ko‘chishning sababini (ish yoki boshqa) alohida ko‘rsatmaydi. Shuning uchun viloyatlar o‘rtasidagi ko‘chish ichki mehnat migratsiyasining taxminiy ko‘rsatkichi sifatida olindi. Natijalar 1-jadvalda berilgan.

Jadvalga qarasak, 14 ta hududdan faqat ikkitasi odam yutgan: Toshkent shahri (+13 548 kishi) va Toshkent viloyati (+9 415 kishi). Qolgan hududlarda ketganlar kelganlardan ko‘p. Eng ko‘p odam yo‘qotgan hududlar Qashqadaryo (−4 666), Surxondaryo (−3 002) va Samarqand (−2 925). Poytaxt hududlarida mamlakat aholisining taxminan oltidan biri yashaydi, lekin viloyatlararo ko‘chib kelganlarning deyarli yarmi shu yerga borgan. Yana bir qiziq holat: Toshkent shahridan ham 49 863 kishi ketgan. Ya’ni odamlar har tomonga ko‘chmoqda, lekin oxirida poytaxt ko‘proq yutadi.

Hududlarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, odam qabul qiladigan Toshkent shahri va viloyati. Ikkinchisi, ko‘p odam chiqib ketayotgan Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Jizzax va Xorazm. Bu

yerda ishlashga layoqatli odamlarning ketishi mahalliy mehnat bozoriga sezilarli ta’sir qiladi.

1-jadval.

Viloyatlararo ko‘chish saldosi (2026-yil yanvar–iyun)

Hudud	Ko‘chib kelganlar, kishi	Ko‘chib ketganlar, kishi	Saldo, kishi
Toshkent shahri	63 411	49 863	**+13 548**
Toshkent viloyati	26 862	17 447	**+9 415**
Qoraqalpog‘iston R.	7 979	8 432	**–453**
Navoiy	9 853	10 401	**–548**
Sirdaryo	5 030	5 861	**–831**
Andijon	7 169	8 507	**–1 338**
Farg‘ona	10 656	12 019	**–1 363**
Jizzax	5 503	7 127	**–1 624**
Namangan	3 630	5 348	**–1 718**
Xorazm	8 620	10 533	**–1 913**
Buxoro	7 872	10 454	**–2 582**
Samarqand	10 242	13 167	**–2 925**
Surxondaryo	7 350	10 352	**–3 002**
Qashqadaryo	9 744	14 410	**–4 666**
Jami	**183 921**	**183 921**	**0**

Manba: *Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.*

Uchinchisi, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo, Navoiy va Qoraqalpog‘iston. Bu hududlarda ketish ham, kelish ham nisbatan kichik, ehtimol, mahalliy mehnat bozori o‘z aholisini ko‘proq ish bilan ta’minlayotgani uchundir.

Odamlarning poytaxtga intilishida daromad farqi katta rol o‘ynaydi. 2026-yil yanvar–iyun oylarida aholi jon boshiga daromad Toshkent shahrida 45 155,2 ming so‘m bo‘lgan, Surxondaryoda 10 908,6 ming so‘m, Qashqadaryoda 12 546,5 ming so‘m. Ya’ni farq bir necha barobar. Daromadning manbasi ham boshqacha: poytaxtda daromadning 53,0 foizi ish haqidan keladi, Qashqadaryo va Samarqandda esa bu ulush atigi 17 foiz atrofida. Ko‘p viloyatlarda odamlar o‘z ishi, kichik tadbirkorlik va chet eldan kelgan pul o‘tkazmalariga tayanadi. Demak, doimiy ish haqi beradigan rasmiy ish o‘rinlari ko‘proq poytaxtda to‘plangan. Istisnolar ham bor: Navoiyda ish haqi ulushi yuqori bo‘lsa ham odam ketmoqda, Toshkent viloyatida esa daromad respublika o‘rtachasidan past bo‘lsa ham odam kelmoqda. Buni poytaxtga yaqinlik bilan izohlash mumkin, ya’ni odamlar Toshkentda ishlab, atrofda yashaydi. Lekin buni alohida tekshirish kerak.

Bu holat bandlikka uch xil ta’sir qiladi. Birinchidan, odam ko‘p keladigan hududlarda ish o‘rni ko‘p bo‘lsa ham, ishlamoqchilar soni tezroq o‘sadi. Natijada qurilish, savdo va xizmat sohalarida norasmiy ish ko‘payishi, uy-joy ijarasi va transport bosimi oshishi mumkin. Ikkinchidan, odam ketayotgan hududlarda yoshlar kamayadi va kichik biznes xodim topishda qiynaladi. Lekin ishsizlik bosimi biroz yengillashadi, oilalarga esa pul o‘tkazmalari keladi. Uchinchidan, migrantlar ko‘pincha mutaxassisligi bo‘yicha emas, topilgan ish bo‘yicha ketadi.

Bu ularning bilim va koʻnikmalaridan toʻliq foydalanilmasligiga olib kelishi mumkin.

Aholi oʻsishi ham muhim omil. 2026-yil 1-iyul holatiga mamlakat aholisi 38 519,5 ming kishiga yetib, bir yilda 1,7 foizga oʻsgan. Eng tez oʻsayotgan hududlar qatorida Surxondaryo (2,1 foiz) va Qashqadaryo (2,0 foiz) bor, aynan shu viloyatlardan eng koʻp odam chiqib ketmoqda. Bu tasodif boʻlmasligi mumkin: har yili mehnat bozoriga yangi yoshlar kirib keladi, hududda esa ularning hammasiga ish yetmasa, ular boshqa joydan ish izlaydi. Bu fikr hozircha faraz boʻlib, qoʻshimcha tekshiruv talab qiladi.

Ichki koʻchish bilan birga xorijga ketish ham kuzatilmoqda, lekin uning koʻlami ancha kichik. 2026-yil yanvar–iyun oylarida doimiy yashash uchun xorijga 5 422 kishi ketgan, 1 649 kishi qaytgan. Ichki koʻchganlar soni (183 921 kishi) esa bundan oʻttiz baravardan koʻp. Xorijga ketish eng koʻp Qoraqalpogʻiston (1 899 kishi), Toshkent viloyati (1 431 kishi) va Navoiyda (1 203 kishi) qayd etildi. Demak, hududiy bandlik muammosini hal qilishda birinchi navbatda ichki migratsiyaga e’tibor berish kerak.

Tahlilning cheklovlari ham bor. Rasmiy roʻyxatga asoslangan statistika mavsumiy, vaqtinchalik yoki har kuni boshqa joyga qatnab ishlashni toʻliq koʻrsatmasligi mumkin, holbuki aynan shunday ishchilar koʻpincha norasmiy ishlaydi. Bundan tashqari, koʻchib kelganlarning hammasi ish uchun kelmaydi, ba’zilari oʻqish yoki oilaviy sabab bilan koʻchadi. Shuning uchun xulosalar yoʻnalishni koʻrsatadi, aniq hisob emas. Ularni mehnat bozori soʻrovlari va aholi roʻyxatga olish natijalari bilan toʻldirish kerak.

Raqamli toʻlov tizimlari ichki migratsiyani kuzatishga ham yordam berishi mumkin. Migrantlar oilasiga yuboradigan pullar anonim va jamlangan holda hududlar oʻrtasidagi pul harakatini koʻrsatadi va rasmiy statistikani toʻldiradi. Bunday ma’lumotlar daromadi rasmiy boʻlmagan odamlarga mikroqarz berishda ham foydali boʻlishi mumkin.

Migratsiyani toʻxtatish emas, uni tartibga solish toʻgʻriroq yoʻl. Migratsiya ishchi kuchi taklifini muvozanatlashning tabiiy usuli, lekin u faqat bir tomonga kuchaysa, poytaxtda infratuzilmaga, boshqa hududlarda ishlab chiqarishga bosim tushadi. Shuning uchun mehnat bozori, ta’lim va moliya siyosatini hududlar boʻyicha birga olib borish kerak.

Tadqiqot natijalariga koʻra quyidagi takliflar beriladi:

1. Odam ketayotgan hududlarda (Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Jizzax) kichik biznes va xizmat sohasini mikromoliya va imtiyozli kreditlar bilan qoʻllab-quvvatlash.

2. Hududlardagi boʻsh ish oʻrinlari va ish izlovchilar haqidagi ma’lumotni yagona raqamli platformada jamlash.

3. Ichki migrantlarni rasmiylashtirishni osonlashtirish: vaqtincha roʻyxatga olish, mehnat shartnomasi va ijtimoiy sugʻurtani onlayn yoʻlga qoʻyish.

4. Kasb-hunar ta’limini hududdagi real talabga moslashtirish, mutaxassislar oʻz hududida ish topishini ta’minlash.

5. Pul oʻtkazmalarining bir qismini raqamli omonat va mikroinvestitsiya orqali mahalliy iqtisodiyotga yoʻnaltirish; ichki migratsiyani koʻchish sababi

bo‘yicha alohida hisobga olish va 2027-yilda yakunlanadigan aholi ro‘yxatga olish natijalaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, ichki mehnat migratsiyasining o‘zi na yaxshi, na yomon. Muammo oqimning asosan bir tomonga, ya’ni poytaxt hududlariga yo‘nalishida. Toshkentda bandlik bosimi oshadi, boshqa hududlar esa yosh ishchi kuchini yo‘qotadi. Shuning uchun siyosatning maqsadi odamni ushlab turish emas, unga o‘z hududida ham munosib ish tanlovini berishdir.

Adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. Lex.uz.

2. Ahunov, M., Kakhkharov, J., Parpiev, Z., & Wolfson, I. (2015). Socio-economic consequences of labor migration in Uzbekistan. Griffith University, Working Paper 2015-07.

3. Interrelation of Migration and Employment Issues in Economics of New Uzbekistan Policy. (2024). E3S Web of Conferences, 491, 02031. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449102031

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida demografik holat: 2026-yil yanvar–iyun. Press-reliz, 24.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/q2-2026-lotin.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari: 2026-yil yanvar–iyun (dastlabki ma’lumot). Press-reliz, 28.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/aoli-umumij-daromadlari_lotin_p56340.pdf

YOSHLAR MIGRATSIYASI VA O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORINING KELAJAKDAGI TRANSFORMATSIYASI

Sattorova Mohinur Baxtiyor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mohinur.sattorova.student.tsue@gmail.com

O‘zbekiston demografik jihatdan yosh mamlakatlardan biri bo‘lib, mehnat bozoriga har yili katta miqdordagi yangi ishchi kuchi kirib keladi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatda 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 nafarni, ya’ni aholining 25,7 foizini tashkil etgan [1]. Mehnatga layoqatli aholining yillik sof o‘sishi qariyb 250 ming kishiga baholanmoqda, so‘nggi besh yilda esa ish o‘rinlari yiliga o‘rtacha atigi 1,1 foizga ko‘paygan [1]. Ushbu nomutanosiblik yoshlarning bir qismini xorijiy mehnat bozorlariga yo‘naltiruvchi asosiy omillardan biridir.

Yoshlar migratsiyasi mehnat bozoriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u ichki bozordagi ishsizlik bosimini yumshatadi, pul o‘tkazmalari orqali uy xo‘jaliklari daromadini oshiradi va yoshlarga xorijiy tajriba hamda til ko‘nikmalarini egallash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, malakali va faol yoshlarning uzoq muddat chet elda qolishi “miya oqimi”, ayrim hududlarda ishchi kuchi taqchilligi va ichki iqtisodiyotning pul o‘tkazmalariga haddan tashqari bog‘liqligi xavfini kuchaytiradi. Shu sababli yoshlar migratsiyasini faqat “chiqib ketish” jarayoni sifatida emas, balki mehnat bozorining kelajakdagi tuzilmasini shakllantiruvchi omil sifatida o‘rganish dolzarbdir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi inson kapitalini rivojlantirish va o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘ygan [2]. 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmon esa tashkillashtirilgan migratsiyaga ketuvchilar xarajatlarini qoplash, huquqiy yordam ko‘rsatish va qaytgan migrantlarni ishga olgan ish beruvchilarni rag‘batlantirish kabi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etdi [3]. Mazkur hujjatlar yoshlar migratsiyasini boshqarishni mehnat bozori transformatsiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish uchun huquqiy asos yaratadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Yoshlar migratsiyasining mehnat bozoriga ta’siri uchta o‘lchamda ko‘rib chiqildi: demografik-bandlik o‘lchami (ishchi kuchi taklifi va ish o‘rinlari o‘rtasidagi nisbat), inson kapitali o‘lchami (ko‘nikmalar, ta’lim va malakaning mosligi) hamda moliyaviy-institutsional o‘lcham (pul o‘tkazmalari, tashkillashtirilgan migratsiya va davlat dasturlari).

Rasmiy ma’lumotlar yoshlarning migratsiya oqimidagi salmog‘i yuqoriligini ko‘rsatadi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-sentyabr holatida xorijda 2 118 000 nafar O‘zbekiston fuqarosi mehnat qilgan, ulardan 33,2 foizi, ya’ni 703 176 nafari yoshlar bo‘lgan [1]. Ichki bozorda esa yoshlar bandligi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda: XMT modellashtirilgan baholariga ko‘ra, 15–24 yoshlilar orasida ishsizlik 2020-yildagi 12,8 foizdan 2025-yilda 11,4 foizga pasaygan bo‘lsa-da, umumiy ishsizlik darajasidan (4,6 foiz) ancha yuqori [1]. Jahon banki baholashicha, 16–29 yoshdagi yoshlarning 26,4 foizi na ishlaydi, na o‘qiydi (NEET). Bandlik vaziri ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda oliy ta’lim bitiruvchilarining 59 foizi o‘qishni tugatgach darhol ish topa olmagan [1].

Bu ko‘rsatkichlar yoshlar migratsiyasining asosiy sababi ish o‘rinlarining umuman yo‘qligi emas, balki ta’lim tizimi va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlik ekanini ko‘rsatadi. Ish tajribasiz bitiruvchilar ko‘pincha xorijda past malakali ishlarga jalb etiladi, yoshlarning katta qismi esa norasmiy sektorda band bo‘lib, ijtimoiy himoyadan chetda qolmoqda [1].

Migratsiyaning moliyaviy ta’siri ham sezilarli. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, pul o‘tkazmalarining YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 10,7 foizdan 2024-yilda 14,4 foizga oshgan [1]. Markaziy bank sharhiga ko‘ra, 2025-yilning to‘rtinchi choragida pul o‘tkazmalari 5 mlrd dollarni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 39,8 foizga o‘sgan [4]. Pul o‘tkazmalarining bunday yuqori ulushi iste’molni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq ularning asosiy qismi investitsiyaga emas, joriy xarajatlarga yo‘naltirilsa, mehnat bozorida sifat o‘zgarishlar sekinlashadi.

Transformatsiyaning muhim belgisi — migratsiya yo‘nalishlarining diversifikatsiyasidir. 2025-yilning birinchi yarmida 86 300 nafar fuqaro xorijda rasmiy ishga joylashtirilgan bo‘lib, eng katta o‘sish Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyada qayd etilgan [5]. Janubiy Koreyadagi O‘zbekiston fuqarolari soni 98,9 mingga yetgan, Turkiyada esa berilgan yashash ruxsatnomalari 10,7 foizga oshib, 64,1 mingni tashkil etgan [4]. Yaponiya bilan besh yil davomida 10 ming fuqaroni ishga joylashtirish, Italiya bilan esa 2026-yildan 1 500 kvota ajratish kelishilgan [5]. Bu yo‘nalishlar til bilish,

kasbiy sertifikat va yuqori malakani talab qiladi, ya’ni yoshlar migratsiyasi tobora “malakaga asoslangan” tusga kirmoqda.

Natijada O‘zbekiston mehnat bozori uch yo‘nalishda o‘zgarishi kutilmoqda. Birinchidan, kasbiy ta’lim va til o‘qitish xorijiy hamda ichki talabga moslashadi, chunki yuqori daromadli migratsiya va ichki zamonaviy sektorlar bir xil ko‘nikmalarni talab qiladi. Ikkinchidan, xorijda tajriba orttirib qaytgan yoshlar ichki bozorga yangi texnologik va boshqaruv bilimlarini olib kiradi. Uchinchidan, raqamli platformalar orqali masofaviy va xalqaro ishlash imkoniyatlari ortib, jismoniy migratsiyaning bir qismi “raqamli migratsiya” bilan almashadi.

Quyidagi jadval yoshlar migratsiyasining mehnat bozoriga ta’sirini va kelajakdagi transformatsiya yo‘nalishlarini tizimlashtiradi.

1-jadval.

Yoshlar migratsiyasi va O‘zbekiston mehnat bozori transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Hozirgi holat	Asosiy xavf	Transformatsiya vektori
Demografiya va bandlik	Yiliga ~250 ming yangi ishchi kuchi, ish o‘rinlari sekin o‘smoqda	Yoshlar ishsizligi va norasmiy bandlik	Xususiy sektorda sifatli ish o‘rinlari yaratish
Ta’lim va malaka	Bitiruvchilarning 59 foizi darhol ish topa olmaydi	Ko‘nikmalar nomuvofiqligi	Talabga asoslangan kasbiy ta’lim va til o‘qitish
Migratsiya yo‘nalishlari	Rossiyadan YeI, Koreya, Yaponiyaga diversifikatsiya	Past malakali ishlarga bog‘liqlik	Malakaga asoslangan, tashkillashtirilgan migratsiya
Pul o‘tkazmalari	YaIMning 14,4 foizi (2024)	Iste’molga bog‘liq iqtisodiyot	O‘tkazmalarni investitsiya va tadbirkorlikka yo‘naltirish
Inson kapitali	Yoshlar migrantlarning 33,2 foizini tashkil etadi	“Miya oqimi”	“Miya aylanishi” va qaytgan yoshlarni jalb etish
Raqamli iqtisodiyot	Masofaviy va platformaviy ish rivojlanmoqda	Raqamli tafovut (shahar va qishloq)	Raqamli ko‘nikmalar va masofaviy eksport xizmatlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, yoshlar migratsiyasi mehnat bozori muammolarining sababi emas, balki ularning ko‘rsatkichidir. Shu sababli migratsiyani cheklash emas, balki uni boshqarish va ichki bozor bilan bog‘lash samaraliroq yondashuv hisoblanadi.

Birinchidan, mehnat bozori talablarini prognoz qilish tizimini joriy etish va kasbiy ta’lim dasturlarini ham ichki, ham xorijiy ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirish zarur. Ikkinchidan, yoshlar uchun xorijiy til va kasbiy sertifikatlash kurslarini, ayniqsa qishloq hududlarida, kengaytirish lozim. Uchinchidan, xorijda

ishlayotgan yoshlar bilan aloqani saqlash uchun raqamli platforma yaratib, ularni masofaviy loyihalar, mentorlik va investitsiya dasturlariga jalb etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, pul o‘tkazmalarini kichik biznes va ta’limga yo‘naltirish uchun maxsus omonat va kredit mahsulotlarini ishlab chiqish mumkin. Beshinchidan, qaytgan yosh migrantlarning xorijda olgan malakasini tan olish va ularni ishga qabul qiluvchi ish beruvchilarni rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish kerak. Oltinchidan, IT, raqamli xizmatlar va yashil iqtisodiyot kasblari bo‘yicha masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirib, jismoniy migratsiyaga muqobil yaratish lozim.

Yettinchidan, yoshlar migratsiyasi bo‘yicha yagona statistik bazani shakllantirish va bitiruvchilar hamda migrantlarning mehnat faoliyatini uzoq muddat kuzatib borish zarur. Mavjud ma’lumotlar asosan bir martalik kesimda yig‘ilgani sababli siyosat samaradorligini baholash qiyinlashmoqda [1].

Yoshlar migratsiyasi O‘zbekiston mehnat bozorining kelajakdagi transformatsiyasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Yoshlarning xorijga chiqishi ichki bozordagi bosimni kamaytirsa-da, uzoq muddatda inson kapitalining yo‘qotilishi va pul o‘tkazmalariga bog‘liqlik xavfini tug‘diradi. Shu bilan birga, migratsiya yo‘nalishlarining malakaga asoslangan bozorlarga diversifikatsiyasi yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, asosiy muammo migratsiyaning o‘zi emas, balki ta’lim, bandlik va migratsiya siyosatlari o‘rtasidagi uzilishdir. Ushbu siyosatlarni yagona tizimga birlashtirish yoshlarni xorijga ham, ichki bozorga ham raqobatbardosh qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda yoshlar migratsiyasini boshqarishning istiqbolli modeli “talabga asoslangan ta’lim – malakaga asoslangan migratsiya – tajriba va kapital to‘plash – qaytish yoki masofaviy hamkorlik – ichki bozorda innovatsiya va tadbirkorlik” zanjiri asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv “miya oqimi”ni “miya aylanishi”ga aylantirib, yoshlarni mamlakat iqtisodiy rivojining faol subyektiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Tureniyazova, A., Nurdinova, Sh. (2026). Uzbekistan: Active Labour Market Measures for Youth. Working paper. European Training Foundation (ETF), DARYA project. https://www.etf.europa.eu/sites/default/files/2026-07/Country%20Analysis%20ALMP_Uzbekistan_Final_EN.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “‘O‘zbekiston – 2030’ strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmon, 11-sentyabr 2023-yil. https://lex.uz/docs/6600404

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). “Mehnat migratsiyasi tizimini isloh qilish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son Farmon, 4-aprel 2024-yil.

4. Anhor.uz. (2026, 1-aprel). Денежные переводы мигрантов в Узбекистан выросли почти на 40% и достигли $5 млрд. https://anhor.uz/news/denezh/

5. Fergana Agency. (2025, 25-avgust). Uzbekistan Authorities Officially Employed 86,000 Citizens Abroad in Six Months. https://en.fergana.agency/news/139620/

ICHKI MIGRATSIYANING TOSHKENT SHAHRI MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI

Abduvaliyeva Zilola Abduboriy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
abduvalieva201@gmail.com

Toshkent shahri mamlakat mehnat bozorining markazi hisoblanadi. Respublika iqtisodiyotining katta qismi, yirik kompaniyalar, banklar va xizmat koʻrsatish sohasi shu yerda toʻplangan. Shuning uchun boshqa viloyatlardagi ishlamoqchi boʻlgan odamlarning koʻpi avvalo poytaxtga qaraydi. Ichki migratsiya shahar mehnat bozorini qanday oʻzgartirayotganini bilish “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida hududlarni muvozanatli rivojlantirish uchun ham kerak [1].

Mavzuga oid tadqiqotlarda migratsiyaning sabablari turlicha izohlangan. Ahunov va hammualliflar oilaning moliyaviy qiyinchiliklari, ayniqsa oziq-ovqatdan tashqari va sogʻliqqa ketadigan xarajatlar odamni koʻchishga undashini koʻrsatgan [2]. Boshqa bir tadqiqotda migratsiya qishloqdagi ishsizlikni yengillashtirishi, lekin yosh va malakali kadrlarning ketishiga ham olib kelishi aytilgan [3]. Koʻp ishlarda tashqi migratsiya yoritiladi. Ichki koʻchishning aynan poytaxt mehnat bozoriga ta’siri esa kamroq oʻrganilgan.

Maqolada Milliy statistika qoʻmitasining 2026-yil yanvar–iyun oylari uchun demografik holat, aholi daromadlari va ish haqi boʻyicha rasmiy ma’lumotlari ishlatildi [4; 5; 6]. Statistikada koʻchish sababi (ish yoki boshqa) alohida koʻrsatilmaydi, shuning uchun viloyatlararo koʻchish ichki mehnat migratsiyasining taxminiy koʻrsatkichi sifatida olindi. Toshkent shahri va respublika koʻrsatkichlari 1-jadvalda solishtirilgan.

Jadvalga koʻra, 2026-yil 1-iyulda Toshkent shahrida 3 212,2 ming kishi yashagan. Aholi bir yilda 2,1 foizga oʻsgan, bu respublika oʻrtachasidan (1,7 foiz) yuqori. Yanvar–iyun oylarida shaharga boshqa hududlardan 63 411 kishi koʻchib kelgan, 49 863 kishi chiqib ketgan. Farq +13 548 kishini tashkil etadi. Respublikadagi barcha viloyatlararo koʻchib kelganlarning uchdan biridan koʻpi aynan Toshkent shahriga borgan. Bir narsaga e’ibor bering: shahardan ketganlar ham juda koʻp. Demak, Toshkent mehnat bozori doimo yangilanib turadi: ba’zilar kelib ish topadi, ba’zilar shahardan chiqib, masalan, atrofdagi hududlarga oʻtadi.

Xalqaro koʻchish boʻyicha ham poytaxt yetakchi. Respublikaga xorijdan koʻchib kelgan 1 649 kishining 1 089 nafari, ya’ni uchdan ikki qismi Toshkent shahriga joylashgan. Shu bilan birga shahardan xorijga ketganlar soni kam (492 kishi), butun respublikada esa bu koʻrsatkich 5 422 kishi. Ya’ni Toshkent xorijga koʻp odam yoʻqotmaydi, aksincha, ichki va tashqi oqimlar birgalikda uni mehnat resurslari boʻyicha yutuvchi hududga aylantirmoqda.

Odamlar poytaxtga nega intiladi? Javob ish haqi va daromadda. 2026-yil yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida oʻrtacha oylik ish haqi 12 013,9 ming soʻmni tashkil etgan. Bu respublika oʻrtachasidan (7 091,1 ming soʻm) deyarli 1,7 baravar, Qashqadaryo (4 864,7 ming soʻm) va Surxondaryodan (4 937,3 ming soʻm) ikki baravardan koʻp yuqori. Daromad tuzilmasi ham boshqacha: shaharda

daromadning 53,0 foizi ish haqidan keladi, mustaqil bandlikdan esa faqat 10,4 foizi.

1-jadval.

Toshkent shahri va respublika ko‘rsatkichlari (2026-yil yanvar–iyun)

Ko‘rsatkich	Toshkent shahri	O‘zbekiston
Doimiy aholi soni (1-iyul holatiga), ming kishi	**3 212,2**	38 519,5
Aholi o‘sishi (o‘tgan yilga nisbatan), %	**102,1**	101,7
Viloyatlararo ko‘chib kelganlar, kishi	**63 411**	183 921
Viloyatlararo ko‘chib ketganlar, kishi	**49 863**	183 921
Xorijdan ko‘chib kelganlar, kishi	**1 089**	1 649
Xorijga ko‘chib ketganlar, kishi	**492**	5 422
O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m	**12 013,9**	7 091,1
Aholi jon boshiga daromad, ming so‘m	**45 155,2**	16 112,0
Daromadda ish haqi ulushi, %	**53,0**	29,3
Daromadda mustaqil bandlik ulushi, %	**10,4**	33,8
Daromadda xorijiy pul o‘tkazmalari ulushi, %	**13,7**	18,2
Daromadda kichik tadbirkorlik ulushi, %	**46,2**	57,6

Manba: *Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tuzgan.*

Respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkichlar 29,3 va 33,8 foiz. Ya’ni poytaxtda odamlar ko‘proq rasmiy yollanma ishda band, boshqa joylarda esa o‘z ishi va kichik tadbirkorlik ustun.

Poytaxt atrofidagi Toshkent viloyati alohida e’tiborga loyiq. Yanvar–iyun oylarida viloyatga 26 862 kishi ko‘chib kelgan, 17 447 kishi ketgan, ya’ni saldo +9 415 kishi. Viloyatda o‘rtacha ish haqi 6 675,7 ming so‘m bo‘lib, shahardagidan deyarli ikki baravar past. Shunga qaramay odamlar bu yerga kelmoqda. Ehtimol, ular Toshkent shahrida ishlab, narxlar pastroq bo‘lgan viloyat hududida yashashni afzal ko‘radi. Agar shunday bo‘lsa, poytaxt mehnat bozori rasmiy chegaralardan kengroq ekanini, ya’ni shahar va uning atrofi yagona mehnat bozori sifatida ishlayotganini ko‘rsatadi.

Ish haqining o‘sish sur’ati ham muhim. 2026-yil yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida ish haqi bir yil oldingiga nisbatan 18,2 foizga o‘sgan, respublika bo‘yicha 18,4 foizga. Jizzax (20,4 foiz) va Namangan (19,4 foiz) kabi ba’zi viloyatlarda o‘sish tezroq bo‘lgan. Biroq farq juda katta bo‘lgani uchun bunday o‘sish hududlar orasidagi tafovutni yaqin vaqtda yo‘qotmaydi. Demak, poytaxtga kelish sabablari yaqin yillarda ham saqlanib qolishi mumkin.

Soha kesimida farq yanada kattaroq. Respublika bo‘yicha bank va moliya sohasida o‘rtacha ish haqi 19 100,2 ming so‘m, axborot va aloqada 17 417,4 ming so‘m, tashish va saqlashda 11 070,0 ming so‘m. Qurilishda 7 027,9, savdoda 7 650,5, yashash va ovqatlanish xizmatlarida esa 5 189,6 ming so‘m. Bu raqamlar butun mamlakat bo‘yicha bo‘lsa-da, ular poytaxt mehnat bozorining ikki qatlami borligini ko‘rsatadi. Yuqori maosh beradigan moliya va axborot sohalari malakali

mutaxassislarni, past maoshli qurilish, savdo va xizmat sohalari esa koʻproq oddiy ishchilarni jalb qiladi. Bu fikr hozircha faraz boʻlib, aniq tekshiruvni talab qiladi.

Ish haqi statistikasining bir cheklovi bor: u kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xoʻjaligi korxonalarini qamrab olmaydi. Aynan shu joylarda migrantlar koʻpincha norasmiy ishlaydi. Shuning uchun ularning haqiqiy daromadi rasmiy koʻrsatkichlardan farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, koʻchib kelganlarning hammasi ish uchun kelmaydi, baʼzilari oʻqish yoki oilaviy sabab bilan koʻchadi. Shuning uchun xulosalar umumiy yoʻnalishni koʻrsatadi.

Ichki migratsiya Toshkent mehnat bozoriga bir necha yoʻl bilan taʼsir qiladi. Birinchidan, ishchi kuchi taklifi oshadi, bu ayniqsa qurilish, savdo va xizmatda ish haqi oʻsishini sekinlashtirishi mumkin. Ikkinchidan, norasmiy bandlik koʻpayishi, uy-joy ijarasi va transport xarajatlari oshishi ehtimoli bor. Uchinchidan, shahar malakali kadrlarni oʻziga tortadi, bu esa viloyatlarda mutaxassis yetishmasligini kuchaytiradi. Toʻrtinchidan, mehnat bozoriga yosh va mehnatga layoqatli odamlar kelgani shahar iqtisodiyoti uchun foydali, chunki ular yangi ish oʻrinlarini toʻldiradi va xizmatlarga talabni oshiradi.

Raqamli texnologiyalar bu jarayonni boshqarishga yordam berishi mumkin. Onlayn ish platformalari odamga koʻchishdan oldin qayerda va qanday ish borligini bilishga imkon beradi. Raqamli toʻlov tizimlari orqali yuboriladigan pul oʻtkazmalari anonim va jamlangan shaklda koʻchish oqimlarini kuzatishda statistikani toʻldirishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga koʻra quyidagi takliflar beriladi:

1. Viloyatlardagi boʻsh ish oʻrinlari va ish izlovchilar haqidagi maʼlumotni yagona raqamli platformada jamlash, shu orqali odam Toshkentga koʻchishdan oldin oʻz hududidagi imkoniyatlarni koʻra olishi.

2. Ichki migrantlarni rasmiylashtirishni osonlashtirish: vaqtincha roʻyxatga olish, mehnat shartnomasi va ijtimoiy sugʻurtani onlayn yoʻlga qoʻyish.

3. Axborot texnologiyalari va xizmat sohasida masofaviy ish usullarini kengaytirish, shunda mutaxassis viloyatda yashab, poytaxt kompaniyasi uchun ishlashi mumkin.

4. Toshkent viloyatida va boshqa hududlarda yangi ish oʻrinlari yaratish, shahar bilan qulay transport aloqasini yoʻlga qoʻyib, poytaxtdagi bosimni kamaytirish.

5. Ichki migratsiyani koʻchish sababi boʻyicha alohida hisobga olish va 2027-yilda yakunlanadigan aholi roʻyxatga olish natijalaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, ichki migratsiya Toshkent mehnat bozori uchun ham imkoniyat, ham bosim manbai. U shaharni ishchi kuchi bilan taʼminlaydi, ammo viloyatlardagi kadr tanqisligini kuchaytiradi va norasmiy bandlikni oshirishi mumkin. Shu sababli siyosat faqat poytaxtga qaratilmasdan, hududlarda ham munosib ish oʻrinlarini yaratishga yoʻnaltirilishi kerak.

Adabiyotlar :

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni. Lex.uz.

2. Ahunov, M., Kakhkharov, J., Parpiev, Z., & Wolfson, I. (2015). Socio-economic consequences of labor migration in Uzbekistan. Griffith University, Working Paper 2015-07.

3. Interrelation of Migration and Employment Issues in Economics of New Uzbekistan Policy. (2024). E3S Web of Conferences, 491, 02031. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449102031

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida demografik holat: 2026-yil yanvar–iyun. Press-reliz, 24.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/q2-2026-lotin.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari: 2026-yil yanvar–iyun (dastlabki ma’lumot). Press-reliz, 28.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/aoli-umumij-daromadlari_lotin_p56340.pdf

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi: 2026-yil yanvar–iyun (dastlabki ma’lumotlar). Press-reliz, 25.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/ish-haqi--lotin_p65872.pdf

ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASINING UY-JOY XARAJATLARIGA TA’SIRI

Mirdjalilova Shahrizoda Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shahrizoda612@gmail.com
Xamdamov Shohjaxon Raxmat o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
sh.xamdamov@tsue.uz

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Aholining ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan hududlarga harakatlanishi mehnat resurslaridan samarali foydalanish, bandlik darajasini oshirish va uy xo‘jaliklari daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasining farqlanishi, ish haqi va bandlik imkoniyatlarining bir xil emasligi ichki mehnat migratsiyasining asosiy omillaridan biridir.

Muhriddin va Mohinur tomonidan olib borilgan tadqiqotda mehnat migratsiyasi va uning aholi daromadlariga ta’siri masalasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, migratsiyaning iqtisodiy natijalari aholi farovonligi bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi [1]. Demografik o‘zgarishlarning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rgangan tadqiqotlarda esa aholi tarkibi va hududiy harakatchanlik iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan [2].

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotlarida ham ichki migratsiya va arzon uy-joy masalalari o‘zaro bog‘liq muammolar sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotda yuqori iqtisodiy faollikka ega shaharlarda uy-joy narxlarining yuqoriligi ichki mehnat mobilligiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri ekanligi qayd etilgan [6]. Demak, mehnat resurslarining hududlar o‘rtasida erkin harakatlanishini ta’minlash faqat ish o‘rinlari bilan emas, balki migrantlar uchun maqbul narxdagi uy-joy mavjudligi bilan ham bog‘liq.

Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda ichki mehnat migratsiyasining uy-joy xarajatlariga ta’sirini aniqlash hamda ushbu ta’sirni kamaytirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mehnat migratsiyasi, demografik

o‘zgarishlar, mehnat mobilligi va uy-joy bozori bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hamda rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanildi.

Ichki mehnat migratsiyasining uy-joy xarajatlariga ta’sirini shartli ravishda quyidagi bog‘liqlik orqali ifodalash mumkin: Uy-joy xarajatlari = ijara haqi + kommunal to‘lovlar + transport xarajatlari + uy-joy bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Ichki mehnat migratsiyasi va uy-joy xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Zokirov O‘zbekiston misolida pandemiyadan keyingi mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta’sirini baholar ekan, migratsiya jarayonlarining mehnat bozori va iqtisodiyotga ta’sirini alohida ko‘rib chiqadi [3]. Abdisalomovichning tadqiqotida ham pandemiyadan keyingi mehnat migratsiyasining iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan [4]. Ushbu tadqiqotlardan kelib chiqib, mehnat migratsiyasini faqat daromad olish jarayoni sifatida emas, balki migrantning yangi hududdagi xarajatlari bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rish mumkin.

Ichki migrant uchun uy-joy xarajatlarining oshishiga bir nechta omil ta’sir qiladi. Birinchidan, yangi hududda ijara uyiga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keladi. Ikkinchidan, ish joyiga yaqin uy topilmasa, transport xarajatlari ortadi. Uchinchidan, migrantning yolg‘iz yashashi holatida ijara va kommunal xarajatlarni boshqa oila a’zolari bilan bo‘lishish imkoniyati kamayadi.

1-jadval

Ichki mehnat migratsiyasining uy-joy xarajatlariga asosiy ta’sir kanallari.

Ta’sir kanali	Migrant uchun holat	Uy-joy xarajatlariga ta’siri
Ijara haqi	Yangi hududda uy yoki xona ijaraga olish	Ijara to‘lovi oshadi
Kommunal to‘lovlar	Elektr, gaz, suv va boshqa to‘lovlar	Yashash xarajatlari oshadi
Transport	Ish joyidan uzoqda yashash	Umumiy xarajat oshadi
Birgalikda yashash	Bir necha migrantning bitta uyda yashashi	Bir kishiga xarajat kamayadi
Daromadning oshishi	Yuqoriroq ish haqi olish	Uy-joy xarajatlarining daromaddagi ulushi kamayishi mumkin
Uy-joy narxlarining o‘sishi	Talab yuqori hududlarda ijara narxining oshishi	Uy-joy xarajati oshadi

Manba: *muallif tomonidan [1–9] manbalar asosida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ichki mehnat migratsiyasining uy-joy xarajatlariga ta’siri bir yo‘nalishli emas. Migrantning daromadi, oilaviy holati, yashash joyining ish joyiga masofasi va ijara bozoridagi narxlar bu ta’sirning kuchini belgilaydi.

O‘zbekistonda mehnat mobilligining hududiy xususiyatlari turlicha bo‘lib, Gafforovich hududiy mehnat mobilligini baholashda hududlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [5]. Bu esa ichki migratsiya jarayonlarini hududlar kesimida o‘rganish muhimligini anglatadi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ichki migratsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar qatorida uy-joyning yuqori qiymati va

ayrim hududlardagi yashash xarajatlari mavjud. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari yuqori shaharlarda arzon uy-joyning yetarli bo‘lmasligi migrantlarning ko‘chib kelish qaroriga ta’sir qilishi mumkin [6]. Shu bilan birga, shaharlardagi tez urbanizatsiya uy-joy, transport va kommunal infratuzilmaga bo‘lgan talabni oshirmoqda [7].

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining uy-joy narxlari indekslari ham uy-joy bozori dinamikasini muntazam kuzatish zarurligini ko‘rsatadi. 2026-yil I choragida respublika bo‘yicha uy-joy narxlari indeksining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ko‘rsatkichi 99,5 ni tashkil etgan [8]. Bu ma’lumot uy-joy bozoridagi o‘zgarishlarni mehnat migratsiyasi jarayonlari bilan birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda faqat uy sotib olish narxlari emas, balki ijara bozoridagi o‘zgarishlar ham migrantlar uchun muhim hisoblanadi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasini rasmiylashtirish va bandlikni barqarorlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro mehnat tashkiloti O‘zbekistonda mehnat mobilligi, norasmiy bandlik va ichki migratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida qayd etgan [9]. Rasmiy va barqaror bandlik migrantlarning daromadini prognoz qilish imkonini oshiradi, bu esa uy-joy tanlash va uzoq muddatli yashash bo‘yicha qarorlarni yanada asosli qabul qilishga yordam beradi.

Tahlil natijasida ichki mehnat migratsiyasi sharoitida uy-joy xarajatlarini kamaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

Birinchidan, yirik iqtisodiy markazlarda migrantlar uchun arzon ijara uy-joy fondini kengaytirish zarur. Bunday uy-joylar qisqa va o‘rta muddatli mehnat migratsiyasi qilayotgan fuqarolar uchun moslashtirilishi mumkin.

Ikkinchidan, yangi uy-joylarni faqat shahar markazida emas, balki transport infratuzilmasi rivojlangan chekka hududlarda qurish maqsadga muvofiq. Bu ijara xarajatlari bilan bir qatorda transport xarajatlarini ham optimallashtirishga yordam beradi.

Uchinchidan, ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yotoqxona yoki kompensatsiyalangan ijara dasturlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, qurilish, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish kabi mehnat resurslariga talab yuqori bo‘lgan sohalarda bunday mexanizmlar samarali bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va ish o‘rinlarini hududlarda yaratish ichki migratsiyaning majburiy xarakterini pasaytiradi. Bunda kichik biznes, xizmat ko‘rsatish, sanoat va zamonaviy kasblarni hududlarda rivojlantirish muhim.

Beshinchidan, ichki migratsiya bo‘yicha statistik ma’lumotlarni uy-joy xarajatlari, ijara haqi, migrantlarning daromadi va yashash sharoitlari bilan bog‘lagan holda muntazam monitoring qilish zarur. Bu davlat siyosatini aniqroq shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ichki mehnat migratsiyasi O‘zbekiston mehnat bozorining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning iqtisodiy samarasi faqat migrantning qo‘shimcha daromadi bilan emas, balki yangi hududda yuzaga keladigan yashash xarajatlari bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, uy-joy xarajatlari migrantning real daromadi va iqtisodiy farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, ichki mehnat migratsiyasi bir tomondan yuqori daromad olish imkoniyatini yaratishi, ikkinchi tomondan esa ijara haqi, kommunal xizmatlar va transport xarajatlarini oshirishi mumkin. Shuning uchun migratsiya siyosatini ishlab chiqishda “ish oʻrni + daromad + uy-joy + transport” oʻzaro bogʻliq tizim sifatida qaralishi lozim.

Ichki migrantlar uchun arzon ijara uy-joylarini koʻpaytirish, uy-joy qurilishini iqtisodiy faol hududlar bilan muvofiqlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va hududlarda yangi ish oʻrinlarini yaratish mehnat mobilligidan olinadigan iqtisodiy samarani oshiradi. Shu bilan birga, migrantlarning daromadi va uy-joy xarajatlari oʻrtasidagi nisbatni muntazam oʻrganish aholi farovonligini baholashning muhim koʻrsatkichlaridan biri boʻlishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Muhriddin, Q., & Mohinur, O. R. (2026). Mehnat migratsiyalari va uning aholi daromadlariga tasiri. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 4(48), 382–386.

2. Eshboyeva, M., & Eshboyev, T. (2026). Demografik oʻzgarishlarning iqtisodiyotga taʼsiri: nazariy asoslar. Effective Scientific Journals, 4(8), 35–40.

3. Zokirov, J. Z. (2025). Oʻzbekiston misolida pandemiyadan keyingi mehnat migratsiyasining iqtisodiy taʼsirini baholash. Экономика и социум, 11-1(138), 690–696.

4. Abdisalomovich, N. O. (2025). Pandemiyadan keyingi mehnat migratsiyasi va iqtisodiy taʼsirlar. Marketing Jurnali, 476–483.

5. Gafforovich, S. Z. (2026). Oʻzbekistonda mehnat mobilligining hududiy xususiyatlarini Beverij tafovuti asosida baholash. “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 5(2), 129–142.

6. World Bank. (2020). Free Movement and Affordable Housing: Public Preferences for Reform in Uzbekistan. Washington, DC: World Bank.

7. World Bank. (2025). Upgraded Municipal Infrastructure to Enhance Quality of Life for 1 Million People Across Uzbekistan. Washington, DC: World Bank.

THE IMPACT OF THE INTERPLAY BETWEEN INTERNAL AND EXTERNAL LABOR MIGRATION ON LABOR MARKET FUNCTIONING IN UZBEKISTAN

Hamrokulov Mirabbos Ortikovich
PhD Candidate, Research Center “Scientific foundations and Problems of developing the economy of Uzbekistan” under Tashkent state university of economics

Labor mobility in Uzbekistan unfolds simultaneously at two spatial scales: internal movement between regions and toward the Tashkent agglomeration, and external movement toward Russia, Kazakhstan, South Korea, Türkiye and, increasingly, Europe. The scale of the latter is considerable: in 2025 remittance inflows reached USD 18.9 billion, 28 percent more than in 2024 [1], and the share of cross-border remittances in household income nationwide rose from 16.5 to 21 percent, exceeding 30 percent in several regions [2]. Yet policy and research frequently treat the two forms of mobility in isolation, even though they draw on the same pool of labor and respond to the same regional wage and employment gaps.

The working hypothesis of this thesis is that internal and external migration are interdependent: (a) external migration relieves pressure on regional labor markets and finances household consumption and investment; (b) for households in lower-income regions it may act as a substitute for permanent relocation to Tashkent, since foreign wages are higher than domestic ones; and (c) the resulting spatial pattern of labor supply affects unemployment, informality and skill availability across regions. The objective is to assess these relationships using available official data and to derive policy implications.

The Harris–Todaro model explains migration as a response to differences in expected income, that is, the wage multiplied by the probability of obtaining employment; it was developed for rural–urban movement but extends naturally to cross-border moves [3]. The new economics of labor migration shifts the unit of analysis to the household, which allocates members across locations to diversify income risk and relax credit constraints, with remittances as the mechanism of risk sharing [4]. Together these approaches imply that internal and external destinations are alternative "assets" in a household portfolio: their relationship (substitution or complementarity) depends on relative wage differentials, mobility costs and institutional access to each destination.

The study applies comparative-dynamic and structural analysis to official statistics. Two limitations should be stated. First, internal migration statistics capture only permanent registered relocation and omit seasonal and temporary movements [5]; second, external labor migration is observable only indirectly, through remittance flows [1]. Findings are therefore indicative of associations rather than causal effects.

Internal migration. Table 1 summarizes registered permanent internal migration in 2025. The total of 251,633 internal moves equals only about 0.66 percent of the permanent population of 38.2 million [5]. Tashkent city recorded a positive net balance of 20,741 persons and Tashkent region +7,088, whereas all other regions together lost an estimated 27,829 persons. The two Tashkent units attracted 47.9 percent of all internal arrivals while accounting for only 16.6 percent of the population [5], which evidences strong agglomeration pull and a net transfer of working-age labor from peripheral regions to the capital area.

Table 1.

Registered permanent internal migration by territory, 2025

Territory	Internal arrivals	Internal departures	Net balance	Share of internal arrivals, %	Share of population, %
Tashkent city	89,588	68,847	+20,741	35.6	8.3
Tashkent region	30,901	23,813	+7,088	12.3	8.3
Other regions (residual)*	131,144	158,973	−27,829	52.1	83.4
Total	**251,633**	**251,633**	**0**	**100.0**	**100.0**

*Source: author's calculations based on [5]. *Residual: national total minus the two Tashkent units, assuming national internal arrivals equal internal departures. Population shares as of 1 January 2026.*

Two interpretive points follow. First, the modest magnitude of permanent internal relocation, against the much larger remittance-based external channel, suggests that for many households temporary external migration rather than permanent relocation to Tashkent is the principal form of spatial adjustment; housing costs and registration frictions are plausible explanatory factors that merit separate testing. Second, permanent emigration is marginal (10,117 departures versus 1,159 arrivals in 2025 [5]), so the labor market effect of external mobility operates mainly through temporary, circular labor migration rather than demographic loss.

Labor market outcomes. Diagram 1 juxtaposes unemployment with remittance inflows. Unemployment declined from 8.1 percent in the first half of 2023 to 5.8 percent a year later and 5.1 percent in the first half of 2025 [6], while remittances rose from USD 11.4 billion to 14.8 and 18.9 billion over 2023–2025 [1]. In the third quarter of 2025 unemployment stood at 4.9 percent, formal employment grew by 17 percent to 8.58 million and informal employment fell by 26.9 percent to 4.38 million [7]. The Ministry of Employment also reports that roughly 12 percent of the economically active population is employed abroad [6].




Diagram 1. Unemployment rate (first half of year) and annual remittance inflows to Uzbekistan.
Sources: [6] and [1].

The parallel movement is consistent with a "safety valve" function of external migration: the absorption of surplus labor abroad lowers registered unemployment pressure in regions with weak job creation, while remittances sustain local demand. It must, however, be read cautiously. The periods are not identical (half-year versus calendar-year data), the Ministry attributes the decline in unemployment to active employment policy and job creation [7], and the fall in informal employment may partly reflect both formalization and the outflow of informal workers abroad. The correlation is therefore illustrative and cannot by itself identify the contribution of migration.

Interaction mechanisms. Synthesizing the evidence, four mechanisms link the two flows. (i) Relief: external migration reduces excess labor supply in origin regions, partly substituting for internal relocation [3]. (ii) Financing: remittances relax household credit constraints, enabling self-employment, housing and education investment, and potentially funding later internal moves [4]. (iii) Spatial segmentation: the capital area absorbs internal flows, whereas peripheral regions rely on external channels, deepening regional divergence in labor supply and skills. (iv) Reservation-wage and shortage effects: high remittance dependence may raise recipients' reservation wages, and outflows of skilled workers can create sectoral shortages in origin regions. Because official statistics treat the flows separately, registration-based for internal and balance-of-payments-based for external migration [1], [5], these interactions remain poorly measured.

From a labor market perspective, these mechanisms imply that the effectiveness of employment policy depends on its regional targeting. In net-inflow areas such as the capital agglomeration, the binding constraints are housing, infrastructure and the formalization of labor relations; in net-outflow regions the constraints are the scarcity of productive local jobs and the sustainability of migrant-financed demand. A single national indicator, such as the headline unemployment rate, may therefore mask divergent regional adjustment paths. Regionally disaggregated evaluation, which compares migration intensity with unemployment, informality and wage dynamics, is necessary before the effect of mobility on labor market functioning can be quantified with confidence.

Conclusions and Recommendations. The analysis indicates that internal and external migration function as interdependent components of one labor-allocation system, with external migration currently carrying the larger adjustment burden for households outside the capital area. The benefits, namely lower unemployment pressure, higher household income and progress in formalization, coexist with risks of regional polarization, skill drain and dependence on external shocks. The following measures are recommended: (1) create an integrated regional information system linking registration data, labor force surveys and remittance statistics; (2) stimulate job creation in net-outflow regions, including digital savings and investment products that channel remittances into productive use; (3) combine pre-departure training for external migrants with internal mobility support such as housing and skills recognition, so that households can choose between destinations on an informed basis; (4) develop reintegration programs for returning migrants; and (5) institutionalize econometric evaluation using regional panel data, with host-country exchange-rate shocks as a possible source of exogenous variation in migration incentives.

References

[1] Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Review of International Migration and Foreign Exchange Operations of Individuals. Tashkent, March 2026. https://cbu.uz/upload/iblock/367/m44ddiv5ibi0qck9n5kadrpxofebimzi/2.-Sharh-migratsiya-ENG.pdf

[2] Remittances to Uzbekistan reach nearly $19 billion, exceeding Central Bank forecasts. Fergana Agency (citing Gazeta.uz and the National Statistics Committee), 2026. https://en.fergana.agency/news/145144/

[3] Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis. American Economic Review, 1970, 60(1), pp. 126–142.

[4] Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration. American Economic Review, 1985, 75(2), pp. 173–178.

[5] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Demographic situation in the Republic of Uzbekistan, January–December 2025 (press release). Tashkent, 2026. https://stat.uz/img/news/demografiya-press-reliz-en_p24116.pdf

[6] Unemployment rate in Uzbekistan falls to 5.1% in H1 2025. Kun.uz, 19 August 2025. https://kun.uz/en/news/2025/08/19/unemployment-rate-in-uzbekistan-falls-to-51-in-h1-2025

[7] Unemployment rate in Uzbekistan drops to 4.9 percent in Q3. Kun.uz, 12 November 2025. https://kun.uz/en/news/2025/11/12/unemployment-rate-in-uzbekistan-drops-to-49-percent-in-q3

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИ ОРҚАЛИ ТЎПЛАНГАН КАСБИЙ БИЛИМЛАРНИ ҲУДУДИЙ КОРХОНАЛАРГА ЖАЛБ ЭТИШ МЕХАНИЗМИ

Исаев Фахриддин Икромович
и.ф.д., профессор
ТДИУ ҳузуридаги «Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот маркази,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси

Ўзбекистонда ички ва ташқи меҳнат миграцияси иқтисодий ресурсларни ҳудудлар ўртасида қайта тақсимловчи муҳим жараёндир. Бироқ миграциянинг ривожланишга таъсири фақат пул ўтказмалари миқдори ёки иш билан таъминланган фуқаролар сони орқали баҳоланса, хорижда орттирилган касбий тажриба, технологик билим ва ишбилармонлик алоқаларининг иқтисодий қиймати эътибордан четда қолади. Айниқса, муҳандислик, дастурлаш, технологик хизмат ва тадбиркорлик соҳаларида ишлаган шахсларнинг билимлари ҳудудларда янги хизматлар ва ишлаб чиқариш усулларини шакллантиришга хизмат қилиши мумкин. Муаммо шундаки, мавжуд билимни маҳаллий корхоналар эҳтиёжи билан мунтазам боғлайдиган амалий механизм етарлича шаклланмаган бўлиши мумкин; бу ҳолатни ҳудудий маълумотлар асосида текшириш талаб этилади.

Иқтисодий адабиётда билимнинг ҳаракати ходимнинг жой ўзгартириши билан чекланмаслиги таъкидланади. OECD (2026) тадқиқот ва инновация соҳасидаги халқаро ҳаракатчанлик мутахассислар захирасини кенгайтириш ва билим алмашинувини кучайтиришини кўрсатади. Бироқ хорижга кетган ҳар бир мутахассиснинг албатта қайтиши инновацион натижага олиб келади деган хулоса нотўғри. Самара қайтган шахснинг малакаси, маҳаллий корхоналарнинг технологияни ўзлаштириш имконияти ва ҳамкорликни ташкил этиш шартларига боғлиқ. Шу боис миграция сиёсатини фақат қайтишни рағбатлантиришга эмас, қайтмасдан туриб ҳам билим ва ишбилармонлик алоқаларини иқтисодиётга жалб этишга йўналтириш муҳим.

Халқаро миграция ташкилотининг 2024 йилдаги таҳлили қонуний миграция йўллари мамлакатлар учун иқтисодий ва ижтимоий имкониятларни кенгайтиришини, натижа эса миграция шакли ва уни тартибга солиш институтларига боғлиқлигини таъкидлайди (IOM, 2024). Ушбу тажрибадан Ўзбекистон учун келиб чиқадиган хулоса миграцияни чеклаш ёки уни фақат вақтинча бандлик масаласи сифатида кўриш эмас, касбий кўникмаларнинг икки томонлама ҳаракатини бошқаришдир.

Хориждаги мутахассис онлайн маслаҳат, қисқа муддатли амалий сафар, буюртма асосидаги лойиҳа ёки қўшма тадбиркорлик орқали ўз ҳудуди иқтисодиётига ҳисса қўша олади.

Бунинг учун «ҳудудий малака ва билим алмашинуви буюртмаси» механизмини жорий этиш лозим. Механизмнинг бошланғич нуқтаси мигрантларни рўйхатга олиш эмас, балки корхоналарнинг аниқ ечилмаган технологик муаммосини аниқлашдир. Масалан, корхона маҳсулот сифатини халқаро стандартга мослаштириш, ускунани рақамли бошқариш, экспорт учун сертификатлаш ёки дастурий таъминотни жорий этишда мутахассисга эҳтиёж сезиши мумкин. Ҳудудий иш берувчилар бирлашмалари ва касбий таълим муассасалари бундай буюртмаларни очиқ тарзда шакллантиради; хориждаги ёки қайтган малакали фуқаролар эса ихтиёрий иштирок асосида уларга таклиф беради. Натижада ёрдам абстракт «тажриба алмашиш» эмас, маълум муддат, ижрочи ва текшириладиган натижага эга шартномавий хизматга айланади.

Ушбу тизимни ташкил этишда шахсий маълумотлар ҳимояси ва иштирокнинг ихтиёрийлиги асосий шарт бўлиши лозим. Иш берувчига мутахассиснинг меҳнат миграцияси тарихи эмас, аниқ малакаси ва иш тажрибаси керак. Шунинг учун очиқ платформада шахснинг розилигисиз паспорт, яшаш манзили ёки миграция мақоми эълон қилинмаслиги керак. Ҳудудий буюртмаларнинг биринчи босқичида мутахассислар учун қисқа масофавий маслаҳатлар, кейинги босқичида эса ҳақ тўланадиган технологик топшириқлар назарда тутилиши мумкин. Маҳаллий корхона ўзи бажара оладиган иш учун ташқи мутахассисга доимий боғланиб қолмаслиги мақсадида ҳар бир буюртма маҳаллий ходимни ўқитиш шарти билан якунланади.

Иккинчи муҳим йўналиш ватанга қайтган мигрантларнинг касбий тажрибасини тан олиш ва уни тадбиркорликка боғлаш. Хорижда ишлаган шахс муайян технологияни амалда билса-да, маҳаллий иш берувчи унинг кўникмасини стандарт диплом ёки расмий ҳужжат билан тўлиқ баҳолай олмаслиги мумкин. Шу сабабли соҳавий амалий синовлар, намунавий иш портфели ва касбий компетенцияни мустақил баҳолаш усуллари муҳим. IOM (2025) миграция бошқарувида мувофиқлаштирилган давлат сиёсати ва манфаатдор томонлар иштирокининг зарурлигини таъкидлайди. Ўзбекистон шароитида бундай баҳолашни амалдаги бандлик, касбий таълим ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш институтлари билан уйғунлаштириш, янги ортиқча рухсат бериш тартибини яратмаслик мақсадга мувофиқ.

Механизмнинг молиявий қисмида давлат барча маслаҳат хизматини тўлиқ тўлаб бермаслиги керак. Синов босқичида кичик корхоналар учун дастлабки ташхис ва маҳаллий ходимни ўқитиш харажатининг бир қисми қопланиши, асосий технологик буюртмада эса корхонанинг ўз улуши бўлиши мумкин. Шундай шарт хусусий талаб мавжуд бўлмаган лойиҳаларни саралаш имконини беради. Қайтган мутахассис янги иш ўрни яратадиган корхона очмоқчи бўлса, молиявий кўмак унинг мигрант

эканлиги учун эмас, бизнес режасининг ҳаётийлиги ва бозор талаби асосида ажратилиши лозим. Бу миграция сиёсати билан инновацион тадбиркорлик сиёсати ўртасидаги сунъий чегарани юмшатади.

Тадқиқот нуқтаи назаридан таклифни баҳолашда асосий савол хориждаги ҳамкорлар сони эмас, улар орқали маҳаллий корхонада қандай ўзгариш юз берганидир. Ҳудудий синовларда бажарилган технологик буюртмалар улуши, маҳаллий ходимлар эгаллаган янги кўникмалар, корхона ишлаб чиқариш жараёнига киритилган ўзгаришлар ва хизматдан кейинги меҳнат унумдорлиги каби кўрсаткичлар йиғилиши мумкин. Синовда иштирок этган корхоналарни ўхшаш, аммо дастурга кирмаган корхоналар билан қиёслаш, бошланғич фарқларни ҳисобга олиш зарур. Бу усул орқали миграциянинг иқтисодий ҳиссасини декларатив баҳолаш ўрнига, муайян дастур натижасини текшириш имкони пайдо бўлади.

Шундай қилиб, миграция жараёнларини бошқаришдаги амалий вазифа малакали фуқароларнинг ҳаракатини тўхтатиш эмас, улар тўплаган билимнинг Ўзбекистон ҳудудларига иқтисодий самара билан қайтишини таъминлашдир. Корхонанинг аниқ технологик буюртмаси, мутахассиснинг ихтиёрий иштироки, маҳаллий ходимга билим ўтказиш ва натижага қараб қисман молиялаштиришга таянган тизим ана шу мақсадга хизмат қилади. Унинг устунлиги шундаки, билим алмашинуви учун фуқаронинг доимий қайтиши шарт эмас; айни вақтда, қайтган мигрантнинг тажрибаси ҳам маҳаллий ишлаб чиқариш эҳтиёжига бевосита боғланади.

Адабиётлар:

1. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) (2026) 'Mapping Mobility in Research and Innovation Careers', Research and Innovation Careers Observatory 2026. Paris: OECD. Available at: https://www.oecd.org/en/publications/research-and-innovation-careers-observatory-2026_138ed294-en/full-report/mapping-mobility-in-research-and-innovation-careers_54676672.html (Accessed: 9 October 2026).

2. International Organization for Migration (IOM) (2024) Migration Governance Insights on Regular Pathways: Delivering on the Promise of Migration. Geneva: IOM. Available at: https://publications.iom.int/books/migration-governance-insights-regular-pathways-delivering-promise-migration (Accessed: 9 October 2026).

3. International Organization for Migration (IOM) (2025) Migration Policy Insights: 2024 in Focus – Towards Policy Excellence for Transformative Change. Geneva: IOM. Available at: https://publications.iom.int/books/migration-policy-insights-2024-focus-towards-policy-excellence-transformative-change (Accessed: 9 October 2026).

AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA XAYRIYA FAOLIYATINI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI RAG‘BATLANTIRISH

Niyazmetov Islambek Masharipovich
Ma’mun universiteti professori
Xaydarov Alisher Akram o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, jumladan, mehnat migrantlari va ularning oilalarini qo‘llab-

quvvatlashda davlat siyosati bilan bir qatorda xususiy sektorning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda tadbirkorlik subyektlarining xayriya faoliyatini rag‘batlantirish orqali migrantlar oilalari va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yo‘naltiriladigan qo‘shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati mavjud. Xayriya mablag‘larini daromad va foyda solig‘i bo‘yicha soliq bazasidan chegirish yoki tegishli soliq imtiyozlarini qo‘llash tadbirkorlarning ijtimoiy tashabbuslarini rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, xayriya faoliyatini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish imkoniyatlarini tadqiq etish hamda ushbu mexanizmlarning kambag‘allikni qisqartirish, mehnat migrantlari va ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdagi rolini aniqlash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Xayriya faoliyatini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish masalasi xorijiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Greene va McClelland [1] hamda Duquette [2] soliq rag‘batlarining xayriya faoliyati va xayriya mablag‘lari hajmiga ta’sirini tadqiq etgan. Chen, Yeung va Delios Xitoy tajribasi asosida korxonalarning kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan xarajatlarini korporativ daromad solig‘i orqali rag‘batlantirish imkoniyatlarini o‘rgangan [3]. OECD tadqiqotlarida esa korporativ xayriya xarajatlarini foyda solig‘i bazasidan chegirish amaliyoti keng tarqalganligi qayd etilgan. Mazkur tadqiqotlar korxonalarning xayriya va ijtimoiy xarajatlarini soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirish kambag‘allikni qisqartirish, mehnat migrantlari va ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga manzilli yordam ko‘rsatishda foydalanish mumkin bo‘lgan muhim vositalardan biri ekanligini ko‘rsatadi [4].

Tadqiqotda kambag‘al oilalar uchun xayriya va moddiy yordam uchun belgilangan soliq imtiyozining vaqt o‘tishi bilan real qiymati o‘zgarishini baholash maqsadida qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Bunda 2020-yilda belgilangan qat’iy summa hamda 2026-yildagi amaldagi ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, mazkur imtiyoz miqdorining bazaviy hisoblash miqdoriga nisbati va inflyatsiya ta’sirida uning real qiymatidagi o‘zgarishlar qayta hisoblash usuli orqali baholandi. Ushbu yondashuv qat’iy summada belgilangan soliq imtiyozining vaqt davomida xarid qobiliyati va ijtimoiy ahamiyati qanday o‘zgarganini aniqlash imkonini beradi.

Soliq kodeksida kambag‘al hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining soliq yukini kamaytirish va shu orqali ularning real daromadlarini oshirishga qaratilgan qator soliq imtiyozlari nazarda tutilgan. Jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan fuqarolarga beriladigan nafaqa hamda moddiy yordamning boshqa turlari bir yil davomida 15 million so‘mdan oshmagan miqdorda daromad solig‘idan ozod etilishi belgilangan. Biroq, mazkur imtiyozning qat’iy summada belgilanganligi bilan bog‘liq muammo mavjud. Xususan, ushbu miqdor belgilanganiga olti yil bo‘lgan bo‘lsa-da, shu davr mobaynida uning miqdori qayta ko‘rib chiqilmagan va inflyatsiya darajasidagi o‘zgarishlar inobatga olinmagan [5].

1-jadval

Aholiga xayriya jamg‘armalari tomonidan beriladigan nafaqa va moddiy yordamlar uchun soliq solinmaydigan daromad miqdori

Yillar	Chegirma miqdori	Bazaviy hisoblash miqdori (BHM)	Chegirmaning BHMdagi qiymati	Yillik umumiy inflyatsiya darajasi
2020	15 000 000	245 000	61,2	11,1 %
2021	15 000 000	270 000	55,5	9,98 %
2022	15 000 000	300 000	50	12,3 %
2023	15 000 000	330 000	45,5	8,77 %
2024	15 000 000	375 000	40	9,8 %
2025	15 000 000	412 000	36,4	7,3 %

Manba: *Muallif tomonidan tuzilgan*

Inflyatsiya ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, mazkur imtiyoz miqdorini qayta hisoblaydigan bo‘lsak, 2020-yilda belgilangan 15 million so‘mlik qiymatning inflyatsiya ta’siridan keyingi bugungi qiymati 26 370 000 so‘mni tashkil etayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, tahlillar natijasida qat’iy summada belgilangan mazkur ijtimoiy chegirma 2020-yilda bazaviy hisoblash miqdorining 61,2 barobariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib 15 million so‘mlik chegirma bazaviy hisoblash miqdorining 36,4 barobariga teng bo‘lib qolgani aniqlandi. Bu esa mazkur ijtimoiy chegirmaning qiymati o‘tgan yillar davomida bazaviy hisoblash miqdorining 24,8 barobariga teng miqdorda, ya’ni 10 217 600 so‘mga qadrsizlanganini anglatadi. Bundan tashqari, 2020-yil aprel oyidan boshlab qonunchilikka kiritilgan mazkur chegirmaning o‘sha davrdagi bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan belgilangan qiymatini bugungi ko‘rsatkichlar asosida baholaydigan bo‘lsak, uning miqdori 25 214 400 so‘mni tashkil etishi lozim bo‘lganini ko‘rish mumkin [6].

Bundan tashqari, tadqiqotda ilgari surilgan kambag‘al va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga homiylik va xayriya mablag‘larini yo‘naltirishni soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirish bo‘yicha yondashuvlarning amaliy ahamiyati so‘nggi o‘zgarishlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Ijtimoiy himoya yagona reyestriga yoki Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar a’zolariga homiylik tashkilotlari tomonidan beriladigan pul mablag‘lari shaklidagi xayriyalarni bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha bo‘lgan miqdorda soliq imtiyozi doirasiga kiritish mazkur yondashuvning amaliy jihatdan rivojlantirilayotganini ko‘rsatadi [7].

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘al va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlashda xayriya mablag‘larini soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Amaldagi imtiyozlarning qat’iy summada belgilanishi vaqt o‘tishi bilan ularning real qiymati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, xayriya mablag‘larini kambag‘al oilalarga manzilli yo‘naltirish hamda tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirish soliq mexanizmlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining kambag‘allikni qisqartirishdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif qilamiz. Jumladan, yuridik shaxslar tomonidan ijtimoiy reestrga kiritilgan kambag‘al oilalarga xayriya yordami ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan xarajatlarni foyda solig‘i bazasidan chegiriladigan xarajatlar sifatida e’tirof etishni hamda Soliq kodeksining 317-moddasi 7-bandiga tegishli o‘zgartirish kiritishni taklif qilamiz. Shuningdek, yuridik shaxslarning o‘z xodimlari hamda ularning oilalari yashaydigan uy-joyning kommunal xizmatlari va ijara xarajatlarini qoplashga yo‘naltirilgan mablag‘larni foyda solig‘i bazasidan chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiritishni hamda bu maqsadda Soliq kodeksining 317-moddasi 3-bandiga tegishli o‘zgartirish kiritishni taklif qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Greene, P., McClelland, R. (2001). Taxes and Charitable Giving. National Tax Journal, 54(3), 433–453. https://doi.org/10.17310/ntj.2001.3.02

2. Duquette, N. J. (2016). Do Tax Incentives Affect Charitable Contributions? Evidence from Public Charities' Reported Revenues. Journal of Public Economics, 137, 51–69. https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2016.02.002

3. Chen, Z., Delios, A., & Yeung, B. Y. (2024). Leaving No One Behind: China's Central-Local Governments and Corporate Tripartite Collaboration to Reduce Poverty. SSRN Electronic Journal. https://doi.org/10.2139/ssrn.4906783

4. OECD (2020). Taxation and Philanthropy. OECD Tax Policy Studies, No. 27. Paris: OECD Publishing. 138 p. https://doi.org/10.1787/df434a77-en

5. Khaydarov Alisher Akram Ugli, & Niyazmetov Islambek Masharipovich (2025). STRATEGIC PRIORITIES OF STATE POLICY IN POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (12.I), 1648-1657.

6. Niyazmetov Islambek Masharipovich, & Khaydarov Alisher Akram ugli. (2026). Determining the Tax-Free Income Threshold for Personal Income Tax Based on Relative Poverty: Evidence from Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 9(9), 112–118. https://doi.org/10.31150/ajebm.v9i9.5461

7. Niyazmetov, Islambek & Xaydarov, Alisher. (2026). soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori orqali kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari. Nashrlar. 5. 242-244. 10.60078/2026-vol5-iss3-pp242-244.

MEHNAT MIGRANTLARINI KASBIY REINTEGRATSIYA QILISHDA FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

PhD., dotsent, ***Akbarov Nodir Gafurovich***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi ko‘p yillar davomida bandlik va oila daromadining asosiy manbalaridan biri bo‘lib keldi. Bugun bu jarayon yangi bosqichga o‘tmoqda: xorijga ketish yo‘nalishlari o‘zgarmoqda, vataniga qaytayotgan fuqarolar soni ko‘paymoqda. Qaytgan fuqaro xorijda orttirgan tajribasini mamlakat ichida ishlata olsa, migratsiya yo‘qotish emas, inson kapitalini to‘ldiruvchi manbaga aylanadi. Davlat siyosatida reintegratsiya alohida

yo‘nalish sifatida belgilangan. 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmon bilan qaytgan shaxslarni mahallalarda xatlovdan o‘tkazib, natijalarni “Reintegratsiya” moduliga kiritish, ularni ishga olgan ish beruvchilarga subsidiya berish va bu ishni hokim yordamchilari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biriga aylantirish tartibi joriy qilindi [1].

Markaziy bank sharhida keltirilgan Migratsiya agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yilda taxminan 1,4 mln O‘zbekiston fuqarosi 40 ga yaqin davlatda mehnat qilmoqda, ularning 28,6 foizini ayollar, 28,9 foizini yoshlar tashkil etadi. 2025-yilda xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd dollarga yetib, 2024-yildagi 14,8 mlrd dollarga nisbatan 27,2 foizga oshdi, ularning uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi esa 16,5 foizdan 21 foizga ko‘tarildi . 2026-yilning birinchi yarmida Rossiyaga ishlash uchun ketganlar 1,18 mln kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 foizga kamaydi [4]. Asosiy raqamlar 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval.

Tashqi mehnat migratsiyasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
Xorijda ishlayotgan fuqarolar soni (2026-y.)	≈1,4 mln kishi	
Ulardan ayollar ulushi	28,6 %	
Ulardan yoshlar ulushi	28,9 %	
Pul o‘tkazmalari hajmi, 2024-y.	14,8 mlrd dollar	
Pul o‘tkazmalari hajmi, 2025-y.	18,9 mlrd dollar	
O‘tkazmalarning uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi	16,5 % → 21 %	
Rossiyaga ishlash uchun ketganlar, 2026-y. I yarim yillik	1,18 mln kishi (−13,2 %)	[4]

Manba:*[4] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadvaldagi raqamlar ikki xil tendensiyani ko‘rsatadi. Bir tomondan, o‘tkazmalar o‘sib, oilalar daromadining beshdan bir qismidan ko‘prog‘ini bermoqda. Ikkinchi tomondan, an’anaviy asosiy yo‘nalishga ketish qisqarmoqda va Markaziy bank bu holat ichki mehnat bozorida ishchi kuchi taklifini oshirishini qayd etgan [4]. Demak, yaqin yillarda qaytib keluvchilar va xorijga chiqmay qolganlar soni ortadi, ularga malakasiga mos ish o‘rni kerak bo‘ladi. Migrantlar orasida yoshlar va ayollar ulushining salmoqli ekani qayta tayyorlash dasturlari bu guruhlarni alohida hisobga olishi lozimligini bildiradi.

Amaldagi tizimda malakani tasdiqlash, qayta tayyorlash va ishga joylashtirish turli tashkilotlar tomonidan alohida yuritiladi. 2018-yilda xorijga ketuvchilarning kasbiy malakasini tasdiqlovchi markazlarni tashkil etish belgilangan [5], kasb-hunarga o‘qitish markazlari esa qaytgan migrantlarni grant asosida o‘qitish imkoniyatiga ega [6]. Lekin migrant xorijda o‘rgangan ko‘nikma, masalan, payvandlash, qurilish texnikasini boshqarish yoki xizmat ko‘rsatish standartlari, ko‘pincha hujjat bilan tasdiqlanmagan bo‘ladi. Korxona qanday mutaxassis qaytganini bilmaydi, oliy ta’lim va ilmiy muassasalar esa bu oqimni tahlil uchun ma’lumot sifatida ko‘rmaydi. Xalqaro tadqiqotlarda qaytishning natijasi migrantning qaytishga tayyorgarligi va qaytgan muhitdagi resurslarga bog‘liqligi asoslangan [7]. Xorijdagi tajriba qaytgandan keyin tadbirkorlik bilan

shug‘ullanish ehtimolini oshirishi, ijtimoiy aloqalarning uzilishi esa bu ta’sirni susaytirishi ham aniqlangan [8].

Muammoni hal qilish uchun fan, ta’lim va ishlab chiqarishni bitta raqamli muhitda bog‘lash taklif etiladi. Nazariy asos sifatida universitet, sanoat va davlat o‘zaro ta’sirini tushuntiruvchi “uchlik spiral” modeli hamda ishtirokchilar umumiy resurs atrofida birga rivojlanadigan biznes ekotizimi g‘oyasi olindi. Taklif etilayotgan raqamli ekotizim to‘rt qatlamdan iborat:

1) ma’lumot qatlami: “Reintegratsiya” moduli asosida har bir qaytgan fuqaro uchun yagona raqamli kasbiy profil yuritiladi, unda xorijdagi ish tarixi, mavjud sertifikatlar va ko‘nikmalar qayd etiladi;

2) baholash qatlami: kasbiy kompetensiyalarni baholash markazlari, oliy ta’lim muassasalari va texnikumlar onlayn test hamda amaliy sinov orqali malakani tasdiqlaydi, natija QR-kodli raqamli sertifikat ko‘rinishida profilga kiritiladi;

3) ta’lim qatlami: ta’lim muassasalari korxona buyurtmasi bo‘yicha qisqa modulli kurslar o‘tkazadi va har bir modul uchun mikro-sertifikat beradi;

4) ishlab chiqarish qatlami: korxonalar vakansiya va kadr buyurtmasini joylaydi, platforma ularni profillar bilan moslashtiradi, ishga olingan har bir fuqaro uchun subsidiya [1] avtomatik hisoblanadi.

Ekotizimda fanning vazifasi platformada to‘plangan ma’lumotlar asosida hududlar kesimida kadrlarga bo‘lgan talabni prognoz qilish va reintegratsiya natijasini baholashdan iborat. Buning uchun uchta oddiy ko‘rsatkich yetarli: qaytgandan keyin olti oy ichida rasmiy ish topganlar ulushi; malakasi rasman tan olinganlar ulushi; korxona buyurtmasi bilan o‘qitilganlar orasida ishga qabul qilinganlar ulushi. Reintegratsiya hokim yordamchilarining asosiy ko‘rsatkichlariga kiritilgani [1] bu ma’lumotlarni mahalla darajasigacha yig‘ish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, migratsiya oqimi yo‘nalishi o‘zgarayotgan sharoitda qaytgan fuqarolarni malakasiga mos ish bilan ta’minlash mehnat bozori barqarorligi uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Fan, ta’lim va ishlab chiqarishni yagona raqamli ekotizimda birlashtirish qaytgan migrantning tajribasini tez tan olish, uni korxona talabiga mos holda qayta tayyorlash va ishga joylashtirishni bitta zanjirga bog‘laydi. Shu maqsadda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, “Reintegratsiya” modulini kasbiy kompetensiyalarni baholash tizimi va vakansiyalar bazasi bilan yagona identifikator orqali bog‘lash;

ikkinchidan, xorijda olingan malakani portfolio va amaliy sinov asosida tezkor tan olish tartibini joriy etish;

uchinchidan, oliy ta’lim muassasalari va texnikumlarga korxona buyurtmasi bo‘yicha qisqa modulli kurslar o‘tkazish hamda mikro-sertifikat berish huquqini kengaytirish;

to‘rtinchidan, platforma ma’lumotlari asosida har yili hududiy reintegratsiya monitoringini tayyorlashni ilmiy muassasalarga topshirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan

shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6868721

2. Remittances to Uzbekistan reach nearly $19 billion, exceeding Central Bank forecasts // Fergana Agency, 2026. https://en.fergana.agency/news/145144/

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3839-son qarori. https://lex.uz/docs/-3811317

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 183-son qarori. https://lex.uz/docs/-5354947

5. Cassarino J.-P. Theorising Return Migration: The Conceptual Approach to Return Migrants Revisited // International Journal on Multicultural Societies. 2004. Vol. 6, No. 2. P. 253–279. https://hal.science/hal-01237439v1

6. Wahba J., Zenou Y. Out of sight, out of mind: Migration, entrepreneurship and social capital // Regional Science and Urban Economics. 2012. Vol. 42, No. 5. P. 890–903. https://doi.org/10.1016/j.regsciurbeco.2012.04.007

7. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: from National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of university–industry–government relations // Research Policy. 2000. Vol. 29, No. 2. P. 109–123. https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4

8. Moore J.F. Predators and prey: a new ecology of competition // Harvard Business Review. 1993. Vol. 71, No. 3. P. 75–86. https://hbr.org/1993/05/predators-and-prey-a-new-ecology-of-competition

XORIJDAN QAYTGAN MEHNAT MIGRANTLARINI REAGGREGATSIYA QILISH VA ULARNING BANDLIGINI BOSHQARISH MUAMMOLARI

Dotsent, ***Xidirova Marg‘uba***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliyeva Durdona Akmaljon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Jahon mehnat bozorida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, xalqaro migratsiya jarayonlarining kengayishi va malakali ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirib, muayyan kasbiy tajriba, ko‘nikma va moliyaviy mablag‘ to‘plagan fuqarolarni mamlakat ichki mehnat bozoriga samarali jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti yondashuvida reintegratsiya migrantning kelib chiqish mamlakatidagi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik hayotga qayta qo‘shilishi bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida qaraladi [1]. Demak, reintegratsiya faqat migrantning jismonan o‘z vataniga qaytishi bilan cheklanmaydi, balki uning munosib ish bilan ta’minlanishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishini ham qamrab oladi.

Shu nuqtayi nazardan, xorijdan qaytgan mehnat migrantlarining salohiyatidan samarali foydalanish, ularning bandligini ta’minlash va takroriy mehnat migratsiyasiga olib keluvchi omillarni kamaytirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish jarayonida bir qator iqtisodiy va institutsional muammolar kuzatilishi mumkin. Birinchidan, migrantlarning xorijda egallagan kasbiy bilim va amaliy koʻnikmalarini Oʻzbekiston mehnat bozorida tan olish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, qurilish, transport, texnik xizmat koʻrsatish va boshqa amaliy kasblarda tajriba orttirgan fuqarolarning malakasini baholash hamda rasmiy sertifikatlash imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Bunday mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi migrantlarning oʻz mutaxassisligi boʻyicha ish topishini qiyinlashtirishi va ularning norasmiy sektorda faoliyat yuritishiga sabab boʻlishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun xorijda egallangan bilim va koʻnikmalarni tan olishga qaratilgan Recognition of Prior Learning (RPL) tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu tizim doirasida qaytgan migrantlarning kasbiy malakasi maxsus imtihonlar va amaliy sinovlar orqali baholanib, tegishli sertifikatlar berilishi mumkin. Shuningdek, malakasi mavjud mehnat bozori talablariga toʻliq mos kelmaydigan fuqarolar uchun qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim.

Ikkinchidan, xorijdan jamgʻarma bilan qaytgan migrantlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Amaliyotda biznes-reja ishlab chiqish, moliyaviy mablagʻlarni samarali boshqarish, soliqqa oid talablarni tushunish va tadbirkorlik risklarini baholash boʻyicha bilimlarning yetishmasligi mavjud mablagʻlardan oqilona foydalanishga toʻsqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, kredit olishdagi murakkab talablar, garov ta’minotining yetishmasligi va moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi migrantlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishini qiyinlashtiradi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida qaytgan migrantlar uchun “Migrantdan tadbirkorga” maxsus oʻquv dasturini tashkil etish taklif etiladi. Dastur doirasida biznes-reja tuzish, marketing, moliyaviy savodxonlik, soliqqa tortish va risklarni boshqarish boʻyicha amaliy mashgʻulotlar oʻtkazilishi mumkin. Shu bilan birga, banklar va tegishli davlat tashkilotlari hamkorligida kredit kafilligi, subsidiyalar hamda soddalashtirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Migrantlarning oʻzaro hamkorligini kuchaytirish orqali kichik kooperatsiyalar va klaster loyihalarini moliyalashtirish ham yangi ish oʻrinlari yaratishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, reintegratsiyaning ijtimoiy va psixologik jihatlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Uzoq vaqt davomida xorijiy mamlakatda yashagan fuqarolar oʻz vataniga qaytgach, ijtimoiy muhitga moslashish, oilaviy munosabatlarni tiklash va mahalliy mehnat bozoridagi sharoitlarga koʻnikish bilan bogʻliq qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda huquqiy maslahat, psixologik yordam, tibbiy xizmatlar va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash imkoniyatlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, hududiy bandlik organlari va ijtimoiy xizmatlar muassasalari faoliyatida qaytgan migrantlar bilan individual ishlash tizimini takomillashtirish zarur. Jumladan, psixologik va huquqiy maslahatlar berish, oila a’zolarining

ijtimoiy xizmatlardan foydalanishiga koʻmaklashish hamda ishga joylashish jarayonida manzilli yordam koʻrsatish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mahalla darajasida mentorlik tizimini tashkil etish ham migrantlarning mahalliy ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam berishi mumkin.

Yuqoridagi muammolarning yechimi qaytgan migrantlar, ish beruvchilar, banklar, kasbiy ta'lim muassasalari va davlat organlari oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi. Shu maqsadda xorijdan qaytgan fuqarolarning kasbiy tajribasi, malakasi, sertifikatlari va bandlik ehtiyojlarini aks ettiruvchi yagona raqamli platformani shakllantirish taklif etiladi. Mazkur platforma ish beruvchilarga tegishli malakaga ega nomzodlarni topish, migrantlarga esa mavjud vakansiyalar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan mexanizmlarning samaradorligini baholashda qaytgan migrantlarning rasmiy bandlik darajasi, kasbiy malakani tan olish muddati, tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish koʻrsatkichi, yaratilgan yangi ish oʻrinlari, norasmiy bandlikning qisqarishi va takroriy mehnat migratsiyasi dinamikasidan foydalanish mumkin. Ushbu koʻrsatkichlarni hududlar va migrantlarning kasbiy guruhlari kesimida muntazam tahlil qilish reintegratsiya siyosatining natijadorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish va ularning bandligini boshqarish mamlakat inson kapitalidan samarali foydalanishning muhim yoʻnalishidir. Qaytgan fuqarolarning xorijda orttirgan kasbiy tajribasi, mehnat koʻnikmalari va moliyaviy jamgʻarmalari ichki iqtisodiy rivojlanish uchun muhim resurs hisoblanadi. Biroq ushbu salohiyatdan toʻliq foydalanish uchun kasbiy malakani tan olish, tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash mexanizmlarini oʻzaro muvofiqlashtirish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kasbiy malakani tan olish tizimini takomillashtirish. Xorijda egallangan bilim va koʻnikmalarni amaliy sinovlar orqali baholash hamda davlat namunasidagi kasbiy sertifikatlarni berish mexanizmini rivojlantirish.

2. Qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslarini kengaytirish. Mehnat bozori talablariga mos kasblar boʻyicha migrantlarning malakasini oshirish va ularni rasmiy bandlikka tayyorlash.

3. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash. "Migrantdan tadbirkorga" oʻquv dasturini tashkil etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va kredit kafilligi mexanizmlarini takomillashtirish.

4. Yagona raqamli platformani yaratish. Qaytgan migrantlarning malakasi, tajribasi va bandlik ehtiyojlarini ish beruvchilarning vakansiyalari bilan bogʻlash.

5. Ijtimoiy-psixologik yordamni kuchaytirish. Qaytgan migrantlar va ularning oilalariga huquqiy maslahat, psixologik koʻmak va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda manzilli yordam koʻrsatish.

6. Reintegratsiya samaradorligini baholash tizimini joriy etish. Rasmiy bandlik, tadbirkorlik, kasbiy sertifikatlash va takroriy migratsiya koʻrsatkichlarini muntazam monitoring qilish.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish qaytgan migrantlarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtirish, norasmiy bandlikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Natijada, reintegratsiya siyosati faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatish vositasi bo‘lib qolmay, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). Towards an Integrated Approach to Reintegration in the Context of Return. Geneva: International Organization for Migration. Reintegratsiya bo‘yicha IOM yondashuviga oid metodik materiallar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda bandligini ta’minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Mehnat bozori, bandlik va aholi statistikasi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. URL: https://stat.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Aholi bandligini ta’minlash, kasbiy tayyorlash va mehnat migratsiyasi masalalariga oid rasmiy materiallar.

5. International Organization for Migration (IOM). Mehnat migratsiyasi, qaytish va reintegratsiya masalalariga oid tahliliy va uslubiy nashrlar. URL: https://www.iom.int

RETURN OF LABOUR MIGRANTS TO UZBEKISTAN: HOUSEHOLD INCOME LOSSES AND PRIORITIES FOR THE SUPPORT SYSTEM

PhD, ***Azizbek Zakhidov***
Westminster International University in Tashkent

Remittances from labour migrants remain one of the main sources of household income in Uzbekistan. According to the Central Bank, remittances reached USD 18.9 billion in 2025 and accounted for 21% of household income [1]. Russia remains the main destination of labour migration.

Since 2025, the rules governing the stay and employment of foreign nationals in Russia have been adjusted towards stricter control: a register of controlled persons has been introduced, and the total stay of citizens of visa-free countries without grounds for extension has been limited to 90 days per year [2]. Between 25 August and 5 September 2026 alone, 96,415 people returned to Uzbekistan [3]. In this context, ensuring employment and income for returnees on the domestic labour market becomes a matter of particular practical importance.

The study aims to identify the barriers to economic reintegration of returning migrants that matter most for Uzbekistan and to assess how far the existing support system addresses them. It draws on panel data from the World Bank survey Listening to the Citizens of Uzbekistan (L2CU) for 2018–2025 [4], legal acts in their current versions and bank product terms as of 24.09.2026, and evaluations of reintegration programmes in six comparable countries. Each measure was assessed at four levels: provided for by law; actually available; coverage known; outcome measured.

1. Household dependence on remittances. The author's calculations based on L2CU show that remittances are the main source of income for 71% of recipient households; in 2018–2025 the median share of remittances in their income was 66%, and 14% of recipients had no other source of income. Excluding remittances would place about half of recipient households among the 20% of the population with the lowest real per capita income. When remittances stop, total household income falls by about half, and income from domestic sources does not increase within the six months of observation. In a scenario where all migrants return and are employed at the median wage, the poverty rate rises from 9.6% to 12.2%; in the absence of both remittances and returnees' labour income it reaches 16.8%. These scenarios are not forecasts, but they show that sustainable reintegration depends not only on employment but also on the level of earnings.

2. The support system. Uzbekistan has been steadily building an institutional framework for managing labour migration. Since 24.10.2024 the authorised body has been the Migration Agency under the Cabinet of Ministers, with measures financed through the Migration Fund [5]; support measures are set out primarily in UP-59 [6], as well as in PP-4829, PP-367 and UP-258. The pre-departure block is the most developed: free vocational and language training, reimbursement of exam, visa and travel costs (up to 3, 5 and 2 base calculation amounts), microloans of up to UZS 10 million and an insurance subsidy. Migrants working abroad are entitled to emergency and legal assistance and repatriation.

These measures show tangible results in terms of coverage: organised departures rose from 38,400 in 2023 to 161,800 in 2024, and 62,300 people completed vocational and language training [7]. Measures for returnees are provided for by law and are at an earlier stage of implementation (Table 1).

Table 1.

Measures for returning migrants (as of 24.09.2026)

Measure	Legal basis	Status
Employer subsidy of UZS 500,000 per month for 12 months	UP-59, para. 11	Available for hires from 01.06.2024 to 01.01.2026; no extension identified
Concessional loans for returnees and their families	UP-59, para. 14	Amount, rate and term not set in the act; no active bank offer identified
"Reintegration" module, door-to-door registration in mahallas	UP-59, para. 11	Provided for; operational data not published
Free medical check-up for returnees and their families	UP-59, para. 13	Provided for; coverage data not published
Business grant of up to UZS 60 million	IOM and Migration Agency project	Donor-supported, competitive; applications until 21.09.2026

3. Factors limiting coverage. The first factor is eligibility. A large share of financial measures targets citizens who leave through the organised "Xorijda ish" channel or families listed in the Social Register [6]. With about 1.35 million

citizens working abroad [7], this means that those who left independently are so far covered to a lesser extent. The second factor is operationalisation: for several measures, including credit measures (UP-59, PP-367), no approved parameters or active bank offers were identified at the time of the study. The third factor is the information base. According to a UNDP survey (2022, 569 returnees in two regions), 27.8% of respondents received any assistance, 51.2% were without work, and employees' income after return was 2.3 times lower than abroad [8]. These estimates are not nationally representative, which points to the need for regular monitoring.

4. International experience. The experience of countries with similar remittance dependence (Tajikistan, Kyrgyzstan, Nepal, Bangladesh, the Philippines, Moldova) shows that restoring returnees' income remains a challenge for all of them: none of the evaluations found recorded a return of income to its previous level. The strongest evidence concerns measures linked to the labour market: a randomised evaluation among returnees (BRAC, Bangladesh) found a 4.9 percentage point fall in unemployment over 14 months, with a statistically insignificant increase in income [9]. The largest income gains came from organised migration with state control over its cost: under the Bangladesh–Malaysia government-to-government scheme, migrants' earnings tripled while the cost of departure was six times below the market level [10].

Conclusions and recommendations. Uzbekistan has built a broad support system for labour migrants, most developed at the pre-departure and employment-abroad stages. The logical next stage of its development is the reintegration of returnees: relevant measures are provided for, but some have not yet received operational parameters, and their impact on employment and income is not yet measured. The absence of such evaluations does not indicate that the measures are ineffective; introducing them will allow priorities to be set on a sound basis. It is therefore proposed to:

1) add to reporting an indicator of recovery of real household per capita income 12 months after return, and publish the number of applications, approvals and refusals for each measure;

2) introduce certification of skills acquired abroad and employer-commissioned training, with payment to training centres based on job placement results;

3) link the expansion of concessional lending to the approval of its parameters and an outcome evaluation mechanism; target co-financed grants at returnees with an existing business or savings, with a selection procedure that allows the effect to be evaluated;

4) when expanding organised recruitment, set in agreements a cap on fees charged to workers, employer participation in departure costs and guarantees of working hours;

5) include questions on income before and after return and on participation in support programmes in household surveys.

References:

1. *Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 // Kun.uz. 29.01.2026. URL: https://kun.uz/en/news/2026/01/29/remittances-to-uzbekistan-jump-27-to-189bn-in-2025*
2. *Kommersant. 29.12.2025 (changes to Russian migration legislation in 2025) [in Russian]. URL: https://www.kommersant.ru/doc/8292584*
3. *The Times of Central Asia. 14.09.2026 (Migration Agency data on returnees). URL: https://timesca.com/uzbek-labor-migration-russia-returns/*
4. *World Bank. Listening to the Citizens of Uzbekistan (L2CU), 2018–2025. Microdata Library. URL: https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/6412*
5. *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-162 of 17.10.2024 "On priority measures to reform the migration management system". URL: https://lex.uz/ru/docs/7170461*
6. *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-59 of 04.04.2024 (as amended on 27.12.2025). URL: https://lex.uz/ru/docs/6868873*
7. *Gazeta.uz. 22.01.2025 (labour migration results for 2024). URL: https://www.gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant/*

A RELATIVE APPROACH TO IDENTIFYING POVERTY AND ITS IMPORTANCE FOR SOCIAL SUPPORT FOR THE POPULATION

PhD, ***Khaydarov Alisher Akram ugli***
Tashkent State University of Economics

The relative method of determining the poverty line is based on how low a person's income is in relation to the median or average income in the society in which they live. In the approach used by the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), poverty is not limited to the mere absence of the minimum income required for subsistence. This approach also allows for the significant lag of an individual's or household's standard of living behind that established in society to be considered a key manifestation of poverty. In this regard, the relative poverty criterion can be used to assess the income situation of migrants and their families, identify those in need of social protection, and improve social policies aimed at providing targeted assistance.

When determining the threshold of relative poverty, the household's equivalent disposable income is usually used as the basis, and this indicator is compared with a certain proportion of the median income in society. For this reason, this approach allows for consideration not only of the population's income level but also of the distribution of incomes across society. This aspect significantly distinguishes the relative approach from the absolute poverty criterion.

The IHTT approach has a number of important advantages over other methods. First, this method is particularly important for assessing poverty in countries where per capita incomes and the overall standard of living are relatively high. Because in such circumstances, explaining poverty solely in terms of a person's ability to meet their most basic physiological needs is not sufficient. The extent to which people can make use of the economic and social opportunities available in society also becomes an important criterion.

Another advantage of the relative approach is its ability to identify cases of 'hidden poverty.' In some instances, an individual's or household's income may be above the absolute poverty threshold. However, if this income is significantly below the average standard of living prevailing in society, this group of people can be characterised by their limited opportunities to participate fully in society's economic and social life. This situation can also be relevant to migrants and their families, as it is important to take into account living conditions and access to social services, alongside income, when assessing their economic situation. The relative poverty approach helps to identify such situations and improve social support measures.

Furthermore, since the absolute and relative poverty thresholds represent different aspects of the phenomenon of poverty, it is appropriate to view them not as alternatives to one another, but as complementary approaches. While the absolute criterion indicates the ability to meet the population's minimum consumption needs, the relative criterion reflects the economic position of the population in relation to the average standard of living in society. Therefore, depending on the country's level of economic development, income distribution, and the characteristics of its social policy, a suitable combination of these approaches can be used.

The individual within the household is taken as the primary unit of analysis according to the IHTT criterion. For this reason, household income is regarded as being equally distributed among all its members, regardless of who actually received it. By default, a household is understood to consist of a husband and wife and two children, a family of four.

Table 1

Equivalence scales and their corresponding elasticity indices

Number of household members	Equivalence scales			
	Income per capita	OECD scale	Square root scale	Household income
1 adult	1	1	1	1
2 adults	2	1.5	1.4	1
2 adults and 1 child	3	1.8	1.7	1
2 adults and 2 children	4	2.1	2.0	1
2 adults and 3 children	5	2.4	2.2	1
Flexibility	1	0.53	0.5	0

They are treated not as a single unit but as four separate units. Given that the needs of each household member differ from one another, the analysis process requires equalising (adjusting) these differences for the individual. Each household type is evaluated using equivalence scales with a value proportional to its needs. When determining these values, factors such as household composition and the age of its members are taken into account.

There are several types of equivalence scales, the most commonly used of which are as follows:

The improved IHTT equivalence scale assigns a coefficient of 1 to the household head, 0.5 to each member over 14 years of age, and 0.3 to each child

under 14 years of age. For example, let us take a family of four as a sample. Its composition is as follows: father, mother, son (15 years old), daughter (8 years old). Let us assume the father's income is 7,000,000 soms, the mother's income is 4,500,000 soms, and the family's total income is 11,500,000 soms. According to the equivalency scale, if the father is given -1.0 points, the mother 0.5 points, the son 0.5 points, and the daughter 0.3 points, the total score for the family members is 2.3. When the family's total income is divided by the total score, the "equivalentised" income is 5,000,000 so'm. (11,500,000/2.3=5,000,000). This means that the standard of living of a family of four with a total income of 11.5 million soms, as seen in the example above, is considered to be the same as that of a single person with an income of 5 million soms.

The square root scale is based on dividing household income by the square root of the number of household members. This indicates that the equivalence elasticity is equal to 0.5. According to this approach, the needs of a four-person household are assessed as twice those of a one-person household. That is to say, the standard of living of a family of four with a total income of 11.5 million soums is considered to be the same as that of a single person earning 5.75 million soums.

The choice of these two scales depends on the content of the available data. If sufficient information is available on the ages, genders and other demographic characteristics of household members, equivalence scales based on assigning different coefficients to members can be used. If only information on the number of household members is available, the square root scale can be used as a relatively simple and practical approach.

As the above analysis shows, the absolute and relative approaches to assessing poverty serve different purposes. While the absolute approach serves to identify the resources necessary to meet a person's minimum needs, the relative approach allows the economic situation of the population to be assessed in relation to the average standard of living in society. In Uzbekistan, as part of establishing a national system for identifying poverty, an approach based on minimum consumption expenditure has been introduced, and the relevant legal and regulatory framework has been developed in this area. Reducing poverty is one of the key priorities of the country's socio-economic policy, with a significant focus on increasing the population's well-being and raising income levels in the long-term development strategy. In particular, the development goals of Uzbekistan for 2030 include the task of joining the ranks of upper-middle-income countries.

From the standpoint of these objectives, assessing poverty solely in terms of minimal consumption needs may not be sufficient in the future. This is because the nature of poverty also evolves as economic development and real income growth take place. In addition to the ability to meet the population's minimum needs, its economic position relative to the average standard of living in society, its access to social services and the extent of its full participation in societal life are also of significant importance. These aspects are also important in providing social support for migrants and their families, indicating the need to determine

support measures based on their income level, living conditions, and access to social services.

In this regard, it may be appropriate in the future to retain the national approach based on minimum consumption expenditure for identifying absolute poverty in Uzbekistan, while also introducing relative poverty as an additional indicator. In this context, defining the threshold for relative poverty based on the median equivalent disposable income in society allows for the identification of the population's position in the income distribution and the comparative assessment of the living standards of different social groups.

This approach is particularly important from the perspective of assessing the impact of tax and social policy on poverty and income inequality. Since taxes and social transfers alter the disposable income of the population, their impact on distribution can be assessed using the relative poverty indicator. This allows for an assessment of the impact of tax mechanisms used to reduce poverty, not only on the generation of budget revenues but also on the welfare of different income groups.

References:

1. Khaydarov Alisher Akram Ugli, & Niyazmetov Islambek Masharipovich (2025). Strategic priorities of state policy in poverty reduction in Uzbekistan. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (12.I), 1648-1657.

2. Niyazmetov Islambek Masharipovich, & Khaydarov Alisher Akram ugli. (2026). Determining the Tax-Free Income Threshold for Personal Income Tax Based on Relative Poverty: Evidence from Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 9(9), 112–118. https://doi.org/10.31150/ajebm.v9i9.5461

3. Michael F. Förster and Marco Mira d'Ercole. The OECD approach to measuring income distribution and poverty:strengths, limits and statistical issues, 3-9 pages 2013.

4. Niyazmetov, Islambek & Xaydarov, Alisher. (2026). Soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori orqali kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlari. Nashrlar. 5. 242-244. 10.60078/2026-vol5-iss3-pp242-244.

MEHNAT MIGRATSIYASIDAN QAYTGAN FUQAROLARNI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA REINTEGRATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Imamova Gulshan Tursunmurod qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy-tadqiqot markazi

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi O'zbekiston mehnat bozori va aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. 2026-yil aprel holatiga ko'ra, xorijda mehnat qilayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 1,2 mln nafarni tashkil etgan [1]. Shu sababli migratsiya siyosatida fuqarolarni xorijda ish bilan ta'minlash masalalari bilan bir qatorda, ularning vatanga qaytganidan keyingi iqtisodiy va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti yondashuviga koʻra, reintegratsiya faqat qaytgan migrantni ish bilan ta’minlashdan iborat emas. Barqaror reintegratsiya shaxsning iqtisodiy mustaqilligi, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorligi hamda psixologik farovonligini qayta tiklashni oʻz ichiga oladigan koʻp qirrali jarayondir [2]. Shu bois mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni qoʻllab-quvvatlashda bandlik, kasbiy tayyorlash, tadbirkorlikni ragʻbatlantirish, ijtimoiy xizmatlar va zarur hollarda psixologik yordam vositalarini oʻzaro bogʻliq holda qoʻllash muhimdir.

Oʻzbekistonda qaytgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish boʻyicha bir qator moliyaviy va tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoniga muvofiq, mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarni ishga qabul qilgan ayrim ish beruvchilarga Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan har bir ishga olingan xodim uchun 12 oy davomida oyiga 500 ming soʻmdan subsidiya toʻlash mexanizmi belgilangan [3].

Mazkur mexanizm qaytgan migrantning bandligini ta’minlash bilan bir vaqtda ish beruvchining uni ishga qabul qilish bilan bogʻliq xarajatlarini qisman kompensatsiya qilishga qaratilgan. Bir fuqaro uchun subsidiya toʻliq 12 oy davomida ajratilganda davlat tomonidan koʻrsatiladigan moliyaviy ragʻbatning maksimal miqdori 6 mln soʻmni tashkil etadi. Ushbu yondashuvni qaytgan migrantlarga bevosita nafaqa toʻlashdan farqli ravishda, rasmiy bandlikni ragʻbatlantiruvchi fiskal mexanizm sifatida baholash mumkin.

PF-59-son Farmonda reintegratsiya jarayonlarini raqamli monitoring qilish mexanizmlari ham nazarda tutilgan. Jumladan, “Onlayn mahalla” elektron platformasida “Reintegratsiya” modulini yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni mahallalar kesimida xatlovdan oʻtkazish va ma’lumotlarni ushbu modulga kiritish belgilangan. Shuningdek, qaytgan migrantlarga reintegratsiya yordami koʻrsatilishi va ularning rasmiy bandligini ta’minlash hokim yordamchilari faoliyatining asosiy samaradorlik koʻrsatkichlaridan biri sifatida belgilangan [3].

Davlat tomonidan koʻrsatilayotgan qoʻllab-quvvatlashning yana bir yoʻnalishi ogʻir vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni vatanga qaytarish bilan bogʻliq. Migratsiya agentligi ma’lumotlariga koʻra, 2025-yilda xorijda murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolgan 3 709 nafar fuqaro 22 ta davlatdan Oʻzbekistonga qaytarilgan, ushbu tadbirlar uchun Migratsiya jamgʻarmasidan 15,9 mlrd soʻm mablagʻ ajratilgan [4]. Mazkur koʻrsatkichlar mehnat migrantlarini qoʻllab-quvvatlash davlat uchun faqat bandlik masalasi emas, balki muayyan moliyaviy resurslarni talab etuvchi ijtimoiy himoya yoʻnalishi ekanini koʻrsatadi.

2025-yilda 3 709 nafar fuqaroni vatanga qaytarish uchun 15,9 mlrd soʻm sarflangani hisobga olinsa, bir fuqaro hisobiga toʻgʻri keladigan shartli oʻrtacha xarajat qariyb 4,3 mln soʻmni tashkil etadi. Ushbu koʻrsatkich transport, tibbiy, tashkiliy va boshqa xarajatlarni umumlashtirgan holda hisoblangan boʻlib, barcha fuqarolar uchun bir xil xarajat qilinganini anglatmaydi [4].

1-jadval

Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashning ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Miqdor	Iqtisodiy mazmuni
Qaytgan migrantni ishga olgan ish beruvchiga subsidiya	500 ming so‘m/oy	Rasmiy bandlikni rag‘batlantirish
Subsidiya muddati	12 oy	Ish beruvchini uzoqroq muddatli bandlikka undash
Bir xodim uchun maksimal subsidiya	6 mln so‘m	Davlatning bir ish o‘rniga yo‘naltiradigan rag‘bati
2025-yilda Vatanga qaytarilgan fuqarolar	3 709 nafar	Migrantlarni favqulodda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘lami
Ularni qaytarish uchun ajratilgan mablag‘	15,9 mlrd so‘m	Migratsiya jamg‘armasining ijtimoiy xarajatlari
Bir qaytarilgan fuqaro hisobiga o‘rtacha xarajat	qariyb 4,3 mln so‘m	Repatriatsiya xarajatlarining shartli o‘rtacha qiymati

Manba: *muallif tomonidan [3; 4] ma’lumotlari asosida hisoblangan.*

Jadval ma’lumotlari davlat tomonidan migrantlarni qo‘llab-quvvatlashning kamida ikki xil moliyaviy yo‘nalishi mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalish - favqulodda holatga tushgan fuqarolarni vatanga qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish - qaytgan migrantning ichki mehnat bozoriga reintegratsiyasini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan subsidiyalardir. PF-59-son Farmonda qaytgan migrantni ishga olgan ish beruvchiga 12 oy davomida oyiga 500 ming so‘m subsidiya to‘lash belgilangan bo‘lib, bu bir xodim uchun maksimal 6 mln so‘mlik rag‘batni anglatadi. Mazkur subsidiya 2024-yil 1-iyundan 2026-yil 1-yanvargacha ishga qabul qilingan shaxslarga nisbatan tatbiq etilgan [3].

Bu yerda muhim jihat shundaki, migrantning vatanga qaytarilishi reintegratsiya jarayonining yakuni emas, balki uning boshlanishi hisoblanadi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti barqaror reintegratsiyani iqtisodiy mustaqillik, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va psixologik farovonlikning tiklanishi bilan bog‘laydi [2]. Shu sababli bandlik subsidiyasi bilan bir qatorda kasbiy qayta tayyorlash, tadbirkorlikni boshlash, ijtimoiy xizmatlarga kirish va zarur hollarda psixologik yordam imkoniyatlarini ham yagona mexanizm doirasida muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq [2].

Tahlil natijasida qaytgan mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin.

Birinchidan, “Reintegratsiya” modulini faqat ro‘yxatga olish vositasi sifatida emas, balki natijalarni monitoring qilish tizimi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Unda qaytgan migrantning ishga joylashgani, ish joyida qancha muddat saqlanib qolgani, qayta kasbga o‘qitilgani, tadbirkorlik faoliyatini boshlagani va ijtimoiy yordam olgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar integratsiyalashgan tarzda

yuritilishi lozim. PF-59-son Farmonda ushbu modulni yaratish va qaytgan migrantlar bo‘yicha ma’lumotlarni unga kiritish mexanizmi allaqachon belgilangan. [2]

Ikkinchidan, reintegratsiya dasturlari samaradorligini faqat qancha fuqaro ishga joylashtirilgani bilan emas, barqaror bandlik ko‘rsatkichlari bilan baholash zarur. Masalan, ishga joylashtirilgan migrantlarning 6 oy va 12 oydan keyingi bandlik holati, ish haqi darajasi, qayta migratsiyaga chiqish sabablari va tadbirkorlik faoliyatining davomiyligini monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini migrantning individual ehtiyojiga moslashtirish lozim. Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasbga ega fuqaro uchun ishga joylashtirish mexanizmi yetarli bo‘lishi mumkin, biroq kasbiy malakasi mehnat bozori talabiga mos kelmaydigan shaxs uchun qayta tayyorlash, subsidiya yoki tadbirkorlik dasturi samaraliroq bo‘lishi mumkin. IOM yondashuvida ham reintegratsiya yordamini individual, jamoa va institutsional darajalarda, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil etish tavsiya etiladi [2].

Shuningdek, O‘zbekistondan xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar sonining 1,2 mln nafarni tashkil etishi reintegratsiya tizimini uzoq muddatli migratsiya siyosatining ajralmas qismi sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston migratsiya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi tizimda qaytgan migrantlarni ishga olgan ish beruvchilarni subsidiyalash, “Reintegratsiya” moduli orqali monitoring qilish hamda og‘ir vaziyatga tushgan fuqarolarni Migratsiya jamg‘armasi hisobidan Vatanga qaytarish kabi mexanizmlar shakllantirilgan [3; 4].

Biroq barqaror reintegratsiyani ta’minlash uchun davlat yordamini faqat qaytarish yoki dastlabki ishga joylashtirish bilan cheklamaslik lozim. Bandlikning davomiyligi, daromad manbaining barqarorligi, kasbiy moslashuv va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish natijalarini muntazam baholash muhim. Shu asosda reintegratsiya mexanizmlarini natijaga yo‘naltirilgan monitoring bilan bog‘lash qaytgan migrantlarning ichki mehnat bozoriga barqaror integratsiyasini ta’minlash va davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Migratsiya agentligi samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi. 20.04.2026.

2. International Organization for Migration. Reintegration Handbook: Practical Guidance on the Design, Implementation and Monitoring of Reintegration Assistance. Geneva: IOM, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. 15 milliard 900 million so‘m: Migratsiya agentligi hisoboti. 26.01.2026.

MEHNAT MIGRANTLARINI REINTEGRATSIYA QILISH ORQALI HUDUDLARDA INVESTITSIYAVIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Temirova Shirin
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM
shirintmrv@gmail.com

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi aholi bandligi va daromadlarini oshirish bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning muhim omiliga aylanmoqda. 2026-yil may holatiga O'zbekistonda xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar soni 1,2 mln nafarga yetgan. 2025-yilda mamlakatga kelib tushgan pul o'tkazmalari esa 18,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 28 foizga oshgan [1]. Moliyaviy resurslardan tashqari, migrantlarning xorijda orttirgan kasbiy tajribasi, bilim va ko'nikmalari ham hududiy rivojlanishning muhim ichki zaxirasi hisoblanadi. Qaytgan migrantlarning jamg'armalari va inson kapitalini tadbirkorlik hamda investitsiya loyihalariga yo'naltirish mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy investitsiyaviy faollikni oshirish imkonini beradi.

Biroq migrantlarning moliyaviy va inson kapitalini hududiy investitsiya jarayonlariga yo'naltirish mexanizmlari hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois qaytgan migrantlarning jamg'armalarini investitsiyaga yo'naltirish, kasbiy malakasidan foydalanish, biznes boshlash va moliyalashtirish imkoniyatlarini birlashtiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Shu nuqtayi nazardan reintegratsiya jarayonini ijtimoiy moslashuv bilan cheklamasdan, uni investitsiyaviy va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish vositasiga aylantirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish orqali hududlarda investitsiyaviy faollikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mehnat migratsiyasi, inson kapitali va investitsiyaviy faollik o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda turli jihatdan tadqiq etilgan. G. Borjas [2] va M. Todaro [3] mehnat migratsiyasini hududlar va mamlakatlar o'rtasidagi daromad hamda ish haqi tafovutlari bilan izohlab, migrantlarning malakasi va bandlik imkoniyatlari migratsiya qarorlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. J.-P. Cassarino [4] esa qaytgan migrantlarning reintegratsiyasini ularning qaytishga tayyorgarligi, to'plagan moliyaviy resurslari, bilimlari va ijtimoiy aloqalari bilan bog'laydi. Demak, xorijda orttirilgan bilim va kasbiy tajribaning iqtisodiy samarasi migrant qaytgandan keyin ushbu resurslardan foydalanish imkoniyatlariga bevosita bog'liq.

D. Ratha [5] hamda R. Adams va J. Page [6] pul o'tkazmalarini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim moliyaviy manba sifatida baholab, ularning uy xo'jaliklari daromadlari va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi. O. Stark va D. Bloom [7] esa migratsiyani faqat daromad izlash jarayoni emas, balki uy xo'jaliklarining xavflarni taqsimlash va kapital jamg'arish strategiyasi sifatida izohlaydi. Shu nuqtayi nazardan, migrantlarning xorijda

jamg‘argan mablag‘lari qaytgandan keyin iste’mol xarajatlari bilan cheklanmasdan, tadbirkorlik va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbasiga aylanishi mumkin.

Biroq migrant mablag‘laridan investitsiya maqsadida foydalanish hududdagi institutsional sharoitlar va investitsiya muhitiga bog‘liq. D. North [8] iqtisodiy faoliyat rivojida institutlar, huquqiy kafolatlar va mulk huquqining ahamiyatini ta’kidlaydi, M. Porter [9] esa hududiy raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish aloqalari va mahalliy resurslardan samarali foydalanish investitsiyaviy faollikni kuchaytirishini asoslaydi. Demak, qaytgan migrantlarning moliyaviy mablag‘lari va inson kapitalini hududiy investitsiyaga aylantirish nafaqat mavjud resurslarga, balki ularni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi qulay institutsional, moliyaviy va tashkiliy sharoitlarga ham bog‘liq.

Migrant mablag‘larining ahamiyati hududlar kesimida ham bir xil emas. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yanvar–iyun ma’lumotlariga ko‘ra, pul o‘tkazmalarining aholi jami daromadlaridagi ulushi mamlakat bo‘yicha 20,5 foizni, Farg‘ona viloyatida 32,1 foizni, Andijon viloyatida 31,3 foizni, Xorazm viloyatida 28,8 foizni va Samarqand viloyatida 28,5 foizni tashkil etgan [10]. Demak, ushbu ulush yuqori bo‘lgan hududlarda migrantlar mablag‘larini tadbirkorlik va investitsiya faoliyatiga yo‘naltirish hududiy rivojlanishning qo‘shimcha manbasiga aylanishi mumkin.

Pul o‘tkazmalarining katta hajmi ularning barchasi avtomatik ravishda investitsiyaga aylanishini anglatmaydi. 2024-yilgi IOM so‘rovida Qozog‘istonda ishlayotgan O‘zbekiston fuqarolaridan pul yuborish sababini ko‘rsatgan respondentlarning 92 foizi mablag‘ni oila, qarindosh yoki do‘stlarning zaruriy yashash xarajatlarini qoplash uchun yuborishini bildirgan, atigi 4 foizi jamg‘arish, 2 foizi esa biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadini ko‘rsatgan [11]. IOMning 2025-yilgi so‘rovida (1 163 nafar respondent) esa 38 foizi oilaning asosiy boquvchisi ekanini, 46 foizi esa yuborayotgan mablag‘larini oilasining asosiy daromad manbai sifatida ko‘rsatgan; respondentlarning 35 foizi o‘rta ta’limdan keyingi (post-o‘rta) ta’limga ega bo‘lib, bu ularning inson kapitali salohiyatiga ega ekanini ko‘rsatadi [12]. Garchi bu natijalar faqat Qozog‘istondagi migrantlarga tegishli bo‘lsa-da, ular pul o‘tkazmalarining asosan iste’mol xarajatlariga yo‘nalishini ko‘rsatadi.


Demak, muammo pul mablag‘larining yo‘qligida emas, balki ularni “jamg‘arma → biznes kapitali → investitsiya → daromad” zanjiriga kiritish imkoniyatlarining cheklanganligidadir. Shu bilan birga, migrant kapitalini moliyaviy mablag‘ bilan birga inson kapitali nuqtayi nazaridan ko‘rish zarur: xorijda orttirilgan bilim va kasbiy tajriba qaytgandan keyin mahalliy iqtisodiy faoliyatga jalb etilsa, migrantning iqtisodiy qiymati pul mablag‘laridan ancha kengroq bo‘ladi.

Migrantlar resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini mamlakatdagi umumiy investitsiya faolligi kontekstida ko‘rib chiqish muhim. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2021-yildagi 239,6 trln so‘mdan 2025-yilda 591,1 trln so‘mga yetgan, bu joriy narxlarda qariyb 2,5

baravar, taqqoslama narxlarda esa taxminan 1,8 baravar ko‘pdir [13]. Demak, mamlakatda investitsiyaviy faollik sezilarli darajada kengaygan.

Shu bilan birga, 2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi (taxminan 71 foizi) yirik moliyaviy manbalar hisobidan shakllangan: xorijiy investitsiyalar va asosiy kapitalga yo‘naltirilgan kreditlar 33,5 mlrd AQSh dollari, ya’ni 422,1 trln so‘mni tashkil etgan [13]. Shundan kelib chiqib, migrantlarning shaxsiy jamg‘armalarini hududiy investitsiya jarayonlariga jalb qilish mavjud investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilishning qo‘shimcha yo‘nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Shu asosda taklif etilayotgan mexanizmning asosiy farqi shundaki, migrant reintegratsiya jarayonida faqat ijtimoiy yordam oluvchi shaxs sifatida emas, balki moliyaviy resurs, inson kapitali va kasbiy tajribaga ega potensial investor va tadbirkor sifatida qaraladi. Bunda hududiy investitsiya loyihalari migrantlarning mavjud kapitali bilan bog‘lanadi, moliyalashtirish, maslahat, kasbiy malakani tan olish va bozorga chiqish xizmatlari yagona mexanizm doirasida birlashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. Reintegratsiya orqali hududlarda investitsiyaviy faollikni oshirish mexanizmi

Manba: *muallif ishlanmasi.*

Tahlil natijalari asosida mazkur mexanizmning tashkiliy, moliyaviy va axborot jihatlarini takomillashtirish taklif etiladi. Avvalo, qaytgan migrantlarga xizmat ko‘rsatishni yagona tizimga birlashtiruvchi hududiy “Investitsiya va reintegratsiya markazlari”ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur markazlar “bir darcha” tamoyili asosida migrantlarning jamg‘armalari, kasbiy malakasi va tajribasini baholash, ularni mavjud biznes va investitsiya loyihalari bilan bog‘lash hamda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Bunday tashkiliy mexanizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Xususan, migrantlarning shaxsiy jamg‘armalarini kichik biznes va investitsiya loyihalariga yo‘naltirishni rag‘batlantirish uchun imtiyozli kreditlar, kafolat mexanizmlari hamda migrant mablag‘larini davlat yoki boshqa moliyaviy manbalar bilan birgalikda moliyalashtirishga asoslangan ulush qo‘shib moliyalashtirish (matching) dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu orqali boshlang‘ich kapital yetishmasligi kamayadi va pul mablag‘larining iste’moldan investitsiyaga yo‘naltirilishi rag‘batlantiriladi.

Shuningdek, xorijda orttirilgan kasbiy tajriba va malakani hududiy korxonalar ehtiyojlari bilan bog‘lash muhim. Buning uchun migrantlarning kasbiy kompetensiyalarini baholash va tan olish, hududlarda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hamda korxonalarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va ular o‘rtasida samarali hamkorlik platformasini shakllantirish lozim. Natijada migrantlarning inson kapitalidan samarali foydalaniladi va kasbiy salohiyatning qadrsizlanishining oldi olinadi.

Mazkur jarayonni biznes-konsalting va mentorlik xizmatlari bilan to‘ldirish orqali qaytgan migrantlarga investitsiya loyihasini tanlash, biznes-reja ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash, soliq va huquqiy masalalarni hal etish bo‘yicha amaliy ko‘mak ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga, migrantlarning moliyaviy resurslari va tadbirkorlik salohiyatini hududlarning ustuvor investitsiya loyihalari bilan bog‘lovchi yagona raqamli axborot platformasini shakllantirish taklif etiladi. Ushbu platformada investitsiya loyihalari, mavjud imtiyozlar, moliyalashtirish shartlari va potensial hamkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning jamlanishi axborot yetishmasligi muammosini kamaytiradi.

Tahlil natijalari mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning moliyaviy resurslari, kasbiy tajribasi va inson kapitali hududlarda investitsiyaviy faollikni oshirishning muhim qo‘shimcha manbai bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Reintegratsiya jarayonini tashkiliy markaz, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy salohiyatdan foydalanish, konsalting va raqamli axborot xizmatlarining o‘zaro bog‘langan tizimi asosida tashkil etish migrantlarning mavjud iqtisodiy resurslarini hududiy investitsiyalarga yo‘naltirish, yangi biznes va ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlarning investitsiyaviy faolligini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan migrantlar salohiyatidan samarali foydalanish hududiy iqtisodiy rivojlanishning qo‘shimcha ichki manbalaridan biriga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Transchegaraviy pul o‘tkazmalari statistikasi, 2024–2025-yillar. – https://cbu.uz

2. Borjas G.J. Economic Theory and International Migration // International Migration Review. – 1989. – Vol. 23, No. 3. – P. 457–485.

3. Todaro M.P. A Model of Labor Migration and Urban Unemployment in Less Developed Countries // American Economic Review. – 1969. – Vol. 59, No. 1. – P. 138–148.

4. Cassarino J.-P. Theorising Return Migration: The Conceptual Approach to Return Migrants Revisited // International Journal on Multicultural Societies. – 2004. – Vol. 6, No. 2. – P. 253–279.

5. Ratha D. Workers’ Remittances: An Important and Stable Source of External Development Finance // Global Development Finance 2003. – Washington, DC: World Bank, 2003. – P. 157–175.

6. Adams R.H., Page J. Do International Migration and Remittances Reduce Poverty in Developing Countries? // World Development. – 2005. – Vol. 33, No. 10. – P. 1645–1669.

7. Stark O., Bloom D.E. The New Economics of Labor Migration // American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 2. – P. 173–178.

8. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.

MEHNAT MIGRANTLARINI IJTIMOIY HIMOYALASHDA ISLOMIY SUG‘URTA (TAKAFUL) MAHSULOTLARINING O‘RNI

Alimov Sherzod Choriyevich
Termiz davlat iqtisodiyot universiteti

Bugungi kunda O‘zbekiston fuqarolarining muhim qismi mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda chet davlatlarga vaqtinchalik yoki doimiy tarzda ko‘chib bormoqda. Mehnat migratsiyasi jarayonlari, bir tomondan, oilalarning moliyaviy farovonligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, migrantlarning o‘zlari va ularning oila a’zolari uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy risklarni keltirib chiqaradi: baxtsiz hodisalar, sog‘liqni yo‘qotish, ishsiz qolish, vafot etish kabi holatlar oqibatida oilalar moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchisidan mahrum bo‘lish xavfi ostida qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida belgilangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi vazifalari doirasida mehnat migrantlarini ijtimoiy himoyalash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, aholining diniy va madaniy qadriyatlariga mos, foizsiz va o‘zaro yordam tamoyiliga asoslangan islomiy sug‘urta - takaful mahsulotlarini migrantlar uchun joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mehnat migrantlarining katta qismi an’anaviy sug‘urta xizmatlaridan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Bunga bir qator sabablar bor: birinchidan, an’anaviy sug‘urta shartnomalarida foiz (riba) va noaniqlik (g‘arar) unsurlarining mavjudligi diniy e’tiqodi kuchli bo‘lgan fuqarolarda ishonchsizlik uyg‘otadi; ikkinchidan, migrantlarning aksariyati norasmiy bandlikda faoliyat yuritganligi sababli rasmiy sug‘urta tizimlariga kira olmaydi; uchinchidan, mavjud sug‘urta mahsulotlari migratsiya sharoitiga - chegara osha ko‘chish, valyuta o‘zgarishi, ish beruvchi mamlakatdagi huquqiy farqlar kabi - moslashtirilmagan. Natijada migrant oilalari kutilmagan moliyaviy zarbalar oldida himoyasiz qolmoqda.

Takaful mahsulotlarining migrantlar uchun ahamiyati. Takaful tizimi ishtirokchilarning o‘zaro badal (tabarru’) to‘lash asosida umumiy jamg‘arma fondini shakllantirishi va ushbu fonddan zarar ko‘rgan ishtirokchilarga o‘zaro yordam ko‘rsatilishi tamoyiliga asoslanadi. Bu model foiz va ortiqcha noaniqlikdan holi bo‘lganligi sababli, diniy sabablarga ko‘ra an’anaviy sug‘urtadan voz kechuvchi migrantlar uchun muqobil yechim bo‘la oladi. Xalqaro tajriba - xususan, Malayziya va Hindistonda joriy etilgan mikro-takaful dasturlari - past daromadli va norasmiy bandlikdagi fuqarolar orasida ham takaful mahsulotlarini keng joriy etish mumkinligini ko‘rsatadi. Migrantlar uchun quyidagi takaful

mahsulotlari turlari alohida istiqbolli hisoblanadi:

- oilaviy takaful (family takaful) - migrantning vafoti yoki mehnatga layoqatini yo‘qotishi holatida oila a’zolariga moliyaviy kompensatsiya to‘lanishini ta’minlaydi;

- sog‘liqni saqlash bo‘yicha takaful - chet elda mehnat faoliyati davomida yuzaga keladigan tibbiy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilgan;

- pul o‘tkazmalariga bog‘liq mikro-takaful mahsulotlari - migrant tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalarining bir qismi avtomatik tarzda kichik badal sifatida takaful fondiga yo‘naltirilib, oila uchun uzluksiz himoya ta’minlanadi;

- mehnat shikastlanishi va baxtsiz hodisalardan himoyalovchi takaful - xavfli sohalarda (qurilish, sanoat) band bo‘lgan migrantlar uchun mo‘ljallangan.

Hozirgi kunda respublikamizda islomiy moliya infratuzilmasi shakllanish bosqichida bo‘lib, takaful sug‘urta bozori hali yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi ko‘lamining yuqoriligi, aholining islomiy moliya mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji va tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish yo‘nalishidagi davlat siyosati migrantlarga mo‘ljallangan takaful mahsulotlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: migrant yuboruvchi tashkilotlar (masalan, tashqi mehnat migratsiyasi agentliklari) bilan hamkorlikda takaful mahsulotlarini rasmiylashtirish jarayoniga integratsiya qilish; raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali badal to‘lash va da’volarni rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish; migrantlar va ularning oila a’zolari orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha maqsadli tushuntirish ishlarini olib borish; xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalar va konsulliklar bilan hamkorlikda migrantlarga takaful xizmatlari to‘g‘risida ma’lumot yetkazish.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, islomiy sug‘urta - takaful mahsulotlari mehnat migrantlari va ularning oilalarini ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoyalashning samarali va aholining diniy-madaniy qadriyatlariga mos vositasi bo‘la oladi.

Mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

birinchidan, mehnat migratsiyasi ko‘lamining barqaror o‘sib borishi sharoitida migrantlar va ularning oila a’zolarini moliyaviy risklardan himoyalash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda, biroq bu boradagi mavjud sug‘urta mexanizmlari hali yetarli darajada moslashtirilmagan;

ikkinchidan, takaful tizimining o‘zaro yordam va adolatli taqsimot tamoyillariga asoslanishi uni nafaqat diniy jihatdan, balki iqtisodiy jihatdan ham norasmiy bandlikdagi va past daromadli migrant qatlamlar uchun qulay muqobil vosita sifatida shakllantiradi;

uchinchidan, oilaviy takaful, sog‘liqni saqlash bo‘yicha takaful, pul o‘tkazmalariga bog‘liq mikro-takaful hamda mehnat shikastlanishidan himoyalovchi takaful mahsulotlari migrantlarning turli hayotiy ehtiyojlarini qamrab oluvchi kompleks himoya tizimini yaratish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun tegishli me’yoriy-huquqiy baza, raqamli infratuzilma va kadrlar salohiyatini shakllantirish zarur bo‘lib, bu borada xalqaro - xususan Malayziya, Hindiston va Tunis - tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, mehnat migrantlariga mo‘ljallangan maxsus oilaviy va mikro-takaful mahsulotlarini ishlab chiqish va pilot loyiha tariqasida bir nechta mehnat migratsiyasi ko‘p bo‘lgan hududlarda sinovdan o‘tkazish; ikkinchidan, takaful faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini, jumladan litsenziyalash, moliyaviy barqarorlik va investorlarni himoyalash normalarini xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish; uchinchidan, pul o‘tkazmalari tizimlari va bank-moliya infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan raqamli takaful platformalarini yaratish, bu esa chet elda bo‘lgan migrantga badal to‘lash va da’vo topshirish jarayonini soddalashtiradi; to‘rtinchidan, migrantlar va ularning oila a’zolari orasida islomiy moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha davlat organlari, ta’lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokidagi keng qamrovli tushuntirish dasturlarini amalga oshirish; beshinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi agentliklari va konsullik xizmatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, migrant chet elga jo‘nashdan oldingi bosqichdayoq takaful shartnomasini rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi nafaqat mehnat migrantlari va ularning oilalarining ijtimoiy himoyalanganlik darajasini sezilarli darajada oshiradi, balki mamlakatda islomiy moliya bozorining institutsional rivojlanishiga, aholi o‘rtasida moliyaviy inklyuzivlikning kengayishiga hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan ijtimoiy himoya va barqaror rivojlanish vazifalarining samarali ijrosiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Mohd Owais, Azman Bin Mohd. Noor. Challenges and Prospects of Developing Islamic Micro-Insurance (Micro-Takaful) in India // YMER, 2022.

3. Zamri, Sujak va boshq. Understanding and Awareness of Taking Takaful at a Young Age // Insight Journal, Malaysiya, 2025.

4. Hathat Mohamed Iheb, Baorong Yu. Integration of Takaful Insurance in the Tunisian Market: Analysis of Consumers’ Perceptions // International Journal of Science and Business, 2024.

5. Sh.Alimov. “O‘zbekistonliklar orasida takaful haqidagi bilim va tushunchalarni rivojlantirish istiqbollari”. «Muhandislik va Iqtisodiyot» jurnali 5-son, 01.05.2026, 1508-1515 bet.

6. https://apextakaful.uz/uz

RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA MIGRATSIYA SIYOSATI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH YONDASHUVLARI

PhD, ***Javliyev Nuriddin Bektemir o‘g‘li***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
n.javliev@tsue.uz

XXI asrda xalqaro migratsiya global iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, migratsiya nafaqat daromad oshirish, balki kambag‘allikni kamaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish vositasi sifatida ham e’tirof etilmoqda.

Kambag‘allik dunyodagi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda eng keng

tarqalgan va doimiy ijtimoiy muammolardan biridir. Biroq, u milliy va xalqaro hamjamiyatning ko‘plab harakatlariga qaramay, to‘xtovsiz davom etmoqda. BMT

ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda global kambag‘allik darajasi 20 yildan ortiq vaqt

davomida birinchi marta oshgan bo‘lib, 150 milliondan ortiq odam qashshoqlikka

tushib qolgan. Kambag‘allik nafaqat daromad yetishmasligi, balki salomatlik, ta’lim, suv va boshpana kabi asosiy ehtiyojlarning qoniqmasligi sifatida ko‘p o‘lchovli hodisa hisoblanadi. Eng keng tarqalgan qarash shundaki, kambag‘allik barqaror rivojlanishga zarar etkazadi va "salbiy va barqaror bo‘lmagan tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish amaliyotlarini" rag‘batlantiradi. Atrof-muhit va iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabat barqaror rivojlanishning markazida ekanligini ta’kidlashadi, shuning uchun kambag‘allik holatini yomonlashishi rivojlanish va atrof-muhitni saqlash maqsadlariga zarar etkazadi. Kambag‘allik barqaror rivojlanishga qo‘yadigan muammo tufayli, kambag‘allikni yo‘q qilish "dunyoning bugungi kunda duch kelayotgan eng katta global muammo va barqaror rivojlanish uchun zaruriy talab, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun" bo‘lib qoldi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsiya ko‘pincha iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, ishsizlik va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, migratsiya o‘zi ham rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

London Iqtisodiyot maktabi professori K. Watkins o‘zining ilmiy ishlarida

dunyoda 2 milliarddan ortiq odam 2 AQSh dollari yoki undan kam daromad bilan ishlayotganligini ma’um qilgan[1]. An’anaviy rivojlanish paradigmasida migratsiya ko‘pincha “salbiy omil” yoki “miya oqimi” sifatida baholangan. Biroq so‘nggi o‘n yillikdagi empirik tadqiqotlar bu yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Rivojlanish odatda migratsiya bosimini pasaytirmaydi, aksincha, ma’lum bosqichda uni oshiradi. Shuning uchun migratsiyani “oldini olish” emas, balki uni rivojlanish maqsadlariga xizmat qildirish strategiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi munosabatni tushuntirishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, *neoklassik migratsiya nazariyasi* daromad farqlari va kutilayotgan foydani migratsiya qarorining asosiy motivatori sifatida ko‘radi. Bu yondashuv migratsiyaning individual darajadagi iqtisodiy motivatsiyasini yaxshi tushuntirsa-da, strukturaviy omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi.

Ikkinchidan, *inson kapitali nazariyasi* migratsiyani inson kapitaliga investitsiya sifatida talqin etadi. Yuqori daromadli mamlakatlarda ishlash nafaqat joriy daromadni oshiradi, balki ko‘nikmalar, bilim va tarmoqlar to‘planishiga olib keladi, bu esa uzoq muddatda manba mamlakatga “brain gain” shaklida qaytishi mumkin.

Uchinchi, *institutsional iqtisodiyot* yondashuvi migratsiya natijalarining sifatini institutlar belgilashini ta’kidlaydi. Institutsional zaiflik sharoitida migratsiya kambag‘allikni kamaytirish o‘rniga yangi zaiflik shakllarini keltirib chiqarishi mumkin.

Nayrobi universiteti professori Dharam Gai "Bizning birinchi tashvishimiz rivojlanishning butun maqsadini qayta ta’riflashdir. Bu narsalarni rivojlantirish emas, balki insonni rivojlantirish bo‘lishi kerak. Insonning asosiy ehtiyojlari bor- oziq-ovqat, boshpana, kiyim, sog‘liq va ta’lim. Ularning qondirilishiga olib kelmaydigan yoki hatto yomonroq, ularni buzadigan har qanday o‘sish jarayoni rivojlanish g‘oyasining parodiyasidir" deb ta’kidlagan[2].

Remittanslar rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirishning eng kuchli empirik kanallaridan biri hisoblanadi. Adams va Page 71 ta mamlakat bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotida 10 foiz remittans o‘sishi kambag‘allik darajasini 3,5 foizga kamaytirishini aniqlagan.[3] Muhim jihat shundaki, remittanslar nafaqat bevosita daromad effektiga ega, balki inson kapitali orqali bilvosita ta’sir ham ko‘rsatadi. Ta’limga yo‘naltirilgan remittanslar uzoq muddatli kambag‘allikni kamaytirishda yanada samaraliroq ekanligi empirik jihatdan tasdiqlangan.

Clemens tomonidan ilgari surilgan Global Skill Partnerships modeli migratsiyani “nol yig‘indi o‘yin”dan “musbat yig‘indi o‘yin”ga aylantirishga qaratilgan.[4] Bu modelda qabul qiluvchi mamlakat manba mamlakatda ma’lum kasblar bo‘yicha ta’limni moliyalashtiradi. Natijada:

- Manba mamlakatda malakali kadrlar zaxirasi oshadi;
- Qabul qiluvchi mamlakat mehnat bozori ehtiyojlari qondiriladi;
- Migrantlar yuqori unumdorlik va daromadga erishadi.

Ichki migratsiya fenomeni xalqaro migratsiya bilan taqqoslaganda ko‘pincha ilmiy tadqiqotlar va siyosat ishlab chiqish jarayonida nisbatan kamroq e’tiborga sazovor bo‘ladi. Shunga qaramay, aynan ichki migratsiya kambag‘allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bangladeshda o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar bu borada muhim ilmiy dalillarni taqdim etadi. Xususan, mavsumiy migratsiya bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida uy xo‘jaliklariga ajratilgan kichik hajmdagi kreditlar ularning oziq-ovqat xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilaganligi aniqlangan. Bu esa migratsiyani qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlar kambag‘allikni kamaytirishda samarali vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Qaytgan migrantlarning muvaffaqiyatli reintegratsiyasi migratsiya tsiklining yakuniy va shu bilan birga, eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Zero, migratsiya jarayonining samaradorligi nafaqat ishchi kuchining xorijga chiqishi va bandligi, balki ularning vatanga qaytishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga to‘laqonli qo‘shilishi bilan ham belgilanadi. Bandlikni ta’minlash, kasbiy qayta tayyorlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali qaytgan migrantlarning kambag‘allik xavfiga qayta tushish ehtimolini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati O‘zbekiston misolida yaqqol namoyon bo‘ladi: 2026-yilning birinchi yarmida mehnat migratsiyasidan qaytgan 661 ming nafar fuqarodan 557 ming nafari daromadli faoliyatga jalb etilganligi reintegratsiya siyosatining samarali natija berayotganini ko‘rsatadi.[5]

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsiya siyosati kambagʻallikni qisqartirishning muhim, biroq oʻz-oʻzidan samara beruvchi vosita sifatida talqin etilmasligi lozim. Uning haqiqiy samaradorligi bir necha oʻzaro bogʻliq omillarga — xususan, institutsional salohiyat va boshqaruv sifati, migratsiya oqimlarining mehnat bozori talablari bilan muvofiqligi hamda qaytish va reintegratsiya mexanizmlarining mustahkamligiga — bevosita bogʻliqdir. Shu ma'noda, migratsiya siyosatining kambagʻallikni kamaytirishga qaratilgan natijadorligi uni qoʻllab-quvvatlovchi institutsional muhit va tizimli chora-tadbirlar bilan chamberchas bogʻliqdir.

Adabiyotlar:

1. Watkins, K. (2005). Human development report, 2005. Retrieved from http://hdr.undp.org/reports/global/2005

2. Ghai, D. P. (1977). The basic needs approach to development: Some issues regarding concepts and methodology. Geneva: International Labour Office. https://www.economy.gov.az/

3. Adams, R. H., & Page, J. (2005). Do international migration and remittances reduce poverty in developing countries? World Development, 33(10), 1645–1669.

4. Clemens, M. A. (2025). From Root Causes to Shared Gains: Migration Policy for Low-Income Countries in a Labor-Scarce World. IZA Discussion Paper No. 18308.

5. https://kun.uz./en/news/2026/10/02/labor-migration-from-uzbekistan-to-russia-falls-132-in-h1-2026

ISLAMIC MICROFINANCE INSTRUMENTS FOR THE ECONOMIC REINTEGRATION OF RETURNING LABOUR MIGRANTS IN UZBEKISTAN: A RISK-BASED APPROACH

Ugilshod Akhmedova

Scientific research center "Scientific bases and problemsof the development of the economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics

Reintegration after labour migration involves finding sustainable work or establishing an economically viable enterprise. The International Labour Organization stresses that financial services must be combined with labour market opportunities, skills development and other support [1]. In September 2026, Uzbekistan's Migration Agency and the International Organization for Migration announced a grant competition for people who had returned in 2025-2026 and were developing businesses with the potential to create jobs [2]. This initiative provides a policy context for examining complementary microfinance, but it does not show that every returnee needs financing or qualifies for it.

Regulation No. 3536 permits licensed microfinance organizations in Uzbekistan to offer specified Islamic financing services, including murabaha, ijarah and musharakah, subject to product and Sharia-governance requirements [3]. In the first quarter of 2026, their Islamic financing services totalled UZS 11,2 billion; murabaha accounted for 69% of this amount [4]. These figures describe the overall market and do not identify migrant clients. This paper asks how

permitted contracts could be matched with returnees' feasible business plans while controlling risks for clients and providers.

This exploratory study combines document analysis of the Migration Agency and ILO materials, the Central Bank's regulation and market release, and contract descriptions in Obaidullah [1-5]. It develops a proposal to assess business feasibility and product knowledge, select a suitable contract, screen four types of risk, and monitor outcomes. Contextual evidence comes from the author's unpublished cross-sectional survey of 1351 respondents on awareness of six Islamic finance instruments and willingness to use them; the survey did not identify returning migrants.

In the survey, 628 of 1351 respondents (46.48%) identified none of the six instruments listed. Its multinomial logit analysis associated knowledge of one additional instrument with a 6,74-percentage-point higher estimated probability of being 'fully ready' to use Islamic finance ($p < 0,001$). The questionnaire included products beyond the five services expressly listed in Regulation No. 3536. This cross-sectional, general-population association is neither causal nor migrant-specific and cannot measure returnees' demand.

In the proposed framework, the intended use of funds guides contract selection alongside a review of eligibility and business viability. Table 1 maps three business needs to contracts and controls. This is an appraisal design derived from regulatory and contractual sources, not evidence that any product has improved reintegration [3, 5].

Table 1.

Proposed matching of business needs to Islamic microfinance instruments and appraisal controls

Business need	Instrument	Appraisal and contract control
Identifiable stock or tools for a small enterprise	Murabaha	Verify the supplier and the asset, disclose acquisition cost and markup, and test whether sales cash flow can meet the agreed instalments.
Use of machinery or other productive equipment	Ijarah	Verify ownership and asset condition, specify lease and maintenance duties, and assess revenue seasonality against rental payments.
A jointly managed business with a credible partner	Musharakah	Check each party's actual contribution, define profit and loss allocation, and require reliable accounts and a clear exit arrangement.

Four risk dimensions should be recorded for each proposed transaction. Credit risk concerns realistic cash flow, existing obligations and the ability to make payments; remittance history alone is not proof of future business income. Market risk covers local demand, competition, price changes and seasonality. Operational risk covers relevant skills acquired abroad, suppliers, record keeping and asset maintenance. Sharia-compliance risk covers the existence and ownership of the underlying asset, the order of contract steps, and the agreed

allocation of profit and loss. A documented low/moderate/high assessment in each dimension would structure review at the transaction and product levels; portfolio monitoring would then track concentrations and payment performance. The proposal sets no numerical approval thresholds because they have not been validated for returning migrants. It operates within the special council and prudential requirements applicable to Islamic microfinance [3, 6].

Discussion. The survey finding supports testing a product-education step, but the value of the proposed framework for returning migrants remains unmeasured. A limited pilot could connect existing reintegration services with independent appraisal by an authorized microfinance organization. Participation would start with consent, an explanation of contract obligations, and a check of the applicant's skills and business plan. Training or a grant may be more appropriate where the project cannot support financing payments; wage-employment assistance remains another option. The proposed model does not assume that the Migration Agency currently refers applicants to Islamic microfinance providers.

For evaluation, a pilot should record baseline income and employment, product comprehension, approved contracts, arrears, business survival and jobs created at six and twelve months. Results should be compared with an appropriately selected group receiving other reintegration services, while accounting for differences in skills and initial capital. Contract complaints and Sharia-governance findings should be reviewed alongside financial outcomes. These are prospective indicators, not results observed in the present study.

Conclusion. Uzbekistan's regulatory framework makes asset-based and partnership microfinance a plausible supplementary option for returnees with viable enterprise plans. Combining product education with contract-specific appraisal and four-dimensional risk review gives the proposal a practical structure. The available survey describes the general population and cannot establish migrants' preferences or changes in employment. Migrant-specific baseline data and a carefully evaluated pilot are needed before effectiveness claims can be made.

References

1. International Labour Organization. (2024). Labour market reintegration of migrant workers and former refugees upon return in their origin countries.

2. Migration Agency under the Cabinet of Ministers of Uzbekistan. (2026, September 7). Grant opportunity for those returning from work abroad.

3. Central Bank of Uzbekistan. (2024; updated 2026). Regulation No. 3536 on Islamic financing by microfinance organizations.

4. Central Bank of Uzbekistan. (2026, June 2). Islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi oshib bormoqda.

5. Obaidullah, M. (2008). Introduction to Islamic Microfinance. IBF Net.

6. Central Bank of Uzbekistan. (2025, October 22). Amendments to microfinance regulation No. 3412-1.

MEHNAT MIGRATSIYASI SHAROITIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH VA MIGRANTLARNI SUG‘URTAVIY HIMOYALASH

Shakirova Shaxzoda Ibroximxo‘ja qizi
Bank-moliya akademiyasi
g.shadmonova84@gmail.com

Mehnat migratsiyasi fuqarolarning daromad topish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq boshqa davlatda ishlash jarayonida kasallanish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, mehnatga layoqatni yo‘qotish yoki muddatidan oldin qaytish kabi moliyaviy xatarlar ham yuzaga keladi. Ushbu xatarlarning bir qismi davlatlararo kelishuvlar va ijtimoiy ta’minot tizimlari orqali qoplanishi mumkin; ayrim holatlarda esa qo‘shimcha ixtiyoriy sug‘urta zarur bo‘ladi. Xalqaro mehnat tashkiloti migrantlarning ijtimoiy himoyaga kirishida huquqiy maqom, qamrov va davlatlar o‘rtasida huquqlarni saqlab qolish masalalariga e’tibor qaratadi [1].

Sug‘urta kompaniyalari bu yo‘nalishda nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, balki sug‘urta mukofotlari va zaxiralarini boshqaruvchi moliyaviy institut hamdir. Shu sababli migrantlar uchun barqaror sug‘urta mahsulotlarini taklif etish kompaniyaning to‘lov qobiliyati, likvidligi va risklarni baholash tizimi bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi - mehnat migrantlarining sug‘urtaviy himoyasini kuchaytirishda sug‘urtalovchilarning moliyaviy salohiyatidan foydalanish yo‘nalishlarini asoslash.

O‘zbekiston sug‘urta bozoriga oid rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil yakunida sug‘urta tashkilotlarining jami investitsiyalari 9,6 trln so‘mga yetgan; 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 6,5 trln so‘mni tashkil etgan. 2025-yil portfelida bank depozitlari 63 foiz, qimmatli qog‘ozlar 15 foiz, ko‘chmas mulk 17 foiz, korxonalar ustav fondidagi ishtirok 1 foiz va boshqa investitsiyalar 4 foizni tashkil qilgan [2]. Mazkur raqamlar sug‘urta sektorining umumiy investitsion holatini ifodalaydi; ular aynan migrantlarga sotilgan polislar hajmini ko‘rsatmaydi.

2026-yil birinchi choragida sug‘urta tashkilotlarining investitsiyalari 10,3 trln so‘mga yetgani qayd etilgan. Shu davrda portfelning asosiy qismi bank depozitlari va qimmatli qog‘ozlarga to‘g‘ri kelgan [3]. Investitsiya bazasining kengayishi yangi sug‘urta mahsulotlarini joriy etish uchun imkoniyat yaratadi, ammo bu holat migrantlarga mo‘ljallangan sug‘urta xizmatlari allaqachon yetarli darajada rivojlanganini anglatmaydi.

Migrantlarni sug‘urtaviy himoyalashda, avvalo, risklar aniq ajratilishi kerak. Masalan, safar davridagi shoshilinch tibbiy yordam, ish joyidagi baxtsiz hodisa, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik va vafot etgan shaxsni vatanga qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar turli sug‘urta shartlari asosida qoplanadi. Polisda qamrov hududi, sug‘urta hodisasi, istisnolar, to‘lov limiti va murojaat tartibi sodda tilda ko‘rsatilishi muhim. Aks holda, migrant sug‘urtaga ega bo‘lsa ham, undan amalda foydalana olmasligi mumkin.

Ikkinchi masala - sug‘urta xizmatining migratsiya jarayoniga mos bo‘lishi. Polisni safarga chiqishdan oldin elektron rasmiylashtirish, xorijda turib hodisa haqida xabar berish, hujjatlarni masofadan topshirish va maslahat olish imkoniyatlari xizmatning qulayligini oshiradi. Biroq transchegaraviy sug‘urta mahalliy qonunchilik, qabul qiluvchi davlat talablari hamda hamkor tibbiyot tashkilotlari bilan kelishuvlarni hisobga olishi shart. Shu sababli mahsulotni barcha davlatlarda bir xil shart bilan ishlaydi, deb taqdim etish to‘g‘ri emas.

Uchinchi yo‘nalish - qaytib kelgan migrantlarning reintegratsiyasi. Xorijdagi mehnat faoliyatidan so‘ng sog‘liqni tiklash, kasbga qayta moslashish yoki kichik tadbirkorlikni boshlash davrida moliyaviy xavfsizlik muhim. Sug‘urta kompaniyalari davlat va nodavlat xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hamkorlikda qisqa muddatli sog‘liqni sug‘urtalash yoki baxtsiz hodisalardan himoyalash mahsulotlarini ishlab chiqishi mumkin. Bunday takliflarning iqtisodiy samarasi alohida aktuar hisob-kitob va talabni o‘rganish orqali baholanishi lozim.

Sug‘urtalovchilarning investitsiya siyosati ham mazkur vazifalardan ajralmaydi. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hamda sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyatiga doir nizom aktivlarni joylashtirishda qaytarilish, likvidlik va diversifikatsiya talablarini belgilaydi [4; 5]. Migrantlar bilan bog‘liq sug‘urta hodisalari qisqa muddatda to‘lovni talab qilishi mumkinligi uchun likvid aktivlar ulushini yetarli saqlash, xorijiy valyuta risklarini baholash va qayta sug‘urtalash imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Amaliy jihatdan to‘rtta chora muhim: migrantlarning ehtiyojlarini jo‘nash mamlakati va ish turi bo‘yicha o‘rganish; polis shartlarini sodda va tushunarli shaklda taqdim etish; sug‘urta hodisalarini masofadan ko‘rib chiqish tartibini yaratish; to‘lov majburiyatlarini qoplash uchun aktiv va majburiyatlar muddatini muvofiqlashtirish.

Mehnat migratsiyasi sharoitida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy salohiyatini oshirish migrantlarni amaliy himoyalash vazifasi bilan birgalikda olib borilishi kerak. O‘zbekiston sug‘urta sektorining investitsiya hajmi o‘sib borayotgani yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun umumiy moliyaviy imkoniyat mavjudligini ko‘rsatadi, lekin migrantlar sug‘urtasi bo‘yicha qamrov darajasini alohida ma’lumotlarsiz baholab bo‘lmaydi. Shu bois tibbiy va baxtsiz hodisa risklarini qamrab oluvchi aniq shartli mahsulotlar, elektron xizmatlar, xorijdagi hamkorlik mexanizmlari hamda to‘lovga tayyor likvid portfelni rivojlantirish ustuvor bo‘lishi lozim. Taklif etilgan yondashuv konferensiyaning migrantlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26: Universal Social Protection for Climate Action and a Just Transition. — Geneva: ILO, 2024. — URL: https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/world-social-protection-report-2024-26

2. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2025-yil yakunlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari [Elektron resurs]. — URL: https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im

3. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2026-yil I choragi bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari [Elektron resurs]. — URL: https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im

4. O‘zbekiston Respublikasi. “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-730-son, 23.11.2021 [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 3-iyuldagi 68-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1982, 16.07.2009) [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-1499707

MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARIDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XALQARO TAJRIBASI

Yaxshiboyev Rustam Erkiboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
r.yaxshiboyev@tsue.uz

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro pul o‘tkazmalari hajmi 2000-yildagi 128 mlrd AQSh dollaridan 2022-yilda 831 mlrd AQSh dollarigacha oshgan [1]. Mehnat bozorida raqobatning kuchayishi va ish beruvchilarning malakaga bo‘lgan talablari ortib borishi natijasida migrantlarni xorijga jo‘nab ketishdan oldin kasbiy, til va huquqiy jihatdan tayyorlash davlat migratsiya siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Bu vazifani an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari orqali hal etish katta xarajat va vaqt talab qiladi, ayniqsa nomzodlarning katta qismi poytaxtdan uzoq hududlarda yashaydi. Shu sababli ko‘plab davlatlar masofaviy ta’lim texnologiyalariga tayanmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti va YuNESKOning qo‘shma tadqiqotida ta’kidlanishicha, kasbiy ta’lim va ko‘nikmalar tizimini raqamlashtirish ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi, biroq uning samaradorligi raqamli infratuzilma, pedagoglarning tayyorgarligi va amaliy ko‘nikmalarni baholash sifatiga bog‘liq [2]. YuNESKOning global monitoring hisobotida esa migrantlarning malaka va ko‘nikmalarini tan olish ularning mehnat bozoriga integratsiyalashuvining asosiy sharti sifatida ko‘rsatilgan [3]. Mehnat migratsiyasi siklini “jo‘nab ketishdan oldin – xorijda bo‘lish davri – qaytish” bosqichlariga ajratadigan bo‘lsak, masofaviy ta’lim texnologiyalari har bir bosqichda turli vazifani bajaradi: birinchi bosqichda kasbiy va til tayyorgarligi hamda yo‘naltirish (orientatsiya), ikkinchi bosqichda malaka oshirish va huquqiy axborot berish, uchinchi bosqichda esa orttirilgan ko‘nikmalarni baholash va reintegratsiya.

Filippin tajribasi. Filippin mehnat migrantlarini tayyorlashda masofaviy ta’limdan eng keng foydalanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Texnik ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish boshqarmasi (TESDA) tomonidan yaratilgan TESDA Online Program platformasi fuqarolarga texnik-kasbiy ta’lim bo‘yicha bepul ommaviy ochiq onlayn kurslarni (MOOC) taklif etadi va o‘qitishni tinglovchiga qulay joy va vaqtda tashkil etish imkonini beradi [4]. Muhim jihati shundaki, onlayn kursni tugatgan shaxs milliy sertifikat olish uchun TESDA

markazida yuzma-yuz baholashdan o‘tishi mumkin, ya’ni nazariy tayyorgarlik masofadan, malakani tasdiqlash esa amaliy imtihon orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Filippin Migrant ishchilar departamenti xorijda ishlash voqeligiga tayyorlovchi sakkiz moduldan iborat bepul onlayn ishga joylashishdan oldingi yo‘naltirish seminarini (PEOS Online) yuritadi, uning yakunida modullar mazmuni asosida imtihon topshiriladi [5]. Chet elga jo‘nab ketayotgan ishchilar uchun esa majburiy jo‘nab ketish oldidan yo‘naltirish seminari (PDOS) o‘tkaziladi, unda mehnat standartlari, qabul qiluvchi davlat haqida umumiy ma’lumot, sog‘liq va xavfsizlik masalalari yoritiladi [6].

Hindiston tajribasi. Hindiston Tashqi ishlar vazirligi 2018-yildan boshlab “Pravasi Kaushal Vikas Yojana” dasturi doirasida jo‘nab ketish oldidan yo‘naltirish treningini (PDOT) tizimli ravishda joriy etgan. Ushbu dastur doirasida xorijga ishga ketayotgan har bir shaxs qabul qiluvchi davlatning madaniyati, tili, qonunchiligi va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan himoya choralari bo‘yicha 8 soatlik bepul treningdan o‘tadi; trening markazlari soni 4 tadan 92 taga yetkazilgan [7]. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng 2021-yil apreldan onlayn PDOT moduli joriy etilib, har bir migrantga treningni onlayn yoki oflayn shaklda tanlash va yakunda sertifikatni elektron tarzda yuklab olish imkoniyati berildi [7; 8]. 2022-yil avgust holatiga ko‘ra, 115 mingdan ortiq migrant ushbu treningdan o‘tgan, o‘quv dasturi mamlakat bo‘yicha standartlashtirilgan, murabbiylar uchun qo‘llanmalar yetti tilda, migrantlar uchun qo‘llanmalar sakkiz tilda ishlab chiqilgan [8].

Koreya Respublikasi tajribasi. Koreyaning ish uchun ruxsatnoma tizimi (EPS) doirasida Inson resurslarini rivojlantirish xizmati (HRD Korea) 2005-yil avgustdan buyon xorijiy ishchilarni adolatli va shaffof tanlash maqsadida koreys tilini bilish darajasini aniqlovchi EPS-TOPIK imtihonini o‘tkazib keladi [9]. Imtihon yuboruvchi davlatlarning o‘zida kompyuterlashtirilgan testlash shaklida tashkil etiladi, natijalar esa elektron tarzda e’lon qilinadi [10]. Mehnat shartnomasini imzolagan ishchilar uchun EPS-TOPIK baliga qarab 1 haftadan 2,5 haftagacha davom etadigan ishga joylashishdan oldingi ta’lim, Koreyaga kelgach esa 16 soatlik majburiy mashg‘ulot tashkil etiladi [9]. Bu tajriba tilni baholashni raqamli standartlashtirish va tayyorgarlikni bosqichlarga bo‘lish afzalliklarini ko‘rsatadi.

Yaponiya tajribasi. Yaponiya jamg‘armasi “Belgilangan malakali ishchi” maqomiga nomzodlar uchun yapon tilini bilishning asosiy darajasini baholovchi JFT-Basic testini ishlab chiqqan bo‘lib, u kompyuterlashtirilgan testlash (CBT) orqali o‘tkaziladi [11]. 2026-yil mart holatiga ko‘ra, test o‘tkaziladigan davlatlar qatorida O‘zbekiston ham bor. Jamg‘arma Yaponiyada yashash va ishlash uchun zarur bo‘lgan tilni o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarini ishlab chiqib, ularni o‘z saytida bepul taqdim etadi, zarur kommunikativ ko‘nikmalar esa “qila oladi” (Can-do) formatida tavsiflangan [11]. Bu yondashuv o‘quv mazmuni, onlayn materiallar va baholash tizimi o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi.

Germaniya tajribasi. Germaniya Xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) Federal bandlik agentligi bilan hamkorlikda 2013-yildan buyon amalga oshirib kelayotgan “Triple Win” dasturi orqali 8 mingdan ortiq hamshira va stajyorlar Germaniyadagi 400 ga yaqin sog‘liqni saqlash muassasalariga joylashtirilgan [12]. Dastur doirasida

nomzodlar jo‘nab ketishdan oldin yuqori darajagacha nemis tili kurslari va kasbiy yo‘naltirish kursidan o‘tadi, ularning malakasini Germaniyada tan olish jarayoniga ko‘maklashiladi [13]. Uzoq muddatli til tayyorgarligi talab etiladigan bunday dasturlarda masofaviy va aralash ta’lim shakllari tayyorgarlik xarajatlarini kamaytirish va nomzodlar qamrovini kengaytirishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

Xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish quyidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi: birinchidan, masofaviy ta’lim alohida vosita sifatida emas, balki migratsiyani boshqarishning davlat tizimiga (ishga joylashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirish) integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi; ikkinchidan, nazariy bilimlar va yo‘naltirish masofadan, amaliy ko‘nikmalar va yakuniy baholash esa yuzma-yuz yoki nazorat ostidagi kompyuterlashtirilgan test shaklida tashkil etiladi; uchinchidan, o‘quv materiallari migrantlarning ona tillarida, bepul va mobil qurilmalar orqali foydalanish mumkin bo‘lgan shaklda taqdim etiladi; to‘rtinchidan, o‘quv dasturlari standartlashtirilgan bo‘lib, yakunda elektron sertifikat beriladi; beshinchidan, onlayn va oflayn shakllar o‘rtasida tanlash imkoniyati saqlanib qoladi.

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda muayyan asos yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son qarori bilan xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va xorijiy tillarga o‘qitish hamda ularga xalqaro tan olinadigan sertifikatlar berish tizimini joriy qilish xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan [14]. Migratsiya agentligining “Xorijda ish” platformasida 25 turdagi xizmat ko‘rsatilmoqda va 2025-yil davomida 524 ming fuqaro onlayn xizmatlardan foydalangan, biroq xizmatlarning barchasi hali raqamlashtirilmagan [15].

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi.

1. Filippinning TESDA Online Program tajribasi asosida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida bepul ommaviy ochiq onlayn kurslar platformasini yaratish, onlayn kursni tugatganlarga malakani tasdiqlash uchun hududiy markazlarda amaliy imtihon topshirish imkoniyatini berish.

2. Hindistonning PDOT tajribasidan foydalangan holda xorijga tashkillashtirilgan tartibda ketayotgan fuqarolar uchun standartlashtirilgan, onlayn yoki oflayn shaklda o‘tish mumkin bo‘lgan majburiy jo‘nab ketish oldidan yo‘naltirish kursini joriy etish va uni “Xorijda ish” platformasiga integratsiya qilish; kurs mazmuniga maqsadli davlat qonunchiligi, mehnat huquqlari, moliyaviy savodxonlik va firibgarlikdan himoyalanish modullarini kiritish.

3. Koreya va Yaponiya tajribasi asosida til tayyorgarligini o‘quv materiallari, onlayn mashq qilish vositalari va kompyuterlashtirilgan baholash o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlagan holda tashkil etish, xorijiy hamkorlar tomonidan bepul taqdim etilayotgan raqamli o‘quv resurslarini o‘zbek tiliga moslashtirib, milliy platformada joylashtirish.

4. Germaniyaning “Triple Win” dasturi namunasida xorijiy ish beruvchilar va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda aralash (blended) ta’lim modeliga asoslangan uzoq muddatli til va kasbiy tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, malakani tan olish jarayonini ham raqamli shaklda qo‘llab-quvvatlash.

5. Xorijda ishlayotgan va qaytib kelgan fuqarolar uchun mobil ilovalar orqali malaka oshirish, ko‘nikmalarni onlayn baholash va elektron sertifikatlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajriba mehnat migratsiyasi jarayonlarida masofaviy ta’lim texnologiyalari migrantlarni tayyorlash qamrovini kengaytirish, xarajatlarni kamaytirish va o‘qitish sifatini standartlashtirishning samarali vositasi ekanini ko‘rsatadi. Ularning samaradorligi esa masofaviy ta’limning migratsiyani boshqarish tizimiga integratsiyalashuvi, amaliy baholash bilan uyg‘unlashuvi va migrantlar uchun ochiqligi bilan belgilanadi. Ushbu tajribani milliy sharoitga moslashtirib joriy etish O‘zbekistonda tashkillashtirilgan va malakali mehnat migratsiyasi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. McAuliffe M., Oucho L.A. (eds.). World Migration Report 2024. – Geneva: International Organization for Migration (IOM), 2024.

2. ILO, UNESCO. The Digitization of TVET and Skills Systems. – Geneva: International Labour Organization, 2020.

3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2019. Migration, displacement and education: Building bridges, not walls. – Paris: UNESCO, 2018.

4. TESDA Online Program (TOP). Technical Education and Skills Development Authority, Philippines. – URL: https://e-tesda.gov.ph/ (murojaat sanasi: 22.09.2026).

5. Pre-Employment Orientation Seminar (PEOS) Online. Department of Migrant Workers, Philippines. – URL: https://peos.dmw.gov.ph/index_peos.php (murojaat sanasi: 22.09.2026).

6. Pre-Departure Orientation Seminar (PDOS). Overseas Workers Welfare Administration, Philippines. – URL: https://owwa.gov.ph/pre-departure-orientation-seminar-pdos/ (murojaat sanasi: 22.09.2026).

7. Pre-Departure Orientation Training (PDOT). Ministry of External Affairs, Government of India. – URL: http://www.pdot.mea.gov.in/ (murojaat sanasi: 22.09.2026).

8. Pre-Departure Orientation (PDO) Programme. Indian Council of World Affairs. – URL: https://www.icwa.in/show_content.php?lang=1&level=2&ls_id=7981&lid=5333 (murojaat sanasi: 22.09.2026).

MEHNAT MIGRANTLARINI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmatov Yashin Yarashovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
y.raxmatov@edu.uz

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi ko‘plab mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil bo‘lib qolmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida xalqaro pul o‘tkazmalari 2000-yildagi 128 mlrd AQSh dollaridan 2022-yilda 831 mlrd AQSh dollarigacha o‘sgan [11]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga kelib tushgan transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmi 18,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yildagi ko‘rsatkichdan (14,8 mlrd AQSh dollari) 27,2 foizga oshgan, aholi umumiy

daromadlarida xorijdan kelgan o‘tkazmalar ulushi esa 16,5 foizdan 21 foizgacha ko‘tarilgan [5].

Shu bilan birga, xorijda ishlayotgan fuqarolar soni qisqarib bormoqda: 2023-yil oxirida bu ko‘rsatkich 2 milliondan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil yakunida 1,35 million nafarni tashkil etgan [6]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda yurtdoshlarimiz 40 ga yaqin davlatda mehnat qilmoqda, ularning soni 1,2 million nafar atrofida bo‘lib, Yevropa va Sharqiy Osiyoning rivojlangan davlatlarida malakali ishchi kuchiga ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda [8]. So‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlariga migratsiya oqimi to‘rt barobar ko‘paygan [7]. Migrantlar soni kamayayotgan bir paytda pul o‘tkazmalari hajmining o‘sishi migratsiya sifat jihatidan o‘zgarayotganini, ya’ni malakasiz ishchi kuchi oqimidan tashkillashtirilgan, malakali va yuqori daromadli mehnat migratsiyasiga o‘tish jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda migrantlarni kasbiy tayyorlash sifati va uning xorijiy mehnat bozori talablariga mosligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishdagi davlat siyosatining me’yoriy-huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son qarorini alohida ta’kidlash lozim. Qaror bilan xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va xorijiy tillarga o‘qitish, ularga xalqaro tan olinadigan malaka sertifikatlarini berish tizimini joriy qilish xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab tashkillashtirilgan tartibda xorijga ketayotgan shaxslarni ishga yuborishdan oldin kasb-hunarga o‘qitish tartibi o‘rnatilgan hamda qisqa muddatli kurslarning o‘quv dasturlarini xorijiy ish beruvchilar talablariga moslashtirish vazifasi qo‘yilgan [1]. Keyinchalik 2024-yil 17-oktabrdagi PQ-367-son qaror bilan xorijiy ish beruvchilar taklif etayotgan ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Migratsiya agentligining elektron platformasida ochiq e’lon qilish, fuqarolarga o‘z rezyumesini platformada shakllantirish va tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratildi [4]. Ushbu chora-tadbirlar “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [2] va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [3] doirasida amalga oshirilayotgan davlat xizmatlari va ta’lim tizimini raqamlashtirish siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

Raqamlashtirish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, “Xorijda ish” platformasida 25 turdagi xizmat taqdim etilmoqda va 2025-yil davomida 524 ming fuqaro onlayn xizmatlardan foydalangan; biroq rasmiy manbalarda xizmatlarning barchasi ham hali to‘liq raqamlashtirilmagani qayd etilgan [7]. Platformaga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, chet tilini o‘rganish xarajatlarining 50 foizini va kasbiy malaka imtihoni xarajatlarini to‘liq qoplab berish masalalari ko‘rib chiqilmoqda [8].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’lim va ko‘nikmalar tizimini raqamlashtirish ta’limdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi, ammo uning samaradorligi raqamli infratuzilma, pedagoglarning raqamli kompetensiyalari va amaliy ko‘nikmalarni baholash sifatiga bevosita bog‘liq [9]. YuNESKOning ta’lim bo‘yicha global monitoring hisobotida esa migrantlarning malaka va

koʻnikmalarini tan olish mexanizmlari ularning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy sharti sifatida koʻrsatilgan [10].

Ilmiy adabiyotlarda raqamli ta’lim texnologiyalari deganda oʻquv jarayonini axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida tashkil etish, boshqarish va baholash imkonini beruvchi usul va vositalar majmui tushuniladi. Ular qatoriga masofaviy ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), ommaviy ochiq onlayn kurslar, mobil ta’lim ilovalari, virtual trenajyorlar, onlayn test va proktoring tizimlari hamda sun’iy intellekt asosidagi adaptiv oʻqitish vositalari kiradi. Mehnat migrantlarini tayyorlash kontekstida ushbu texnologiyalarning afzalligi shundaki, ular oʻqitishni nomzodning yashash joyi va ish vaqtidan qat’i nazar tashkil etish, oʻquv materiallarini xorijiy ish beruvchi talablari oʻzgarishiga qarab tezkor yangilash hamda har bir tinglovchining oʻzlashtirish darajasini individual kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, kattalar ta’limi (andragogika) tamoyillariga koʻra, katta yoshdagi tinglovchilar uchun oʻquv mazmuni amaliy vazifalarga yoʻnaltirilgan, qisqa modullarga boʻlingan va real ish vaziyatlariga yaqin boʻlishi lozim, bu esa raqamli kontentni loyihalashda hisobga olinishi zarur.

Oʻtkazilgan tahlil mehnat migrantlarini kasbiy tayyorlashda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi muammolar mavjudligini koʻrsatdi: birinchidan, raqamli resurslar tarqoq boʻlib, mavjud platforma asosan ish oʻrinlari va davlat xizmatlariga yoʻnaltirilgan, kasbiy oʻqitish, bilimni baholash va ishga joylashtirish jarayonlarini yagona zanjirga bogʻlaydigan masofaviy ta’lim tizimi toʻliq shakllanmagan; ikkinchidan, qurilish, payvandlash, parvarish kabi amaliy kasblar boʻyicha koʻnikmalarni faqat onlayn shaklda shakllantirish imkoniyati cheklangan, trenajyor va simulyatorlar yetarli emas; uchinchidan, ayrim hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda nomzodlarning raqamli savodxonligi va internetdan foydalanish imkoniyatlari past; toʻrtinchidan, xorijiy til tayyorgarligi migrantlar uchun sezilarli moliyaviy yuk boʻlib qolmoqda, buni xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan qoplash boʻyicha takliflar ham tasdiqlaydi [8]; beshinchidan, oʻqitish natijalari bilan keyingi ishga joylashish va daromad koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqlik tizimli monitoring qilinmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mehnat migrantlarini kasbiy tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish boʻyicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

1. “Xorijda ish” platformasi bilan integratsiyalashgan yagona masofaviy ta’lim tizimini (LMS) yaratish. Bunda xorijiy ish beruvchining vakansiyasi → talab etiladigan kompetensiyalar roʻyxati → modulli oʻquv kursi → onlayn baholash → nomzodni ish beruvchi bilan moslashtirish zanjiri yagona raqamli muhitda amalga oshiriladi.

2. Aralash (blended) ta’lim modelini joriy etish. Nazariy bilimlar, mehnat xavfsizligi qoidalari va til tayyorgarligining asosiy qismi mobil ilovalar orqali mikrota’lim (qisqa video, interaktiv test) shaklida, amaliy koʻnikmalar esa “Ishga marhamat” monomarkazlari, kollej va texnikumlarning oʻquv ustaxonalarida oʻzlashtiriladi. Amaliy mashgʻulotlarni virtual va toʻldirilgan reallik (VR/AR) trenajyorlari bilan boyitish sarf-xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni oshirish imkonini beradi.

3. Xorijiy tillarni o‘qitishda adaptiv ta’lim platformalari hamda sun’iy intellekt asosidagi nutq trenajyorlaridan foydalanish, o‘quv dasturlarini maqsadli davlatlarda talab qilinadigan til imtihonlari formatiga moslashtirish.

4. Raqamli malaka pasporti va mikrosertifikatlar tizimini joriy etish. Har bir o‘zlashtirilgan modul bo‘yicha beriladigan elektron sertifikatlar xorijiy ish beruvchi tomonidan onlayn tekshirilishi mumkin bo‘lishi, bu esa malakani xalqaro tan olish jarayonini soddalashtiradi.

5. Xorijga ketishdan oldingi majburiy onlayn moslashuv (orientatsiya) kursini ishlab chiqish: unga maqsadli davlatning mehnat va migratsiya qonunchiligi, moliyaviy savodxonlik, pul o‘tkazmalarining xavfsiz kanallari, firibgarlik va noqonuniy vositachilikdan himoyalanish bo‘yicha modullarni kiritish.

6. O‘qitish natijalarini raqamli monitoring qilish tizimini yaratish: o‘quv analitikasi (learning analytics) ma’lumotlarini bitiruvchilarning ishga joylashishi, ish haqi darajasi va mehnat shartnomasi muddati bo‘yicha ma’lumotlar bilan bog‘lash hamda ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ushbu natijalarga asoslash.

7. Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning xorijda egallagan ko‘nikmalarini onlayn baholash va sertifikatlash mexanizmini joriy etish, bu ularning ichki mehnat bozoriga reintegratsiyasini tezlashtiradi.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda talab yuqori bo‘lgan bir nechta kasb (masalan, qurilish, payvandlash, xizmat ko‘rsatish va parvarish sohalari) hamda yetakchi maqsadli davlatlar bo‘yicha tajriba-sinov (pilot) loyihasi o‘tkazilib, raqamli modullar va baholash vositalari sinovdan o‘tkaziladi. Ikkinchi bosqichda pilot natijalari asosida tizim barcha hududlardagi monomarkazlar, kollej va texnikumlarga kengaytiriladi, pedagoglar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining raqamli kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Uchinchi bosqichda xorijiy hamkor tashkilotlar va ish beruvchilar bilan raqamli sertifikatlarni o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuvlar tuziladi. Samaradorlikni baholash uchun o‘qitishni muvaffaqiyatli yakunlaganlar ulushi, tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashganlar ulushi, xorijda ishlash muddati va o‘rtacha ish haqi darajasi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi miqdoriy o‘sishdan sifatli rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Bu jarayonda raqamli ta’lim texnologiyalari mehnat migrantlarini kasbiy tayyorlashning qamrovini kengaytirish, xarajatlarini kamaytirish va sifatini xorijiy ish beruvchilar talablariga moslashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tashkillashtirilgan va malakali mehnat migratsiyasi ulushini oshirish, migrantlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ular xorijda orttirgan inson kapitalini mamlakat iqtisodiyotiga qaytarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-son qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/acts/-4997972

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-367-son qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

5. 2025-yilda O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 18,9 mlrd dollargacha o‘sdi (Markaziy bank ma’lumotlari asosida). // Gazeta.uz, 2026-yil 28-yanvar. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/28/money-transfers/

6. As of end of 2024, the number of labor migrants from Uzbekistan in foreign countries decreased to 1.35 million people. // Gazeta.uz, 2025-yil 22-yanvar. – URL: https://www.gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant/

7. Migratsiya agentligida fuqarolarga tezkor yordam beradigan situatsion markaz tashkil etiladi. // Spot.uz, 2025-yil 18-noyabr. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/11/18/migration-system

QAYTGAN MEHNAT MIGRANTLARINI IQTISODIY REINTEGRATSIYA QILISH

Abduxakimov Muzaffar Shaxobiddinovich
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi

Mehnat migratsiyasidan qaytish jarayoni faqat geografik harakatning yakuni emas, balki yangi mehnat bozoriga moslashish bosqichidir. Xorijda egallangan kasbiy tajriba, til bilimi, mehnat intizomi va jamg‘arma iqtisodiy rivojlanish resursiga aylanishi mumkin. Biroq ushbu resurslarni samarali ishga solish uchun qaytgan fuqarolarga standart emas, individual ehtiyojga mos xizmatlar ko‘rsatilishi zarur. IOMning reintegratsiya qo‘llanmasida barqaror reintegratsiya iqtisodiy mustaqillik, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va psixologik farovonlikning uyg‘un natijasi sifatida talqin etiladi [1]. Shuning uchun iqtisodiy natijani boshqa omillardan ajratib ko‘rish reintegratsiya dasturlarining umumiy samaradorligini to‘liq aks ettirmaydi.

Maqolaning maqsadi qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan inson kapitalini O‘zbekiston mehnat bozori va mahalliy tadbirkorlik jarayonlariga samarali jalb etish mexanizmlarini asoslashdir. Tadqiqotda konseptual tahlil, xizmatlar zanjiri modeli, manfaatdor tomonlar xaritasi va natijalar monitoringi usullari qo‘llandi. IOMning individual va jamoa darajasidagi qo‘llab-quvvatlashga doir tavsiyalari nazariy manba sifatida foydalanildi [2; 3]. Taklif etilgan indikatorlar va xizmatlarning muddatlari dastur loyihasiga tegishli; ular O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan reprezentativ so‘rov natijasi yoki amalda tasdiqlangan statistik ko‘rsatkichlar emas.

Reintegratsiyaning iqtisodiy to‘siqlari. Qaytgan migrantlarning mehnatga qayta kirishi bir qator o‘zaro bog‘langan holatlarga duch keladi. Birinchi muammo — xorijda orttirilgan malakaning ichki ish beruvchi uchun tushunarli hujjat yoki amaliy ko‘nikma sifatida tasdiqlanmasligi. Ikkinchisi — hududdagi bo‘sh ish

oʻrinlari bilan migrantning real tajribasi oʻrtasidagi nomuvofiqlik. Uchinchisi — tadbirkorlikni boshlash uchun kapital mavjud boʻlsa-da, bozor tahlili, buxgalteriya hisobi, sotuv kanallari va huquqiy maslahatning yetishmasligi. Toʻrtinchisi — oilaviy majburiyatlar, sogʻliq yoki ijtimoiy moslashuv muammolari tufayli dastur xizmatlaridan uzluksiz foydalanishning qiyinlashishi. Shu bois faqat bir martalik moliyaviy yordamga tayanish oʻrniga, yoʻnaltirish, oʻqitish, ishga joylashtirish va keyingi maslahat bilan bogʻlangan kompleks xizmatlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Uch yoʻnalishli amaliy model. Taklif qilinayotgan “Koʻnikma–Bandlik–Biznes” modeli uch yoʻnalishni birlashtiradi. Birinchi yoʻnalish — koʻnikmalar auditi: qaytgan shaxsning kasbiy tajribasi, til koʻnikmasi, mavjud hujjatlari va qiziqishlari suhbat hamda amaliy baholash asosida aniqlanadi; zarurat boʻlsa qisqa qayta tayyorlash dasturiga yoʻnaltiriladi. Ikkinchi yoʻnalish — ish beruvchi bilan moslashtirish: hududiy vakansiyalar tahlili, qisqa amaliy sinov, mentorlik va ishda saqlanib qolishni kuzatish yoʻlga qoʻyiladi. Uchinchi yoʻnalish — mikro va kichik tadbirkorlik: biznes gʻoyani tekshirish, oddiy pul oqimi rejasini tuzish, bozor kanallarini aniqlash va moliyaviy savodxonlik xizmatlari taqdim qilinadi. Uchala yoʻnalish boʻyicha muvaffaqiyat mezoni xizmat berilganligi emas, daromad keltiruvchi faoliyatning davomiyligidir.

Baholash indikatorlari va hisoblash tartibi. Reintegratsiya natijalarini kuzatish uchun toʻrtta asosiy koʻrsatkich tavsiya etiladi. Qayta bandlik darajasi QBD = (6 oy ichida ishga kirgan yoki oʻzini oʻzi band qilgan kuzatuv ishtirokchilari / jami kuzatuv ishtirokchilari) × 100. Bandlik barqarorligi BBB = (ketma-ket kamida 6 oy iqtisodiy faol boʻlganlar / bandlikka kirgan kuzatuv ishtirokchilari) × 100. Koʻnikmalardan foydalanish darajasi KFD = (yangi ishida avvalgi malakasini amalda qoʻllayotganlar / band kuzatuv ishtirokchilari) × 100. Tadbirkorlik davomiyligi TDD = (12 oydan soʻng faoliyat yuritayotgan yangi loyihalar / monitoringga olingan yangi loyihalar) × 100. Har bir koʻrsatkichning maxraji aniq belgilanishi, kuzatuvdan chiqib ketganlar ulushi alohida e’lon qilinishi zarur. Daromadning oʻzgarishi esa boshlangʻich va keyingi davr koʻrsatkichlarini narxlar ta’sirini hisobga olgan holda solishtirish orqali baholanadi.

Hududiy joriy etish va ilmiy tekshiruv. Modelni qoʻllash uchun qaytgan fuqaro bilan dastlabki ehtiyoj suhbatini oʻtkazish, shaxsiy xizmat rejasini kelishish, 3-, 6- va 12-oylarda natijalarni tekshirish taklif etiladi. Ish beruvchilar, kasbiy ta’lim muassasalari, mahalliy xizmat koʻrsatuvchi markazlar va tadbirkorlik maslahatchilari oʻrtasida yoʻnaltirish protokoli tuzilishi lozim. Dastur samaradorligini aniqlashda oddiy “oldin–keyin” taqqoslash tashqi bozor sharoitlarining oʻzgarishini aks ettirmasligi mumkin. Imkoniyat boʻlsa, oʻxshash xususiyatli ishtirokchilar orasida bosqichma-bosqich joriy etish yoki moslashtirilgan taqqoslash guruhlaridan foydalanish ilmiy asoslanganroq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Natijalar hududlar, kasb va qaytish sabablariga qarab ajratilgan holda tahlil qilinishi kerak.

Qaytgan mehnat migrantlari inson kapitalidan samarali foydalanish Oʻzbekistonning hududiy iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim imkoniyatdir. Birinchidan, xorijda olingan koʻnikmalarni baholash va ichki mehnat bozori

talablari bilan bog‘lash mexanizmini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, ishga joylashish bilan cheklanmay, kamida olti oylik bandlik barqarorligi va malakadan foydalanishni kuzatish zarur. Uchinchidan, tadbirkorlik ko‘magini faqat boshlang‘ich resurs ajratish emas, balki biznes modeli, moliyaviy rejalashtirish va bozor maslahati bilan uyg‘unlashtirish taklif etiladi. Nihoyat, individual iqtisodiy yordam ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan muvofiqlashtirilsa, reintegratsiyaning uzoq muddatli barqarorligini kuchaytirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. International Organization for Migration (IOM). Reintegration Handbook: Practical Guidance on the Design, Implementation and Monitoring of Reintegration Assistance. Geneva, 2019. https://publications.iom.int/es/books/reintegration-handbook-practical-guidance-design-implementation-and-monitoring-reintegration

2. International Organization for Migration (IOM). Reintegration Handbook. Module 2: Reintegration Assistance at the Individual Level. 2019. https://publications.iom.int/books

3. International Organization for Migration (IOM). Reintegration Handbook. Module 3: Reintegration Assistance at the Community Level. 2019. https://publications.iom.int/books

4. International Organization for Migration (IOM). Manual for Inclusive and Sustainable Reintegration of Returning Migrant Workers in South Asia. 2022. https://publications.iom.int/books/manual-inclusive-and-sustainable-reintegration-returning-migrant-workers-south-asia

MEHNAT MIGRANTLARI FARZANDLARINING TA’LIMINI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xalilova Dilfuza Toxirjonovna
Tashkent International University of Education

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi oilalarning ijtimoiy hayotiga, jumladan, farzandlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Ota-onaning vaqtincha yoki uzoq muddat xorijda mehnat qilishi natijasida bola ota-ona, qarindosh yoki boshqa vasiylar bilan yashashi, ta’lim jarayonida esa qo‘shimcha ijtimoiy-pedagogik ko‘makka ehtiyoj sezishi mumkin. Shu sababli migrantlar farzandlarining ta’limga barqaror jalb etilishi, psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va o‘quv motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat migratsiyasi siyosatida xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning bolalariga ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda yordam ko‘rsatish vazifasi ham belgilangan [1; 2].

Mehnat migratsiyasining oilaviy munosabatlarga ta’siri barcha oilalarda bir xil namoyon bo‘lmaydi. Ayrim bolalarda o‘quv faoliyatiga qiziqish pasayishi, muloqotda tortinchoqlik, mas’uliyatning ortishi yoki aksincha, mustaqillikning kuchayishi kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarni umumlashtirib, har bir migrant oilasi farzandiga bir xil yondashish pedagogik jihatdan to‘g‘ri emas. Ta’lim muassasasi bolaning real ehtiyojini aniqlab, unga mos pedagogik yordamni

tashkil etishi lozim. Bu jarayonda sinf rahbari, fan o‘qituvchisi, maktab psixologi, ijtimoiy pedagog va ota-ona yoki qonuniy vakil o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar migrantlar farzandlarini ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlashning amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ta’lim resurslari, elektron topshiriqlar, videodarslar, interaktiv taqdimotlar, ta’lim platformalari va masofaviy aloqa vositalari bolaning maktabdagi faoliyatini uy sharoitidagi o‘qish bilan bog‘lashga yordam beradi. Ayniqsa, ota-onasi xorijda bo‘lgan bola bilan ta’lim jarayonidagi muhim natijalar haqida muntazam axborot almashish, zarur hollarda videomuloqot orqali ota-onani pedagogik jarayonga jalb qilish imkoniyati mavjud. Bunda bolaning shaxsiy ma’lumotlari va xavfsizligi bilan bog‘liq talablar ham hisobga olinishi kerak.

Individual yondashuv migrantlar farzandlari bilan ishlashda muhim pedagogik tamoyillardan biridir. O‘quvchining oilaviy sharoiti, ta’limdagi qiyinchiliklari, qiziqishlari va mavjud imkoniyatlari o‘rganilgach, unga mos maqsad va topshiriqlar belgilanadi. Masalan, dars qoldirish yoki mavzuni o‘zlashtirishda uzilishlar yuzaga kelgan o‘quvchiga qisqa takrorlash materiallari, bosqichma-bosqich topshiriqlar va mustaqil ishlash uchun elektron resurslar berilishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchining ortda qolib ketishining oldini olish va o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni izchil bartaraf etishga xizmat qiladi.

Differensial ta’lim texnologiyasi ham ushbu toifadagi o‘quvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Bir xil mavzu doirasida topshiriqlarni murakkablik darajasi, hajmi yoki bajarish shakliga ko‘ra moslashtirish orqali o‘quvchining imkoniyatlari hisobga olinadi. O‘quv materialini matn, rasm, jadval, audio yoki video shaklida taqdim etish turli o‘quv ehtiyojlariga javob berishi mumkin. Interfaol metodlar — kichik guruhlarda ishlash, juftlikdagi topshiriqlar, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va loyiha faoliyati — bolaning tengdoshlari bilan muloqotini kuchaytirish bilan birga, ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlashga yordam beradi.

Migrantlar farzandlarini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda kommunikativ texnologiyalardan maqsadli foydalanish ham muhimdir. Masalan, maktab va ota-ona o‘rtasida muntazam elektron aloqa yo‘lga qo‘yilib, o‘quvchining davomati, o‘zlashtirishi va muhim pedagogik ehtiyojlari haqida qisqa ma’lumot berib borilishi mumkin. Ota-onaning xorijda bo‘lishi uning farzandining ta’lim jarayonidan butunlay chetda qolishini anglatmasligi kerak. Shu bilan birga, aloqa shakli bolaning manfaatlari va oilaning real imkoniyatlariga mos bo‘lishi, pedagog esa ota-onaga faqat muammo haqida emas, balki bolaning ijobiy yutuqlari haqida ham muntazam ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash faqat o‘quv natijalarini yaxshilash bilan cheklanmasligi kerak. Bolaning ijtimoiy moslashuvi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, muloqot ko‘nikmalari va kelajakdagi ta’lim-kasbiy rejalari ham e’tiborga olinishi zarur. Ayniqsa, mehnat migratsiyasidan qaytgan ota-ona bilan birga yashashga qayta moslashayotgan yoki boshqa hududdan ko‘chib kelgan o‘quvchilarda ta’lim muhitiga moslashish jarayoni alohida kuzatuvni talab qilishi mumkin. Reintegratsiya tushunchasi faqat mehnat migranti bilan bog‘liq iqtisodiy

masalalarni emas, oilaning ijtimoiy hayotga qayta moslashishini ham kompleks yondashuv asosida koʻrib chiqishni taqozo etadi [2; 3].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda maktabning mavjud resurslari ham hisobga olinishi lozim. Barcha oʻquvchilarda shaxsiy smartfon, kompyuter yoki doimiy internet mavjud boʻlmasligi mumkin. Shuning uchun raqamli vositalar bilan bir qatorda bosma materiallar, kartochkalar, grafik sxemalar, qisqa yoʻriqnomalar va oddiy didaktik vositalardan foydalanish kerak. Texnologiyaning zamonaviyligi emas, balki uning aniq pedagogik vazifani hal qilishga xizmat qilishi asosiy mezon boʻlishi lozim.

Migrantlar farzandlari bilan ishlashda hamkorlik modeli quyidagi ishtirokchilarni qamrab olishi mumkin: oʻquvchi, ota-ona yoki qonuniy vakil, sinf rahbari, fan oʻqituvchilari, maktab psixologi va ijtimoiy pedagog. Hamkorlikning birinchi bosqichida oʻquvchining ta’lim va ijtimoiy ehtiyojlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda qisqa muddatli pedagogik maqsadlar belgilanadi. Uchinchi bosqichda individual topshiriqlar, interfaol metodlar yoki raqamli vositalar tanlanadi. Toʻrtinchi bosqichda natijalar kuzatiladi va zarur boʻlsa, yondashuv qayta moslashtiriladi. Bunday tizim pedagogik yordamning uzluksizligini ta’minlaydi.

Ta’lim samaradorligini baholashda faqat baho koʻrsatkichlariga tayanish yetarli emas. Oʻquvchining darsdagi ishtiroki, davomati, topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi, muloqot faolligi, oʻquv motivatsiyasi va vaqt davomida erishgan individual oʻsishi ham hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ota-ona yoki qonuniy vakil bilan qayta aloqa qilish orqali bolaning uy sharoitidagi oʻqish holati haqida ma’lumot olish mumkin. Mazkur kuzatuvlar asosida pedagog oʻquvchiga koʻrsatilayotgan yordamning mazmunini takomillashtirib boradi.

Oʻzbekistonning mehnat migratsiyasini tartibga solishga doir hujjatlarida migrantlarni qoʻllab-quvvatlash, qaytgan fuqarolarni reintegratsiya qilish hamda ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda koʻmaklashish masalalariga e’tibor qaratilgan [2; 3]. Shu jihatdan, ta’lim muassasalarida migrantlar farzandlari bilan ishlashni umumiy ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil etish mumkin. Pedagogik texnologiyalar esa ushbu yordamni individual, uzluksiz va oʻquvchi uchun qulay shaklda amalga oshirish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, ta’lim muassasasida migrantlar oilalaridan boʻlgan oʻquvchilarning ta’lim ehtiyojlarini muntazam oʻrganish; ikkinchidan, ota-ona yoki qonuniy vakil bilan qulay elektron aloqa kanalini belgilash; uchinchidan, oʻquv materiallarining qisqa raqamli va bosma variantlarini tayyorlash; toʻrtinchidan, oʻquvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatish; beshinchidan, psixolog, ijtimoiy pedagog va sinf rahbari hamkorligini kuchaytirish; oltinchidan, mehnat migratsiyasidan qaytgan oilalar farzandlarining ta’lim muhitiga moslashuvini alohida monitoring qilish.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi sharoitida bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini barqaror ta’minlash nafaqat ta’lim mazmunini yetkazish, balki bolaning ijtimoiy va pedagogik ehtiyojlarini hisobga olishni ham talab qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar individual yondashuv, differensial ta’lim,

raqamli aloqa va interfaol metodlarni birlashtirish orqali migrantlar farzandlarini ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini kengaytiradi. Bunda texnologiya maqsad emas, balki bolaning ta’limdagi ishtiroki, o‘zlashtirishi va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni. “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son qarori. “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

4. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta’lim: darslik. – Toshkent: Mehr-nuri nashriyoti, 2024. – 240 b.

5. Qaxarova D.S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 192 b.

QAYTGAN MEHNAT MIGRANTLARI KO‘NIKMALARINI O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA QO‘LLASH: REINTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL SHARTLARI

Odiljonov Azizbek Tursunboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Xorijda ishlagan fuqaroning vatanga qaytishi uning mahalliy mehnat bozoriga muvaffaqiyatli qo‘shilganini anglatmaydi. Migrant orttirgan kasbiy tajriba ish beruvchiga tushunarli shaklda tasdiqlanmasa yoki hududda unga mos ish bo‘lmasa, bu tajribaning iqtisodiy qiymati to‘liq yuzaga chiqmasligi mumkin. Shu sababli reintegratsiyani faqat ishga joylashtirish yoki tadbirkorlik uchun mablag‘ ajratish bilan baholash yetarli emas. Ushbu tezisning tadqiqot savoli quyidagicha: qaytgan migrantning xorijda orttirgan ko‘nikmalari qanday institutsional sharoitda barqaror va malakasiga mos bandlikka aylanishi mumkin?

Tadqiqot tanlangan ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili va ulardan O‘zbekiston sharoiti uchun tekshiriladigan takliflar ishlab chiqishga asoslanadi. Manbalar qaytishga tayyorgarlik, migratsiyadan keyingi kasbiy tanlov hamda daromad natijalarini yoritishi bo‘yicha tanlandi. Bu tizimli adabiyotlar sharhi yoki mahalliy mikrodata asosidagi ekonometrik tadqiqot emas. Xorijiy natijalar O‘zbekistonga bevosita ko‘chirilmaydi; ulardan ehtimoliy mexanizmlarni ajratish uchun foydalaniladi. Asosiy tezis shuki, xorijiy tajribaning qiymati ko‘nikmani aniqlash, ishonchli tasdiqlash va mahalliy talab bilan bog‘lash bosqichlarining uyg‘un ishlashiga bog‘liq.

Cassarino qaytish migratsiyasini tahlil qilishda migrantning qaytishga tayyorgarligi va resurslarni safarbar eta olishiga alohida e’tibor beradi [1]. Ushbu

yondashuv qaytganlarni bir xil ehtiyojga ega guruh deb qarashning cheklanganligini ko‘rsatadi. Oldindan ish izlagan va jamg‘arma bilan qaytgan fuqaro bilan kutilmagan sharoitda daromadsiz qaytgan fuqaro uchun xizmatlar ketma-ketligi bir xil bo‘lishi shart emas. O‘zbekiston uchun bundan kelib chiqadigan taklif — yordam turini faqat migratsiya tajribasi mavjudligiga qarab emas, qaytish sharoiti, kasbiy imkoniyat va joriy ehtiyoj bo‘yicha belgilashdir.

Dustmann va Kirchkamp migratsiya davomiyligi bilan qaytgandan keyingi faoliyat tanlovini birgalikda o‘rganadi [2]. Bu yondashuv reintegratsiya rejasini qaytishdan avval boshlashni nazariy jihatdan asoslaydi: jamg‘arma maqsadi, vatandagi ish imkoniyati va kelajakdagi faoliyat o‘zaro bog‘liq qarorlardir. Biroq xorijda ishlagan har bir kishini tadbirkorlikka yo‘naltirish ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosa emas. Yollanma mehnatda samarali bo‘lgan mutaxassisda mahsulot sotish, xarajatlarni boshqarish yoki bozor tavakkalini baholash tajribasi bo‘lmasligi mumkin.

Wahbaning Misr uy xo‘jaliklari ma’lumotlariga asoslangan tadqiqotida vaqtinchalik xorijiy mehnat tajribasi qaytganlarning ish haqi ustamasi bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Muallif migratsiyaga ketish, qaytish, mehnat bozorida qatnashish va kasb tanlashdagi saralanishni hisobga oladi; ketish va qaytishdagi saralanishni e’tiborsiz qoldirish natijani oshirib baholashi mumkinligini ko‘rsatadi [3]. Demak, qaytganlar daromadini migratsiya qilmaganlar daromadi bilan oddiy solishtirish tajribaning sof ta’sirini bermaydi. O‘zbekistonda ham ta’lim, boshlang‘ich malaka, yosh, hudud va avvalgi bandlik kabi omillarni hisobga olish zarur.

1-jadval

Qaytgan migrantlar ko‘nikmalaridan foydalanish: to‘siqlar, choralar va baholash mezonlari

Ehtimoliy to‘siq	Taklif etilayotgan chora	Baholash mezoni
Kasbiy tajriba haqida axborot yetishmasligi	Bajarilgan vazifalar va ish namunalarini kasbiy portfelda qayd etish.	Kasbiy profili to‘liq tuzilgan ishtirokchilar ulushi.
Amaliy ko‘nikmaning hujjat bilan tasdiqlanmaganligi	Mustaqil amaliy sinov; aniqlangan malaka tafovuti bo‘yicha qisqa o‘quv moduli.	6 va 12 oydan so‘ng ko‘nikmasiga mos ishda band ishtirokchilar ulushi.
Ko‘nikma bilan hududiy talabning mos kelmasligi	Korxona vakansiyasiga moslashtirish; qatnov yoki ko‘chish xarajatini hisobga olish.	Barqaror bandlik ulushi; uy-joy va qatnov xarajatlaridan keyingi mehnat daromadi.

Manba: *[4], [5] asosida muallif tomonidan tuzilgan. Mezonlar sinov dasturi uchun taklif etilgan; statistik natijalarni ifodalamaydi*.

Xorijiy tajriba mehnat bozorida qadrlanishi uchun ish beruvchi uning mazmuni va sifatini baholay olishi kerak. ILO qo‘llanmasida dalillar portfeli, kompetensiya standartlari va baholash xizmatlari ko‘rib chiqiladi [4]. Shu yondashuv asosida ko‘nikmadan foydalanishni cheklashi mumkin bo‘lgan uch omil hamda ularni bartaraf etish choralarini 1-jadvalda tizimlashtirish taklif etiladi.

1-jadvalda kasbiy profilning tuzilishi oraliq natija, malakaga mos va barqaror bandlik esa yakuniy natija sifatida ajratildi. Ulushlar dasturga dastlab qabul qilingan ishtirokchilar soniga nisbatan hisoblanishi taklif etiladi; kuzatuvda topilmaganlar alohida koʻrsatiladi. Barqaror bandlik mezoni sifatida kuzatuvgacha kamida olti oy uzluksiz ishlash olinadi. Sertifikatning oʻzi ish oʻrni yaratmagani uchun baholash mahalliy talab bilan bogʻlanishi kerak. Boshqa hududdagi yuqoriroq maosh esa uy-joy va qatnov xarajatlari hisobga olingandan keyin baholanadi.

ILOning mehnat bozoriga reintegratsiya boʻyicha tavsiyalari bandlik imkoniyatlari, moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlar hamda ijtimoiy ehtiyojlarni birgalikda koʻrishni nazarda tutadi [5]. Shu asosda Oʻzbekistonda cheklangan hudud va kasblar doirasida sinov dasturini tashkil etish taklif qilinadi. Uning boshlangʻich bosqichida yangi ommaviy oʻquv kurslarini ochishdan oldin ish beruvchilarning aniq vazifalar va malaka boʻyicha talabi aniqlanadi. Sinovga kasblar ham aynan mavjud talab va baholash imkoniyati boʻyicha tanlanadi.

Murojaat qilgan fuqaro bilan suhbatda uning qaytish sababi, mehnat tajribasi, daromadga ehtiyoji va ishlash imkoniyati aniqlanadi. Koʻnikmasi yetarli shaxs amaliy baholashdan soʻng mos ishga tavsiya etiladi; qisman tafovut boʻlsa, faqat yetishmayotgan kompetensiya boʻyicha oʻqitiladi. Faoliyat boshlash istagi va asoslangan bozori bor shaxsga tadbirkorlik boʻyicha xizmat taklif etiladi. Shoshilinch ijtimoiy ehtiyoj mavjud boʻlsa, unga koʻmaklashish kasbiy tayyorgarlik bilan muvofiqlashtiriladi. Bu taqsimot qat’iy yorliq boʻlmasligi kerak: fuqaroning vaziyati oʻzgarganda xizmat yoʻnalishi qayta koʻrib chiqiladi.

Sinov dasturida har bir ishtirokchi uchun mas’ul maslahatchi xizmatlar oʻrtasidagi uzilishni kamaytirishi mumkin. Ish beruvchilar amaliy topshiriqlarni ishlab chiqishda qatnashadi, biroq baholash mezoni bitta korxonaning tor ehtiyojiga qaram boʻlib qolmasligi lozim. Xizmatdan foydalanish faqat raqamli ariza bilan cheklanmasligi, maslahat yuzma-yuz ham mavjud boʻlishi kerak. Ma’lumot almashish fuqaroning roziligi va vazifa uchun zarur hajm bilan chegaralanadi. Dasturdan foydalana olmayotgan guruhlar haqida alohida qayd yuritish uning faqat eng tayyor nomzodlarni qamrab olish xavfini aniqlashga yordam beradi.

Moliyalashtirish tartibi ham xizmat koʻrsatuvchining xatti-harakatiga ta’sir qiladi. Toʻlov faqat berilgan sertifikat soniga bogʻlansa, tashkilot baholash talablarini yumshatishga moyil boʻlishi mumkin; faqat ishga joylashish natijasiga bogʻlansa, yordamga koʻproq muhtoj fuqarolar chetda qolishi ehtimoli bor. Shuning uchun sinovda xizmat xarajati uchun asosiy toʻlovni va mustaqil tekshirilgan natija uchun qoʻshimcha toʻlovni uygʻunlashtirish koʻrib chiqiladi. Guruhlarning boshlangʻich sharoiti alohida hisobga olinadi. Natija uchun ragʻbat vaqtinchalik yoki qogʻozdagi bandlikni koʻpaytirmasligi uchun keyingi kuzatuv bilan bogʻlanadi.

Taklif etilayotgan dastur samarasi berilgan sertifikatlar yoki ajratilgan mablagʻlar soni bilan cheklanmasligi kerak. Kuzatuvning asosiy natijalari sifatida olti va oʻn ikki oydan keyingi bandlik, ishlangan soatga toʻgʻrilangan real daromad, ishning baholangan koʻnikmaga mosligi va bandlikning davomiyligi olinishi

mumkin. Tadbirkorlik yo‘nalishida ro‘yxatdan o‘tish bilan birga faoliyatning davom etishi ham tekshiriladi. Qayta xorijga ketish alohida sabablar bo‘yicha qayd etiladi: yuqoriroq daromadni ixtiyoriy tanlashni reintegratsiya muvaffaqiyatsizligi bilan tenglashtirish metodologik xato bo‘ladi.

Sababiy ta’sirni aniqlash uchun dasturga kirishdan oldingi holat va taqqoslash guruhi kerak. Xizmat quvvati cheklanganda, bir xil mezonlarga mos va rozilik bildirgan nomzodlar orasida xizmatni olish navbatini tasodifiy belgilash imkoniyati ko‘rib chiqilishi mumkin; shoshilinch yordam bundan mustasno bo‘lishi lozim. Bunda xizmat taklif etilgan guruh bilan keyingi navbatdagi guruh solishtiriladi. Ishtirokchilarning kuzatuvdan chiqib ketishi va ish o‘rinlarining boshqa xodimlar hisobidan egallanishi ham baholanadi. Muqobil usul — bosqichma-bosqich joriy etilgan hududlarni solishtirish, ammo bunda dasturgacha bo‘lgan tendensiyalar mosligi tekshirilishi zarur.

Mazkur tezis O‘zbekistondagi uzilishlarning tarqalish darajasini yoki taklif etilgan xizmatlarning iqtisodiy samarasini o‘lchamaydi. Buning uchun migrantlar va ish beruvchilar so‘rovi, baholash xarajatlari hamda keyingi bandlik kuzatuvi talab etiladi. Shuningdek, muayyan kasbda ijobiy natija kuzatilishi boshqa kasb yoki hududda ayni natijani kafolatlamaydi. Dastur ko‘lamini kengaytirish qarori qo‘shimcha barqaror bandlik natijasi va unga sarflangan xarajatni muqobil bandlik xizmatlari bilan qiyoslashga tayanishi kerak.

Qaytgan migrant tajribasidan foydalanishning markaziy masalasi tajriba mavjudligini qayd etishdan uni ish beruvchi baholay oladigan va mahalliy ishlab chiqarishda qo‘llanadigan ko‘nikmaga aylantirishga o‘tishdir. Taklif etilgan yondashuv qaytish sharoitini baholash, amaliy kompetensiyani tasdiqlash va hududiy talabga mos xizmatni tanlashni bog‘laydi. Uning ilmiy-amaliy qiymati tekshiriladigan farazni shakllantirishidadir: shu bosqichlar birgalikda ishlaganda malakaga mos bandlik ehtimoli alohida sertifikatlashga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Ushbu farazni mahalliy sinov orqali tekshirish reintegratsiya siyosatini kuzatilgan natijalar asosida takomillashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Cassarino J.-P. Theorising Return Migration: The Conceptual Approach to Return Migrants Revisited // International Journal on Multicultural Societies. 2004. Vol. 6, No. 2. P. 253–279.

2. Dustmann C., Kirchkamp O. The optimal migration duration and activity choice after re-migration // Journal of Development Economics. 2002. Vol. 67, No. 2. P. 351–372. DOI: 10.1016/S0304-3878(01)00193-6.

3. Wahba J. Selection, selection, selection: the impact of return migration // Journal of Population Economics. 2015. Vol. 28, No. 3. P. 535–563. DOI: 10.1007/s00148-015-0541-4.

4. Lythe D. Guidelines for recognizing the skills of returning migrant workers. Bangkok: International Labour Organization, 2020. iv, 26 p.

5. International Labour Organization. Guidelines on labour market reintegration upon return in origin countries. Geneva: ILO, 2023. ISBN: 978-92-2-037240-1.

XORIJDAGI MEHNAT MIGRANTLARIGA IJTIMOIY XIZMATLAR KO‘RSATISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH: HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Normuxamatova E’zoza Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi talabasi.
ezozanormuxamatova@gmail.com

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyoti va aholi farovonligi uchun muhim omilga aylandi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2,3 milliondan ortiq fuqaro xorijda mehnat qilmoqda, ularning taxminan 1 million nafari esa Rossiyada faoliyat yuritadi [2].

Markaziy bank hisob-kitoblariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatga kirib kelgan pul o‘tkazmalari hajmi 18,9 milliard dollarni tashkil etdi; bu 2020-yilda qayd etilgan ko‘rsatkichdan (6 milliard dollar) uch baravar ko‘pdir [5]. Bu 2024-yildagi 14,8 milliard dollarlik ko‘rsatkichga nisbatan 27,2 foizlik o‘sishni anglatadi. Shu bilan birga, aholi umumiy daromadida pul o‘tkazmalarining ulushi 16,5 foizdan 21 foizgacha oshdi [6]. Shu tariqa, migrantlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki iqtisodiy barqarorlik bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Davlat ushbu sohada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2024-yil aprel oyidagi farmonga muvofiq, Buyuk Britaniya, BAA, Vengriya, Germaniya, Latviya, Polsha va Yaponiyadagi diplomatik vakolatxonalarga mehnat migratsiyasi bo‘yicha attashelar tayinlanishi; "Xorijda ish" (*Work Abroad*) platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tganlarga xarajatlarni qoplash uchun to‘lovlar amalga oshirilishi; qaytib kelgan migrantlar ro‘yxati mahalla darajasida yuritilishi; ota-onasi xorijda bo‘lgan bolalarga "Inson" markazlari tomonidan yordam ko‘rsatilishi belgilandi [4]. Migratsiyaga chiqish istagida bo‘lganlar "Onlayn mahalla" platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi [3]. Migratsiya agentligiga migratsiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan sug‘urtalanmagan migrantlarning davolanish xarajatlarini qoplash vakolati berildi [2].

Biroq, 2025-yilning noyabr oyida Prezidentga taqdim etilgan hisobotda migratsiya xizmatlarining tarqoq xususiyatiga e’tibor qaratildi. "Chet elda ishlash" ("Work Abroad") platformasi 25 turdagi xizmatni taklif etadi va yil boshidan buyon undan 524 ming nafar fuqaro foydalangan, biroq barcha xizmatlar ham raqamlashtirilmagan. Noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq firibgarlik holatlari ham ko‘paygan [1]. Nisbiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha, foydalanuvchilar chet eldagi fuqarolarning umumiy soni (2,3 million)ning taxminan 23 foizini tashkil etadi.

AQSh, Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya va Rossiyaning migratsiya platformalarini taqqoslagan holda, Abdug‘aniyev [8] ularning foydalanish uchun qulayligi va ko‘p tillilik imkoniyatlarini ijobiy jihatlar sifatida qayd etadi, shu bilan birga, cheklangan interaktivlik va til to‘siqlarini kamchiliklar sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning ta’kidlashicha, Rossiya platformasida qiyin vaziyatga tushib qolgan fuqaro mobil aloqa orqali SOS signalini yubora olmaydi, Koreya

platformasida esa deportatsiya qilingan shaxslarning holatini tekshirishga mo‘ljallangan elektron tizim mavjud emas.

Rixsimbayev va boshqalar [9] raqamli vositalar migratsiyani boshqarish samaradorligini oshirishi va chekka hududlardagi migrantlarga xizmat ko‘rsatishga yordam berishi mumkinligini ta’kidlab, qaytib kelgan migrantlar ma’lumotlar bazasi hamda qabul qiluvchi mamlakat tiliga moslashtirilgan ilova zarurligini qayd etadilar. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar barcha muammolarni hal qila olmaydi. Tadqiqotda, shuningdek, dastur doirasida ko‘rsatilgan xizmatlarning 18 foizi (107 564 ta) Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgani va bu xizmatlardan foydalanishda geografik jihatdan notekis taqsimlanish kuzatilgani qayd etilgan.

Shvetsiyadagi o‘zbekistonlik migrantlar misolini o‘rgangan Eraliyev va boshqalar [10] Telegram kabi platformalar ish va uy-joy topishda muhim "omon qolish infratuzilmasi" vazifasini o‘tashi bilan birga, ekspluatatsiya xavfini ham oshirishini ko‘rsatib berdilar.

Lim [11] Seul va Londonda ko‘ngillilar va ijtimoiy xodimlar kabi "raqamli vositachilar" migrantlarga raqamli davlat xizmatlaridan foydalanishda yordam berishini, biroq bu mehnat e’tirof etilmasligini aniqladi.

1-jadval

Migrantlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda qo‘llaniladigan raqamli vositalar tahlili

№	Vosita	Vazifasi	Aniqlangan muammo	Takomillashtirish yo‘nalishi
1	“Xorijda ish” platformasi [1, 4]	Vakansiyalar, ariza, 25 turdagi xizmat, kompensatsiya	Xizmatlar tarqoq, hammasi raqamlashtirilmagan	Barcha xizmatlarni yagona oynaga jamlash
2	“Onlayn mahalla” [3]	Potensial migrantlarni ro‘yxatga olish	Asosan chiqish oldi bosqichiga yo‘naltirilgan	Qaytgan migrantlar modulini qo‘shish
3	Mahalladagi qaytgan migrantlar hisobi va ijtimoiy xodimlar monitoringi [4]	Reintegratsiya yordami, oilalar ehtiyojini aniqlash	Ma’lumotlar platforma bilan real vaqtda bog‘lanmagan	Yagona elektron reyestr bilan integratsiya
4	Telegram va ijtimoiy tarmoqlar [10]	Ish, uy-joy, o‘zaro yordam	Ekspluatatsiya va firibgarlik xavfi [1, 10]	Rasmiy ko‘p tilli bot, litsenziyalangan agentliklarni tekshirish
5	Xorij tajribasi: Rossiya IIV, Koreya axborot markazi (20 tilda) [8]	Kirish taqiqini tekshirish, ko‘p tilli maslahat	SOS signal va deportatsiya tekshiruvi yo‘q [8]	SOS tugmasi, taqiq va deportatsiya maqomini tekshirish moduli

Bu yerda O‘zbekistonda mavjud asosiy raqamli vositalar, aniqlangan muammolar va takomillashtirishni talab qiluvchi yo‘nalishlar jamlab keltirilgan. Jadval shuni ko‘rsatadiki, asosiy muammo raqamli vositalarning yetishmasligida emas, balki ularning tarqoqligi hamda xorijdagi migrantlarning real vaqt rejimidagi ehtiyojlarini qondira olmasligidadir.

Takliflar quyidagilardan iborat:

Yagona raqamli interfeys yaratish: Xizmatlar tarqoqligini bartaraf etish maqsadida "Chet elda ishlash", OneID, sug‘urta, bank va "Inson" markazlari kabi xizmatlarni bitta mobil ilovada birlashtirish [1].

Favqulodda yordam tizimi: Rossiya modelida kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ilovaga SOS tugmasini (signalni eng yaqin elchixona yoki attashega yo‘naltiruvchi) joriy etish [8]. Shuningdek, o‘zbek, rus va boshqa tillarda mavjud bo‘lgan, tunu-kun ishlaydigan maslahat chat xizmatini yo‘lga qo‘yish.

Qaytib kelgan migrantlarning elektron reyestri: Mahallalar hisobini [4] bandlik va kasb-hunarga o‘qitish xizmatlari bilan bog‘lash. Kirish taqiqlari va deportatsiya holatini tekshirish modulini qo‘shish [8, 9].

Ishonchli axborot kanallari va raqamli savodxonlik: Telegramdagi firibgarlik xavfini kamaytirish uchun litsenziyaga ega agentliklar ro‘yxatini ochiq tekshirish imkoniyatini yaratish [10] hamda mahalla darajasida "raqamli vositachilar" tizimini tashkil etish [11].

Raqamli platformalar migrantlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning asosiy vositasiga aylanib bormoqda; biroq ularning samaradorligi xizmatlarning integratsiyalashuvi, favqulodda yordam mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi va qaytib kelgan migrantlar uchun reyestr yaratilishiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. Remittances to Uzbekistan reach $15.8 billion in ten months. Kun.uz, 19.11.2025. https://kun.uz/en/news/2025/11/19/remittances-to-uzbekistan-reach-158
2. Uzbek president establishes migration agency to protect the rights of compatriots working abroad. Interfax, 25.10.2024. https://interfax.com/newsroom/top-stories/107075/
3. Gazeta.uz (03.04.2024). https://gazeta.uz/en/2024/04/03/migrants
4. Gazeta.uz (10.04.2024). https://gazeta.uz/en/2024/04/10/labor-migration
5. Remittances to Uzbekistan exceed $18.9 billion, tripling in five years. Kun.uz, 17.03.2026. https://kun.uz/en/news/2026/03/17/remittances-to-uzbekistan-exceed-189
6. Remittances to Uzbekistan Reach Nearly $19 Billion, Exceeding Central Bank Forecasts. Fergana Agency. https://en.fergana.agency/news/145144/
7. Abduganiyev, U. (2026). Prospects of Managing Migration through Digital Technologies. Society and Innovations, 7(4), 328–338. https://doi.org/10.47689/2181-1415

XORIJDAN QAYTGAN MEHNAT MIGRANTLARINI BANDLIKKA QAYTA INTEGRATSIYA QILISH MEXANIZMLARI

Qironov Temur Jamshid o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
temurqironov14@gmail.com

Mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyoti va bandlik sektorining ajralmas qismiga aylandi. Migratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati ichki tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da [1], chet eldan qaytgan fuqarolarni ichki mehnat bozoriga qayta integratsiya qilish masalasi yetarlicha ko‘rib chiqilmagan.

Migratsiyaning iqtisodiy ta’siri asosan pul o‘tkazmalari orqali namoyon bo‘lganligi sababli, ushbu maqolada avval ushbu oqimlarning dinamikasi o‘rganiladi va keyin qaytgan migrantlarni ishga joylashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni doirasida bandlikni oshirish, migratsiya oqimlarini tartibga solish va qaytgan migrantlarni ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu strategiya talablaridan kelib chiqib, xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini milliy mehnat bozoriga samarali qayta integratsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat 2020-yilda jami 6,0 milliard dollar, 2021-yilda 8,1 milliard dollar va 2022-yilda rekord darajadagi 16,9 milliard dollarlik pul o‘tkazmalarini oldi [2]. 2023-yil yanvaridan iyungacha bo‘lgan davrda pul o‘tkazmalari 5,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2022-yilning shu davriga nisbatan 21,2% ga kam, Rossiya esa umumiy summaning taxminan 80% ni tashkil etdi [2]. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 14,8 milliard dollarga, 2025-yilda esa 18,9 milliard dollarga yetdi [3] (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonga xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari dinamikasi

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2024	2025
Hajmi, mlrd AQSH dollari	6,0	8,1	16,9	14,8	18,9

Manba: *[2, 3] asosida muallif tuzgan. 2023-yil jadvalga kiritilmagan (yanvar–iyun ma’lumoti matnda keltirilgan).*

2025-yilda pul o‘tkazmalari hajmi 27,2% ga o‘sdi va ularning umumiy uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi 16,5% dan 21% gacha oshdi [3]. Pul o‘tkazmalarining asosiy qismi bitta mamlakatdan — Rossiyadan [2] — kelishi bu oqimlarning o‘sha mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga bog‘liqligidan dalolat beradi. Shuning uchun migrantlarning qaytishi va ularning milliy mehnat bozoriga integratsiyalashuvi nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy barqarorlik masalasidir. Agar Rossiyadagi iqtisodiy sharoitlar yomonlashsa yoki migratsiya siyosati qattiqlashsa, pul o‘tkazmalari hajmi keskin kamayishi mumkin, bu esa ichki iste’mol va oilalar farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Migrantlarning soni va geografik taqsimoti ham o‘zgarmoqda. Migratsiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, chet elda ishlayotgan fuqarolar soni 2022-yil oxiridagi 2,1 milliondan 2024-yil oxiridagi 1,35 millionga kamaydi; Rossiyadagi fuqarolar soni 1,2 milliondan 698 mingga kamaydi [4] (2-jadval). 2024-yil yanvar va oktyabr oylari oralig‘ida taxminan 115 ming mehnat migranti o‘z vataniga qaytdi [4]. Bu jarayon bir tomondan ijobiy – mamlakat ichida ishchi kuchi resurslari oshadi, ammo ikkinchi tomondan, ularni tezkor va samarali bandlikka jalb etish muammosini keltirib chiqaradi.

Davlat qaytgan migrantlarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rmoqda. Prezidentning 2024-yil 4-apreldagi farmoniga muvofiq, 2024-yil 1-iyundan 2026-

yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda chet elda kamida uch oy ishlagan va bir yildan kam vaqt oldin qaytib kelgan shaxslarni ishga yollagan ish beruvchilar 12 oy davomida oyiga 500 000 so‘m miqdorida subsidiya oladilar (har bir xodim uchun jami 6 million so‘m); buning asosi Yagona Milliy Mehnat Tizimida ro‘yxatdan o‘tgan mehnat shartnomasidir.

2-jadval.

O‘zbekiston mehnat migrantlari sonining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich davr	Oxirgi davr	O‘zgarish, %
Xorijdagi mehnat migrantlari, ming kishi	2100 (2022-y. oxiri)	1350 (2024-y. oxiri)	–35,7
Shu jumladan Rossiyada, ming kishi	1200 (2023-y. oxiri)	698 (2024-y. oxiri)	–41,8
Shu jumladan Turkiyada, ming kishi	119,8 (2023-y.)	88,7 (2024-y.)	–26,0

Manba: [4] asosida muallif hisob-kitoblari.

Davlat ulushi katta bo‘lgan byudjet tashkilotlari va korxonalar ushbu sxemadan chiqarib tashlangan. Bundan tashqari, qaytgan fuqarolar va ularning oila a’zolari uchun bepul tibbiy ko‘riklar joriy etildi [5].

Biroq, mavjud mexanizmning cheklovlari bor. Birinchidan, subsidiya ish beruvchiga to‘lanadi va migrantning chet eldagi va mahalliy daromadlari o‘rtasidagi ish haqi tafovutini qoplash uchun mo‘ljallanmagan. Ikkinchidan, ushbu chora 2026-yil 1-yanvarda tugashi kerak, ya’ni u doimiy mexanizm emas. Uchinchidan, subsidiya miqdori xodimning malakasi yoki chet elda orttirgan tajribasiga bog‘liq emas. To‘rtinchidan, ochiq manbalarda 12 oylik davrdan keyin rasmiy ish bilan band bo‘lgan vatanga qaytganlarning ulushi haqida aniq statistik ma’lumotlar yetarli emas. Bu esa dastur samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, qaytgan migrantlarning ko‘pchiligi chet elda past malakali ishlarda ishlaganligi sababli, ularning mahalliy mehnat bozorida raqobatbardoshligi past bo‘lishi mumkin. Til bilimlari, kasbiy sertifikatlar va tadbirkorlik ko‘nikmalarining yetishmasligi ham reintegratsiya jarayonini sekinlashtiradi. Shu bois, faqat moliyaviy subsidiya bilan cheklanib qolmasdan, keng qamrovli yondashuv zarur.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy reintegratsiya profili: Migrantning kasbi, til sertifikatlari, ish tajribasi va jamg‘armalari haqidagi ma’lumotlarni ular qaytib kelishidan oldin Yagona Milliy Mehnat Tizimiga kiritish. Bu ma’lumotlarni chet eldagi mehnat attashelari va mahalliy mahalla qo‘mitalari tomonidan to‘plash va yangilab borish lozim.

2. Chet elda orttirilgan ko‘nikmalarni baholash va tan olish: Milliy kasbiy malaka tizimi doirasida xorijiy ish tajribasini sertifikatlash mexanizmini joriy etish va ish haqini ko‘nikma darajasi bilan bog‘lash. Bu orqali migrantlarning motivatsiyasi oshadi va ish beruvchilar malakali kadrlar topadi.

3. Subsidiyalarni doimiy va tabaqalashtirilgan qilish: Subsidiyalar muddatini uzaytirish, miqdorlarni ko‘nikma darajasi, mintaqaviy ishsizlik darajasi va ish beruvchi faoliyat turiga qarab differensiyalash. Bu yondashuv samaradorlikni oshiradi.

4. Tejalgan mablag‘larni tadbirkorlikka yo‘naltirish: Qaytib kelganlar uchun imtiyozli mikrokreditlar, startap grantlari va kichik biznesni ishga tushirish dasturlarini kengaytirish. 2025-yilda 18,9 milliard dollarga yetgan pul o‘tkazmalaridan samarali foydalanish muhim [3].

5. Uyushgan migratsiyani qaytish bilan bog‘lash: Migratsiya agentligi orqali rasmiy kanallar orqali joylashtirilgan fuqarolar uchun qaytib kelgandan keyingi ish bilan ta’minlash shartnomalari tuzish va monitoring ko‘rsatkichlarini (xususan, 12 oydan keyin qaytib kelganlarning rasmiy ish bilan ta’minlanish darajasi) joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, qaytgan migrantlarni nafaqat qisqa muddatli subsidiyalar orqali, balki ko‘nikmalarni tan olish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy profil yaratish va natijalarni doimiy monitoring qilishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli tizim orqali ishchi kuchiga qayta integratsiya qilish juda muhimdir. Ushbu mexanizmlar «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida bandlikni oshirish, migratsiya oqimlarini boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Natijada, nafaqat qaytgan fuqarolar va ularning oilalari farovonligi oshadi, balki milliy mehnat bozorining raqobatbardoshligi ham mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. Malika M. Migratsiyaning jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘rni. Elita.uz – Elektron ilmiy jurnal. 2024, 1-noyabr; 2(1): 48–51.

2. Volume of remittances to Uzbekistan amounted to $5.2 billion in Jan-Jun 2023. Kun.uz, 28.07.2023. https://beta.kun.uz/en/news/2023/07/28/volume-of-remittances-to-

3. Remittances to Uzbekistan Reach Nearly $19 Billion, Exceeding Central Bank Forecasts. Fergana. https://en.fergana.agency/news/145144/

4. Number of labor migrants from Uzbekistan abroad decreased to 1.35 million. Gazeta.uz, 22.01.2025. https://gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant

5. Uzbekistan introduces subsidies to boost employment for returned labor migrants. Kun.uz, 08.04.2024. https://m.kun.uz/en/news/2024/04/08/uzbekistan-introduces-subsidies-to-boost-employment-for-returned-labor-migrants

MEHNAT MIGRANTLARINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI MOLIYALASHTIRISHDA MIGRATSIYA JAMG‘ARMASINING ROLI


Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mohiraismoilova562@gmail.com

Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlardan biridir. Mehnat migrantlarining xorijiy davlatlarda qonuniy va xavfsiz bandligini ta’minlash, ularning xorijga chiqishidan oldingi tayyorgarligini kuchaytirish hamda og‘ir

vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash migratsiya siyosatining muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarning mavjudligi va ulardan maqsadli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini samarali boshqarish, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda migratsiya bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida Migratsiya jamg‘armasining tashkil etilishi davlat moliyaviy mexanizmlarining mazkur yo‘nalishga institutsional jihatdan moslashtirilganini ko‘rsatadi. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son farmoni [1] asosida tashkil etilgan bo‘lib, uning moliyaviy faoliyati migrantlarni faqat xorijga yuborish jarayonini qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki migratsiyaning turli bosqichlarida, ketishdan oldingi tayyorgarlikdan tortib, xorijda yuzaga keladigan favqulodda ijtimoiy holatlargacha davlat tomonidan moliyaviy himoya mexanizmlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

2025-yil yakunlari jamg‘armaning moliyaviy salohiyati sezilarli darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Hisobot yilining boshida jamg‘arma ixtiyorida 162,1 mlrd so‘m mablag‘ mavjud bo‘lib, uning 138,0 mlrd so‘mi, ya’ni qariyb 85 foizi depozitda saqlangan. 2025-yil davomida esa jamg‘armaga 176,9 mlrd so‘m daromad kelib tushgan. Natijada yil boshidagi qoldiq va joriy yil daromadlarini birgalikda hisobga olganda, jamg‘armaning yil davomida foydalanishi mumkin bo‘lgan jami moliyaviy resurslari 339,0 mlrd so‘mni tashkil etgan. [2] Mazkur ko‘rsatkich jamg‘armaning migrantlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mustaqil va nisbatan barqaror moliyaviy manba sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi.




1-rasm. Migratsiya jamg‘armasi daromadlarining 2025-yildagi tarkibiy tuzilishi (mlrd. so‘mda) [2]

Jamg‘arma daromadlarining tarkibi ham uning moliyalashtirish modelining muhim xususiyatlarini ochib beradi. Yuqoridagi rasm ma’lumotlariga nazar tashlasak, 2025-yildagi 176,9 mlrd so‘mlik daromadning 98,8 mlrd so‘mi, ya’ni

qariyb 55,8 foizi, ruxsatnoma berishdan tushadigan mablag‘larning 50 foizi hisobidan shakllangan. Respublika budjetidan ajratilgan 50 mlrd so‘m esa jami daromadlarning 28,3 foizini tashkil qilgan. Xususiy bandlik agentliklari litsenziya bitimi doirasidagi tushumlar 3,2 mlrd so‘m, boshqa tushumlar esa 24,9 mlrd so‘m bo‘lgan. Demak, jamg‘arma moliyaviy jihatdan faqat davlat budjeti transfertlariga tayanmaydi, uning daromad bazasida migratsiya jarayonining o‘zidan shakllanadigan mablag‘lar ham katta ulushga ega. Bu holat migratsiya bilan bog‘liq davlat xarajatlarini ma’lum darajada shu jarayonning o‘zida yaratiladigan moliyaviy resurslar orqali qoplash imkonini beradi.

2025-yil xarajatlari jamg‘armaning moliyaviy faoliyatida yanada muhim jihatni namoyon etadi.



Xarajat yo'nalishi	Xorijdagi migrantlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish	Subsidiya va kompensatsiyalar	Migratsiyaga tayyorgarlik	Xorijiy vakolatxonalar xarajatlari	Mikrokreditlar ajratish	Zahira mablag'larni agentlik ixtiyoriga o'tkazish	Boshqa xarajatlar
Summa (mlrd. So'm)	16,2	3,6	86,2	39,5	25	30,2	13,2

2-rasm. Migratsiya jamg‘armasi mablag‘larining 2025-yilda xarajat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti [2]

Hisobot yilida jami 214,0 mlrd so‘m xarajat qilingan bo‘lib, bu joriy yil daromadlaridan 37,1 mlrd so‘mga ko‘p. Boshqa so‘z bilan aytganda, jamg‘arma 2025-yilda xarajatlarini faqat joriy tushumlar hisobidan moliyalashtirmagan, balki yil boshidagi qoldiq mablag‘lardan ham foydalangan. Shunga qaramay, yil yakunida 125,0 mlrd so‘m qoldiq saqlanib qolgan, shundan 118,0 mlrd so‘mi depozitda joylashtirilgan. Bu jamg‘armaning joriy xarajatlarni moliyalashtirish bilan bir qatorda, kelgusidagi favqulodda holatlar uchun ham sezilarli moliyaviy zaxira saqlayotganini anglatadi.

2025-yilda jamg‘arma xarajatlarining 16,2 mlrd so‘mi xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatish, ularni vatanga qaytarish hamda tibbiy xizmatlar bilan ta’minlashga, 3,6 mlrd so‘mi esa migrantlarga subsidiya va kompensatsiyalar ajratishga yo‘naltirilgan. Ushbu ikki yo‘nalish bo‘yicha jami 19,8 mlrd so‘m sarflanib, umumiy xarajatlarning 9,3 foizini tashkil etgan. Biroq jamg‘armaning ijtimoiy himoyadagi rolini faqat bevosita

yordam xarajatlari bilan baholash yetarli emas. Xorijga chiqishdan oldingi til va kasbiy tayyorgarlik, moslashtirish hamda tegishli xizmatlarni tashkil etishga 86,2 mlrd so‘m yoki jami xarajatlarning 40,3 foizi yo‘naltirilgan. Bevosita yordam va preventiv choralarni birgalikda hisoblaganda, migrantlarni ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar 106,0 mlrd so‘mga, ya’ni jamg‘arma xarajatlarining qariyb 49,5 foiziga teng. Shunday qilib, Migratsiya jamg‘armasi xarajatlari migrant muammolari yuzaga kelgandan keyin yordam ko‘rsatish bilan cheklanmay, ularning oldini olishga qaratilgan preventiv moliyalashtirish mexanizmi ham shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Jamg‘armaning bevosita ijtimoiy himoya funksiyasi 2025-yildagi amaliy natijalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hisobot davrida mablag‘siz qolgan 3 440 nafar fuqaroni vatanga qaytarish va moddiy yordam ko‘rsatish, 37 nafar fuqaroning vaqtincha joylashtirilishi, 23 nafar fuqaroning tibbiy xizmatlari hamda 406 nafar vafot etgan mehnat migrantining jasadini O‘zbekistonga qaytarish xarajatlari jamg‘arma hisobidan qoplangan. Ayniqsa, so‘nggi yo‘nalish migrant oilalari uchun kutilmagan va yuqori xarajatlarni markazlashtirilgan moliyaviy mexanizm orqali qoplash imkonini berib, individual moliyaviy yukni kamaytiradi.

Shu bilan birga, jamg‘arma faqat yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish emas, balki migratsiyaning dastlabki moliyaviy to‘siqlarini kamaytirishga ham yo‘naltirilgan. 2025-yilda 2 099 nafar fuqaroga ishchi vizasi, yo‘l chiptasi va imtihon xarajatlari uchun 2,4 mlrd so‘m, 543 nafar fuqaroning chet tillari va kasbga o‘qitilishi uchun esa 12,5 mlrd so‘m ajratilgan. Bu mos ravishda bir migrantga o‘rtacha 1,14 mln va 23 mln so‘m miqdoridagi qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Mazkur xarajatlar Migratsiya jamg‘armasi faoliyatining oddiy ijtimoiy yordam bilan cheklanmasdan, migrantlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsion xarakterdagi moliyalashtirish mexanizmlarini ham qamrab olishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, migrantlarning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalashga 1,2 mlrd so‘m yo‘naltirilgani migratsiya risklarini institutsional darajada taqsimlash mexanizmining shakllanayotganini ko‘rsatadi. Umuman, jamg‘arma faoliyati favqulodda ijtimoiy yordam, migratsiya xarajatlarini qoplash, inson kapitaliga investitsiya va risklarni kamaytirish yo‘nalishlarini birlashtirib, mehnat migrantlarining ijtimoiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Migratsiya jamg‘armasi mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirishda kompleks yondashuvni shakllantirmoqda. Jamg‘arma faoliyati migrantlarning muammolarini yuzaga kelgandan keyin bartaraf etish bilangina cheklanmay, ularning xorijga chiqishidan oldingi tayyorgarligi, mehnat bozoriga moslashuvi, migratsiya risklarini kamaytirish va og‘ir vaziyatlarda himoya qilishni ham qamrab olmoqda. Shu jihatdan, jamg‘arma migratsiya jarayonining turli bosqichlarida moliyaviy himoyani ta’minlash orqali mehnat migrantlari va ularning oilalarining ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim davlat moliyaviy institutiga aylanmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son farmoni, 17.10.2024-y. https://www.lex.uz/docs/-7170458

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. Migratsiya jamg‘armasining 2025-yil ijrosi bo‘yicha Tushuntirish xati. – Toshkent, 2026 https://api-portal.gov.uz/uploads/130/2026/02/24/5ffdad97-5539-7bd8-1881-c77b08d8636a_media_.pdf

3. Papa J., Hamdamov H., Sukhova A., Novikova M., Yusupov K., Aliev U. An assessment of the social protection system in Uzbekistan: based on the Core Diagnostic instrument. Joint report by ILO, UNICEF, and the World Bank. – Moscow; Tashkent: ILO, World Bank, UNICEF, 2020. https://researchrepository.ilo.org/esploro/outputs/report/An-assessment-of-the-social-protection/995219458302676

MEHNAT MIGRANTLARINI REINTEGRATSIYA QILISHDA YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEXANIZMIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Usmonova Gulasal Akmal qizi
O‘zMU 1-kurs tayanch doktoranti
usmonova_g@nuu.uz

Bugungi kunda xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarining jadallashuvi mehnat resurslaridan samarali foydalanish, fuqarolarning bandligini ta’minlash va xorijdan qaytib kelayotgan mehnat migrantlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan reintegratsiya qilish masalalarini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, migrantlarning xorijda orttirgan mehnat tajribasi, kasbiy ko‘nikmalari, tadbirkorlik salohiyati va moliyaviy resurslarini mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash va qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish bo‘yicha institutsional mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni “reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta’minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish[1]” maqsadlari belgilangan. Mazkur yondashuv qaytib kelgan migrantlarni nafaqat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, balki ularning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil investitsiyalarni kengaytirish bo‘yicha ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2] qarorida “innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil”

investitsiyalarni jalb qilish” alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Qarorda yashil investitsiyalash va kreditlash tizimini joriy etish, investitsiya loyihalari uchun yashil mezonlarni ishlab chiqish hamda yashil investitsiyalar va kreditlarni rag‘batlantirish bo‘yicha mexanizmlarni shakllantirish vazifalari nazarda tutilgan. Mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish samaradorligini oshirishning muhim resurs manbalaridan biri bo‘lib, ularning xorijda jamg‘argan moliyaviy vositalari va muntazam ravishda mamlakatga yuborayotgan pul o‘tkazmalaridir. So‘nggi yillarda ushbu resursning hajmi va uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni izchil o‘sib borayotganini quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin:

1 – jadval

O‘zbekistonga xorijdan kelib tushgan pul o‘tkazmalari dinamikasi (2021–2025-yy.)


Yil	Hajmi (AQSH dollarida)	Oldingi yilga nisbatan o‘zgarish
2021	8,1 mlrd	1.3 barobar o‘sgan
2022	17,0 mlrd	2,1 barobar o‘sgan
2023	11,4 mlrd	33% ga qisqargan
2024	14,8 mlrd	30% ga (YaIMning 12,2%dan ortig‘i)
2025	18,9 mlrd	27,7% ga o‘sgan

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, pul o‘tkazmalari hajmi nafaqat barqaror o‘sish tendensiyasiga, balki yuqori volatillikka ham ega bo‘lib, bu geosiyosiy omillar va migrantlarni asosiy qabul qiluvchi davlatlardagi iqtisodiy vaziyatga bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. 2024-yilda mamlakatga kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmi yalpi ichki mahsulotning 12,2 foizidan ortig‘ini tashkil etgani ushbu resursning makroiqtisodiy ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi. Bunday yirik va barqaror moliyaviy oqimning bir qismini yashil investitsiyalar bozori vositalari orqali, xususan, yashil depozitlar, diaspora obligatsiyalari va subsidiyalangan yashil kreditlar orqali qayta tiklanuvchi energetika, suv tejovchi texnologiyalar va ekologik tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltirish reintegratsiya siyosatining yangi yo‘nalishi hisoblanadi.

Reintegratsiya dasturlarini samarali loyihalashtirish uchun migrantlarning geografik taqsimotini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan migrantlarning daromad darajasi, jamg‘arish salohiyati va vatanga qaytish sur’ati farqlanadi. Jahon banki tomonidan BMT IIMD ma’lumotlariga tayanib tayyorlangan tahlilga ko‘ra, o‘zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyat qismi quyidagi uchta davlatda faoliyat yuritadi.

Ma’lumotlariga asosan migrantlarning 57 foizga yaqini Rossiya Federatsiyasida, 15 foizi Qozog‘istonda va 10 foizi Ukrainada faoliyat yuritgan, qolgan 18 foizi esa boshqa davlatlarga to‘g‘ri keladi. Bu, birinchidan, reintegratsiya va yashil moliyalashtirish dasturlarini, birinchi navbatda, Rossiyadan qaytayotgan migrantlar ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini, ikkinchidan, so‘nggi yillarda migratsiya geografiyasining kengayib borayotganini – xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Janubiy Koreya ulushining oshib borayotganini hisobga olgan holda yashil moliyaviy vositalarni turli valyuta va

huquqiy tizimlarda taklif etish imkoniyatlarini ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.



1-rasm. O‘zbekiston fuqarolarining 2026-yil 1-yarim yillik yakuni bo‘yicha mehnat migratsiyasini amalga oshirgan davlatlar taqsimoti

Manba: *https://stat.uz/uz/ ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan*

Yashil investitsiyalar bozori mexanizmining amaliy salohiyatini O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi suveren obligatsiyalar tajribasi ham tasdiqlaydi. 2021-yil avgust oyida Moliya vazirligi London fond birjasida MDH mintaqasida birinchi bo‘lib Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) yo‘naltirilgan suveren obligatsiyani joylashtirdi. Ushbu mablag‘lar ta’lim, suv xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, yashil transport, tabiiy resurslarni boshqarish va yashil energetika kabi soxalarni moliyalashtirishga sarflandi. 2021-yil iyul oyida ilk Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) obligatsiyalarining muvaffaqiyatli chiqarilishi ortidan O‘zbekiston 2023-yilda o‘zining birinchi suveren yashil obligatsiyasini emissiya qilib, 4,25 trln so‘m miqdorida mablag‘ jalb etdi. 2024-yilga kelib, xorijiy valyutada ikkinchi BRM obligatsiya chiqarilib, uning natijasida 600 mln yevro miqdorida moliyaviy resurs safarbar qilindi [3]. Demak, O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish infratuzilmasi shakllanish bosqichida bo‘lib, davlat darajasida sinovdan o‘tkazilgan mexanizmlar mavjud.

Ammo, hozirgacha bu mexanizmlar mehnat migrantlari va ularning oilalari resurslarini jalb etishga maxsus yo‘naltirilmagan. Shuning uchun, qaytib kelayotgan migrantlarning jamg‘armalarini yashil kredit liniyalari, subsidiyalangan foiz stavkalari va davlat kafolatlari orqali qayta tiklanuvchi energetika (quyosh panellari o‘rnatish, issiqxonalarni isitish tizimlarini modernizatsiya qilish), suv tejovchi qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va kichik ekologik tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltiruvchi maxsus dastur va moliyaviy

mahsulotlarni ishlab chiqarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [4] belgilangan vazifalarni o‘zaro uyg‘unlashtirishning dolzarb yo‘nalishi sifatida baholanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. // https://www.lex.uz/uz/docs/-6868721

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. // https://lex.uz/docs/-6303230

3. United Nations Development Programme (UNDP). Uzbekistan October 2023 Green *Bond First Allocation and Impact Report. – Tashkent, 2024. P 6. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/uzbekistan-october-2023-green-bond-first-allocation-and-impact-report.*

4. https://stat.uz/uz/ ma’lumotlar bazasi

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕХАНИЗМОВ ИНТЕГРАЦИИ КАДРОВ, ВЕРНУВШИХСЯ ИЗ ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ, НА РЫНОК ТРУДА

Оманова Камола Ботир кизи
Научно-исследовательский центр "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ
kamolabotirovna97@gmail.com

Международная трудовая миграция в настоящее время выступает одним из наиболее важных и характерных аспектов миграционных процессов. Исследователи, изучающие данную проблему на мировом уровне, отмечают усиление тенденций широкомасштабного перемещения трудовых ресурсов между государствами, а также использования рабочей силы за пределами постоянного места проживания. Приток иностранной рабочей силы на национальный рынок труда одновременно порождает как положительные, так и отрицательные последствия. С одной стороны, наличие дополнительных трудовых ресурсов создаёт новые возможности для экономического роста и увеличения объёмов производства.

С другой стороны, усиление конкуренции между местным населением и иностранными работниками, снижение уровня заработной платы и рост безработицы приводят к возникновению определённых проблем. В этой связи возникает необходимость разработки и реализации эффективных механизмов, направленных на защиту национального рынка труда от избыточного предложения рабочей силы, обеспечение интересов

населения, поддержку роста заработной платы и снижение уровня безработицы. Эти процессы также тесно связаны с внедрением современных технологий и новых форм организации труда. Вместе с тем остаётся открытым вопрос о том, от кого и в какой степени следует защищать национальный рынок труда, а также насколько точно учитываются масштабы привлечения иностранной рабочей силы и её использования в федеральном и региональном разрезах. Специалисты единодушно отмечают, что применяемая административная статистика и другие наблюдательные данные недостаточно полны, достоверны и актуальны для принятия эффективных управленческих решений. В условиях современной глобализации усиливается международная мобильность трудовых ресурсов, и внешняя трудовая миграция становится важной составляющей социально-экономического развития многих стран. С одной стороны, внешняя миграция способствует снижению давления на рынок труда в регионах с избыточной рабочей силой, с другой стороны, на заключительном этапе миграционного процесса — при возвращении мигрантов — возникают сложные проблемы, связанные с их повторной интеграцией в национальный рынок труда. Особую актуальность приобретает вопрос эффективного использования знаний, навыков и трудового опыта, приобретённых мигрантами за рубежом, в условиях внутреннего рынка труда.

Практика показывает, что профессиональный потенциал кадров, вернувшихся из внешней миграции, не всегда полностью соответствует потребностям внутреннего рынка труда. Данное обстоятельство приводит к несоответствию навыков, низкому уровню формальной занятости, а также усилению процессов повторной миграции. Существующие механизмы содействия занятости и переподготовки зачастую основаны на общих подходах и не позволяют в полной мере учитывать индивидуальные профессиональные возможности возвращённых мигрантов. В результате снижается эффективность использования человеческого капитала.

В последние годы стремительное развитие цифровых технологий и искусственного интеллекта создаёт возможности для внедрения новых подходов к регулированию рынка труда. Системы, основанные на искусственном интеллекте, выступают в качестве важного инструмента для глубокого анализа потребностей рынка труда, оценки профессионального потенциала кадров и их направления на соответствующие рабочие места. Данные технологии позволяют решать существующие проблемы интеграции возвращённых мигрантов на рынок труда на основе системного и индивидуализированного подхода.

В этой связи особое значение приобретает научное исследование вопросов совершенствования механизмов интеграции кадров, вернувшихся из внешней миграции, в рынок труда на основе искусственного интеллекта и инновационных подходов. Цель данного исследования заключается в анализе процесса эффективной интеграции возвращённых мигрантов в внутренний рынок труда, а также в научном

обосновании путей его совершенствования с использованием технологий искусственного интеллекта.

В условиях современной глобальной экономики, характеризующейся усилением межрегиональной мобильности трудовых ресурсов, внешняя трудовая миграция становится важным фактором социально-экономического развития многих стран. С одной стороны, миграционные процессы способствуют снижению давления на рынок труда в регионах с избытком рабочей силы, с другой стороны — удовлетворяют потребности принимающих стран в трудовых ресурсах. Однако заключительный этап миграционного процесса — интеграция кадров, вернувшихся из внешней миграции, в внутренний рынок труда — остаётся недостаточно системно организованным, что приводит к возникновению значимых экономических и социальных проблем [10].

Кадры, вернувшиеся из внешней миграции, несмотря на приобретённый на зарубежных рынках труда определённый профессиональный опыт, трудовую дисциплину и производственную культуру, зачастую не в полной мере соответствуют требованиям внутреннего рынка труда. Данное несоответствие, прежде всего, обусловлено различиями в структуре профессиональных навыков, технологическом уровне, а также институциональными ограничениями на рынке труда [6]. В результате часть возвращённых мигрантов не может интегрироваться в систему формальной занятости и вынуждена либо работать в неформальном секторе, либо вновь принимать решение о повторной миграции [4].

Данная ситуация снижает эффективность использования человеческого капитала, усиливает риск скрытой безработицы и социальной нестабильности на рынке труда. Особенно в условиях технологического прогресса, когда возрастает доля высококвалифицированных и адаптивных кадров, выявление и развитие имеющихся навыков возвращённых мигрантов приобретает особую актуальность [11]. Традиционные системы занятости и переподготовки, как правило, основаны на общих подходах и не обеспечивают возможности глубокого анализа индивидуального профессионального потенциала.

С этой точки зрения внедрение искусственного интеллекта и инновационных подходов в механизмы интеграции кадров, вернувшихся из внешней миграции, в рынок труда выступает как современное и научно обоснованное решение. В научных исследованиях подчёркивается, что технологии искусственного интеллекта обладают значительными возможностями для согласования спроса и предложения на рынке труда, снижения несоответствия навыков и эффективного распределения кадров [1]. Такие технологии позволяют обрабатывать большие объёмы данных, формировать индивидуальные профессиональные профили и определять подходящие рабочие места.

На основе искусственного интеллекта возможно комплексное анализирование уровня образования возвращённых мигрантов,

приобретённого за рубежом трудового опыта, неформальных навыков и истории трудовой деятельности. В отличие от традиционных методов оценки, данный подход снижает субъективность и способствует более точному определению реального профессионального потенциала [7]. В результате расширяются возможности для эффективного направления возвращённых кадров в соответствии с потребностями внутреннего рынка труда и повышения уровня их занятости.

В рамках инновационных подходов цифровые платформы, разработанные на основе искусственного интеллекта, позволяют индивидуализировать процессы переподготовки и повышения квалификации возвращённых мигрантов. Международный опыт показывает, что использование таких систем значительно повышает эффективность программ профессиональной ориентации и переобучения [2]. Это подтверждает важную роль технологий в развитии человеческого капитала [5].

Кроме того, использование технологий искусственного интеллекта способствует совершенствованию территориальной интеграции возвращённых мигрантов на рынок труда. Прогнозирование спроса на рабочую силу в разрезе регионов и направление возвращённых мигрантов в соответствующие регионы позволяет сократить дисбалансы на внутреннем рынке труда [9]. Это, в свою очередь, создаёт возможности для более точной и целенаправленной реализации политики занятости, а также способствует сокращению межрегиональных социально-экономических различий.

В целом интеграционные механизмы, основанные на искусственном интеллекте и инновационных подходах, играют важную роль в эффективном использовании человеческого капитала возвращённых мигрантов, обеспечении устойчивой занятости и сокращении потоков повторной миграции. Данные подходы позволяют принимать современные, гибкие и научно обоснованные решения в управлении рынком труда.

Выводы и предложения.

Результаты проведённого научного анализа показывают, что существующие механизмы интеграции кадров, вернувшихся из внешней миграции, в рынок труда не в полной мере соответствуют современным требованиям. В частности, отсутствует системный подход к оценке навыков, приобретённых за рубежом, и их адаптации к условиям внутреннего рынка труда. Данная ситуация приводит к снижению эффективности использования человеческого капитала и усилению процессов повторной миграции.

Внедрение механизмов, основанных на искусственном интеллекте и инновационных подходах, позволяет комплексно и устойчиво решать существующие проблемы. Такие механизмы имеют важное значение для определения профессионального потенциала возвращённых мигрантов, формирования индивидуальных траекторий развития и их адаптации к

потребностям рынка труда. В результате повышается эффективность политики занятости и улучшается уровень использования трудовых ресурсов. В этой связи целесообразно предложить следующие научно-практические рекомендации:

- во-первых, сформировать единую цифровую информационную базу данных по возвращённым мигрантам и внедрить механизм её анализа на основе искусственного интеллекта;

- во-вторых, создать систему профессиональной диагностики на основе искусственного интеллекта, направленную на оценку формальных и неформальных навыков, приобретённых мигрантами за рубежом;

- в-третьих, разработать индивидуальные программы переподготовки и повышения квалификации на основе потребностей рынка труда;

- в-четвёртых, расширить использование прогностических моделей на основе искусственного интеллекта при совершенствовании региональной политики занятости.

Реализация данных предложений на практике позволит ускорить процесс интеграции возвращённых мигрантов в рынок труда, обеспечить эффективное использование человеческого капитала, а также существенно снизить социально-экономические негативные последствия миграционных процессов.

Литература:

1. Acemoglu, D., & Restrepo, P.. Artificial intelligence and jobs: Evidence from US labor markets. Journal of Political Economy, 128(6), 2188–2244. (2020)

2. OECD. Artificial Intelligence, Automation and Work. Paris: OECD Publishing (2021).

3. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Migrant Workers. Geneva (2022).

4. World Bank. Reintegration of Return Migrants: Evidence and Policy Options. Washington, DC (2020).

5. McKinsey Global Institute (2019).

6. Dustmann, C., & Weiss, Y.. Return migration: Theory and empirical evidence. British Journal of Industrial Relations, 45(2), 236–256. (2007)

7. Bessen, J.. AI and jobs: The role of demand. NBER Working Paper No. 24235. (2019)

8. Clemens, M. A., & Gough, K.. Skilled emigration and skill creation. World Development, 112, 305–320. (2018)

9. European Commission(2021).

10. UN DESA. International Migration 2020 Highlights. New York.

11. Autor, D. H., Levy, F., & Murnane, R. J.. The skill content of recent technological change. Quarterly Journal of Economics, 118(4), 1279–1333. (2003)

12. World Economic Forum. The Future of Jobs Report. Geneva. (2023)

MEHNAT MOBILLIGINING KAMBAG‘ALLIK DARAJASIGA TA’SIRI: XALQARO TAJRIBALAR VA SABOQLAR

DSc. dots., ***Qurbonov Samandar Pulatovich***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat mobilligi – ishchi kuchining hududlar, tarmoqlar, kasblar va ish o‘rinlari o‘rtasida harakatlanish qobiliyati va jarayoni bo‘lib, u mehnat resurslarini samaraliroq taqsimlash orqali aholi daromadlarini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Kambag‘allik ko‘p hollarda insonning kam unumli bandlik, ish o‘rinlari tanqis hudud yoki talab past bo‘lgan kasbga «bog‘lanib qolishi» bilan izohlanadi. Shu ma’noda mehnat mobilligi kambag‘allikdan chiqishning tabiiy yo‘lidir. Jahon banki baholashicha, 2024 yilda past va o‘rta daromadli mamlakatlarga yo‘naltirilgan pul o‘tkazmalari hajmi 685 mlrd AQSh dollariga yetib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va rasmiy rivojlanish yordami yig‘indisidan oshib ketgan [2]. O‘zbekistonda ham 2025 yilda transchegaraviy pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd dollarni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 27,2 foizga o‘sgan [3]. 2026 yilda yangilangan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida kambag‘allikni qisqartirish va munosib bandlikni ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Biroq tashqi migratsiyaga tayangan daromadlar barqaror emas, shu bois mehnat mobilligining barcha shakllaridan, ayniqsa mahalliy imkoniyatlardan kambag‘allikni qisqartirishda foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda mehnat mobilligining kambag‘allik darajasiga ta’siri bir necha kanal orqali namoyon bo‘lishi asoslangan. **Birinchidan**, unumdorlik va ish haqi kanali: xodim yuqori ish haqi to‘lanadigan hudud yoki tarmoqqa o‘tib, o‘z mehnatining qiymatini bir necha barobar oshiradi. M. Klemens mamlakatlar o‘rtasidagi bunday ish haqi farqini «trotuarda yotgan trillion dollarlik kupyuralar» deb ta’riflab, mobillik cheklovlarining iqtisodiy qiymati savdo va kapital harakati to‘siqlaridan ancha yuqori ekanini ko‘rsatgan [4]. **Ikkinchidan**, pul o‘tkazmalari kanali: R. Adams va J. Peyjning 71 rivojlanayotgan mamlakat ma’lumotlari asosidagi tadqiqotiga ko‘ra, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xalqaro pul o‘tkazmalarining 10 foizga ortishi kambag‘al aholi ulushining o‘rtacha 3,5 foizga qisqarishiga olib keladi [5]. **Uchinchidan**, investitsiya va inson kapitali kanali: D. Yang Filippin migrantlari misolida qo‘shimcha daromad olgan uy xo‘jaliklari bolalar ta’limi va kichik tadbirkorlikka ko‘proq mablag‘ yo‘naltirishini isbotlagan [6]. **To‘rtinchidan**, tarkibiy o‘zgarish kanali: ishchi kuchining kam unumli qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga, kam haqli kasblardan yuqori malakali kasblarga o‘tishi iqtisodiyotdagi umumiy unumdorlikni oshiradi va hududlararo daromad farqini qisqartiradi.

Shu bilan birga, mobillikning salbiy oqibatlari ham e’tirof etiladi: pul o‘tkazmalariga haddan tashqari qaramlik, mablag‘larning joriy iste’molga sarflanishi, malakali kadrlarning chiqib ketishi, oilada qolgan ayollar va bolalar zimmasidagi yukning ortishi. Xususan, pul o‘tkazmalari YaIMning 40 foizdan ortig‘ini tashkil etadigan Tojikistonda 2009 yilgi jahon moliyaviy inqirozi davrida

pul o‘tkazmalarining keskin qisqarishi uy xo‘jaliklari daromadlarining tashqi shoklarga naqadar zaif ekanini ko‘rsatgan [7]. Demak, mobillikning kambag‘allikka ijobiy ta’siri o‘z-o‘zidan emas, balki uning shakli va boshqarish sifatiga bog‘liq holda yuzaga chiqadi [8]. Mehnat mobilligi shakllari bo‘yicha bu ta’sirlar 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Mehnat mobilligi shakllarining kambag‘allik darajasiga ta’siri, xatarlari va siyosat vositalari

Mehnat mobilligi shakli	Kambag‘allik darajasiga ta’siri	Asosiy xatar	Siyosat vositasi
Tashqi hududiy (xalqaro mehnat migratsiyasi)	Ish haqining bir necha barobar ortishi, pul o‘tkazmalari	Qaramlik, valyuta kursi shoklari, huquqlar buzilishi	Tashkiliy (G2G) migratsiya, huquqiy himoya
Ichki hududiy (qishloq–shahar, hududlararo)	Ishchi kuchi tanqis hududlarda bandlik, daromad farqining qisqarishi	Uy-joy tanqisligi, norasmiy bandlik	Ijara uy-joy, ko‘chish subsidiyasi
Tarmoqlararo	Kam unumli qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlarga o‘tish	Malaka nomuvofiqligi	Kasbga qayta tayyorlash, ishlab chiqarishda o‘qitish
Kasbiy-malakaviy	Yuqori haqli kasblarga o‘tish, ishsizlik davomiyligining qisqarishi	O‘qitish xarajatlari, axborot yetishmasligi	O‘qitish vaucherlari, malakani tan olish
Mavsumiy va mayatniksimon	Qo‘shimcha daromad manbai, oila byudjetini barqarorlashtirish	Beqaror bandlik, ijtimoiy himoyadan chetda qolish	Transport qulayligi, mavsumiy mehnat shartnomalari

Manba: *muallif ishlanmasi [4–8] manbalar asosida.*

Xalqaro tajribalar tahlili. Filippin tashqi mehnat mobilligini boshqarishning eng institutsionallashgan modeliga ega: 2021 yilda tashkil etilgan Xorijdagi mehnat migrantlari vazirligi yollanish, jo‘nashdan oldingi majburiy tayyorgarlik, xorijda huquqiy himoya va qaytish bosqichini yagona tizimda boshqaradi. Nepalda esa Jahon banki tadqiqotiga ko‘ra, 1995–2010 yillarda kambag‘allik har yili o‘rtacha 2,2 foiz punktga qisqargan; bunda mehnat daromadlarining o‘sishi umumiy qisqarishning yarmidan ko‘pini, pul o‘tkazmalari esa 27 foizini ta’minlagan [9]. Bu natija mobillikning ta’siri nafaqat pul o‘tkazmalari, balki mahalliy mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining qisqarishi va qishloqdagi ish haqining ortishi orqali ham yuzaga chiqishini ko‘rsatadi.

Bangladeshda 2010 yilda tashkil etilgan «Probashi Kallyan» banki xorijga jo‘nash xarajatlari uchun imtiyozli kreditlar va qaytganlarga reintegratsiya kreditlari ajratib, kambag‘al oilalar uchun mobillikka «kirish to‘sig‘i»ni pasaytirmoqda. Moldovada 2010 yildan joriy etilgan «PARE 1+1» dasturi migrant yoki uning oila a’zosi mahalliy tadbirkorlikka kiritgan har bir ley pul o‘tkazmasiga davlat tomonidan bir ley grant qo‘shadi. Meksikaning «3×1» dasturi tajribasi esa bunday mexanizmlarda mablag‘lar eng kambag‘al hududlarga yetib borishi uchun

manzillilikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatgan [10]. Koreya Respublikasida 2004 yildan amal qilayotgan Ish bilan ta’minlashga ruxsatnoma tizimi (EPS) davlatlararo kelishuvlar asosida yollanishni vositachilardan xoli qilib, migrant xarajatlarini keskin kamaytirgan; bu Xalqaro mehnat tashkilotining adolatli yollanish tamoyillariga mos keladi [14].

Ichki va kasbiy mobillik bo‘yicha ham ibratli tajribalar mavjud. Xitoyda xukou (ro‘yxatga olish) tizimining bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi 290 mln nafardan ortiq qishloq mehnat migrantlarining shahar iqtisodiyotiga jalb etilishiga va qishloq aholisi daromadlarining o‘sishiga xizmat qilgan. Qozog‘istonda ishchi kuchi ortiqcha janubiy viloyatlardan ishchi kuchi tanqis shimoliy viloyatlarga ixtiyoriy ko‘chib o‘tayotgan oilalarga ko‘chish, uy-joy ijarasi xarajatlari uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Singapurda 2015 yildan joriy etilgan «SkillsFuture» dasturi doirasida har bir fuqaroga qayta o‘qitish uchun shaxsiy kredit ajratilib, kasbiy-malakaviy mobillik rag‘batlantirilmoqda. Tahlil qilingan tajribalarning umumlashtirilgan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Mehnat mobilligi orqali kambag‘allikni qisqartirishning xalqaro mexanizmlari

Mamlakat	Asosiy vosita (mexanizm)	Mobillik shakli va kambag‘allikka ta’sir kanali	Mahalliy sharoitda qo‘llash yo‘nalishi
Filippin	Migrantlar vazirligi (2021), jo‘nashdan oldingi majburiy tayyorgarlik	Tashqi mobillik: himoyalangan, yuqori daromadli ish o‘rinlari	Tashqi mobillik siklini yagona tizimda boshqarish
Nepal	Xorijiy bandlikni kengaytirish, pul o‘tkazmalarini rasmiylashtirish	Tashqi mobillik: mehnat daromadi va pul o‘tkazmalari	Qishloq uy xo‘jaliklari daromadini monitoring qilish
Bangladesh	«Probashi Kallyan» banki (2010): jo‘nash va reintegratsiya kreditlari	Mobillikka «kirish xarajati»ning pasayishi	Kambag‘al oilalar uchun imtiyozli mobillik krediti
Moldova	«PARE 1+1» dasturi (2010 yildan): har bir ley investitsiyaga bir ley grant	Pul o‘tkazmalarining mahalliy tadbirkorlikka aylanishi	Qaytgan migrant biznesiga mos grant
Koreya Respublikasi	Ish bilan ta’minlashga ruxsatnoma tizimi (EPS, 2004)	Vositachilarsiz, arzon va himoyalangan yollanish	Davlatlararo (G2G) yo‘nalishlarni kengaytirish
Xitoy	Xukou tizimini bosqichma-bosqich erkinlashtirish	Ichki hududiy va tarmoqlararo mobillik	Ichki mobillik uchun uy-joy va kasbga o‘qitish
Singapur	«SkillsFuture» dasturi (2015): fuqarolarga qayta o‘qitish uchun shaxsiy kredit	Kasbiy-malakaviy mobillik, yuqori haqli kasblarga o‘tish	Kambag‘al oila a’zolari uchun o‘qitish vaucheri

Manba: *muallif tomonidan [5; 8–10; 14] manbalar asosida tuzilgan.*

O‘zbekistonda mehnat mobilligi va kambag‘allik. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2026 yil o‘rtalarida 1,4 mln nafarga yaqin O‘zbekiston fuqarosi qariyb 40 mamlakatda mehnat faoliyatini olib bormoqda [11]. Mobillik va kambag‘allik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik 3-jadvalda aks ettirilgan.

3-jadval

O‘zbekistonda pul o‘tkazmalari va kambag‘allik ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	2024 y.	2025 y.	O‘zgarish
Transchegaraviy pul o‘tkazmalari, mlrd AQSh dollari	14,8	18,9	+27,2 %
Pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi, %	16,5	21,0	+4,5 f.p.
Kambag‘allik darajasi, %	8,9	5,8	–3,1 f.p.
Ishsizlik darajasi, %	5,5	4,8	–0,7 f.p.

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida [3; 12; 15].*

Pul o‘tkazmalarining uy xo‘jaliklari daromadidagi ulushi mamlakat bo‘yicha 21 foizga yetgan, ayrim hududlarda esa 30 foizdan oshgan [3]. Ayni davrda kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,8 foizga pasaygan, 366 ming oila kambag‘allikdan chiqarilgan [12]. 2026 yil uchun kambag‘allik chegarasi sifatida qo‘llaniladigan minimal iste’mol xarajatlari bir kishiga oyiga 715 ming so‘m etib belgilangan [13]. Bu ko‘rsatkichlar tashqi mobillik daromadlari kambag‘allikni qisqartirishda sezilarli o‘rin tutishidan dalolat beradi. Biroq bu tendensiya bir qator tarkibiy xatarlarga ega: 2025 yildagi o‘sishning asosiy omili Rossiya rublining mustahkamlanishi bo‘lgan [3], ya’ni migrant oilalari daromadi bitta mamlakat valyuta kursiga kuchli bog‘liq; migrantlarning katta qismi past malakali ishlarda band; pul o‘tkazmalari asosan uy-joy qurilishi, marosimlar va joriy iste’molga sarflanmoqda. Ichki hududiy va kasbiy mobillik esa statistik jihatdan yetarli qamrab olinmagan va kambag‘allikni qisqartirishdagi salohiyati to‘liq ishga solinmagan.

Ichki mobillikning hozirgi holati ham e’tiborni talab etadi. Ichki migrantlarning katta qismi qurilish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida norasmiy asosda band bo‘lib, ijtimoiy himoya tizimidan chetda qolmoqda. Ishchi kuchi ortiqcha qishloq hududlari bilan ish o‘rinlari shakllanayotgan shaharlar o‘rtasida uy-joy narxlari, transport xarajatlari va vakansiyalar haqidagi axborot yetishmasligi mobillikni cheklovchi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Kasbiy mobillik esa o‘qitish xarajatlari va talab yuqori kasblar haqidagi ma’lumotlarning tarqoqligi tufayli sustligicha qolmoqda. Xotin-qizlar mehnat mobilligining ortishi, oilada qolgan bolalar tarbiyasi va keksalarni parvarish qilish yukining kuchayishi esa mobillik siyosatini gender va oilaviy jihatlarni hisobga olgan holda shakllantirishni taqozo etadi. Bu holatlar tashqi migratsiyaga qaramlikni kamaytirish uchun ichki va kasbiy mobillik uchun qulay sharoit yaratish zaruratini ko‘rsatadi.

Mehnat mobilligining mahalliy imkoniyatlari. Tahlillar O‘zbekistonda mehnat mobilligini kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirishning bir qator

mahalliy imkoniyatlari mavjudligini koʻrsatadi. Birinchidan, mahalla instituti: har bir mahallada hokim yordamchisi va «mahalla yettiligi» faoliyatining yoʻlga qoʻyilishi kambagʻal oilalarni manzilli aniqlash va ularning mehnatga layoqatli aʼzolarini boʻsh ish oʻrinlariga, kasbga oʻqitishga yoki tashkiliy migratsiyaga yoʻnaltirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kasbga oʻqitish infratuzilmasi: kasbga oʻqitish markazlari va kasb-hunar maktablari tarmogʻi kasbiy-malakaviy mobillikning tayyor bazasi hisoblanadi. Uchinchidan, hududiy oʻsish nuqtalari: erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, Toshkent, Samarqand va boshqa aglomeratsiyalarda shakllanayotgan ish oʻrinlari ichki hududiy mobillik uchun talabni yuzaga keltirmoqda; 2020 yildan Toshkent shahri va viloyatida doimiy roʻyxatga olish tartibining soddalashtirilishi esa maʼmuriy toʻsiqlarni kamaytirdi. Toʻrtinchidan, qaytgan migrantlar salohiyati: xorijda orttirilgan kasbiy koʻnikmalar, ish madaniyati va jamgʻarilgan mablagʻlar mahalliy tadbirkorlik va ish oʻrinlari yaratish uchun muhim manba boʻla oladi. Beshinchidan, raqamli bandlik xizmatlari va platforma bandligi hududiy cheklovlarsiz daromad olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Xalqaro tajribalardan Oʻzbekiston uchun saboqlar. Xalqaro tajribalar va mahalliy imkoniyatlarni uygʻunlashtirish maqsadida quyidagi yoʻnalishlar taklif etiladi.

Mahalla darajasida «mobillik yoʻl xaritasi»ni joriy etish. Hokim yordamchisi va bandlik organlari kambagʻal oilalarning mehnatga layoqatli aʼzolari uchun mahalliy ish, qoʻshni hududdagi ish, kasbga oʻqitish yoki tashkiliy xorijiy bandlikdan birini tanlashga asoslangan individual reja ishlab chiqadi (Filippin va Singapur tajribasi).

Mobillikka kirish xarajatlarini pasaytirish. Kambagʻal oila aʼzolariga tashkiliy migratsiya va ichki koʻchish uchun imtiyozli kredit ajratish, davlatlararo yollanish dasturlarini kengaytirish hamda xususiy bandlik agentliklarida yollanish xarajatini ish beruvchi qoplash tamoyilini joriy etish (Bangladesh va Koreya Respublikasi tajribasi).

Ichki hududiy mobillikni ragʻbatlantirish. Ishchi kuchi ortiqcha hududlardan sanoat zonalari va aglomeratsiyalarga koʻchayotganlarni arzon ijara uy-joy, koʻchish xarajatlari subsidiyasi va ishlab chiqarishda oʻqitish bilan taʼminlash (Xitoy va Qozogʻiston tajribasi).

Kasbiy-malakaviy mobillikni kuchaytirish. Kambagʻal oila aʼzolariga talab yuqori kasblarga oʻqish uchun vaucher berish hamda xalqaro standartlarga mos malaka sertifikatlari orqali yuqori haq toʻlanadigan ish oʻrinlariga chiqishni taʼminlash.

Pul oʻtkazmalari va qaytgan migrantlar salohiyatini mahalliy iqtisodiyotga yoʻnaltirish. Tadbirkorlikka kiritilgan shaxsiy mablagʻga teng miqdorda grant ajratish, mahalla infratuzilmasi loyihalarini birgalikda moliyalashtirishda kambagʻallik darajasi yuqori mahallalarga ustuvorlik berish, xorijda egallangan koʻnikmalarni rasman tan olish (Moldova va Meksika tajribasi).

Tashqi mobillik yoʻnalishlarini diversifikatsiya qilish. Koreya Respublikasi, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarga tashkiliy migratsiyani

kengaytirib, bitta mamlakat mehnat bozori va valyuta kursiga bog‘liqlikni kamaytirish.

Migrant oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Oilada qolgan ayollar, bolalar va keksalarga mahalla ijtimoiy xodimlari orqali ko‘mak ko‘rsatish, migrantlarning ixtiyoriy pensiya va ijtimoiy sug‘urta tizimida ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish.

Monitoring tizimini takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining uy xo‘jaliklari tanlanma tekshiruvlariga mehnat mobilligi modulini kiritish va «mobillik – daromad – kambag‘allik» indikatorlarini hududlar kesimida shakllantirish.

Xulosa. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mehnat mobilligi kambag‘allik darajasini pasaytirishning kuchli omili bo‘lib, uning ta’siri mobillik jarayoni tizimli boshqarilgan, himoyalangan va inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan taqdirdagina barqaror bo‘ladi. O‘zbekistonda kambag‘allikning qisqarishi asosan tashqi mobillik daromadlariga tayanayotgani uni tashqi shoklarga zaif qilmoqda. Mahalla instituti, kasbga o‘qitish infratuzilmasi, hududiy o‘sish nuqtalari va qaytgan migrantlar salohiyatini xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish mehnat mobilligini «omon qolish strategiyasi»dan kambag‘allikdan barqaror chiqish vositasiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi «Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-21-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. World Bank. In 2024, remittance flows to low- and middle-income countries are expected to reach $685 billion, larger than FDI and ODA combined // World Bank Blogs: People Move. – December 2024.

3. Remittances to Uzbekistan jump 27% to $18.9bn in 2025 (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari) // Kun.uz. – 29.01.2026.

4. Clemens M.A. Economics and Emigration: Trillion-Dollar Bills on the Sidewalk? // Journal of Economic Perspectives. – 2011. – Vol. 25, No. 3. – P. 83–106.

5. Adams R.H., Page J. Do International Migration and Remittances Reduce Poverty in Developing Countries? // World Development. – 2005. – Vol. 33, No. 10. – P. 1645–1669.

6. Yang D. International Migration, Remittances and Household Investment: Evidence from Philippine Migrants’ Exchange Rate Shocks // The Economic Journal. – 2008. – Vol. 118, No. 528. – P. 591–630.

7. Danzer A.M., Ivaschenko O. Migration Patterns in a Remittances Dependent Economy: Evidence from Tajikistan during the Global Financial Crisis // Migration Letters. – 2010. – Vol. 7, No. 2. – P. 190–202.

8. World Bank. World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. – Washington, DC: World Bank, 2023.

9. World Bank. Moving Up the Ladder: Poverty Reduction and Social Mobility in Nepal. – Washington, DC: World Bank, 2016.

10. Aparicio F.J., Meseguer C. Collective Remittances and the State: The 3×1 Program in Mexican Municipalities // World Development. – 2012. – Vol. 40, No. 1. – P. 206–222.

11. Uzbekistan has 1.4mn labor migrants working in nearly 40 countries // Daryo.uz. – 17.08.2026.

12. Uzbekistan reports sharp drop in poverty and unemployment over past year // Kun.uz. – 24.01.2026.

13. Uzbekistan updates poverty benchmark – monthly minimum set at UZS 715,000 // Kun.uz. – 05.03.2026.

14. ILO. General Principles and Operational Guidelines for Fair Recruitment and Definition of Recruitment Fees and Related Costs. – Geneva: International Labour Office, 2019.

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kambag‘allik darajasi // siat.stat.uz.

AKSIZOSTI TOVARLARNI RAQAMLI MARKIROVKALASH TIZIMINING BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdurashidov Abdusamad Abdurahmonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
aabdurashidovvv@gmail.com

Bugungi kunda davlat budjeti daromadlarini oshirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq ma’murchiligini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu jarayonda aksizosti tovarlar aylanmasini nazorat qilish hamda aksiz solig‘i tushumlarining to‘liq shakllanishini ta’minlash alohida ahamiyatga ega.

Aksizosti tovarlarning noqonuniy aylanmasi, mahsulotlar harakatini nazorat qilishdagi kamchiliklar va soliq majburiyatlarining to‘liq bajarilmasligi budjet tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli markirovkalash tizimini takomillashtirish, mahsulotlarning ishlab chiqarish yoki importdan boshlab yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan harakatini kuzatish hamda soliq nazoratini kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son va 2020-yil 31-dekabrdagi 833-son qarori[1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-190-son qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar raqamli markirovkalash tizimini joriy etish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan[2].

Shu bois aksizosti tovarlarni raqamli markirovkalash tizimining budjet tushumlarini oshirishdagi ahamiyatini o‘rganish, mahsulotlar aylanmasining shaffofligini ta’minlash va soliq nazoratini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda aksizosti tovarlar aylanmasini nazorat qilish va soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirishda raqamli markirovkalash tizimi muhim o‘rin tutadi. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda ushbu tizimda 3,5 mingta subyekt ro‘yxatdan o‘tgan, 100 mingdan ortiq mahsulot turi raqamli markirovka katalogiga kiritilgan va qariyb 8,2 mlrd dona markirovkalangan tovar ishlab chiqarilgan[3]. Ushbu ko‘rsatkichlar raqamli markirovkalash tizimining mahsulotlar aylanmasini kuzatish va nazorat qilishdagi ko‘lamini ko‘rsatadi.

[1] 737-сон 20.11.2020. Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida

[2] PQ-190-сон 23.05.2025. Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

[3] “Soliq qo‘mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar”

Fiskal strategiya ma’lumotlariga ko‘ra, davlat budjetiga aksiz solig‘i tushumlari 2023-yilda 15,8 trln so‘mni, 2024-yilda esa 19,1 trln so‘mni tashkil etgan[4]. Bu ko‘rsatkichlar aksiz solig‘i tushumlarining budjet daromadlaridagi ahamiyatini namoyon etadi. Shu bilan birga, Soliq qo‘mitasi ma’lumotida 2025-yil yakunlari bo‘yicha aksiz solig‘i tushumlari 20 trln so‘mga yetgani qayd etilgan[5]. Ushbu raqamlar turli rasmiy hisobotlardan olinganligi sababli, yillar kesimidagi o‘zgarishlarni baholashda statistik ma’lumotlarning hisobga olish usullarini inobatga olish lozim.

Raqamli markirovkalash mahsulotlarning qonuniy aylanmasini kuzatish, markirovkasiz tovarlarni aniqlash va soliq nazoratini kuchaytirish imkonini beradi. Biroq tizimning budjet tushumlariga bevosita ta’sirini aniqlash uchun markirovkalash joriy etilishidan oldingi va keyingi davrlardagi soliq tushumlari, aniqlangan qoidabuzarliklar hamda yashirin aylanmalar bo‘yicha qo‘shimcha rasmiy ma’lumotlar talab etiladi.

Shu munosabat bilan raqamli markirovkalash ma’lumotlarini elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi va soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mazkur chora-tadbirlar mahsulotlar aylanmasining shaffofligini oshirish, soliq majburiyatlarini to‘liq hisobga olish va budjet tushumlarini ko‘paytirishga xizmat qilishi mumkin.

1-jadval

2023-2025-yillarda aksiz solig‘i tushumlari va raqamli markirovkalash tizimi ko‘rsatkichlari dinamikasi[6]

Yil	Aksiz solig‘i tushumi	Tushum o‘sishi	Raqamli markirovka ko‘rsatkichi
2023	15,83 trln so‘m	17,7%*	Yillik markirovkalangan mahsulotlar soni bo‘yicha taqqoslanadigan ko‘rsatkich aniqlanmadi
2024	19,06 trln so‘m	20,4%	100 mingdan ortiq mahsulot turi katalogga kiritilgan; 8,2 mlrd dona tovar ishlab chiqarilgan
2025	20,0 trln so‘m	13%**	2025-yil 1-iyul holatiga katalogda 115,1 mingta mahsulot nomi mavjud

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023-yilda 15,83 trln so‘mni tashkil etgan aksiz solig‘i tushumlari 2024-yilda 19,06 trln so‘mga yetib, 20,4 foizga oshgan, 2025-yilda esa 20 trln so‘mni tashkil etgan. 2024-yilda raqamli markirovkalash tizimi doirasida 8,2 mlrd dona tovar ishlab chiqarilgani, 2025-yil 1-iyul holatiga mahsulotlar katalogida 115,1 mingta mahsulot nomi mavjudligi tizimning keng qamrovga ega bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar aksiz solig‘i tushumlari o‘sishi va raqamli markirovkalash tizimining rivojlanishi bir davrda kuzatilganini anglatadi. Biroq tushumlarning oshishini bevosita markirovkalash natijasi deb baholash uchun qo‘shimcha tahlil zarur, chunki soliq stavkalari, ishlab chiqarish hajmi, import va narxlar o‘zgarishi ham budjet daromadlariga ta’sir ko‘rsatadi.

[4] fiskal_strategiya_2026-2028_.pdf
[5] 2025-yilda soliq tushumlari 247 trln so’mdan oshdi
[6] Davlat soliq qo’mitasi ma’lumotlari asosida maullif tomonidan tuzilgan.

Taklif va xulosalar. Aksizosti tovarlarni raqamli markirovkalash tizimini takomillashtirish va budjet tushumlarini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish. Raqamli markirovkalash ma'lumotlarini soliq, bojxona, elektron hisobvaraq-faktura va onlayn nazorat-kassa texnikasi tizimlari bilan o‘zaro integratsiyalash orqali mahsulotlar aylanmasini to‘liq kuzatish mexanizmini takomillashtirish. Bu soliq bazasini aniq belgilash va yashirin aylanmalarni aniqlash imkoniyatini oshiradi.

2. Markirovkasiz mahsulotlar savdosini aniqlash mexanizmini takomillashtirish. Savdo nuqtalarida markirovka kodlarini avtomatik tekshirish va qonunbuzarliklarni tezkor aniqlash vositalarini kengaytirish. Natijada noqonuniy mahsulotlar realizatsiyasini qisqartirish va soliq intizomini mustahkamlashga erishish mumkin.

3. Xavf-tahlil tizimini rivojlantirish. Markirovkalangan mahsulotlar hajmi, elektron hisobvaraq-fakturalar va chakana savdo ma'lumotlari o‘rtasidagi tafovutlarni avtomatik aniqlaydigan risk indikatorlarini joriy etish. Bu soliq tekshiruvlarini xavf darajasi yuqori bo‘lgan subyektlarga yo‘naltirish va nazorat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

4. Markirovkalash tizimi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarini joriy etish. Markirovka qoidabuzarliklari, qo‘shimcha hisoblangan aksiz solig‘i, yashirin aylanmalarni aniqlash va budjetga undirilgan mablag‘lar bo‘yicha muntazam statistik hisobot yuritish. Bu tizimning budjet tushumlariga ta'sirini aniqroq baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur takliflarning amalga oshirilishi aksizosti tovarlar aylanmasining shaffofligini oshirish, noqonuniy savdoni qisqartirish, soliq nazoratini takomillashtirish va aksiz solig‘i tushumlarining budjetga to‘liq kelib tushishiga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son “Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. — https://www.lex.uz/uz/acts/-5115923.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 833-son “Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — https://lex.uz/uz/acts/-5205248.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-190-son “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. — https://lex.uz/uz/acts/-7540338.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. “Soliq qo‘mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar”. — 2025-yil 1-aprel. — https://gov.uz/oz/soliq/news/view/46145.

5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. “2025-yilda soliq tushumlari 247 trln so‘mdan oshdi”. — 2026-yil 27-yanvar. — https://gov.uz/oz/soliq/news/view/124712.

6. *O‘zbekiston Respublikasining 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. — https://www.imv.uz/media/filestore/fiskal_strategiya_2026-2028_.pdf.*

OLIY TA’LIMDA KADRLAR QO‘NIMSIZLIGI TASNIFI VA RASMIY HISOBOTDA KO‘RINMAYDIGAN KETISHLAR

Xolmatov Muhriddin Mo‘min o‘g‘li
TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi (PhD)
m.xolmatov@tsue.uz

Oliy ta’lim tizimining jadal kengayishi sharoitida professor-o‘qituvchilar tarkibining barqarorligi ta’lim sifati va ilmiy faoliyat uzluksizligining muhim shartiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-213-son Farmonida samarali va natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruvni joriy etish vazifasi belgilangan [1]. Bunday boshqaruv boshqariladigan hodisani to‘g‘ri o‘lchashdan boshlanadi. Amaliyotda esa kadrlar qo‘nimsizligi odatda bitta ko‘rsatkich, ya’ni ma’lum davrda ishdan ketganlar ulushi bilan ifodalanadi. Bu ko‘rsatkich mazmuni turlicha bo‘lgan hodisalarni bir joyga jamlaydi va boshqaruv qarori uchun yetarli ma’lumot bermaydi.

Xodimlar qo‘nimsizligi nazariyasi bir asrdan ortiq davr mobaynida shakllangan bo‘lib, uning rivoji P.W.Hom va hamkasblari tomonidan umumlashtirilgan [2]. Ilmiy adabiyotda qo‘nimsizlik to‘rt asos bo‘yicha tasniflanadi. Tashabbus egasiga ko‘ra ixtiyoriy va majburiy ketish, tashkilot uchun oqibatiga ko‘ra zarar va foyda keltiruvchi ketish, oldini olish imkoniyatiga ko‘ra oldini olish mumkin va mumkin bo‘lmagan ketish, harakat yo‘nalishiga ko‘ra esa muassasa ichidagi va undan tashqaridagi harakat ajratiladi.

Oliy ta’lim sharoitida birinchi asos bo‘yicha chegara ishonchli emas. Soatbay yoki tashqi o‘rindoshlik shartnomasining uzaytirilmasligi rasmiy hujjatda majburiy ketish sifatida qayd etiladi, amalda esa ko‘p hollarda uzaytirishdan xodimning o‘zi bosh tortgan bo‘ladi. Natijada ixtiyoriy ketishning bir qismi boshqa toifaga tushib qoladi. Ikkinchi asos boshqaruvning maqsadini aniqlashtiradi. Maqsad qo‘nimsizlikni nolga tushirish emas, balki ketayotganlar tarkibida qimmatli xodimlar ulushini kamaytirishdir. Uchinchi asos chora samarasini faqat oldini olish mumkin bo‘lgan ketishlar bo‘yicha o‘lchashni talab qiladi. To‘rtinchi asos kengayayotgan tizim uchun alohida ahamiyatga ega. Yangi ochilgan muassasa kadrni tayyorlamaydi, balki mavjudini jalb qiladi. Shu sababli boshqa OTMga o‘tish tizim uchun bevosita yo‘qotish emas, kadrlarning qayta taqsimlanishi bo‘lishi mumkin.

Muallif tomonidan ushbu tasnifga beshinchi asos, ya’ni harakatning rasmiy hisobotda ko‘rinishi qo‘shildi (1-jadval). Muddatli shartnoma o‘z muddati tugashi bilan to‘xtaganda ishdan bo‘shatish to‘g‘risida buyruq chiqarilmaydi va bunday to‘xtash kadrlar harakati hisobotida ishdan bo‘shatish sifatida qayd etilmaydi. Soatbay va tashqi o‘rindoshlik shaklida ishlovchi xodimlarning ishga kelishi va ketishi esa hisobotga umuman tushmaydi.

1-jadval

Kadrlar qo‘nimsizligining tasnifi va uning boshqaruv qarori uchun ahamiyati[7]

Ajratish asosi	Turlari	Boshqaruv qarori uchun ma’nosi
Tashabbus egasi	Ixtiyoriy va majburiy ketish	Ta’sir birinchi turga yo‘naltiriladi. Oliy ta’limda shartnoma muddatining tugashi ikki turni ajratib bo‘lmaydigan holga keltiradi
Tashkilot uchun oqibati	Zarar keltiruvchi va foyda keltiruvchi ketish	Nol daraja maqsad emas. Ketayotganlar tarkibi umumiy darajadan muhimroq
Oldini olish imkoniyati	Oldini olish mumkin va mumkin bo‘lmagan ketish	Chora samarasi faqat birinchi qism bo‘yicha o‘lchanadi
Harakat yo‘nalishi	Muassasa ichidagi va undan tashqaridagi harakat	Ichki harakat kadrni tizimda saqlaydi va alohida qayd etilishi lozim
Hisobotda ko‘rinishi	**Qayd etiladigan va qayd etilmaydigan ketish**	**Soatbay hamda tashqi o‘rindoshlik shaklidagi harakat hisobotga tushmaydi**

Beshinchi asos qolganlaridan jiddiyroq oqibatga ega. Qo‘nimsizlik ko‘rsatkichi muassasadagi haqiqiy harakatni emas, uning rasmiylashtirilgan qismini aks ettiradi. Qo‘nimsizlikning qancha qismi ko‘rinmay qolishi esa mehnat munosabatlarining rasmiylashtirilganlik darajasiga bog‘liq. Mehnat munosabati zaif rasmiylashtirilgan muassasada ketish hodisasi hisobotga tushmaydi va ko‘rsatkich past chiqadi, holbuki aynan shunday muassasada tarkib eng beqaror bo‘lishi mumkin. Mazkur taxmin hisobot shakllari bo‘yicha alohida tekshirishni talab qiladi, chunki uni tasdiqlovchi ochiq uslubiy hujjat topilmadi.

Tasnif ketishning qanday turlari borligini ko‘rsatadi, ammo nima uchun sodir bo‘lishini tushuntirmaydi. Bu savolga javob beruvchi nazariy qarashlarning har biri oliy ta’limga qo‘llanganda muayyan moslashtirishni talab qiladi.

J.March va H.Simon ketish qarorini ikki shartga, ya’ni harakatning maqsadga muvofiqligi va harakat qulayligiga ajratdilar [3]. Birinchisi xodimning ishidan qanoatlanishi bilan, ikkinchisi mehnat bozorida ko‘rinib turgan muqobil ish o‘rinlari bilan belgilanadi. Shartlar ko‘paytiruvchi tarzda ishlagani uchun muqobil ish o‘rni bo‘lmasa, norozi xodimlar ko‘p bo‘lsa ham qo‘nimsizlik past chiqadi. Demak past ko‘rsatkich boshqaruvning yaxshi ishlayotganini emas, bozorning yopiqligini aks ettirishi mumkin. Qarash xodimni barcha muqobillardan xabardor deb hisoblaydi, shu sababli bozordagi imkoniyatni xodimning o‘z bahosi ko‘rinishida o‘lchash to‘g‘riroq.

W.Mobley qanoatlanmaslik bilan ketish o‘rtasida bir necha oraliq bosqich borligini ko‘rsatdi [4]. Xodim avval ishini baholaydi, so‘ng ketish haqida o‘ylaydi, izlanishning foydasi va xarajatini chamalaydi, muqobil qidiradi va shundan keyingina qaror qabul qiladi. Samarali aralashuv dastlabki uch bosqichda mumkin, chunki ariza yozilgan paytda muqobil ish o‘rni allaqachon topilgan

[7] Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan. Beshinchi asos muallif tomonidan qo‘shilgan.

bo‘ladi. Oliy ta’limda bu zanjirga o‘quv taqvimi majburiy to‘xtash qo‘shadi. Professor-o‘qituvchi o‘quv yili o‘rtasida ketolmaydi, shu sababli ketish niyati kuzda shakllansa ham, harakat odatda yozda yuz beradi. Bundan ketish niyatini o‘quv yilining boshida o‘lchash kerak degan qoida kelib chiqadi.

J.Price muammoni shaxsiy xususiyatlardan tashkilot tuzilmasiga ko‘chirdi va mehnat haqi darajasi, jamoa ichidagi muloqot, boshqaruvning markazlashuvi hamda jamoa birligini asosiy omillar sifatida ajratdi [5]. Bu qarash qo‘nimsizlikni boshqarish mumkin bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rishga yo‘l ochdi, ammo omillardan qaysi biri muhimroq ekanini aniqlash usulini bermaydi. Shu sababli omillar vaznini juft-juft qiyoslash orqali aniqlash maqsadga muvofiq.

T.Lee va T.Mitchell ketish qarori har doim ham asta shakllanmasligini ko‘rsatdilar [6]. Ko‘p hollarda uni rahbariyat almashuvi, lavozimga ko‘tarilishdan mahrum bo‘lish yoki kutilmagan ish taklifi kabi voqea keskin tezlashtiradi va xodim muqobil izlamasdan ketadi. Ish qidirish faolligini kuzatishga asoslangan tizim bunday ketishlarni aniqlay olmaydi. Shu sababli so‘rovnomaga oldingi ish joyini tark etish sababi haqidagi savol kiritilishi lozim.

T.Mitchell va hamkasblari nima uchun odamlar qoladi degan savolni o‘rganib, ish joyiga bog‘lanish tushunchasini ilgari surdilar [7]. U aloqalar, moslik va voz kechish o‘lchovlaridan iborat bo‘lib, har biri ish joyi ichida va tashqarisida alohida o‘lchanadi. Voz kechish o‘lchovi to‘plangan staj, unvon bilan bog‘liq ustama va navbatdagi lavozimga ko‘tarilish imkoniyatini nazarda tutadi, soatbay asosda ishlovchi o‘qituvchida esa bularning deyarli hech biri yo‘q. V.Peltokorpi va D.Allen natijalariga ko‘ra ish o‘rni beqaror bo‘lganda ish joyidan tashqaridagi bog‘lanish xodimni ushlab turmaydi, aksincha ketish niyatini kuchaytiradi [8]. Demak bu qarashni qo‘llashdan oldin mehnat munosabatining shakli mustaqil o‘zgaruvchi sifatida hisobga olinishi zarur.

Umumlashtiruvchi tahlillar ishdan qanoatlanish ketishga bevosita emas, ketish niyati orqali ta’sir qilishini ko‘rsatgan [9, 10]. A.Rubenstein va hamkasblari tahlilida ketish niyati va ish qidirish faolligi amaldagi ketishning eng yaqin bashoratchilari, mehnat haqi va demografik belgilar esa eng zaif bashoratchilar qatorida bo‘lib chiqdi [11]. Mehnat haqi qarorga qanoatlanish va adolat hissi orqali, ya’ni xodim o‘z haqini hamkasbinikiga solishtirishi natijasida ta’sir qiladi.

Umumiy nazariyalarni oliy ta’limga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishga to‘rt xususiyat to‘sqinlik qiladi. Birinchisi kadr tayyorlash muddati bilan bog‘liq, chunki dotsent o‘rnini to‘ldirish uchun yo tayyor kadrni boshqa muassasadan jalb qilish, yo yillar bilan o‘lchanadigan tayyorgarlikni kutish kerak bo‘ladi. Ikkinchisi ilmiy rahbarlik bilan bog‘liq. Bitta professorning ketishi bir necha izlanuvchining himoya muddatini uzaytiradi, hisobotda esa bu bitta shtat birligi sifatida qayd etiladi. Uchinchisi natijaning kechikishidir, chunki tajribali o‘qituvchi ketishining ta’lim sifatiga ta’siri bitiruvchilar tayyorgarligida bir necha yildan keyin ko‘rinadi. To‘rtinchisi akademik erkinlik bilan bog‘liq. Ilmiy yo‘nalish va dars uslubini tanlashdagi mustaqillik boshqaruv uslubiga sezgirlikni oshiradi, shu sababli

qaror qabul qilishdagi noaniqlik va lavozimga ko‘tarishdagi shaffoflik yetishmasligi bu toifadagi xodimlarda kuchliroq norozilik uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rib chiqilgan qarashlarning hech biri o‘z-o‘zicha yetarli emas, ammo ularning zaif tomonlari bir-birini to‘ldiradi. Tahlil asosida oliy ta’limda kadrlar qo‘nimsizligini o‘lchash uslubiyati uchun beshta qoida taklif etiladi. Birinchidan, qo‘nimsizlik bitta umumiy ko‘rsatkich bilan emas, ketish turi, ketish yo‘nalishi va mehnat shakli kesimida qayd etiladi. Ikkinchidan, mehnat bozoridagi imkoniyat xodimning o‘z bahosi sifatida o‘lchanadi. Uchinchidan, ketish niyati o‘quv yilining boshida o‘lchanadi. To‘rtinchidan, mehnat munosabatining shakli mustaqil o‘zgaruvchi sifatida hisobga olinadi. Beshinchidan, oldingi ish joyini tark etish sababi alohida so‘raladi. Bu qoidalar rasmiy hisobotda ko‘rinmaydigan ketishlarni boshqaruv nazariga olib kirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-oktabrdagi PF-213-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/8519155.

2. Hom P.W., Lee T.W., Shaw J.D., Hausknecht J.P. One hundred years of employee turnover theory and research // Journal of Applied Psychology. 2017. Vol. 102, No. 3. P. 530-545. DOI: 10.1037/apl0000103.

3. March J.G., Simon H.A. Organizations. New York: John Wiley and Sons, 1958. 262 p.

4. Mobley W.H. Intermediate linkages in the relationship between job satisfaction and employee turnover // Journal of Applied Psychology. 1977. Vol. 62, No. 2. P. 237-240.

5. Price J.L. The study of turnover. Ames: Iowa State University Press, 1977.

6. Lee T.W., Mitchell T.R. An alternative approach: The unfolding model of voluntary employee turnover // Academy of Management Review. 1994. Vol. 19, No. 1. P. 51-89.

7. Mitchell T.R., Holtom B.C., Lee T.W., Sablynski C.J., Erez M. Why people stay: Using job embeddedness to predict voluntary turnover // Academy of Management Journal. 2001. Vol. 44, No. 6. P. 1102-1121. DOI: 10.5465/3069391.

8. Peltokorpi V., Allen D.G. Job embeddedness and voluntary turnover in the face of job insecurity // Journal of Organizational Behavior. 2024. Vol. 45, No. 3. P. 416-433. DOI: 10.1002/job.2728.

9. Tett R.P., Meyer J.P. Job satisfaction, organizational commitment, turnover intention, and turnover: Path analyses based on meta-analytic findings // Personnel Psychology. 1993. Vol. 46, No. 2. P. 259-293. DOI: 10.1111/j.1744-6570.1993.tb00874.x.

10. Griffeth R.W., Hom P.W., Gaertner S. A meta-analysis of antecedents and correlates of employee turnover // Journal of Management. 2000. Vol. 26, No. 3. P. 463-488. DOI: 10.1177/014920630002600305.

11. Rubenstein A.L., Eberly M.B., Lee T.W., Mitchell T.R. Surveying the forest: A meta-analysis, moderator investigation, and future-oriented discussion of the antecedents of voluntary employee turnover // Personnel Psychology. 2018. Vol. 71, No. 1. P. 23-65. DOI: 10.1111/peps.12226.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA NEFT-GAZ TARMOG‘INI ISLOH QILISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Jabborov Mashrab Ismoil o‘g‘li
Tashkent iqtisodiyot universiteti
mashrabjabborov724@gmail.com

Annotatsiya. *Yangi O‘zbekiston sharoitida neft-gaz tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy asoslari yoritilgan. Tarmoqni boshqarishdagi institutsional o‘zgarishlar, narx shakllanishini liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari 2024-2026-yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tabiiy gaz qazib olishning pasayish tendensiyasi, mamlakatning gaz bo‘yicha sof importyorga aylanishi hamda qayta ishlash sanoatidagi o‘sish omillari baholangan. Natijalar asosida tarmoq islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *neft-gaz tarmog‘i, iqtisodiy islohotlar, bozor mexanizmlari, mahsulot taqsimotiga oid bitim, investitsiyalar, energetika xavfsizligi.*

Neft-gaz tarmog‘i O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika balansining asosini tashkil etadi: elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, aholi va sanoatni gaz bilan ta’minlash, kimyo sanoati uchun xomashyo yetkazib berish shu tarmoqqa tayanadi. Shu bois tarmoq samaradorligi bevosita makroiqtisodiy barqarorlik, davlat byudjeti tushumlari va aholi farovonligiga ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq yillar davomida tarmoq davlat monopoliyasi, ma’muriy belgilangan past narxlar va vertikal integratsiyalashgan yagona tuzilma doirasida faoliyat yuritdi. Bu esa investitsion resurslarning yetishmasligi, asosiy fondlarning eskirishi va konlarning tabiiy kamayishiga javoban yangi zaxiralarni o‘z vaqtida o‘zlashtira olmaslikka olib keldi.

Islohotlarning dolzarbligini so‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlar yaqqol ko‘rsatadi. Yirik korxonalar bo‘yicha yanvar–oktabr oylarida tabiiy gaz qazib olish 2019-yildagi 50,1 mlrd m^3 dan 2024-yildagi 37,1 mlrd m^3 gacha, ya’ni qariyb 26 foizga qisqargan.

Qazib olishning qisqarishi tashqi savdo tarkibini ham o‘zgartirdi. Bir paytlar yirik gaz eksportyori bo‘lgan O‘zbekiston sof importyorga aylandi: 2024-yil yanvar–oktabr oylarida gaz importi 1,36 mlrd dollarni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,4 barobar oshgan. 2025-yilning shu davrida Rossiya va Turkmanistondan gaz importi 1,12 mlrd dollarni tashkil etib, 16 foizga kamaygan, gaz eksporti esa 2025-yil yakunida 629 mln dollarga teng bo‘lgan . Demak, ichki talabni qondirish uchun valyuta resurslarining katta qismi energiya importiga sarflanmoqda, bu esa islohotlarning birinchi navbatdagi iqtisodiy zaruratini — mahalliy qazib olishni barqarorlashtirishni asoslaydi.

Korporativ boshqaruv islohotlari ham moliyaviy natijalarda o‘z aksini topmoqda. “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning to‘qqiz oyida kompaniya tushumi 22 foizga, sof foydasi esa 2,5 barobarga oshgan, byudjetga 6,9 trln so‘m soliq va majburiy to‘lovlar to‘langan; kredit portfeli 385 mln dollarga optimallashtirilib, foiz xarajatlari 18 mln dollarga qisqartirilgan [10]. Narx siyosatida ham bozor mexanizmlari kengaymoqda: 2025-yil 1-maydan

avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari uchun tabiiy gazning ulgurji narxi 1 m^3 uchun 1800 so‘mdan 2500 so‘mgacha oshirilgan.

Shu bilan birga, tarmoqda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, turli rasmiy manbalarda 2024-yildagi gaz qazib olish hajmi 41,3 va 44,6 mlrd m^3 deb turlicha keltirilishi statistik shaffoflikni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, islohotlarni chuqurlashtirish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq:

geologiya-qidiruv ishlariga investitsiyalarni ko‘paytirish va mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish tartibini soddalashtirish, investorlar uchun barqaror soliq rejimini kafolatlash;

energiya narxlarini bosqichma-bosqich iqtisodiy asoslangan darajaga yetkazish va ijtimoiy himoyani aholining kam ta’minlangan qatlamlariga manzilli subsidiyalar orqali amalga oshirish;

qazib olish, import, eksport va narxlar bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam e’lon qilish, qazib oluvchi tarmoqlarda shaffoflik tashabbusi (EITI) talablarini to‘liq bajarish;

gaz-kimyo va neftni chuqur qayta ishlash loyihalarini rivojlantirib, xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish;

gaz tashish va taqsimlash tizimidagi yo‘qotishlarni kamaytirish, aqlli hisoblagichlarni to‘liq joriy etish va energiya samaradorligini oshirish orqali ichki talabni optimallashtirish.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida neft-gaz tarmog‘ini isloh qilish tuzilmaviy ajratish, narxlarni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va korporativ boshqaruvni takomillashtirishdan iborat izchil iqtisodiy asoslarga tayanmoqda. Statistik tahlil qayta ishlash sanoatida va davlat kompaniyasining moliyaviy ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini, biroq qazib olishning pasayishi va importga bog‘liqlikning ortishi asosiy xavf omili bo‘lib qolayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli islohotlarning keyingi bosqichi resurs bazasini kengaytirish, xususiy investitsiyalar ulushini oshirish va tarmoq faoliyatining shaffofligini ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4388-son qarori (neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini isloh qilish to‘g‘risida). www.lex.uz

3. Yoqilg‘i-energetika kompleksiga bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (2024-yil 16-aprel). www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda 1,2 mln tonna benzin ishlab chiqarilgan. www.stat.uz, 2026.

5. Uzbekistan revises 2030 gas production target to 48.5 billion cubic meters. Kun.uz, 18.02.2026.

6. Uzbekneftegaz forecasts a decrease in gas production in 2025. Kun.uz, 21.12.2024.

7. O‘zbekistonda energiya resurslari ishlab chiqarish: 2026-yil yanvar–avgust. Spot.uz, 03.10.2026.

8. *O‘zbekistonda tabiiy gaz bilan bog‘liq holat qanday o‘zgaryapti? Kun.uz, 24.01.2026.*

РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФОИЗСИЗ ДАРОМАДЛАРИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ

Остонақулова Гулчехрахон Муҳаммадёқуб қизи
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Тижорат банклари даромадларини диверсификациялаш ва фоизсиз даромадлар улушини ошириш банк тизимининг фоиз ставкалари тебранишига ва кредит рискига боғлиқлигини камайтиришнинг муҳим йўли ҳисобланади [1; 2]. Ўзбекистонда рақамли банк хизматларининг жадал ривожланиши комиссион даромадларни кўпайтириш учун янги имкониятлар яратмоқда. Мазкур тезиснинг мақсади Марказий банк статистик маълумотлари асосида фоизсиз даромадларнинг ҳозирги ҳолатини баҳолашдан иборат.

Марказий банк маълумотларига кўра, банк тизимининг фоизсиз даромадлари 2020 йилдаги 11,8 трлн сўмдан 2025 йилда 73,1 трлн сўмга, яъни 6,2 баробарга ошди, фоизли даромадлар эса шу даврда 3,4 баробар ўсди. Натижада фоизсиз даромадларнинг жами даромадлардаги улуши 24,1 фоиздан 36,4 фоизга кўтарилди, бу ривожланган мамлакатлар банклари даражасига (35–45 фоиз) яқинлашганини билдиради. 2026 йил I чорагида фоизсиз даромадлар ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 37,4 фоизга ўсди. Бироқ фоизсиз харажатлар ҳам 3,5 трлн сўмдан 27,8 трлн сўмга (7,9 баробар) ошди, бу фоизсиз даромадларнинг сезиларли қисми валюта қайта баҳолаш ва савдо операциялари билан боғлиқ «симметрик» даромадлар эканлигини кўрсатади. Фоизсиз даромадларнинг ўсишига асос бўлган рақамли инфратузилма динамикаси 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал маълумотлари сўнгги олти йилда банк карталари сонининг 3,3 баробар, масофавий хизматлар фойдаланувчиларининг 8,2 баробар, тезкор тўловлар ҳажмининг эса 10,8 баробар ошганини кўрсатади. 2025 йилда тезкор тўловлар тизими орқали 1389,7 трлн сўмлик 61,3 млн тўлов амалга оширилди. Бу банкларнинг комиссион даромад базаси (карта хизмати, эквайринг, ўтказмалар, масофавий хизматлар обунаси) бир неча баробар кенгайганини билдиради. Айни пайтда тўлов терминаллари сони амалда ўзгармаган (1,1 баробар), масофавий хизматлардан фойдаланувчи юридик шахслар сони эса атиги 2,5 баробар ошган, демак, эквайринг ва корпоратив рақамли хизматлар сегментида резервлар катта.

Таҳлил шуни кўрсатадики, фоизсиз даромадларнинг ўсиши ҳозирча асосан валюта операциялари ҳисобига бўлиб, тўлов хизматларидан олинадиган барқарор комиссион даромадлар етарли даражада монетизация қилинмаган. Бунга Марказий банкнинг тўлов хизматлари

тарифларига қўйган чекловлари, тўлов ташкилотлари билан рақобат ва банкларда маҳсулот кесимида даромадлилик ҳисобининг йўқлиги сабаб бўлмоқда.

1-жадвал

Ўзбекистонда рақамли банк хизматлари ва тўлов инфратузилмасининг ривожланиши

Кўрсаткич	01.01. 2020	01.01. 2022	01.01. 2024	01.01. 2026	Ўсиш, марта
Банк пластик карталари, млн дона	20,5	27,1	46,2	68,3	3,3
Банкомат ва инфокиосклар, минг дона	9,2	12,9	26,7	40,1	4,4
Тўлов терминаллари, минг дона	392,4	433,4	429,3	430,8	1,1
Масофавий хизматлар фойдаланувчилари, млн	10,2	20,2	43,6	82,9	8,2
Терминаллар орқали тўловлар (йил давомида), трлн сўм	71,0	111,1	254,7	460,3	6,5
Тезкор тўловлар тизими орқали тўловлар, трлн сўм	128,3	446,4	918,0	1389,7	10,8
Фоизсиз даромадлар улуши жами даромадларда, %	24,1	35,0	33,0	36,4	–

Манба: *Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик бюллетени (2026 йил март) маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган*

Фоизсиз даромадларни барқарор ошириш учун қуйидагилар таклиф этилади: 1) фоизсиз даромадларни барқарор (комиссион, хизмат кўрсатиш, кафолат ва аккредитивлар) ва нобарқарор (валюта қайта баҳолаш, савдо операциялари) манбаларга ажратиб бошқариш; 2) QR-тўловлар ва мобил эквайринг орқали савдо-хизмат корхоналарини қамраб олишни кенгайтириш; 3) кичик бизнес учун онлайн-бухгалтерия, электрон ҳужжат айланиши ва маркетплейс каби обуна асосидаги экотизим хизматларини жорий этиш; 4) банк-суғурта ва инвестицион маҳсулотларни агентлик асосида сотишни ривожлантириш; 5) комиссион даромадлар улушини жами даромадларнинг камида 25–30 фоизигача етказишни мақсад қилиб белгилаш.

Адабиётлар:

1. Stiroh K.J. Diversification in Banking: Is Noninterest Income the Answer? // Journal of Money, Credit and Banking. – 2004. – Vol. 36, No. 5. – P. 853–882.

2. DeYoung R., Rice T. Noninterest Income and Financial Performance at U.S. Commercial Banks // The Financial Review. – 2004. – Vol. 39. – P. 101–127.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Статистик бюллетень. – 2026 йил март. – www.cbu.uz.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI KOMPLEKS IQTISODIY DIAGNOSTIKA ASOSIDA BAHOLASH

Annaqulov Kamol Xasanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy diagnostikaning o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida iqtisodiy diagnostika mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar salohiyati, ta’lim sifati, moliyaviy barqarorlik va innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash masalalari yoritilgan. Universitetlarning iqtisodiy-tashkiliy holatini integral indeks asosida baholash hamda diagnostika natijalarini strategik boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: oliy ta’lim, iqtisodiy diagnostika, raqobatbardoshlik, kadrlar salohiyati, integral indeks, moliyaviy barqarorlik, strategik boshqaruv, ta’lim sifati, innovatsion faoliyat.*

Globallashuv, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro ta’lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy universitetlarning raqobatbardoshligi nafaqat ta’lim xizmatlari hajmi yoki moddiy-texnik bazasi, balki ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyati, moliyaviy barqarorlik, ilmiy tadqiqotlar natijadorligi, innovatsion faollik va xalqaro hamkorlik darajasi bilan ham belgilanadi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar universitetlarning akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish hamda boshqaruv faoliyatining natijadorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1].

2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori asosida ta’lim sifatini ta’minlash, oliy ta’lim muassasalarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish mexanizmlarining takomillashtirilishi universitetlar faoliyatini tizimli baholash zaruratini kuchaytirdi [2; 3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmonida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini «5 T — ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish» tamoyili asosida rivojlantirish vazifalari belgilangan [4]. Mazkur institutsional o‘zgarishlar universitetlarning iqtisodiy diagnostika tizimini an’anaviy moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish doirasidan chiqarib, uni raqobatbardoshlikni strategik boshqarish mexanizmiga aylantirishni talab etmoqda. Iqtisodiy diagnostika oliy

ta’lim muassasasining moliyaviy, ilmiy, pedagogik, innovatsion va tashkiliy faoliyatiga oid ko‘rsatkichlarni kompleks baholash, mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi axborot-tahliliy mexanizm hisoblanadi.

Mazkur yondashuv doirasida universitetlarning raqobatbardoshligini boshqarishda iqtisodiy diagnostikaning uchta o‘zaro bog‘liq bosqichini ajratish maqsadga muvofiq: mavjud resurslar va institutsional imkoniyatlarni baholash; faoliyat natijalari va ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish; strategik qarorlarning kutilayotgan natijalarini prognozlash. Ayniqsa, universitetlarning kadrlar salohiyatini iqtisodiy diagnostika tizimining asosiy komponentlaridan biri sifatida baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda professor-o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, kasbiy malakasi va pedagogik tajribasi bilan bir qatorda ilmiy loyihalardagi ishtiroki, xalqaro grantlarni jalb etishi, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish natijalari hamda raqamli kompetensiyalari hisobga olinishi zarur. Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy-tashkiliy holatini kompleks baholash maqsadida tadqiqot doirasida integral iqtisodiy diagnostika indeksini qo‘llash taklif etiladi.

$$IED_i = \sum_{j=1}^{n} w_j D_{ij}$$

bu yerda:

IED_i — oliy ta’lim muassasasining integral iqtisodiy diagnostika indeksi;

D_ij — tegishli yo‘nalish bo‘yicha normallashtirilgan diagnostika ko‘rsatkichi;

w_j — ko‘rsatkichning integral baholashdagi vazn koeffitsienti;

n — baholanayotgan komponentlar soni.

Ushbu indeksni shakllantirishda kadrlar salohiyati, ta’lim sifati, ilmiy tadqiqotlar natijadorligi, moliyaviy barqarorlik, innovatsion faoliyat va institutsional boshqaruv ko‘rsatkichlarini hisobga olish taklif etiladi.

1-jadval.

Oliy ta’lim muassasalarining integral iqtisodiy diagnostika indeksini shakllantirish komponentlari

Diagnostika komponentlari	Belgilanishi	Namunaviy vazn
Kadrlar salohiyati va undan foydalanish samaradorligi	D_1	0,25
Ta’lim sifati va akademik natijadorlik	D_2	0,20
Ilmiy tadqiqotlar natijadorligi	D_3	0,20
Moliyaviy barqarorlik va resurslar samaradorligi	D_4	0,15
Innovatsion faoliyat va tijoratlashtirish	D_5	0,10
Institutsional boshqaruv va xalqaro hamkorlik	D_6	0,10
Jami		1,00

Manba: *muallif tomonidan taklif etilgan metodologiya asosida.*

Taklif etilgan vazn koeffitsiyentlari asosida integral iqtisodiy diagnostika indeksi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Mazkur metodologiyaning afzalligi turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan iqtisodiy, ilmiy, pedagogik va innovatsion ko‘rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirish imkoniyatidir.

Buning uchun ko‘rsatkichlarni normallashtirish talab etiladi. Ijobiy yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqqa keltirishda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$D_{ij} = \frac{X_{ij} - X_j^{min}}{X_j^{max} - X_j^{min}}$$

Salbiy yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar uchun teskari normallashtirish qo‘llanilishi lozim. Namunaviy vaznlarning asoslanganligi va indeksning turli sharoitlarga sezgirligi esa empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi zarur.

Integral diagnostika natijalari universitetlarning iqtisodiy-tashkiliy holatini qiyosiy baholash, rivojlanish zaxiralarini aniqlash va boshqaruv qarorlarini shakllantirishda foydalanilishi mumkin. Biroq mazkur indeksni universitetning yakuniy raqobatbardoshlik reytingi bilan to‘liq tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Chunki raqobatbardoshlik tashqi manfaatdor tomonlarning bahosi, ta’lim xizmatlari bozoridagi mavqe va institutsional natijalar bilan ham belgilanadi. Iqtisodiy diagnostika natijalarini universitetlarning strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilishda raqamli monitoring platformalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur platformalarda professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik faoliyati, moliyaviy tushumlar, ta’lim dasturlari natijadorligi, ilmiy grantlar va innovatsion ishlanmalar bo‘yicha ma’lumotlarni yagona axborot muhitida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, iqtisodiy diagnostika universitet boshqaruvining strategik, taktik va tezkor darajalarida qo‘llanilishi zarur. Strategik darajada universitetning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari va raqobat ustunliklari aniqlansa, taktik darajada fakultetlar hamda kafedralar faoliyati natijadorligi baholanadi. Tezkor darajada esa mavjud iqtisodiy va tashkiliy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

*Xulosa va takliflar***.** Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy diagnostika tizimini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Universitetlarning akademik va moliyaviy mustaqilligi kengayib borayotgan sharoitda boshqaruv qarorlarini moliyaviy, ilmiy, pedagogik va innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish asosida shakllantirish talab etiladi.

Tadqiqot asosida oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy diagnostika tizimida kadrlar salohiyatini asosiy strategik resurs sifatida baholash, integral iqtisodiy diagnostika indeksini joriy etish, diagnostika natijalarini strategik rejalashtirish bilan bog‘lash hamda raqamli monitoring platformalarini rivojlantirish taklif etiladi. Shuningdek, 2025-yilda joriy etilgan akkreditatsiya mexanizmlarini universitetlarning ichki iqtisodiy diagnostika tizimi bilan integratsiya qilish va 2026-yilda belgilangan «5 T» tamoyili asosida ta’lim, tarbiya, tadqiqot,

tijoratlashtirish hamda tizimli takomillashtirish yo‘nalishlarining natijadorligini baholash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, iqtisodiy diagnostikani universitetlarning joriy holatini baholash vositasidan raqobatbardoshlikni strategik boshqarish mexanizmiga aylantirish inson kapitalidan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, ilmiy-innovatsion faoliyat natijadorligini oshirish va milliy oliy ta’lim muassasalarining xalqaro ta’lim xizmatlari bozoridagi mavqeyini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son «Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son «O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son «Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

5. Sotvoldiev N. J. Oliy ta’lim muassasasini boshqarish – iqtisodiy diagnostika ob’ekti sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020. — № 4. — B. 134–143.

6. Schultz T. W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.

7. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: Columbia University Press, 1964.

8. *Barney J. B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. — 1991. — Vol. 17, No. 1. — P. 99–120.*

KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti dotsenti

"O‘zbekiston - 2030" strategiyasida aholi bandligi va daromadlarini oshirish, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash hamda inson kapitalini rivojlantirish o‘zaro bog‘liq ustuvor maqsadlar sifatida belgilangan [1]. Ushbu maqsadlarga erishishda kichik biznes hal qiluvchi o‘rin egallaydi, chunki band

aholining to‘rtdan uch qismi aynan shu sektorda mehnat qiladi. BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonning inson taraqqiyoti indeksi 0,740 ni tashkil etib, mamlakat 193 davlat orasida 107-o‘rinni egallagan [8]. Bu ko‘rsatkich inson kapitali sifatini oshirish bo‘yicha hali katta salohiyat mavjudligini anglatadi.

Kichik biznes subyektlarida inson kapitali yirik korxonalardagidan farqli sharoitda shakllanadi. Ularda kadrlar bilan ishlash bo‘yicha alohida tarkibiy bo‘linma odatda mavjud emas, xodimlarni o‘qitishga ajratiladigan mablag‘ cheklangan, mehnat munosabatlari esa ko‘pincha rahbar va xodim o‘rtasidagi shaxsiy kelishuvga tayanadi. G. Bekker ko‘rsatib berganidek, umumiy xususiyatdagi bilim va ko‘nikmalarga sarflangan xarajatni ish beruvchi to‘liq qaytarib ololmaydi, chunki malakasi oshgan xodim boshqa korxonaga o‘tib ketishi mumkin [4]. Kichik korxonalar uchun bu xavf ayniqsa yuqori bo‘lib, ular xodimlar malakasiga yetarli investitsiya kiritmaydi. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirish masalasini mehnat munosabatlarining barqarorligi, ish haqi tizimi va xodimlar motivatsiyasidan ajratgan holda hal etib bo‘lmaydi.

Sektorda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (U_{ya}) va bandlikdagi ulushi (U_b) nisbatidan iborat nisbiy mehnat unumdorligi koeffitsienti qo‘llanildi: $K = U_{ya} / U_b$. Yirik biznes uchun shu koeffitsient $K_y = (100 - U_{ya}) / (100 - U_b)$ formula bilan aniqlanadi. Ikki koeffitsient nisbati kichik biznesda bir xodimga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat yirik biznesdagi tegishli ko‘rsatkichning qancha qismini tashkil etishini ko‘rsatadi. Hisob-kitob natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kichik biznesda bandlik va nisbiy mehnat unumdorligi dinamikasi


Yillar	Kichik biznesda band bo‘lganlar, ming kishi	O‘sish sur’ati, oldingi yilga nisbatan, %	Bandlikdagi ulushi, %	YaIMdagi ulushi, %	Nisbiy unumdorlik koeffitsienti (K)	Yirik biznes unumdorligiga nisbatan, %
2019	10318,9	101,9	76,2	58,1	0,762	43,3
2020	9865,7	95,6	74,5	56,7	0,761	44,8
2021	10080,6	102,2	74,5	56,3	0,756	44,1
2022	10131,1	100,5	73,9	54,3	0,735	42,0
2023	10373,3	102,4	74,0	53,8	0,727	40,9
2024	10538,6	101,6	73,9	53,5	0,724	40,6
2025	11183,4	106,1	74,9	52,2	0,697	36,6

Jadval ma’lumotlari kichik biznes rivojlanishida ekstensiv omillar ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi. 2019-2025-yillarda sektorda band bo‘lganlar soni 864,5 ming kishiga yoki 8,4 foizga ko‘paygan, shundan 644,8 ming kishi faqat 2025-yilga to‘g‘ri keladi. Biroq bandlikning eng tez o‘sgan yilida sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi davr mobaynidagi eng past darajaga - 52,2 foizga tushgan. Bandlikdagi ulush 76,2 foizdan 74,9 foizgacha, ya’ni 1,3 foiz bandga kamaygani holda, yalpi ichki mahsulotdagi ulush 5,9 foiz bandga qisqargan.

Natijada nisbiy unumdorlik koeffitsienti 0,762 dan 0,697 gacha pasaygan. Kichik biznesda bir xodimga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat 2020-yilda yirik

biznesdagi darajaning 44,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 36,6 foizni tashkil etdi, faqat oxirgi yilda tafovut 4,0 foiz bandga kengaydi. Boshqacha aytganda, kichik biznesdagi uch nafar xodim yirik korxonadagi bir nafar xodimga yaqin qo‘shilgan qiymat yaratmoqda. Bu holat yangi ish o‘rinlari asosan past malaka talab qiladigan va qo‘shilgan qiymati kam faoliyat turlarida tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Unumdorlik tafovutining tarmoq ildizlarini aniqlash maqsadida kichik biznesning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiyot tarmoqlari qo‘shilgan qiymatidagi ulushi 2025-yil yakunlari bo‘yicha tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznesning 2025-yilda iqtisodiyot ko‘rsatkichlari va tarmoqlaridagi ulushi


Rasmdan ko‘rinadiki, kichik biznes chakana savdo aylanmasining 83,0 foizini, qurilish ishlarining 73,6 foizini, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi qo‘shilgan qiymatining esa 93,1 foizini ta’minlaydi. Mazkur faoliyat turlari mehnat sig‘imining yuqoriligi va xodimlar malakasiga nisbatan past talab qo‘yilishi bilan ajralib turadi. Aksincha, malakali mehnat va texnologik bilimlarni talab qiladigan sanoatda sektorning qo‘shilgan qiymatdagi ulushi 28,5 foiz, sanoat mahsulotidagi ulushi 34,9 foiz, eksportdagi ulushi 36,6 foiz bilan cheklanmoqda.

Alohida e’tiborni kichik biznesning asosiy kapitalga investitsiyalardagi 61,4 foizlik ulushi bilan sanoatdagi kichik ulushi o‘rtasidagi nomutanosiblik talab etadi. Sektorga sezilarli kapital yo‘naltirilmoqda, ammo u yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishga yetarli darajada aylanmayapti. Bunday vaziyat yangi texnika va texnologiyalarni samarali o‘zlashtira oladigan malakali xodimlar yetishmasligi bilan izohlanadi: inson kapitali jismoniy kapitalni to‘ldiruvchi omil bo‘lib, uning yetishmasligi investitsiyalar qaytimini pasaytiradi [5].

Mehnat munosabatlari nuqtai nazaridan yana bir muhim tendensiya kuzatilmoqda. 2025-yilda respublikada o‘rtacha nominal oylik ish haqi 6 376,7 ming so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 18,9 foizga oshgan [11]. Kichik biznesda unumdorlikning nisbiy pasayishi sharoitida ish haqining bunday sur’atlarda o‘sishi mehnat xarajatlari yukini oshiradi va ish beruvchilarni mehnat

munosabatlarini rasmiylashtirmaslikka undaydi. Demak, ish haqini oshirish manbai unumdorlik o‘sishi bo‘lishi, mehnatga haq to‘lash tizimi esa xodimning malakasi va natijasi bilan bevosita bog‘lanishi lozim.

O‘tkazilgan tahlil natijalari asosida kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarini rivojlantirishning yagona strategik maqsadga bo‘ysundirilgan beshta yo‘nalishi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari

Taklif etilayotgan tuzilmaning asosiy xususiyati shundaki, unda inson kapitalini rivojlantirish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish alohida-alohida emas, balki unumdorlik tafovutini qisqartirishdek yagona maqsad atrofida birlashtirilgan. Birinchi yo‘nalish o‘qitish xarajatlarining "boshqa korxonaga ketib qolish" xavfini kamaytirishga qaratilgan: bir tarmoqdagi kichik korxonalar o‘quv konsorsiumlari orqali xarajatlarni birgalikda qoplaydi. Ikkinchi va to‘rtinchi yo‘nalishlar xodimning korxonada uzoq muddat qolishidan manfaatdorligini oshiradi, uchinchi yo‘nalish boshqaruv xarajatlarini kamaytiradi, beshinchi yo‘nalish esa mehnat bozorining hozircha to‘liq foydalanilmayotgan qatlamlarini faol iqtisodiy hayotga jalb etadi.

Har bir strategik yo‘nalishning maqsadi, ustuvor chora-tadbirlari va natijalarini baholash indikatorlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari va samaradorlik indikatorlari

Strategik yo‘nalish	Ustuvor chora-tadbirlar	Samaradorlik indikatorlari

Unumdorlikka yo‘naltirilgan malaka tizimi	Tarmoq o‘quv konsorsiumlarini tashkil etish; ish joyida o‘qitish va ustoz-shogird dasturlari; kasbiy malakani mustaqil sertifikatlash	Nisbiy unumdorlik koeffitsienti; sertifikatlangan xodimlar ulushi
Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va ijtimoiy muloqot	Mehnat shartnomasini soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish; tarmoq va hududiy kelishuvlar; mehnat xavfsizligi standartlari	Muddatsiz mehnat shartnomalari ulushi; xodimlar qo‘nimsizligi koeffitsienti
Raqamli kompetensiyalar va HR-boshqaruvni raqamlashtirish	Raqamli savodxonlik kurslari; kichik korxonalar uchun HR-autsorsing xizmatlari; elektron mehnat hujjatlari	Raqamli ko‘nikmaga ega xodimlar ulushi; kadrlar hujjatlarini rasmiylashtirish muddati
Ish haqini unumdorlik bilan bog‘lovchi motivatsiya	Natijaga ko‘ra mukofotlash; foydada ishtirok etish sxemalari; malaka toifasi bo‘yicha ish haqi shkalasi	Ish haqi o‘sishining unumdorlik o‘sishiga nisbati; mukofotning ish haqidagi ulushi
Inklyuziv inson kapitali	Yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o‘qitish; qaytgan mehnat migrantlarining xorijda egallagan malakasini tan olish	Kasbga o‘qitilganlarning ishga joylashish darajasi; tan olingan malakalar soni

Jadvalda keltirilgan indikatorlar orasida nisbiy unumdorlik koeffitsienti umumlashtiruvchi ko‘rsatkich vazifasini bajaradi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, sektorning bandlikdagi ulushi 2025-yil darajasida (74,9 foiz) saqlangan taqdirda, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish uchun koeffitsientni 0,697 dan 0,801 gacha, ya’ni 14,9 foizga oshirish talab etiladi. Bunga yangi ish o‘rinlari soni hisobiga emas, balki mavjud xodimlarning malakasini oshirish, kichik biznesning sanoat va eksportdagi ishtirokini kengaytirish hamda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish orqali erishish mumkin.

Strategik yo‘nalishlarni amalga oshirishda kichik biznes subyektlarining hajmi va faoliyat turi bo‘yicha tabaqalashtirilgan yondashuv zarur. Mikrofirmalar uchun HR-autsorsing va tarmoq o‘quv konsorsiumlari, kichik sanoat korxonalari uchun esa ish joyida o‘qitish, malakani sertifikatlash va natijaga ko‘ra mukofotlash vositalari ustuvor ahamiyatga ega.

Birinchidan, 2019-2025-yillarda kichik biznes ekstensiv yo‘l bilan rivojlangan: sektorda band bo‘lganlar soni 11183,4 ming kishiga yetgani holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 58,1 foizdan 52,2 foizga qisqargan. Nisbiy unumdorlik koeffitsientining 0,762 dan 0,697 gacha pasayishi inson kapitali sifatini oshirish strategik vazifaga aylanganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, kichik biznesda bir xodimga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat yirik biznesdagi darajaning 36,6 foizini tashkil etadi. Tafovutning asosiy sababi sektor faoliyatining mehnat sig‘imi yuqori, malaka talabi past tarmoqlarda to‘planganligi hamda sanoat (28,5 foiz) va eksportdagi (36,6 foiz) ulushining cheklanganligidir.

Uchinchidan, inson kapitalini rivojlantirish mehnat munosabatlarining barqarorligisiz samara bermaydi. Shu bois taklif etilgan beshta strategik yo‘nalish

- unumdorlikka yo‘naltirilgan malaka tizimi, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, raqamli kompetensiyalar, ish haqini unumdorlik bilan bog‘lash va inklyuziv inson kapitali - yagona maqsad doirasida kompleks amalga oshirilishi lozim.

To‘rtinchidan, bandlikdagi ulush saqlangan holda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish nisbiy unumdorlik koeffitsientini 14,9 foizga oshirishni talab etadi. Bu ko‘rsatkichni strategik yo‘nalishlar samaradorligini baholashning asosiy indikatori sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni // lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni // lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2023.

4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. - Chicago: University of Chicago Press, 1964. - 187 p.

5. Mincer J. Schooling, Experience, and Earnings. - New York: NBER, Columbia University Press, 1974. - 152 p.

6. Armstrong M., Taylor S. Armstrong‘s Handbook of Human Resource Management Practice. 16th ed. - London: Kogan Page, 2023.

7. Small Matters: Global Evidence on the Contribution to Employment by the Self-employed, Micro-enterprises and SMEs. - Geneva: ILO, 2019.

8. Human Development Report 2025. - New York: UNDP, 2025.

9. Kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari: 2025-yil yanvar-dekabr. - Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. - www.stat.uz.

10. Kichik biznesning bandlikdagi va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi: statistik ma’lumotlar bazasi. - siat.stat.uz.

11. O‘zbekistonda o‘rtacha oylik nominal ish haqi: 2025-yil yanvar-dekabr. - Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. - www.stat.uz.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ЦИФРОВЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РАБОТНИКОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Пулатов Дилшод Акмальевич

Самостоятельный соискатель Ташкентского филиала Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова

Цифровая трансформация банковской деятельности меняет экономическое содержание банковского труда: автоматизированные системы берут на себя сбор данных, повторяющиеся операции и первичную проверку, а работники сосредотачиваются на анализе исключений, интерпретации результатов моделей, консультировании клиентов и контроле рисков. Как показывают исследования Д. Аджемоглу и П. Рестрепо, технологии не только вытесняют труд, но и порождают новые

задачи, требующие соответствующих навыков [1]. По оценке Всемирного экономического форума, к 2030 году около 39% ключевых навыков изменятся, а 59 работников из 100 будут нуждаться в повышении квалификации или переподготовке [2; 7].

В Узбекистане объём операций физических лиц через мобильные приложения вырос со 145,8 трлн сумов в 2022 году до 645,6 трлн сумов в 2025 году, т.е. в 4,4 раза, а объём онлайн-микрокредитов – с 5,6 до 38,6 трлн сумов [3]. Развитие цифровых каналов сопровождается ростом операционных и киберрисков: в 2024 году к пилотной централизованной антифрод-системе были подключены 34 банка и 9 платёжных организаций. Одновременно средняя начисленная заработная плата в банковской, страховой, лизинговой и кредитной деятельности в январе–марте 2026 года составила 18,596 млн сумов, что примерно в 2,7 раза выше среднереспубликанского уровня (по данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике). Высокая стоимость квалифицированного труда повышает цену ошибочных решений в сфере обучения и удержания работников.

Вместе с тем в практике банков обучение по-прежнему оценивается преимущественно количеством программ, учебных часов и выданных сертификатов. Отсутствует единый механизм учёта полной стоимости инвестиций и последовательной оценки их профессиональной и экономической отдачи. Целью исследования является разработка такого механизма и методического подхода к оценке результативности профессионального развития.

Использованы теория человеческого капитала [4], модели оценки обучения Д. и Дж. Киркпатриков [5] и Дж. и П. Филлипсов [6], структурно-динамический и сравнительный анализ, контент-анализ официальных документов АО «Asia Alliance Bank» и АКБ «Octobank», а также авторская расчётно-сценарная апробация на две пилотные группы по 60 работников. Сценарные расчёты выполнены в трёх вариантах (консервативный, базовый, целевой) с раздельным учётом ресурсного и денежного контуров.

В предлагаемом механизме объектом инвестирования выступает не учебный курс сам по себе, а подтверждённый разрыв между требованиями трудовой функции и фактическими способностями работника. Механизм объединяет девять последовательных этапов: прогнозирование потребности банка, диагностику разрывов, определение приоритетов, формирование бюджета, выбор формы развития, практическое применение, стимулирование, повторную оценку и решение о дальнейшем финансировании. Полная ресурсная стоимость программы рассчитывается по формуле:

$$I_p = D_p + T_p + M_p + O_p, \quad (1)$$

где D_p – прямые расходы на обучение, платформу и сертификацию; T_p – стоимость рабочего времени участников; M_p – стоимость наставничества; O_p – организационное сопровождение. Каждая статья учитывается однократно; дополнительные денежные платежи раскрываются отдельно

от альтернативной стоимости уже оплаченного рабочего времени. Общебанковские расходы на персонал и полная цена технологической закупки не используются вместо бюджета обучения.

В бюджете банка предлагается выделить отдельную статью «Развитие цифровых компетенций работников» со структурой, приведённой в таблице 1. Распределение средств внутри статьи осуществляется по критериям стратегической значимости компетенции, величины разрыва, риска ошибки, численности нуждающихся работников, стоимости программы и наличия условий практического применения.

Таблица 1. Рекомендуемая структура целевого бюджета развития цифровых компетенций

Направление	Экономическое назначение	Ориентир доли	Условие финансирования
Обязательные и базовые компетенции	Минимальный безопасный уровень для массовых групп	25–35%	Утверждённый стандарт и охват целевой группы
Стратегические компетенции	Поддержка цифровых проектов и новых продуктов (данные, ИИ, цифровое кредитование)	25–35%	Паспорт проекта и ожидаемый трудовой результат
Индивидуальные траектории	Устранение подтверждённых разрывов	20–30%	Цифровой профиль и план применения
Наставничество и внутренние эксперты	Передача неформализованного опыта	5–10%	Подтверждённая нагрузка и результаты обучаемых
Резерв развития	Новые технологические и регуляторные потребности	5–10%	Решение уполномоченной комиссии

Источник: разработано автором. Доли являются методическими ориентирами и в сумме должны составлять 100%.

Программа не может признаваться результативной только на основании её завершения. Оценка проводится последовательно по пяти уровням (табл. 2), что позволяет установить, на каком этапе прекращается преобразование инвестиций в производительный результат.

Таблица 2. Пятиуровневая система оценки результативности профессионального развития

Уровень	Основной вопрос	Ключевые показатели	Управленческое решение
1. Затраты	Сколько ресурсов инвестировано?	Прямые расходы, рабочее время, наставничество, стоимость на работника	Сопоставление полной стоимости и масштаба
2. Освоение	Какие компетенции приобретены?	Прирост уровня, выполнение практического кейса	Допуск к применению или доп. обучение
3. Применение	Используется ли компетенция в работе?	Частота и качество применения, самостоятельность	Закрепление навыка или корректировка условий

Уровень	Основной вопрос	Ключевые показатели	Управленческое решение
4. Трудовой результат	Изменились ли скорость, качество, производительность?	Время операции, ошибки, объём, качество сервиса	Масштабирование или пересмотр траектории
5. Экономический результат	Получил ли банк измеримую пользу?	Экономия ресурсов, снижение исправлений, доп. ценность	Продолжение, расширение или прекращение

Источник: разработано автором с адаптацией моделей [5; 6].

На втором уровне прирост компетенции определяется как $\Delta F_{ij} = F_{ij}{}^{1} - F_{ij}{}^{0}$; разрыв признаётся закрытым, если повторный уровень не ниже требуемого и подтверждён практическим заданием. Применение оценивается через 1–3 месяца после обучения. Трудовые показатели выбираются до начала программы, причём предпочтение отдаётся тем, на которые работник реально влияет: например, кредитный специалист влияет на длительность обработки заявки и число возвратов на доработку, но не единолично на объём кредитного портфеля. На пятом уровне рассчитываются:

$$E_p = B_p - I_p; \quad K_p = B_p / I_p, \tag{2}$$

где E_p – чистый результат; B_p – подтверждённые недублирующиеся выгоды; K_p – коэффициент отдачи. Экономический и денежный контуры не смешиваются: если подтверждены лишь высвобождённые человеко-часы, результат остаётся ресурсным и не объявляется приростом прибыли, а денежная окупаемость определяется по накопленному денежному потоку.

Предложения представлены для внедрения в АКБ «Octobank» (справка № 04-2399 от 25.08.2026) и АО «Asia Alliance Bank» (справка № 5603-25 от 26.08.2026). Для Octobank в базовом сценарии на 60 работников направление 80% бюджета на подтверждённые разрывы и исключение 15% повторяющихся расходов при исходном бюджете 720,0 млн сумов дают расчётную экономию 108,0 млн сумов. Полные инвестиции составляют 620,8 млн сумов, денежно измеримая выгода – 815,6 млн сумов, чистый результат – 194,8 млн сумов, коэффициент отдачи – 1,31, расчётный срок окупаемости – 9,1 месяца; стоимость достижения целевого уровня одним работником – 18,8 млн сумов (при 33 работниках, закрывших приоритетный разрыв). В Asia Alliance Bank использование внутренних наставников в 45% программ и пересмотр 20% мероприятий, не обеспечивающих применения навыков, дают совокупный эффект рационализации бюджета 127,2 млн сумов. По двум банкам сводные инвестиции оцениваются в 1 241,7 млн сумов, выгода – в 1 631,3 млн сумов, чистый результат – в 389,6 млн сумов. Приведённые значения являются сценарными ориентирами и подлежат проверке на первичных данных банков.

Затраты на профессиональное развитие работников коммерческих банков целесообразно рассматривать не как административные расходы, а как инвестиции в производительные качества человеческого капитала. Предложенный механизм обеспечивает адресность расходов за счёт

привязки финансирования к подтверждённым разрывам, раздельного учёта полной ресурсной стоимости и целевой структуры бюджета. Пятиуровневая система оценки позволяет перейти от учёта образовательной активности к управлению отдачей от инвестиций и принимать обоснованные решения о масштабировании, корректировке или прекращении программ. Для реализации подхода в банках рекомендуется создать межфункциональную комиссию по развитию цифровых компетенций и связать материальное стимулирование не с получением сертификата, а с подтверждённым применением компетенции и улучшением результата труда.

Литература

1. *Acemoglu D., Restrepo P. Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor // Journal of Economic Perspectives. – 2019. – Vol. 33, No. 2. – P. 3–30.*
2. *World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: WEF, 2025.*
3. *Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report 2025. – Tashkent, 2026. – 86 p.*
4. *Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – 3rd ed. – Chicago: The University of Chicago Press, 1993. – 412 p.*
5. *Kirkpatrick D. L., Kirkpatrick J. D. Evaluating Training Programs: The Four Levels. – 3rd ed. – San Francisco: Berrett-Koehler, 2006. – 379 p.*
6. *Phillips J. J., Phillips P. P. Handbook of Training Evaluation and Measurement Methods. – 4th ed. – New York: Routledge, 2016. – 440 p.*
7. *OECD. OECD Skills Outlook 2025: Building the Skills of the 21st Century for All. – Paris: OECD Publishing, 2025.*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОЦЕНКИ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ ЗАЕМЩИКОВ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна
Научный соискатель кафедры
Цифровые финансовые экосистемы
Ташкентский филиал Российского
экономического университета имени Г.В. Плеханова

Практическая значимость перехода к цифровой оценке особенно возрастает в условиях расширения кредитования населения и бизнеса. По данным Центрального банка Республики Узбекистан, в 2024 году банковская система сохранила финансовую устойчивость, однако рост кредитования населения усилил необходимость более точного учёта долговой нагрузки, платёжной дисциплины и устойчивости доходов заёмщиков. В открытых публикациях по отчёту Центрального банка отмечалось, что средняя долговая нагрузка населения в 2024 году достигла 34,0%, а у значительной части заёмщиков долговая нагрузка превышала 50,0% доходов. Эти данные подтверждают необходимость перехода от формального анализа доходов к комплексной оценке денежных потоков, кредитной истории, долговой нагрузки и финансового поведения клиента.

В условиях Узбекистана цифровизация оценки кредитоспособности формируется на основе развития финансовых технологий, дистанционного банковского обслуживания, платёжной инфраструктуры, кредитной информации и открытого банкинга. При этом нормативная база не заменяет банковскую методику, а создаёт среду, в которой коммерческий банк получает более полную, оперативную и проверяемую информацию о заёмщике. В данном контексте Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2025 года № ПП-359 имеет особое значение, поскольку создаёт предпосылки для безопасного и стандартизированного обмена данными между участниками финансового рынка. Однако оценка и практическая интерпретация этих данных остаются задачей самого банка.

В современных условиях кредитоспособность заёмщика следует рассматривать как динамическую цифровую характеристику клиента, отражающую его способность и готовность своевременно обслуживать кредитные обязательства. Она определяется уровнем доходов, долговой нагрузкой, платёжной дисциплиной, транзакционным поведением, качеством кредитной истории, цифровой идентифицируемостью и финансовой прозрачностью. Такой подход позволяет соединить классическую банковскую теорию, национальную научную школу Узбекистана, современные методы риск-менеджмента и практические задачи цифровой трансформации коммерческих банков.

В то же время кредитоспособность нельзя сводить только к вероятности дефолта. Вероятность дефолта показывает математическую оценку риска невыполнения обязательств, тогда как кредитоспособность имеет более широкое экономическое содержание. Она отражает способность клиента формировать доходы, управлять расходами, соблюдать финансовую дисциплину и поддерживать прозрачные отношения с банком. Поэтому цифровая модель должна не только прогнозировать риск невозврата, но и раскрывать экономические причины его возникновения.

Особое значение имеет разграничение заёмщиков по категориям. У физических лиц кредитоспособность в большей степени зависит от стабильности доходов, долговой нагрузки, регулярности обязательных платежей и платёжной дисциплины. У субъектов малого бизнеса важны обороты по счетам, сезонность выручки, налоговая дисциплина, концентрация покупателей и поставщиков, а также устойчивость деловой активности. У корпоративных заёмщиков ключевую роль играют финансовая отчётность, отраслевые риски, инвестиционная программа, структура капитала, качество обеспечения и система внутреннего контроля. Поэтому единая цифровая логика оценки должна дополняться разными наборами индикаторов для различных групп заёмщиков.

Методическая значимость такого подхода заключается в том, что кредитоспособность перестаёт быть одномоментной характеристикой клиента на дату подачи заявки. Она превращается в процессную характеристику, которая может изменяться в зависимости от динамики

доходов, структуры расходов, дисциплины платежей, поведения по действующим обязательствам и качества финансового управления. Для банка это означает необходимость перехода от разового кредитного заключения к системе непрерывного мониторинга риска, когда первоначальная оценка дополняется последующим наблюдением за денежными потоками и признаками ухудшения финансового состояния клиента.

Особое место в цифровой трансформации кредитного анализа занимает открытый банкинг. Его значение состоит не только в технологическом обмене данными между банками и финансовыми организациями, но и в изменении самой логики оценки заёмщика. При наличии согласия клиента банк получает доступ к более широкому кругу информации о его финансовом поведении: операциям по счетам, регулярности поступлений, платежам по обязательствам, данным кредитных бюро и платёжных организаций. В результате кредитоспособность оценивается не как статичное состояние на момент обращения за кредитом, а как динамическое отражение поведения клиента в финансовой системе.

Открытый банкинг особенно важен для тех заёмщиков, по которым традиционная банковская информация недостаточна. Это молодые клиенты, самозанятые лица, индивидуальные предприниматели, малые предприятия, граждане с нерегулярными доходами и заёмщики без полноценной кредитной истории. В классической модели такие клиенты часто воспринимаются как более рискованные не из-за реального финансового поведения, а из-за нехватки формальных данных. Цифровая модель позволяет частично снять это ограничение за счёт анализа денежных потоков, обязательных платежей, остатков на счетах и общей финансовой дисциплины. Поэтому открытый банкинг выполняет не только технологическую, но и социально-экономическую функцию, расширяя доступ добросовестных клиентов к легальному кредитному рынку.

Влияние финансовых технологий на оценку кредитоспособности можно представить, как последовательный процесс: цифровые каналы формируют первичные данные о клиенте; открытый банкинг обеспечивает их защищённый обмен; цифровой скоринг переводит данные в систему риск-оценки; поведенческая и транзакционная аналитика раскрывает реальную платёжную дисциплину; а объяснимость модели и внутренний контроль обеспечивают ответственность банка перед клиентом и регулятором.

Вместе с тем такие данные требуют осторожной методической оценки. Сам по себе высокий объём операций через мобильное приложение ещё не означает высокой кредитоспособности. Он может отражать как устойчивое использование финансовых услуг, так и нестабильное потребительское поведение, частые переводы, зависимость от краткосрочных займов или отсутствие стабильного остатка на счёте. Поэтому банку важно оценивать

не количество операций, а их экономическое содержание: регулярность поступлений, соотношение доходов и обязательных платежей, структуру расходов, долговую нагрузку, наличие просрочек и способность клиента поддерживать положительный денежный поток.

Список использованной литературы

1. Центральный банк Республики Узбекистан. Отчет о финансовой стабильности за 2024 год. — Ташкент: Центральный банк Республики Узбекистан, 2025. — URL: https://cbu.uz/ru/press_center/releases/2489242/

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2025 года № ПП-359 «О мерах по дальнейшему развитию сферы финансовых технологий в Узбекистане». — URL: https://lex.uz/ru/acts/7864260

3. Закон Республики Узбекистан от 4 октября 2011 года № ЗРУ-301 «Об обмене кредитной информацией» (с изменениями и дополнениями). — URL: https://lex.uz/ru/docs/1878085

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года № УП-5992 «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы». — URL: https://president.uz/ru/lists/view/3570

СУНЪИЙ ИДРОК ИНҚИЛОБИ ШАРОИТИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДА ЁШЛАР РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

Холмухамедов Муҳсинжон Муродуллаевич
"Ипак йўли" туризм ва маданий
мерос халқаро университети ректори в.б.

Жаҳон иқтисодиётида юз бераётган рақамли трансформация, автоматизация, сунъий идрок, платформали бандлик, электрон тижорат ва масофавий меҳнат шаклларининг кенг тарқалиши меҳнат бозорининг таркибий тузилишини тубдан ўзгартирмоқда. Ушбу жараёнлар касблар мазмунини, ишчи кучига бўлган талаб тузилмасини, иш берувчиларнинг ходимлар компетенциясига қўядиган талабларини, шунингдек, ёшларнинг таълимдан унумли меҳнат фаолиятига ўтиш механизмини радикал равишда янгиламоқда.

Ёшлар, бир томондан, янги технологияларни тезроқ ўзлаштиради, иш қидиришнинг рақамли каналларидан фаол фойдаланади ва янги бандлик шаклларига мослашиш салоҳиятига эга. Иккинчи томондан эса, айнан ёшлар амалий тажрибанинг етишмаслиги, касбий кўникмаларнинг тўлиқ шаклланмаганлиги, иш берувчиларнинг реал талаблари ҳақида етарли маълумотга эга эмаслиги, меҳнат муносабатларининг беқарорлиги ва норасмий секторга жалб қилиниш хавфи билан кўпроқ тўқнаш келадилар. Бундай шароитда рақамли иқтисодиёт ёшларнинг касбий, тадбиркорлик ва рақамли мослашувчанлигига нисбатан юқори талабларни қўяди.

Халқаро статистика ушбу муаммонинг нақадар ўткир эканлигини тасдиқлайди. Халқаро меҳнат ташкилотининг (ХМТ) маълумотларига кўра, дунёда 15-24 ёшдаги ўнлаб миллион ёшлар ишсиз бўлиб, ёшлар ишсизлигининг глобал даражаси умумий ишсизликдан доимий равишда юқорилигича қолмоқда. Бироқ ишсизлик мураккаб ижтимоий-иқтисодий жараённинг фақат кўринарли

қисмини акс эттиради. Ёшларни таълим, касбий ва иқтисодий ҳаётдан четлаштиришнинг янада кенгроқ индикатори сифатида NEET (Not in Education, Employment, or Training - ишламайдиган, ўқимайдиган ва касб-ҳунарга ўргатилмаётган ёшлар) кўрсаткичи хизмат қилади. 2023 йилда ушбу кўрсаткич глобал миқёсда 20,4 фоизни ташкил этди, бу эса инсон капиталидан фойдаланилмаётганлигининг улкан миқёсини кўрсатади.

Ўзбекистон учун кўриб чиқилаётган муаммо стратегик аҳамиятга эга. Статистика агентлиги маълумотларига кўра, мамлакатимизда 14-30 ёшдаги ёшлар сони қарийб 9,6 миллион кишини (аҳолининг 25 фоизидан ортиғини) ташкил этади. Ўзбекистон демографик дивиденд даврини бошидан кечирмоқда ва ҳар йили меҳнат бозорига юз минглаб мактаб, профессионал таълим ва олий таълим муассасалари битирувчилари кириб келмоқда. Шу боис, самарали ёшлар меҳнат бозорини шакллантириш ва сунъий идрок шароитида уларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади.

Назарий ёндашувларни интеграциялашган ҳолда, тадқиқотчи сифатида 'рақамли меҳнат мослашувчанлиги' (цифровая трудовая адаптивность) тушунчасини илмий муомалага киритиш ва уни ёшлар рақобатбардошлигининг асосий мезони сифатида белгилаш таклиф этилади.

Ёшларнинг рақамли меҳнат мослашувчанлиги — бу ёш ходимнинг рақамли технологияларни ва сунъий идрок воситаларини ўзлаштириши, уларни касбий фаолиятда қўллай олиши, малакасини тез қайта қура олиши, бандликнинг янги шаклларига мослашиши, иш қидиришнинг рақамли каналларидан фойдаланиши ва меҳнатга бўлган талаб тузилмасининг ўзгариши шароитида ўз рақобатбардошлигини сақлаб қолишнинг интеграл қобилиятидир.

Ушбу тушунча оддий 'рақамли саводхонлик'дан кенгроқдир. Рақамли саводхонлик фақатгина рақамли воситалардан фойдалана олишни билдирса, рақамли меҳнат мослашувчанлиги рақамли билимларни барқарор бандликка, даромадга, касбий ўсишга ва меҳнат унумдорлигини оширишга айлантириш қобилиятини ифодалайди.

Сунъий идрок ва автоматлаштиришнинг бандликка таъсири бўйича Д.Ажемоглу ва П.Рестрепонинг технологик ўзгаришлар назариясига мувофиқ, автоматлаштириш иккиёқлама таъсирга эга: у машиналар томонидан бажарилиши мумкин бўлган вазифалардан инсон меҳнатини сиқиб чиқаради, аммо шу билан бирга инсон қиёсий афзалликларни сақлаб қоладиган янги вазифаларни яратади. Ёшлар етарлича тажрибага эга бўлмагани учун рутин вазифалар автоматлаштирилганда биринчи зарбани қабул қиладилар. Аммо айни шу ёшлар янги технологияларни тез ўрганиш орқали янги очилаётган рақамли иш ўринларини тез эгаллайдилар. Шу сабабли “рақамли меҳнат мослашувчанлиги” концепцияси ёшлар учун ҳаётий зарурдир.

Бу жараёнда рақамли компетенциялар тизимини қуйидаги даражаларга ажратиш мақсадга мувофиқ:

1. Базавий рақамли кўникмалар (электрон хизматлар ва онлайн-таълимдан фойдаланиш);

2. Касбий рақамли кўникмалар (соҳага оид дастурлар ва ускуналарни бошқариш);

3. Тадбиркорлик рақамли кўникмалари (электрон тижорат, рақамли маркетинг);

4. Платформали кўникмалар (Gig-платформаларда ишлаш, масофавий буюртмаларни бажариш);

5. Маълумотлар билан ишлаш кўникмалари (Big Data асослари, мижозлар таҳлили);

6. Сунъий идрокка мослашиш кўникмалари (интеллектуал воситалардан фойдаланиш, Prompt-инжиниринг).

Ўзбекистонда ёшлар ишчи кучини шакллантириш демографик, таълим, касбий-малакавий ва минтақавий омилларнинг биргаликдаги таъсири билан белгиланади. 2020 йилдан 2025 йилгача бўлган даврда Ўзбекистоннинг доимий аҳолиси 33,9 миллиондан 37,5 миллионгача (10,7 фоизга) ўсди. Шунга мос равишда меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли ҳам 19,0 миллиондан 21,1 миллионга етди. Ёшлар контингентининг (14-30 ёш) мутлақ сони 9,6 миллиондан юқори даражада барқарор сақланиб турибди. Бу меҳнат бозорига кучли демографик босимни ва шу билан бирга улкан инсон ресурслари салоҳиятини англатади.

Ҳудудий тафовутлар ёшлар бандлигининг муҳим жиҳатидир. 2025 йил маълумотларига кўра, энг кўп ёшлар Самарқанд (1,14 млн), Фарғона (1,04 млн), Қашқадарё (969 минг) ва Андижон (870 минг) вилоятларида истиқомат қилади. Шу билан бирга, олий таълим ва инновацион иш ўринлари кўпинча Тошкент шаҳрида марказлашган бўлиб (барча талабаларнинг 37 фоиздан ортиғи пойтахтда), бу ҳудудлараро меҳнат миграциясини ва 'ақллар кўчишини' кучайтиради. Қишлоқ ва аграр вилоятлардаги ёшлар мавсумийлик, норасмий бандлик ва меҳнат унумдорлигининг пастлиги каби муаммоларга кўпроқ дуч келмоқдалар.

Таълим кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатадики, 2025 йилда 506,1 минг нафар ёшлар 9-синфни, 452,5 минг нафар ёшлар эса 11-синфни тамомлаган. Олий таълим билан қамров даражаси кескин ошди: талабалар сони 2020 йилдаги 571,5 мингдан 2024/2025 ўқув йилида 1 миллион 432 минггача (2,5 баробарга) кўпайди. Бироқ олий таълимнинг миқдорий кенгайиши ўз-ўзидан кадрлар мослиги муаммосини ҳал қилмайди. Агар ёш мутахассисларни тайёрлаш иқтисодиётнинг СИ ва рақамли технологияларга асосланган янги эҳтиёжларидан ортда қолса, 'касбий-малакавий номутаносиблик' (skill mismatch) вужудга келади.

Ушбу дисбаланс ёшлар орасидаги ишсизлик ва норасмий бандлик кўрсаткичларида ўз аксини топади. Гарчи Ўзбекистонда умумий ишсизлик даражаси 2020 йилдаги 10,5 фоиздан 2024 йилда 5,5 фоизга тушган бўлса-да, ёшлар ишсизлиги (16-30 ёш) 11,2 фоиз атрофида (умумий кўрсаткичдан икки баробар юқори) қолмоқда. Шу билан бирга, ёшларни ташвишга солувчи энг катта омиллардан бири – норасмий бандликдир. Расмий маълумотларга кўра, меҳнат бозорида ўзини ўзи банд қилганлар сони 5,5 миллиондан ошди. Бу бир томондан иқтисодий фаолликнинг легаллашуви бўлса, иккинчи томондан уларнинг аксарияти барқарор даромад ва кучли ижтимоий кафолатга эга эмаслигини билдиради.

Сунъий идрок ва рақамли технологиялар тез ўзгариб бораётган даврда, ёшларни ишга жойлаштиришнинг анъанавий 'ўқиш -> меҳнат биржаси -> иш' модели етарлича самара бермайди. Бу жараёнда Ўзбекистон учун ноёб бўлган

“маҳалла-минтақавий тизим” муҳим ташкилий-иқтисодий механизм сифатида хизмат қилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-163, ПҚ-49 ва ПФ-22-сонли Фармон ва Қарорларида маҳалла институтини аҳоли бандлигини таъминлаш ва тадбиркорликни ривожлантиришнинг марказига айлантириш белгиланган. Маҳалладаги ёшлар етакчиси ва 'маҳалла еттилиги' ёшларнинг 'рақамли профили'ни шакллантириши керак. Рақамли профиль – бу ёшларнинг нафақат паспорти ва таълим даражаси, балки уларнинг касбий қизиқишлари, эгаллаган рақамли кўникмалари, тадбиркорлик салоҳияти ва меҳнат хавфларини ўзида акс эттирувчи динамик маълумотлар базасидир.

Ушбу механизм доирасида ёшлар маҳалла даражасида эрта аниқланади (масалан, мактабни битиргандан сўнг ўқишга ёки ишга кирмаганлар). Сўнгра, СИ алгоритмлари ёрдамида уларнинг рақамли профиллари таҳлил қилиниб, учта асосий йўналиш бўйича индивидуал траектория ишлаб чиқилади:

1) Касбга йўналтириш ва ўқитиш (қисқа муддатли IT курслар, хорижий тиллар, касб-ҳунар);

2) Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва микромолиялаштириш;

3) Мавжуд вакансиялар асосида тўғридан-тўғри ишга жойлаштириш ёки 'Биринчи иш жойи' доирасида стажировкага юбориш.

Ёшлар тадбиркорлиги ва стартап лойиҳаларни молиялаштириш (ПҚ-60-сон Қарорига мувофиқ) маҳалла-минтақавий моделнинг ажралмас қисми ҳисобланади. СИ ва IT соҳасидаги ёшлар ташаббусларини 'венчур' молиялаштириш, инкубатор ва акселераторлар фаолиятини ҳудудларда кенгайтириш ёшларни шунчаки 'иш қидирувчи'дан 'иш ўрни яратувчи' тадбиркорлар қатламига айлантиради. Араб Амирликлари, Жанубий Корея ва Туркия тажрибаси шуни кўрсатадики, ёшлар тадбиркорлиги стартап-экотизимлари орқали қўллаб-қувватланганда энг юқори инновацион натижа беради.

Ёшлар бандлиги тизимидаги энг заиф нуқталардан бири – бу 'биринчи иш жойи'ни топишдир. Иш берувчилар асосан тажрибали кадрларни талаб қилади, битирувчилар эса амалиётсиз иш тополмайди. Ушбу муаммони ҳал қилиш ва таълим тизимини бозор талабларига мослаштириш учун Германиянинг 'дуал таълим' тажрибаси Ўзбекистон шароитига рақамли технологиялар орқали мослаштирилиши керак.

Бунда олий таълим ва профессионал таълим муассасалари талабалари учун ўқув жараёнининг ўзида реал ишлаб чиқариш вазифалари (масалан, СИ ёрдамида лойиҳалаш, таҳлил қилиш, дастурлаш) берилиши лозим. Давлат томонидан ёшларни биринчи бор ишга қабул қилган корхоналарга субсидиялар бериш амалиётини кенгайтириш ва рақамли касблар учун бу имтиёзларни кўпайтириш зарур.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, сунъий идрок инқилоби ва рақамли иқтисодиёт шароитида ёшларнинг меҳнат бозоридаги рақобатбардошлиги уларнинг анъанавий дипломига эмас, балки рақамли меҳнат мослашувчанлигига боғлиқдир. Ўзбекистоннинг кучли демографик салоҳиятини инновацион драйверга айлантириш учун таълим, маҳалла институти,

тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва бандлик хизматлари ягона рақамли экотизимга бирлашиши шарт.

Ёшлар бандлигини баҳолашда эндиликда фақатгина яратилган иш ўринлари сони ёки ишсизлик даражасининг пасайиши етарли мезон бўла олмайди. Асосий индикаторлар сифатида яратилган иш ўрнининг сифати, ёш ходимнинг рақамли малакасининг ўсиши, 'биринчи иш жойида 6-12 ой давомида узлуксиз фаолият юритиши ва олаётган даромадининг барқарорлиги хизмат қилиши керак.

Тадқиқот ва таҳлиллар асосида қуйидаги илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Миллий таълим стандартини янгилаш: Мактаб ва профессионал таълим тизимида 'Рақамли меҳнат мослашувчанлиги ва сунъий идрок (СИ) асослари бўйича мажбурий интеграциялашган ўқув курсларини жорий этиш.

2. 'Ёшларнинг рақамли профили' миллий платформаси: Маҳаллаларда ёшларнинг касбий қизиқиши, кўникмалари ва бандлик ҳолатини доимий таҳлил қилувчи Ёшларнинг рақамли профили электрон платформасини тўлиқ ишга тушириш ва уни СИ алгоритмлари (Big Data) ёрдамида автоматик касбга йўналтириш тизимига улаш.

3. Индустриал ва IT инкубаторларни кенгайтириш: Барча ҳудудлардаги ОТМлар ҳузурида талабаларнинг СИ ва рақамли кўникмаларини амалиётда қўллаш ва ўз стартапларини яратиш имконини берувчи IT-парк филиаллари, коворкинг марказлари ва бизнес инкубаторларни ривожлантириш.

4. Иш берувчиларни рағбатлантириш механизми: Меҳнат бозорига илк бор кириб келаётган ёшларни (айниқса, рақамли технологиялар, СИ ва инновацион хизматлар соҳасида) расмий ишга қабул қилган хусусий сектор корхоналари учун солиқ ва ижтимоий тўловлар бўйича имтиёзларни кенгайтириш ҳамда дуал таълимни давлат томонидан субсидиялаш.

5. Маҳалланинг бандликдаги натижадорлиги индексини жорий этиш (ИРМ): Маҳалла ёшлар етакчилари ва бандлик органлари фаолиятини баҳолашда ёшларнинг биринчи иш жойида сақланиб қолиш даражаси, уларнинг даромадлари ўсиши ва тадбиркорлик лойиҳаларининг ҳаётчанлиги каби сифат кўрсаткичларига асосланган баҳолаш тизимига ўтиш.

6. Ёшлар учун СИ таълими ва малака ошириш фондлари: Малакаси эскираётган ёки автоматлаштириш натижасида ишини йўқотиш хавфи остида бўлган ёшларни СИ билан ишлашга (prompt engineering, маълумотлар таҳлили) қайта тайёрлаш учун махсус грант дастурларини йўлга қўйиш.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 14 февралдаги 'Ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш ва уларнинг бизнес-лойиҳаларини молиялаштириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида'ги ПҚ-60-сон Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 10 сентябрдаги 'Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида'ги ПФ-163-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 февралдаги "Ҳудудларни ривожлантириш, аҳоли даромадларини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича янги ёндашувларни жорий этиш тўғрисида"ги ПҚ-49-сон Қарори.

4. Абдурахманов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. – Тошкент, 2020.

5. Холмухамедов М.М. Рақамли иқтисодиёт шароитида ёшлар меҳнат бозорини тартибга солишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. – Самарқанд: 2026.

6. Зокирова Н.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш: рақамли трансформация ва инновациялар. – Тошкент, 2023.

7. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Youth 2023.

8. World Economic Forum (WEF). The Future of Jobs Report 2025.

9. World Bank. Youth Employment in Uzbekistan: Challenges and Opportunities. – Washington, 2024.

10. Acemoglu, D., Restrepo, P. The Wrong Kind of AI? Artificial Intelligence and the Future of Labour Demand. Cambridge Journal of Regions, Economy and Society, 2020.

ТОШКЕНТ ХАЛҚАРО МОЛИЯ МАРКАЗИ ШАКЛЛАНИШИ ШАРОИТИДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ТОМОНИДАН УЗОҚ МУДДАТЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИ ЖАЛБ ЭТИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Сулаймонов Акром Исамиддинович
Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети Тошкент филиали

Ўзбекистон иқтисодиётини ўрта муддатли ривожлантириш стратегияси, жумладан «Ўзбекистон – 2030» стратегияси йирик инфратузилма, энергетика, саноат ва уй-жой лойиҳаларини амалга ошириш учун барқарор ва узоқ муддатли молиявий ресурсларга бўлган эҳтиёжни сезиларли даражада оширмоқда. Мамлакат молия тизимида тижорат банклари ушбу эҳтиёжни қондиришнинг асосий институти бўлиб қолмоқда. Бироқ банклар ресурс базасининг катта қисми қисқа муддатли депозитлар ҳисобидан шаклланиши, кредит портфели эса узоқ муддатли лойиҳаларга йўналтирилиши активлар ва мажбуриятлар муддатлари ўртасида номутаносибликни ҳамда ликвидлик хавфини кучайтиради.

Назарий жиҳатдан бу муаммо молиявий воситачилик назариясида чуқур ўрганилган. Д.Даймонд ва Р.Ражаннинг тадқиқотлари банкларнинг ликвидлик яратиш функцияси иқтисодий ўсиш учун зарур бўлиши билан бирга, молиявий нозикликнинг манбаи ҳам эканлигини кўрсатади [6]. А.Демиргюч-Кунт ва В.Максимовичнинг эмпирик таҳлиллари эса қарз муддатининг узайиши молия бозорлари ривожланганлиги ва институционал муҳит сифати билан узвий боғлиқ эканлигини тасдиқлайди [7]. Демак, узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этиш фақат банкнинг ички қарори эмас, балки ҳуқуқий кафолатлар, инвесторлар ҳимояси ва бозор инфратузилмасининг ривожига боғлиқ бўлган тизимли жараёндир.

Бу борада Тошкент халқаро молия маркази (ТХММ)нинг шакллантирилиши муҳим институционал ўзгариш ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 30 мартдаги ПФ-48-сонли Фармони билан ТХММ ташкил этилди, 2026 йил июль ойида эса «Тошкент халқаро молия маркази тўғрисида»ги Конституциявий қонун қабул қилинди [1; 2]. Ушбу ҳужжатларга кўра марказда Англия ва Уэльснинг умумий ҳуқуқига асосланган

махсус ҳуқуқий режим жорий этилади, Тошкент халқаро тижорат суди ва Молиявий хизматлар органи фаолият юритади, марказ иштирокчилари учун солиқ ва божхона имтиёзлари 2076 йил 1 январгача белгиланган.

Хорижий тажриба (Дубай ва Остона халқаро молия марказлари) шуни кўрсатадики, халқаро молия марказлари банклар учун узоқ муддатли ресурсларни жалб этишда ҳуқуқий прогнозлилик, ихтисослашган суд ва тартибга солувчи орган, шунингдек, халқаро инвесторлар билан ишлаш инфратузилмасини шакллантириш орқали хизмат қилади. Аммо бу имкониятлар миллий банк тизимининг тайёргарлиги билан уйғун бўлгандагина амалий натижа беради.

Шу билан бирга, ТХММнинг мавжудлиги ўз-ўзидан банклар учун узоқ муддатли ресурсларнинг кириб келишини таъминламайди. Банклар бу имкониятдан фойдаланиши учун молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги, капитал ва ликвидлик етарлилиги, активлар сифати, халқаро рейтинг ва корпоратив бошқарув бўйича етарли тайёргарликка эга бўлиши лозим. Айни пайтда ТХММ орқали жалб этилган хорижий валютадаги ресурслар валюта ва фоиз хавфларини оширади ҳамда миллий тартибга солиш режими билан ТХММ режими ўртасидаги мувофиқликни талаб қилади. Мазкур муаммолар тадқиқотнинг мақсадини, яъни ТХММ шаклланиши шароитида тижорат банклари томонидан узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этиш механизмларини илмий асослаш ва такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқишни белгилайди.

Тадқиқотда узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этиш механизми уч босқичли ёндашув асосида кўриб чиқилади. Биринчи босқичда банк ресурсларининг динамикаси ва таркиби (манбалар, муддатлар, валюта таркиби) таҳлил қилинади. Иккинчи босқичда тижорат банкининг узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этишга тайёрлигини баҳолашнинг интеграл методикаси таклиф этилади. У капитал етарлилиги, ликвидлик ва барқарор молиялаштириш кўрсаткичлари (хусусан, Базель III стандартидаги соф барқарор молиялаштириш коэффициенти – NSFR) [4], активлар сифати, ресурс таркибининг диверсификацияси, ҳисоботнинг халқаро стандартларга мослиги ҳамда корпоратив бошқарув сифати блокларини ўз ичига олади. Учинчи босқичда узоқ муддатли ресурслар улушининг банкларнинг молиявий барқарорлиги (капитал етарлилиги, муаммоли кредитлар улуши, рентабеллик) ва кредит фаоллигига таъсири эконометрик усуллар ёрдамида баҳоланади. Бу ёндашув ликвидлик хавфини бошқариш ва кредит таклифи ўртасидаги боғлиқликни ўрганган хорижий тадқиқотларга таянади [8].

Тайёрлик индекси банкларни учта гуруҳга ажратиш имконини беради: ТХММ платформасидан дарҳол фойдалана оладиган банклар; қўшимча ислоҳотлардан сўнг фойдалана оладиган банклар; аввал ресурс таркибини ва хавфларни бошқариш тизимини такомиллаштириши лозим бўлган банклар. Бундай табақалаштирилган ёндашув барча банкларга бир хил талабларни қўллашдан кўра аниқроқ йўналтирилган чора-тадбирларни танлашга ёрдам беради.

Тадқиқот асосида тижорат банкларининг узоқ муддатли молиялаштиришни жалб этиш механизмларини такомиллаштиришнинг қуйидаги йўналишлари таклиф этилади:

1. Ресурс таркибини оптималлаштириш: активлар ва мажбуриятлар муддатларини мувофиқлаштириш, узоқ муддатли омонат маҳсулотлари ва жамғарма сертификатларини ривожлантириш, барқарор молиялаштириш кўрсаткичини банкларнинг ички лимитлар тизимига киритиш.

2. ТХММ орқали қарз капитали бозоридан фойдаланиш: банк облигациялари, субординар қарзлар ҳамда яшил ва ижтимоий облигацияларни халқаро инвесторлар учун мақбул ҳуқуқий режимда жойлаштириш.

3. Халқаро молия институтлари ва хорижий банклар билан узоқ муддатли кредит линиялари ва синдикатланган қарзларни жалб этиш, бунда ТХММ иштирокчиларидан воситачилик тузилмаси сифатида фойдаланиш.

4. Валюта ва фоиз хавфларини бошқариш: хеджлаш воситаларини ривожлантириш ҳамда миллий валютадаги узоқ муддатли ресурсларни жалб этишни рағбатлантириш.

5. Секьюритизация ва кредит портфелларини қайта молиялаштириш: ипотека ва инфратузилма кредитлари бўйича активлар билан таъминланган қимматли қоғозларни чиқариш орқали банк балансининг ликвидлигини ошириш.

6. Тартибга солиш мувофиқлигини таъминлаш: Марказий банк назорати билан ТХММ режими ўртасида ваколатлар, ҳисобот ва хавфларни баҳолаш бўйича аниқ чегараларни белгилаш, тайёрлик индекси асосида банкларни босқичма-босқич ТХММ платформасига жалб этиш.

Таклиф этилган механизмларнинг самарадорлиги сценарийли прогнозлаш орқали баҳоланади. Базавий, оптимистик ва пессимистик сценарийларда узоқ муддатли ресурслар ҳажми, ресурс қиймати, кредит фаоллиги ва банк барқарорлиги кўрсаткичлари ўзгаришини солиштириш механизмларни амалиётга жорий этишнинг мақбул суръатини ва потенциал хавфларни олдиндан аниқлаш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганда, ТХММ тижорат банклари учун узоқ муддатли ресурсларни жалб этишда янги имкониятлар очади, аммо бу имкониятлардан самарали фойдаланиш банкларнинг институционал тайёргарлиги, ресурс таркибининг сифати ва хавфларни бошқариш тизимининг ривожига боғлиқ. Таклиф этилган илмий-методик ёндашув ва механизмлар банк тизимининг молиявий барқарорлигини сақлаган ҳолда реал сектор инвестицияларини узоқ муддатли молиялаштириш салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 30 мартдаги «Тошкент халқаро молия марказини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-48-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 13 июлдаги «Тошкент халқаро молия маркази тўғрисида»ги ЎРҚ-1158-сон Конституциявий қонуни.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «“Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони.

4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. – Basel: Bank for International Settlements, 2014.

5. Diamond D.W., Dybvig P.H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. Journal of Political Economy, 1983, Vol. 91, No. 3.

6. Diamond D.W., Rajan R.G. Liquidity Risk, Liquidity Creation, and Financial Fragility: A Theory of Banking. Journal of Political Economy, 2001, Vol. 109, No. 2.

7. Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Institutions, Financial Markets, and Firm Debt Maturity. Journal of Financial Economics, 1999, Vol. 54, No. 3.

8. Cornett M.M., McNutt J.J., Strahan P.E., Tehranian H. Liquidity Risk Management and Credit Supply in the Financial Crisis. Journal of Financial Economics, 2011, Vol. 101, No. 2.

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY KLASTER MODELI

Tuxliyev Baxtiyor Maxmaziyayevich
Buxoro davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Samarqand viloyati xizmatlar hajmi bo‘yicha respublikada Toshkent shahridan keyingi o‘rinni egallaydi: 2026-yilning yanvar–sentabr oylarida hududda 73,8 trln so‘mlik bozor xizmatlari ko‘rsatildi [1]. Viloyatning tarixiy-turistik markaz sifatidagi mavqei, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlariga talabning ortishi hamda savdo infratuzilmasining kengayishi sohani hududiy iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirdi. Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qarorlar [2; 3] ham hududiy imkoniyatlardan to‘liq foydalanish vazifasini qo‘yadi.

Shu bilan birga, o‘sish hudud bo‘ylab notekis taqsimlangan. Kichik va o‘rta xizmat ko‘rsatish korxonalarining moliyaviy, texnologik va kadrlar resurslari odatda cheklangan bo‘lib, ular raqamli platforma, malakali kadr va zamonaviy infratuzilmaga yakka holda ega bo‘lishi qiyin; turizm, transport, savdo va ovqatlanish korxonalari bir-biriga bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatsa-da, ko‘pincha alohida-alohida ishlaydi. Natijada funksiyalar takrorlanadi, resurslar to‘liq ishlatilmaydi.

Bu muammoni hal etish yo‘llaridan biri – korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyaga asoslangan hududiy klasterdir. Maqolaning maqsadi – Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining holatini tahlil qilish asosida korxonalarni rivojlantirishning hududiy klaster modelini, uni shakllantirish bosqichlari va tamoyillarini asoslashdan iborat.

Xizmatlar sohasining hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni. 2021–2025-yillarda Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 61 599,3 mlrd so‘mdan 121 489,5 mlrd so‘mga, ya’ni 1,97 baravar oshdi. Xizmatlar sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan tezroq o‘sdi: uning yalpi qo‘shilgan qiymati 2,4 baravar ko‘payib, YaHMdagi ulushi 38,4 foizdan 46,9 foizga yetdi (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsulotining tarkibi, mlrd so‘m

Ko‘rsatkich	2021-yil	2023-yil	2025-yil	2025-yil 2021-yilga nisbatan
YaHM, jami	61 599,3	86 313,3	121 489,5	197,2 %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	22 809,3	28 608,1	34 013,7	149,1 %
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	14 011,8	19 002,7	28 481,8	2,0 marta
Xizmatlar	23 669,0	37 313,3	57 031,6	2,4 marta
Xizmatlarning YaHMdagi ulushi, %	38,4	43,2	46,9	+8,5 f.p.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi shu davrda 27 457,5 mlrd so‘mdan 78 163,0 mlrd so‘mga, ya’ni 2,8 baravar ko‘paydi. Tarkibda eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlariga to‘g‘ri keladi: ularning hajmi 3,9 baravar o‘sib, jami xizmatlarning uchdan bir qismini tashkil etdi (2-jadval). Transport va savdo xizmatlari bilan birga bu uch yo‘nalish jami hajmning 68,2 foizini beradi. Demak, viloyatda xizmatlar sohasi “turizm – savdo – mehmondo‘stlik” modeli asosida chuqurlashmoqda.


2-jadval

Samarqand viloyatida asosiy turlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd so‘m

Xizmat turi	2021-yil	2025-yil	O‘sish, marta	2025-yildagi ulushi, %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 700,1	25 977,9	3,9	33,2
Transport xizmatlari	5 464,7	14 558,4	2,7	18,6
Savdo xizmatlari	6 029,7	12 757,0	2,1	16,3
Moliyaviy xizmatlar	2 614,3	7 019,0	2,7	9,0
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	1 354,6	3 114,8	2,3	4,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	922,2	2 764,3	3,0	3,5
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	501,6	1 491,8	3,0	1,9
Boshqa xizmat turlari	3 870,3	10 479,8	2,7	13,4
Xizmatlar – jami	**27 457,5**	**78 163,0**	**2,8**	**100,0**

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Hududiy notekislik. Sohaning o‘sishi viloyat bo‘ylab bir tekis emas. 2025-yilda jami xizmatlar hajmining 28,6 foizi (22 391,9 mlrd so‘m) bitta Samarqand shahriga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi viloyat bo‘yicha o‘rtacha 18,0 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Samarqand shahrida 37,3 mln so‘m, Urgut tumanida esa 5,4 mln so‘m bo‘ldi – farq 6,9 baravar. Barcha 14 ta tumanda va Kattaqo‘rg‘on shahrida ko‘rsatkich viloyat o‘rtachasidan past (1-rasm).




1-rasm. Samarqand viloyati hududlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi, 2025-yil

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bunday sharoitda tumanlardagi korxonalarni yirik markazdagi resurs, bilim va raqamli infratuzilma bilan bog‘laydigan tashkiliy shakl zarur. Hududiy klaster aynan shu vazifani bajaradi: u korxonalarni faqat hududiy jihatdan birlashtirmaydi, balki ularning strategik boshqaruv funksiyalarini muvofiqlashtiradi, resurs va axborot almashinuvini tezlashtiradi.

Klasterni shakllantirish bosqichlari. Klasterni shakllantirish o‘zaro bog‘langan uch bosqichda amalga oshiriladi (2-rasm). Birinchi bosqich klasterning chegaralari va ishtirokchilar tarkibini asoslaydi, ikkinchisi ularning alohida faoliyatini yagona strategik maqsadlar atrofida birlashtiradi, uchinchisi xizmatlar oqimining uzluksizligini va natijadorlik nazoratini ta’minlaydi.

Xizmat ko‘rsatish klasterining samarasi ishtirokchilarning geografik yaqinligidan ko‘ra ular o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikka ko‘proq bog‘liq. Shu sababli ishtirokchilarni tanlashda ularning raqobatbardoshlik salohiyati, hududning resurs va infratuzilmaviy ustunliklari, korxonalar o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarning intensivligi, ilmiy-ta’lim, moliyaviy va texnologik institutlarning integratsiya darajasi hamda xizmatlarga talab va taklifning muvofiqligi hisobga olinadi.



2-rasm. Tarkibiy-funksional yondashuv asosida hududiy klasterni shakllantirish bosqichlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Klaster quyidagi tamoyillarga tayanadi:

– strategik manfaatlar uyg‘unligi;
– funksional ixtisoslashuv va o‘zaro to‘ldiruvchanlik;
– resurslardan birgalikda foydalanish;
– xizmatlar oqimining uzluksizligi va muvofiqlashtirilganligi;
– innovatsion-raqamli integratsiya;
– boshqaruvning moslashuvchanligi;
– natijadorlikning o‘zaro manfaatdorlik asosida ta’minlanishi.

Hududiy klaster modeli. Modelning markazida strategik muvofiqlashtirish markazi turadi; u orqali besh guruh ishtirokchi yagona boshqaruv konturiga birlashadi Xizmat ko‘rsatish korxonalari tizimning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, qolgan ishtirokchilar ularning faoliyati uchun institutsional, kadrlar, moliyaviy va texnologik sharoit yaratadi.

Ishtirokchilarning klasterdagi funksiyalari 3-jadvalda keltirilgan. Model ishlashi uchun har bir ishtirokchi klasterga o‘z resursini olib kiradi va evaziga boshqalarning resursidan foydalanadi: korxona ta’lim muassasasidan malakali kadr, moliya institutidan loyiha mablag‘i, raqamli platformadan mijozlar oqimi va ma’lumot oladi. Modelning markaziy funksional elementi – xizmatlar oqimini strategik muvofiqlashtirish mexanizmi. U xizmatlarni shakllantirish, taqsimlash, realizatsiya qilish va iste’molchiga yetkazish jarayonlarining o‘zaro mutanosibligini ta’minlaydi. Samarqand sharoitida buni turistga ko‘rsatiladigan xizmatlar zanjirida ko‘rish mumkin: transport, mehmonxona, ovqatlanish va savdo korxonalari yagona raqamli platforma orqali bog‘lansa, ularning har biri alohida mijoz izlash o‘rniga umumiy oqimdan foydalanadi.

3-jadval

Hududiy klaster ishtirokchilari va ularning funksiyalari

Ishtirokchi	Klasterdagi funksiyasi
Xizmat ko‘rsatish korxonalari	Xizmatlarni yaratish va bozor talabiga muvofiq iste’molchiga yetkazish; klasterning markaziy bo‘g‘ini
Mahalliy boshqaruv organlari va tarmoq uyushmalari	Klaster rivojlanishining institutsional va strategik shart-sharoitini shakllantirish, ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish
Ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari	Ilmiy-innovatsion ishlanmalar va malakali kadrlar bilan ta’minlash
Moliyaviy-investitsion institutlar	Strategik loyihalarning resurs bazasini mustahkamlash
Raqamli-texnologik infratuzilma (raqamli platformalar)	Ishtirokchilar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining texnologik integratsiyasini ta’minlash
Strategik muvofiqlashtirish markazi	Vakolat va mas’uliyatni taqsimlash; xizmatlar, axborot, resurs, moliyaviy va innovatsion oqimlarni o‘zaro muvofiqlashtirish; natijadorlikni monitoring qilish

Manba: muallif ishlanmasi.

Natijada klaster doirasida “resurslarni integratsiyalash – funksiyalarni muvofiqlashtirish – xizmatlar oqimini boshqarish – bozor bilan o‘zaro aloqani ta’minlash – natijadorlikni monitoring qilish” ko‘rinishidagi uzluksiz boshqaruv konturi shakllanadi. Uning uchta asosiy samarasi kutiladi: funksiyalarning takrorlanishi kamayadi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va bozor talabiga mos strategik qarorlar tezroq qabul qilinadi.

Taklif etilayotgan modelning mavjud klasterlash yondashuvlaridan farqi shundaki, unda korxonalarni strategik boshqarishning tarkibiy-funksional bloklari klaster ishtirokchilarining funksiyalari bilan bog‘lanadi, kooperatsion hamkorlik yagona muvofiqlashtirish mexanizmi asosida tashkil etiladi, xizmat ko‘rsatishning integratsion, kooperatsion va raqamli shakllari esa bitta boshqaruv konturiga birlashtiriladi.

Birinchidan, Samarqand viloyatida xizmatlar sohasi 2021–2025-yillarda iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylandi: uning YaHMdagi ulushi 38,4 foizdan 46,9 foizga oshdi, xizmatlar hajmi 2,8 baravar ko‘paydi. O‘sishning asosiy manbai yashash va ovqatlanish, transport hamda savdo xizmatlari bo‘ldi.

Ikkinchidan, sohaning rivojlanishi hududiy jihatdan notekis: xizmatlar hajmining 28,6 foizi Samarqand shahriga to‘g‘ri keladi, aholi jon boshiga xizmatlar bo‘yicha eng yuqori va eng past hudud o‘rtasidagi farq 6,9 baravarni tashkil etadi. Bu tumanlardagi korxonalarni markazdagi resurs va infratuzilma bilan bog‘lovchi kooperatsiya mexanizmini talab qiladi.

Uchinchidan, hududiy klasterni uch bosqichda – strategik salohiyatni baholash, strategik hamkorlikni tashkil etish va xizmatlar oqimini muvofiqlashtirish orqali – shakllantirish taklif etiladi. Klaster yetti tamoyilga tayanadi va ishtirokchilarni geografik yaqinlik emas, balki funksional bog‘liqlik asosida birlashtiradi.

To‘rtinchidan, ishlab chiqilgan model xizmat ko‘rsatish korxonalari, mahalliy boshqaruv organlari va tarmoq uyushmalari, ta’lim-ilmiy muassasalar, moliya institutlari hamda raqamli platformalarni strategik muvofiqlashtirish markazi orqali yagona boshqaruv konturiga birlashtiradi. Modelni joriy etishni viloyatda xizmatlar

hajmi eng katta bo‘lgan yashash, ovqatlanish, transport va savdo yo‘nalishlaridan boshlash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2026-yil yanvar–sentabr: press-reliz. – URL: https://stat.uz*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz*
4. *Портер М.Е. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 716 с.*
5. *Булатов А.Н. Методология стратегического управления промышленной кооперацией: дисс. ... д-ра экон. наук. – Казань, 2011.*
6. *Игнатьев В.И. Формирование механизма стратегического управления социально-экономическим развитием отраслевых составляющих сферы услуг: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб., 2009.*
7. *Шлёнскова Е.С. Формирование системы стратегического управления социально-экономическим развитием отраслевых составляющих сферы услуг: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб., 2011.*
8. *Горохова П.А. Стратегическое управление функционированием и развитием сферы услуг в условиях цифровой экономики: дисс. ... канд. экон. наук. – СПб., 2022.*
9. *Управление и организация в сфере услуг: теория и практика / К. Хаксевер, Б. Рендер, Р. Рассел, Р. Мердик; под науч. ред. В.В. Кулибановой. – 2-е междунар. изд. – СПб.: Питер, 2002. – 751 с.*
10. *Pardayev M.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti va boshqaruvi. – Samarqand: SamISI nashriyoti, 2020. – 312 b.*
11. *Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti): o‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.*
12. *Urakov J.R. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Samarqand viloyati misolida): iqt. fan. nomz. ... diss. – Samarqand: SamISI, 2011.*
13. *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari (2021–2025-yillar).*

O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 22-oktyabr

Mas’ul muharrir:
i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Kompyuterda sahifalovchi:
M.I. Asqarova